

ALISHER NAVOIY

---

ALISHER NAVOIY

Toshkent – 2012

ALISHER NAVOIY	111
ALISHER NAVOIY	111
ALISHER NAVOIY	111


84(55)1-938. qad.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TIL VA ADABIYOT INSTITUTI

# ALISHER NAVOIY

*Ulo'la asarlar to'plami*

O'n jildlik



HD 41218/6  
4

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi  
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2012

2013/62	<b>Alisher Navoiy</b>
A/4890	.. .lagi
	<b>O'zbekiston MK</b>

---

# ALISHER NAVOIY

---


*Ulo'la asarlar to'plami*



Oltinchi jild

**Xamsa**


Hayrat ul-abror  
Farhod va Shirin







Hayrat  
ul-abror



Bismillohir-rahmonir rahim,  
Rishtag'a chekti necha durri yatim!

Har dur anga javhari jondin fuzun,  
Qiymat aro ikki jahondin fuzun.

Rishtasi xud iqdi jahon rishtasi.  
Dema jahon rishtasi, jon rishtasi.

Ganji baqo zikriga ulkim yetib,  
Bu dur ila rishtani tasbih etib.

Rishta emas, turfa kamandedur ul,  
Davlatu din saydig'a bandedur ul.

Qaysi kamand, o'lmadi hargiz kamand,  
Ravzai firdavs g'azolig'a band.

Bal arig'edurki oqar jon suyi,  
Yo'q, demakim jon suyi, hayvon suyi.

Ul suv yaqosida alifdin shajar,  
Shamrasidin ul shajar uzra samar.

Yo'qki, o'shul rishtai gavhar baho,  
Ganji ilohiyg'a erur ajdaho.

Yoki bular barchasi ta'vil erur,  
Arshi muallo aro qandil erur.

Balki bu qandil aro aylab ayon,  
Bog'i ahad fuxtasi oshyon.

Yo'qki, erur maxzani vahdatqa yo'l,  
Yo'lu ne yo'l, asru yaqin yo'ldur ul.

Lekin erur ham qatig'u ham maxuf,  
O'ylaki ojizdurur ondin vuquf.

Qilg'uchi bu hodiya qat'ig'a mayl,  
Ahli qabulu rad erur ikki xayl.

Azmig'a chun qo'ydi qadam ahli rad,  
Rahbari tavfiqdin o'lmay madad.

«Bo»si ibodin urar avval salo,  
«Yo»ki degay lo ne bo'lur juz balo.

«Sin»i nahang arqosining arrasi.  
Yuz kemanding ofati har parrasi.

«Sin» bila «mim»i yo'lida ko'r humum.  
Yo'li humum aningu yeli samum.

«Mim»i yiloni damidin o't sochib,  
Yo'l boshida yotibon og'zin ochib.

Uch «alif», uch «lom»i solib rustaxez,  
Olti jihatdin chekibon tig'i tez.

«He»lar uchi qatl ishida tez o'lub,  
Rumh uchidek har biri xunrez o'lub.

«Re»larikim zohir etib iqtiron,  
Fosh o'lub ondin zarari begaron.

«He»si halok etgali qullobvash,  
Mahlaka qalbi aro qullobkash.

«Nun» chekib el sahmi uchun yosini,  
Balki baqo zar'i uchun dosini

«Yo»si muxolif sori harfi nido,  
Ya'ni, et ollimda hayoting fido.

Nuqtalari ul yo'l aro toshlar,  
Toshlar o'lmayki, kesuk boshlar.

«Mim»lar anda girih uzra girih,  
Jazmlar anda zirih uzra zirih.

Har sori «tashdid» taaddud bila,  
Zohir o‘lub elga tashaddud bila.

Har negakim noziri maqsud o‘lub,  
Ahli nazar ko‘ziga mardud o‘lub.

Lek qachon qat‘ig‘a ahli qabul,  
Azm qilib aylasa ul yon nuzul,

«Bo»si burun «bo»i bashorat durur  
Shamrasi kirmakka ishorat durur.

«Sin»i salomat yo‘lining zinasi,  
Balki saodat yuzi oinasi.

«Mim»i ochib manzili maqsadg‘a yo‘l,  
Balki bu manzil aro sarchashma ul.

Har «alif»ikim yeridur jon aro,  
Sham’ o‘lub ul toza shabiston aro.

«Lom»lari borcha livoyi zafar,  
Berib anga jilva havoyi zafar.

«Ho»si huviyatni qilib jilvagah,  
«Lom»i bila qoyili «Al-mulku lah».

Ravzai jannatg‘a eshik «ro»lari,  
G‘unchai vahdatg‘a beshik «ho»lari.

«Mim»ki «nun»din qilibon intiho,  
Jong‘a qo‘yub minnati bemuntaho.

«Yo» bila «mim»i qilib izhori yam  
Aylagali g‘arqai bahri karam.

Nuqtau tashdid anga chaqmoqu tosh,  
Qilmoq uchun partav «alif» sham‘i fosh.

Jazmi solib tavq ko‘ngul bo‘ynig‘a,  
Nuqta baqo durrini jon qo‘ynig‘a.



Ham harakotidin ionat yetib,  
Yetgali maqsudqa tahrir etib.

Ham sakanoti qilib ifsho sukun,  
Anda tavaqqufqa bo'lub rahnamun.

Soyiri chun po'yag'a gomin ochib,  
Gardidin atrofig'a jonlar sochib.

Bosh-ayog'i boshtin-ayoq jon bo'lub,  
Boshdin-ayog' jon neki, jonon bo'lub.

Azmida ul qavmg'a dog' uzra dog',  
Qat'ida bu xaylg'a bog' uzra bog'.

Hikmati ul qahr aro, bu lutf aro,  
Ushbuki to'lg'ay ikki mehmonsaro.

To agar o't solsa jaloliyati,  
Lutf ila urg'ay suv jamoliyati.

Istabon, ey xasta Navoiy, navo,  
Bo'yla safarg'a qilur ersang havo.

Yo'l yomonu yaxshisidin yema g'am,  
Bismilloh, degilu qo'yg'il qadam.

«Xayru sanoin limufizil-karam»,  
Kim karamidin erur el muhtaram.

## II

*Ul xoliq hamdikim, maxluqot tasvirig'a aning qalami sun'i chehrakushodurur  
va masnuot tahririg'a aning xomai hikmati jamolafzo va har ko'ngul  
g'unchasig'a bir husn guli sori aning silsilai shavqidin vobastaliq  
va har ko'z axtarig'a bir qosh hiloli sori aning rishtai  
muhabbatidin payvastaliq'.*

Hamd angakim vojibi bizzot erur,  
Homid aning zotig'a zarrot erur.

Vahdati zotig'a quyoshdek tonuq,  
Zarradin afzunu quyoshdin yoruq.

Jism sipehrini masir etguchi,  
Ruh quyoshini munir etguchi.

Gulshani firuzani chekkan baland,  
Gullaridin mehrni guldastaband.

Har sori anjum gulikim ochilib,  
Ko'kka bu guldastasidin sochilib.

Mintaqa birla falaki lojuvard,  
Sun'i bisotida iki taxta nard.

Solmoq uchun tosi sipehr ichra shayn.  
Oyu quyoshdin qilibon ka'batayn.

Taxta kelib charxi munaqqash anga,  
Burj hisobidin iki shash anga.

Tun kun ila muhra namudorliq,  
Anjum ila taxta sadafkorliq.

Dahrda har naqshi savobu qusur,  
Borchasi bu narddin aylab zuhur.

Ko'rguzubon naqshi xasisu sharif,  
Misli qazovu qadar ikki harif.

Chun ochibon subh uzori gulin,  
Zulf etib ul yuz uza tun sunbulin.

Ul yuz o'lub dahrg'a kofurbez,  
Ustida ul zulf bo'lub mushkrez.

Oqu qaro uzra berib ishtihor,  
Mushk ila kofurini laylu nahor.

Chun yasabon hujrai tori dimog',  
Aqldin ul hujrada yoqib charog'.

Rishta anga tori inoyat bo'lub,  
Shu'la anga nuri hidoyat bo'lub.

Andin olib nur ko'ngul maskani,  
Lek o'churub ishq yelidin ani.

Ishq yelin yetkurubon tundu tez,  
Aql alochug'in etib rez-rez.

Ham uchurib zuhdu vara' xirmanin,  
Ham sovurub sabru sukun maskanin.

Bog'i xirad naxlini xoshok etib,  
Bahri balo mavjini ko'lok etib.

Dardu balo o'tini tez aylabon,  
Tez nekim, charxsitez aylabon.

Vasl sahobin chu qilib qatrabor,  
Aylabon ul o'tg'a sukun oshkor.

Husn quyoshin qilib ofoqso'z,  
Partavini ayladi olamfuro'z.

Dema quyosh, ravzai rizvon degil,  
Ravza ichinda guli xandon degil.

Jilvasi jon gulshani oroyishi,  
Ko'rmagi mahzun ko'ngul osoyishi.

Zotig'a juz lufu safo bermayin,  
Lekin anga bo'yi vafu bermayin.

Ul chu vafu rangidin ozod o'lub,  
Ahli vafu jonig'a bedod o'lub.

Kimga vafodin beribon choshni,  
Bir nafas oimay ko'zidin yoshni.

Kimki ishi g'ayri vafu qilmayin,  
Bahra anga g'ayri jafu qilmayin.

Ishqni jon rishtasig'a band etib,  
Vasl ko'ngul torig'a payvand etib.

Vodiyi hajr ichra solib ko'p xatar,  
Xoru giyohini qilib nishtar,

Lolasini shu'lai oh aylabon,  
Sabzasini zahrgiyoh aylabon.

Lola bila sabzasi bu nav' bum,  
Yeli emas mumkin aning juz samum.

Ul yel emasdur bu biyobon o'ti,  
Bil bu biyobon o'ti – hijron o'ti.

Kimniki bu shu'la bila kuydurub,  
Ko'kka hamul el kulini sovurub.

Kimni kul aylab bu samumi balo,  
Dardu balo ko'zgusi topib jilo.

Chun solib ul ko'zgu aro tobu nur,  
Ishq yuziga berib andin zuhur.

Doirani juz bu sifat tuzmayin,  
Silsilani bir-biridin uzmayin.

Bir-biriga bo'yla tuzub marhala.  
Silsilag'a bog'lanibon silsila.

Ayladi sokin kurai xokni,  
Soyir etib davrai aflokni.

Toki muhit o'rnig'a aflok erur,  
Markazi oning kurai xok erur.

Lutfi bila borchag'a mavjudluq,  
Qahridin-o'q bo'lg'usi nobudluq.

## AVVALG'I MUNOJOT

*Haqning avvaliyatidakim, xirad anga soniy bilmas, balki avval  
va oxir eli sano desalar anga loyiqli soniy topilmas va mumkinot  
gulshanidagi gullarning adam shabistonidin vujud gulistonig'a  
kelmagining sifati va koinot bozoridagi durlarning xafo sahobidin  
zuhur daryosiga tushganining ma'rifati'.*

Ey sanga mabda'da abaddek azal,  
Zoti qadimning abadiy lam'yazal.

Ne bo'lub avvalda bidoyat sanga,  
Ne kelib oxirda nihoyat sanga.

Avval o'zung, oxiru mobayn o'zung,  
Borchag'a Xoliq, borig'a ayn o'zung.

Andaki bor erdi nihon bu jahon,  
Balki nihon dog'i jahondek nihon.

Ne sochibon kun yuzi bargi suman,  
Ne kechanning turrasi mushki Xo'tan.

Ne ochibon ko'kda shafaq lolalar,  
Ne yog'ib anjumdin anga jolalar.

Ne yeru ne yer yuzida bir kishi,  
Ne ko'ku ne g'ayri sitam yer ishi.

Husn o'ti hangomafuro'z o'lmayin,  
Ishq eliga moyai so'z o'lmayin.

Yorumayin sham' ila koshonaye,  
Kuymay aning ishqida parvonaye.

Jilvai noz aylamayin gul hanuz,  
Zamzama chekmay anga bulbul hanuz.

Demaki nargis ko'zi masti xarob,  
Balki adam gulshanida masti xob.

Xum boshi mug' dayrida ochilmayin,  
Ahli vara' xirqa garav qilmayin.

Ishva bila mug'bachai mayfurush.  
Zuhd elini aylamayin durdno'sh.

Ko'rguzub oromu sukun bahri zot,  
Mavj ayon aylamayin mumkinot.

Sen edingu bas, yana mavjud yo'q.  
Jilva qilib o'zungga o'z husnung-o'q.

Mazhar o'lub husnungga mir'oti g'ayb,  
Jilva qilib anda xayoloti g'ayb.

Nozir o'zung erdingu manzur o'zung,  
Ishqinga xush. husnunga mag'rur o'zung.

Birlik ediyu adade yo'q edi,  
Birdin o'zga ahade yo'q edi.

Yo'q edi xud ilminga ijmol zot,  
Monii tafsili shuyunu sifat.

Lek o'shul chehrai ushshoqso'z,  
Kim anga har lam'adur ofoqso'z.

Qildi mazohirda xayoli zuhur,  
Topqali ul husn kamoli zuhur.

Jilvai husnungg'a chu yo'q erdi had,  
Ko'zgu kerak bo'ldi anga beadam.

Ochti bu gulshanniki rangin erur,  
Har gul anga oyinai Chin erur.

Jilvai husn o'lg'ali zohir anga,  
Bo'ldi bu mir'ot mazohir anga.

Vosita bu erdiki qilding tamom,  
Ko'kni to'quz lavhai oyinafom.

Bo'ldi safo vajhida har axtare  
Ko'zgu kibi husnung uchun mazhare.

Mehr yuzin oyinarang aylading,  
Yuzda kusufin anga zang aylading.

Ko'kni qilib safhai minu kibi,  
Aylading ul safhani ko'zgu kibi.

Bog'chasin dahrning etting nazih,  
Panjarasi bo'ldi musaddas garih.

Sun'ung etib konni mulamma'guhar,  
Hukmung etib tog'ni murassa'kamar.

Topti yog'in rishtasi chun bahri sof,  
Yel iligin qilding anga hullabof.

Yel bila chirmashturubon tiyra gard,  
Charxdek etting ani getinavard.

Muncha g'aroyibki misol aylading,  
Borchani mir'oti jamol aylading.

Ganjing aro naqd farovon edi,  
Lek boridin g'araz inson edi.

Turfa kalomingg'a dog'i komil ul,  
Sirri nihonigg'a dog'i homil ul.

Ko'ngliga qilding chu yaqin ganji qism,  
Jisini ul ganjga qilding tilism.

«Karramano» keldi manoqib anga,  
«Ahsani taqvim» munosib anga.

Ma'rifating kim qila olmay sifat,  
Qilding ani orifi ul ma'rifat.

Ilmig'a har zotni xayl aylading,  
Zotig'a olamni tufayl aylading.

Yo Rab, o'shul ganjki mahram anga,  
Kimsa emastur, magar odam anga.

Ayla Navoiyni burun odamiy,  
Kim bo'la olg'ay bu haram mahrami.

Onchaki rozingg'a amin qil ani,  
Harne qilursen yana sen bil ani.

#### IV

### IKKINCHI MUNOJOT

*Maxluqot zebolarining jilvai zuhuridakim, xoliqi ashyo azamati dargohig'a  
ondin sude yetmas va mavjudot ra'nolarining hodisai futuridakim,  
vohidi dono jabaruti borgohig'a kimsa andin ziyonbude tasavvur etmas'.*

Ey bori mavjudg'a sendin vujud,  
Balki vujud ahlig'a fayyozi jud.

Katmi adamdin neki mavjud o'lub,  
Sojid o'lub, sen anga masjud o'lub.

Kimki boshi sajdada — masjudisen.  
Kimki yuzi qiblada — ma'budisen.

Munchaki aflok sabuksang erur,  
Yo kurai xok kuhanlang erur.

Sendin alar junbishu oromi ham,  
O'ylaki, ijodi ham, e'domi ham,

Gunbadi mino bila toqi sipehr,  
Kim anga sham' anjum erur, shamsa — mehr.

Darkida qosir bo'lubon hislari,  
Chun ko'rubon aql muhandislari.

Bo'lmadi yuz onchag'a me'morliq,  
San'ating ustodig'a dushvorliq.



Yo desang ul vaz'g'a yetsun xalal,  
Qahringa bordur bu xalal filmasal.

Tund yel ollinda ovuch xokdek,  
Ildirim o'trusida xoshokdek.

Sarsari qahring chu bo'lub ko'hkan,  
Tog' bulut yanglig' bo'lub na'razan.

Sovrulubon ko'k bir etak kul kibi,  
Qo'zg'alib anjum bir ovuch gul kibi,

Mayl adam dashtig'a aylab Zuhal,  
Par butub egnida nechukkim jual.

Qat' hayotin ko'rubon Mushtari,  
Taxtau tobuti bo'lub minbari.

Tez etibon qatlig'a Bahrom tig',  
Tortibon o'z holig'a har dam darig'.

Bo'yla qaro kun aro mehri munir,  
Tiyra bo'lub o'ylaki bir qursi qir.

Zuhra ushotib daf ila changini,  
Navha ko'kida tuzub ohangini.

Tiyr iligida ne qalam, ne raqam,  
Balki raqam oyati «Jaffal-qalam».

Ahli adam shomig'a zulmatfizoy,  
Tahti shioi abadiy ichra oy.

O't chekibon shu'lai bebokni,  
Churkabon anjum bila aflokni.

Yel ko'k ila yerni taboh aylabon,  
O'ylaki mazlumlari oh aylabon.

Bahrg'a bir valvalau iztirob,  
Kim tegib axtar yuziga har hubob.

Yer qo'pub o'rnidin o'lub hamlagard,  
Kim itib anda falaki lojuvard.

Odami ul damda aningdek adam,  
Kim bu dam odamda vafou karam.

Yer tutubon avju falak tah tushub,  
Gah bu chiqib yuqori, ul gah tushub.

O't qilibon bahrda g'avvosliq,  
Tog' etibon charx uzra raqqosliq.

Charx misosida bulutdek g'irev,  
Devzada o'ylaki ko'rganda dev.

Tog'u falaklarda taroqo-taroq,  
Borcha taroqida ayon alfiroq.

Bir necha dam borchag'a bu rustaxez,  
Toki fano sarsari esguncha tez.

Ul chu esib toza va gar xud kuhun,  
Bir dam aro «kona kaan lam yakun».

Tengri qolib boqiyu dayyor yo'q,  
Yor muabbad bo'lub ag'yor yo'q,

Arzu falak yo'qidinu boridin,  
Borchaning ixfosiyu izhoridin.

Ne azamat ichra anga sud o'lub,  
Ne jabarutig'a ziyonbud o'lub.

So'z «Limanil-mulk» o'lub ul dam anga,  
Kim angadur mulk musallam anga.

Yo Rab, agar yetsam o'shul kunga jazm,  
Yoki burun aylasam ul yong'a azm.

Ul nafas imon manga hamroh qil,  
Ko'nglum aro mahvi sivalloh qil.

Rahmati omingni nisor et manga,  
Lutfi amiyning manga yor et manga.

V

## UCHUNCHI MUNOJOT

*Ul ma'nodakim, olam va odamni vujud koshonasidin adam  
faromushxonasig'a solmoq vujudi mutlaqdin o'zga vujud tutmas  
va bu ma'nini vujud ahli andin o'zga vujudga mutlaqo yovutmas  
va isyon zulmatida ayoqdin tushganlarga xulosai olam shifoati  
dastgir durur va ul shafi'-shifoat qilg'onlarg'a xoliqi  
olam va odam shafobatpazir'.*

Ey qilibon qahr ila lutfung shior,  
Borni yo'q aylamaku yo'qni bor.

Yo'q edilar har neki — bor aylading,  
Fahmu xirad borig'a yor aylading.

Ham to'quz aflokni chekting rafe',  
Ham kurai xokni yoyding vase'.

Gar falakiyotu anosir durur,  
Borcha saminqadr javohir durur.

Koniyu hayvoni, agar xud nabot,  
Har biri bir gavhari oliy sifot.

Borchasini garchi latif aylading,  
Borchadin insonni sharif aylading.

Qatrag'acha qulzumi zaxxordin,  
Zarrag'acha shamsai zarkordin.

Oni munga, muni anga band etib,  
Bir-biriga borchani payvand etib.

Vositalar bo'ldi ayon to'-bato',  
Bir-biriga bog'lanibon mo'-bamo'.

To tikilib ushbu biyik borgoh,  
Bo'ldi muhayyo bu ulug' korgoh.

Oncha bo'lub vus'atu oroyishi,  
Kim sari mo' yo'q yana gunjoyishi.

Borchasini buzmoq agar istasang,  
Boshtin-oyoq zeru zabar istasang,

Garchi erur aql haroson base,  
Ul dog'i ollingdadur oson base.

Chun qilibon qudrating izhorini,  
Birisining qo'ymag'ung osorini.

Emdiki junbushqa kelib bahri jud,  
Zohir etarsen chu adamdin vujud,

Kimki hisob aylasalar mavtidin,  
Ming yilu o'n ming yil o'tub favtidin.

Qolabining daftari ajzo bo'lub,  
Juzvlari loyatajazzo bo'lub.

Zohir o'lur «bu'sira mo fil-qubur»,  
Jilva qilur «hussila mo fis-sudur».

«Yavmaizin mo xalaqallohu fih»,  
«Yavma yafirrul-mar'u min axih».

Ne kun o'shul ohu nadomat kuni,  
Ohu nadomat ne, qiyomat kuni.

Avvalu oxir eli zoru asir,  
Har bir o'z ahvolig'a tortib nafir.

Bu chekib o'z dardi uchun voy-voy,  
Yig'lab ul o'z mehnatig'a hoy-hoy.

Qaysi fig'onkim jazai mahshar ul,  
Qaysi yig'ikim fazai akbar ul.

Nomalar el oʻlligʻa parron boʻlub,  
Koʻrmagidin el yuragi qon boʻlub,

Borchasi isyon bila badxoʻyluq,  
Badxoʻyluq yoʻqki, siyahroʻyluq.

Qizgʻa ano boqmay, oʻgʻulgʻa ato,  
Borchasining ogʻzida «Vohasrato!»

Har sori jurm ahli guruho-guruh,  
Yuklanibon jurmlari koʻh-koʻh.

Har biri bir hayʻati hoyil bila,  
Bogʻlanib agʻlolu salosil bila.

Ham tomugʻ oʻti solibon rustaxez,  
Koʻrmagidin el soʻngagi rez-rez.

Ham guli firdavs boʻlub jilvagar,  
Hasrati doʻzax oʻtidin ham batar.

Kun qizigʻidin qilibon magʻz joʻsh,  
Koʻkka chekib ahli qiyomat xuroʻsh.

Koʻpruk oʻlub oʻylaki tori xayol,  
Lek xayoleki ul oʻlgʻay mahol.

Kuchlanibon panjau bozuyi adl,  
Asrabon oyini tarozuyi adl.

Hokimi odil boʻlubon hukmron,  
«Doma lahul-mulk, va lahul-hukmu shon».

Avj tutub shuʻlai jabborliq,  
Mavj urub lujjai qahhorliq.

Ham mutafakkir boʻlubon avliyo,  
Ham mutahayyir qolibon anbiyo.

Gʻayri nabiyi arabiy ul nafas,  
Kim boʻlubon xalq shaffiyu bas.

Goh Sirot ustigacha ro'y urub,  
Lahzaye mezonig'a taku po'y urub.

Solibon og'ziga biyik himmati,  
Zamzamai «ummati vo ummati!».

Yo'qki hamin ummati gumrohni,  
Balki tilab mo xalaqallohni.

Harne tamannoki rasul aylabon,  
Borchasini Tengri qabul aylabon.

Bo'lsa ne maqsudg'a mayli aning,  
Haqdin o'lub barcha tufayli aning.

Yo Rab, aning haqqiki qilding nasib,  
Martabayekim sanga bo'ldi habib.

Kim bu sifat anjumani g'am aro,  
G'am demayin, majmai motam aro.

Kim ani olamg'a shafe' aylagung,  
So'ziga lutfungni mute' aylagung.

Bo'lg'usi jurm ahlini istar zamon.  
Istamagiyu karaming tav'amon.

Ummatidin kelsa bir ul nav' xayl,  
Kim borig'a bo'lsa jazo chochu vayl.

Umrída kelmay biridin bir amal,  
G'ayri xatoyeki, topib din xalal.

Jonlari anduh o'tidin g'am aro,  
Yuzlari isyon tutunidin qaro.

Istasa ul qavm xalosini ham,  
Ko'ziga uchrat meni osiyni ham.

## TO'RTUNCHI MUNOJOT

*Karam daryosi vasfidakim, inoyat nasimidin mavjg'a kirsam, isyon xasum  
xoshokin qirog'larg'a iturur va ko'hi gunohdin langar solg'onlarning  
garonjonliq kemasin bir pari kohdek maqsud sohilig'a yetkurur'.*

Ey karaming ollida ko'hi gunoh,  
Yelga uchub o'ylaki bir parri koh.

Nechaki jam' o'lsa somon ko'h-ko'h,  
Yel qoshida anga ne bo'lg'ay shukuh.

Jumla jahon ahli xato qilsalar,  
Jurm bilan noma qaro qilsalar,

Nomani oq aylamak oson sanga,  
Kim yo'q o'shul amrda nuqson sanga.

Tunki tuzub shu'bada hangomasin,  
Qildi qaro ahli jahon nomasin.

Lutf quyoshig'a chu berding zuhur,  
Mehr ila qilding bori zulmatni nur.

Chun saname ayladi el kinidan,  
Gulni nihon sunbuli mushkinidin.

Yelni qilib chobuki burqa'raboy,  
Kecha savodida ayon qilding oy.

Afv charog'i qachon o'lg'ay yoruq,  
Qilmasa isyon tuni osiy yozuq?

Jurm o'tig'a bo'lmasa gar shu'la tez,  
Abri karam qayda bo'lur qatraz?

Qilmasa oluda etak xirqapo'sh,  
Hojat emas bahri inoyatqa jo'sh.

Yiqmasa may aylabon elni asir,  
Lutf iligi kimga bo'lur dastgir?

Zuhd ila qavmeki vara' qildilar,  
Qilg'on uchun muzd tama' qildilar.

Har amalekim kishi xayr aylagay,  
Komi bukim ravzada sayr aylagay.

Aylamagan may bila oluda lab,  
Tongla qilur bodai kavsar talab.

Munda jamil istamagan hech kas,  
Anda qilur hur jamolin havas.

Go'shai vayronani qilg'on panoh,  
Qasri murassa' tilar oromgoh.

Har kishi bir qat'i tamattu' qilur,  
Muzdini yuz oncha tavaqu' qilur.

Ahli vara' gar bori muzd olsalar,  
Nomasiyah xayl boqib qolsalar,

Aylamaging afvi xato bas qani?  
Bahri karam birla ato bas qani?

Lutfu karam bahri labolab turub,  
Bir necha labtashnaning og'zi qurub.

Barchalarin tashnalab o'lturmaging,  
Yo bu tengiz tegrasidin surmaging,

Mumkin erurmu ekin oyo bu ish?  
Aylagasen sen har ish, illo bu ish!

Har kishi osiyu gunahkorroq,  
Afv ila rahmatqa sazovorroq.

Ahli vara' ajri bo'lub gar bihisht,  
Kuysa tomug' o'tig'a isyonsirisht.



Ul topibon ravzani etsa farogʻ,  
Doʻzax aro boʻlsa munga dardu dogʻ.

Lutfu karam ganjini netkung durur?  
Kimga atoyu karam etkung durur?

Bir necha muhtaju asiru gado,  
Yuzlari silliyi gunahdin qaro,

Qoytsa xoni niamingdin sening,  
Hosho, lutfu karamingdin sening!

Xon anga yoygʻilki erur mushtahi,  
Toʻq yemas, ar yesa boʻlur mumtali.

Oʻtsa qurub qolgʻon ekindin bulut  
Bahr uza yo asradi yo yogʻdi tut.

Ansab anga luqmaki, ul och erur,  
Avli anga toʻnki, yalangoch erur.

Bu bori afsonai behudadur,  
Kimki sen ummidisen — osudadur.

Yo Rab, urarda karaming bahri joʻsh,  
Cheksalar ul xayl figʻonu xuroʻsh.

Garchi gunahning hadu poyoni yoʻq,  
Aylamasang rahm ham imkoni yoʻq.

Chun chekibon lutf saropardasin,  
Kechsang alar kardau nokardasin.

Boʻlsa navo birla bori muhtaram,  
Aylama mahrum Navoiyni ham.

Ermas anga hur ila jannat havas,  
Sen anga boʻlgʻilki, anga ushbu bas.

VII

AVVALG'I NA'T

*Ul hazratning nuri qidamiyatidakim zot bahring avvalg'i junbushida  
ul durri bebaho lam'asi xafo rishtasin uzdi va ul gavhari yakto ashi'asi  
lam'a ko'rguzdi va durjdin durjg'a intiqol etti to  
Safiyullohdin Abdullohg'a yetti'.*

Ey qilibon lam'ai nurung zuhur,  
Andaki ne soya bor erdi, ne nur.

Nurunga tob ikki jahondin burun,  
Harne yo'q ondin burun, ondin burun.

Zoviyai jismg'a har zotdin,  
Ruh yoqib sham' bu mishkotdin.

Topti azal subhi chu bazming charog'.  
Ne tong agar yorusa yuz ming charog'.

Bo'ldi sanga Odam sabqatnamo,  
Aval o'g'ul, so'ngra gar o'lsa ato.

Naslida har kim anga payvand o'lub,  
Borchasi farzandinga farzand o'lub.

Kimki munga da'viyi hujjat etar,  
«Kuntu nabiyyan» anga hujjat yetar.

O'zga dalil istasa tab'i saqim,  
Basdurur Odamda «alif», «dol»u «mim».

Borchasi Ahmadda topib izzu shon,  
O'g'lida uch harf atodin nishon.

«Ho»i muhabbat anga-o'qdur nasib,  
Kim seni haq dedi o'ziga habib.

Har neki haq vajhi aro mubham ul,  
Zohir etib yuzda habibi hamul.

Shohid ochib chehra bu ko'zgu anga.  
Ul ne qilib, ko'rguzubon bu anga.

Ayladi chun odami xoki zuhur,  
Soldi anga partavin ul pok nur.

Nur dema, boriqai sarmadiy,  
Boriqa yo'q, sha'shaai Ahmadiy.

Bo'ldi chu Odamda bu partav nihon,  
Anda nihon, lek yuzida ayon.

Egniga yopildi davoji sharaf,  
Qildi makon boshig'a toji sharaf.

Taxti risolat uza shoh o'ldi ul,  
Xayli maloyikka panoh o'ldi ul.

Istadi Havvo bila chun ittisol,  
Ayladi Havvog'a bu nur intiqol.

Poku jamil ayladi Havvo yuzin,  
O'ylaki haq partavi havro yuzin.

Shisqa chun bo'ldi yana muntaqil,  
Oyni qilur erdi yuzi munfail.

Rishtasidin chun bu guhar bo'ldi kam,  
Bir sadaf o'ldi yana gavharshikam.

To atodin ato, anodin ano,  
Bir ano kim yo'q edi andoq yano.

Bo'ldi risolat durining maxzani,  
Balki nubuvvat gulining gulshani.

Bo'lg'ach-o'q ul durg'a sadaf pardapo'sh,  
Tushti jahon bahrig'a jo'shu xuro'sh.

Emdiki raf' etti yuzidin niqob,  
Tug'madi andoq yana bir oftob.

G'am tunini nursirisht ayladi,  
Yer yuzini bog'i bihisht ayladi.

VIII

IKKINCHI NA'T

*Aning navras niholi jahon gulshanin sarsabz qilib, qirq yilg'acha  
andin hayo va adab gullari ochilib, andin so'ngra nubuvvat  
mevasi bergani, dog'i shox va bargin sidra shoxidin o'tkarib,  
ikki olam ahlining soyai rahmatig'a kirgani'.*

Ey ko'runub g'urra kibi tiflzod,  
Tifli rahing charxi qadimiynihod.

Insu malak joniyu jononasi,  
Ikki jahon gavhari yakdonasi.

Mahd sanga lavhai firuzarang,  
Kim harakatdin anga bo'lmay darang.

Sen kibi bu gulshan aro toza vard.  
Umrida ko'rmay falaki solxo'rd.

Surat aro tifi, vale aqli kul,  
Qavlung aro g'ayri yali lam-yaqul.

Axtaring ul tunki, tulu' aylabon,  
Charx salomig'a ruku' aylabon.

Kufr biyik toqig'a solib shikast,  
Yerga bo'lub past butu butparast.

Makkada din ahlig'a muknat bo'lub,  
Uzzo ila Lotqa uzlat bo'lub.

Muxtalif ahvol o'lub ahli quraysh,  
Ba'zi o'lub g'amzada, ba'zida aylsh.

Gar otadin yo'q esa bahrang ne tong,  
Odam o'g'ul bo'lsa, kim o'lg'ay otong?

Gavhari zotingg'a sadafsiz ne bim,  
Itti sadaf, chiqti chu durri yatim.

Durg'a sharaf bor o'zining zotidin.  
Tong yo'q anga or sadaf otidin.

Garchiki ming dur chiqorur bir sadaf,  
Bir dur ila ming sadaf aylar sharaf.

Qaysi dur ul, durji vafo gavhari,  
Qaysi guhar, burji hayo axtari.

Axtaridin mehrg'a farxandaliq,  
Badru hilol aylab anga bandaliq.

Mehr mutii amru misoli bila,  
Shaqq bo'lubon badr hiloli bila.

Garchi tijoratqa bo'lub moyasanj,  
Kim qaro tufroqdin oldinda ganj.

Ko'z tutib el naf'u basorat anga,  
Ummat etib sudu tijorat anga,

Noqag'a markablig'idin ko'p surur,  
O'ylaki tushganda malak uzra nur.

Deb laqabin ahli tajammul Amin,  
Andin o'lub hamdami Ruhul-amin.

Chunki shubonliq etib o'z peshasin,  
Jady vatan aylab Asad heshasin.

Sut ko'runub shakkarida xushguvor,  
Garchi xirad piri anga shirxor.

Zahri jafu ko'p ezilib jomig'a,  
Shiru shakar ta'mi berib komig'a.

Necha achig' yig'lag'udek ish yetib,  
Lutfi shakarxanda bila daf' etib.

Shomi nifoq ahli chu aylab sitez.  
Boshig'a anjumdek etib sangrez.

Ul qilibon subh kibi no'shxand.  
Xayr duosi bila deb elga pand.

«Azzama qadrah» – bu ne xulqi azim.  
«Karrama vajjah» – bu ne nafsi karim.

«Hodiyuno kavkabu iqbolih,  
Sallu alayhi va alo olihi».

## IX

### UCHUNCHI NA'T

*Ul nubuvvat quyoshining soyasizligining poyasi, balki quyosh bo'lmoq  
aning soyasi va besh barmog'iga qalam tutmay aqolimi sab'ani  
yakqalama qilg'oni, balki jami' milal avroqig'a nasx qalami chekkoni'.*

Ey sharaf avjida yuzung sham'i mehr,  
Soyadek ul sham'g'a niliy sipehr.

Soyalig'ing bo'lmasa gar varzishi,  
Tushmak ayog'ingg'a nedindur ishi.

Turfaki sham'ingg'a biyik poyadin,  
Or o'lubon sham' kibi soyadin.

Mehrki chehrangdin anga nurdur,  
Tegrasidin soyasi mahjurdur.

Senki, yuz oncha sanga haq berdi nur,  
Tong yo'q agar soyadin o'lsang nufur.

Soya agar bo'lmadi shaxsingg'a yor,  
Soyai qadringda durur har ne bor.

Sham'inga chun nuri qidam soyadur,  
Nurdur ulkim anga hamsoyadur.

Soya sifat keldi sanga anbiyo,  
Ya'ni erurlar quyoshingdin ziyo.

Jilvai husn aylasa mehri sharif,  
Bois o'lur soyag'a jirmi kasif.

Zoting edi gavhari ulviy najod,  
Tutmadi yer soyasi birla savod.

Qayda savod etgali chekkay raqam.  
Qoldi chu mahrum iligingdin qalam.

Bo'lmadi gar xoma boshin yormog'ing,  
Yordi qamar xomasini bormog'ing.

Qo'ymadi gar bu qalaming bir nuqat,  
Lek milal nasxig'a xush chekti xat.

Yuz qarolig' xoma kibi qildi fosh,  
Kimki xatingdin chiqorur bo'ldi bosh.

Tig'i siyosat boshin etti qalam,  
Kimki chiqordi raqamingdin qadam.

Itsa qalam qayda g'am o'ldi sanga,  
Chunki jahon yakqalam o'ldi sanga.

Xattinga bosh qo'ydi Ajam to Arab,  
Tutmasang ilginga qalam, ne ajab.

O'pmadi ilgingni chu nolon qalam,  
Motamiy aylabtur oni bu alam.

Kim yuzin aylah qaro g'amnok erur,  
Shaqqi emaskim, yoqosi chok erur.

Tutmog'oning andin edi xomani,  
Kim ul etibdur qaro ko'p nomani.

Noma qaro qilg'ali bo'ldik sare',  
Nomasiyahlarg'a chu sen-sen shafe'.

Ey yovumay nomag'a xomang sening,  
Xoma yo'qu haq sori nomang sening.

Haq azaliy rahmati jovidi sen,  
Noma qaro qilg'on el ummidi sen.

Kimki amal nomasin aylab qaro,  
Sen kirib oning qaro joni aro.

Kimniki gumrah qilibon tolii,  
Jodai shar'ing o'lub shorii.

Zulmati kufr ulki bo'lub jam' anga,  
Har «alif» isloming aro sham' anga.

Barcha milalg'a chu yurub himmating,  
«Lom» ila «te» din lat urub millating.

Lotki andin edi dinga halo,  
Sen ushotib poyasini bo'ldi lo.

Kufr eliga ulki bor erdi Manot,  
Bo'ynini sen sindurubon bo'ldi mot.

Kufr boshin ke sting etib qahr fosh.  
Boshig'a far qolmadi, jismig'a bosh.

Xasta Navoiy sori nazzora qil,  
Kufr anoniyatig'a chora qil.

Et bu inoyat bila hosil ani,  
Zumrai islom aro doxil ani.

## X

### TO'RTUNCHI NA'T

*Ul risolat sipehrining rif'atida va barcha olamni sipehrdek ihota  
qilg'on qudratida va ashobi bobidakim har biriga ul sipehrda bir kavkabi  
raxshandaliq sodiq dururki, «As'hobi kan-nujum» bu mazmunga notiq durur'.*



Ey nafasing moyai e'joz o'lub,  
Ruhi qudus nutqunga hamiroz o'lub.

Gohi takallum sanga mu'jiz kalom.  
Nazmi kaloming bori mu'jiz nizom.

Nukta fasohatda munaqqah sanga,  
Shohidi da'vo: «Ana afsah» sanga.

Sihhati hukm ichra hadising sahib,  
Arzi fasohatda kaloming fasih.

Nutq aro chun zohir o'lub mu'jizing,  
Ahli fasohat bo'lubon ojizing.

Zoting o'lub bahri javohirnishon.  
So'z aro bahring kafi gavharfishon.

Kaf neki, bahre bo'lub ul panj shox,  
Yetti hubob ul suvg'a bu yetti kox.

Xamsa salotingg'a chu navbat bo'lub,  
Panjai islomg'a quvvat bo'lub.

Kufr qo'lu panjasini ranja bil.  
Bois aning ranjig'a bu panja bil.

Faqr aro ul panja qabul etti ranj,  
Lek haqiqatda erur panj ganj.

Panjai islom chu mahkam solib,  
Kufr yeti qo'rg'onidin xums olib.

Dema ilik, tig'eki bir bormog'i.  
Oyni iki bo'ldi ishorat chog'i.

Tong emas ar ul kafi mu'jiznamoy,  
Qilg'ach ishorat iki ayrilsa oy.

Noqasi yer uzra chu raftor etib,  
Har izi «Shaqqal-qamar» izhor etib.

Amri etib naxl qadin xush xirom.  
O'ylaki qilg'ay buti sarkash xirom.

Xasmidin o'lg'onda anga parda g'or,  
Og'zida o'rgamchi bo'lub pardador.

Aylamasun deb el ila parda sayr.  
Bayzasidin tugma toqib anda tayr,

Pardasi jon rishtasidin tor o'lub,  
Tugmalari gavhari shahvor o'lub.

Qo'ydi chu ul dom ila ul dona g'or.  
Ko'rki ne davlat qushin etti shikor.

G'orda yori bila ul tezhush.  
Tog' ichida o'ylaki oltun-kumush.

Kufr chu e'loyi livo aylabon.  
Nusrat uchun ding'a duo aylabon.

Kim iki tandin birin et tojvar,  
Biri Abu Jahlu birisi Umar.

Qismati avvalg'ining o'ldi azob,  
Bo'ldi ikinchida duo mustajob.

Buki kalomulloh angadur nasib,  
Kim yo'q anga mu'jiza andin g'arib.

Sura dema, «qof» ila «nun» yoki «sod»,  
Ya'nikim har harfig'a oning savod.

Sunbulidek borcha parishon edi,  
Jomi' anga jomii Qur'on edi.

Makkani chun qildi judo dayrdin,  
Tig' suyi birla yudi g'ayrdin.

Bo'ldi vale manzaradin butfikan,  
So'ngra nabi Haq evida butshikan.

Na'lini gar toji sharaf qildi Arsh,  
Qildi Ali na'lig'a egnini farsh.

Ruh edi ul bahri nubuvvat duri,  
To'rt rafiqi tanining unsuri.

Naqdi kiromiy ulu tojir anga,  
Vodiyi hijratda muhojir anga.

Ding'a yetib raxna chu kuffordin,  
Saddig'a nusrat ko'rub ansordin.

Ahliyu avlodiyyu atboig'a,  
Oliyu ahfodiyyu ash'yoig'a

Tengri taolo karamidin qarini,  
Yuz tuhafi «Rahmat ila yavmid-din».

## XI

### BESHINCHI NA'T

*Me'roj kechasi ta'rifidakim, karimai: «Subhonallaziy asro» anga musaddaq  
durur va «biabdihi laylan minal-masjidil haromi ilal-masjidil-aqso»  
aning subutig'a ikki guvohi sodiq'.*

Bir kecha zulmatqa qolib koinot,  
Mehr nihon o'ylaki aynul-hayot.

Garchiki ul chashma nazardin qochib,  
Xizr ko'k uzra qatarotin sochib.

Tun qilibon gardini anbarsirisht,  
Butratibon yerga nasimi bihisht.

Yer kuraviy shakl ila mijmar bo'lub,  
Kecha savodi anga anbar bo'lub.

O't kibi yer mijmari ostida mehr,  
Yopib etak mijmara uzra sipehr.

Yog'ibon oromu sukun yog'ini,  
Past qilib hodisa tufrog'ini.

Bu kecha ul sarvi gulistoni uns,  
Ravshan etib sham'i shabistoni uns.

Vasl xayolidin etib ko'ngli jo'sh,  
Bahrdek ul jo'sh ila aylab xurush,

Kim yetib ul soyiri ulviy maqom,  
Ilgida bir toyiri ulviy xirom.

Po'yada ko'k sayricha orom anga,  
Yerdin o'lub ko'kkacha bir gom anga.

Qosidi qudsiy chu salom aylabon.  
Haq soridin arzi payom aylabon.

Debkim, ayo maxzani asrori shavq,  
Haqdin erur vaslingga izhori shavq.

Chunki nabiy mujdai jonon topib,  
Mujdai jonon chu topib jon topib.

Payki ani qo'ldabon otlandurub,  
Raxshini kelgan sori-o'q yondurub.

Soyir o'lub rokibi farruxjamol,  
Toyir o'lub markabi farxundafol.

Gardi bila borai sur'atnamo,  
Yetkurubon aql ko'ziga amo.

Ul mahi shabgard bo'lub jilvasoz,  
Jilvagahi borcha shabistoni roz.

Chun yetibon ko'k sori tavsan anga,  
Oy bo'lubon o'tgali ravzan anga.

Tiyri qalamzan chu topib ul sharaf,  
Buqalamunlug'ni qilib bartaraf.

Zuhra tarab barbatini soz etib,  
Zamzamai tahniyat og'oz etib.

Soyasidin mehr chiqarmay jamol,  
Tahti shuo' ichra nechukkim hilol.

Mehrida Bahromki yakro' bo'lub,  
Tig'i sharaf yuziga ko'zgu bo'lub.

Mavkibidin poya topib Mushtari,  
Yo'lida bir poya bo'lub minbari.

Sham'i Zuhul zulmatini nur etib,  
Zangiysi shabrangni kofur etib.

Ham Hamalu Savr berib jon anga,  
Jon etibon ikkisi qurbon anga.

Ham tongibon ollida Javzo kamar,  
Ham Saraton tuz bo'lubon jilvagar.

Sher yo'lidin tutubon go'shaye,  
Sunbula raxshig'a bo'lub to'shaye.

Palla yo'li gardidin iksirsanj,  
Aqrab aro no'shu davo, nishu ranj.

Qavs tutub chilla duosi uchun,  
Jady berib fulla g'izosi uchun.

Dalvg'a Yusuf kibi solmay nazar,  
Hutda Yunus kibi qilmay maqar.

Yel kibi chun qat'i buruj aylabon,  
Arsh fasilig'a uruj aylabon.

Farshi bo'lub Arsh ila Lavhu Qalam,  
Qo'ymoq uchun raxshi alarg'a qadam.

Rafruf uza po'ya qilib chun kushod,  
Hamrahu rahravg'a etib xayrbod.

Qolmadi chun yo'lida aslo makon,  
Qildi makon bodiyai lomakon.

Olti jihat qaydidin ixroj o'lub,  
To'rt guhar tarki anga toj o'lub.

Yo'qlug' ayog'i bila solib qadam,  
Andaki yo'lu qadam o'lub adam.

O'zlugidin naqshu namudor yo'q,  
Naqshu namudoridin osor yo'q.

Chun o'zini aylab o'zidin xalos,  
Pardai izzatda qilib o'zni xos.

Anda yetib gum bo'lubon o'trusi,  
Har necha ko'z solsa, baqo ko'zgusi.

Chun bo'lub ul ko'zguda suratnamo,  
Ko'zgidin tashqari qolg'on fano.

Axtarig'a chun yetibon muncha avj,  
Zohir o'lub bahri inoyatqa mavj.

Haq tilidin ummatin istab tamom,  
Haqdin o'lub borcha murodig'a kom.

Hamrah anga qolabi xokinasab,  
Gar desalar bor edi yo'qtur ajab.

Kim tan anga boshtin-oyoq jon edi,  
Joni dog'i vosili jonon edi.

Ikki jahon rahmatini qozg'onib,  
Har nimakim qozg'onib, olib yonib.

Ravshan o'lub yuzidin ul borgoh,  
Surma qilib gardini bu korgoh.

G'uncha borib, toza guliston kelib,  
Zarra borib, mehri daraxshon kelib.

Borg'oniyu kelgani bir on o'lub,  
Aql bu mansubada hayron o'lub.

Qayda xavoriq bila mu'jiz durur,  
Aql aning idrokida o'jiz durur.

Borg'onu kelgan anga juzvi sag'ir,  
Kim emas ul juzv tajazzipazir.

Qat' bo'lub chun bu humoyun safar,  
Ruxsat olib hodiyyi farxundafar.

Text uza olam shahi aylab maqom,  
Olam ishiga beribon intizom.

Shar'i tili noma bayozin o'qub,  
Tig'i suyi kufr savodini yub.

## XII

*Hazrati Shayx Nizomiy madhidakim, nazm mulkida zo'rbozu sarpanjasi  
bila panj ganj nuqudu javohirin oldi va Amir Xusrav ta'rifidakim,  
bu javohir va nuqud tamaidin panja aning  
panjasig'a soldi<sup>1</sup>.*

Xayli fasohat boshining afsari,  
Ganji yaqin afsarining gavhari<sup>2</sup>.

Koni fazilat guharig'a amin,  
Bahri balog'at aro durri samin.

Xilvatining kahgili anbarsirisht,  
To'rt hadi zimnida sekkiz bihisht.

Garchi ko'ngul kulbasidek muxtasar,  
Ikki jahon anda bo'lub jilvagar.

Masjidi qandili sipehri asir,  
Shu'la bu qandil aro mehri munitir.

Ka'ba uyidin bir ochuq bob anga,  
Sajda chog'i hay'ati mehrob anga.

Ganja vatan, ko'ngli aning ganjhez,  
Xotiri ganjuru tili ganjrez.

Fikrati mizoni bo'lub xamsasanj,  
«Xamsa» dema, balki degil panj ganj,

Kaffai mizon anga aflok o'lub,  
Botmoni toshi kurai xok o'lub<sup>3</sup>.

Tortsa yuz qarn xirad xozini,  
Chekinagay oning ko'pidin ozini.

Xoni latoyifqa so'zi munqasim,  
Durri maoniyg'a tili muntazim.

Nozim o'lub so'z duri serobig'a,  
Charx «Nizomiy» yozib alqobig'a<sup>4</sup>.

«Quddusa sirruh» — ne maonidur ul<sup>5</sup>,  
Ruhi qudus fayzi nishonidur ul.

Otiki besh harf qilurlar xitob<sup>6</sup>,  
Ming bir erur aylasang oni hisob.

Ushbu adad birla oti gavhari,  
Haqning o'lub ming bir oti mazhari.

Mazhar etib chun alifin ismi zot,  
O'zga adad harfini ismi sifot.

Durlaridin yer yuzi mamlu bo'lub,  
Balki falak durjlari ham to'lub.

Chun qilibon so'z yuzi oroyishin,  
Qo'ymay el oroyishi gunjoyishin.

G'ayri hamul hinduyi chobuksuvor,  
Kim chiqarib xanjari hindiy iyor<sup>7</sup>.



Xanjarining barqidin o't chaqilib,  
Raxshi dag'i tezlik o'tcha qilib.

Qay sari o'tdek yuz urub tundu tez,  
Solibon ul kishvar aro rustaxez.

Ushbu mamolikdaki ma'mur edi.  
Qildi tasarruf neki maqdur edi.

Hundui chobuk demakim, royi hind,  
Kilki uchi mamlakatoroyi hind.

Nazmi savodi aro har doston,  
O'ylaki, bir kishvari Hinduston.

Ganja shahi ganjfishon, payrav — ul,  
Shah bu so'z iqlimi aro, Xusrav — ul.

Xusrav o'lub mulk etib obod ham,  
Yolg'uzi Xusrav dema, Farhod ham.

Ranj tog'in qozmoq aning peshasi,  
Tog'i aning nazmu tili — tesbasi.

Ishq o'ti otashgahi joni aning.  
G'am tengizi ashki ravoni aning.

Sham' kibi bazm furuzanda ul,  
Bazm furuzandau so'zanda ul.

Ganja quyoshiki, ko'targach alam,  
Ayladi so'z mamlakatin yakqalam.

Bo'lmadi bir mulk sari kinaxoh,  
Kim bu dog'i chekmadi ul yon sipoh.

Bir may ila bodaparast o'lmadi,  
Kim bu ham ul may bila mast o'lmadi.

Qaysi shabistong'aki, ul qildi azm,  
Bazmi yerida bu dog'i tuzdi bazm.

Ul bezabon «Maxzani asror»idin,  
Bu yorutub «Matlai anvor»idin.

Masnavi uslubi musallam anga,  
Payravu monand bu bir ham anga.

Ko'p kishi ham qildi tatabbu' havas,  
Sarvu gul o'trusig'a kelturdi xas.

Bir kishidin o'zgaki, andoq kishi,  
Bermadi yod eski falak gardishi.

### XIII

*Safo jomining sofi oshomi mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy' madda zillahul-oliy vasfikim, vasfg'a sig'mas va ta'rifikim, ta'rifg'a rost kelmas va ul hazrat iltifotining quyoshi bu xoksori tiyra ro'zgor holig'a partav solg'onining izhori va ul quyosh tarbiyatidin bu tufroqqa zohir qilg'an guli nasrin, balki gunogun rayohin osori va «Tuhfat ul-ahror» tuhafi mutolaasidin mahzun ko'ngul tarabi va «Hayrat-ul abror» lao'li va javohirin nazm rishtasig'a tortmoqning sababi.*

Ulki bukun qutbi tariqatdur ul,  
Koshifi asrori haqiqatdur ul.

Ko'ksi haqoyiq duri ganjinasi,  
Ko'ngli maoniy yuzi oyinasi.

Oliy anga yetti falakdin mahal,  
Yetti falak mushkili ollida hal.

Madrasai Quds aning ma'mani,  
Xonaqahi uns aning maskani.

Jilvagahi gulshani charxi barin,  
Obxo'ri chashmai aynul-yaqin.

Qasri kalomi chiqib andoq baland,  
Kim anga gardun sola olmay kamand.

Anda shayotin xasig'a yo'q sabot,  
Baski urub xayli maloyik qanot.

Gunbadiyi hujrada zoti nihon,  
O'ylaki ko'k gunbazi ichra jahon.

Qaysi jahon, olami kubro degil,  
Qudrati Allohu taolo degil.

Xirqa aning, jismida qapton bo'lub,  
Qaptoni tan, jismi aning jon bo'lub.

Xirqa bila topmag'ani ixtisos,  
Tanni riyo to'nidin etmak xalos.

Chunki tavajjuhda quyi solsa farq,  
Soyiri ravshan ravish andoqki barq.

Sayrdakim charxni aylab xijil,  
Tay qilibon arz «Katayyis-sijl».

Vaqti quyoshin chu qilib pardapo'sh,  
Kilki qaro abrdek aylab xurush.

Parda yasab holati pinhon uchun,  
Safha yozib satr ila kitmon uchun.

Zulmat etib jam' davoti aning,  
Ma'ni o'lub obi hayoti aning.

Qatrasidin kimki bo'lub komyob,  
Umri muabbad qilibon iktisob.

Nazmi aqolimi jahonni tutub,  
Nasri dog'i kishvari jonni tutub.

Fayzi gadovu shah aro muntashir,  
Xizmatiga shohu gado muftaxir.

Lek manga ollida ajzu niyoz,  
Borcha ulusdin beribon imtiyoz.

Mehridin ofoq aro gar nurdur,  
Zarra aning mehrida mashhurdur.

Qush ko'p o'lur bog' harimig'a xos.  
Bulbul ila gulga bo'lur ixtisos.

Nomag'akim roqim etib xomasin,  
Ko'rmadi men ko'rmayin el nomasin.

Mehr tulu' ayladi chun tog' uza,  
Tushti burun partavi tufrog' uza.

Gulbun uza harne gul ochti chaman.  
Aval aning hamdami bo'ldi tikan.

Bazmda bir kun yuzidin nur edi.  
Har soridin nodira mazkur edi.

Tushti chu rahrav bila payravg'a so'z.  
Yetti Nizomiy bila Xusravg'a so'z.

Kim ne sifat olam aro soldi shayn,  
Ikkisining xomasidin xamsatayn.

Lek bu o'n turfaki, topmish jamol,  
Ikki burung'isida bor o'zga hol:

Gavhare yo'q «Maxzan ul-asror» dek.  
Axtare yo'q «Matla' ul-anvor»dek.

O'zga sanamlar ham erur jilvasoz,  
Borchasining husnida zebi majoz.

Ul ikisidin biri gavharfishon,  
Gavharida nuri yaqindin nishon.

Ul birisi dog'i bo'lub nurposh,  
Nuri aro partavi tahqiq fosh.

Nukta suv yanglig' eritur toshni,  
Topsa haqiqat o'tidin choshni.

Bo'lsa haqiqat guharidin yiroq,  
Rishta so'zin so'zlamagan yaxshiroq.

Rishtag'a chun zohir erur toru pud,  
Dursiz anga rangi-yu naqshi ne sud?

O'tti chu alqissa bir oy, ikki oy,  
Bir kun o'lub, baxtu xirad rahnamoy.

Xidmatin ettimki, tamanno edi.  
Ilgida ko'rdum necha ajzo edi.

Kulgu hila qildi ishorat manga,  
«To'hfa» bila berdi bashorat manga.

Kim olibon boshtin ayog'ig'a boq,  
Qil nazar avroqig'a boshtin-ayoq.

Ollig'a jon naqdini sochtim ravon,  
Oldimu o'ptum, dog'i ochtim ravon.

Boshtin-ayoq gavhari shahvor edi,  
Qaysi guhar, «Tuhfat ul-ahror» edi.

Naf topib kimki bo'lub mustafid,  
Muxtasar ul ikkidin, ammo mufid.

Ul ikini topsa bo'lur munda-o'q,  
Munda tuhaf ko'pki, ul ikkida yo'q.

Shavqida ko'ksumni shikof ayladim,  
Jildig'a ko'nglumni g'ilof ayladim.

Chun o'qumoq zamzaması bo'ldi bas,  
Ko'nglum aro dag'dag'a soldi havas.

Kim bu yo'l ichraki alar soldi gom,  
Bir necha gom o'lsa manga ham xirom.

Forsi o'ldi chu alarg'a ado,  
Turki ila qilsam ani ibtido.

Forsi el topti chu xursandliq,  
Turk dog'i topsa barumandliq.

Ul ikiga fotiha o'qub so'rub,  
Fotiha bu biri manga yetkurub.

Botin ila qilmasa ul ikki rad,  
Zohir ila bu biri qilsa madad.

Menki talab yo'lida qo'ydim qadam,  
Bordur umidimki, chu tutsam qalam.

Yo'ldasa, bu yo'lda Nizomiy yo'lum,  
Qo'ldasa, Xusrav bila Jomiy qo'lum.

Nukta surudida ravo bo'lmag'ay,  
Buki Navoiyg'a navo bo'lmag'ay.

Eltsa joh ahlig'a mullis panoh,  
Topsa qabul ul ham o'lur ahli joh.

Mushkka hargiz teridin or emas,  
La'lg'a ham xoradin ozor emas.

Bog'i anosirki, erur dilkushoy,  
Jadvali devori aning chordoy.

Bo'lsa o'tu suvu havo dilpazir,  
Ul aro tufroq ham erur noguzir.

Sarvu gulu lola xaridori bor,  
Lek o'tunning dog'i bozori bor.

Bo'lsa xazu atlasu iksun libos,  
It juli qilmoqqa yarar ham palos.

La'l ila yoqutu dur istar baho,  
Lek somonni chekar kahrabo.

Uch qadahi sof ila shah bo'lsa xush,  
Loyi dog'i qolsa chekar durdkash.

It kibi chun pastlig'im chog'ladim,  
O'zni biyiklar ipiga bog'ladim.

Bo'lsa alar ozimi dashti adam,  
Men ham o'lay soya kibi hamqadam.

Kahfi baqo ichra alar bo'lsa gum,  
Men ham o'lay «Robiuhum kalbuhum».

#### XIV

*So'z ta'rifidakim, bashar vujudi sipehrining kavokibi jahontobi va inson zoti ma'danining javohiri serobi durur va sa'd kavkablarning bir-biri birla qironi yaxshi asar ko'rguzuridin va samin javharlarning bir-biriga iqtironi dilpazir ko'runuridin, nazm tarkibin nasr tartibig'a tarjih qilmoq.*

So'z guharig'a erur oncha sharaf,  
Kim bo'la olmas anga gavhar sadaf.

To'rt sadaf gavharining durji ul.  
Yetti falak axtarining burji ul<sup>1</sup>.

Bog'chai dahrki yuz toza gul —  
Topti qayonkim nazar etti ko'ngul.

Katmi adam gulshani ichra nuhuft,  
G'unchalar erdi borisi noshukuft.

Chun bu nasim esti azal tog'idin,  
Muncha gul ochildi jahon bog'idin.

Qaysi nasim ulki erur gulfishon,  
Bargi gulu nastaran andin nishon.

Bu ikki yafrog'ni qachon zufunun,  
Bir-biriga qo'ysa bo'lur «kofu nun»<sup>2</sup>.

Dahr muqayyad bila ozodasi,  
Borcha erur «kof» ila «nun» zodasi.

Zodasidin zoda bo'lub beadad,  
Zodag'a ham valid o'lub, ham valad.

Vasf ne nav' o'lg'ay anga el so'zi,  
Harne so'z aytilsa erur chun o'zi.

Jon o'lub ul, ruh aning qolibi,  
Kim tanida ruh, aning tolibi<sup>3</sup>.

Borcha ko'ngul durji aro javhar ul,  
Borcha og'iz huqqasida gavhar ul.

Gar xud erur xanjari po'lod til,  
Suftidog'i injulari so'zni bil<sup>4</sup>.

Til bu chamanning<sup>5</sup> varaqi lolasi,  
So'z duraridin bo'lubon jolasi.

So'zdin o'lukning tanida ruhi pok,  
Ruh dog'i tan aro so'zdin halok.

Tirguzub o'lganni kalomi fasih,  
O'ziga jonbaxsh laqab deb Masih<sup>6</sup>.

Bois o'lub shah so'zi bedodga,  
Tuhmat o'lub o'rtada jallodg'a.

So'zdin etib o'tg'a azimat Xalil<sup>7</sup>,  
So'z yukiga homil o'lub Jabroil<sup>8</sup>.

Tengriki, insonni qilib ganji roz,  
So'z bila hayvondin anga imtiyoz.

G'uncha og'izliq sanami no'shlab,  
So'zdin agar aylasa xomo'sh lab.

La'li mayi aqlni mast aylasa,  
Mast nekim, bodaparast aylasa.

Surat ila bo'lsa mahi osmon,  
Surati devor hamon, ul hamon<sup>9</sup>.

Gar chiroyi rashki qamar bo'lmasa,  
La'li labi tungi shakar bo'lmasa.



Aylamasa g'amzani novakfikan,  
Qilmasa kirpik safini safshikan.

Bo'lmasa g'oratgaru tannozi ham,  
Chin bila husn o'lsa anga nozi ham.

Lek takallum chog'i aylab itob,  
Talx hadis o'lsavu shirin javob.

Fitna qilib, va'dau payg'om ila,  
Aqlni mast aylasa dashnom ila.

Ko'rguzubon loba malohat uza,  
Lobasi tuz sepsa jarohat uza.

Kim ekin ul shu'lag'a yoqilg'uchi,  
Yo bu jarohatqa davo qilg'uchi.

Gar bo'lubon husn ila obidfireb,  
Bo'lsa malohat bila husnig'a zeb.

Oytsa bu husnu malohat bila,  
Nuktani oyini fasohat bila.

Solg'usi jinsi bani odamg'a o't,  
Ne bani odam, bori olamg'a o't.

Har dam etib elni halok o'rtagay,  
Balki bashar xaylini pok o'rtagay.

Bazmda har mutribi dastonsaro,  
Cheksa tarannum bila dilcash navo.

Naqshda har necha talolo desa,  
Yo amal ichra tanadirno desa.

Borchasidin haz etar ahli uqul,  
Gar xud uzoq cheksa bo'lurlar malul.

Yo bu navo zimnida asrab mahal,  
Cheksa Navoiy so'zidin bir g'azal.

Kim anga alfoz o'lub otashfishon,  
Bersa ulus ko'ngliga mungdin nishon.

Bazmda ul lahza aloloni ko'r,  
Ko'yi xarobot aro g'avg'oni ko'r.

Ko'rki nechukdur yoqo chok aylamak,  
O'zni fig'on birla halok aylamak<sup>10</sup>.

Donau dur so'zini afsona bil,  
So'zni jahon bahrida durdona bil.

Munchaki sharh etti qalam so'zga hol —  
Nasridadur, nazmida bor o'zga hol.

So'z aro yolg'on kibi yo'q nopisand,  
Aylar aning nazmini dono pisand<sup>11</sup>.

O'rnida tishlar duri manzum erur,  
Chun sochilur qiymati ma'lum erur<sup>12</sup>.

Vardu shajar shohid erur bog' aro,  
Lek o'tun silkidadur tog' aro<sup>13</sup>.

Munda parishonlig'i noxush qilib,  
Anda muratablig'i dilkash qilib.

Nav'i bashar boshig'a Rabbi G'afur,  
Qo'ydi tavofut bila toji zuhur.

Shohki, gulshanni bisot aylagay,  
Bazm tuzub, azmi nishot aylagay,

Har kishi o'z poyasi birla maqom —  
Tutsa erur anjuman ichra nizom.

Emdiki may zoyil etib hushni,  
Shah yonig'a tortti chovushni.

Qul beg ila tuzdi uzun mojaro,  
Qayda halovat yana ul bazm aro?

Arsada shatranjni ulkim to'kar,  
Necha yig'och porasidurkim o'kar<sup>14</sup>.

Chunki birov o'lturubon har taraf,  
Tersa bisot ichra ani ikki saf.

Har yon iki saf iki misra' kibi,  
To'rt saf o'lsa, iki matla' kibi.

Har biri bir turfa muammo bo'lub,  
Otlar aning zimnida paydo bo'lub.

Fikri sahih elga bisotida ot,  
Qilsa parishonlig' o'lub anda mot.

Daftari nazmida chu sherozadur,  
Gul varaqi gulshan aro tozadur,

Uzdi chu sherozasini daftari,  
Yel uchurur har varaqin bir sari.

Nazm anga gulshanda ochilmog'lig'i,  
Nasr qaro yerga sochilmog'lig'i<sup>15</sup>.

Bo'lmasa e'joz maqomida nazm,  
Bo'lmas edi Tengri kalomida nazm<sup>16</sup>.

Nazmda ham asl anga ma'ni durur,  
Bo'lsun aning surati harne durur.

Nazmki, ma'ni anga marg'ub emas,  
Ahli maoniy qoshida xo'b emas.

Nazmki ham surat erur xush anga,  
Zimnida ma'ni dog'i dilkash anga<sup>17</sup>.

Yo Rab, ani xalq dilafro'zi et,  
Xasta Navoiyg'a dog'i ro'zi et.

XV

*Bir necha so'z ul ma'nidakim, so'zdagi ma'ni jone dururkim, so'z qolibi onsiz qolibe dururkim jonsiz va ani topmoq ishini kishi bilmas, balki ani topqon kishi topilmas va ahli gazof noinsoflig'ig'a munsif bo'lmoq, balki o'z gazofig'a insof berib, alarning uzrini qo'lmoq.*

Ul kishi so'z bahrida g'avvos erur,  
Kim guhari ma'ni anga xos erur.

Fayz harimida tajalli anga,  
Kim yorubon mash'ali ma'ni anga.

So'z mayini ul kishi oshom etib,  
Kim duri ma'ni sadafin jom etib<sup>1</sup>.

Ruh safoliq ne ajab rohdur,  
Tiyra ko'ngul kunjiga misbohdur<sup>2</sup>.

Lab-balab ul may bila xumi sipehr,  
Og'zidagi kirpich anga xishti mehr.

G'arqa aning bahrig'a ahli jahon,  
Ko'zdin etib oni latofat nihon.

Qatrasini har kishi no'sh aylabon,  
Nash'asidin xum kibi jo'sh aylabon.

Nechaki fayzi bila olam to'lub,  
Qatraye bahridin aning kam bo'lub.

Menki, bu may nash'asidin mast men,  
Dayri fano ahlig'a hamdast men<sup>3</sup>.

Andoq erur garm dimog'im mening,  
Kim yoqib ul shu'la charog'im mening.

Garchi yetib jomi hidoyat manga,  
So'zda sukut o'ldi bag'oyat manga<sup>4</sup>.

Lek biror vaqt borib ixtiyor,  
May iligimdan chiqorib ixtiyor.

Arsai olamg'a sabodek borib,  
Mehrdek obodu buzuq axtorib.

Ilgima tushmay bori ofoq aro,  
Balki to'quz charxi ko'han toq aro.

O'yla harifeki, chu bazm aylasam,  
Ichgali bu bodani azm aylasam.

Nazm biyik masnadida o'lturub,  
Ollima nazm ahli tuman ming turub.

Bazmda shohona yasab sozu barg,  
Boshim uza egri qo'yub nimtarg.

So'z mayidin ollima daryoyi jarf,  
Ilgima zavraq kibi jomi shigarf.

Har nafas aylab to'la ul jomni,  
Sipqorib ul bodai gulfomni.

Turk surudi bila solib qo'lum,  
Qilsam ado hay tulugum, hay tulum<sup>5</sup>.

Ul qila olmasa hamovozliq,  
Qilsa ayolg'u bila damsozliq.

Bo'lmasa bir jomim ichar jur'ati,  
Bo'lsa biror jur'a chekar quvvati.

Bazmi murodimni sipehri baland,  
Qilmadi bu tuhfa bila arjumand.

Yo'q edi erkinmu burun ham kishi,  
Kim bu may ichmak edi erkin ishi?

Yo bo'lubon borchasi azm ettilar,  
Bazmg'a men yetmas ekach kettilar.

Manga bu bekaslik emas erdi bas,  
Kim chiqibon har sari bir hechkas.

Tab'kaju borcha takallumnamoy,  
Nag'ma chabu borcha tarannumsaroy.

Anglamayin so'zda tuyuq bahrini,  
Qaysi tuyuq, balki qo'shuq bahrini<sup>6</sup>.

Lafzlari bemaza, tarkibi sust,  
Nosara ma'niyu ado nodurust.

Borchasig'a da'viyi ma'niyi xos,  
Xoslarim topmay alardin xalos.

Ravzai nazm o'lg'ali rangin manga,  
Harne yo'luqti sanami Chin manga.

Bor edi mashshotai tab'im ishi,  
Bermak alar husnining oroyishi.

Shona urub sunbuli gisusig'a,  
Surma chekib nargisi jodusig'a.

Qon yosh ila orazini ol etib,  
Yuzida ko'z mardumini xol etib.

Lafz libosin tikibon rang-rang,  
Kiymak uchun ul sanami sho'xu shang.

Kiydurubon hullai mavzun anga,  
Zavar etib yuz duri maknun anga.

Qilsam etib boshtin-ayoq jon ani,  
Hajlai noz ichra xiromon ani.

Chun anga bu xayli jafogar yetib,  
Hullalarin g'oratu toroj etib.

Jismida ne hulla qo'yub, ne harir,  
O'zini bedod ila aylab asir.

Zohir etib yig'lagudek hol anga,  
Kiydurubon eski qaro shol anga.

Turfa bukim, she'r qo'yub otini,  
Yetkurubon ko'kka mubohotini.

Turfaroq ulkim, tonirimni bilib,  
Haqdin uyalmay, manga zohir qilib.

Vahki, manga jilvagar aylar chog'i,  
Istabon ehson dog'i, tahsin dog'i.

Ko'ngluma ko'p tig'i jafu urdilar,  
Dema ko'ngul, jonima yetkurdilar.

Qolmadi chun o'zga manga choraye,  
Qal'a yasardek topibon xoraye.

Qulla chu ham oliy edi, ham vase',  
Ustiga qo'ydum bu binoyi rafe'<sup>7</sup>.

Suvg'acha xoro bila bunyod etib,  
Ko'kka degin porai po'lod etib,

Xandaqini vahm aningdek qozib,  
Kimki boqib qa'riga aqli ozib.

Ne tubiga naqb bo'lub sudmand,  
Ne yetibon kungurasig'a kamand.

Ma'mani ul xayli parizod etib,  
Jonlarin ul xavfdin ozod etib.

Tegmak uchun jismu uchurmoqqa bosh,  
Anda qilib ta'biya ko'p o'qu tosh.

Toshi aning taqviyi jonkohdin,  
O'qlari ham ohi sahargohdin.

Nogah anga yovusa bir beadab,  
Tosh ila o'qdin anga yetgay taab.

Alloh-Alloh, bu ne afsonadur,  
Kim bu fasona desa devonadur.

Arbada ko'p bo'ldi, magar mast men,  
Yoki junun qaydig'a pobast men.

Ermas esam mast, nedur muncha lof,  
Mahz junun bo'lmasa, muncha gazof.

Bu necha tandinki, shikoyat dedim,  
Anglamayin harza hikoyat dedim.

Borchasining nuktasi rangin erur,  
Nazmlari dilkashu shirin erur.

O'zda yo'q erdim bu so'z aytur zamon,  
Borcha alar yaxshi erur, men yamon.

Tebra Navoiy-yu navo demagil,  
Harne emas bo'lsa, ravo, demagil.

Savtung erur boshtin-ayoq harza, qo'p!  
Boshlarig'a evrul, ayog'larin o'p.

Borcha gado ollida bo'lg'il gado,  
To sanga shah qurbini bergay Xudo.

## XVI

*Salotin xaylining sarafrozi va xavoqin mulkining ganjpardozi  
muizzius-saltanati vad-dunyo vad-din Abulg'ozi Sulton Husayn Bahodirxon  
xalladallohu mulkahu va sultonahu va avzaha alal-olamina birrahu  
va ehsonahu madhikim, go'yo til bila madhin demak maholdurur,  
bataxsiskim qalam tili madhida lol durur.*

Qaysi shah ul xusravi olampanoh,  
Olamu odam anga mulku sipoh.

Qasri yeti gunbadi gardon kelib,  
Yetti atosig'a degin xon kelib.

Xon kelibon ham oto, ham ot anga,  
Faqr oti birla mubohot anga.



Turku mo'g'ul qullari xonlar aning,  
Mulxdehi mulksitonlar aning.

Qullug'i xonlarg'a kelib farzi ayn,  
Xonlaru shahlar shahi Sulton Husayn.

Shoh Abulg'oziyi xurshedroy,  
Royatining mahchasi xurshedsoy.

Charxi barin taxti uchun poyaye,  
Shamsai xur tojig'a piroyaye.

Abri kafi bahri javohirnisor,  
Tig'i bu daryo suyig'a jo'ybor.

Mehr kamarbandida yoqut o'lub,  
Yonidag'i xanjar anga Hut o'lub.

Nedur, agar Hut emas xanjari,  
Qabzada gavhardin anga Mushtari.

Qavs anga bir yoki chu tortib kuchun,  
Osti falak toqig'a manshur uchun.

Turki falak chun anga gohi yetib,  
Tebrata olmay nechakim zo'r etib.

Charxi mudavvar anga qolqon kelib,  
Qubbasi xurshedi duraxshon kelib.

Bo'ldi bu qolqon yuzida Kahkashon',  
Qini murassa' qilichidin nishon.

Nayzasidur charxda ermas shihob,  
Qavs kibi yopqon anga siymi nob.

La'liyi tah nuqra qilurg'a shafaq,  
Rangi-yu afshong'a quyosh zarvaraq.

Qahri o'ti chiqti muxolifgudoz,  
Lutfi yeli esti raiyatnavoz.

Boriqai xanjari ofoqso'z,  
Sha'shaai sog'ari getifuro'z.

Ilg'i saxovatdin o'lub zarfishon,  
Lutfi talattuf bila gavharfishon.

Ko'ngli bilik gavharidin ganjxez,  
Ilg'i saxovat kafidin ganjrez.

Ham karami bahr ila kon ofati,  
Ham g'azabi mulki jahon ofati.

Lek qachon qahri o'ti cheksa bosh,  
Afv'i sahobi yetibon qatraposh.

Razm kuni bo'lsa temur ichra g'arq,  
Javshani zarkor qadam to ba farq.

Rost xazon barglari suv aro,  
Yoki aduv chehrasi ko'zgu aro.

Tig'i temur panja aro chun tutub,  
Tig'i hamono bu temurdin butub.

Shu'lai tig'in demagil charkasi,  
Chekti zabona hamul o't shu'lasi.

Chun tushubon nayza aduv farqig'a,  
O'xshabon ul lahza balo barqig'a.

Tushgach aning abri kafidin bu barq,  
To'da kulu tog' aro yo'q hech farq.

Ashhabi rang ichra bo'lub barqfom,  
Rangi nekim, po'yada ham barqgom.

Muzmar ayog'i, iligida sabo,  
Oti bu ma'nidin o'lub bodpo.

Har sorikim po'ya qilib tezu tund,  
Tavsani aflok o'lub ollida kund.

Janbida gardun ko'rubon tavsanin,  
Uyki yurub yanchar aning xirmanin.

Xirman uyi bo'lmasa nevc hun mudom,  
Doyir etar sayru tuz etmas xirom.

Istasang ul xirmanu uydin nishon,  
Bas bu nishon Sunbulau Kakhashon.

Sekrimak ichraki aning yo'q hadi,  
Gunbadi gardun kibi har gunbadi.

Yo'rg'alamoq vaqti chu solib ayog',  
Kabki dari ollida andoqki zog'.

Lek yorish vaqti yugurgan zamon,  
Tog' hamon ollida homun hamon.

Sayr chog'i tushsa ko'zi har sori,  
Solib ayoq ming yig'och andin nori.

Ish kuni bu raxsh uza javlon urub,  
Yuz tuman a'do cherigin sindurub.

Razm ishi chun qolmasa maydon sori,  
Ishrat uchun qo'ysa yuz ayvon sori.

Tushsau Rustam kibi qilsa xirom<sup>2</sup>,  
Taxt uza Jamsheddek etsa maqom<sup>3</sup>,

Ham boshidin qo'ysa olib toji zar,  
Ham belidin yeshsa murassa' kamar,

Chiqsa urush bo'ktaru xaftonidin,  
Kiysa tarab hullau kattonidin,

Bog'i Eram sahnida bazm aylasa<sup>4</sup>,  
Bodai nob ichgali azm aylasa.

Qilsa navozandalar ohangi rud,  
Ahli g'ino tortsa dilkash surud.

Soqiyi gulchehra tutar birla qo'sh,  
Aylasa bazm ahlig'a toroji hush,

Shahlar adabdin tikibon yerga ko'z,  
So'rmasa, beglarga ne imkoni so'z.

Anjumani gulshani gardun bo'lub,  
Anda quyosh sog'ari maydin to'lub,

Zuhra surudini mato' aylabon,  
Badr bu majlisda samo' aylabon,

Balki Atorid kibi har dam Suhayl,  
Zohir etib madh adosig'a mayl.

Bazmi bo'lub gulshani axzar kibi,  
Qursi gazak har sari axtar kibi,

Masnadi uzra o'zi Jamsheddek,  
Yo'qki, sipehr avjida xursheddek,

El ko'zini partavi ravshan qilib,  
Bal qaro tufrog'ni gulshan qilib,

Jud iligi ahli g'ino boshig'a,  
Qaysi g'ino, shohu gado boshig'a,

Bodi xazondek dirami zar sochib,  
Abri bahoriy kibi gavhar sochib.

Toki xazon yeli zarafshon erur,  
Abri bahoriy guharafshon erur.

Ul biridek elga zarafshonlig' et,  
Bu biri yanglig' guharafshonlig' et.

Bahri falakdin sanga gavhar xiroj,  
Gavhari zoting bori olamg'a toj.

Tojingga tarsi' abad zevari,  
Avji uza bahri baqo gavhari.

XVII

*Ko'ngul ta'rifidakim, ko'ngul tilagandek qililmaydurur va aning  
vasfin sohibdillig'a mavsuf bo'lg'on kishidin o'zga kishi bilmay durur.  
Ko'ngulsiz roqim xomasin raqamkash qilmoq va bu raqam savodi  
bila ko'nglin xush qilmoq.*

Subhi azal qildi chu dehqoni sun',  
Odami xokiyni gulistoni sun'.

Esti nasimi bu guliston sari,  
Sunbulu sarvu gulu rayhon sari.

Kim bu rayohing'a yetushti futuh,  
O'ylaki tan gulshanig'a kirdi ruh.

Ermas edi anda g'araz hech gul,  
G'ayri ko'ngulkim, g'araz erdi ko'ngul'.

Eyki, ko'ngul vasfi bayon aylading,  
Sen bu ko'ngulni ne gumon aylading.

Gulshani jisming aro gul g'unchasi —  
Bitsa, gumon etma ko'ngul g'unchasi.

G'uncha emaskim, bu ko'ngul qon erur,  
Yo bo'yalib, qon aro paykon erur.

Yo'qki, bu bir shakl durur rangu bo',  
Harne kerak bo'lsun, agar bo'lsa bu.

Gar bu durur har nimakim joni bor,  
Jismida bu g'uncha sifat qoni bor.

Ham oni dajjol topib, ham nabi,  
Iso bila tengmu bo'lur markabi?

Gar bu esa Xoja, o'zin muttasil —  
Qaysi ko'ngul birla degay ahli dil?

Bu xud emas jazm sen istar ko'ngul.  
Gar bu ko'ngul bo'lsa sen andin to'ngul.

Buki ko'ngul dersen erur bu yurak,  
Ism ko'ngul birla anga mushtarak.

Ko'ngul erur bulbuli bo'stoni roz,  
Quds harimida bo'lub jilvasoz.

Royihai jannati a'lo ham ul.  
Partavi misbohi tajallo ham ul.

Solik ani Arshi muallo dedi,  
So'fi ani olami kubro dedi.

Ayni nazohatda bu a'zam jahon,  
Borcha jahon ahli ko'zidan nihon.

Ka'baki olamning o'lub qiblası,  
Qadri yo'q andoqki ko'ngul ka'basi.

Kim bu xaloyiqqa erur sajdagoh,  
Ul biri Xoliqqa erur jilvagoh.

Topqucha ganjinai asrorliq,  
Ko'p qilibon soliki atvorliq.

Ka'bag'a ham qat'i manozil qilib,  
Dayrg'a ham tayyi marohil qilib.

Ham yetibon ahli munojot aro,  
Ham tushubon ko'yi xarobot aro.

Goh bo'lubon mu'takifi xonaqah<sup>2</sup>,  
Shayx oni toatg'a qilib ro'barah.

Goh kirib dayri fano sori mast,  
Mug'bacha ollida bo'lub butparast.

Goh qilib sham'g'a parvonaliq,  
Goh pari ishqida devonaliq.

Goh visol ichra bo'lub ayshsoz,  
Goh firoq o'tig'a aylab gudoz.

Gar ko'rubon chobuki simintane,  
Xandai shirin bila sho'rafkane.

Dardu balo tog'ida Farhod o'lub<sup>3</sup>,  
Tirnog' anga teshai po'lod o'lub.

Yo yo'luqub mohruxi dilkashe,  
Dashti malohat aro Laylivashe.

Ishqida sargashta chu gardun o'lub,  
Dard biyobonida Majnun o'lub<sup>4</sup>.

Sokin o'lub o'tda samandar kibi,  
G'o'ta urub suv aro gavhar kibi.

G'arqi havo abri guharsanjdek,  
Tufroq ichinda yotibon ganjdek.

Vodiye qolmay ul anga yetmagan,  
Qat'ida takmili suluk etmagan.

Oriz o'lub jumlai holot anga,  
To bo'lubon kasbi kamolot anga.

Olam aro har ne ko'rub, kasb etib,  
To laqabi olami kubro yetib.

Kimga bu olam sari ochilsa yo'l,  
Olam aro ahli dil ul bo'ldi, ul.

Ulki yetib maxzani ra'fat anga,  
Bo'ldi bu olamda xilofat anga.

Taxti safo bo'ldi aning maskani,  
So'fiyi sohibdil ani bil, ani.

Yo'lida jonu ko'ngul aylab fido,  
Jonu ko'nguldan anga qil iqtido.

Gar etagin tutmoq emas dastras,  
Tushsa Navoiy sari bir rishta bas.

AVVALG'I HAYRAT

*Ko'ngulning adam tunidin qutulub, vujud subhig'a hamnafas bo'lub,  
malak olami bahoristonining rango-rang azhori va gunogun ashjorin  
tamosho qilg'oni va alarni «Sabbihisma Rabbikal-a'lo» amri bila  
qayyumi haqiqiy tashbihig'a mashg'ul erkonin bilib dimog'i bog'ida  
hayrat gullari ochilg'oni va ul gullar atri dimog'idin hush  
olib behush yiqilg'oni.*

Subhdur, ey soqiy, etib mehr fosh,  
Tut manga bir jom nechukkim quyosh.

Tong qushi chun berdi payomi sabuh,  
No'sh etayin bir-ikki jomi sabuh.

Subh safoliq mayidin mast o'lay,  
Tong qushig'a nolada hamdast o'lay.

Berdi sahar hullasi zar rishtatob.  
Qolmadi tun pardasidin rishta tob.

Yozdi falak toqig'a kilki qazo,  
Oyati «Vash-shams» bila «Vaz-zuho»<sup>1</sup>.

So'fiyi subh aylabon ul dam zuhur,  
Yoydi sipehr uzra musalloyi nur<sup>2</sup>.

Shom savodi asarin tiyra xok,  
Subh supurgusi bila qildi pok.

Charxki, dahr uzra edi mushkrez,  
Bo'ldi hamul mushk uza kofurbez.

Nilufari charx to'kub jolasin,  
Ochti sahar bog'i sarig' lolasin<sup>3</sup>.

Oj o'lubon panjarai obnus<sup>4</sup>,  
O't sochibon mijmarai sandarus.



Kuydi quyosh o'tig'a zulmat tuni,  
Uchti havo uzra nujum uchquni.

Jilva bo'lub gum kecha tovusidin,  
Nur ketib gullari ko'zqusidin.

Ko'z ochibon Xoja adam shomidin,  
Jon topibon tong yeli payg'omidin<sup>5</sup>.

Shomi adamni surub andoqki dud,  
Esti dimog'ig'a nasimi vujud.

Zohir o'lub o'ziga begonavor,  
Yuz urubon har sori devonavor.

Har nafasi subh kibi sorg'orib,  
Tong yelidek har dam o'zidin borib.

Yuz tuman a'juba tamosho qilib<sup>6</sup>,  
Sirrini bilmakni tamanno qilib.

Fikrati qilg'on soyi ko'prak xayol,  
Anglabon o'z komini ko'prak mahol<sup>7</sup>.

Bo'lmadi ul pardada chun kashfi roz,  
Ko'p qilib izhori sujudu niyoz.

Kasr harimida maqom ayladi,  
Ajzu tahayyurg'a qiyom ayladi.

Ya's ila o'z ajzini qilg'och ado,  
Qildi anga hotifi g'aybiy nido —

Kim, qo'pu sayr ayla bu gulshan sori,  
Ayla nazar sabzai ravshan sori.

Qo'ptiyu qo'ydi chu bir-ikki qadam,  
Bo'ldi ayon ravzai bog'i Eram.

Qaysi Eram, gulshani minusirisht,  
Gulshani minu dema, bog'i bihisht.

Har shajari sidrag'a bosh tekurub,  
Shoxin aning shoxig'a chirmashturub.

Barglari ko'kka qilib sarzanish,  
Soyasida mehr topib parvarish.

Sarvlari sarkashu zangorgun,  
Har biri ko'k borgahig'a sutun.

Mehr chinor ofatining ranjasi,  
Panjasini ojiz etib panjasi.

Sorg'orib ul mehnati jonkoh ila,  
Kuydurubon oni qiziq oh ila,

Sandalining atri Masiho dami,  
Andin o'luk misli Masih odami",

Suv bo'lubon royahasidin gulob,  
Soyasi tufrog'ni qilib mushki nob.

Soqi sapidorning andoqki siym,  
Gard aning siymig'a qo'ymay nasim.

Siy anga chun soqi sumanso bo'lub,  
Yafrog'i tah nuqrai mino bo'lub.

Charxqakim shoxi sanubar yetib,  
Tugmalarin anjum uchun xo'd etib".

Sarvu sapidor safi muttasil,  
Sarvu sapidorni aylab xijil.

Turfa bukim boshida gul ochilib,  
Ul gul ayog'ig'a dog'i sochilib.

Sabzasining rangi zumurrad kibi,  
Rishtasida tugma zabarjad kibi.

Har sori bir havzai oyinarang,  
Kim namidin tutmayin oyina zang.

Jilvagar ul ko'zguda jon surati,  
Dasta bo'lub anga arig' hay'ati.

Ruhqa orig' suyidin qut o'lub,  
Reza toshi la'l ila yoqut o'lub.

Gul oyog'ig'a suv qo'yub boshini,  
Boshini qo'ykim, bu ushoq toshini.

Ziynat uchun qilg'ali xalxol<sup>10</sup> anga,  
Yo'qki bu naqd o'lg'ali pomol anga.

Bikr sifat g'uncha bo'lub parda cheh,  
Rishtai baxtidin ochilmay gireh.

Shohidi gul husnu namoyish uchun,  
Xon olib ilgiga kushoyish uchun.

Dur solibon shabnamu esgach nasim,  
Bargi shukufa to'kubon anda siym.

Sabzau gul aksi tushub suv aro.  
Orazu xat o'ylaki ko'zgu aro.

Gul uza shabnam chu tushub har varaq,  
Ko'rguzub afruxta yuzda araq.

Sunbuli pechon bo'lub af'i misol,  
G'uncha aning nishidin ozurda hol.

Zahr ila yoshil bo'lubon paykari,  
Bulbul aning boshida afsungari

Tugmaki ostida gumon etti xayl,  
Zahr durur qilg'on oyog'ig'a mayl.

Nishtar urarg'a chidamay xordin,  
Bulbul etib doiya minqordin.

Sarv ayog'ida xiromon tazarv,  
Shu'la tazarv o'ldi, aning dudi — sarv.

Jilva qilib har sori tovusi mast,  
Gullaru gulbun topib andin shikast.

Tolni yangi shox ila bargi g'ulu,  
Ayladi devonai jo'lidamo'.

Bog' hakimi hiyalu makr ila,  
Solib ayog'ig'a sudin silsila.

Nargis arilmay marazidin arig',  
Ko'zlari ayni yaraqondin sarig'.

Ko'z tikibon suvg'au rangi sinib,  
Sabzani suv ichra bolig' sog'inib<sup>11</sup>.

Har sori zang zar etib oshkor,  
Nomiya paykig'a hamishabahor<sup>12</sup>.

Rindi muqammirdek etib lola shayn,  
Tosi aro jola bo'lub ka'batayn<sup>13</sup>.

Gul ul o'ying'a chu havas ko'rguzub,  
Jaybidag'i xurdalarin utquzub.

Jola binafshag'a urub toshini,  
Bog'lab ko'k yog'lig' ila boshini.

Ko'rguzubon barq bulutdin daraxsh,  
Qatra Xizr chashmasidek ruhbaxsh.

Qilg'ali amvotni ihyo nasim,  
Fosh etib anfosi Masiho nasim.

Qatrasi gavhar suyidin ham firih,  
Tufrog'i jannat gulidin ham nazih.

Ul bu Eram tavfida behol o'lub,  
Zoyil o'lub hushu tili lol o'lub,

Har tarafikim boqib ul ravzaning,  
Ko'zga g'aroyib ko'runub birga ming.

Necha nazar bo'lsa tamoshotalab,  
Bul'ajab uzra ko'runub bul'ajab.

Topmadi sarrishtani chun fikrati,  
Hayrat uza qildi g'ulu hayrati.

Aql ishin ya's junun ayladi,  
Vasvasa hushini zabun ayladi<sup>14</sup>.

Kim bu gulistonkim erur bir jahon,  
Balki jahone gul ichida nihon.

Butmak o'zi xud emas imkon anga,  
Gar bu emas kim esa dehqon anga<sup>15</sup>.

Soldi nihodig'a bu hayrat xurush,  
Kim dedi ul hayrat ichinda surush —

Kim, nedurur hayrati befoyida,  
Sanga bu hayrat ila ne foyida.

Sirri haqiqatdin o'lub bahravar,  
Ayla basirat ko'zi birla nazar<sup>16</sup>.

Dur kibi yetgach qulog'ig'a bu so'z,  
Nuri hidoyat bila ochti chu ko'z.

Foxtadin qumriyu bulbulgacha,  
Balki shajar yafrog'idin gulgacha,

Barchasi qayyumig'a zokir edi,  
Har bir aning shukrig'a shokir edi.

Gar yel, agar suv bo'lubon nag'masoz,  
Soni' ila har biriga o'zga roz<sup>17</sup>.

Chekti bu hayrat bila o'tluq xurush,  
Kim bori go'yo edilar, ul — xamush

Soldi dimog'ig'a bu xomushluq  
Oh buxori bila behushluq.

Soqiy, yetubdur yana jismimg'a tob,  
Yuzuma ur, boda suyidin gulob.

To topibon hush takallum tuzay,  
So'z chamani ichra navo ko'rguzay.

### XIX

#### IKKINCHI HAYRAT

*Ul humoyunbol qushning malak olami gulistonidin malakut olami  
shabistonig'a havo qilib, ul rafi' manozilning sham' va mashoilin  
zabona tilidin «Vazkurisma rabbika va tabattal ilayhi tabtilo» hukmi  
bila xoliqi asliy zikriga zokir erkanin ma'lum qilib, hayratdin bir  
olamdin yana bir olamg'a borg'oni va bu hayrat yana ani  
bexudluqqa solg'oni<sup>1</sup>.*

Turki Xo'tan yopti chu zebo jamol,  
Mushkfishon bo'ldi nasimi shamol<sup>2</sup>.

Urdu nafas nafhai anbar nasim,  
Yopti varaq safhai abharshamim<sup>3</sup>.

To'kdi jahon gulbuni bargi suman,  
Ochti falak bog'chasi nastaran.

Lu'batl Chin chehra nihon ayladi,  
Zulfin ochib mushkfishon ayladi.

Royihadin ayladi bu suda mushk,  
Anjumi shabgard dimog'ini xushk.

O'ylaki ul yubs chu ta'sir etib,  
Chekratibon ko'zlari uyqu ketib.

Pardagi o'ldi egin ichra karak,  
Uchti ochib pardalarin shabparak<sup>4</sup>.

Bumki azmi falak o'ldi anga,  
Doiradin oy dafak o'ldi anga<sup>5</sup>.

Ko'k o'lang atrofida har guna vard,  
Anjum ila doirai lojuvard<sup>6</sup>.

Bu kecha ham yuz taab o'ldi anga,  
Bir-biridin bul'ajab o'ldi anga<sup>7</sup>.

Aylar edi charxi musha'bidshior,  
Har nafase o'zga tilism oshkor.

Ko'k bu musha'bidning o'lub chodari,  
Axtar o'lub lu'batl siminbari.

Hay'ati tuloniy ila Kahkashon,  
Charxqa sayr etgali yo'ldin nishon.

Dema kitoba falak ayvonig'a,  
Rahrav o'lub charx shabistonig'a.

Qildi chu ziynat bila bog'i sipehr,  
Axtarining har gulini rashki mehr.

Toyiri qudsiy yana istab navo  
Uchti dog'i ul sori qildi havo<sup>8</sup>.

Qolibi xokiy qolibon xok uza,  
Chiqti falak axtari aflok uza<sup>9</sup>.

Ruh qanoti bila toyir bo'lub,  
Charx shabistonig'a soyir bo'lub<sup>10</sup>.

Ushbu jinon ravzasining toyiri,  
Bo'ldi chu avvalg'i chaman soyiri<sup>11</sup>.

Zoti aning javhare erdi basit,  
Olam anga markaz o'lub, ul Muhit.

Halqa bo'lub javhari ulviy xirom,  
Xotam anga nuqtai sifliiy maqom.

Halqa dema, balki mudavvar lagan.  
Sham'i aning mash'alai anjuman.

Mash'al o'lub hajr shabistonig'a,  
Sham'i gado kulbai vayronig'a.

Nuri berib kulbag'a sham'i farog',  
Sham'ni qo'ykim, guhari shabcharog'.

Hay'ati gah doiramonand o'lub,  
Savt anga tasbihi Xudovand o'lub.

Goh bo'lub paykari andoqki til,  
Aytur uchun Haqqa sano muttasil.

Chun yana bir ravzani qildi vatan,  
Sokin edi bir buti siminbadan<sup>12</sup>.

Qoshi fusungar, ko'zi tannozi ham,  
Ul bir etib ishvayu bir nozi ham.

Turrasi marg'ulasida yuz girih,  
Mushkdin aylab qamar uzra zirih.

Shohid o'zi erdi, navosoz o'zi,  
Soqiy o'zi, zamzama pardoz o'zi.

Rangi yigitlik mayidin ol o'lub,  
Hamdami bir piri kuhansol o'lub.

Zohir etib za'f so'ngaklar anga,  
Kim ko'runub jismida raglar anga.

Ragzan o'lub mutribi hajjomvash,  
Raglar aro qon yo'qidin nolakash.

O'zi ham ul raglar ila hamsado,  
Raglaru ragzan qilibon shukr ado.

Chun yana bir hujra sori chekti ranj,  
Anda edi nodirai nuktasanj.

Ism o'lub ul hujrada munsho anga,  
Rishtai dur xat bila insho anga.



Mum kibi tab'i aning dilpazir,  
Borcha nigindin bo'lubon naqshgir.

Suv kibi har zarfg'a ohang etib,  
O'zini ul zarf ila hamrang etib.

Xomasidin noma siyoh o'lmayin,  
Yozg'oni juz hamdi Iloh o'lmayin.

Chun yana gulshanni maqom ayladi,  
Har chamane ichra xirom ayladi.

Anda nihon erdi pari paykare,  
Durji sipehr ichra samin gavhare.

Gavhari sarchashmai jondin yoruq,  
Harne yo'q ondin yoruq, ondin yoruq.

Hay'ati oyinai getinamo,  
Ko'zgusi oyning topib andin jilo.

Charx uza parvozi maloyik sifat,  
Xatti shuoi anga har yon qanot.

Chashmasini chunki Masiho topib,  
Pok damidin o'luk ihyo topib.

Chashma aro obi hayoti aning,  
Kecha savodi zulumoti aning.

Paykaridin zohir o'lub chashmalig',  
Xatti shuoi anga har yon arig'.

Yo'qki bu xat boshtin-ayoq til bo'lub,  
Har tili Haq zikriga qoyil bo'lub.

Chun yana maydon sori ko'rguzdi xez,  
Tahamtane<sup>13</sup> tortib edi tig'i tez.

Qahri o'ti cheksa chu dudi g'azab,  
Har sharari yuz yil o'lub zuzanab,

Jumlai olamg'a ishi qahr o'lub,  
Achchig'idin boshtin-ayoq zahr o'lub.

Tig' solib har sori achchig'idin,  
Qon demakim, zahr tomib tig'idin,

El boshining kosasidin jom anga,  
May yerida qon bo'lub oshom anga.

Ham o'qi tiyra kecha anjumraboy,  
Ham qilichi zaxmi bo'lub yangi oy.

Rumhi bila o'qlari, bal tig'i ham.  
Tillar o'lub degali shukri niam.

Chun yana bir marhalag'a chekti raxt,  
Sokin edi sahnida bir nekbaxt.

O'zi malakvash, kiyimi hullason,  
Xoh rido bil ani, gar taylason.

Minbari shashpoya uza o'lturub,  
Zuhd shukuhi yuzidin bilgurub.

Chehrani ochmoq kecha odat anga,  
Mash'al o'lub nuri saodat anga.

Davlati sarmad kibi farrux jamol,  
Aqli mujarrad kibi farxundafol.

Kishvar anga nuru safo xittasi,  
Anshi etib hamdu sano xutbasi.

Chun yana bir dayr sori qildi sayr.  
Ko'rdiki bir hindu erur piri dayr.

Har ishida sabr tamanno anga,  
Sabr kibi ishda taanno anga.

Tiyrajabin o'ylaki mehnat kuni,  
Langxirom o'ylaki furqat tuni.

Dayri sabukravg'a nighbon bo'lub,  
Lek hatiysayru garonjon bo'lub.

Tomini bu dayrning aylab matof,  
Qarn o'tubon aylab ani bir tavof.

Ilgidakim subhani aylab mudir,  
Tilni qilib zokiri Hayyi Qadir.

Chun yana bir qullag'a aylab qaror,  
Topib aning davrini mahkam hisor.

Burjig'a bu yetti falakdin uruj,  
Balki aning bobida «Zotil-buruj»<sup>14</sup>.

Xandaqining umqig'a andoza yo'q,  
Burji o'n ikki, anga darvoza yo'q.

Ravzana har burji aro g'urfaye,  
Jilvagar ul g'urfa aro turfaye.

Turfa bukim sayr qilib bardavom,  
Sayrlari lek o'n ikki maqom.

Hol tili birla maqol aylabon,  
Hamdi Karimi Mutaol aylabon.

Chun boridin yuqqori urdi alam,  
Yuqqorig'i poyag'a qo'ydi qadam<sup>15</sup>.

Ko'rdi o'shul xittani butxonaye<sup>16</sup>,  
Har butining hay'ati durdonaye.

Anda ne rahbon edi, ne barhaman,  
Lek bori butlar edi siymtan.

Har buti butgarg'a parastishda mast,  
O'ylaki but sajdasida butparast.

Muncha g'aroyibg'aki qildi guzar,  
Ayladi ibrat ko'zi birla nazar.

Borchasida zikru sujud angladi,  
Ma'rifatullohg'a shuhud angladi.

Yuzlanib o'z hoida g'ayrat anga,  
Birga ming o'ldi yana hayrat anga,

Kim bori zokir edi, ul gungu lol.  
Borchasi majmuu ul oshufta hol.

Qildi yana hayrati behad ani.  
Hush zavoli bila bexud ani.

Soqiy, erur jismim aningdek zaif,  
Kim nafasim chiqqali ermas harif.

Jomg'a xud men qo'yaolmon og'iz,  
Paxta bila og'zima oni tomiz.

## XX

### UCHUNCHI HAYRAT

*Ul oshuftahol musofirning malakut olami shabistonidin badan mulki shahristonig'a nuzul qilg'oni va ul kishvar ahlining ham «Fazkuruniy azkurukum» buyrug'i bila Qodiri mutlaq yodi birla erkonin bilib, hayrat o'ti ishtiol etib, vujudi ul o'tdin kul bo'lub, fano yeliga bilkul sovurulmoq bila ikkinchi fano maqomin hosil etib, andin so'ng Haqdin baqoyi komiliy yetib, Xojaning ul mulkda xilofat taxtig'a qaror tutqoni.*

Mehr chu mashriq sori urdi alam,  
Oldi jahon mamlakatin yakqalam<sup>1</sup>.

Tavsani gardung'a minar mayl etib,  
Chiqti ufuq jonibidin sekretib.

Chunki biyik bo'lg'ucha qildi shitob,  
Soldi harorat bila olamg'a tob.

Xojaki hayrat mayidan mast edi,  
Mastliq uyqusig'a hamdast edi.

Soldi quyosh tobi chu Mag'ribg'a jo'sh,  
Seskanibon kirdi dimog'ig'a hush.

Asru achig' may bila maxmur o'lub,  
Balki qiziq o't bila mahrur o'lub.

G'urbat o'ti har dam o'lub shu'lazan,  
Tushti xayolig'a havoii vatan.

Yona safar ranji qabul ayladi,  
Manzili azmig'a nuzul ayladi.

Chunki jahon arsasidin topti bahr,  
Keldi aning o'llig'a bir turfa shahr<sup>2</sup>.

Har yoni a'jubag'a had nopadid,  
Turfa behadg'a adad nopadid.

Sun' iligi bolchig'in aylab xamir,  
Lutf ila aylab ani hay'atpazir.

Ikki sutun uzra qilib ta'biya,  
Anda ko'p a'juba qilib ta'miya

Vaz'ini ul damki murattab qilib,  
To'rt javohirni murakkab qilib<sup>3</sup>.

Ikki anga gavhari ulviy najod,  
Ikki yana javhari siflii nihod<sup>4</sup>.

O'yla taodulki bo'lub to'rt zid,  
Borcha tarakkub yuzidin muttahid.

Masjidu bozoru mahallot anga,  
Ko'chavu bo'stonu xarobot anga,

O'tig'a Muso o'ti yanglig' ziyo<sup>5</sup>,  
Yeli Masiho damidek jonfizo.

Suyi latofatda zuloli bihisht,  
Tufrog'i gul, nafhau anbarsirisht.

Kishvarining qalbida bir taxtgoh,  
Bo'lmoq uchun xusravi kishvarpanoh.

Taxtig'a har holki tori bo'lub,  
Jumla aqolimida sori bo'lub,

Anda saloh o'lsa, borida saloh,  
Bo'lmasa solih. borisi befaloh.

Avjida bir qasrki me'mori sun',  
Aylab ani muqassam pargori sun'.

Vaz'ida hayron xiradi xurdabin,  
Lol qolib tarhida naqqoshi Chin<sup>6</sup>.

Qasr uza bir gunbadi oliy asos,  
Gunbadi gardun bila ra'san bi ra's.

Harne raqam gunbadi gardun aro,  
Borchasi bu gunbadi mavzun aro.

Qasrig'a bir turfa eshik ochilib,  
Kim duru gavhar uyidin sochilib<sup>7</sup>.

Bo'lub ikki la'ldin avbob anga,  
Har sori dandona duri nob anga.

Farshiki yoqut ila marbut o'lub,  
Durlari yoqut aro mazbut o'lub<sup>8</sup>.

Har neki ma'kul ila mashrub erur,  
Kim yegali, ichgali marg'ub erur.

Shahrg'a bu yo'l bila aylab xirom,  
Shahr elining quti bo'lub subhu shom.

Fazlalari dafi uchun ikki yo'l,  
Jonibi asfaldin o'lub zohir ul.

La'l eshigi uzra iki bodgir,  
Hay'ati matbuu o'zi dilpazir.

Ham kiribon, ham chiqib andin nasim,  
Toshida gachkorlig'i soda siym<sup>9</sup>.

Gunbadi ruknig'a maxorij bo'lub,  
Shahr yo'lidin yo'li xorij bo'lub,

Ushbu mamar birla nasimi shamol  
Shahr elini aylabon osudahol.

Shoh riyozig'a ham aylab murur,  
Yetkurubon bazmig'a yuz ming surur<sup>10</sup>.

Shohg'a bir noyibi hikmatmaob,  
Kishvari atrofida ul komyob.

Diqqat aro fikri qayonkim ketib,  
Nuqtai mavhumni yuz qism etib.

Fikrati har amrda farxundaroy,  
Roi bori uqdada mushkilkushoy.

Shoh ani o'z mulkida dastur etib,  
Mulkini ul adl ila ma'mur etib.

Yuqqorig'i qasr uza farrux vazir,  
Sokinu el amrig'a farmonpazir.

Qasrda besh rahba muhayyo anga,  
Bo'lg'ali har sori tamosho anga<sup>11</sup>.

Lek bu besh rahbada besh kordon,  
Bir-biridek har biri bisyordon.

Har biri bir rahbada topib mahal,  
O'z fanida bir-biriga yo'q badal.

Biri nazar ilmini idrok etib,  
Ayni safodin nazarin pok etib.

Biriga ish buki eshitgach samo',  
Qilg'ay ani diqqat ila istimo'.

Biriga qilmoq bo'lubon ta'm dark,  
No'shi hayot o'lsun, agar nishi marg.

Biriga har royiha aylab asar,  
Xoh quruq nofau, gar mushki tar.

Birga gulu xor muassir bo'lub,  
Sovug', isig'din mutaassir bo'lub.

Bosirau somiau lomisa,  
Zoyiqau shomma bila xomisa.

Har neki olamda bo'lar mudraki,  
Kimdaki idrok munga yo'q shaki.

Qasrki dahlezi topib naqshi Chin,  
Sohatida sokin o'lub besh amin,

Har neki zohir bo'lubon besh havos,  
O'z ishi kunhida bo'lub rahshunos.

Borcha javohirni yig'ib kelturub,  
Burnog'i xozin qo'lig'a topshurub.

Andin ikkinchiga topib intiqol,  
Kim bo'lubon xozini oning xayol.

Andin uchunchi bo'lubon naqdsanj,  
Hofiz o'lub harne anga yetsa ganj.

Chun yana birga bo'lubon muntaqil,  
Ul mutasarrif bo'lubon muttasil.

Harne tasarruf qo'li oning yetib,  
Borchani dasturg'a taslim etib.

Zabt etibon noyibi ravshanzamir,  
Naqdi mamolikni nechukkim vazir.

Azm etibon dargahi iqbolg'a,  
Yuz qo'yubon Ka'bai omolg'a.



Arz qilib borchani shoh ollida,  
Dodgari mulkpanoh ollida.

Shah bu xazoying'a chu hozir bo'lub,  
Diqqat ila borchag'a nozir bo'lub.

Rad qilibon harneki mardud erur,  
Oyirib ul tuhfaki maqsud erur,

Hazrati izzatqa niyoz aylabon,  
Tuhfalarin vositasoz aylabon.

To yetib ul lahza nidoyi qabul,  
Topibon ul tuhfa tariqi vusul.

Badraqai rohi najoti bo'lub,  
Mujibi raf'i darajoti bo'lub.

Xojaki ko'rdi yana mundoq jahon,  
Zarrada kavn. qatrada daryo nihon.

Fikr nahangig'a yana qut o'lub,  
Lujjai hayrat aro mabhut o'lub.

Fikrat o'ti ko'kka chekib dudini,  
Hayrati nobud etibon budini,

Chunki bu hayrat aro ranju ano  
Foni etib Xojani balkim fano.

Haqdin o'lub toza vujude anga,  
Toza vujud ichra shuhude anga.

Sham'i baqo chun yorug' aylab ko'zin,  
Anglabon ul saltanat ichra o'zin.

Fath o'lub ul mulk ila kishvar anga,  
Balki jahon mulki musaxxar anga,

Mulk o'ziyu taxt o'ziyu shoh o'zi,  
Borcha o'zi, borchadin ogohi o'zi.

Nafsg'a chun orif o'lub mo'-bamo',  
Foyiz o'lub «Qad arafa rabbahu»<sup>12</sup>.

Soqiy, olib kel qadahi xushguvor,  
Birga olib tortay ani xojavor.

To chekibon bir-iki jomi shigarf,  
Xoja madihida suray necha harf.

## XXI

*Xoja Bahouddin Naqshband' quddusa sirruhu madhidakim, sun'  
naqqoshi hikmat xomasi bila ro'zgor sahifasida aning vujudi naqshin  
islomiy tarh etti va surati irshodi bila kufr ahli ko'ngli varaqidin  
xitoyi va farangi naqshi ketti va Xoja Ubaydulloh sallamahumullohg'a  
niyoz arzikim, ul hazratqa xalafi mutlaq, balki xalifai  
barhaq durur.*

Xojaki, naqqoshi sipehri baland,  
Bo'lg'ali yer safhasig'a naqshband,

Ayladi avroq munaqqash base,  
Naqsh raqam ayladi dilkash base<sup>2</sup>.

Lek aning naqshi kibi dilnavoz,  
Chekmadi to xomasidur naqshsoz.

Sobit aning ko'ngli aro naqshi jud,  
Mahv o'lub ul safhada naqshi vujud.

Naqshig'a teng tutmay o'zin naqshi Chin,  
Olam o'lub ilgida naqshi nigin.

Bo'yla nigin naqshiga farmonbari,  
Muncha ajab naqsh ila devu pari.

Sa'y ila bu gunbadi bisyornaqsh.  
Har nechakim aylabon izhor naqsh.

Naqshining ollida namudor uza,  
Naqsh bo'lub safhai devor uza,

Muncha ajab naqsh bila arjmand,  
Kimsa emas g'ayri shahi naqshband.

Jong'a chekib ranju ano naqshini,  
Sizmoq uchun anda fano naqshini,

Joni chu ul naqsh makoni bo'lub,  
Naqshdin o'zga bori foni bo'lub.

Turfa bukim naqshga ko'z solmayin,  
Jonida juz naqshi baqo qolmayin.

Ko'ngli chekib maskan aro naqshi sayr,  
Sayrda yo'q ko'ngli aro naqshi g'ayr.

Sayr anga bu toqi munaqqash uza,  
Naqshi kafi lavhai zarkash uza.

Chun izining naqshig'a surtub jabin,  
Ravshan etib ko'z falaki naqshbin.

Ravzai jannatqa chu aylab xirom,  
Holi aning o'rnida qoyim maqom.

Ulki bu ofoq ichida toq erur,  
Toq nekim, murshidi ofoq erur.

Charxi nigun dargahida xokro'b,  
Balki jabini bila xoshokro'b.

Yuz qo'yubon qullug'ig'a shohlar,  
Bazmida hexud o'lub ogohlar,

Xizmatidin har kishi ogoh o'lub,  
Garchi gado ma'ni ila shoh o'lub.

Necha tushub egniga qilsang qiyos,  
Xozini irfon kafidin yuz libos.

Zarq ila tag'yiri libos etmayin,  
Tafriqai xazzu palos etmayin.

Suhbatida har necha beshakku rayb,  
Jilva qilib shohidi ra'noyi g'ayb.

Go'shai xilvat aro tutmay qaror,  
O'zini qilmay yashurun oshkor'.

Atlasi gardun bila ming zebu far,  
To'rtta to'ni ostida ko'k ostar.

Lek o'shul to'rmasi har tor ila,  
Faqrda yuz murshid uchun silsila.

Mulki jahon mazrai dehqoni ul,  
Balki jahon mulki nigahboni ul.

Yo'qki mamolikka nigahbon o'lub,  
Borcha salotin uza sulton o'lub.

Ruq'alari yetsa ne shah qoshig'a,  
Ish anga qo'ymog'lig' o'pub boshig'a.

Anglab ani bosh uza toji yaqin,  
Har so'zi ul toj uza durri samin.

Shahg'a dema, lutf chog'i tojbaxsh,  
Balki gadolarg'a dog'i tojbaxsh.

Haq so'zini elga qilurda ado,  
Teng ko'runub ollida shohu gado.

Chun cholinib navbati qadrig'a ko's,  
Shahlar o'lub navbat ila xokbo's.

Xotir o'lub mehri jahontob anga,  
Avji sharaf anjumi as'hob anga.

Har biri olam eliga rahnamo,  
Dema jahon ahliki, ahli samo.

Borcha suluk ahlig'a rahbar bo'lub,  
Yo'l elig'a tiyra tun axtar bo'lub.

Tiyra nazarlarg'a berib nuru tob,  
Har birisi o'ylaki najmu shihob.

Garchi tijorat bo'lub oyinlari,  
Bo'lmadi bir mulkda taskinlari.

Yuklarida tuhfa naqdi fano,  
Har biri ul naqddin istab g'ino.

Simlari borcha fano konidin,  
Durlari yo'qluq suvi Ummonidin.

Chun kivurub har sori raxti najot,  
Band bo'lub chorsuyi koinot.

Olg'uchi gar vahmi ziyonbud etib,  
Lek bu savdo chu qilib sud etib.

Toki jahon qasrining imkoni bor,  
Ustida oning falak ayvoni bor.

Qo'ymasun ayvoni jahonni tihi,  
Dabdabai ko'si Ubaydullahi.

Himmatidin bizni ham etsun Xudoy,  
Faqr yo'lida g'ani, imong'a boy.

## XXII

### AVVALG'I MAQOLAT

*Imon sharhidakim, «Al-imonu an tu'minu billahi va maloikatihi va kutubihi va rusulihi va bil-yavmil-oxiri va bil-qadari xayrihi va sharrihi» demakdin maqsud bu kalimot emas va agar ahli zohir muni imon desa, ahli ma'ni demas va uluhiyat daryosig'a shinolig' ajzin zohir qilmoq va maloyika havosida bir necha qanot urmoq va kutub avroqida bir necha harf surmak va rusul jodasida necha qadam yugurmak va qiyomat qoyim bo'lurida qiyom ko'rguzmak va qadar bobida aloqadri hol tarannum tuzmak.*

Kimki jahon ahlida inson erur,  
Bilki nishoni anga imon erur.

Ulki hadu rasm qo'yar mantiqiy.  
Toki bu hayvoni bila notiqiy.

Ikkisi insong'a bo'lub haddi tom.  
Zumrai inson aro aylar xirrom.

Nav'ini notiq bila hayvon qilur,  
Notiqu hayvonini inson qilur.

Sen dog'i inson muni qilsang gumon.  
Bilki hamon sen-senu hayvon hamon.

Muniki inson mutafovit erur.  
Tengri kalomi xabar andin berur.

Bas kishi jazm aylasa inson oni.  
Yaxshi-yomon ichra tafovut qoni?

Bo'lmadi bas noqisu komilda farq,  
Topmag'ay el olimu johilda farq.

Bu sifat insonda topilmas faloh,  
Mantiqiy aylabdur ani istiloh.

Bas ani inson atag'il beriyo,  
Kim ishidur sabr ila shukru hayo.

Bo'yla buyurdi nabiyi Hoshimi.  
Kim bu uch imonning erur lozimi.

Bas ani inson demak o'lg'ay ravo,  
Kim ishi imon bila topqay navo.

Eyki, sanga ayladim insonni sharh.  
Emdi eshitkim qilay imonni sharh.

Olti durur shar'da bilgil adad.  
Harneki mo'ming'a kerak mu'taqad.

Aylasa bu olti bila ixtisor.  
Olti jihatdin anga bo'lg'ay hisor.

Kim bu hisor o'lsa aning ma'mani,  
O'g'ridin emin bo'lubon maxzani.

Naqdini bu hodisa berohidin,  
Balki o'kush bim guzargohidin

O'tkaribon xayru salomat bila,  
Qolmayin ul yo'lda malomat bila.

Maqsadi asliyg'a xirom aylagay,  
Qurb harimini maqom aylagay.

Anglading ijmol ila ta'vilini.  
Emdi eshit har biri tafsilini.

Oltidin avvalg'iki maqsud erur,  
Bilmak erur Haqniki, mavjud erur.

Aytma mavjudki, ayni vujud,  
Harneki mavjud anga fayyozi jud.

Zoti vujudig'a bo'lub muqtaziy,  
Nuqs, kamolidin o'lub munqaziy.

Andin o'lub munhat ila murtafi',  
Munhat agar murtafi' ul muxtari'.

Zotig'a daryoyi qidam chun toshib,  
Bir yon azal, bir yon abaddin oshib.

Harneki qoyim, o'zi Qayyum o'lub,  
Bo'lg'usi ul, borchasi ma'dum o'lub.

Borcha jahon ahlig'a zoti nihon,  
Mazhari asmou sifoti jahon.

Borchani ham qilg'uchi nobud o'zi.  
Borcha borib, bo'lg'uchi mavjud o'zi.

Ikki jahon mulki musallam anga,  
O'zga jahon bor esa ul ham anga.

Oltidin ikkinchi — maloyikni bil,  
Borchag'a tasdiqi vujud aylagil.

Bilkim erur zoyiri aflok alar,  
Nafsning oloyishidin pok alar,

Har bir uli-ajniha tovus o'lub,  
Donai tasbih anga ma'nus o'lub,

Tobi muhabbat chog'i ul ajniha,  
O'tlari tug'yoni uchun mirvaha.

Bir bila topmay bu janoh inqito',  
Bir neki, masno va sulosa rubo'.

Ne qadame amrsiz olib, ne dam  
Borcha vujud avvalidin to adam.

Poku mujarrad borining javhari,  
Tufroqu suvu yelu o'tdin bari.

Xuldi harin qushlaridek shavqnok,  
Amr adosidin o'lub zavqnok.

Bir qush alar ichraki topmay bu zavq,  
Foxta yanglig' topibon bo'yni tavq.

La'nda uch harfki bor oshkor,  
Har birining domanasi halqavor.

Har birining halqasi topib vusul,  
Tavqda mal'un bo'lub ul bulfuzul.

Angla uchunchi kutubi osmon,  
Tengri so'zi bil borisi begumon.

Qaysi kutub, har biri daryoyi jarf,  
Har so'zi bu bahrda durri shigarf.

Bahr dema, har biri bir turfa kon,  
La'l ila gavharg'a sarosar makon.



Gar uchi uch sham'i munavvar bo'lub,  
Lek biri mash'ali xovar bo'lub.

Bo'lsa mavolidi salos ul uchi,  
Bu yeti oboning ishin qilg'uchi.

Bal yeti obo munga ummul-kitob,  
Sab'i masoniy topib andin xitob.

«Sab'i masoniy» neki, har surasi,  
Davlatu din xittai ma'murasi.

Boshida har surasi tazhib ila,  
Dargahi koshiy anga tartib ila.

Bog' anga har safhaj gulshan misol,  
Jadvali atrofida ravshan zulol.

Bog' dema, balki falak, ne falak,  
Satrlari har sori saf-saf malak,

Bal anga har doirai ashrgard,  
Rutba aro bir falaki lojuvard.

Haq so'zi har juzvi varaq to varaq,  
Borcha haqoyiq, balkim borcha haq.

Misl anga ma'dumu mushobih adim,  
Qoyili andoqki qadim ul qadim.

Bil yana to'rtunchi rusul ma'shari,  
Har biri bir bahri safo gavhari.

Borchasi haq amrila nahyin tuzub,  
Elga bori haq yo'lini ko'rguzub.

Hujjat agar istasa har tiyra zot,  
Har birisi ko'rguzubon mu'jjizot.

Zohir o'lub borchag'a sidqi maqol,  
Shoyibai kizbg'a yo'q ehtimol.

Garchi payambar borig'a ism o'lub,  
Lek alar jismi ham uch qism o'lub.

Zumrai avval kelibon anbiyo,  
Vahy ila ru'yodin o'lub peshvo.

So'ngra rusulkim, neki Haqdin yetib,  
Borchasini xalqqa irsol etib.

So'ngra ulul-azmki aylab jidol,  
Da'vati din qilga-yu hukmi qitol.

Borchasining a'zamiyu afsahi,  
Anglaki, kelmish nabiyi Abtahi.

Ko'ngli Haq irsolig'a rosix bo'lub,  
Dini – rusul dinig'a nosix bo'lub.

Kufr qarong'usida har mursale  
Dini bila yorutubon mash'ale.

Qilg'ach aning shar'i quyoshi zuhur,  
Qolmayin ul mash'alalar ichra nur,

Xatm anga oyini risolat tamom,  
Din aning islomi-yu bas vassalom.

Keldi beshinchi anga yavmul-hisob,  
Dema hisob, aytki yavmul-azob.

Mu'taqid o'lmoqki qiyomat bo'lur,  
Qilg'onidin elga nadomat bo'lur.

Shodliq as'hobi yaming'a raqam,  
Safhalari lavhig'a yetmay qalam.

Ahli shimol ichra tushar mojaro,  
Nomalari yuzlari yanglig' qaro.

To'g'ri tarozug'a bo'lur ikki bosh,  
Bir sori gavhar yana bir sori tosh.

Ko'pruk uza xalq haroson bo'lur,  
Birga qatiq, biriga oson bo'lur.

Do'zax o'ti dudig'a yo'q intiho,  
Xalq halokig'a bo'lur ajdaho.

Yetti boshi gunbadi davvordek,  
Yetti og'iz har birisi g'ordek.

Dema tomug' yetti eshigin ochib,  
Kim yeti og'zi aning o'tlar sochib.

Gulshani firdavs aro nozu naim,  
Onchaki yo'l topmay aroda nasim.

Huri aning ruhi musavvar kibi.  
Qaddu labi tubi-yu kavsar kibi.

Sokinig'a jömi baqodin umid,  
Qaysi baqo, balki liqodin umid.

Sodis anga keldi hadisi qadar,  
Bil azaliy sabb nekim xayru shar.

Sofu to'lo bo'lg'ali jömi alast,  
Bo'lg'ucha ul maydin abad ahli mast,

Harne bu majlis aro topti vuqu',  
Xoh usul anglavu xohi furu',

Mast agar tortti noxush sado,  
Mutrib agar ayladi dilkash navo,

Ba'zi agar Ka'ba sori qildi azm,  
Ba'zi agar dayr aro tuzdi bazm,

Bodiyada ul chekibon yuz ano,  
Bo'ldi munung maskani dayri fano.

Mast chiqib mug'bachai mayparast,  
Qildi saloh ahlini rasvovu mast.

Zohid agar bo'ldi borib durdno'sh,  
Fosiq agar bo'ldi kelib xirqapo'sh,

Borchasi Haq ilmida ma'lum edi,  
Lavhai mahfuzda marqum edi.

Ne topibon yaxshi amaldin bihisht,  
Ne solibon do'zax aro fe'li zisht.

Ulki qilib Tengriga ming yil sujud,  
Bo'lsa shaqiyi azaliy qayda sud?

Mug'bachalar dayrda qilg'on halok  
Bo'lsa saidi abadiy qayda bok.

Kingaki bu oltig'a bor e'tiqod,  
Ham bu sifat birlaki qildim savod.

Har nechakim nomasiyah bo'lsa ul,  
G'arqai daryoyi gunah bo'lsa ul,

Tong yo'q agar afv o'lub ummid anga,  
Tutsa ilik rahmati jovid anga.

Lek bu dard o'ti erur jongudoz,  
Ushbu gudoz ichra kuyub ahli roz.

Bu biri o'z holig'a motam tutub,  
Ul biri tarki bori olam tutub.

Kim bu biyik poyaki qildim bayon,  
Kimga yetar-yetmasi ermas ayon.

Yetmagi ham kimsaga mutlaq emas,  
Yetmasi ham jazmu muhaqqaq emas.

Kofiru mo'min sori qilsang sog'inch,  
Ne anga ya'su ne muning ko'ngli tinch.

Kuydurubon xalqni biymu umid,  
To xud erur kim shaqi-yu kim said.

Maxlas ishi barchag'a niyatdadur.  
Topmoq ani lek mashiyatdadur.

### XXIII

*Sulton ul-orifinni g'amgin ko'rub, muridig'a savol tili ochilg'oni  
va ul shofiy javoblar bila anduhluq ko'nglin xoli qilg'oni.*

Qayg'uluq o'lturmish edi Boyazid,  
So'rdi g'ami kayfiyatini bir murid:

«K-ey falak avjida xiroming sening,  
Arsh fazosi uza goming sening.

Ko'nglunga ne ishdin ekin bu taab,  
Bu taabing'ga ne ish erkin sabab?»

Pir to'kub ashku chekib o'tluq oh,  
Dediki: «Bu g'am ishim etmish taboh,

Kim bu jahon ichraki, eldur g'ulu,  
El to'la, ammo kishidindur xulu.

Har kishiga xush ko'runur o'z ishi,  
Bir kishi yo'qkim, desa bo'lg'ay kishi,

Munda kishi borini bilmon yaqin,  
Bor esa, o'tganlar aro bor ekin».

So'rg'uchig'a zohir o'lub iztirob,  
Dediki: «Ey murshedi oliyjanob,

Elda kishi yo'q demak o'ldi so'zung,  
Doxil emassenmu bu elga o'zung?»

Shayx dedi: «Ey ishi gumrohliq,  
Topmog'on ish sirridin ogohliq.

Men dog'i yuz ming meni sargashtadek,  
Ashki bog'ir qonig'a og'ushtadek,

Bo'lmasa imon bila ketmak ishi,  
Anglaki, oni desa bo'lmas kishi.

Olam aro muncha sig'oru kibor,  
Men bo'la-yu, sen bo'lu harkimki bor,

Borcha bu g'am tig'idin afgorbiz,  
Borcha bu motamg'a giriftorbiz.

Kim ichi bu g'ussada qon bo'lmadi,  
Kimsaga bu nukta ayon bo'lmadi,

Kim chu vido' aylagusi jon anga,  
Hamrah o'lur yo'qsa yo'q imon anga,

Chunki jahon ahlig'a bu bo'lsa hol.  
So'zdaki debmen ne mahalli savol».

Soyil etib bo'yla duri nukta go'sh.  
Og'zi sadaf og'zidek o'ldi xamo'sh.

Yo Rab, o'shul tuhfani oxir nafas,  
Ayla Navoiy ila hamrohu bas.

Qullug'unga mahkam et imonini,  
Aylagil imonidek aymonini.

Soqiy, o'lubmen, mayi imon ketur,  
Jismima imon mayidin jon ketur.

Quyma bu kun jomima davron mayi,  
Jonim ol, og'zing'a quy imon mayi.

#### XXIV

### IKKINCHI MAQOLAT

*Islom bobidakim, «alif»lari amniyat hog'ining sarvlari durur va «sin»i saodat qasrining kungurasi va «lom»i latofat gulchehrasining sunbuli zulfi va «mim»i muhabbat mash'alining nuri va ul sarvlar soyasida yer tutmoq*

*va ul qasr kungurasida talab kamandin solmoq va ul sunbuli zulfni  
habli matin qilmoq va ul mash'al nuri bila ko'z yorutmoqning targ'ibi.*

Olam aro xalqni Yazdoni pok  
Ahli najot etti-yu ahli halok.

Bu birisin obidi asnom bil,  
Ul birisin zumrai islom bil,

Kufr eli yo'l topti malomat sori,  
Zumrai islom salomat sori.

Ul biriga vayl evi bo'ldi maqom,  
Zumrai islomg'a dorus-salom.

Kishvari islomki ma'dud erur,  
Xalqi aning har neki mavjud erur,

Boshtin-oyoq borcha musulmon emas,  
Kimki musulmon muni yolg'on demas.

Shartlari bor durur islomning,  
Kim ani bilmas birisi omning.

Muslim erur «Man salimal-muslimun»,  
Yuz, iligu til bu ish ichra zabun.

Ko'rki, bu ish kim iligidin kelur,  
Yoki bu so'z kim tilidindin ochilur.

Tilni xirad lol topar bu mahal,  
Yo'qki til-o'q lol, ilik dog'i shal.

O'ylaki bu shartlar imkoni bor,  
Shartdin ayru dog'i arkoni bor.

Besh yasamish Tengri taborak ani,  
Desa bo'lur xamsi muborak ani.

Anglag'il arkonini beishtiboh,  
Avvali «Illalloh» ila «lo iloh».

Yona Muhammadni anga bil rasul,  
Ber munga tonug'lug'u qilg'il qabul.

Alloh-Alloh, bu ne ikki kalom,  
Kim ikki olamg'adur andin nizom.

Lavh uza avval muni yozib qalam,  
Jannat eshigida dog'i bu raqam.

Halqai xotam kibi charxi barin,  
Ul bo'lubon yuzida naqshi nigin,

Yoki bu xat zevari xotam bo'lub,  
Xotami gardun yukidin xam bo'lub.

Nofiya «lo»sidin aytib «Lo iloh»,  
Nafy nekim, mumkin erur mosivoh.

«Illalloh» – aylabon isbotini,  
Ayni vujud anglatibon zotini

Buki rasul o'ldi Muhammad anga,  
Yuzlanib iqboli muabbad anga.

Amr ila nahyini bayon qilg'ali,  
Lutf ila qahrini ayon qilg'ali,

Xayri rusul bo'lmog'i Tengriga xost,  
Harne risolatki qilib borcha rost.

Soni erur anda adoyi salot,  
Lek adosida erur mushkilot.

Avvali oningki tahorat durur,  
Bilki tahorat ne iborat durur.

Ul demakim, mayl qilib suvg'a sen,  
Bir necha uzv ul suv bila yuvg'asen.

Bo'yla tahoratni bilur har xasis,  
O'zga tahorat dog'i bordur nafis.



Buki safo chashmasidin zavqnok,  
Aylagasen lavhai xotirni pok.

Tanni yumog'liqqa mahorat berib,  
Jong'a dog'i bo'yla tahorat berib.

Jonni solib ayla tahorat aro,  
Kim yuzida nuqtacha qolmay qaro.

Ko'zni arig' ashki zuloli qilib,  
Balki ko'ngulni dog'i xoli qilib.

O'zluk uyin o'zga harom aylabon,  
Tengri evi sori xirom aylabon,

Qo'yg'asen anda o'ng ayoq ilgari,  
G'ayri xudo qo'ymag'asen ichkari.

Ev iyasi bo'lsavu sen – yaxshiroq,  
Balki tutub ev bila senlik qiroq.

Bo'lsa qiyomingg'a sutun shevasi,  
Rak'atinga saqfi nigun shevasi.

Sajdada titrab qo'yubon yerga bosh,  
Sorg'oribon chehra nechukkim quyosh.

Vojibu farzini rioyat qilib,  
Sunnat adosini bag'oyat qilib.

Gar bu sifat sajda bila pok chehr,  
Yerga dog'i kirgasen andoqki mehr.

Subhi qiyomat netong etsang zuhur  
Boshtin-oyoq mehr kibi g'arqi nur.

Solis erur farz adoyi zakot,  
Haq neki bermish sanga molu jihot.

Munda dog'i ikki sifatdur tariq,  
Birisi aslu biri far', ey rafiq.

Far'i bukim, zohiri shar'i rasul  
Harne bayon aylasa qilsang qabul,

Berguchi gar bor esa sohibnisob,  
Qirq diramdin birin aylab hisob.

Zar' ila do'konu havoshi dog'i,  
Balki xadam birla mavoshi dog'i.

Harne matoiki, zakotin berur,  
Shar' tariqi bila bilkim erur.

Kayli-yu miqdori muayyan aning,  
Kammi bila kayfi mubarhan aning.

Masrifi sekkiz kishidur bardavom,  
Kim angadur shar' ila notiq kalom.

Far' budur ulki, deduk oni asl,  
Qilmoq erur borchasidin o'zni fasl.

Maqsadi aslig'a shuru' aylamak,  
Harne aning g'ayri, ruju' aylamak.

Bo'lg'onini bermaku shukrona ham,  
Bermak agar xud topilur yona ham.

Ko'ngli qachon qilsa zaxira havas,  
Bo'lmoq anga faqru fano ganji bas.

Bo'lmasa ko'nglida diram naqshi dog',  
Qilmasa dur partavini shabcharog'.

La'l g'ami bag'rini qon etmasa,  
Dur g'ami ashkini ravon etmasa.

Ming yetibon asramasa birini,  
Yuklasa o'z bo'ynig'a taqsirini.

Ganj topib chekmasa vayronig'a,  
Bersa qo'yub minnatini jonig'a.

Harne yetar bersa, tugub yopmasa,  
Bergali shukrona yana topmasa.

Kimki anga bazi bu chog'lig' durur,  
Ganj dog'i topsa yarog'lig' durur.

Robi' anga savm durur qochmag'il,  
Tutqilu nafiyig'a og'iz ochmag'il.

Me'dani xoliliq ila qil to'lo,  
Necha xalo anda safodin malo.

Savm hadisida budur mujmali,  
Kim ani Haq debdurur «Assavmu liy».

Ayladi isnod o'ziga ajrini,  
Yo'qsa ul-o'q qilg'usidur zajrini.

Amr qilib bersa jazo chun Xudoy,  
Demaki si ro'za, yil o'n ikki oy.

Tutsang ani ulcha sazovoridur,  
Sirfani bilgilki sening soridur.

Savmi emas dog'i mashaqqatnihi,  
Mujdada bo'lsa «Ana ajzi bihi».

Bu dog'i uch qism iladur munqasim,  
Avvali bu rasm iladur murtasim,

Kim chu sahar ko'rguzur anvorini,  
Chekkucha kun g'arbg'a ruxsorini,

Akl ila shurb aylamagay ro'zador,  
Lek ikinchiga budur e'tibor,

Kim bu sifat savmki topti raqam,  
Bo'lg'ay izofat necha ish anda ham,

Soyiri a'zog'a xalal yetmamak,  
Shar' xilofig'a shuru' etmamak.

Har biri o'z shug'lig'a zohid bo'lub,  
Man'i xilof ichra mujohid bo'lub.

Bormag'a-yu ko'rmaga-yu tutmag'ay.  
Aytmagay, eshitmaga-yu yutmag'ay.

Lekin uchunchisi budurkim, ko'ngul,  
Chunki erur mahbiti anvori Kul.

Poku ravonbaxsh havosi aning,  
Jilvagahi fayz fazosi aning.

Maxzani asrori ilohiy ham ul,  
Oyinai chehrai shohiy ham ul.

Daf' qilib zangi xayolotni,  
Asramoq ul nav' bu mir'otni.

Kim anga juz do'st zuhur etmagay,  
Balki aning g'ayri xutur etmagay.

Hech suvar naqshig'a bermay mador,  
G'ayr bu ne'matdin o'lub ro'zador.

Ushbu sifat yo'qki, sahar to ba shom.  
Qo'y saharu shomnikim, bardavom.

Xomis anga qiblag'a solib qadam,  
Bo'lmoq erur zoyiri Bayt ul-Haram.

Bo'yla saodatqa alarkim yetib,  
Bodiyani ikki sifat qat' etib.

Biri bukim, ulki bo'lub mustafid,  
Ya'ni o'lub johu tamavvul mumid.

Bo'lsa yo'l amniyati voqi' anga,  
Orizaye bo'lmasa moni' anga.

Barcha yo'l asbobi muhayyo qilib,  
Hamrahi mushfiq dag'i paydo qilib,

Farzlig'in o'ziga jazm aylagay,  
Farz adosin qila azm aylagay.

Lek ikkinchi buki, ahli fano,  
Kim o'ziga faqrni bilgay g'ino.

Do'st tushub xotiri vayronig'a,  
Shavqu talab o't solibon jonig'a,

Ho'yi chekib, yo'lg'a tushub pil kibi,  
Ishq o'tidin telbaragon el kibi.

Ming yig'och ar urg'usidur gomini,  
Bog'labon avval qadam ehromini.

Ne anga zodu ne anga rohila,  
Ne anga markab, ne anga qofila.

Dasht anga gulshan gulu nasrin – tikan,  
Yo'liki yonida mug'ilon chaman.

Harne samum anda esib rangi ol,  
Borcha gulu lola uchurg'on shamol.

Bo'yla samum ichra yetib ul salim,  
O'ylaki gulzor arosinda nasim.

Ul chaman ashjori mug'ilon bo'lub,  
Anda quyun sarvi xiromon bo'lub.

Haq anga rahmatni dalil aylabon,  
Shu'lani gulzori Xalil aylabon.

Toki ani yetkurubon ul dalil,  
Uygachakim, qo'ydi binosin Xalil.

Tavfida ul sidqu safo kelturub,  
Barcha sharoitni bajo kelturub.

Do'st uyida chu bo'lub mehmon,  
Harne kerak hozir etib mezbon.

Balki bu mehmonni o'zi kelturub,  
Evigacha hamrah o'lub yetkurub.

Muncha saodatqa etib sarfarozi,  
Kimsani bu yo'lda fanovu niyoz.

Foni o'lub kimki niyoz ayladi,  
Tengri ani koshifi roz ayladi.

Forig' etar bodiya qat' ahli mol.  
Ahli fano qat'ida bor o'zga hol.

Ne topib ul ne'matu nozi bila,  
Oncha topib yuz bu niyozi bila.

## XXV

*Ibrohim Adhamning Ka'bag'a namoz bila borg'oni va  
Robiai Adviyag'a Ka'baning niyoz bila kelgoni.*

Qildi chu Adham xalafi tarki joh,  
Toji fano boshig'a qo'ydi Iloh.

Berdi fano yeliga mulku hasham,  
Bodiyaning qat'ig'a qo'ydi qadam.

Bo'ldi musalloni solib sajdasozi,  
Har qadam aylab iki rak'at namoz.

Qoldi bu yo'l qat'ida o'n to'rt yil,  
Madhig'a har xoru giyah chekti til.

Makka tavofig'a chu qildi xirom,  
Yo'q edi o'z o'rnida Bayt ul-Haram.

Chekti fig'onkim, bu nedur, yo Iloh?  
Hotife un berdikim: «Ey piri roh.

Bodiya qat'ida durur bir ajuz,  
Shavqu muhabbat yukidin qaddi kuz.

Za'fdin ul bo'lmish edi notavon,  
Ka'ba aning tavfig'a bo'ldi ravon».

Ayladi hayron ani bu voqia,  
Boqsa keyin ko'rdi kelur Robia.

Dedikim: «Ey Arsh matofing sening,  
Ka'ba qilib azmi tavofing sening.

Ko'rki jahon ichra solibsen ne sho'r»,  
Robia dedi angakim: «Qilma zo'r.

Sho'r seningdur bori olamda bil,  
Bodiya qat'i uchun o'n to'rt yil».

Dedi Birohimki: «Ey pokrav,  
Balki malak xaylidek aflokra,

Nedin ekin buki manga yetti ranj,  
Men chekibon ranju sanga bo'ldi ganj».

Robia dedi anga: «Ogoh bo'l,  
Kim necha yil bodiyada borcha yo'l,

Bo'ldi ishing arzi namoz aylamak,  
Sheva manga arzi niyoz aylamak.

Sanga samar berdi namozu riyo,  
Bizga bu bar berdi niyozu fano».

Boqma, Navoiy, yana noz ahlig'a,  
Arzi niyoz ayla niyoz ahlig'a.

Soqiy, olib kel qadahu qilma noz,  
Ko'rki, ne mushtoqdur ahli niyoz.

Ber to'lakim, ichsun ani bir harif.  
Xossa mangakim, boridin men zaif.

## UCHUNCHI MAQOLAT

*Salotin bobidakim, «Innalloha ya'muru bil-adli val-ihson» amri ila  
Haq subhonahu va taolo xusravliq xudin alarning xilofati boshig'a  
qo'ydikim, adolatlari «ayni»ning chashmai zuloli mulk bo'stonin serob  
qilg'ay, to bu bo'stondin amniyat va farog'at gullari ochilg'ay va alar  
zulm bog'ida may ichib gul socharlar, balki maydin har dam  
o'zgacha gul ocharlar'.*

Ey falak avjiddin o'tub rif'ating.  
Oyu quyoshdin cholinib navbating.

Taxting o'lub davlati jovidi mulk.  
Soyai chatring aro xurshedi mulk.

Toj boshingdin bo'lubon sarbaland,  
Taxt ayog'ingdin o'lub arjmand'.

Siymani alqobing etib muhtaram,  
Sikkai qadringg'a kavokib diram.

Xutbai johingni o'qub Mushtari,  
Kursiyi nuhpoya aning minbari.

Mehr bo'lub soyanishining sening.  
Oy yuzida muhri nigining sening.

Mulki Sulaymon uza ishratnamoy,  
Boshinga solmay ko'laka juz humoy.

Masnadi Jamshed uza aylab maqom,  
Topmay iliging o'parin g'ayri jom.

Xotami adlingg'a sipchri baland,  
«Rosti-yu rusti» bilan naqshband'.

Xutbai johing qadar insho qilib,  
«Ya'muru bil-adl» ila tug'ro qilib'.



Haqki solib soyai ra'fat sanga,  
Ro'zi etib taxti xilofat sanga<sup>5</sup>.

Ayladi ollingda biyiklarni past.  
Dahr zabardastlarin zerdast.

Xalqni ollingda qilib notavon,  
Barchasig'a ayladi hukmung ravon.

Xizmatiga elni zabun ayladi,  
Qadlarin ollingda nigun ayladi.

Bil munikim, sen dog'i bir bandasen,  
Ko'pragidin ojizu afgandasen.

Ermas alar tufrog'u sen nuri pok,  
Xilqat alarg'au senga tiyra xok.

Barcha javorih bila a'zoda teng,  
Surati nav'i-yu hayuloda teng.

Lek hunar ichra, kamol ichra ham,  
Xulqi xushu lutfi maqol ichra ham.

Ham ravishi adlu ham insof aro,  
Hilmu hayou bori avsof aro.

Shar' tariqida ibodatda ham,  
Haq yo'lida taqviyu toatda ham.

Sen tushubon yo'l nahajidin yiroq,  
Ko'pragi sendin yurubon yaxshiroq.

Buki sanga Tengri berib imtiyoz,  
Saltanat avjida qilib sarfaroq,

Taxtni shaxsingg'a makon ayladi,  
Mulk uza hukmungni ravon ayladi,

Munda dog'i qudratin ifsho qilib,  
Hikmat ila qatrani daryo qilib.

Bildurub elga haqu barhaqlig'in,  
Anglatibon qodiri mutlaqlig'in.

Lek bu iqbolning o'trusida,  
Bo'yla biyik martaba qarshusida,

Amr qilibdur necha xizmat sanga,  
Ro'zi etibdur necha san'at sanga:

Biri — aning ne'matig'a shukr erur,  
Kimsaki, shukr aylasa ko'prak berur.

Shukr qilib aylamasang ushtulum,  
Debdur o'zikim: «Laazidannakum».

So'ngra raiyatni vadoyi' dedi,  
Xurram ani bilki, bu g'amni yedi.

Garchiki, Haq amri farovon erur.  
Borchasi bir yonu bu bir yon erur.

Bo'ldi raiyat galavu sen shubon,  
Ul shajari musmiru sen bog'bon'.

Qo'yni shubon asramasa oyu yil,  
Och bo'rilar tu'masidur borcha bil.

Boqmasa dehqon chamanin tunu kun,  
Naxli tarin angla qurug'on o'tun.

Bo'rini dog'i galadin dur qil,  
Suv beribon bog'ni ma'mur qil.

G'am yesang ul gala manofi' berur,  
Bog' gulu mevai nofi' berur.

Gala tugansau qurusa shajar,  
Xud sanga qolmas yana naf'u samar.

Istasa topshurg'onini kirdigor,  
Fikr qil ul damki, javobing ne bor?

Ko'z och, agar xud bor esang rahshunos,  
Ish ravishin ayla aningdek qiyos,

Kim ne kishikim, sanga mahkum erur,  
Zulmunga bechorau mazlum erur.

Garchiki, yo'q shavkatu sarmoyasi,  
Sendin erur ortuq aning poyasi.

Negaki, chun hashr kuni zuljalol,  
Zolimu mazlumni aylar savol.

Anga evazdur, sanga sharmandaliq,  
Anga biyiklik, sanga afgandaliq.

Til chekib ul xanjari po'loddek,  
Ochilibon savsani ozoddek.

Sanga binafsha kibi qaddi nigun,  
Bosh ko'tara olmay uyotdin zabun.

Anga nishotu sanga — anduhu g'am,  
Ul sanga andoqki, anga sen bu dam.

Har ne xato qilg'oning o'lg'och hisob,  
Bo'lg'usidur har biriga yuz azob.

Tengri bu dardingg'a davo aylamas,  
Ushbu jihatdinki, haqulloh emas.

Garchi sinuq igna haqqun-nosdur,  
Bag'ring aro xanjari olmosdur.

Qilmasa mazlum gunohing bihil,  
Do'zax arodur vatanning muttasil.

Afvin aning tutmasang ummid sen,  
Bilki tomug' o'tida jovid sen.

Kimga tikan birla qilibsen sitez.  
Urg'usidur ko'ksunga yuz tig'i tez.

Kimki bo'lur bir shararing fosh anga,  
Do'zax o'ti bo'lg'usi podosh anga.

Kingaki bir rishta yeturdung ziyon,  
Qatlinga ul rishtani bilgil yilon.

Eyki, qaviy ayladi davlat qo'lung,  
Zulm sori tushti va lekin yo'lung.

Zulmung emas erdi xaloyiqqa kam,  
Kim qiladursen ani o'zungga ham.

Zulm o'zunga fisqdur, ey hushyor,  
Gum qil ani, bo'lsa sanga hush yor.

Chunki farah bazmig'a jazm aylading,  
Ayshu tarab azmig'a bazm aylading.

Qasrki, bazm anda muhayyo bo'lub,  
Ziynati firdavsi muallo bo'lub,

Pardalari rishtasi el jonidin,  
La'liyu shingarfi ulus qonidin.

Shamsasi el moli bila zarnigor,  
El duru la'li bila gavharnigor.

Xishtini masjid buzubon kelturub,  
Toshini el marqadidin yetkurub.

Anda tuzub masnadi shohanshahi,  
Ayshu tarab jomi uchun mushtahi.

Bazmda soqiylar o'lub jilvasoz,  
Ahli g'ino har sori dastonnavoz.

Harneki marg'ubi erur nafsning,  
Topilib ul bazmda bir yo'qki, ming.

Til bori ul debki, demak xo'b emas,  
Ko'z ko'rubon oniki, matlub emas.

Arbadadin o'zga eshitmay quloq,  
Komi uchun tutmay ilik juz ayoq.

Hoyu g'uludin bu nishoting kuni,  
Anglamayin kimsa muazzin uni.

Baski samou g'azalu qavlu savt,  
Bo'lubon ul kungi namoz elga favt.

Ahli vara'kim, topib anda vujud,  
Chang ruku' ichra, surohi sujud.

Ulki bu toat bila tafzih anga,  
Nuql bo'lub donai tasbih anga.

Toki quyosh jirmi bo'lub nurposh,  
Mahfili ayshingda bu yanglig' maosh.

Shom jahon safhasin aylab qaro,  
Pardai zulmat chu yopib el aro.

Rost yarim tunga degin hol bu,  
Ham sanga, ham xaylinga ahvol bu.

Jom bu ahvolinga qon yig'labon,  
Sham' kuyub. ashkfishon yig'labon.

Qoqib ovuch sanju qilib na'ra ko's,  
Ko'kka chekib nolau afg'on xurus.

Sen chu bo'lub sarxushu xilvatgaroy.  
Anda qilib harne tilab nafsu roy.

Bazmdag'i qoriyu gar xud yigit,  
Maydin o'lub har biri bir telba it.

Shaynda qoplondin agarchi fuzun,  
Nafs itining ilgida lekin zabun.

Har birisi yuz tamai xom aro,  
Yoyilibon kishvari islom aro.

Har sori bir mast o'lub oromjo'y,  
Bir buti gulruxdin o'lub komjo'y.

Mastliq uyqusi chu aylab hujum.  
Borcha o'lukdek yotib ul xayli shum.

Subh chu zohir qilib anvorini,  
Har yon ochib lam'ai ruxsorini.

Onchaki sultoniyy o'lub choshtgoh,  
Uyquda sulton bila xaylu sipoh.

Ko'zlaridin uyqu chu ma'zul o'lub,  
Har biri bir zulmg'a mashg'ul o'lub.

Ochibon elga sitam avbobini,  
Qilg'ali paydo tarab asbobini.

Bo'ldi chu asbob muhayyo yana,  
Kirdi tarab bazmig'a g'avg'o yana.

Yo'qki zamona shahi bu shevalik,  
O'z xo'ri holig'a ulug' to kichik.

Har kuni bu shan'at ila tungacha,  
Har kecha bu g'aflat ila kungacha.

Ey xulaf o'rnida masnadnishin,  
Ko'r o'z ishingniyu alarning ishin.

Qoida mundog'mu bo'lur, de axi,  
Bir o'z ishingning g'ami ham ye axi.

Haq seni adl etgali sulton etib,  
Zulm ila sen xalqni vayron etib,

Ul seni ma'muri ibodat qilib,  
Sen la'bu lahvni odat qilib,

Necha bu bexudluq ila yilu oy,  
Voy, agar kelmasang o'zungga, voy!

Umr bu ishlar so'ngicha ketti tut,  
Marg nihibi boshinga yetti tut.

Chun hashamu xayldin ayrilg'asen,  
Deki, bu a'mol ila ne qilg'asen?

Ne amali xayr sanga dastgir,  
Ne sitaming ko'rguchi po'zishpazir.

Zulmni tark aylavu dod aylagil,  
Marg kunidin dog'i yod aylagil.

Zulmung erur kunduzu fisqing kecha,  
Zulm ila fisqing necha bo'lg'ay, necha?

Gah-gahi yod ayla nadomatni ham,  
Qaysi nadomatki, qiyomatni ham.

Jurmu gunahdin kishi ma'sum emas,  
Tarkini tutmoq dog'i mazmum emas.

Haqning erur sahvsiz ish lozimi,  
Sahv erur lozimai odami.

Sahvunga de uzr, tavahhum bila,  
Zulmdin et tavba tazallum bila.

Kimniki bedoding etibdur asir,  
Bo'l anga adl ilgi bila dastgir.

Roy ila zulmatni munir aylamak,  
Lutf ila olamni asir aylamak,

Tig' agar cheksa nechukkim quyosh,  
Aylamak oning so'ngida mehr fosh.

Shahlar aro bo'yla sifat kam durur,  
Kim Shahi G'oziyg'a musallam durur<sup>7</sup>.

XXVII

*Shohi G'oziy qahrining sarsari bir sarkash xo'shani barbod etib, adlining  
suyi ul xo'sha butgan buzug' mazraani obod qilg'oni.*

Andaki G'oziy shahi farxunda baxt  
Toj olayin deb taloshur erdi taxt.

Yuz, iki yuzcha kishi birla qazoq,  
Gah yeri Xorazm edi, gah Adoq<sup>1</sup>.

Novaki dushman yuragin qon etib,  
Tig'i aduv boshini parron etib.

Bor edi zotida sazovorliq,  
Kim Haq anga berdi jahondorliq.

Adl eshigin elga kushod ayladi,  
Taxt uza o'lturdiyu dod ayladi.

Tuzdi buzuqlarni imorat bila,  
Zulmni daf' etti adolat bila,

Bid'atu fisq ahli bo'lub munzaviy,  
Adli shariat qo'lin etti qaviy<sup>2</sup>.

Bir kun edi sayrg'a azmi durust,  
Shefta zole etagin tutti rust<sup>3</sup>.

Nolavu afg'on chekibon tortib oh,  
Dediki: «Ey shohi shariatpanoh,

Qilg'um agar adl esa, mar'iy bukun,  
Sening ila da'viyi shar'iy bukun.

Shart bukim aylama mahkam itob,  
Mahkamai shar'da bergil javob»<sup>4</sup>.

Shah dedi: «Gar da'vi esa qonima,  
Shar'iy esa minnat erur jonima».



Ayladilar bo'ldi chu bu nukta jazm,  
Qoziyi islom huzurig'a azm.

Ikkisi chun yondashib o'lturdilar,  
Har sori hayrat bila el turdilar.

Ma'arakada Zol bila Rustame,  
Boshlari uzra o'kulub olame.

Zol dedikim: «Qazoq erkanda shoh,  
Tig' chekibkim, chekar erdi sipoh.

Bor edi men tulg'a jigargo'shaye,  
Bal jigarim mazraidin xo'shaye.

Bog'im aro sarvi sihisheva ul,  
Balki quruq naxlim aro meva ul.

Shoh qilichi jigarim qildi chok,  
Ul jigarim porasin etti halok.

Tig' ila yorib jigarim yonini,  
Yerga oqizdi jigarim qonini».

Aytti qozi: «Ketur, ikki guvoh,  
To qilayin hukmini beishtiboh».

Dedi: «Gar ikki tonug' etsam havas,  
Ham aning-o'q adliyu insofi bas»<sup>5</sup>.

Bo'yla chu ikki tonug' o'tkardi zol,  
Bo'ldi muqir xusravi farxundafol.

Qozi o'lub adl harimig'a xos.  
Qildi ravon hukm: diyat yo qisos.

Shah dedi: «Shar' etsa bu yanglig' ado,  
Shar'i nabi hukmig'a jonim fido»<sup>6</sup>.

Yog'lig' ila bog'ladi bo'ynini rust,  
Yuz hamyonning dog'i bo'ynini sust.

Tig' berib zolg'a bevahmu biym,  
Bir sori dog'i to'kubon ganju siym.

Dedi: «Qasos aylasang ollingda bosh.  
Siymni ol, gar g'arazingdur maosh.

Men edim ul amrda beixtiyor,  
Har ne sen etsang manga ne ixtiyor».

Tig'ni ul adl ila insofi tund.  
Zoli hazin tishlaridek qildi kund.

Tushti ayog'iga bo'lub uzrxoh.  
Dediki: «Ey xusravi anjumsipoh.

Gar yigitim qildi fido jon sanga,  
Men qari joni dog'i qurbon sanga.

Mendin agar bo'ldi ayon iztirob,  
Lutf ila afv etki, men o'ldum xarob».

Vah, bu ne izhori xijolat bo'lur,  
Bu ne degan lutfu adolat bo'lur.

Zol kechib da'viyu dastonidin,  
Yo'qki, o'g'ul qonidan, o'z jonidin.

Turfa bukim, xusravi odil ani,  
Adl ila ul davrda aylab g'ani.

Zolni anjum kibi siymi ravon,  
Zoli falakdek qilibon navjuvon.

Siym kuchidin bo'lubon siymbar,  
Xalq laqab aylab anga «Zoli zar»<sup>7</sup>.

Zoli falakdin necha ko'rsang alam.  
Shah chu qilur adl. Navoiy, ne g'am<sup>8</sup>.

Soqiyi gulchehra, ketur jomi adl,  
Ko'rki, ne gullar ochar anjomi adl.

Adl ayog'in tutki, bo'lub shod ichay,  
Odili davronni qilib yod ichay.

XXVIII

TO'RTUNCHI MAQOLAT

*Riyoyi xirqapo'shlar sulukidakim, o'z qoshlarida xirqai talbislarig'a  
haqiqiy libos ot durur va haqoyiqu maoriflari avomg'a libosot. Va haqiqiy  
bodano'shlar ravishidakim, xirqai vujudlari fano ilgi zo'ridin chok durur  
va Masihodek jonbaxsh nafasleri ruhi muqaddas kibi pok va mahalli  
tavflari sohati aflok<sup>1</sup>.*

Ey bo'lubon san'at ila xirqapo'sh,  
Shomu sahar zikr ila solib xurush<sup>2</sup>.

Xirqa uza baxyaki har yon chekib,  
Zuhdu riyo vuslalaridin tikib.

Ruq'ai davri bu muraqqa'da ko'p.  
Barcha diram ostig'a tikmakka jo'b<sup>3</sup>.

Iplar anga rishtai talbis o'lub,  
Igna anga siblatai iblis o'lub<sup>4</sup>.

Azraq uzakim bo'lubon baxyasoz,  
Anjumi nahsi falaki naqshboz<sup>5</sup>.

Ushbu falak uzra rido subhidam,  
Subhki, kozib anga bo'lmish alam.

Eski amomaki bo'lub pech-pech,  
Pechdin o'zga nima yo'q anda hech.

Qaysi aso hiyla uyiga sutun,  
Kosh sinib ul, bu uy o'lg'ay nigun.

Subha dema, butki yo'nub buttarosh,  
Dona yasab, harne qolib reza tosh<sup>6</sup>.

Mu'zini qarrobai kuffor anga,  
Rishta bo'lub rishtai zunnor anga'.

Ul yig'ochikim, ani misvok etib,  
Og'zi luobi bila nopok etib.

Nomai idbor degil og'zi rust,  
O'pmak uchun eltib o'z og'zig'a chust.

Har yon ayog'idaki na'layn o'lub,  
Ahli safo hazli uchun shayn o'lub.

Turfa soqolin osibon kulgudek,  
Egri yig'och uzra chiqib o'chkudek\*.

O'chkucha ham yo'q ishida to'g'riliq,  
Ul tutub o'g'ri, bu qilib o'g'riliq'.

O'chku tilab xaylig'a bargu navo,  
Gar gala ming bo'lsa, bo'lub peshvo.

O'zini borig'a shafiq aylabon,  
Hodi o'lub qat'i tariq aylabon.

Tog' ila tuzni tunu kun boshqarib,  
Xaylini yo'l aqbasidin o'tkarib.

Ko'rguzubon bu dog'i xaylig'a yo'l,  
Yo'lki, boribon tomug' o'tig'a ul.

Vodiyi zulmat aro ul turfa xayl,  
Yo'l iturub aylabon o't sori mayl.

Mafsaqaye topibon eltib panoh,  
Otini ma'bad atabu xonaqoh.

Xonaqoh ichraki solib bo'riyo,  
Rang anga zarq o'lubon, bo' — riyo.

Masjidi arkoni bo'lub muxtalif,  
Qibla janubi tarafi munharif.

Mast mug' ashjoridin avbob anga,  
Qahbai tarso qoshi mehrob anga<sup>10</sup>.

Shayx bu mehrob aro toat qilib,  
Har neki shayton deb itoat qilib.

Bo'lub anga jam'i xaloyiq murid.  
Lek bori shayxqa loyiq murid.

Shayx qadin xam qilibon «nun» kibi,  
O'turubon go'shada Zunnun kibi<sup>11</sup>.

Ahli suluk ichra maorif debon,  
Oni — muhaqqiq, muni — orif debon.

Harza muzaxrafniki bunyod etib,  
Ahli irodatqa ham irshod etib.

Birin etib zo'r ila xilvatnishin,  
Birin etib kuch bila uzlatguzin.

Ahli riyozatdin atab birini,  
Biriga deb voqea ta'birini.

Voqea gar xud anga yolg'on debon,  
Ul dog'i ta'birini hazyon debon.

Xilvat aro qilg'uchi mahram o'zin,  
Xizr bila tutquchi hamdam o'zin.

Lattaki mahkam tugubon bang anga,  
Yetkurubon bang yoshil rang anga.

«Xizr payambar» qo'yubon otini,  
Voqea deb — harza xayolotini<sup>12</sup>.

Yo'qki hamin xilvati ahlig'a bas,  
Shayxqa ham ushbu «Xizr» hamnafas.

Rutbada andoq anga a'lo maqom,  
Kim bo'lubon charx anga adno maqom.

Qolmayin ul poyakim. ul yetmayin.  
Arzi karomatni pisand etmayin.

Nogah agar nag'ma chekib bir nayi,  
Mast qilibon oni holat mayi.

Nag'mai xorijki qilib istimo',  
Sekribu ohang etib ul dam samo'.

Debsabu sayha chekib andoqki pil.  
Changaki nafs ollida xoru zalil.

Ahli irodat dog'i bu tavr ila,  
Tegrasiga evrulubon davr ila,

Harza xayolot ila hol aylabon,  
Davrni fonusxayol aylabon.

Holda as'hob dog'i pirdek.  
Bemazaliqda borisi birdek.

Yova ko'p ayturda biri chirchirak,  
Charx ko'p urmoqda biri firfirak<sup>13</sup>.

Bu biri vajt ichra tilin lol etib,  
Ul bir o'zin volavu behol etib.

Bu tutubon ko'z uchidin oni pos,  
Ul qilibon vajdini mundin qiyos.

Zarq o'tidin har biri do'zax kibi,  
Lek burudatdin o'lub yax kibi.

Har biri oncha urunub bermalol.  
Kim yiqilib, qo'pqali topmay majol.

Borchag'a maqsud bukim ahli joh,  
Ko'rsalar ul shayx ila bu xonaqoh.

Shayxni sajjodai irshod uza,  
Xaylni ham zikr ila avrod uza.

Faqr qanoatdin o'lub sarbaland,  
Vajd ila holatdin o'lub bahramand.

Borchalarin ahli yaqin sog'inib,  
Hol ila ul vajdni chin sog'inib,

Zohir etib shayx qoshida niyoz,  
Foqalarig'a bo'lubon chorasoz.

To bilib oxir ani sultoni mulk,  
Xayli duo birla nigahboni mulk.

Arzi niyoz aylabon o'lg'ay murid,  
Poyalarin har nafas etgay mazid.

Hadya, tuhaf tortqayu mol ham,  
Mustag'alu kentu suyurg'ol ham<sup>14</sup>.

Bo'lsa bular birla barumandliq,  
Yetgay alar nafsig'a xursandliq.

Subhonalloh, bu ne nafsi laim,  
Nafsni qo'yg'il, ne azobi alim.

Ro'zi uchun muncha fusunsozliq,  
Mansab uchun muncha dag'obozliq<sup>15</sup>.

Bu el erur borcha yomondin-yomon,  
Kimki yo'q ondin yomon, ondin yomon.

Botin o'lub fosidu zohir — saloh,  
Toshi musalloyu ichi mustaroh.

Ruhni nafs ollida qul aylabon,  
Hullani dajjolg'a jul aylabon.

Dev ila shayton urub ichinda jo'sh,  
Tang'a maloik paridan pardapo'sh.

Ko'nglak aro mushku abiri tarab,  
Ko'nglida yuz it o'lubu gandarab<sup>16</sup>.

Garchi bo'lar qalb diram ro'ykash,  
Andin ayirmoq bo'lar o't birla g'ash.

Lek tomug' ham bu necha g'ashg'a hayf,  
O't dog'i bu xayli dag'alvashg'a hayf.

Gar ko'rub o'tdin bani odam azob,  
O'tqa bulardin bo'lubon ham azob.

Odam aro ko'r ne tafovut turur,  
Qibla anga tengri, munga but turur.

Ravza so'zi dog'i demasdur biri,  
Kuygali ham loyiq emasdur biri.

Ey ko'ngul, ul elga jahonlar fido,  
Dema jahonlar, deki jonlar fido.

Kim qilibon ikki jahon tarkini,  
Ikki jahon demaki, jon tarkini,

G'ussa jahon ichra chekib jon uchun,  
Jonni fido qilg'ali jonon uchun.

Yelga berib daftari solusni,  
O'tg'a solib xirqai nomusni.

Masjidu mayxona anga yoqmayin,  
Dayr bila Ka'ba sori boqmayin.

Silkibon el yaxshi-yomonig'a yeng,  
Anglab ulus yo'qiyu borini teng.

Jonu jahonni ko'rubon xokcha,  
Kavnu makon naqdini xoshokcha.

Borliq ashobini foniy bilib,  
Yo'qluq o'ti ichra o'zin kul qilib.

Kuydurubon chun bu xayolot ani,  
Yorutub ul kul bila mir'ot ani.



Ko'zguda chun g'ayrdin o'lmay asar.  
Chehrai maqsud o'lubon jilvagar.

Balki bu nobud xayolot anga,  
Qaysi xayolotki, zarrot anga.

Boshdin-ayoq har biri ko'zgu bo'lub,  
Shohidi maqsudg'a o'tru bo'lub.

Ko'zguvu shohid ko'runub har taraf.  
Ko'zga yomon ko'rmak o'lub bartaraf.

Har sorikim nozir o'lub Haq ko'rub,  
Qilg'uchini foili mutlaq ko'rub.

Tuz yo'l ila qotii vodi alar.  
Kim iturub yo'lini hodi alar.

Ulki qolib zulmati hijron aro,  
Yo oziqib vodiyi hiron aro,

Xizrdek ul qavm tutub elga qo'l,  
Ko'rguzubon manzili maqsadg'a yo'l,

Moni' o'lub g'ayrati ogohliq.  
Xizrg'a ham qilg'ali hamrohliq.

Zulmat alar o'tig'a bir dudi oh,  
Yo'llarida Xizr bir axzar giyoh.

Ko'zlaridin qatraki g'alton bo'lub,  
Xizrg'a yuz chashmai hayvon bo'lub,

Gardlari ko'zga bo'lub to'tiyo.  
Amrlari misni qilib kimyo.

Charx bila anjumi bedodgar,  
Qahrlari o'tig'a dudu sharar.

Mehr bila badri manozilnavard  
Lutflari gulshanida ikki vard.

Aylasalar har sori azmi shigarf  
Yuzlarining qatراسi daryoyi jarf.

Qayda tavaqqufg'a topib ittisof,  
Zimnida har harf viqor ichra Qof.

Shaxslari zoviyai xok uza,  
Sayrlari gulshani aflok uza.

Shar' aqolimida ravshan tariq,  
Kim xati mavhumdin o'lmish daqiq.

Bu yo'l o'lub sayrda maydonlari,  
Balki bu maydon aro javlonlari.

Toat etib har biri to joni bor,  
Jon chekibon onchaki imkoni bor.

Harne qilib fahm nabiy sunnatin,  
Qilg'och ado jong'a qo'yub minnatin.

Nechaki a'mol etibon pech-pech,  
Hech kelib har biri ollinda hech.

Jid bila aylab ko'rubon sarsari.  
Ajz ila yuz uzr qo'lub bir sari.

Neki qilib qasd aning amri-o'q,  
Uchmoq umidiyu tomug' biymi yo'q.

Kimki xayolig'a kelur mosivo,  
Lofi muhabbat anga ermas ravo.

Eyki, bu gavharg'a tilarsen makon,  
Bilki aning koni erur tobakon.

## XXIX

*Muqarrabi Boriy Xoja Abdulloh Ansoriy so'zidikim, nihoyati sulukdin  
sohibxabar erdi va o'z suluki nihoyatidin xabar berdi.*

Ulki ani qibla der ahli Hirot,  
Dema Hirot ahli, bari koinot.

Ahli ayon soliki atvori ul,  
Ismda Abdullohi Ansori ul.

Dedi bukim, ish manga toat turur,  
Tengrining amrig'a itoat turur.

Do'zax o'ti biymi ham ermas g'araz,  
Ne buki, jannat anga bo'lg'ay evaz.

Biym ila kim Haqni parastish qilur,  
Nafs najotini tilab ish qilur.

Kim chekar ummid ila farsudaliq,  
Qasdi erur ravzada osudaliq.

Haqdin aniyu muni mahjur bil,  
Muzd uchun ikkisini muzdur bil.

Menki ishim bo'ldi parastish mudom,  
Biymu umid ikkisi bo'lmish harom.

Bandaliq amrig'a chu ma'murmen,  
Tun-kun ishim bu esa ma'zurmen.

Garchi anga loyiq emas toatim,  
Bo'lmasun onsiz esa bir soatim.

Qil dedikim, qilmoq erur varzishim,  
Raddu qabuli ila yo'q hech ishim.

Uchmog'u zohid, tomug'u bulhavas.  
Bo'lsa havas yor Navoiyg'a bas.

Soqiy, ul uchmoq suvini bedarang,  
Tutki, erur do'zax o'ti anda rang.

Yor yuzi yodi bila shod o'lay,  
Do'zax ila ravzadin ozod o'lay.

## BESHINCHI MAQOLAT

*Karam vasfidakim, qalbi diram margi durur, balki rahmat shajarasining  
bargi va buxlkim, saxo qalbidin xoli bo'lsa, nihoyatsiz balo bo'lur va  
bazl surati ko'rguzmasa, muruvvatdin hadsiz xalo va isrof nafyikim,  
har yonidin boqsa ofati behad erur va itlof mazammatikim,  
ko'proq harfi lofdin xabar berur!*

Ey tushub egninga karam kisvati,  
Qolmayin ilgingda diram qiymati.

Panjang o'lub siymfishonliqqa fosh.  
Mashriqu Mag'ribda nechukkim quyosh.

Siyim ila ilginga adovat bo'lub,  
Anda fano, munda saxovat bo'lub.

Chun kafing oltun sohib, andoqki barq,  
Barqi hayodin bo'lubon terga g'arq.

Boshing uza judu saxo afsari,  
Afsaring ustida karam gavhari.

Gavhari zoting topib oncha sharaf,  
Kim yeti ko'k huqqasin aylab sadaf.

Qadring o'lub torami axzar kibi,  
Durru guhar sochmog'ing axtar kibi,

Boshing uza axtari davlattiroz,  
Farq uza «fo» nuqtasidek jilvasoz.

Farqi sharifingg'a livoyi karam,  
Bosh uza andoqki «alif»din alam<sup>2</sup>.

Ikki qo'lung Qulzumu Ummoni jud<sup>3</sup>,  
Har biriga ulchaki imkoni jud.

Kaflaring oyini chu bermak bo'lub,  
Qul munga Hotam, anga Barmak bo'lub<sup>4</sup>.

Buki sanga Tengri ato ayladi,  
Qism karam birla saxo ayladi.

Har sari mo' jisminga bir til bo'lub,  
Bo'lmas aning shukr ila uzrin qo'lub.

Judu saxovat chog'i buxl etmagil,  
Shukr zamoni dog'i buxl etmagil.

Buxl erur borcha sifatdin xasis,  
Lek saxo javhari asru nafis.

Garchi saxovat sanga oyin erur,  
Boshinga bu dur bila tazyin erur.

Bu duri serobni xor aylama,  
Buxl hisobida shumor aylama.

Necha saxo ashrafi avsofdur,  
Mufrit agar aylasang isrofdur.

Aqlki ta'rif etar avsofni,  
Buxl bila teng tutar isrofni.

Ko'nglung aningdek nega keng qilg'asen,  
Kim duru xarmuhrani teng qilg'asen.

Bazlu karam shevasining holi bor,  
Lek nechukkim kerak ashkoli bor.

Eyki sanga Tengri nasib etti joh,  
Berdi karam qilmoq uchun dastgoh.

Bilki saxo qilg'ali kimdur muhiq,  
Siym berurga kim erur mustahiq.

Sochmoq ovuch birla guhar ot uchun,  
Naqd etak birla mubohot uchun,

Aql hisobidin erur bas yiroq,  
Buxl bu judungdin erur yaxshiroq.

Bo'ldi bu ish mast ila majnun ishi,  
Mast ila majnun nega bo'lg'ay kishi.

Kimki kerak jomi payopay anga,  
Mast o'lubon kim tunganur may anga.

Dev agar yutsa mayi xushguvor,  
Mulki Sulaymon tilar etgay nisor.

Band majoning'a gar oltun erur,  
Zeb anga la'lu duri maknun erur.

Sa'y ila bandin chu ayoqdin ochar,  
Istasa Qorun ani tashlab qochar<sup>6</sup>.

Sim unidin vahshu sibo' etsa ram,  
Munga saxo ot qo'yoli, yo karam?

Lolau gulkim, sovurur devbod,  
Qo'ysa bo'lurmu aning otin javod?

Chun dedi Tengriki: «Kulu vashrabu»,  
Yonida dediki, «Valo tusrifu»<sup>7</sup>.

Bo'ldi yaqinkim bu saxovat emas,  
Ahli saxo muni saxovat demas.

Oni dog'i dema saxokim, kishi.  
Nechaki isrof emasdur ishi.

Bermagida mar'i erur e'tidol.  
Lek emas mavqiida bazli mol.

Yoyar anga supraki, ul och emas,  
Berur anga to'nki, yalang'och emas.

Ot anga tortarki, yuz ilqisi bor.  
Sim anga berurki, yuz ilg'isi bor.

Ham yiborur la'l Badaxshon sari.  
Ham keturur zirani Kirmon sari.

Xizrg'a yetgach tutar obi hayot<sup>8</sup>,  
Misr shakarrezig'a habbi nabot.

Sham'ni kunduz yorutur beadam  
Mehr ziyosig'a beray deb madad.

Mushkni har kecha sochar bedarang.  
Tun sochig'a bermak uchun bo'yu rang.

Mushtahi el yuz esa non bergali,  
Luqma toturmas tilabon mumtali<sup>9</sup>.

O'yla bulutdekki quruq bog' uza,  
Yog'may o'tub, suvni to'kar tog' uza,

Jur'a uchun jon beribon durdno'sh,  
Jom tubin kupga quyay mayfurush<sup>10</sup>.

Ahli vabo tortib ajal sog'ari,  
Kon aro yoqut qo'yub javhari.

Bu ikki bir nav' saxovat erur,  
O'rtasida sahl tafovut erur.

Oni dog'i qilma saxo doxili,  
Kim kishini tomiai komili –

Xalq jihatig'a talabgor etar,  
Harneki, ko'rdi tama' izhor etar.

Zulmu taaddiyu vasoyil bila,  
Va'dau payg'omu daloyil bila,

Komi ulus molini olmoq erur,  
Gar olur, ammo yana birga berur.

Ham sochari muhmalu ham termagi,  
Ham oluri harzavu ham bermagi.

Choh qozar g'ussa chekib solu moh,  
Tufrog'i daf'ig'a qozar o'zga choh.

Olmoq erur qasd anga bermak g'araz.  
Bu ham ul ikkidek erur bir maraz.

Olmog'idin g'ayri ziyonbud yo'q,  
Turfa bukim bermagidin sud yo'q.

Oni dog'i dema saxiykim, kishi  
To tilamas bermak emasdur ishi.

Har nechakim, mustahiq o'lsun aziz.  
Istamaguncha anga berimas pashiz.

Oni axi har kishi aytur saxiy,  
Bilki saxiy ul xud emasdur axi.

Ko'rki fusungar chu uzatdi fusun.  
Oldi yilon muhrasin aylab zabun.

Tilni chu metin uzatib o't solur,  
Xoradin olmos ila yoqut olur.

Sham' chekib til chu uzatdi navo,  
Shom diyori uza chekti livo<sup>11</sup>.

O'tki zabona anga ma'lum erur,  
Temuru xora damidin mum erur.

Subh dam urmoqda magar dedi so'z,  
Kim quyosh oltunig'a yorutdi ko'z<sup>12</sup>.

Oni saxiy anglag'il, ey hushmand.  
Kim ani davlat qilibon sarbaland.

Holi agar yaxshi durur, gar taboh,  
Kimsadin etmas tamai molu joh.

Har neki Haq bersa qanoat qilur,  
Ham neki amr etmish itoat qilur.

Ilgidagidin neki malhuz etar.  
Bir iligi qisqani mahzuz etar.



Bahrg'a yetsa tilamas shabname,  
Zaxmni ko'rsa ayamas marhame.

Mustahiqe chun talab izhor etar,  
Ulchaki maqduridur isor etar.

Ulki savol etmasa ham chun bilur,  
Foqau faqrini rioyat qilur.

Ahli talab boshig'a yetkursa tig',  
Harneki bor ilgida qilmas darig'.

O'ylaki metin urar o'z xanjarin,  
Kon anga isor etar o'z gavharin<sup>13</sup>.

Boshi yalang bo'lsun, agar ahli toj,  
Makrumat aylar chu ko'rar ehtiyoj.

O'z yerida yuz tuman, ar bir diram,  
Bazl ishida teng ko'rar ahli karam.

Ulcha ko'rar ilgida haq molini,  
Anglag'ach oshufta birov holini.

Sarf qilur sud ila sarmoyasin,  
Toki qiltur hosil aning voyasin.

Boqmayin o'z lutf ila ehsonig'a,  
Minnatini ham qo'yar o'z jonig'a.

Fahm etar ul nuktanikim bexato,  
Elga musabbidin erur ul ato.

Bu karamu bazl anga kesh emas,  
Ul aro yerda sababi besh emas.

Eyki, saxo ko'yida avbosh sen,  
Telbau usruk kibi zarposh sen.

Naqdni guldek dog'i sovurmag'il,  
G'uncha kibi dog'i girih urmag'il.

Harneki bu safhada oyin erur,  
Borcha saxo ahlig'a talqin erur.

G'uncha kibi xurdani qilma tugun,  
Tongla chu sochqung neki tugdung bukun.

Buxl ila chun yutti sadaf durri sof,  
Qildilar olmog'ida ko'ksin shikof<sup>4</sup>.

Charxki, mehr oltunin aylar nihon,  
Yuzini oning qaro aylar jahon.

Yoshurur anjum diramin turki mehr,  
Yerga ko'mar bosh tuban oni sipehr.

Chunki xazon ilgi sochar zarvaraq,  
Ko'rki quyosh rangi bo'lur har varaq.

Eyki, dafin ganj uza sen ajdaho,  
Anglaki, bu ganjing erur xunbaho.

Qatlinga Bahromi falak nogihon,  
Tig' chekib olg'usi ganji nihon.

Zulm ila qoning oqizib ranj aro,  
La'li ravon qo'yg'usi ul ganj aro.

Qotili gardun chu bo'lub qonlig'ing,  
Bo'lg'usi ul ganj uza vayronlig'ing.

Yuysen ilik qoniga, ya'niki ne?  
Qasd etasen joninga, ya'niki ne?

Orzu aylab necha kon naqdini,  
Tark etasen javhari jon naqdini.

Joning uchun maxzan eshigini och,  
Naqdin olib sochu o'z o'rnig'a soch.

Donaki omborg'a taslim erur,  
Zoyi' o'lurdin anga yuz bim erur.

Mazraai bazlda sochmog'ni tuz,  
Kim biriga Tengri berur etti yuz.

Ekmak emas, borcha bukim to'rg'asen,  
Arpau bug'doy sochibon o'rg'asen.

Ne bukun ekilsa, bu maqbul erur,  
Kim anga tongla kuni mahsul erur.

Dunyo erur mazraai foxira,  
«Ad-dunyo mazraatul-oxira».

Munda ekib anda o'rarsen yaqin,  
Jahd etkim bo'lmag'asen xo'shachin.

Munda ekinlarga tafovut durur,  
Yaxshirog'i judu saxovat durur,

Tarki tama' qilki, saxo ul emish,  
Bazlda sarf etki, ato ul emish.

Bergali olmoq ishidin bo'l yiroq,  
Bermak uchun olmag'aning yaxshiroq.

Ulki karam durrig'a daryo edi,  
Bahr aning durrida paydo edi,

G'azvda neruyi yadulloh anga,  
Xalq laqab aylab Asadulloh anga.

Xatm o'lub otig'a saxovu karam,  
Dedi karam bermak emastur diram.

Anda karamdurki talab bilmagay,  
Kimda diram bilsa tama' qilmagay.

### XXXI

*Hotami Toyi hikoyatikim, himmat va saxo ahlig'a peshvo erdi va aning mehmonlig'i ta'zimig'a bosh indurmagan gado himmatini ko'rub insof berdi.*

Hotami Toyig'a bir ozodavash  
Dediki: «Ey himmating ozodakash.

Toki saxo bo'ldi kafing varzishi,  
Ko'rdung ekinmu bir o'zungdek kishi?»

Dediki: «Bir kun qilibon jashni om,  
Indab edim bodiya ahlin tamom.

Mathbax aro yuz teva qurbon edi.  
Qo'yu qo'zi behadu poyon edi.

Bazm ichidin dasht sori bir nafas,  
Kasbi havo aylamak ettim havas.

Sayrda ko'rdum bir asiri mihan,  
Bir quchoq orqasig'a yuklab tikan.

Jismi uyin aylabon ul yuk nigun.  
Tirkabon ul uyga asodin sutun.

Har qadam urg'uncha tinib muddate,  
Har nafas olg'uncha o'tub fursate.

Soldi ul emgak o'ti ko'nglumga tob.  
Lutfu tarahhum bila qildim xitob:

«K-ey qadin emgak yuki past aylagan.  
Jismida g'am xori nishast aylagan.

Dasht aro go'yoki xabar bilmading,  
Hotam uyi sori guzar qilmading?

Da'vat etib asru farovon bukun,  
Qildi yomon-yaxshini mehmon bukun.

Tashla tikan, gulshani izzatqa yet,  
Chekma mashaqqat, qo'pu da'vatqa yet».

Menda chu fahm etti bu nav' iztirob,  
Bosh ko'tarib kuldiyu berdi javob:

«K-ey solibon hirs ayog'ingg'a band,  
Ozu tama' bo'ynunga bog'lab kamand.

Vodiyi g'ayratg'a qadam urmag'on,  
Kunguri himmatg'a alam urmag'on.

Sen dog'i chekkil bu tikan mehnatin,  
Tortmag'il Hotami Toy minnatin.

Bir diram olmoq chekibon dastranj,  
Yaxshiroq andinki birov bersa ganj».

Ulki bu yanglig' so'zi mavzun edi,  
Mendin aning himmati afzun edi».

Himmat agar bo'lsa Navoiy sanga,  
Banda durur Hotami Toiy sanga.

Soqiy, ayoq tut, karam izhor qil,  
Bazlni Hotamga namudor qil.

Bizda chu may bazmig'a kamdur diram,  
Kamliq erur bizdinu sendin karam.

XXXII

### OLTUNCHI MAQOLAT

*Adab da'bidakim, kichiklarga mujibi saodatmandliq va ulug'larg'a boisi sarbalandliq durur va tavozu' vasfidakim, «dob»dek qaddini xam qilg'on qadamin davlat farqig'a qo'yar va hayo riyozidakim, har kishi kirsra rahmat yog'inlari birla serob bo'lur'.*

Ey talab uyida nishast aylagan.  
Qaddini xidmat yuki past aylagan.

El yo'lida gard o'lubon dard ila,  
Kibr ko'zin ko'r etib ul gard ila.

Ashki riyozatki sochib har sari,  
Andin o'chub nafsu havo o'tlari.

Ohu nadomatki chekib sidq aro,  
Kizb yuzin dudidin aylab qaro.

Sidq ila har garm nafasikim urub,  
Revu riyo xirmonini kuydurub.

Qilmay o'zin ruxsat ishiga samar,  
«Mim»i azimat bila bog'lab kamar.

Sarsari g'ayratni chu bunyod etib,  
Hirsu tama' raxtini barbod etib.

Bo'yla tariqiqi qabul aylading,  
Ko'yi tarab sori nuzul aylading.

Lek bu yo'l qat'ida sharti talab,  
Bilki tavozu' bila kelmish adab.

Chunki tavozu'g'a xam o'ldi hilol,  
Bo'ldi fuzunroq anga har kun kamol<sup>2</sup>.

Yog'a tavozu' sifati berdi dast,  
Qadr ila mus'haf uza topti nishast<sup>3</sup>.

Charx tavozu' uza to xam durur,  
Tobii amri bori olam durur<sup>4</sup>.

Yo kibi qoshkim bu durur shon anga,  
Jonin ulus ayladi qurbon anga.

Elga sharaf bo'lmadi johu nasab,  
Lek sharaf keldi hayovu adab.

Chunki yog'in manbai o'ldi hayo,  
Qatrası tuprog'ni qilur kimyo.

Bo'lmas adabsiz kishilar arjumand,  
Past etar ul xaylni charxi baland.

Tarki adabdin biri kulgu durur,  
Kulgu adab tarkiga belgu durur.

Qahqahadin kabk navo kelturub,  
Boshig'a ul kulgu balo kelturub<sup>5</sup>.

G'uncha kulub bo'ldi ochilmoq anga,  
Yetti ochilmoqda sochilmoq anga.

Barqni kulgu yiqibon tog' aro,  
Balki qilib yer quyi tuprog' aro<sup>6</sup>.

Subhki, bu sheva pisand aylabon.  
Mehr o'ti durrini sipand aylabon.

Kulguki o'z haddidin o'ldi yiroq,  
Yig'lamoq andin ko'p erur yaxshiroq.

Ravshan etib sham'ni har tun yig'i,  
Yelga berib g'unchani xandonlig'i.

Qildi bulut ashki bila dur nisor,  
Bo'ldi choqin kulgusidin xoksor.

Mastki yig'lay yuruy o'zdin ketib,  
Ashki niyozi gunahin pok etib.

Kimda adab, kulguga ochmas og'iz,  
Lek hayo abri emas qatrasiz.

Qahqahakim, hazl aning yoridur,  
Qurbaqa savti bila raftoridur<sup>7</sup>.

Har kishikim hindu o'lur hazl aro,  
Yuzini qilmoq kerak avval qaro.

Harza erur chunki musha'bid so'zi,  
O'z tilini ko'rki kesar ham o'zi.

Ulki soqol bog'labon el kuldurur,  
Kulgu soqolig'a o'zi kelturur.

Qilmoq uchun ko'zga fuzun ko'rkini,  
Boshig'a maymun chu qo'yar bo'rkini.

Kulgu uchun kelsa ulus qoshig'a,  
Kulmas ulus yolg'uz aning boshig'a.

Masxarakim kulgu uchun boj yer,  
Bir diram olg'uncha iki koj yer.

Shaklda chun masxaravash keldi bum,  
Urmog'ig'a qushlar etarlar hujum<sup>8</sup>.

Hazlg'a lo'li ilik etsa sutun,  
O'zini kuch birla qilur sarnigun.

Muncha mazallat borisi bul'ajab,  
Daf bo'lur kelsa hayovu adab.

Jilvagar o'ldi chu quyosh ra'yati,  
Yer tubiga kirdi kecha zulmati.

Muzhik erur mast chu aylar xurush,  
So'zni taammul bila der ahli hush.

Tulkuvu it kulgu eshigin ochar,  
Sher ko'rungach ulus evdin qochar<sup>9</sup>.

Buki tavoze'durur oti aning,  
Yoki adab keldi sifoti aning.

Garchi xirad vasfidin o'zga demas,  
Borcha ulus sha'nida birdek emas.

Har kishining tavrig'a loyiq kerak,  
Surati holig'a muvofiq kerak.

Qulg'aki, bek qilsa tavoze' fuzun,  
Rishtai ranj o'ziga aylar uzun.

Sajda gado ollida ermas karam,  
Bilki karamdur anga bermak diram.

Tifl uchun qo'pmoq emastur adab.  
Pirlar ul ishni demastur adab.



Ul mutakabbir bo'luru sen yengil,  
Bu ikki ish el nega qilg'ay degil.

Garchi adab sharti bag'oyat kerak,  
Har kishi tavrida rioyat kerak.

Rutbada sendin kishikim bo'lsa past,  
Ko'rsang o'z ilgingda ani zerdast,

Gar sanga xud tobiu xuddom erur,  
Qayg'ulari ko'nglunga nokom erur.

Farzu sunan ulcha erur dilpazir,  
Borchag'a o'rgatmak erur noguzir.

Har ne alar qilsa xilofi hisob,  
Farzdurur aylamaging ehtisob.

Hashrdadur chunki xitobi sanga,  
Har ne savol o'lsa javobi sanga.

Lek rioyatlari bo'ynungdadur,  
Ruq'ai ro'zilari qo'ynungdadur.

Vojib erur borchasig'a yorliq,  
Yaxshi-yomon ishda xabardorliq.

Bu sifat ummid ilakim bim erur,  
Ushbu jamoatg'a bu ta'zim erur.

Gar erur atfolu iyoling sening,  
Budur alarg'a dog'i holing sening<sup>10</sup>.

Ulcha erur tiflg'a shoista ish,  
Bilki kichiklikta erur parvarish.

Qatrag'a chun tarbiyat etti sadaf,  
El boshig'a chiqqucha topti sharaf.

Birisi qo'ymoqliq erur yaxshi ot,  
Kim desalar yetmagay andin uyot.

Ismda ko'p keldi tafovut padid,  
Biri Husayn o'ldi, birisi Yazid<sup>11</sup>.

Qilmoq erur biri muallim talab,  
Qilg'ali ta'lim anga ilmu adab.

Itga taallumda chu bo'ldi kamol,  
Sayd aning og'zidin o'ldi halol<sup>12</sup>.

Olim ul itkim najasul-ayn erur,  
O'g'linga jahl o'lsa ajab shayn erur.

Garchi anga shafqat erur sudmand,  
Yetkurur ifroti va lekin gazand.

Mehr ila zajriki tavaqqu' durur,  
Tiflg'a sendin bu tavozu' durur.

Zavjakim ul bo'lsa anisi haram,  
Shar' tariqi bila tut muhtaram.

Nafqa bila nafsni tutma darig',  
Joningg'a ifrot ila ham urma tig'.

Aylamagil hullasini rang-rang,  
Kiysa dog'i hujrada tutsun darang.

Anglasang otlang'ucha holotini,  
Gar er esang tutma aning otini.

Qilsa ravon yor ila ag'yor aro,  
Ta'biyai ko'y ila bozor aro.

Ulki chiqib kirdi yana qo'ynunga,  
Bilki olibsen ajab ish bo'ynunga.

G'oza bila qildi chu yuzni qizil,  
Yuz qaroliq fikridadur jazm bil.

Sochbog'ini tob ila chun soldi band,  
Nafsu havo bo'ynig'a soldi kamand.

Vusma sori topti chu vobastaliq,  
Bo'ldi iki fitnag'a payvastaliq.

Muncha qabohat bila boqib turub,  
Bersang ijozat ani otlanturub.

Ushbu bo'lur g'ayratu mardonaliq.  
Rashku hamiyat bila afsonaliq.

Ul kun agar chiqsa qo'yu qilma zo'r,  
Kim chiqib evdin vatani bo'lsa go'r.

Harnekim ul shar'din etti udul.  
Ermas adab aylasang oni qabul.

Biri erur makrumati volidayn,  
Bilki munung qilmog'idur farzi ayn<sup>13</sup>.

Bu ikining xizmatini bir bil,  
Har necha ifrot esa, taqsir bil.

Boshni fido ayla ato qoshig'a.  
Jismni qil sadqa ano boshig'a.

Ikki jahoningg'a tilarsen fazo —  
Hosil et ushbu ikisidin rizo.

Tun-kunungg'a aylagali nur fosh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.

So'zlaridin chekma qalam tashqari.  
Xatlaridin qo'yma qadam tashqari.

Bo'lsun adab birla bori xizimating,  
Xam qil adab «dol»i kibi qomating.

So'ngra rahmning silasin qarz bil,  
Rahm o'shul toifag'a farz bil,

Soyiri nos ichra ulug' to kichik,  
Yoxud aro yerda vasat chargalik.

Kimki ulug'roq anga xizmat kerak,  
Ulki kichikroq anga shafqat kerak.

Kimniki qilsang mutavassit xayol,  
Asra aning hurmatida e'tidol.

Xizmat ila aylama tavqir ham,  
Shan'at ila aylama tahqir ham!<sup>14</sup>.

Tutqil aning hurmati ichra zarur  
Qoidai nuktai «Xayrul-umur».

Izzati haddin kam esa xo'b emas.  
Haddidin ortuq dog'i marg'ub emas.

Yoki seni gardishi charxi baland  
Aylasa shah xizmatig'a arjumand.

Garchiki, shah bazmi erur dilrabo,  
Vojib erur aylamak andin ibo.

Marhami zimmida erur reshlar,  
No'shi ichinda tikilur neshlar.

Gul ko'runur yonida yuz xori bor.  
Bor esa bir aysh. ming ozori bor.

Telhaga o't shakli guliston erur.  
Tushsa xalosi qachon imkon erur.

Tifi yilon naqshig'a moyil durur,  
Zahrini bilmaski, halohil durur.

Bahrda tushsa duri xurshedrang,  
Zimnidatur g'arqau komi nahang.

Angla bu qonun ila shah xizmatin,  
Ayshidin ortuq g'am ila mehnatin.

Sud erur nechaki bo'lsang yiroq,  
Turfa bukim, bo'lmag'aning yaxshiroq.

Kimga fano ganjiddin ogohliq,  
Mulki qanoatda anga shohliq.

Xizmat agar bo'ynunga beixtiyor  
Tushsa qilurda sanga ne ixtiyor.

Muxtasar aylay, eshit ijmolini,  
Fahminga zohir qilay ahvolini.

Topsang shah xizmatig'a intisob,  
To'rt ish etgil o'zunga irtikob:

Niyat aning birla burun rost qil,  
G'ayrin aning ko'nglunga hexost qil.

Yana budurkim, toni xizmat chog'in,  
Ayla, vale aylamagandek sog'in.

Yana bukim, yaxshi-yomon dema so'z,  
El yomonu yaxshisig'a solma ko'z.

Yana bukim ranj yetar, gar taab,  
Asra yomon-yaxshig'a sharti adab<sup>15</sup>.

Toshqilig'ingning bu sifat holi bor,  
Bo'lsa taqarrub aning ashkoli bor.

Bu necha ish bo'lsa muyassar sanga,  
Davlat ila yorug'ay axtar sanga.

Bu bori juzve durur, ey notavon,  
Kulli erur ulki, agar nogahon.

Bo'lsa g'ino shevasi oring sening,  
Faqr uyiga tushsa guzoring sening,

Anda durur shart tavozu' sanga,  
O'trusida qat'i tavaqqu' sanga.

Charx kibi yetsa zabardastliq,  
Yer quyisida tilamak pastliq.

Yetsa g'amu g'ussa yuki tog'dek,  
Bo'lmoq aning ostida tufrog'dek.

Aylamamak jola kibi yog'sa tosh,  
Rost binafsha kibi yuqqori bosh.

Vaz'i tavoze'da vafu aylamak,  
Da'bi adab birla hayo aylamak,

To bu vasila bila topib qabul  
Maqsadi asliy sori bo'lg'ay nuzul.

### XXXIII

*Nushirvonning hayo bog'ida nargis ko'zidin ko'zining nargisi uyolib,  
nargis ko'zluk gulruxidin kanor istamay, kanora istagoni.*

Shoh emas erkanda Anushirvon  
Bo'ldi birov ishqi bila notavon.

G'uncha kibi ko'ngli to'la qon edi,  
Lek g'ami xurdasi pinhon edi.

Yetti g'amu mehnati bemar anga,  
Toki visol o'ldi muyassar anga.

Bir chaman ichra tuzubon xilvate,  
Gulrux ila qildi ayon suhbate.

Komg'a mayl ayladi chun komkor,  
Ayladi taslim o'zin guluzor.

Sung'och ilik dilbari munis sori,  
Tushti ko'zi bir buta nargis sori.

Ilgini chekti mutag'ayyir bo'lub,  
Dedi sumanbar mutahayyir bo'lub:

«Kim bu ne qo'l sunmog'u chekmak edi».  
Posuxini shohi muaddab dedi:

«Kim bu visol ichraki voqe' durur, —  
Nargisi shahlo ko'zi mone' durur».

Ayni hayo birla futuvvat anga,  
Bermadi ul amrda quvvat anga.

Nargisini to'ldurubon yoshidin,  
Qo'pti, dog'i kechti ul ish boshidin,

To ani oxir bu arig' niyati,  
Bo'yla hayo shevasi xosiyati

Jumlai olam aro shoh ayladi,  
Adlini olamg'a panoh ayladi.

Aysh, Navoiy, necha dilkash durur,  
Lek adab birla hayo xush durur.

Soqiy, adab shartini omoda tut,  
Ollima to'qquz yukunub boda tut,

To ani ich, deb senga men yuz tutay,  
Tomsa to'quz, oqsa xud o'ttuz tutay.

#### XXXIV

### YETTINCHI MAQOLAT

*Qanoat bobidakim, ayni ju'din ayrilsa, zamzami najoti, balki salsabili  
hayot sori uchmoqning qanoti durur va parishon tama'kim, mazallat  
zahri ta'mi mazoqqa yetkurur va qoni'kim, ko'zi uzra qon mavj ursa,  
izzati bor va tomi kim, oltun masnad uzra orom tutsa, mazallati bor'.*

Kingaki ish bo'ldi qanoat fani,  
Bilki, ani qildi qanoat g'ani.

Ganju tajammulni g'ino bilmagil,  
Balki g'ino ganji qanoatni bil.

Naqdi qanoatg'a chu yo'qdur fano,  
Jahd etu bu naqd ila topg'il g'ino.

Kulbada darveshki, qoni' durur.  
Foyiq erur shahg'aki, tomi' durur.

Chunki tama' bo'ldi gadolar ishi.  
Bilki gadodur tama' etgan kishi.

Shah chu tama' qildi erur luqmaxoh.  
Qone'i darvesh erur podshoh.

Shoh ul emaskim, boshig'a qo'ydi toj.  
Shoh ani bilkim, yo'q anga ehtiyoj.

Qushlar aro shohki, anqo durur.  
Nuktaye bu amrda paydo durur.

Bordur agar fikr ila topsang vuquf,  
Qoni'u anqog'a muvofiq huruf.

Tu'mag'a hudhud neki muhtoj erur.  
Payk bil, archi boshida toj erur.

Hindui loib boshida toj ko'r,  
Oni qaro pul sori muhtoj ko'r.

Yetsa arozil kafidin boj anga.  
Ko'k sori tashlar nimadur toj anga.

Shoh boshining sharafi toj emas,  
Angla ani shohki, multoj emas.

Shoh agar ul bo'lsaki, muhtojdur.  
Harf ila muhtojda ham tojdur<sup>2</sup>.

Shoh desang kimda ko'rub tojni.  
Shah deli bu vajah ila muhtojni.

Shoh ani bilkim, boshi qalpoqda,  
Bazl etar ofoq berur choqda.

Bo'lmasa ham shukr ila qoni' bo'lur,  
Bazl ishidin nafsg'a moni' bo'lur.



Kimki qanoatdin erur hujjati,  
Yaxshi-yomong'a yo'q aning hojati.

Topsa qanoat sori har kimsa yo'l,  
Shoh bu taqdir ila ul bo'lg'ay, ul.

Mulk ila o'zni demagil, arjumand,  
Mulki qanoat bila bo'l sarbaland,

Charxki, bir qurs ila tuzdi maosh,  
Bog'ladi oy jirmini ko'ksiga tosh.

Ayladi Haq vaz'ida nodir ani,  
Neki qilayin desa qodir ani.

Sham'ki o'z yog'i bila qovrulur,  
Charx anga fonus kibi evrulur.

Ravshan erur ko'zki, tutar kom anga,  
Go'shai mehrob iki bodom anga.

Chunki og'izning yemak o'ldi ishi,  
Harbi uchun chekti iki saf tishi.

Kimsa necha zebu tama'din yiroq,  
Zimnida osoyish erur yaxshiroq.

Gavharu durni quloq ozori bil,  
So'zni quloqning duri shahvori bil.

Oltun isirg'aki quloq og'ritur,  
Zarhal o'tukdurki, ayoq og'ritur.

Nukta durin bil quloq oroyishi,  
Keng o'tuk o'ldi ayoq osoyishi.

Topsa kishi bodiya ichra zulol,  
Oltun ayoq qaydau sing'on safol.

Suv'ga safol ichra halovat durur,  
Ko'zguga kul birla tarovat durur.

Ko'zgu jamolig'a nafas bo'lmasun,  
Dastasi oltun gar emas bo'lmasun.

Tashnakim ul suv bila istar farah,  
Qayda kirar ko'ngliga oltun qadah.

Kim quruq etmak suvga to'g'rab yesun,  
Qursi xuru chashmai hayvon desun.

Oshig'a kim solsa qilib ziynat ish,  
Zardagu shalg'am kibi oltun-kumish.

Borcha naxud o'rniga durri xushob,  
Reza chag'andar yeriga la'li nob.

Yuzida zarrishta bo'lub za'faron,  
Qursi qamardin tabaq ustida non.

Sabzasi non uzra zumurrad bo'lub,  
Tarrasi xon ichra zabarjad bo'lub.

Tengri uchun, kel o'zung insof ber,  
Kim kishi och o'lsa ne nav' oni yer<sup>1</sup>.

Garchiki bor anda zarofat base,  
Durlari tishlargadur ofat base.

Chaynaridin tishga ham ozor o'lub,  
Yutmog'idin xud bo'g'uz afgor o'lub.

Chunki yeyildi bu takallufluq osh,  
Osh dema, balki necha pora tosh.

Me'nda aro chunki bu da'vat yetar,  
Deki, ani me'nda netib hazm etar.

Me'nda o'zi xo'rdidog'i oshni —  
Hazm qilur, yo'qki, ushoq toshni.

Aytmakim, to'mai qobildur ul,  
Boshdin-ayoq zahri halohildur ul.

Kimsa bu ajzog'a sanar chun baho,  
O'lturubon o'zni berur xunbaho.

Hazm ham o'lsa agar insofdur,  
Ko'rki, ne ifrot ila isrofdur.

Kimki erur maxzani Qorun aning  
Mulki Jamu toji Faridun aning.

Bazl debon ganj eshigin ochmasa,  
Foydasiz durru guhar sochmasa.

Foydasiz qilmasa zohir karam,  
Bermasa bir bazlag'a yuz ming diram.

Ochg'a yemak bersa, yalang'ochg'a to'n,  
Yuz tilaganlarga ming birga o'n.

Qoni' esa ulchaki maqdur erur,  
Tengriyu xalq ollida ma'zur erur.

Ulki tajammul anga voqi' emas,  
Onchaki bor sarfig'a qoni' emas.

Ko'rdi esa mun'imi itlofxo',  
Aylar aning shevasini orzu.

Topmay aning maxzanig'a dastras,  
Bazl ila isrofini aylar havas.

Sarv yonida chiqorur xoshasin.  
Raxsh<sup>4</sup> xiromida surar loshasin.

Kiymak uchun egniga topmay palos,  
Elga tilar, bersa munaqqash libos.

Kingaki andesha bu surat bo'lur,  
Avval anga burch zarurat bo'lur.

Burch ishidin o'zga chu fan topmadi,  
Oldi, vale bergali tan topmadi.

Ayladi chun vajhni xoki siyoh,  
Va'da yetib qildi g'ulu qarzxoh.

Burch etibu sarf etib itlof ila,  
Borchani aylab talaf isrof ila.

Yo ulus ichra yuzi suyin sochib,  
Yo olibon boshinu bir yon qochib.

Munchavü yuz muncha yetibon alam,  
Lek anga bo'lub yana yuz muncha ham.

Tarki qanoat ani aylab jalo,  
Kelturubon boshig'a yuz ming balo.

Ulki qanoatni qilib dastpech,  
Holig'a bu pech yetushgaymu hech.

Ikki qaro pul chekibon dastranj,  
Yaxshiroq andinki, shah in'omi ganj.

Tinch ko'ngul birla qatiqsiz umoch  
Behki, birov minnati birla kuloch<sup>5</sup>.

Kunduz o'kush ranj ila muzdurluq,  
Kulbag'a bermak kecha ma'murluq.

Behki tama' toqini tortib baland,  
Aylasa muzdurlig'in yuz najand<sup>6</sup>.

Ey xush, ul oyini fano ko'zlagan,  
Mulki qanoatda saro ko'zlagan.

Ko'ngli agar bog' tamanno qilib,  
Gulshani axzarni tamoshho qilib.

Gunbad anga gunbadi nilufariy,  
Ravzasi sahni falaki axzariy.

Toqi muallo anga gardon sipehr,  
Shamsasi ul toq uza raxshanda mehr.

Kun bo'lubon vardi guliston anga,  
Oy bo'lubon sham'i shabiston anga.

Anjumi shabgardg'a bo'lmay qaror.  
Sham' aning atrofida parvonavor.

Charxu shafaq bazmida fonusi ol,  
O'ylaki minqosh anga jirmi hilol<sup>7</sup>.

Bo'yla xayolot ila qoni' bo'lub,  
Istaridin nafsiga moni' bo'lub.

Qilsa tasavvur bila xursandliq,  
Yodi bila etsa barumandliq.

Gar xud o'lub himmatining raxshi tez,  
Qilsa biyik po'ya qilurg'a sitez.

Bo'lsa biyik charx ila axtar anga,  
To'da kul ichra necha axgar anga.

Ko'rsa jahonni bir ovuch xokcha,  
To'bi ila sidrani xoshokcha.

Bermasa ko'k qasrig'a vayronini.  
Toqi falakka yiquq ayvonini.

Pora yurak qoni bo'lub qut anga,  
Balki farah kasbig'a yoqut anga.

Xoru qamishning tubidin luqmaxo'r,  
Lek berib ta'm anga gulshakar.

Bo'lsa toboni dag'i har sori chok,  
Yer yuziga ibrat uchun xandanok.

Xirqasining choklarin bilsa ul,  
Gulshani tavfiq nasimig'a yo'l.

Pastini a'lo bila teng qilmasa,  
Sholini debo bila teng qilmasa,

Kulbasi oy sham'idin o'lsa yoruq,  
Eshigi yel ilgidin o'lsa ochuq.

Oq yamog'u egnida ko'k xirqasi  
Xushroq anga subhu falakdin base.

Har sori vayronida bo'lsa shikof,  
Satr uchun o'rgamchi anga pardabof.

Rohat uchun boshki qo'yub tosh uza,  
Fari humoy istamay ul bosh uza.

Qish kuni yetkursu sovuq tob anga,  
Daf'ig'a gulxan kuli sinjob anga.

Yoz topa olmay chu isig'din panoh,  
Soya uchun ko'pruk anga xobgoh.

Faqr berib maxzani Qorun anga,  
Foqa ho'lub mulki Faridun anga.

Aylabon oyini qanoat ani,  
Dahrda mustag'ni ulusdin g'ani.

Chun bu jahon ichra tama'korliq,  
El ko'zida bermay anga xorliq.

Hashrda dog'i qo'pub andin azob,  
Ko'nglida yo'q dahshati yavmul-hisob\*.

Balki ho'lub faqrda bir poyasi,  
Kim quyosh avjig'a tushub soyasi.

Dunyovu uqboda barumand o'lub,  
Kimki Haq ehsonig'a xursand o'lub.

Ulki etib tarki qanoat shior,  
Aylab ani ul tama' el ichra xor.

Iz tilasang ayla qanoat tama',  
Masnadi izzat uzadur «Man qana`»<sup>9</sup>.

XXXV

*Qoni'i juvonmard ila tomi'i jahongard hamrohlig'i va biri farog'at  
ganji hirsidin mazallat ranjig'a qolib, birining qanoat ranji  
chekardin farog'at ganjiga yetgoni'.*

Fors navohisidin ikki rafiq,  
Ayladilar Chin sori azmi tariq.

Biri azal qismig'a qoni' edi,  
Qismidin ortuq biri tomi' edi.

Borur edilar qilibon po'ya fosh,  
Bo'ldi ayon yo'l uza bir soda tosh.

Yorimi yerda, yorimi yuqqori,  
Ul yorimidaki, bo'lub toshqori

Nuktai bas turfa qozilg'on edi,  
Chun o'qudilar — bu yozilg'on edi —

Kim: «Kishi gar emgak o'tin yondurur,  
Toshni yana yuzig'a aylondurur.

Anda bitiklik durur afsonaye,  
Kim bu navohi aro vayronaye

Borki, ostida erur turfa ganj,  
Olg'ay ani har kishi ko'rsa bu ranj.

Har kishi bu ranjdin o'lsa yiroq,  
Sabru qanoat boridin yaxshiroq».

Tomi' o'qug'och mutahattik bo'lub,  
Tomia irqi mutaharrik bo'lub<sup>2</sup>.

Ganj tamannosi'g'a berkitti tish,  
Bo'ldi anga tog' tubin qozmoq ish.

Qoni' ul ishga chu nazar ayladi,  
Qilmadi parvou guzar ayladi.

Dedi: «Bu ne mehnati jonkoh erur,  
Ganji qanoat manga hamroh erur.

Kim sorikim, Tengrining ehsoni bor,  
Tosh yorilib chiqmog'i imkoni bor».

Yo'ldin olib kecha tong otquncha bahr,  
Subhidam ollinda ayon bo'ldi shahr.

Shahrg'a el kirgali ko'p yo'l edi,  
Ulki burun kirdi, vale ul edi.

Bor edi darvozag'a surmak hamon,  
Har soridin xalq yugurmak hamon.

Bu el aro rasm bu ermishki, shoh,  
Qilsa baqo mulki sori azmi roh.

Asrab ani shahr elidin yoshurun,  
Kimki sahar shahrg'a kirsu burun.

Aylar emishlar ani masnadrinishin,  
Boshig'a toj, ilgiga solib nigin<sup>3</sup>.

Oni ham ul rasm ila xaylu sipoh,  
Qildilar ul mulku sipoh uzra shoh.

Yoriki ranj o'ziga olib edi,  
Ganj tamannosig'a qolib edi.

Ranj bila yetti chu o'z jonig'a,  
Toshni evurdi yana bir yonig'a.

Xatqa boqib ko'rdi bu mastur erur:  
«Xomtama' dahrda ranjur erur».

Oni qanoat qilibon shahriyor,  
Muni tama' ranji qilib xoksor.

Qilma, Navoiy, tama' eldin diram,  
Bor esa bersang xud erur ul karam.



Soqiy, etibmen tama' ul bodadin,  
Kim olur ozu tama' ozodadin,

Jur'asidin soliki roh et meni,  
Mulki qanoat uza shoh et meni.

XXXVI

### SEKKIZINCHI MAQOLAT

*Vafo bobidakim, «vov»i semurg' «sin»ining zimnida dahyakidek nihon durur va «fo»si Qof tog'i ostidagi «fo»dek ayon va «alif»i kimyo tubidagi «alif» nishonasi, va nuqtasi mehrigiyo butasining donasi. Bas bularni tama' qilg'on kishining ishi suv sathida yugurmak bo'lg'ay va qaro yerda kema surmak'.*

Charx to'quz durjiki zarkor erur,  
Javfida yuz ming duri shahvor erur.

Har durining lam'asi sham'i farog',  
Ne duru, ne sham', duri shabcharog'.

Har birining qiymati kondin fuzun,  
Kon demakim, kavnu makondin fuzun<sup>2</sup>.

Ulki laqab qo'ydilar «aflok» anga.  
Anjumi yuz ming guhari pok anga.

Qay birikim o'ksuk erur pokidin,  
Ojiz erur aql aning idrokidin.

Harne javohirki, xayol aylagay,  
Javhariyi aqlu savol aylagay.

Yuz topilur, bir desa bu kon aro,  
Yuz desa ming oncha bu Ummon aro.

G'ayri hamul durki, jahontob erur,  
Kim bu tengiz qa'rida noyob erur.

Bir dur agar aylasa zohir jamol,  
Ikkisi jam' o'lmoq emas ehtimol.

So'rsa otin ahli safo javhari,  
Oh chekib deki, vafo gavhari!

Bu duri noyob vafomu ekin,  
Gar ul emas, mehriyomu ekin?

Mehriyoyo demaki, anqodur ul,  
Javhari fardu duri yaktodur ul.

Mehr uzori uza xatti g'ubor,  
Tun sochining tobida mushki tator.

Tushsa birov ilgiga durri yatim,  
Bordur aning javhari jonig'a biym.

Har kishi hamkim bu guhar bor anga.  
Ranju ano doim erur yor anga.

Har kishini ko'rsa, o'zin yor etar,  
Mehru vafo gavharin izhor etar.

Ul kishi razl o'lsun, agar baxtiyor.  
Kim munga yo'q shafqatidin ixtiyor.

O'ylaki xurshed erur ayni nur,  
Ko'zni yorutmoqda anga ne shuur.

Abrki, har qatra guhardur anga,  
Gul ochilurdin ne xabardur anga.

Gul ne bilurkim, negadur zebi bog',  
Nevchun etar atri muattar dimog'.

O't erur o'z hirqatidin bexabar,  
Bodag'a mast erkanidin ne xabar,

Har kishi ham juz bu guhar yo'q anga  
Fosh o'lur andoqki, xabar yo'q anga.

Har nechakim, bu guharedur sharif,  
Xosiyatidur anga behad kasif.

Kim bu guhar har kishidin bo'ldi fosh,  
Boshig'a yog'di guhar o'rnig'a tosh.

Har kishiga qildi birov bir vafo,  
Maxlasi yo'qdur ko'rubon ming jafo.

Necha samar sochmoq esa shox ishi,  
Ko'prak otar tosh anga tergan kishi.

Kon necha bazli guhari pok etar,  
Olg'uchi ko'prak yuragin chok etar.

Sham' yorutub uy ichu toshini,  
Ev iyasi ko'prak uzub boshini.

Xossa bu davronki, muhabbat qo'li,  
Sindi aning panjasidin bir yo'li.

Chunki quyosh boshdin-ayoq bo'ldi mehr,  
Yerga kiyurdi ani har tun sipehr.

Xoma vafodin bitidi mojaro,  
Muftiyi gardun yuzin etti qaro.

Chah boshig'a evrulubon charxi tez,  
Bog'labon uy bo'yninu aylab sitez.

Vahki, falak toki sabuksang erur,  
Dahr aning ollida kuhanlang erur.

Mehr eliga javrmu erdi ekin?  
Qoida bu tavrnu erdi ekin?

Lutfu vafo yo'lida bo'lg'onga gard,  
Yo'q edi erkinmu evaz, g'ayri dard?

Kimki vafo uzra borib bosh anga,  
Sarzanish-o'qmu edi podosh anga?

Yo bu zamon ahliga bu bo'ldi bahr,  
No'sh olibon quymoq el og'ziga zahr.

Kimga birov tutsa guli tozaro'y.  
Gulshani rizvoncha anga rangi bo'y.

Buki evaz, bermagay ul juz tikan.  
Bir demagil, balki degil yuz tikan.

Xalq ishiga gar bu namudor erur,  
Bir kishi topmoq ishi dushvor erur.

Bir kishi andoq kishikim bir kishi,  
Tuzgay aning birla mavaddat ishi.

Yetsa falakdin sitamu xori dard.  
Bir nafas etgay anga izhori dard.

Bo'lsa zamon xanjaridin yoraye.  
Munglashib andin tilagay choraye.

Harne yetar dahr maloli anga.  
Aylagay o'z ko'nglini xoli anga.

Har kishiga yetsa falakdin g'ame,  
Bo'lmasa hamdardi aning hamdame.

Roz labin tikkon ipin so'kmasa,  
Harneki ko'nglida erur to'kmasa.

Dard yoqib shu'lai nobudini,  
Charxdin o'tkargay aning dudini.

Tig'i balo ko'ksini chok aylagay.  
Dard oni bir damda halok aylagay.

Sarsari g'am jonig'a urg'ay sipehr,  
Xirmaning umrini sovurg'ay sipehr.

Bas kishiga umr xushi yor emish,  
Umr degan yori vafodor emish.

Yorki, oyini vafo yo'q anga.  
Sham' kibidurki, ziyo yo'q anga.

Sham'ki yo'q anda ziyo to'shasi,  
O'tsiz erur o'ylaki, muz shushasi.

Yorki, bor anda vafo — yor bil.  
Umr degan yori vafodor bil.

Har kishi olamda erur yorsiz,  
Bir sadafedur duri shahvorsiz.

Yo'q hunari yolg'uz esa, o'z kishi,  
Qayda kishi sonida yolg'uz kishi.

Fard kishi davrda topmas navo,  
Yolg'uz ovuchdin kim eshitmish sado?<sup>1</sup>

Yorsiz el ohi g'amandud erur,  
Yonsa yig'och yolg'uz, ishi dud erur.

Toq kishi ayshi uyin bil nigun.  
Uyga qachon homil erur bir sutun?

Sinsa uqob egni uza bir qanot,  
Tez uchar, lek anga bir dam hayot.

Solmas o'yun nard bisotida shayn,  
Bo'lsa aning tosida bir ka'batayn<sup>4</sup>.

Toshki chaqmoqdin o'lg'ay yiroq,  
Tiyratutor ikkalasin ul firoq,

Bir-biriga chun yetishurlar dame,  
Ravshan o'lur o'tlaridin olame.

Sinsa qalamning shaqidin bir uchi,  
Ojiz o'lur noma raqam qilg'uchi.

Yoki singor go'shaga muhtoj erur,  
Bilki kamonkash anga hiloj erur.

Dur nechakim, aybdin o'ldi yiroq,  
La'l ham o'lsa yonida yaxshiroq.

Jumla jahon shahlig'idin ori bor.  
Kimki gadodur dog'i bir yori bor.

Shohki yo'q hamdamu yori aning.  
Ko'nglida ko'p bo'lg'usi bori aning.

Qilsa birov hamnafasu yorliq.  
Bo'lg'usi ko'p g'amg'a sabukborliq.

Yor erur andoq guhari bebaho,  
Kim anga muhtoj ne shah, ne gado.

Ushbu sifat yorki, marqum erur,  
Voyki, bu davrda ma'dum erur.

Bo'lsa dog'i topmog'i oson emas,  
Jinsi bashar ichra xud imkon emas.

Xayli malak ichra agar bordur,  
Charx uruji dog'i dushvordur.

Bo'ldi pari ham bu sifatdin bari,  
Odami o'lmoqni ne bilgay pari.

Gar sanga bor ersa, bu so'zda xafo,  
Qaysi pari chehrada ko'rdung vafo?

Topmoq ani garchiki, dushvor ekin,  
Bo'lsa dog'i odam aro bor ekin.

Vasli aning kimgaki bo'lg'ay nasib.  
Sha'nidadur oyati «Fathun qarib»<sup>5</sup>.

Har kishi bir yor iladur ko'ngli shod,  
Xayli maloikdin anga «In yakod»<sup>6</sup>.

Vasli ila kimki erur bahramand,  
Jonim aning boshig'a bo'lsun sipand.

Kimki vafo ko'rdi jafu qilmadi,  
O'trusida g'ayri vafo qilmadi.

Jonni sanga topshurayin, ey sabo,  
Elt aning ollida qilmay ibo.

Bo'l quyunu boshig'a evrul base.  
Jon dog'i qo'ynungda nechukkim xase.

Mendin anga arzi duo aylagil.  
Yo'lida jonimni fido aylagil.

Demon, olib kel chamani vardini,  
Ko'zuma yetkur yo'lining gardini.

Xidmatida gar topa olsang majol.  
Onchaki mendin degasen arzi hol.

Avval ayog'ig'a tushub past bo'l.  
Yo'lida tufrog' ila hamdast bo'l.

Subh nasimi kibi bo'lma xamush,  
Shom shamoli kibi tortib xurush.

Aytkim, ey boshtin-ayoq ruhi pok.  
Jism sanga ruhki, ruhi fidok.

Necha visolingni tilab zor o'lay,  
Necha firoqingg'a giriftor o'lay.

Bag'rim o'lub ko'hi balo lolasi,  
Ko'zdin oqib har sari pargolasi.

Jonim o'lib hajring ila dardmand,  
Raglar ajaldin anga pechon kamand.

Oncha seni istabon urdum qadam,  
Kim talabingda qadam o'ldi adam.

Seni tilab har necha ko'rdum shikanj,  
Ganj tilab yetmadi juz dardu ranj.

Sabza dedim sonchti nishtar meni,  
La'l dedim, o'rtadi axgar meni.

Lola debon ko'ksuma ko'rdum tujan.  
Gul tilabon ko'ngluma toptim tikan.

Kimki anga aylamadim jon darig',  
Qilmadi javr ulchaki imkon darig'.

Har kishikim, qo'ydim ayog'ig'a bosh,  
Jola kibi boshima yog'durdi tosh.

Voyki, yuz tosh aro yolg'uz boshim.  
Charx sog'inmishki, erur yuz boshim.

Ham bu nafas boshima yet. rahm etib.  
So'ngra ne osig' kelurung men ketib.

Gar bu tamannoni qabul aylasa,  
Mehr buzug' sori nuzul aylasa,

Turmavu zinhor yetishgil manga,  
Xizr hayoti bu xabar bil manga.

To chiqibon o'tru yuz afg'on qilay,  
Qaysi fig'on, balki fido jon qilay.

Tushsa ko'zum yig'layu jononag'a,  
Jon berayin ollida shukronag'a.

Jondin olib dard bu darmon bila,  
Bormayin oxir dami armon bila.

Gar manga bu kom qarib o'lmasa,  
Davlati diydor nasib o'lmasa,

Dashti fano sori xirom aylasam,  
Mulki adam ichra maqom aylasam.

Har kishi ham qilsa vafu jomi no'sh,  
Ko'ngli muhabbat mayidin ursu jo'sh.

Aylasa bu ishda tatabbu' manga,  
Andin erur muncha tavaqqu' manga.



Kim anga kim qilsa jahonin fido.  
Etsa aning mehrida jonin fido.

Cheksa yukin onchaki to'qquz sipehr.  
Ul dog'i bir zarracha ko'rguzsa mehr.

Desun ani gavhari koni vafo,  
Koni vafo yo'qki, jahoni vafo.

Shukrin aning virdi zabon aylasun,  
Ko'nglini mehriga makon aylasun.

Bordur umidimki, bu davlat chog'i,  
Bo'lg'ay aning sadqasi mendin dog'i.

Jonni fido etsa bu jononig'a,  
Qo'yg'ay aning minnatini jonig'a.

Aylasalar ikki tarafdin vafo,  
Yetgay alar jonig'a oncha safo.

Kim sifati sig'mag'ay avroq aro,  
Demayin avroqki, ofoq aro.

### XXXVII

*Ikki vafoliq yor bir-biri vafosig'a boshlaridin kechgani va alar  
barakatidin yuz ming bosh qilichdin va qilich qindin qutulg'oni,  
balki qing'a tushkoni<sup>1</sup>.*

Andoq eshittimki shahi komron,  
To'rt ulus xoni Temur Ko'ragon.

Fathi aqolimg'a qilg'onda azm,  
Hind savodida qatiq bo'ldi razm.

Fath ila nusrat chu anga berdi dast,  
Charx aduv qalbiga soldi shikast<sup>2</sup>.

Chunki aduv kufr eli erdi tamom,  
Bek dedikim, qilsun ulus qatliom.

Kasratidin dashtni tutg'on qatil,  
Qon ila shingarfdin oqizdi Nil'.

Bosh tushub ul rudda soy toshicha,  
Bosh kesibon har kishi o'z boshicha.

Har sari qon to'kmak ila tig'i tez,  
Jumlai olamg'a solib rustaxez.

Ushbu mahalda iki bechora yor,  
Bo'ldi qitol ahlig'a nogah duchor.

Tushti sipohi birisin chopqali,  
Shoh yosoqidin amon topqali.

Qatl ishiga chun yonidin chekti tig',  
Boshin aning chopmoq uchun bedarig'.

Ko'rdi chu tig' ostida qo'ldoshini,  
Yori shafi' o'ldi ochib boshini.

Kim sanga maqsud agar bosh erur,  
Qo'y ani, bu bosh anga podosh erur'.

Chun anga yuzlandi qo'yub yorini,  
Yori ham etti bu so'z izhorini.

Qaysig'a aylay desa ul zulm fosh,  
Yori qo'yar erdi ayog'ig'a bosh.

Tund bo'lub qotili po'lodchang,  
Dedi: Ikkingizni chopay bedarang.

Qay birining qatlig'a qilg'ach shitob,  
Yona biri aylar edi iztirob,

Kim meni qatl ayla burun, tez bo'l,  
Toki men o'lguncha tirik bo'lsun ul.

Bazl qilurlar edi bir-birga bosh,  
Boshlarig'a tig' uchun erdi talosh.

Maks edi bu nav' aroda bir zamon,  
Kim el aro tushti nido: «Al-amon!»

Bir-biriga kechti alar jonidin,  
Shoh dog'i kechti ulus qonidin.

Fosh etib ul sidqu mavaddat xavos,  
Ham elu ham o'zlari bo'ldi xalos.

Bersa, Navoiy sanga yore xudo,  
Sen dog'i qil boshingu joning fido.

Soqiy, olib kel qadahe yor esang,  
Mehru vafo sharti bila bor esang.

Og'zima jon yetti, davo qil manga,  
Va'da necha?! Emdi vafo qil manga.

### XXXVIII

#### TO'QQUZUNCHI MAQOLAT

*Ishq o'ti ta'rifidakim, shu'lası balo sahrasining lolalari va axgari  
balokash ko'ngul pargolalari durur va mehnat qaro shomi aning tutuni  
va bu shomning muhtariq kavkablari aning uchquni durur. Va husn  
anvorikim, muncha o'tg'a bois, aning harqidin bir lam'a va muncha  
haroratg'a mujib, aning quyoshidin bir ashi'a durur'.*

Odami xokiyni chu subhi alast  
Ayladilar ruh mayi birla mast.

Hikmat iligi bila tufrog'ini,  
Tuzdilar andoqki Eram bog'ini<sup>2</sup>.

Qaysi Eram, ravzai xuldi barin,  
Ravza nekim, jilvagahi huri in.

Qushlari har lahza yuz afsona deb,  
Har kishikim, yona so'rub, yona deb.

Sahni falak bog'idek orosta,  
Har guli oning mahi nokosta.

Orazi gulrangi guli tozasi,  
Gul uza gulgunluq aning g'ozasi.

Qomat o'lub savsani ozod anga,  
Balki sihi sarv ila shamshod anga.

Zulf anga sunbuli mushkin bo'lub,  
Yuz bila eng lolavu nasrin bo'lub.

Yuzda quyosh chashmasidek obu tob,  
G'abg'ab o'shul chashma suyidin hubob.

Ko'zdin o'lub nargisi fattonlari,  
Labdin o'lub g'unchai xandonlari,

Xat bo'lubon sabzai xurram anga,  
Ter bo'lub ul sabzada shabnam anga.

Husnu jamol anda gumondin fuzun,  
Harne gumon aylasang ondin fuzun.

Lek bu ne husn o'lubon dilfireb,  
Ne bu jamol olibon andin shikeb.

Bulbuli ishq o'ldi chu dostonsaro,  
Kirdi tamoshog'a bu bo'ston aro.

Chun nazari gulga tushub zor o'lub,  
Shavq o'tidin joni xabardor o'lub.

Maskan uchun bo'ldi chu gulbunnishin,  
Joniga o't yoqti guli otashin,

Joni aro ishq o'tidin tushti tob,  
Ko'nglida g'am shu'lasidin iztirob.

Ishq chu toroji shikeb ayladi,  
Gul dog'i izhori fireb ayladi.

Jilva qila boshladi chun gul anga,  
Qolmadi imkoni tahammul anga.

Kuymak ila chekti aningdek xurush,  
Kim o'tidin tushti chaman ichra jo'sh.

Keldi chu bu hirqatu mahruqluq,  
Bo'ldi ayon oshiqu ma'shuqluq.

Ishq chu tug'yoni kamol ayladi,  
Oshiq o'zin sheftahol ayladi.

Husn dog'i jilva qilib dilpisand,  
Zulfg'a topshurdi balodin kamand.

Tushti jahon mulkig'a g'avg'oyi ishq,  
Bo'ldi zamon ahliga yag'moyi ishq'.

Ishq ne o't erdiki, qilg'och hujum,  
Dudu sharar bo'ldi sipelru nujum.

Pashshadek ul duddin itti malak,  
Charxda fonusdek o'ldi falak.

Aql jabinida savod etti fosh,  
Ruh ko'zidin dog'i oqizdi yosh.

Dayrda ham andin uzun mojaro,  
Ka'ba libosi dog'i andin qaro.

May o'ti but yuzidin urg'och alam,  
Kuydurub ul shu'lada Mus'hafni ham.

Andaki Mus'haf varaqin kuydurub,  
Rahlni o't yoqmoq uchun sindurub'.

Dayrg'a masjidni haqir aylabon,  
Kufrg'a imonni asir aylabon.

Xirqai taqvoni qilib itga jul,  
Rug'alari har sori jul uzra gul.

Kufr savodig'a chu ochib kitob.  
Borcha Samadni sanam aylab xitob.

Masjid aro bodai isyon sotib,  
Go'shai mehrob aro kup o'rnotib.

O't solibon gulshan aro gul bila,  
Maykada kunjin yorutub mul bila.

Bog' ne voqifki, ne guldur bu gul.  
Kup qachon ogahki, ne muldur bu mul<sup>5</sup>.

Ruh bu gul xorig'a pobast o'lub,  
Jon dog'i bu mul isidin mast o'lub.

Aqli sarosima ishi muxtalif,  
Qaysi sarosimaki, masxu xarif.

Dema xarif, ablahu nodon degil,  
Nodon yo'q, g'uli biyobon degil.

Qaydaki ishq o'ti bo'lub shu'lakash,  
Aql o'lub ul o't uza xoshokvash,

G'ayri ko'ngul xittai ma'murasi.  
Kim kuyubon bo'ldi bu o't ko'rasi.

Qaysi ko'ngulniki, makon etti ishq,  
O'tdin ani la'lg'a kon etti ishq.

Bo'lmasa ishq, ikki jahon bo'lmasun,  
Ikki jahon demaki, jon bo'lmasun,

Ishqsiz ul tanki, aning joni yo'q,  
Husnni netsun kishikim, oni yo'q.

Rojih etar ishq o'tidin choshni.  
El shahig'a oshiqi qalloshni.

Ishq erur durru, ko'ngul durj anga.  
Balki quyosh ishqu ko'ngul burj anga.

Qaysi quyosh, bazmfuruzanda o't,  
Dema furuzandaki, so'zanda o't.

Tanki so'ngak hay'atidin uy durur,  
Gar emas uy, nevchun oni kuydurur.

Ishq ayon qilmoq erur husn ishi,  
O'ylaki o't sham' ila yoqqay kishi.

Har nechakim husn dilovezroq,  
Ishq o'ti el ko'ngli aro tezroq.

Lutfu tarovat nechakim gulda ko'p,  
Hasratidin g'ulg'ula bulbulda ko'p.

Oh chekar bo'lsa ko'ngul zaxmnok,  
Shu'la biyikroq urar o't bo'lsa chok.

Mushkil emas ishqqa jon o'rtamak,  
O'tg'a ne dushvor jahon o'rtamak.

Ishq eritur aqli sitamkorani,  
Shu'la nechukkim, suv qilur xorani.

Bir sharari zuhd jahoniga bas,  
Barq ila netgay ko'p o'lub xoru xas.

Pil bo'lur ishq anga keltursa zo'r,  
Pil ayog'i ostida andoqki mo'r.

Oshiq o'zin kim desa, oshiq emas,  
Borcha kishi ishqda sodiq emas.

Ulki kezib husn pisand aylagay,  
So'ngra ko'ngulni anga band aylagay,

Oni ko'ngul demaki, bir pora tosh,  
Ne qizig'ay sham' o'tidin xora tosh.

O'zni takalluf bila g'amnok etib,  
Motami yo'q, lek yoqo chok etib.

Toshi malak shevai talbis ila,  
Lek ichi muttafiq iblis ila.

Zohirida sidqdin oroyishe,  
Botinida fisqdin oloyishe<sup>6</sup>.

Yoridin ul komlar aylab talab,  
Kim ko`runub zikrida tarki adab.

Gah labi la`lidin etib jon tama`,  
Jon demayin ulchaki, imkon tama`.

Vasf qilib gah tani gulfomini,  
Tan dema, har uzvining andomini.

Hazl kitobi kibi xattida zeb,  
Ma`ni anga fahshu, fusunu fireb.

Shu`badagar shishasidek toshi sof,  
Zimnida yuz makr ila zarqu gazof.

Bu esa oshiq, erur o`lturguluk,  
Boshdin-ayoq jismini kuydurguluk.

Oshiq ani bilki, erur dardnok,  
Ham tili, ham ko`ziyu ham ko`ngli pok.

O`zlugidin ishq ani pok etib,  
Balki fano o`tig`a xoshok etib.

Dard yoshurmoq yuzin aylab sarig`,  
Ashk oqizmoq ko`zin aylab arig`.

Tor kibi za`f tani zorida,  
Har bo`g`uni bir girih ul torida.

Orqasidin ishqki, yuz g`am o`kub,  
Har girihi bir g`am ayog`in tugub.

Dard yukidin bo`lubon xam qadi,  
Darddag`i «dol» aning hamqadi.



Charx kibi jismi sarosar tugan,  
Mehnati shomig'a tonuq har tugan.

Ko'ksi shikofi bo'lub otashfishon,  
Shom balosig'a sahardin nishon.

Ko'nglakiga toza tugandin o'run,  
Xirqai idborig'a tevruk yo'run.

G'ayr xayolin chiqorib jonidin,  
Mamlu etib jonini jononidin.

Nuktada moyil tili har so'zga yo'q.  
Jonida jonon g'amidin o'zga yo'q.

Ko'zda ko'rub yor yuzi hayrati,  
Kuydurubon ko'nglini ko'z g'ayrati.

Ko'nglidagi yor g'ami rashkidin,  
Qon to'kubon har sari ko'z ashkidin.

Qaysi tarafkim, anga borib nazar,  
Do'st jamoli bo'lubon jilvagar.

Balki bo'lub o'zlugi ham bartaraf,  
Ko'zki solib, yor ko'rub har taraf.

Kim bu sifat ishqda mag'lub erur,  
Harneki andin kelur, ul xo'b erur.

Ishq angakim, bo'yla nishast aylagay,  
O'zlugidin forig'u mast aylagay.

Zuhd harimi sori xos o'lmasun,  
Ishq o'tidin joni xalos o'lmasun.

Gar yig'ilib ahli salomat anga,  
Aylasalar zajru malomat anga,

Va'dai jannat bila ovutsalar,  
Ishq o'tidin ko'nglini sovutsalar.

Murtad o'lub aylasa toat yana,  
Taqvo ila qilsa qanoat yana.

Qilsa balo zaxmlari chorasi,  
Butsa ano o'qlarining yorasi<sup>7</sup>.

Tan qushig'a xirqani dom aylasa,  
Donai tasbih ila rom aylasa.

Xilvat aro topsa yubusat dimog',  
Kasbi havo qilg'ali istab farog'.

Qilsa guzar ko'yu Xiyobon sori,  
O'tsa Musallo bila Maydon sori.

Dashtda otlig' ko'runub xayl-xayl.  
Zohir etib borchasi javlong'a mayl.

Nogah o'shul xayl aro qotilvashe.  
Husnu malohat mayidin sarxushe,

Yuz gul ochib may o'ti ruxsoridin,  
Zohir alardin biri dastoridin.

Husni o'ti shu'lasig' gulzor o'lub,  
Har sori gulzorida gulnor o'lub.

Xol nekim, daf' qilurg'a gazand.  
O'tida ko'z mardumi har yon sipand.

Qoshlari oy uzra muanbar hilol,  
Aqlni devona qilib har hilol.

Yo'qki, ulus qatlig'a ul qoshlar,  
Mashvarat etmakka qo'shub boshlar.

Husn zuhurig'a girih qoshida,  
Zeb uchun ul shamraki, «nun» boshida<sup>8</sup>.

Sunbuli zulfi girih uzra girih,  
Qaysi girihkim, zirih uzra zirih.

Safshikan ul turki banogo'sh o'lub,  
Qatl xayolig'a zirihpo'sh o'lub'.

Noz ila o'tlug' ko'zi har yon boqib,  
Zuhdu vara' xirmanig'a o't yoqib.

Dudi ul o'tning safi mujgon aro,  
Chun yetibon borchasin aylab qaro.

Surmasiz ul ko'z qarovu purfusun,  
Ondin o'lub ko'zga jahon surmagun.

La'lida xay qatrası g'alton tomib,  
Yo'qki baqo chashmasidin jon tomib.

Xattini har sori hayot ahli bil,  
Xizrlar o'lg'on zulumot ahli bil.

Qatralar ul g'abg'abi dilxoh aro,  
Chashma suyidin sizib ul choh aro.

Har sari mo'yi chekibon jon ragin,  
Kofiri zulfi uzub imon ragin.

Hullai gulrang bila qomati,  
Sarvki gul o'lg'ay aning xil'ati.

Tund samandi ko'runub barqgom,  
Sur'ati sayr ichra bo'lub barqfom.

Kuymaku ashk o'lsa ne tong elga fosh,  
Markabi barq o'lsavu rokib — quyosh.

Guldek etak sanchibu perohani,  
To'n etagidin ko'runub savsani.

Yog'lig'i naqshiki, bo'lub gul nishon,  
Savsanu gul uzra bo'lub gulfishon.

Gulniki dastori uza band etib,  
Sarvu sapidor uza payvand etib.

Bu ne namudori jamil, ey ko'ngul,  
Balki gulistoni Xalil<sup>10</sup>, ey ko'ngul.

Kuydurubon aqlni chobuklugi,  
Titratibon ruhni nozuklugi.

Bo'yla balolar bila javlon aro,  
Yetsa kishi boshig'a maydon aro.

Tufroq o'lurdin topa olmay amon,  
Raxshi ayog'ida zaminu zamon.

Devnajodiki. qayon gom olib,  
Yo'qki bashar, xayli malak qo'zg'olib.

Ustidagi qotili chobuksuvor,  
O'lturubon xalqni devonavor.

Ul dam agar Shibli-yu<sup>11</sup> Zunnun<sup>12</sup> erur,  
Bir necha oshuftai majnun erur.

Din chekibon motamiga hoy-hoy,  
Piri xirad tifldek angushtxoy.

Ruhul-amin ul sori chun boqibon.  
Og'zidin oning sho'lakay oqibon.

Onda ne aql, elga ne taqvo bo'lur.  
Taqvo ila aql degan ne bo'lur.

Ko'rmagan el topqay ul o'tdin amon.  
Ko'rmagu, kul bo'lmoq emas ham yamon.

O'tqa tushub pok bo'lur kimki g'ash,  
Pokroq o'lg'ay o't aro pokvash.

Kimki bu kuymak anga odat durur.  
Dunyo-yu uqboda saodat durur.

XXXIX

*Shayxi Iroqiy Shomda husn sham'i gulin ko'rgach, parvonadek  
tutashqoni va shu lasi inkor tikonlarin kuydurub, munkirlar  
boshig'a oshqoni.*

Ulki fano ko'yida boqiy edi.  
Faxri zamon Shayxi Iroqiy edi.

Ko'ngli aning maxzani asrori ishq,  
Nutqi aning abri guharbori ishq.

Ishq o'tidin anga muxammar sirisht,  
Ishq hurufidin anga sarnavisht.

Lek bu ishq o'tini da'vo bila,  
Yopib edi pardai taqvo bila.

Misr necha vaqt anga erdi maqom,  
Subhidame qildi qo'pub azmi Shom.

Voli edi Shomda bir taxtgir,  
O'ylaki tun mulkida badri munir.

Angladikim, Shayx kelur ul taraf,  
Bildi o'z ahvolig'a oni sharaf.

Ayladi hukm o'ylaki, yaxshi-yamon,  
Chiqsun anga o'tru eshitgan zamon.

O'zi dog'i voliyi kishvarpanoh,  
Chiqti yopib charxni gardi sipoh.

Shayxga ul xayl chu yovushtilar,  
Borchasi markablaridin tushtilar.

Yo'li uza borcha qo'yub boshini,  
Gardga moni' qilibon yoshini.

Bor edi volig'a bir andoq o'g'ul,  
Kim anga yuz Misr shahi erdi qul.

Lufu malohatda jahon ofati,  
Dema jahon ofati, jon ofati.

Shom savodida mahi anvar ul,  
Misr eliga Yusufi payg'ambar ul.

Mulki arab ichra ajabdin-ajab,  
Volih anga ham ajamu ham arab.

Misr diyori aro habbi nabot,  
Shom savodida xud obi hayot.

Shayx ko'ziga chu ko'rundi ul oy,  
Qo'ydi ayog'ig'a yuzu, chekti voy.

Chok etibon xirqai irshodni,  
Uzdi chekib subhai avrodni.

Shayxga tufroq o'lubon xaylu shoh,  
Lek bo'lub Shayx anga xoki roh.

Ishq arokim Shayxga ul hol o'lub,  
Hayratidin kelgan ulus lol o'lub.

Ishqki har shoyibadin pok erur,  
Har neki qilsa kishi ne bok erur?

Shayxnkim ishq o'ti qildi halok,  
Shu'las ul xaylni kuydurd pok.

O'ti ko'ngullarg'a xabar ayladi,  
Ohi bag'irlarg'a asar ayladi.

Titrabon o'rtanmagidin bo'ldi fosh,  
Pokligi elga nechukkim quyosh.

Voli ichidin urubon o't alam,  
Shayx muridi bo'lubon o'g'li ham.

Ishqda pok o'lsa kishi bu sifat,  
Xosiyat o'lur bu sifat oqibat.

Husni haqiqiyini gar o'truda ko'r,  
Xoh ani ko'zgudau, gar suda ko'r.

Chun g'araz ul husng'a bo'ldi shuhud,  
Ko'zguvu suvg'a aroda ne vujud.

Munda kishi qaydavu beboklik,  
Mumkin emas ishqda juz poklik.

Ishq seni qilsa, Navoiy, halok,  
Pok esa ul ishq o'lumdin ne bok.

Soqiy, o'lubmen, menga tut jon suyi,  
Sofiyu pok, o'ylaki hayvon suyi.

To yoqavu ko'ksun etib chok ichay,  
Har nechakim bo'lsa to'la, pok ichay.

## XL

### O'NUNCHI MAQOLAT

*Rostliq ta'rifidakim, vujud uyi bu tuz sutun bila barpoy. Va ul  
uy shabistoni harimida bu sham'i anvar majlisoroy bo'lur.  
Va egrilik nafyidakim, agar egri kishi zulfdek simbarlar yuzida  
yer tutarkim, boshi kesguluk. Va agar ajdahodek ganj ustida  
halqa urarkim, o'lturguluk<sup>1</sup>.*

Har kishikim, tuzluk erur peshasi,  
Kajrav esa charx, ne andeshasi?

O'qki, tuz o'ldi tayaroni aning,  
Bo'lsa yer egri, ne ziyoni aning?<sup>2</sup>

Yo'l necha tuz, yo'lchig'a maqsad qarib,  
Xamlig'idin tushsa yiroq yo'q ajib.

Nay tuz uchun istar ani ahli hol,  
Chun tuz emas, egri ko'rar go'shmol.<sup>3</sup>

Nayza bo'lub tuzlugidin sarbaland,  
Chirmosh uchun bandg'a qolib kamand.

Sham' bo'yi tuz kelib ayvon aro.  
Shohidi bazm o'ldi shabiston aro.

Egri uchush birla chu ko'p aylanib,  
Qaydagi parvona borib o'rtanib.

Sarvkim, ul to'g'ri chekib qomatin.  
Ko'rmayin osibi xazon ofatin.

Chirmashibon sunbuli tar bog' aro,  
Egrilik oning yuzin aylab qaro.

Tuz durur egri qili to soz erur,  
Egri bo'lur emdiki, nosoz erur.

Bo'ldi chu mistar xatig'a tuz raqam,  
Boshini olmas raqamidin qalam.<sup>4</sup>

Bir xati gar egri tushar bir nuqat,  
Nusxada har safhadadur egri xat.

Qaysi paripaykari huri najod,  
Balki anga huru pari xonazod.

Kim o't erur chehrai gulrang anga,  
Dahrni kuydurgali ohang anga.

Gul uza har xay guhari nob o'lub,  
Balki bu xaydin guli serob o'lub.

Har sari mushk uzra xati mushksud,  
Xay nami zohir qilib ul o'tg'a dud.

Olg'ali el ko'nglini lutfi mizoj,  
O't bila suvg'a beribon imtizoj.

Bo'lsa latofat nechakim, oni bor,  
Husnu jamol onchaki, imkoni bor.

Lek emas bo'lsa qadi sarfarozi,  
Bo'lmasa gulzori aro sarvi nozi.



Chekmasa tuz sarvi xiromonini,  
Otmasa tuz novaki mijgonini.

O'ynamag'ay jonini har zor anga,  
Bo'lmag'ay el ko'ngli giriftor anga.

Tuzmasa mehrobini ahli niyoz.  
Egri hoqib rost emasdur namoz.

Rostqalam xalq erurlar salim.  
Egri durur xatki, emas mustaqim.

Rostdur ul kim. nazari to'g'ridur,  
Kim iligi egridur, ul o'g'ridur.

Bo'lsa ilik egrilik ichra samar.  
El ani kesmakda tuz etgay magar?

Ko'zki erur egri aning xilqati.  
Birni iki ko'rmak erur san'ati.

Birdin o'gun chun nima mavjud emas,  
Ko'rgan ani ikki erur shirku bas.

Ulki Sulaymon edi oti aning.  
Bahri nubuvvat duri zoti aning.

Saltanati dahr uza masnadrishin.  
Saltanati birla nubuvvat qarın.

Qabzai hukmida jahon kishvari,  
Amrig'a inson kibi devu pari.

Farshi saropardasi yozi yobon,  
Qush paridin boshi uza soyabon.

Sahni havoda to'shalib mafrashi,  
Azmda yel xayli janibatkashi.

Devu pari zumrai odam bila,  
Tobii amri edi xotam bila.

Kimki erur qaysaru xoqoni ahd,  
Qaysaru xoqon ne, Sulaymoni ahd.

Taxti urub poya sipehr avjig'a,  
Toji solib soyani mehr avjig'a.

Borgahi torami axzar kibi,  
Xayli bu toram aro axtar kibi.

Jam bila Zahhokcha johi aning,  
Ikki Skandarcha sipohi aning.

Xaylu taba' Hurmuzu Xusrav anga,  
Mulki Sulaymoncha qalamrav anga.

Lek Sulaymong'a nechukkim zamon,  
Xotam ila hukm etib erdi ravon.

Anga dog'i gardishi charxi barin,  
Saltanat ichra berib andoq nigin.

Ul nimakim, har kishi xonliq topib,  
Hukmi aning birla ravonliq topib.

Xatdin o'lub anda dog'i bu sharaf,  
Xatti bo'lub gavharu, xotam — sadaf.

Turfa bukim, xattin aning ro'zgor  
«Rostiyu rusti»<sup>6</sup> etib oshkor.

Qilmasa bu muhr xati yorliq,  
Shohg'a yo'q g'ayri giriftorliq.

Tuzluk o'lub oxir anga dastgir,  
Tuzluk ila xalq anga farmonpazir.

Har kishikim, istasa tuzlukka g'avr,  
Angladik onikim, erur ikki tavr:

Bir buki, tuz bo'lsa kishining so'zi,  
Yo'q so'zikim, ham so'ziyu ham o'zi;

Bir buki, yolg'ong'a taassuf bila,  
To'g'ri degay so'zni takalluf bila.

Yaxshidir avvalg'isi xud begumon,  
Lek ikkinchisi ham ermas yomon.

Har kishi yolg'onni desa, lek kam,  
Bo'lg'ay edi kosh bu davronda ham.

Turfa zamon ahlig'a biz muftalo,  
Kim yo'q alar ollida chindek balo.

Kimki qilur chinlik alardin havas,  
Qoshlari ustida topar chinu bas.

Buki erur kufr elining mulki Chin,  
Ko'rkim, erur g'ayrati xuldi barin.

Lek bu chinlikki, Haq etmish ato,  
Ko'rki ulus ollida uldur xato.

Ulki xato so'ziga oyin erur,  
Za'mida ulkim, bu xato chin erur.

Kimki bu davronda qilur rostliq,  
Yo'qtur ishi g'ayri kamu kostliq.

Davr chu kajlikka qilur iqtizo,  
Sen tilasang rost, emastur rizo.

Tuz ishi yo'q gunbadi davvorning,  
Kim xati tuz kelmadi pargorning.

Ul kishikim, tuzluk erur shon anga,  
Dushman erur gardishi davron anga.

Xomaki, tuzlukka erur rahnamun,  
Kesilibon boshi bo'lur sarnigun.

Tuzluk ila chun «alif» urdi salo,  
Ko'rki oni ostig'a olmish balo.<sup>2</sup>

Tuz chekilur borgah uzra tanob.  
Ko'rki erur boshdin-ayoq pechu tob.

Tuzluk ila chunki shihob urdi gom,  
O'rtadi o't boshdin-ayog'in tamom.

Keldi yilon jismida pechu shikanj,  
Muhradur og'zidavu ostida ganj.

Egriligidin ko'runur yangi oy,  
Andaki bo'lmish qadami charxsoy.

Munchaki chirmosh bila dastordur,  
Bosh uza chiqmoqqa sazovordur.

Yo'q-yo'q, emas bo'ylaki qildim raqam.  
Balki erur barchasi sahvil-qalam.

Egriyu tuz vasfi muhaqqaq durur,  
Botil erur egriyu tuz haq durur.

Sham'ki, tuzluk bila masrur erur,  
Garchi kuyar boshtin-ayoq nur erur.

Barqki, egrilik o'lubtur xo'yi,  
Garchi yorur, lek borur yer quyi."

To raja chekmas yeriga bog'bon,  
Bog' hamon zebda jangal hamon.

Molasiz ul tuxmki, dehqon sochar,  
Suvni teng ichmas necha yakson sochar.

Necha musattah esa ko'zgu yuzi,  
Tuz ko'runur shohidi mahro' yuzi.

Xud yuzi garchi musayqal durur,  
Girdi uzor anda mutavval durur.

Tuz ko'runur mehr chu turg'on suda,  
Egri bo'lur ushturak urg'on suda.

Boshtin-ayoq kimsaki, tuzdur so'zi.  
Yoki bo'yolg'onu yovuzdur so'zi.

Ul dog'i bu ikkisi beixtiyor.  
Kimsaga taqdir aro ne ixtiyor.

Ulki habibim dedi Xoliq ani,  
Derlar ulus muxbiri sodiq ani.

Chunki aning borcha so'zi haq durur,  
O'trusida el so'zi «saddaq» durur.

Qaysi habib ulki, falak-xokidur,  
Sidrau to'bi — xasu xoshokidur.

Istab aning dinini bilgach yaqin,  
Ummat o'lurni rusuli mursalin.

Sidq ila urg'onda salo ummati,  
Oytti «Kazzobuna lo ummati».

Qolsa azob ichra bori koinot,  
Bordur aning ummati ahli najot.

Balki chu tortib alami ehtido,  
Istabon ummatlig'ini anbiyo.

Kizb keturgan tili yo kilkidin,  
Xorij etib o'zni rusul silkidin.

Sahv ila yolg'on demak ermas hisob,  
Bilgach ani chunki qilur ijtinob.

Ulki shior ayladi yolg'on demak,  
Bo'lmas ani eru musulmon demak.

Nechaki jahd aylasa kozib kishi,  
Bir-ikki dast ilgari borg'ay ishi.

G'ofil esa xalq bu ahvoldin,  
Voqif erur Tengri xud ul holdin.

Elga necha maxfi esa bu sifat,  
Zohir etar yolg'on o'zin oqibat.

Kizb qilur burnog'i subh oshkor,  
Nurini ko'rkim, nechadur poydor.

Kimsaga har shevada qallobliq,  
Andin erur yaxshiki, kazzobliq.

Har kishi ont ichti sharorat bila,  
Kizb esa daf o'ldi kaforat bila.

Kimki o'zi ayladi yolg'on so'zin,  
Kizb, der el, chin desa, qolg'on so'zin.

Ranjg'a solg'on bu xasorat oni,  
Aylamas ozod kaforat oni.

Kimsaga yolg'onchi debon qolsa ot,  
Bu ot ila chorlasalar o'zu yot,

Sidq xitobi yana yonmas anga,  
Chin desa ham, xalq inonmas anga.

Kimki chini el aro yolg'on durur,  
Yolg'oni chinlikka ne imkon durur?

Necha zarurat aro qolg'on chog'i,  
Chin demas ersang, dema yolg'on dog'i.

### XLI

*Durrojning yolg'onni chin o'rnig'a ayturidin hodisa domig'a  
tushgonida, chin so'zin sher yolg'on sog'inib, faryodig'a yetmagoni  
va ani balo domidin xalos etmagoni<sup>1</sup>.*

Bor edi bir beshada bir tund sher,  
Vahshat aro ko'k asadidek daler.<sup>2</sup>

Chun bo'lur erdi bolalab zavqnok,  
Mo'r bolasin qilur erdi halok.

Tishlabon ul moyai payvandini,  
Og'zida asrar edi farzandini.

Bor edi durroje o'shul beshada,  
Sheri jayon vahmidin andeshada.

Sherki tishlab bolasin dam-badam,  
Beshada har yon qo'yar erdi qadam.

Yetgach aning boshi uza nogahon.  
Far eta uchsa edi ul notavon.

Vahm ila seskanmak edi sher ishi,  
O'lturur erdi bolasig'a tishi.

Tish bila aylab bolasi yorasin,  
Yora etib o'z jigari porasin.

Doim anga bu g'am aro g'am edi,  
G'am neki, motam uza motam edi.

Ko'ngli bu ishdin bo'lub ozorliq,  
Boshladi durroj bila yorliq.

Dediki, mendin sanga yo'q qasdu kin,  
Emin o'lu bil meni dog'i amin.

Vahmni qo'y, hamdamu hamrozim o'l,  
Ayshu tarab vaqti navosozim o'l.

Men dog'i lahning eshitib shod o'lay,  
Nag'mang ila qayg'udin ozod o'lay.

Shart bukim yetsa gazande sanga,  
Solsa falak hilasi bande sanga.

Lutf qo'lin holinga hamdast etay,  
Xasmni sarpanja bila past etay.

Ko'rguzub ixlos ishida ixtisos,  
Seni aduv domidin aylay xalos.

Sher ko'p afsun bila chun qildi jahd,  
Sidq ila durroj dog'i qildi ahd.

Andoq aro yerda ayon bo'ldi mehr,  
Kim hasad eltur edi andin sipehr.

Qaydaki orom tutub sharza sher,  
Girdida durroj uchubon daler.

Boshig'a parvoz ila gardishnamoy,  
O'ylaki sulton boshi uzra humoy.

Sher eshitib aning ilhonini,  
Fahm qilib savtida yolg'onini.

Der edi. yolg'on demakim shum erur,  
Kizb tuz el ollida mazmum erur.

Pand eshitmas edi durroji mast,  
Kizbdin etmas edi afg'onni past.

Bir kun aning qasdig'a bir saydgar,  
Hodisa domin yoyib erdi magar.

Dona bila suv sari qilg'och xiom,  
Tortti sayyod aning ustiga dom.

Qichqiribon dom aro ul muhtalo,  
Necha dedi: «Tot! Meni tuttilo!»

Sher qulog'ig'a yetib ul maqol,  
Savtini doimg'idek etti xayol.

Ko'p eshitib erdi bu yolg'onini,  
O'yla gumon etti chin afg'onini.

Har nechakim rost fig'on ayladi,  
Sidqini ham kizb gumon ayladi.

Maxlasig'a aylamadi iltifot,  
Toki anga munqati' o'ldi hayot.



Har kishikim rostni bexost der.  
Aytsa yolg'on dog'i el rost der.

So'zda, Navoiy, ne desang, chin degil.  
Rost navo nag'mag'a tahsin degil.

Soqiy, olib kel qadahi dilpazir,  
Ayla meni jur'asidin shergir.

Bazmning asbobini qilg'il nasaq,  
Hozir etib sixu kabobu tabaq.

## XLII

### O'N BIRINCHI MAQOLAT

*Ilm sipehrining baland axtarlig'idakim, jahl tunini yorutmoq uchun «ayn»i quyoshdin va «lom»i oydin va «mim»i kunduzdin nishona aytur. Va jahl shomi tiyra manzarlig'idakim, g'aflat chohini zalolat kechasida zohir qilib, bu kechada shaqovatdin fasona aytur. Va olimning bovujudi falokat quyoshdek sarbalandlig'i va johilning bovujudi ganju mol tufrog' aro najandlig'i<sup>1</sup>.*

Dahr ishi to xalq ila bo'lmish sitez,  
Xor durur olimu, johil — aziz<sup>2</sup>.

Toki jahon zulmni qilmish pisand,  
Yerga tushar meva, yig'och sarbaland.

Razlg'a — rif'at, bilik ahlig'a — ranj,  
Tog' uza xorovu, yer ostida — ganj.

Fe'li yomon topsa rafe' aylabon,  
Hukmig'a olamni mute' aylabon.

O'ylaki Kayvoni nuhusatshior,  
Kim yeridur gunbadi niliy hisor,

Nevchun erur Mushtari ondin quyi,  
Qilmasa yaxshini yomondin quyi<sup>3</sup>.

Yaxshig'a andin g'amu ozor erur,  
Bog'da gul hamnafasi xor erur.

Ulki sadafdek necha tirajabin,  
To'ldurubon qo'ynig'a durri samin.

Kimki bo'lur dur kibi sofiyu pok,  
Aylabon olmos ila bag'rini chok.

Qulla qotig'liqqa chu bog'lab kamar,  
Tig'i bo'lub chehraxaroshi qamar<sup>4</sup>.

La'lddek ulkim, guhari pok o'lub,  
Ko'hi balo ostida g'amnok o'lub.

Bo'ldi kemur hindui otashparast,  
Masnadi yoqut uza topti nishast<sup>5</sup>.

O'tki ayon qildi guli otashin,  
Kul uzadur xoki mazallatnishin.

Kim anga ham asl yomon, ham qadam,  
Toj ila tovus kibi muhtaram.

Ulki so'ziga bo'lub ozoda qul,  
To'tiyi go'yo kibi bo'ynida g'ul.

Qushki bog'ir yormoq o'lub kom anga,  
Shoh iligi ustida orom anga.

Ulki chekib nag'mayi dilkash hazor,  
Kul ichida gulxaniyu xoru zor.

Har kishi Zamzam suyidin kelturub,  
Gandarabon shishada baskim turub.

Mayki to'lub fisq bila jom anga,  
Har labi maygun labidin kom anga.

Ko'ktaki, ko'zgudek o'lub nuru tob,  
Yopib oni oh tafidek sahob.

Tun kulidin aylabon oyinarang.  
Oy yuzi chun shabnam ila topti zang.

Harzarav o'ldi ko'palak qahbavor.  
Hulla durur jismida naqshu nigor.

Dard ila parvona tutub tunni pos.  
Jonida o't, jismida eski palos.

Zulm durur ushbuki, bir notavon  
Ilm tilab shahridin o'lg'ay ravon.

Ayni falokatdin ayog'i yalang.  
To'ni yo'qidin tani dog'i yalang.

Tevrab ayog'ini aning har tikan,  
Har tikan ustida mukarrar tikan.

O'q aro dunbolai paykon kibi,  
Xor ichinda alif o'lg'on kibi.

Eski sepechi boshida kulguluk.  
Dom kibi boshdin-ayog'i tiluk.

Toyiri maqsud tilab kom ila,  
Donai ashki dog'i bu dom ila.

Egnida avroqu kitobi aning,  
Qilg'ali tahsil shitobi aning.

Qushdek o'lub sayr muyassar anga,  
Egnida avroqi bo'lub par anga.

Och etibon qornini muhtojliq,  
Tu'mag'a muhtoj etibon ochliq.

Jisini chun za'f etib andoqki nol.  
Xoma kibi til chekib, aylab savol.

Harne yetib, qoni' o'lub yo'l yurub,  
To o'zin o'z maqsadig'a yetkurub.

Maqsadi bir xittaki ko'rmay o'zi.  
Tushta dog'i ko'rmayin oni ko'zi.

Xalq ko'pu yo'q biri yori aning.  
Ko'zdin uchub shahru diyori aning.

Ko'cha ko'pu ev ko'pu bozor ham,  
Bilmayin ulkim, qayon urg'ay qadam.

G'urbat o'ti ko'ngliga kor aylabon.  
Jonini yolg'uzlug'i zor aylabon.

Sayr etib aqshomg'acha beto'shaye,  
Chun bo'lub aqshom tutubon go'shaye.

Za'f ila hushi o'ziga kelmayin.  
Tongg'acha uyqu ko'ziga kelmayin.

Tongla qilib sayr madoris aro.  
Madrasalar ichra majolis aro.

Qaydagi o'z holini ta'vil etib,  
Kim eshitib hazl ila tajhil etib.

Sarf etibon umr havoi varaq,  
To olibon sarf havoi sabaq.

Ne topilib kunduz aning maskani,  
Ne bilinib kecha aning ma'mani.

G'urbat aro holi yomondin yomon,  
Harne yo'q ondin yomon, ondin yomon.

Ajz bo'lub til ishi taqriridin,  
O'ylaki xoma tili tahriridin.

Bo'yla g'amu mehnati davron chekib,  
O'nu o'n besh yil yugurub, jon chekib.

Madrasa kunjini g'amobod etib,  
Tongdin oqshomg'acha faryod etib.

Bo'yla ming emgaktagi bechoradin,  
O'z vatanu mulkidin ovoradin.

Ba'zi o'lub, ba'zi itib har taraf,  
Ba'zi etib doiyasin bartaraf.

Oz ish ila ba'zi etib iktifo,  
Ba'zi o'ziga tutubon ko'p jafu.

Evrulubon doirai mohu sol,  
Zohir o'lub bir-iki sohibkamol.

Qarn ila davron topibon iqtiron,  
To bo'lubon bir kishi sohibqiron.

Ko'ngli bo'lub maskanu ma'voyi ilm,  
Qatra kibi paykari daryoyi ilm.

Ibriyu yunoniyu suryonu ham,  
Hindi agar so'rsa, bilib oni ham.

Ko'ngli uyin ilm etibon bir jahon,  
Qatrada ul nav'ki daryo nihon.

Nutqiki izhori maoni qilib,  
Zevari asrori nihoni qilib.

Chun to'kubon xoma shaqidin qaro,  
Obi hayot ul zulumoti aro.

Nusxa savodi zulumoti aning,  
Ma'ni o'lub obi hayoti aning.

Mushkili aflok bo'lub bejadal,  
Bu Aliyi' fikrati ollinda hal.

Jumla raqam kilkiga marqum o'lub,  
Borcha ulum ollida ma'lum o'lub,

Din ishida jahlu havo dofii,  
O'ylaki G'azzoliy ila Shofii.

Yo'qki bu isnayn ani solis debon,  
Balki nabi o'ziga voris debon.

Garchi falakdin topibon har kamol,  
Lek falokat ham anga barkamol.

Shom yetib choshtg'a, yo'q kom anga,  
Chosht muyassar esa, yo'q shom anga.

Turfa bukim, johili qotilvashe,  
Ko'rmagi noxush, demagi noxushe.

Dinu diyonatda yo'q oyin anga,  
Bal ne diyonat anga, ne din anga.

Yel kibi sovurmog'u noxushlig'i,  
O't kibi kuydurmagu sarkashlig'i.

Bosira sham'in o'chururdek karih,  
Aql hayosin ketarurdek safih.

Olam aro qahri ilohiy bo'lub,  
Xulq ila xalq — ikki guvohi bo'lub.

Qatl bo'lub odatu xo'yi aning,  
Marg ragi har sari mo'yi aning.

Botinida dud kibi tiraliq,  
Zohirida shu'la kibi xiraliq.

Dunlig'idin it bila yakson bo'lub,  
Bal it aning qoshida inson bo'lub.

Turfaroq ulkim, bu jaholat bila,  
Jahlni qo'y, muncha razolat bila.

Charx ani sohibi joh aylabon,  
Tobi' anga xaylu sipoh aylabon.

O't kibi har nechaki sarkash bo'lub,  
Xil'at anga hullai zarkash bo'lub.

Garchi yilondek zarari om anga,  
Ganji Faridun uza orom anga.

Necha tikon yanglig' etib tezlik,  
Tong yelidin boshiga gulrezlik.

Qatl ishiga garchi qilichdek samar,  
Aylab ani shoh murassa'kamar.

Necha sanam xoli kibi tira dil,  
Jilvasi gul bargi uza muttasil.

Shan'ati har necha degandin uzun,  
Lek bo'lub hashimati andin fuzun.

Ul biri ul fazlu fasohat bila,  
Bu biri bu fe'li qabohat bila.

Turfaroq ulkim, munga bir e'tibor,  
Kim yuz aningdekni qilib xoru zor.

Munung otin xalq amir aylabon,  
Elni bu ot birla asir aylabon.

Anga munung xizmati lozim bo'lub,  
Balki eshigida mulozim bo'lub.

Ko'r ne malakvashni qilib nafi dun,  
Devi lain ollida xoru zabun.

Garchiki o'n qatla taraddud qilib,  
Hojibu darboni tashaddud qilib.

Ollida bir qatla bo'lub bor anga,  
Ro'zi o'lub davlati didor anga.

So'rg'ali chun bekka tanazzul bo'lub,  
Xoja duosig'a tasalsul bo'lub.

Chunki duo xatmini aylab qo'pub,  
Uyga azimat qilibon yer o'pub.

Bast qilib bexud o'zu yot ila  
Majlis etib sharhi mubohot ila.

Tengri uchun, ko'rki, bu ne hol erur,  
Shammai ta'rifida til lol erur.

Ul ne tafar'un, bu ne nakbat bo'lur,  
O'rtalarida bu ne suhbat bo'lur.

Johil agar ulduru olim budur,  
Olim emas, o'ziga zolim budur.

Ilmni kim vositai joh etar,  
O'ziniyu xalqni gumroh etar.

Olim agar joh uchun o'lsa zalil,  
Ilmi aning jahlig'a bo'lg'ay dalil.

Ilm ila kim johg'a mayl aylabon,  
Bahr suyini xayg'a tufayl aylabon.

Itki erur jifada maqsud anga,  
Bo'lsa murassa' juli ne sud anga?

Dunki topib ilm rayosat uchun,  
Xil'at etib hulla najosat uchun.

Olim agar qat'i amal aylasa,  
Ilmig'a shoyista amal aylasa;

Solmasa ko'z jifai dunyi sari,  
Boqmasa tuz dunyii foni sari.

Oni sharaf gavharining koni bil,  
Gavharu kon, harne desang oni bil.

Kon o'ziyu yuz sari gavhar anga,  
Charx o'ziyu har taraf axtar anga.

Konida gavharlari ham barcha pok,  
Charxida axtarlari ham tobnok.



Kimki, bu iqbol anga bo'lg'ay nasib,  
Solmasa dunyo sari ko'z, ne ajib.

Egnida gar xirqasi yuz chok erur,  
Gulga to'ni yirtug'i ne bok erur.

Kungaki uryonliq erur ziynati,  
Tira bo'lur, bo'lsa bulut xil'ati,

Xushroq erur shahd kadudin yiroq,  
Mushk agar nofasi yo'q yaxshiroq.

Er kishiga xil'at ila ne sharaf,  
Durg'a ne nuqson yiroq o'lsa sadaf.

Qaysi chibin kisvati zarkordur,  
Yeri durur qaydaki murdordur?

### XLIII

*Imom Faxr Roziy bila Sulton Muhammad Xorazmshoh aro  
hammomda oshnoliq sham'i yorug'oni va imom so'zidin  
sultonning istig'nodin ilik yug'oni'.*

Zumrai roz ahlig'a masnadrishin,  
Dahr imom ul-umami faxri din.

Qildi chu Xorazmni oromgoh,  
Ko'rmagiga kelmadi Xorazmshoh?

So'rg'ali ul chunki qadam qo'ymadi,  
Ilm shukuhi muni ham qo'ymadi.

Shahni pushaymon qilib erdi uyot,  
Lek imom aylamadi iltifot.

Bo'ldi base pardada guftu shunud,  
Parda chu qo'pmadi arodin ne sud.

Bor edi hammomda bir kun imom,  
Shah dog'i hammomg'a qildi xirom.

Bir-biri birla bo'lubon muxtalit.  
Shoh savol etdi bo'lub munbasit:

«K-ey, bo'lub el ilming ila bahravar,  
Ayt qiyomat ishidin bir xabar,

Kim necha ul kunda malol o'lg'usi,  
Har kishiga anda ne hol o'lg'usi?»

Shoh chu bu nuktani qildi savol  
Bo'yla javob aytdi sohibkamol:

«Kim sangakim hashr so'zi kom erur.  
Bil anga monand bu hammom erur.

Anda gado shah bila yakson bo'lub,  
Shohu gado borchasi uryon bo'lub.

Johu jalol ahli saningdek bori.  
Ichkariyu boru yo'qi tashqori.

Ilmu amal ahli meningdek tamom.  
Harne yig'ib, hamrah etib vassalom<sup>3</sup>.

Yo'q sanga sultonlik ila sud ko'p,  
Lek manga ilm ila behbud ko'p».

Ilm, Navoiy, sanga maqsud bil.  
Emdiki ilm o'ldi, amal aylagil.

Soqiy, o'shul bodani tutqil mudom,  
Kim ko'rubon sajdag'a tushgay imom.

Ichsa kishi bo'lg'ay anga xoki roh,  
Aytma Xorazmki, Xorazmshoh.

XLIV

O'N IKKINCHI MAQOLAT

*Qalam shaqqining gunogunlug'i va ahli qalam shiqqining buqalamuntug'i  
va qaysi xutut kitobatig'a shuru' qilmoq a'mol nomasig'a mujibi qaroliqdur  
va kotibga xatti mubtalolik va qaysi hurufqa ruju' qilmoq sahifai  
ruxsorg'a mujibi oqliq durur va roqim'ga safid avroqliq'.*

Ul ne ajab paykari matbu' erur,  
Kim uni xush, diqqati masnu' erur<sup>2</sup>.

No'gi nukat naqshi nigorandasi.  
Tirnog'i mistar ragi xorandasi.

Qushdek o'lub vaz'u namudor anga,  
Nukta sochib har sori minqor anga.

Tu'masi zulmat, vatani nur uza,  
Mushk sochib safhai kofur uza.

Chobuku mavzun harakoti aning,  
Uchqali yo'q lek qanoti aning.

Qush demagil, ayt muanbar yilon,  
Dema muanbarki. fusungar yilon.

Shohid anga jilvada parronlig'i,  
Ilig-ayog'ning dog'i pinhonlig'i.

Til uzotib, fosh o'lub ondin fusun,  
Dahrda kim ko'rdi yilondin fusun?

Dema yilon, ajdar erur ganjsanj,  
Muzmar aning javfida yuz turfa ganj.

Dud chiqib og'zidin ajdar kibi,  
Dudi aro har shaba gavhar kibi.

Ajdar emaskim, emas ajdar salim,  
Balki degil oni, asoyi Kalim<sup>3</sup>.

Yo'qsa, nedin yutti jahon sehrini,  
Balki maoniyu bayon sehrini.

Ne tan aro bo'ldi zaxomat anga,  
Ne bu zaxomatda vaxomat anga.

Dema aso, balki ani xoma de,  
No'gin aning naqshgari noma de.

Xilqati har xalqdin avval bo'lub,  
Vasfi kalom ichra musalsal bo'lub.

Arsh uza Kursi bo'lubon joygir,  
Kursi uza Lavh iqomatpazir.

Lavhda har naqshki, bo'lmish raqam,  
Yozg'uchi bir-bir qalam o'lmish, qalam.

Muncha sharafkim, anga mavjud erur,  
Kotibi maqbul ila mardud erur.

Maqbulu mardudi erur necha xayl,  
Kim borisi qildi, kitobatg'a mayl.

Avval erur kotibi dorulqazo,  
Ish anga noshar'g'a bermak rizo.

Shohidi odil anga yolg'on tonug',  
Tuhmat etarga diram olg'on tonug'.

Zohir aning xoini mutlaqlig'i,  
Haq kibi ravshan bari nohaqlig'i.

Kilk uchin itiklik ila nesh etib,  
Sidqu diyonat yuzini resh etib.

Nohaq uchun yozib uzun mojaro,  
O'z yuzidek safhani aylab qaro.

Borcha xiyonatni diyonat bilib,  
Borcha diyonatda xiyonat qilib.

Banda qilib chun tuzub ifsodni,  
Sarv bila savsani ozodni.

Bermasa Isoyi mujarrad diram,  
Yozib aning aqdida to'quz haram<sup>4</sup>.

Xo'sha uzumkim, kishi rishvat desa,  
Kuydurubon bog'ini jannat esa,

Aqd xalifa qizi hindu bila,  
Anga suv ichmak bir ayoq su bila.

Muzd tilab hujjati kobin uchun,  
Qaydlar ul safhada tahsin uchun.

Kimki bu suratg'a surar xomasin,  
Bilki qorortur yuzidek nomasin.

So'ngg'isi muftiyi hiyalpesha bil,  
Hiyla bila makr anga andesha bil.

Ko'nglida egri ne g'arazkim tuzub,  
Surati fatvosida tuz ko'rguzub.

Kiydurubon jurg'a xur kisvatin,  
Harna xashan bo'lsa, hasan xil'atin.

Harza navo ichra qilib zahra fosh,  
Maxfi etib sham' tubida quyosh.

Rishtai tazvir o'lub o'ziga qayd,  
Lek aroda mujrim o'lub Amru Zayd<sup>5</sup>.

«Lo»u «naam» birla xato yo savob,  
Yozib anga «vallohu a'lam» javob<sup>6</sup>.

Ko'runubon ko'ziga ul ikki kam,  
Tortib alar shirkatig'a Haqni ham.

Safha shabiston kibi orosta,  
Muhrlar anda mahi nokosta.

Lek boqib, qilsa taammul kishi,  
Asli xayolig'a taxayyul kishi.

Har tarab ichra ko'runub yuz mihan,  
Har gul ichidin chiqibon yuz tikan.

Sarvu giyah o'q ila nishtar chiqib,  
Sunbulu gul dud ila axgar chiqib.

«Ayn»i shariat bori g'abni balo,  
Tuzluk ila har xati oning xato.

Kimki bezar safhani bu nomadek,  
Bo'ynin aning uzsa bo'lur xomadek.

Biri yana omili devon bo'lub,  
Dev aning a'molida hayron bo'lub.

Charx etibon ism amaldor anga,  
Bahra qilib ushbu amal dor anga.

Ul bu amal birla ichib jomi may,  
Kilki sariridin anga lahni nay.

Chun amali birla navosoz o'lub,  
Ul nay uni xonabarandoz o'lub.

Xoma uchin duda aro aylabon,  
Dudasi olamni qaro aylabon.

Kilki ulus o'rtamagiga o'tun,  
O'tkarib ul o'ti falakdin tutun.

G'ofil ul ishdan shahi davlatpanoh,  
Davlati arkoni bo'lub rishvaxoh.

Hokim etib mulkka g'oratgare,  
Buzg'oli islom evini kofare.

Zulm etib ul kosibu dehqong'a ham,  
Kosibu dehqon neki, sultong'a ham.

Qaysi viloyatg'aki, azm aylabon.  
El haramu bog'ida bazm aylabon.

Gar xud ul uy sohibi hofiy erur.  
Istari avval mayi sofiy erur.

May bila buzg'och qarining holini.  
Shohid uchun ham yiborib zolini.

Chahdag'i tuxm arpasini oti yeb.  
Uyda tovug'larni suruk toti yeb.

Hosil o'shul uyga balo doribon.  
Qaysi balo, balki vabo doribon.

Yig'lamog'u oh ila afg'on solib.  
Ul yog'inu yel bila to'fon solib.

Kentning arbobi bir-ikki avon.  
Zulmda bu — xoja, alar — pahlavon.

Bir-biri birla bo'lushub o'yla do'st.  
Kim kishikim ko'rsa degay mag'zu po'st.

Do'stqa shah molini sotib nuhuft.  
Borcha o'n oltunni bir oltung'a muft.

Sarxat alar ollida parron solib.  
Reza raiyat uza tovon solib.

Sarxat etib birga beshu o'n raqam.  
Kim Haq aning ilgini qilg'ay qalam.

Necha sitam qilg'uchi obod o'lub.  
Borcha sitam chekkuchi barbod o'lub.

Bo'lsun aning xomasidek farqi shaq.  
Osilibon jismi nechukkim varaq.

Sortqa garchi bu borur yaxshilar.  
Turk ila ham yaxshi borur baxshilar.

Garchiki bu necha adad bo'ldi rad,  
Ahli qabul o'ldi bu necha adad:

Avvalidur munshiyi gavharfishon,  
Kim gahi ul ruq'a yozar, gah nishon.

Ruq'asidin shod asiri firoq,  
Nomasi xud ruq'asidin yaxshiroq.

Nomasidin til topibon so'z nasib,  
O'ylaki gul safhasidin andalib.

Safhasidin notiqa kulgu aro,  
To'ti o'shul nav'iki ko'zgu aro.

Hajr qaro shomida subhi najot,  
Zulmati furqat aro obi hayot.

Lek nishon mujdai joni bo'lub,  
Aysh xati zavq nishoni bo'lub.

Zulm aro mazlumg'a xatti amon,  
Zolim etib vahm ani ko'rgan zamon.

Naf'da ul nav'ki mehri munir,  
Quadrat aro o'ylaki charxi asir.

Shakli hilol avjida tug'ro anga,  
Lavni shafaq boshida volo anga.

Har neki bu shevada maktub erur,  
Qilsa taammul ko'pi marg'ub erur.

Ulki tariqi bitimakdur kitob,  
Nazm ila nasr o'ylaki durri xushob.

Nuktavu ta'rixu hikoyot ham,  
She'rda ham nav'i maqolot ham,

Turfa g'azal ravzai jannat misol,  
Turfa g'azal demaki, mushkin g'izol.



Kilki qaro rishtag'a gavhar chekib,  
Balki kecha torig'a axtar chekib.

Oy kabi yuz safhavu xat anda xat,  
Xol anga har sori mushkin nuqat.

Safhalari har biri gulzordek,  
Jadvali atrofida devordek.

Ko'r nechuk o'lg'ay bu chaman ichra vard,  
Doyi chu bor oltun ila lojuvard.

Satrlar anda gulu sarvu suman,  
Har ikki satr o'rtasi dilcash chaman.

Lafzlar anda guli nasrin bo'lub,  
Ma'ni anga mevai shirin bo'lub.

Baytlari o'ylaki Baytul-haram,  
Hay'ati mavzuni savodi Eram.

Gar bu savod o'lmasa netgay kishi,  
Nazmin olib, qay sari ketgay kishi?

Ulki bu tahriru varaq asrag'ay,  
Sahvu xatodin oni Haq asrag'ay.

Bu borisi far' edi, asl ani bil —  
Kim kishining kilki uzun cheksa til.

Yozg'ali oyoti Kalomi fasih,  
Qilg'ali tahrir Hadisi sahih

Anda dog'i yozsa tafosir ham,  
Munda shuruh aylasa tahrir ham.

Gah bitibon «Tazkirat ul-avliyo»,  
Gah raqam etsa «Qisas ul-anbiyo».

Bir nafas «Ihyo» bila topib futuh,  
Jahldin o'lgan tan aro bersa ruh.

Qilsa «Futuhot»ni gohi savod,  
Topsa futuhotidin el yuz kushod.

Yozg'ali chun olsa, hisin «Kimyo»,  
Topsa ulus qalb misin kimyo.

Chun «Nafahot» aylasa, yozmoq qabul.  
«Nafhai uns» etsa ko'ngulga shumul.

Kilki «Shavohid» sari bo'lsa kafil,  
Shohidi maqsudg'a bo'lsa dalil.

Bo'lsa «Haqoyiq»niki cheksa qalam,  
Yozsa «maorif»niki yozsa raqam.<sup>7</sup>

Noziri ko'nglin chu munir etsa fayz,  
Roqimining ruhig'a ham yetsa fayz.

Kimga bu ishg'oli raqam bor esa,  
Sihhatu husnixat anga yor esa.

Tengri nasib aylab anga shodliq,  
Bersun ulusdin xati ozodliq.

Xomasini safhatiroz aylasun,  
Safhasidin sahvni oz aylasun.

Har kashishikim, xat aro cheksa ul,  
Bo'lsun anga manzili maqsadg'a yo'l.

#### XLV

*Yoqutning husnixat jihatidin darveshu podshoh qoshida ta'zimi ortg'oni va qalamrav savodining ahli hurmat raqami aning sahifai holig'a tortg'oni<sup>1</sup>.*

Bog'i fano gulbunida shuhra vard,  
Ulki anga gulshan edi Suhravard<sup>2</sup>.

Nafsu havo devig'a bermakka tob.  
Avji haqiqat falakida shihob.

Bir kun o'tub dori xilofat sori,  
O'ylaki Haq rahmati ofat sori.

Mustaa'sim-billah etib ko'p niyoz,  
Ka'bag'a ul nav'ki ahli Hijoz<sup>3</sup>.

Taxti uza oni chiqorib turub,  
Chun oni o'lturtub, o'zi o'lturub.

Durj bir erdi dog'i gavhar iki,  
Burj biru ustida axtar iki.

Shayx deb odobi tariqatda so'z,  
Lek xalifa tikibon yerga ko'z.

Har yon ayoq ustida ozodalar,  
Demagil ozodaki, shahzodalar.

Shayxg'a chun el sori tushti nazar,  
Ko'ziga Yoqut ko'rundi magar,

Qo'pti ravon zohir etib iztirob,  
Hayrat etib, qildi xalifa xitob,

K-ey ayog'ing tufrog'i ogohlar,  
Qullug'unga faxr etibon shohlar.

Qaydin anga bo'ldi bu oliy maqom,  
Kim bu sifat aylagasen ehtirom.

Shayx dedi: Qaysi biyik izzu joh,  
Mundin o'tarkim, anga bermish Iloh.

Kim bori Mus'haf bitimakdur ishi,  
O'ylaki andoq bita olmas kishi.

Chun qilur ul Haq so'zining ziynati,  
Vojib erur bizga aning hurmati.

Bilgach ani murshidi ogohdin,  
Hukmi julus o'ldi anga shohdin.

Surati xat lutfidin ul pokdast,  
Bo'ldi qalamrav shahig'a hamnishast.

Bilki, Navoiy, ne so'z etsang raqam,  
Haq so'zidin o'zgaga urgil qalam.

Soqiy, olib kel mayi yoqutrang,  
Quy xati Bag'dodgacha bedarang.

Tut manga ul bodanikim, qut etay,  
Kohrabo rangini yoqut etay.

#### XLVI

#### O'N UCHUNCHI MAQOLAT

*Sahobdek naf'rasonlar bobidakim, araqi peshoni bila rayohin zebolari  
boshig'a gavharafshon bo'lurlar. Va bulut aro barqdek xandonliq yuzlarida  
paydo. Va shabnam to'kulgan chinordek obilai kafi dast bila yerga past  
bo'lg'on xasu xoshokni serob qilurlar. Va chinordek dilso'zliqlari  
ahvollarida huvaydo'.*

Ey bo'lubon subh kibi siymposh,  
Mehring o'lub om nechukkim quyosh<sup>2</sup>.

Subh kibi xalq yuziga kulub,  
Charx kibi el boshig'a evrulub.

Jola kibi xora agar yog'dik,  
Boshni nihon aylamayin tog'dek<sup>3</sup>.

Uzsa boshing tig' ila majlisda jam',  
Jam' ko'zin yorutub, andoqki sham',

Xoma kibi boshinga gar yetsa shaq,  
Sen qilib ul shaq bila zebi varaq.

Tig' ila yetgan soyi ko'ksungga chok,  
Sen berib, andoqki sadaf durri pok.

Davr ichingni necha qonliq qilib,  
Nofa kibi atrfishonliq qilib.

Naf'din el virdi duo joninga,  
«Yamkusu fil-arzi» sening shoninga<sup>4</sup>.

Qayda ado aylagasen bu sipos,  
Kim seni deb xayri bashar, xayri nos<sup>5</sup>.

Naf' yeturmakka shior aylading,  
O'zunga ul naf'ni yor aylading.

Naf'ing agar xalqqa beshak durur,  
Bilki bu naf' o'zunga ko'prak durur.

Qatraye gar bahrg'a sochti sahob,  
Bahr qilur qatrasini durri nob.

Naxlg'a dehqon chu berur parvarish,  
Bo'lur anga mevau gul bermak ish.

Bukim erur saqfg'a homil sutun,  
Bo'lmasa saqf, ul ham o'lur sarnigun.

Bersa chu shohid qoshig'a vusma zeb,  
Vusmani ul qosh-o'q etar dilfireb.

Xolki ruxsor uza marg'ub erur,  
Ul dog'i ruxsora bila xo'b erur.

Ulki zarar shevasini tavr etar,  
Elga demakim, o'ziga javr etar.

Ulki ushatur bosibon shishani,  
Qilmas ayoq zaxmidin andeshani.

Shu'la tushub xasg'aki tortar alam,  
Chun oni kuydurdi, o'char o'zi ham.

Pashshaki el bo'ynida bo'ldi muxil,  
Bo'ldi taponcha bila-o'q muzmahil<sup>6</sup>.

Chun ko'palak qasdig'a azm etti yosh,  
Yerga urar bo'rkin, ochib o'zi bosh.

Bumni tepmakka ne qush kirs a chust,  
Tepgan oyog'durki, qilur dom rust.

Eksa g'ani tuxm qilib elga zo'r,  
Tuxmini toroj qilur xayli mo'r.

Kimki falak sori otar toshini,  
Tosh ila ozurda qilur boshini.

Sifla nishonisi sharorat durur,  
Shu'lag'a bittab' harorat durur.

Bo'lsa kishi mudbir agar baxtiyor,  
O'ziga bu amrda ne ixtiyor?

Mushkni nofa necha mastur etar,  
Atri ani xalq aro mashhur etar.

Kingaki bizzot saxovat durur,  
Faqru g'inodin ne tafovat durur.

Haqki, birov xilqatini qildi pok,  
Sevmasa nopok el oni ne bok.

Mevag'a mag'z o'lsa bo'lur po'st ham,  
Kimsaga ham dushman o'lur, do'st ham.

Yaxshi-yomondin bari ermas jahon,  
Lek yomon zohiru yaxshi nihon.

Chunki yomon ko'prak emish, yaxshi oz,  
Jazmki, oz o'lg'usidur yaxshi roz.

Haq so'zi dun xalqdin imkon emas,  
Dev tili loyiqi «Qur'on» emas.

Chunki erur asli yomon nopisand,  
Aylamas ul yaxshini aslo pisand.

Dunki, yomon fe'li anga xush durur,  
Jazmki, el yaxshisi noxush durur.

Bo'ldi chu el qilg'onig'a aybjo'y,  
Mumkin emas bo'lmomog'i aybgo'y.

Ayb ko'zi chunki bo'lur tezbini,  
Zahr ko'rar garchi erur angubini.

Ulki xayoli bori fosid durur,  
Borcha saloh ahlig'a hosid durur.

La'l hisobida tutar xorani,  
Inju sonar borcha sadaforani.

Ham ko'rinur igna sinoncha anga,  
Ham bilinur rishta yiloncha anga.

Ko'rsa birov xonida qursi fatir,  
Der ani ko'k sahnida badri munitir.

El kafida obiladin tob yer,  
Oni hasaddin duri serob der.

Tun qorasin subhi safo sog'inur,  
Bum parin parri humo sog'inur.

El mayini la'li ravoncha tutar,  
Turfa bukim, hasratidin qon yutar.

Ko'rsa birov ko'z yoshini durri nob,  
Rishta kibi g'amdin urar pechu tob.

Topsa muzahhab birov ayvonini,  
Kuydurur ul o't bila vayronini.

Har kishi gul islasa, xor ul chekar,  
Boda birov cheksa, xumor ul chekar.

Elga nishot o'lsa, anga dard erur,  
Dard aning jonig'a darxurd erur.

Yaxshig'adur ahli hasad zahmati,  
Naqdning o'g'ridin erur ofati.

Gulgaki yuz husnu latofat durur,  
Atri jual jonig'a ofat durur.

Xizrдин iblis erur a'mo kibi,  
Rost zumurrad bila af'o kibi.

Mehrki ravshanliq etar fosh ani,  
Kimga gunah ko'rmasa xuffosh ani.

Suvki, berur elga o'lumdin amon,  
Tira qilur o'tg'a yetishgan zamon.

G'ulki, ma'vosi biyobon erur,  
Gulshan aning ko'ziga zindon erur.

Lek quyosh javhari chun keldi pok,  
Bo'lsa bulut nurig'a moni' ne bok.

Tushsa xazaf ostig'a raxshon guhar,  
Qayda guhar qadrig'a andin zarar.

Kavnni yorutti rasuli arab,  
Netgay o'zin tira qilib Bu Lahab<sup>7</sup>.

Eyki nabi qavli bila shod sen,  
Elga zarar xavfidin ozod sen.

Haqki, falak toqi bino ayladi,  
Javfida bu dayri fano ayladi.

Gulshani davrong'a berib zebu far.  
Har gulini ayladi tobanda xur.

Bu chaman o'lmog'ida mavjud anga,  
Bor edi inson guli maqsud anga.

Zumrai inson aro ham komili,  
Keldi mashaqqat yukining homili.

Ulki kamol ahlidin akmal durur,  
Shohi rusul Ahmadi mursal durur<sup>8</sup>.



Mehri nubuvvat bu kamoli bila,  
Avji kamol uzra jaloli bila.

Etti sening shominga misbohliq,  
Qildi sening shoninga maddohliq.

Naf' tegurmakni chu qildi qiyos,  
Ko'rki, qiyos etti seni xayri nos.

Ulki sanoxon anga subhon o'lub,  
Ul sanga maddohu sanoxon o'lub.

Ushbu biyik martaba qadrini bil,  
Bo'yla ulug' manzala shukrini qil.

Shukri nedur? Naf' fuzun aylamak,  
Bazl kamandini uzun aylamak.

Bo'lmoq agar ko'p esa ham bazlsoz,  
Bergali or aylamamak bo'lsa oz.

Xayr muyassar gar emas il bila,  
Naf' tegurmak ham erur til bila.

Ganj berib bo'lmas ekin tutsa ko'z,  
Ulcha qilur vaqtida bir yaxshi so'z.

Ham so'z ila elga o'lumdin najot,  
Ham so'z ila topib o'luk tan hayot<sup>9</sup>.

So'z bila kufr ahli musulmon bo'lub,  
So'z bila hayvon degan inson bo'lub,

Bir so'z etib oncha baliyatni daf',  
Kim sochibon ganj yetishmay bu naf'.

Ma'dani inson guhari so'z durur,  
Gulshani odam samari so'z durur.

So'z bila naf' o'lmasa el peshasi,  
Yaxshi kerak ko'nglida andeshasi.

Ko'ngli kishi xushlug'idin xush kerak,  
Noxush agar bo'lsa, mushavvash kerak.

Odami ersang demagil odami,  
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.

Ulki kishi o'Imagidin shod erur,  
Go'rkanu g'osilu jallod erur.

Qaysi birin kimki tasavvur etar,  
Tab'g'a ko'rkim, ne tanaffur yetar.

Lek birov qilsa ravonbaxshliq,  
Ruh kibi so'z bila jonbaxshliq.

Nutqi bila yetmasa baxshoyishi,  
Zikri erur tab'g'a osoyishi.

Chun seni Haq nodirason ayladi,  
Dahr eliga naf'rason ayladi.

Har kishi bu amrg'a mansub erur,  
Borcha ulus ko'ngliga mahbub erur.

Ikki jahon taxti bila afsari,  
Bilki erur bir sari, ul bir sari.

Yo'q bu sifatdin nima marg'ubroq,  
Lek bir ish mundin erur xo'broq.

Kim beribon qilmamoq olmoqqa xo'y,  
Naf'rason bo'lmoqu yo'q naf'jo'y.

Bermak ishi xotiridin ketmamak,  
Bermagu, olmoqni xayol etmamak.

Topqonini sochdi el uzra sahob,  
Kim oni Haq ayladi gardunjanob.

Mo'r terar harneki, sochqay kishi,  
Bo'ldi tirik go'rga kirmak ishi.

Chun sochar el uzra shukufa diram,  
Haq anga ne barglar aylar karam.

Yelki yig'ar harne ul aylar nisor,  
Andin erur darbadaru xoksor.

Shishaki ruxsor uza sepgay gulob,  
Toq uza asrarlar ani orzulob.

Chunki supurgu yig'ar inak dalil:  
Yotmoq eshik keynida xoru zalil.

Zulfi sanamlarning erur mushkposh,  
Kim oni ruxsor uza asrar quyosh.

Bo'ldi bu sunbul isidin xo'shachin,  
Kim qaro tuproq kibidur mushki Chin<sup>10</sup>.

Bil yana bir martaba mundin baland,  
Kim anga yo'l topmoq erur arjumand.

Qaysidur ul: bazi ochuq yuz bila,  
Tutmoq achig boda chuchuk so'z bila.

Bazlda kim lutfni qilmas xato,  
Zohir etar bir yo'li ikki ato<sup>11</sup>.

Tos aro gar meva erur dilfireb,  
Ustida gullar erur ortuqsi zeb.

Bo'lsa necha husnu sabohat bila,  
Zor qilur elni malohat bila.

Oltun agar tojg'a ziynat durur,  
Ustida dur bo'lsa ne nisbat durur.

Xoni muza'farki erur dilpisand,  
Xushroq erur sepsalar ustiga qand.

Ulki bu axloq ila aylab xirom,  
Yetsa jafu aylamagay intiqom.

Balki kuduratni safo aylagay,  
Necha jaf o'yetsa, vafo aylagay.

Oni bashar xaylining insoni bil,  
Odamilar odamisi oni bil.

Angla kishilikni musallam anga,  
Yuz kishilikcha ish esa ham anga.

### XLVII

*Ayyubi xalaf noxalaf o'g'ringin egriligin tuzgoni va gumrohliq zulmatida  
anga yo'l ko'rguzgoni va ul shayx silsilasig'a kirib, ayyorliq kamandin uzgoni<sup>1</sup>.*

Bir kecha Ayyubi xalaf masti roz,  
To'kar edi sham'dek ashki niyoz.

Ashk duri bahrig'a pobast edi,  
Kuymak aro sham'g'a hamdast edi.

Xilvatida maskani bir burj aro,  
Durri samin o'ylaki bir durj aro.

Bu kecha bir kisaburi naqbzani,  
Bo'lmish edi maskaniga naqbkani<sup>2</sup>.

Barcha kecha yer tubin aylab xarosh,  
Hufrasiq'a<sup>3</sup> chiqti saroy ichra bosh.

Anglabon Ayyub oni, dam urmadi,  
Toat etib, o'ziga kelturmadi.

O'g'ri o'shul hufra ichidin chiqib,  
Harne topib, evda tamomin yig'ib.

Oncha nekim elta olur chog'labon,  
Berk tongib orqasig'a bog'labon.

Naqbg'a kirgach kichik erdi teshuk,  
Sig'madikim behad ulug' erdi yuk.

Tor ini sichqong'a solib erdi g'am,  
Quyruqig'a bog'ladi g'arbol ham.

Ko'rdi chu Ayyubki ojizdur ul,  
Qo'pti, eshik ochtiyu ko'rguzdi yo'l.

Kim, yuk ulug'dir dog'i naqbing kichik,  
Yo'l sori kelgilki, ochuqdur eshik.

Onchaki berohliq ul ko'rguzub,  
Shayx bu yanglig' anga yo'l ko'rguzub.

Kimgaki ko'rguzsalar, ul nav' yo'l,  
O'zga yo'lidin chiqa olg'aymu ul?

O'g'rini ul hol zabun aylabon,  
Qaddin og'ir haml nigun aylabon.

Jonig'a bir o't solibon so'zu dard,  
Kim kuyub andin falaki lojuvard.

Egnidagi yukni bu o'tg'a urub,  
O'zlugining ham yukini kuydurub,

Muztar etib ranju malolat ani,  
Xas kibi o'rta bu xijolat ani,

Na'ra chekib sel kibi to'kti yosh,  
Shayx ayog'ig'a fido qildi bosh.

Ul karamu avf tilin lol etib,  
Lutf yuki jismini behol etib.

Shayx karam birla oritti yoshin.  
Lutf ila tufrog'din oldi boshin.

Anglabon ul dard ila holat anga,  
Xirqai faqr etti havolat anga.

Kuydi suluk o'tig'a joni aning,  
O'ylaki, mahv o'ldi nishoni aning.

O'zluki chun kuydi nechukkim xase,  
Topti ul o't birla yorug'luq base.

Komil anga berdi chu bu parvarish,  
Ayladi bir afv bila muncha ish.

Netti Navoiy qo'yubon telbalik,  
Sen dog'i ursang bir etakka ilik.

Soqiy, ilik tut, gunahim afv etib,  
Kim chiqadur jonim og'izg'a yetib,

Bot bo'lu bir jom ila yetkur futuh,  
Sabr esa Ayyubcha, yo'q umri Nuh<sup>4</sup>.

### XLVIII

#### O'N TO'RTUNCHI MAQOLAT

*Aflok hay'ati shikoyatidakim, har birisi durje ko'runur va har kavkabi  
bir gavhari pok, ammo huqqaye durur zahrnok, balki zahri zahri halok.  
Va jahon lu'bati kinoyatidakim, chobuke ko'runur matbu' va mavzun.  
Ammo zoledurur ishi makru fusun. Va fusuni haddin fuzun. Va ul  
huqqa laolisi mazarratidin qalam tili lol va bu zolning jam'i zavol<sup>1</sup>.*

Charx erur shu'badasanj, ey ko'ngul,  
Topma firebi bila ranj, ey ko'ngul<sup>2</sup>.

Shu'badasi vahmu gumondin fuzun,  
Shu'badadin dog'i fuzunroq fusun.

Charx urubon rev ila nayrang soz,  
O'ylaki ko'k xirqa bila tosboz.

Xirqasida baxyadin anjum nishon,  
Bo'yida bir parcha yamog' — Kakhashon.

Mash'ali xur birlaki, davron qilib,  
Tos aro o't xirqada pinhon qilib.

O'tkarib ul xirqa arosidin o't,  
Ko'rguzubon subh yaqosidin o't.

Yo'qki, chu subh og'zini kulgu ochib,  
Hiyla bila og'zidin o'tlar sochib.

O'ylaki ul o'tining uchqunlari,  
Xirqasi uzra sochilib har sari.

Balki qovurchoqchi kibi hiylagar,  
Ko'rguzubon chodaridin ming suvar<sup>3</sup>.

Mixu sutunsiz tikibon chodarin,  
Davri etib chodarining paykarin,

Anda bo'lub jilvagari anjuman,  
Har sori yuz lu'batlari siminbadan.

Munchaki lu'bat chiqorib simgun,  
Qasdi bori elga firibu fusun.

Yo'qki, parixondek etib jism shaq,  
Tig'i bila qoni hilolu shafaq.

Bo'yla parixonlig' ila axtari,  
Jam' o'lubon girdida yuz ming pari.

Dema parixonki, erur pirazol.  
Qaddi bo'lub dalla sifatliqqa dol.

Anjumi tazvirda yoshi aning,  
Subh bayozi dema boshi aning<sup>4</sup>,

Ham to'kub el qonini tadbir ila,  
Ham olib el jonini tazvir ila.

Xusravlar qatli uchun tezhush,  
Xusravi ham demaki, Farhodkush.

Dahr arusinki, tamosho qilib,  
Makr ila mashshotaliq ifsho qilib.

Qo'ynida mashshotalig'i belgusi,  
Subhi safid — obi, quyosh — ko'zgusi'.

Aylabon ul sho'xni orosta,  
Subh dami chun guli navxosta.

G'oza urub orazig'a gul bila,  
Zulf o'rub egniga sunbul bila.

Lola bila chehrasin ol aylabon,  
Dog'ini ul chehrag'a xol aylabon.

Vusma chekib, sabza bila qoshig'a,  
Me'jar etib, shabnam ila boshig'a.

Sarvdin ilgiga nigor aylabon,  
Suvni anga oyinador aylabon.

G'uncha aro og'zini pinhon qilib,  
So'z chog'i ul g'unchani xandon qilib.

Nargisi shahlodin etib ko'z anga,  
Savsanu ra'no tilidin so'z anga.

Nargisiga g'amzau noz o'rgatib,  
G'amzasini shu'badaboz o'rgatib,

Chunki bezab xuldi barindek ani,  
Xuld nekim, lu'bati Chindek ani.

Jilva berib el aro zebolig'in,  
Zohir etib har sori ra'nolig'in.

Muncha fusunkim, qilib izhor anga,  
Bo'lmoq uchun xalq giriftor anga.

To ani har kimki ko'rub zor o'lub,  
Ishq kamandig'a giriftor o'lub.

Chun ko'rub ul zolni bir Rustame,  
Bo'ldi havosida asiri g'ame.



Zohir etib o'rtada dallolaliq,  
Aytma dallolaki, muhtolaliq.

Ul qadar afsun nuhuft aylabon,  
Kim ul ikki toqni juft aylabon.

Mahkam etar chog'da alar aqdini,  
Mahr etibon javhari jon naqdini.

Mahri maajjal bu dam ar jon bo'lub,  
Tongla muajjal anga imon bo'lub.

Shohidi ra'noki topib bo'yla dast,  
Oshiqini ayladi shohidparast.

Ajzu zabunluq ko'rub oyin anga,  
Da'vi eta boshladi kobin anga.

Mahri maajjal tilabon jon olib,  
So'ngra muajjal tilab imon olib.

Jon bila imonni chu toroj etib,  
Dahr evidin oni ixroj etib.

Oni chiqorg'och, kivurub yonani,  
O'z qilibon, bir yana begonani.

Anga dog'i tarki vafu aylabon,  
O'zgaga dog'i bu jafu aylabon.

Turfa bukim, yuz kelibon ming ketar,  
Ming chu ketar, keynicha yuz ming yetar.

Bo'yla bo'lub, kelmagu ketmak ishi,  
Ketgusi bu bazmg'a kelgan kishi.

Davr ishi bu nav' taxayyul topib,  
Ohki, bu davr tasalsul topib.

Silsila bu nav' azal to abad,  
Kelguchiyu ketguchi behaddu ad.

Gar yuzu gar ming falak aylab taboh,  
Oh, jafosidin aning yuz ming oh.

Mintaqasi birla muaddil xatin,  
Ya'ni o'shul ikki hamoyil xatin?

Ko'rmak ila fahm qilur borcha el,  
Kim nega bog'labdur iki yerda bel.

Davrasidin xoh kunu xoh tun,  
Topib o'zin zeru zabar tunu kun.

Mehnatidin mehr yuzi sorg'orib,  
Balki yangi oy ham o'zidin borib.

Subh to'nin chok etib oning g'ami,  
Shom libosini qilib motami.

O'tni isitmadin etib beqaror,  
Yelni yugurmakdin etib xoksor.

Dag'dag'asi suvni jahongard etib,  
Sarsari tufrog'ni xud gard etib.

Bahr aning qasdi bila zahr fom,  
Zahr asari aylab ani talxkom.

Konni aning zulmi qilib tirabaxt,  
O'ylaki qon bog'lab ichi laxt-laxt.

Durg'a jafosi bo'lubon oncha fosh,  
Kim bo'lub o'z holig'a bir qatra yosh.

La'lg'a nishi tegib oncha ayon,  
Kim bo'lub o'z zaxmig'a bir qatra qon.

O'yla bulut holi g'amidin taboh,  
Kim bo'lub o'z dardig'a bir tiyra oh.

Chashma ko'rub baski ham andin sitez,  
Bir ko'z o'lub, o'z g'amidin ashkrez.

Bulbul aning anduhidin dardnok,  
Andin o'lub gul to'ni yuz yerda chok.

Toza tugan zohir etib loladin,  
Ul tuginin qong'a bo'yab joladin.

Shisha ko'zidin oqizib qonini,  
May o'tidin kuydurub el jonini.

Garchi ulus joni aro o't solur,  
Berganini barcha kishidin olur.

Lek bu hamkim tutubon yor o'zin,  
Ko'rguzur el holig'a g'amxor o'zin.

Zohir etib nash'u namo necha kun,  
Elni qilur komravo necha kun.

Birni qilib johda Qorun kibi,  
Birini rif'atda Faridun kibi.

Ushbu ishi dog'i muvofiq emas,  
Balki mingidin biri loyiq emas.

O'yla gumon aylaki charxi dani,  
Kim ko'runur davrda parvizani\*.

Olam eli yaxshi agar dun erur,  
Borchag'a ul chambar aro yer berur.

Chunki bu nav' ayladi el holini,  
Doyir etar har sori g'arbolini.

Yaxshini behokdin aylar judo,  
Pokni nopokdin aylar judo.

Emdiki ayrildi sharifu xasis,  
Qolmadi bir poyada dunu nafis.

Qay birikim, bor edi ko'prak dani,  
Qildi ani lutf ila ko'prak g'ani.

Kim shabadin aylamayin durni farq,  
Farqin aning durlar aro qildi g'arq.

Gulshani dahr ichraki, har bebasar,  
Bor edi nargis kibi ko'tahnazar.

Qo'ydi aning bazmida gohi farah,  
Sim tabaqlar uza oltun qadah<sup>9</sup>.

Gulniki pokizasirisht angladi,  
Zevari gulzori bihisht angladi.

Xori halo birla etib muhtalo,  
Uzdiyu sovurdiyu qildi jalo.

Ul terikim, rind qilur jur'adon,  
Mushki Xo'tan ayladi anda nihon.

Qayda adimi Yaman idrok etib,  
Ayladi qurbon ani yuz chok etib<sup>10</sup>.

Ulki kirib tig'dek el qonig'a,  
Rutbada solib oni shah yonig'a.

O'q kibi tuzlar bori andin zalil,  
Kishdin ixroj bo'lub mil-mil.

Turfa bukim, yaxshi degil gar yamon,  
Muhlat agar bersa bir ozroq zamon,

Xanjari bedodni qilg'onda tez,  
Yaxshi-yomon birla teng aylar sitez.

Kimniki taxt uzra qilur arjmand,  
Taxta uza oqibat aylar najand.

Kingaki bir taxta kiz aylar panoh,  
Anga dog'i taxta qilur xobgoh.

Kingaki bir jom tutar no'shi bahr,  
Oqibatul-amr ezar anda zahr.

Yo'q kishi ul jomni no'sh etmagan.  
So'ngra bu zahr ila xurush etmagan.

Har kishi sha'ninki, rafeъ ayladi,  
Amrig'a olamni muteъ ayladi.

Qildi yana javr bila zerdast,  
Dast-badast ayladi tufroqqa past.

Dahrda ul xaylki, shoh erdilar,  
Dodgaru mulkpanoh erdilar.

Birni qatil aylamayin qo'ydimu?  
Zoru zalil aylamayin qo'ydimu?

Ko'rki qayon bordi Faridunu Jam,  
Eraju Hushang ila Zahhok ham.

Salmu Manuchebr ila Navzar qani?  
Bahmanu Dorovu Skandar qani?

Qani jahon dovari Chingizxon?  
Qani jahon xoni Temur Ko'ragon?

Birga vafo aylamadi charxi dun,  
Kimniki chekti, yana qildi nigun.

Davlatu iqboli bila bo'lma shod.  
Mehriga ham aylamagil e'timod.

Hech durur hosilu boqisi hech.  
Kech boridin bot, vale qo'yma kech<sup>11</sup>.

Seni ul etguncha zabun, sen burun,  
Ayla, ani faqr ila xoru zabun.

Toki ne ilgingdadur olmaydur ul,  
Borchasidin silk etagu, tort qo'l.

Harne bor ilgingda parokanda qil,  
O'z iligingdin ani sharmanda qil.

Panjai xursheddek, ilgingni och,  
Anda nekim siym esa, olamg'a soch!

Ul seni aylar chu tihidast bil,  
Bilgach o'z-o'zingni tihidast qil.

### XLIX

*Iskandarning yetti iqlim mamolikin panjai tasarrufig'a kiyurg'oni  
va xoli ilik bila olamdin rihlat markabin surg'oni<sup>1</sup>.*

Chunki Sikandar shahi iqlimgir  
Bo'ldi jahon mulkida sohib sarir,

Qolmadi bir yerki yurub olmadi.  
Yerki yurub olmadi bir qolmadi.

Hitai hukmig'a kirib bahru bar,  
Qabzai amrig'a tushub xushku tar.

Xutba o'qub gunbadi axzar uza,  
Sikkai adlin urub axtar uza<sup>2</sup>.

Qullug'ini shahlar etib ixtiyor.  
Qullug'i shahlarg'a bo'lub iftixor.

Ham shah o'lub, ham valiyu ham nabi,  
Hikmat ila ham tuz o'lub mashrabi.

Zotig'a Jamshedlig' oyin bo'lub,  
Ko'zgu anga jomi jahonbin bo'lub.

Ham yeti ko'k hukmi muyassar anga,  
Ham yeti iqlim musaxxar anga.

Bo'yla humoyunfari firuzbaxt,  
Dayri fanodin chekar o'lg'onda raxt.

Ko'rdi ajab ajz ila bechoraliq,  
Ollig'a tushti ajab ovaraliq,

Ne hukamosi bo'lubon dastgir,  
Ne xadamu bandasi farmonpazir.

Borchasi qolib bu yashil bog' aro,  
Ozim o'lub ul qaro tufrog' aro.

O'rtadi chun bo'yla zavoli ichin,  
Bu so'z ila ayladi xoli ichin,

Kim: «Bu nafaskim boradurmen zalil,  
Navbati shohiy manga ko'si rahil.

Qaysig'akim sharti hamiyat durur,  
Mendin anga ushbu vasiyat durur:

Kim manga chun toyiri bo'stoni quds,  
Qilsa havo yod etib ayvoni quds.

Oh ila olamni qaro aylabon,  
Xobgahim na'sh aro aylabon.

Qabrg'a chun boshlag'unguzdur yo'lum,  
Na'sh yonidin chiqaring bir qo'lum.

To kishikim qilsa nazar ul sori,  
Ibrat ila boqqay o'shul qo'l sori,

Bilgay anikim yeti kishvar shahi,  
Yetti falak mushkilining ogahi.

Jismida jon yo'q bu makondin borur,  
Xoli ilik birla jahondin borur<sup>1</sup>.

Kimki jahon mulki havasdur anga,  
Ushbu ilik tajriba basdur anga».

Tort, Navoiy, bu jahondin ilik,  
Qaysi jahon, javhari jondin ilik.

Soqiy, erur komi dilim mastliq,  
Moni' erur lek tihidastliq,

Lutf ila ber ilgima may javhari,  
May neki, oyinai Iskandariy.

L

### O'N BESHINCHI MAQOLAT

*Jahl mayining durdkashlari sha'nidakim, saloh xirqalari ma'siyat ilgidin chok durur. Va may jahlining sarxushlari bobidakim, har biri mayxona eshigida mastu bebok yurur va yiquq mayxona alarg'a taxti Jamshedoso va sinuq paymona alarg'a jomi jahonnamo va nadomat ashki yog'nikim, gunoh shu'lasin o'churur va tavba barqi o'tikim, ma'siyat xirmanin kuydurur'.*

Ey tarabing jomg'a hamdastliq.  
Jahl xumoridin ishing mastliq<sup>2</sup>.

O'ksumayin ayshi mudoming sening,  
Jomi jaholat bila koming sening.

Kupdek ichinga solibon boda jo'sh,  
Ko'nglunga ul jo'sh ila hardam xurush.

Boda solib joningga jo'shi g'urur,  
Yo'q sanga kup yanglig' o'zungdin shuur.

Fisqu fujur ilgi chu og'zing ochib.  
Kup kibi g'aflat mayidin kaf sochib.

Ne sanga o'lmaq g'amidin motame,  
Ne sanga paymona to'lardin g'ame.

Yetsa ajal muhtasibi netgasen,  
Daf'ig'a tadbir ne nav' etgasen?

Ursa jafu toshi bu kupga turub,  
Tashlasa har porasini sindurub.

Jisinga dog' o'rtasa har dog' uza,  
To'ksa mayingni qaro tufrog' uza.



Zarfi safolingni ushotg'onidek,  
La'li maying aylasa yer qonidek.

Buki mayi jahl ichasen behisob,  
Bo'lg'usi bir kun sanga bu ehtisob.

Necha sening mastlig'ing oyu yil,  
Oy ila yil mastlig'ingdin oyil<sup>3</sup>.

Mastki fe'li bori muhmal durur.  
Ko'yning atfolig'a muhzal durur.

Ko'y boshidin chu bo'lur telba fosh  
Yog'durur atfol anga har sori tosh.

Ulki ichib bodani paymonadin,  
Mast chiqar ko'yga xumxonadin.

Manglayikim tomg'a tegib, qon bo'lub,  
Boshida dastori parishon bo'lub.

Elga qilib hamla yomon it kibi,  
Qaysi yomon it, qopog'on it kibi.

Jisini usruklik etib dam-badam,  
Har sori qo'ysa qadam ul sori xam.

Sel suvin topsa ichib, mul kibi.  
Soy toshini topsa otib gul kibi<sup>4</sup>.

Uchrasa olam gulu toshi anga,  
Yo'q olib otmoqqa tahoshi anga.

Toshidin atfol gahi butrabon,  
Gah yiqilib mastu malang o'ynabon.

Gah yiqilib, gah qo'pub ul har nafas.  
Mast solib har sori qo'l har nafas.

Bo'ylaki qo'pub yiqilib pay-bapay,  
Birta yiqilg'onda bosib oni may.

May qilibon behuda holin aning,  
Qay qilib oluda saqolin aning.

Jo'laha g'urvoshida ohordek,  
Yo'qki zag'an parrida murdordek.

Qay soqolin har necha nopok etib,  
It yalamoq birla yana pok etib<sup>s</sup>.

Mastlik uyqusi chu zoyil bo'lub,  
Ko'z ochibon bodag'a moyil bo'lub.

Ne topibon boshida dastorini,  
Ne ko'rubon belida dinorini.

To'nini eltib yana bir rohzan,  
O'ylaki so'yg'aylar o'luktin kafan.

Qin qolibon qo'lda pichog'in solib,  
Kafshi dog'i bir tushubu bir qolib.

To'n etagi balchig' o'lub, olli o'l.  
Olli o'l, ammo aning ollida ko'l.

Nechaki matlub o'lubon uy anga,  
Bo'lmayin uy g'ayri uzun ko'y anga.

Ra'sha solib titramak andomig'a,  
Og'zi ajab ta'm berib komig'a.

Kislarig'a mahkam etib qo'lini,  
Necha tilab topmayin ev yo'lini.

O'g'ri to'nin so'yg'on emas erdi bas,  
Qolg'onin ehdoq ham olib asas.

Ul kishidek anglaki darmon uchun,  
Chok etar o'q zaxmini paykon uchun.

Evrulubon boshi, ozib hushi ham,  
Yoshunub egniga banogo'shi ham.

Har sori bu nav' tushub gom anga,  
Ko'rki ne shakl o'lg'ayu andom anga.

Muncha mashaqqat bila ranjurluq,  
Bir soriyu, bir sori — maxmurluq.

Dema xumor, oni degil yuz balo,  
Jam' o'lubu oni qilib muftalo.

Ko'rki, ne kirmak bo'lur o'z qonig'a,  
Boqki, ne bedod erur o'z jonig'a.

Bu xud erur ushbu sifat turfa hol,  
Turfarog'i buki ul aylab xayol.

Kim erur ushbu ishi qalloshliq,  
Rindu qalandarvashu avboshliq.

Ko'ngliga kirmay bu malomat aning,  
Jonini olmay bu xijolat aning.

Qilmay asar muncha qabohat anga,  
Muncha qabohatlar ibohat anga.

Zol qizi<sup>6</sup> har nechakim bo'lsa zisht,  
Bordur aning ko'ziga huri bihisht.

Shoiri kajtab'ni dekim ne yer,  
Sehrdur ollinda ne muhmalki der.

Itki qozon oshig'a tegurdi til,  
Yuz qaroliq birla durur yuz qizil.

Ulki ulus qatlig'a jallod erur,  
O'g'lini o'ltursa dog'i shod erur.

Bo'lmas edi gulxani anborkash,  
Bo'lmasa murdor isidin tab'i xush.

Ulki kemur sotmog'in aylar shior,  
Yuz qaro bo'lmoqdin anga qayda or.

Chug'z gar obod aro manhus erur,  
Lek buzuq kunjida tovus erur'.

May ne ajab tanni yahob aylasa,  
Sel ne tong uyni xarob aylasa.

Uyni yiqib sel etar elni jalo,  
Xossaki, vayron uyu seli balo.

Bodaki yiqmoq sori-o'q maylidur.  
Jism uyiga bilki balo selidur.

Qaysi bo'lur jism uyikim, jon uyi,  
Jon uyi ham demaki, imon uyi.

Selg'a har soriki tug'yon erur,  
Shoh ila darvesh uyi yakson erur.

Bodag'a ko'rguzsa kishi xiraliq,  
Aql charog'ig'a berur tiraliq.

Tomsa charog' o'tig'a bir qatra suv,  
Uyda yorug'luqdin ilik o'zga yuv.

Xossa charog'eki, kishi subhu shom,  
May suyidin quyg'ay anga jom-jom.

Mash'al o'tig'a suv agar bir ayog'  
Quysa o'char, ko'rki, ne bo'lg'ay charog'.

Tira bo'lur suv bila mash'al o'ti,  
Demaki mash'al o'ti, manqal o'ti.

Manqal yo'q, ko'ra erur gar tanur,  
Suvki yetar qolmas anga tobu nur.

Quysa suv otashgahi ichra majus,  
Sandali bir damda bo'lur obnus<sup>8</sup>.

Har kishikim qilsa bu suvdin tarab,  
Xonasiyoh o'lmog'i ermas ajab.

Suv demagil oniki, bir o't erur.  
Kim yeti ko'k xirmanini kuydurur.

Shu'lakim, ul o'rtagay aflokni,  
Tushsa ne qo'yg'ay xasu xoshokni.

Eyki vujudung uyi xoshok erur,  
Zor taning xud bir ovuch xok erur.

Necha bu xoshokka o't urmog'ing,  
Necha bu tufrog'ni sovurmog'ing.

Dard o'tidur bodavu hirmon suyi,  
Yo'qki tomug' o'tiyu to'fon suyi.

Urma ul o'tni xasu xoshokinga,  
Quyma bu suvni bir ovuch xokinga.

Garchi suvdek sofiyu mavzun erur,  
Suvlug'idin o'tlug'i afzun erur.

Har suvki qaynar suv erur ko'rmagi,  
Nisbat emas o't bila kuydurmagi.

Har necha o'tg'a ilik ursa kishi,  
Yetmagu kuydirmak emastur ishi.

Kimki qizig' suvg'a iligin urar,  
Har nechakim ilgi yetar o'lturar.

Hosil aning o'ti o'tu suyi o't,  
Rangi o'tu lam'ai diljo'yi o't.

Kimki bu to'rt o't aro bo'lg'ay asir,  
Barq guzargohida yong'oy harir.

Qaysi badan ichra bu to'rt o't yonib,  
To'rt anosir tafidin o'rtonib.

Yo'qki, bo'lub to'rt anosir adam  
Aqlu hisu din ila islom ham<sup>9</sup>.

O'tki, bu nav' o'lsa harorat anga,  
Ne suv etar daf'i sharorat anga.

Barqni past etmadi to'fon suyi,  
Gul o'tin o'churmadi nayson suyi.

Suvki bu o't jonig'a ofat durur,  
Tavba chog'i ashki nadomat durur.

Bu o't o'lur, ashk yog'ar chog'i daf',  
Yo'qki bu o't, do'zax o'ti dog'i daf'.

Qayda topor qatra bu yanglig' kishi,  
Naf' chog'i qilg'uchi daryo ishi.

Kimni pushaymonliq etib ashkposh,  
Gavhari maqsud anga har qatra yosh.

Ko'zki hayo ashki to'kar chun sahob,  
Qatrasining har biridur durri nob.

Tavba ani anglama ta'rif ila,  
Kim berilur kimsaga taklif ila.

Yoxud angakim, madad etmas bilik,  
Ahdida mus'haf sori eltur ilik<sup>10</sup>.

Yoki qachon arbada bunyod etar,  
Daf'ini aylarga qasam yod etar.

Borcha qazo o'tig'a xasdur bular,  
Tavba hisobida emasdur bular.

Kimki qazo ilgida beixtiyor,  
Tavba qilurda anga ne ixtiyor.

Tavba erur jurmg'a topmoq vuquf,  
Ollidag'i yo'lini ko'rmak maxuf.

Yoki qilur vaqtda berohliq,  
Bo'lmoq ul ish aybig'a ogohliq.

Bilsaki Haq hozir erur borcha vaqt,  
Qilg'onig'a nozir erur borcha vaqt.

Ko'ngli aro tushsa malolat o'ti,  
Jonini kuydursa xijolat o'ti.

Yetsa bu holatda tafakkur anga,  
Qilg'onidin ho'lsa tanaffur anga.

Soiqai lutfi Ilohi yetib,  
Jozibai nomutanohi yetib.

O'zlukidin qilsa judo Haq ani,  
Qo'ymasa o'z holig'a mutlaq ani.

«Tubu ilalloh» ila topsa futuh,  
Bo'lsa bu tavybaki, topibdur Nasuh.

Haq bu karam qilmasa netsun kishi,  
O'zluqi birla nechuk etsun kishi.

Tavba emas yetmayin ilhomi g'ayb,  
Kimki o'zi qilsa ushatmoqni ayb.

Odami o'z jurmig'a muxtor emas,  
Tavbasidin dog'i xabardor emas.

Amr bo'lub tavba desa chin durur,  
Gar oni hifz etmasalar sindurur.

Tavbag'a har kimgaki tavfiq erur,  
Sinmas aning tavybasi tahqiq erur.

O'zluk ila tavba tabohi degil,  
Qilmog'idin tavba ilohi degil.

## LI

*Bani isroiliyi Rindning o'zlukidin tavybasi uyi irtifoi qasam qofi toshlari bila  
falakka chiqqoni va may selohi ul binoni yiqqoni.*

Bor edi Rindi Bani isroiliy,  
Boda uchun maykadalar soili.

May bo'lubon quti hayoti aning,  
Xalq ichida Maymana oti aning.

Jismi sabu chekkali komil bo'lub,  
Mayg'a o'z oti kibi homil bo'lub.

Tortibon el zarfini mayxonadin,  
Jur'a tahin chekkali paymonadin.

Yetmasa gar jur'ai loyi anga,  
Bo'lubon ul lahza baloyi anga.

Ko'p qilibon tavba, vale sindurub,  
Ko'nglini tavba ishidin tindurub.

Baski qilib tavbada nuqs oshkor,  
Tavba qilurdin bo'lubon tavbakor.

Bir sahari qildi havoyi sabuh,  
Yetti inoyat eshigidin futuh.

Hotife un chektiki, ey bulfuzul,  
Tavba qil emdiki, yetishti qabul.

Sen tilading bizga rizo bo'lmadi,  
G'ayri rizo hukmi qazo bo'lmadi.

Chunki bizing soridin o'ldi talab,  
Kel berikim, bo'ldi mahalli tarab.

Rind ichiga tushubon tobi shavq,  
Ashk bo'lub jismiga girdobi shavq.

Har dam o'lub qismi huzuru safo,  
Tavba solib ko'ngliga nuru safo.

Harneki yillar tilab aylab niyoz,  
Borchag'a bir damda bo'lub sarfaro.



Tavba sori chun o'zi aylab nishast,  
Shisha kibi tavbasi topib shikast.

Haq chu oni tavbag'a mahram qilib,  
Saddi Skandar kibi mahkam qilib.

O'zdin esa tavba bo'lur o'yla sust,  
Haqdin esa tavba bo'lur bo'yla rust.

Jurm Navoiyni ko'p etmish malul,  
Yo Rab, o'zung tavba berib qil qabul.

Soqiy, ayoq kelturu tut bizga bot,  
Ahd boshin, tavba ayog'in ushot.

Uzr desam, bo'g'zuma quyg'il yiqib,  
Quyg'ali ko'ksam uza lekin chiqib.

## LII

### O'N OLTUNCHI MAQOLAT

*Xudnamo muxannasvashlarning dunyo ziynati iktisobida hiylasozliklari  
va jonfido mehnatkashlarning din quvvati hisobida sarandozliqlari.  
Va g'azo maydoni sohati vasfidakim, er bila nomard bir-biridin ayrilur.  
Va shahodat qoni ta'rifidakim, gunoh dudidin yuzi qarorg'onlarni  
surxro' qilur'.*

Ey surubon ayni jalodat aro —  
Raxshini maydoni shujoat aro<sup>2</sup>.

Barqdin ul raxshni kam bilmayin,  
Ko'ziga Rustamni dog'i ilmayin<sup>3</sup>.

Ko'rmayin azbas tutub o'zin biyik,  
O'z boshidin ko'kka degin to'rt ilik.

Po'ya chog'i raxshi bo'lub ko'htan,  
Ustida qoplun kibi ul po'yazan.

Kibr e'tibon el bila fe'lin durang,  
Qullai zulm uzra nechukkim palang.

It eti qoplon kibi quti aning,  
Kibr yeli bodi buruti aning.

Chinki topib qoshi uchida nishast,  
Charxi daniy toqig'a solib shikast.

Kibr ila har sori girih qoshig'a,  
O'zga tafar'un solibon boshig'a.

Ujb ila har qoshi uchida girih,  
O'ylaki har yon qulog'ida zirih.

Garchi anga ul sababi ehtirom,  
Turfaki ham bid'at o'lub ham harom.

Halqa urub ko'y iti tavqig'a ta'n.  
Halqa demakim, bo'lubon tavqi la'n.

Zulmda Zahhoklig'i bilgurub,  
Ikki yilon egnida halqa urub.

Shar' xilofini chu fosh aylabon,  
Yuzda saqolini tarosh aylabon.

Balki chu bid'atni qilib ishtig'ol.  
Loyiq o'lub, qirqar uchun ul saqol.

Zulm xadangini chu parron qilib,  
Yuzini paykonig'a suhon qilib'.

Ikki buruti qili har yon g'ulu,  
Nafsu havo qushlarig'a halqamo'.

Og'ziki bir nukta demay juz xilof,  
Borcha binoyi zanaxu o'zga lof.

Bo'ldi saqol pardasi chun bartaraf.  
Anda zanax zohir o'lub har taraf.

Boshta o'tag'a bo'lubon jilvagar,  
Dinin aning boshtin uchurmoqqa par.

Ul deb ani shahpari Ruhul-amin,  
Tashlab ani garchi bilisi lain<sup>5</sup>.

Parlarini bum boshidin so'yub,  
Afsari tovus aning otin qo'yub.

Orqag'a dastori uchi tekkani,  
Tebranuri birla urub gardani.

Bo'rki uchin ichkari bukkani ayon,  
Hirsu havo qushlarig'a oshyon.

To'ni ipak bo'lmasa, ko'ngli hazin,  
Jinsi xitoy bo'lmasa qoshida chin.

Yuzida zarbaftdin istab nishon,  
Hajv bitarga varaqi zarfishon.

Balki libosini parand etmayin,  
Bistar etib to'ng'a pisand etmayin.

Ko'nglok etib nozu havasdin katon,  
Qaysi havas, parri magasdin katon.

Parri magas ham dema, shabnam degil.  
Terlik aning ustiga bayram degil.

Beliga zarrishta qurin band etib,  
Balki zarofat bila takband etib.

Yog'lig'i ul hullai zarrishtakash,  
Kim anga jonlar chekibon rishtakash.

To'n yuzi oltun bila jadval anga,  
Balki o'tuk taqasi zarhal anga.

Raxsh uza urg'on egari zarnigor,  
Balki jibilgir anga gavharnigor<sup>6</sup>.

Turfa aboye anga istab ko'ngul,  
Rangi saqarlot bila dolu gul.

Munchavu yuz muncha zarofat bila,  
Qaysi zarofatki, qabohat bila.

Dev jamolini paridek yasab,  
Xorni gulbargi taridek yasab.

Jilva qilib shohidi ra'no kibi,  
Boda ichib gulruxi zebo kibi.

Chun tegurub boda dimog'ig'a nashv,  
So'z mutaoqib demayin g'ayri hashv.

Necha lavand ollida borcha najis,  
Birida ne aqlu ne idroku his.

Gulxanu yuz zog'i najasixordek,  
Yo zag'an atrofida murdordek.

Nukta yoqardek anga behad debon,  
Behadu andoza xushomad debon.

Ul qilibon ushtulumu xayli rev,  
Xayli shayotin, o'zi o'rtada — dev.

Borcha ani begimu mirzo debon,  
Xulqini xush, husnini zebo debon<sup>7</sup>.

Muncha fazihatliq emas erdi bas,  
Kim ura olmay chog'ir o'lmay nafas.

Chunki chog'irni qilibon zahri mor,  
Tu'ma yilon etin etib ixtiyor.

Yer-ichari borcha haromu harish.  
Bu yemak-ichmakdin anga parvarish.

Chun chekibon ikki to'la jomi sof,  
Lof ila har dam ushotib yuz masof<sup>8</sup>.

Tog' kibi tig' chekib bedarig',  
Yetkurub oy xudig'a har lahza tig'.

Gurz ila Bahrom boshin yonchibon,  
Nayza bila suratig'a sonchibon.

Pilga yo'q pashshacha qadru baho.  
Pesa ipakcha ko'ziga ajdaho.

Safhai rammol qoshida palang,  
Reza suv qurtiyu yiloni nahang.

Ra'dni deb bazmida tunbak uni,  
Barq — kabobi o'tining uchquni.

Zulm ila g'adr oncha bu g'addorda,  
Kim oni ko'rmay kishi kufforda.

Ul nimakim, bosh anga sunmay namoz,  
Ul nimakim, ko'ngliga kechmay niyoz.

Minnatining ostida mulku sipoh,  
Mulku sipah qaysi bo'lur, balki shoh.

Demaki har shohg'a minnat qo'yub,  
«Mo xalaqalloh»g'a minnat qo'yub.

Shahg'a gazof oncha deb ul tirabaxt,  
Kim degin ul bermish anga toju taxt.

Ta'n qilibkim, «manga yuz ming berur,  
Yuz, ikki yuz ming manga loyiqmudur?!

Yuz kishi rashk etgucha charkam qani,  
Ming yigit o'tlang'ucha o'lkam qani?

Holim agar kechsa bu yanglig' taboh,  
Bo'lmasa bu shah, yana mulk, o'zga shoh!»

Yova deb ul har kecha faryod etib,  
Tush-tushidin xayli ham imdod etib.

Muncha anoniyatu pindor anga,  
Kim beribon nafsi sitamkor anga.

Oning uchunkim, qachon o'lsa nabard.  
Aylasa aflok yuzin tira gard.

Ikki tarafdin yalang'och tig'i tez.  
Solsa jahon xalqi aro rustaxez.

El yuragin tig'i shikof aylasa.  
Xasm boshin gurzi g'ilof aylasa.

Arzi hunar bo'lsa yigitlar ishi,  
Qilsa ayon o'z hunarin har kishi.

Ul dog'i shoyad sunubon ishga qo'l,  
Ul necha ming el aro bo'lg'ay bir ul.

Berguchi oz-ko'pga chu Tengri erur.  
Kimga berur fathni Tengri berur.

Tengriga shahning tuz esa niyati,  
Nega chekar xaylu sipah minnati?!

Xossaki bir johili dunu taboh,  
Jahdu jid etgay tilab o'ziga joh.

Minnatig'a aylasa shah iltifot,  
Haq karamidin anga yuz ming uyot.

Bir kishi ul safdagi, yuz ming durur.  
Rustam esa, boru yo'g'i teng durur.

Aylasa ul dam ikki Rustam ishi,  
Bir kishi oxir ham erur bir kishi.

Eyki xarob etti takabbur seni,  
Soldi takabburg'a tasavvur seni.

Ojiz esa Gev ila Rustam sanga,  
Erlik erur anda musallam sanga.

Kim bu tasavvur bila pindorni,  
Nafs havosida yo'qu borni,

Ko'nglung uyidin barisin surgasen,  
Balki fano o'tig'a kuydurgasen.

Har nimakim, shar' xilofidur ul,  
To'kkasen ar bodai sofidur ul<sup>9</sup>.

Hirsu havas xil'atini chok etib,  
Tanni rizo chashmasida pok etib.

Solibon egninga rizo kisvatin,  
Chekkasen ustunga g'azo kisvatin.

O'zni g'azo ishida chust etgasen,  
Belni jihod amrida rust etgasen,

Ko'nglung aro himmat agar bor esa,  
Zoting aro jur'at agar bor esa,

Haq yo'lida bosh qo'yubu jon chekib,  
Mehnatini to erur imkon chekib.

Tengri uchun kirsang agar qoningga,  
Minnatini qo'yg'asen o'z joningga.

Eyki, yetishti bu saodat sanga,  
Kim erur imkoni shahodat sanga.

Qo'pu bu yo'l azmini mardona qil,  
Joning agar yuz esa, shukrona qil.

Yetsa o'q ul po'yada jisming tushi,  
Bilgil ani gulshani davlat qushi.

Joniga paykoni ajal yog'mog'in,  
Bil bori rahmat bulutidin yog'in.

Tig'kim, ul qatling uchun cheksa til,  
Javharini bahri karam mavji bil.

Qilg'il agar ko'zunga kirsa g'ubor,  
Surmai g'ufroncha ani e'tibor.

Marg samumidin agar yetsa bim,  
Bil ani Iso nafasidin nasim.

Jisinga tig' ochsa o'lum ravzani,  
Ruhunga jannat yo'li bilgil ani<sup>in</sup>.

Qonki sabililloh arodur sabil,  
Qatrası uchmoq gulidindur dalil.

Din yo'lida qong'a bo'yolg'on badan,  
Qondur anga hullai gulgun kafan.

Kimki, shahodatg'a mujohid durur,  
Qoni qizil yuziga shohid durur.

Tira esa har necha dudi gunoh,  
Bilki surar ani shahid urg'on oh.

Mig'ni bo'ston yeli surg'on kibi,  
Abrni to'fon yeli surg'on kibi.

Jurm tuni garchiki, jovid erur  
Tig'i shahodat anga xurshid erur.

Lek mujohidg'a kerakkim g'araz,  
Bo'lmasa jahd ichra g'animat evaz.

Kimki g'animat uchun aylar g'azo.  
Man'i shahodat anga basdur jazo.

Ulki jihod aylasa tolon uchun,  
Soyim erur ne'mati alvon uchun.

Qolsa tirik g'azv eli maydon aro,  
O'lmaq erur chashmai hayvon aro.

G'azvda kim o'lmasa tortib taab,  
Obi hayot ichra erur tashnalab.



Ismg'a safdin kishi o'tkarsa gom,  
Bil oni masjidida riyoyi imom.

Safdin agar qolsa keyin ne deyin.  
Keldi niso qibla safdin keyin.

O'lja uchun ulki jalodat qilur.  
Muzdg'a «Qur'on»ni tilovat qilur.

O'lmaq uchun bo'lmasa g'ozig'a kin,  
Hayfdur o'turmoq ani bil yaqin.

Kingaki jonondin erur jon aziz.  
Hayfki, qilg'ay ani jonon aziz.

Ulki erur g'azv ishi odat anga,  
Bo'lmasa iqboli shahodat anga".

Lek shahodat sori tutsa umid,  
Bil oni har ma'arakada bir shahid.

Ulki mubohot uchun istar masof,  
To chiqibon ma'arakadin ursa lof.

Angla eranlikdin ani benasib,  
Ne desa nomard emastur g'arib.

Sunqur agar turnani ovlar kuni,  
Yuzni olur bir dog'i chiqmas uni.

Tu'maki narmoda zag'an yod etar,  
Topg'ucha jifa necha faryod etar.

Yaxshi emas gar qilib aytur kishi,  
Ko'r ne bo'lur qilmayin aytur ishi.

Kingaki erlik asari yordur,  
Bir demas, ar qilg'oni ming bordur.

Ko'rmagan erlikdin o'zin bahramand  
Birni dog'i qilmasa yuz der baland.

Vahti bila qildi xurus un ayon,  
Tinmadi bir lahza kuruk mokiyon.

G'ayri g'azo kimgaki dilxoh emas,  
Ko'rsa o'zin o'rtada lilloh emas.

Gar ishi ta'rifida tortar navo,  
Bil ani ra'nolig'u nafsu havo.

Lillah esa yaxshiroq eldin qiroq,  
Haq chu bilur, bilmasa el yaxshiroq.

### LIII

*Abdulloh Muborakning burqa' bila jihod maydonig'a kirib,  
fath jamolidin burqa' olg'oni va Hasan Rabi' ul-jamolni  
ko'rub hayron qolg'oni.*

Qildi rivoyat Hasan bin Rabi'  
G'azv masofida bu amri badi' —

Kim hor edi ma'raka paykor ila,  
Zumrai islomg'a kuffor ila,

Kufr sipohi safidin purdile,  
Balki ajal xanjaridek qotile.

Kirmish edi kin ila maydon aro,  
Solmish edi raxshini javlon aro.

Din cherigi qatlig'a tig'in bilab,  
Na'ra urar erdi muboriz tilab.

Kofiri qotil chu zabardast edi,  
Har kishi bir zarbasidin past edi.

Kimki xirom ayladi maydonig'a,  
Kirdi o'zi kuch bila o'z qonig'a.

Necha musulmonni chu qildi shahid,  
Bo'lmish edi din cherigi noumid —

Kim saf uchidin surubon bir daler,  
Kirdi kiyik qasdig'a andoqki sher.

Mehr kibi ko'k temur ichinda g'arq,  
Lam'a solib tig'i aningdekki barq.

Chehrasini burqa' aro yoshurub.  
Ishq o'ti yanglig' yoshurun kuydurub.

Qahr ila kofirg'a yetishgan zamon.  
Hamla hamon erdiyu yiqmoq hamon.

Chunki uzotti ani do'zax sori,  
O'ylaki mazbuhni matbax sori.

Qoytti kelgan yo'li birla yurub.  
Kabkxiromin bir-bir mongdurub.

Din sipahi saflarig'a tushti jo'sh,  
Har sori takbir ila chiqti xurush.

Yetti aduv izzatig'a xorliq,  
Kufr livosig'a nigunsorliq.

G'ozi o'zin chunki ayon qilmadi,  
Kimsa aning kim ekanin bilmadi.

Menda solib shavqi aning iztirob.  
Toptim ani har sori aylab shitob.

Tig'i ham egnida hamoyil edi,  
Burqai ham yuziga hoyil edi.

Dedim: «Ayo g'oziyi nusratqarin,  
Tig' ila zarbingg'a tuman ofarin.

O'lgum o'shul chehra havosi uchun,  
Burqaing och, Tengri rizosi uchun».

Tengri otin chunki samo' ayladi,  
Chehrasidin parda vido' ayladi.

Izzu sharaf tojig'a torak edi,  
Toraki dahr Ibni Muborak edi.

Qo'ydum otining ayog'ig'a jabin,  
Dedim: Ayo nosiri shar'i mubin,

Ko'rmaginga jon berib ahli jahon,  
Nedin erur chehrani qilmoq nihon?

Parda hijobini yuzungdin arit,  
Saf aro sur, elga o'zungni tanit.

Dedi: «Hasan, aylamagil ijtihod,  
Ulki aning ishqida qildim jihod.

Jumlai holimdin erur ogah ul,  
Qaysi qadam ursam erur hamrah ul,

Tonisa ulkim, manga maqsud erur,  
Tonimasa olam eli sud erur.

Har kishi kome tilasa yordin,  
Yor ishi maxfiy kerak ag'yordin».

Lek jihod ichra bu asg'ar durur,  
Nafs bila aylagan akbar durur.

Tengri Navoiyg'a yeturgay jazo,  
Kofiri nafs bila qilsa g'azo.

Soqiy, olib kel qadah el jonidek,  
To sumuray dushmani din qonidek,

Xusravi g'oziy kafidin ber nabit,  
Ichmakidin aylay o'zumni shahid.

## O'N YETTINCHI MAQOLAT

*Bahor yigittligi nazohatidakim, rayohini nozparvardlarin mulavvan hullalar bila orosta qilur. Va yigitlik bahori latofatidakim, rayhoniyy xat bila oraz gulin gulu rayhong'a o't solg'udek perosta etar. Va xazon qarilig'i burudatidakim, guliston ashjori bila qushlari ondin bebargu navo durur. Va qariliq xazoni shiddatidakim, badan gulistonining toza gullari andin barbodu havo<sup>1</sup>.*

Chun Hamal ayvonini yorutti mehr,  
Dahrg'a mehr ayladi zohir sipehr<sup>2</sup>.

Esti nasimi sahari mushkposh,  
Bog'da farroshlig'in qildi fosh.

Shoxni yer yuziga gisu qilib,  
Balki bu gisuni supurgu qilib.

Bo'ldi chu farrosh nasimi shamol,  
Septi bulut ham suvni saqqo misol.

Suv yukidin qad quyi moyil anga,  
Barqi birinjina hamoyil anga.

Chun supuruldiyu suv sepildi bog'  
Bo'ldi rayohing'a mahalli farog'.

Bosh chiqara boshladilar bog'din,  
Bog' demakim, qaro tufrog'din.

Ayladilar yer yuzi uzra hujum,  
Gulshani charx uzra nechukkim nujum.

Har biri bir tifli sumanbo'ydek,  
Tifl dema, shohidi gulro'ydek.

Husnlari ishvau noz aylabon,  
Atrlarin g'oliyasoz aylabon.

Farsh bo'lub, sabzai minusirisht,  
Xayli rayohin anga huri bihisht<sup>3</sup>,

Shohidi gul husnida yuz obu tob,  
Shabnam urub, orazi uzra gulob,

G'unchai tifi ishi ovunmoq bo'lub,  
O'ynamog'i borcha yoshunmoq bo'lub.

Ko'rguzubon lola o'yun ichra jo'sh,  
Yel uchurub kallasidin kallapo'sh.

Bog'da gul tiflari har taraf,  
Ikki chamandinki chekib ikki saf.

Kelturub atfol o'yung'a ko'ngul,  
Lek o'yun har sori «gulhocha gul»<sup>4</sup>.

Toza giyah tiflg'a monand o'lub,  
Belga bo'g'undin anga takband o'lub.

Anjumdek gunbadi davvor uza,  
Xayli shukufa dema, ashjor uza.

Har sori nazzorag'a tifi bahor,  
Ochti yig'och panjarasidin uzor.

Yo'qki suruk gulruxi dushizadur,  
Boshlarida me'jari pokizadur.

Mayl qilib husng'a ifsho uchun,  
Borcha biyik yerga tamosho uchun.

Jilvai avval budur ashjorg'a,  
Xayli rayohin bila gulzorg'a.

Bir necha kun gardishi laylu nahor,  
O'tkaribon navbati husni bahor.

Lolavu gul bistari tufrog' o'lub,  
Shoxda gul o'rnig'a yafrog' o'lub.

Shuqqai shingarfi o'lub sarnigun,  
Shox livosi bori zangorgun.

Bog'ki, to'n oqu qizil aylabon,  
Ul qizil oqini yashil aylabon.

Dur yeriga barcha zumurrad kelib,  
La'ning o'rnig'a zabarjad kelib.

Oq gul ila gulshani oyinarang,  
Nam asaridin bo'lubon borcha zang.

Shoxi shajar xirqasi axzar bo'lub.  
Xirqa bila Xizr payambar bo'lub.

Soya savodi zulumoti aning.  
Shabnam o'lub obi hayoti aning.

Bog'ki bu husnu latofat bila,  
Shohidi ra'no kibi ofat bila.

Tutti yashil hulla kiyar shevasi,  
Tugmalari bo'ldi aning mevasi.

Ham bo'lubon tugmai zarkor anga,  
Ham duru gavharg'a namudor anga.

Obi o'lub tugmai zar paykari,  
Oqu qizil olma duru gavhari.

Shirada zardolu etib qand hal,  
Yo'q kadu amrud kaduyi asal.

Raz chamani tarafida har go'shaye,  
La'l ila durdin osilib xo'shaye,

Bog' o'lub ashjoru samardin to'la,  
Komiledek fazlu hunardin to'la.

Balki bo'lub ravza gulistonidek,  
Yo'qki xiradmand kishi jonidek.

Chun uzubon mevalarin bog'bon,  
Bog' bo'lub anjumi yo'q osmon.

Sahni gulistonki, samar yo'q anga,  
Bir sadafedekki guhar yo'q anga.

Dur topa olmay shajar o'z tojig'a,  
Borcha borib hodisa torojig'a.

Gulshan uzub naqdi nihondin ko'ngul,  
Naqd nekim, mevai jondin ko'ngul.

Za'f bo'lub mevasi yo'q shox ishi,  
Sustayib andoqki, ko'ngulsiz kishi.

Bo'yla ko'ngulsizliq ila zorliq,  
Yetkurubon naxlg'a bemorliq.

Barg uzori yaraqoniy bo'lub,  
Obkashi rishtai joniy bo'lub.

Shox bo'lub oshiqi mahzun kibi,  
Ranju sarig' yuz bila majnun kibi.

Dol bu da'vog'a parishonlig'i,  
Ishqdin oshuftavu hayronlig'i.

Tolg'a xazon novaki parron bo'lub,  
Jismida har yafrog'i paykon bo'lub.

Ko'rma sarig' rang ila yafrog'ni,  
Kim g'am o'ti kuyduradur bog'ni.

Tushmasa yafrog'din o't bog' aro,  
Shox o'tundek nega bo'ldi qaro.

Bas yo'q edi bog' aro bu rustaxez,  
Kim yetibon sarsari day bargrez.

Shoxni be barg qila boshladi.  
Bargni har sori olib toshladi.

Rangu safo qolmadi yafrog' uza,  
Yotti o'luklar kibi tufrog' uza.



Yel sipahi bog'ni toroj etib,  
Bargcha kiymak sori muhtoj etib.

Har sori meva yig'ochi jadvali,  
Saf bila hinduki chekarlar jali.

Borchasi uryonu sarosar qaro,  
Rud suyidin bori zanjir aro.

Yel sitamidin bori tortib nafir,  
O'ylaki bir xayli yalang'och asir.

Barg dema, himai matbax degil,  
Shox dema, kundai do'zax degil<sup>1</sup>.

Do'zax o'lub gulshani jannatsirisht,  
Do'zax aning qoshida bog'i bihisht.

Gulshani umr ichra xazonu bahor,  
Ham bu guliston bila bir hukmi bor.

Umr quyoshig'a chu bo'ldi mahal,  
Ansab baytush-sharafidin hamal.

G'uncha kular bo'ldi adaddin fuzun,  
Gul ochila boshladi haddin fuzun.

Jilva qilib har guli navbovasi,  
G'unchada dilkash ko'runub yovasi.

O'ynamog'u yemak o'lub kom anga,  
Yo'q bu iki shug'ldin orom anga.

Mag'zig'a solg'uncha xirad sham'i nur,  
Ko'ngliga tushguncha xiraddin shuur

Toza niholi bo'lubon sarbaland,  
Soda dimog'i bo'lubon hushmand,

Anglab anikim, yuzi gulrang erur,  
G'amzasi xunrezu ko'zi shang erur.

Nargisiga shevai noz o'rgatib,  
Shevasini shu'badaboz o'rgatib.

Jonlar etib sayd jafosi bila,  
Qosh ila kirpik o'qu yosi bila.

Ko'zni tilab uyqug'a rom etgali,  
Uyquni ko'zlarga harom etgali.

Chehra uza o't solibon jomdin,  
Dud chiqormog' uchun islomdin.

Bazmdakim, labni mayolud etib,  
Jonu xirad hushini nobud etib.

La'li o'tin tez etibon may bila,  
O'ylaki ruxsori o'tin xay bila.

Bu iki o'tdek qani o't shu'laxez,  
Kim anga tekkan soyi suv bo'lsa tez.

Xat arokim, la'lin etib xandanok,  
Xizr suyidin qilib, elni halok.

Chekti chu xat sabzasi gul uzra saf,  
Sabzaliqu gulluk o'lub bartaraf.

Bog' shukufa bila gul tark etib,  
Barg bila mevag'a navbat yetib.

Xiffatidin tab' nufur aylabon,  
Hilm ila idrok zuhur aylabon.

Yuz ming esa jahlu xato xirmanii,  
Mash'alai ilm kul aylab ani.

Gulshani xil'atda bo'lub har shajar,  
Ilmu adab mevasidin borvar.

Tavri bori daf'i junun aylamak,  
Da'bi bori kasbi funun aylamak.

Birni tafosir qilib bahramand,  
Birni ahodis etib arjumand<sup>6</sup>.

Birga bo'lub madrasa oromgoh,  
Birga xilvatgah o'lub xonaqoh.

Chun to'kulub mevai ahdi shabob,  
Bordi baqo gulshanidin obu tob.

Qad shajari g'am yelidin topti xam,  
Chehra guli bargi xazon bo'ldi ham.

Qolmadi tan naxlida bargi havas,  
Balki uchurdi ani sovug' nafas.

Yuzki yasab gunai bargi xazon,  
Kulgali atfol bo'lub za'faron.

Ko'zlar etib evlari kunjin talosh,  
Parda osib ul ev eshigida qosh.

Ko'z kirib ev kunjiga ranjur uchun,  
Qoshlar anga hojib o'lub nur uchun.

A'mo uchun qilg'ali kasbi ziyo,  
Birdur agar tufrog', agar to'tiyo.

Ko'zga chun o'chti basardin charog',  
Shishai aynakdur anga eski dog'.

Ikki bukulgan qaddu maddi aso,  
Charxi nigun birla xati istivo.

Qolmay og'iz durjida durri samin,  
Tishlari «sin», lek kashish birla sin.

Og'iz o'lub durj, vale donasiz,  
Tishlar o'lub «sin», vale dandonasiz<sup>7</sup>.

Ham tishi tasbihida bir dona yo'q,  
Ham og'iz eshigida dandona yo'q.

Orqa xati uzra bo'g'unlar anga.  
Rishta zanax uzra tugunlar anga\*.

Oq tuki a'zo aro yuz soridin.  
Yod berib borcha kafan toridin.

Boshi quyi margni qilmoqqa yod.  
Qaddi nigun qilmoq uchun xayrbod.

Bir necha kun ham bu sifat jon chekib,  
Qon yutubu nolai hirmon chekib.

Toki ajal qosidi farmon chog'i.  
Tindurubon ko'nglini andin dog'i,

Ohki, bu bazmg'a har kim yetib,  
Navbat ila bu qadah oshom etib.

Ulki ichib bu qadahi talxfom.  
Mast adam ko'yiga aylab xirom.

Mast xirom aylab o'zin bilmayin,  
Borg'onidin so'ng xabari kelmayin.

Elni bu may ayladi bir-bir adam.  
Navbat erur bizga dog'i dam-badam.

Ohki, umr o'tti jaholat bila,  
Qoldim o'lum vaqti xijolat bila,

Umr kuni uyquda qoldim tamom.  
Emdiki uyg'ondim, o'lub erdi shom.

Andaki qilmoq kerak ish, qilmadim.  
Ish qila olmas kunini bilmadim.

Bordi tiriklik chog'i budu nabud,  
O'zni ham o'ltursam emas emdi sud.

Ish qilur ayyomida gumrah bo'lub,  
Ish chu ilikdin borib ogah bo'lub.

Vaqt kamu yo'l uzunu may achig'.  
Asru qatig' hol yetibdur qotig'.

Bo'lmasa gar baxshishi rahmatfizoy,  
Voy, mening holima, ming qatla voy!

Umr kunin qismat etibtur qazo,  
Har chog'i bir ishga qilur iqtizo.

O'ng'acha g'aflat bila pobastliq,  
Jahl yigirmigachau mastliq.

O'ttuzu qirq ichra erur ayshu kom,  
Vahki, manga ul dog'i erdi harom.

Qilmadi ellikda taraqqiy kishi.  
Oltmishu borcha tanazzul ishi.

Yetmish aro vojib erur turmog'ing,  
Sakson aro farzdur o'turmog'ing.

To'qson agar bo'ldi yiqilmoq kerak,  
Yuz aro jon tarkini qilmoq kerak.

Umri tabiiy kishiga bo'lsa kom,  
Istar o'lub, har sori qilg'ay xirom<sup>9</sup>.

Umri tabiiy dema, gar umri Nuh,  
Bor esa, tavfiqdin o'lmay futuh.

Yaxshiroq ul umrdin o'lmoq yiroq,  
Umr nekim, andin o'lum yaxshiroq.

Umr erur taqvoyu toat uchun,  
Tengri buyurg'ong'a itoat uchun,

Toatu taqvo nechakim xushdurur,  
Lek yigitlik chog'i dilkash durur.

Xush ko'runur qilsa yigit ayshu noz,  
Ko'r ne ko'rungay agar etsa namoz.

Xoki palak aylasa qad xam anga,  
Oni ruku' etsa musallam anga,

Kimki yigitlikda sarafrozdur,  
Buki boshin yerga qo'yar ozdur.

Qoriki za'f ayladi boshin nigun,  
Tuz qila olmas ilik aylab sutun.

Boshki tushar yer uza beixtiyor,  
Sajda qilurda anga ne ixtiyor.

Qoriki qaddig'a xam o'ldi vuqu',  
Ish qila olg'aymu ekin juz ruku'.

Toat ani bilki qilur navjuvon.  
Qilmasa netgay qoriyi notavon.

Lek bu vobastai favfiq erur,  
Kimgaki sarrishtai tahqiq erur.

LV

*Imomi ma'sum Zaynul-obidinning sag'irai ma'sumasining  
kabirush-shon kalomi, agarchi ul sag'iradin ma'sum erdi.*

Ulki falakka surub erdi kumayt,  
Mash'alai anjumani ahli bayt,

Xatmi nubuvvatqa bo'lub nuri ayn,  
Sham'i valoyat Ali bin Husayn.

Baski ibodotidin arbobi din,  
Otini aytib Zaynul-obidin,

Bir kuni bir tiflin olib qoshig'a,  
Mehr iligin surtar edi boshig'a.

O'ylaki qonuni ubuvvat bo'lur,  
Tifl sori elga muhabbat bo'lur.

Zohir o'lub tavrida osori mehr,  
Aylar edi har nafas izhori mehr.

Bor edi bir nodira farzand anga,  
Jonu ko'ngul rishtasi payvand anga,

Pardai ismat aro raxshon quyosh,  
Umri zamonidin o'tub olti yosh,

Ko'rdi otasinki, sevar yoshini,  
Yosh to'kubon qildi girih qoshini.

Chehra uza yoshini ko'rgach imom,  
Istadi qoshig'a qilib ehtiom,

Qildi tasavvur yuzida ashkdin,  
Kim magar ul yig'lar edi rashkdin.

Shafqat ila mehr qilib oshkor,  
Dedikim, ul tifi durur shirxor,

Jandarai mahd aro o'jiz tani,  
Rahm etibon mehr ila sevdum ani.

Mehri aning gar bu sifat fosh edi,  
Ushbu jihatdin edikim, yosh edi.

Senki ichim o'rtadi mehring tafi,  
Chunki ulug'roqsen erur muxtafi.

Bo'ldi chu zohir sanga ma'zur tut,  
G'ayrat ila rashk tariqin unut.

Bu so'z ila ko'proq o'lub dardnok.  
Aytti daryo qoshida durri pok.

Kim: «Bu jihatdin emas erdi g'amim,  
Bal, yana bir g'amdin edi motamim.

Bir kun eshittimki takallum aro,  
Borur edi og'zinga bu mojaro.

Kim manga mahbub Haq o'ldiyu bas,  
G'ayr sori maylg'a qilmon havas.

G'ayrini ko'rdumki sevarsen bu dam,  
Qildi ichimni mutag'ayyir bu g'am.

G'ayr ila chun bo'ldi aning shirkati,  
Jonima o't soldi aning g'ayrati.

Sajda nechuk bo'lg'ay aning boshig'a,  
Kim topinur Haq bila but qoshig'a!

Bo'lsa Samad birla sanam jilvasoz,  
Qiblada bo'lg'aymu ravo ul namoz».

Chun bu takallumini eshitti tamom,  
Zabt qila olmadi ashkin imom.

Yig'ladi Haq shukrini vojib bilib,  
O'pti boshin xayr duosi qilib.

Tiflg'a Haqdin chu hidoyat durur,  
Harne qilur taqvoyu toat durur.

Qo'ydi yigitlikta Navoiy sujud,  
Chun qaridi emdi nadomat ne sud.

Soqiy, o'shul mayki xarob aylagay,  
Shayxni kayfiyati shob aylagay,

Tutki, bo'lubmen xarafu notavon,  
Ayla meni toat uchun navjavon.

## LVI

### O'N SAKKIZINCHI MAQOLAT

*Falak g'amxonasidakim, maoli parokanda alam durur takalluf bila masrur  
bo'lmoq va jahon vayronasidakim, maoli hamul raqam durur ko'ngul uyin  
ma'mur tutmoq va har nafaskim hayot gulshanidin nasim durur, qadrin  
bilmak. Va har damkim umr gulidin shamimdurur shukrin qilmoq va*



*to badanda haq amri itoatig'a quvvat bor, toatini mug'tanam ko'rmoq  
va to as'hob visoli mumkindur, iliktin bermay, o'zni xurram tutmoq'.*

Dahrki hush ahlig'a zindon erur,  
Bo'lg'on anga shefta nodon erur.

Tab'ni bandig'a xamul aylama,  
Aqlni chohida malul aylama.

Kim sani chun doirai dahrband,  
Oxir etar tufrog' aro shahrband,

Bas nedur ul g'amdin o'lub dardnok,  
O'zni o'lumdin burun etmak halok?

O'lmak uchun muncha nedur motaming,  
Tutqusi motam sanga xolu a'ming.

Bo'lsa g'aming joninga solma alam.  
Bir g'am erur bas, yemagil ikki g'am.

Ranjing uchun jisminga solma shikanj,  
Aylama bir ranjingni ikki rani.

Dog' ko'rub ko'ksunga ista farog',  
Qo'yma malolat bila dog' uzra dog'.

Necha jafo yetsa falakdin unut.  
Har nechakim, kulli erur sahl tut<sup>2</sup>.

Ishga necha sa'bliq imkon erur,  
Kim ani oson tutar, oson erur.

Gar vataning Shom durur, gar Hiri.  
Shomu Hiri fikrga qilmas gari<sup>3</sup>.

Shod ani bil dahrda kim g'am yemas,  
Dahr ishi chun g'am yegali arzimas.

Chunki jahon bog'i vafosiz durur,  
Umr guli anda baqosiz durur.

Bog'ki, vardig'a haqo bo'lmag'ay,  
Vardki bog'ig'a vafo bo'lmag'ay.

Tutqali orom ne loyiq bu bog',  
Ul gul ila qayda muattar dimog'.

Umrki xorij durur o'tgan ishi,  
Har neki o'tti anga yetmas kishi.

Kelmaganidin dog'i oqil demas,  
Ne desun ul ishniki, ma'lum emas.

Tongla bila chun tuna kundur adam,  
Bilki sanga qoldi bu kun, bal bu dam.

Moziyu mustaqbalinga bo'yla hol,  
Holinga ham necha xayoli mahol.

Holki bo'ldi sanga bir onu bas.  
Anda ne g'amginlik etarsen havas.

Kelmaganu ketganing ermas hisob.  
Holinga rahm aylavu chekma azob.

Qaysi nafas ayshg'a topsang mahal.  
Angla g'animatki, erur bebadal.

Har nafasing javhari erur nafis,  
Kim sanga ul bir nafas erur anis.

Javharini o'yla garonmoya bil,  
Kim anga kun la'lini hamsoya bil.

Lek quyosh javharidin bu sharif,  
Lutf ichida ul munga bo'lmay harif.

Jirmini oning ko'rub ahli jahon.  
Ko'zga latofat muni aylab nihon.

Oning o'lub kelmagu ketmak ishi,  
Buki o'tub gardiga yetmay kishi.

Kuydurub ul elni aningdekki xas,  
El o'lubon bo'lmasa bu bir nafas.

Dema nafas, javhari zot ushbudur,  
Javhari yo'q, obi hayot ushbudur.

Bo'ldi aning birla tirik borcha zot,  
Ko'rma ajab gar desam obi hayot.

Balki ulus bo'lsa aning ogahi,  
Ushbu nafasdur dami Ruhullahi.

Andin agar ruh topar erdi tan,  
Ushbu nafas birla tirikdur badan.

Garchi ul anfosi Masiho durur,  
Martaba andin munga a'lo durur.

Onsiz erur ruh bila borcha zot,  
Munsiz emas kimsaga mumkin hayot.

Bas muni anfosi muqaddas degil,  
Balki muqaddas dema, aqdas degil.

Bo'yla g'animat sangadur hamnafas,  
Onsiz emasdur sanga bir dam nafas.

Ondin o'lub sayru saboting sening,  
Sayru saboting ne, hayoting sening.

Sen ani ranju g'am ila o'tkarib,  
Yuz alamu motam ila o'tkarib;

Berib anga g'aflat ila xorliq,  
Hashv takallum bila murdorliq.

Fosid etib harza maqolot ila,  
Zoyi' etib fikri maholot ila.

Bo'lma yana bo'yla muaddi anga,  
Aylama bu zulmu taaddi anga.

Haq sanga lutf ayladi ul turfa hol,  
Andin uyol, yo'q esa Haqdin uyol.

Kel, qo'yubon jah! xiradmand bo'l.  
Bir nafasi mustamii pand bo'l.

Ko'r sanga Haqdin ne karamlar durur,  
Ne qadar ehsonu niamlar durur.

Buki seni Xoliqi kavnu fasod,  
Qilmadi hayvonu nabotu jamod.

Lutf bila ayladi inson seni.  
Din yo'lida qildi musulmon seni.

Berdi ko'rar ko'zu eshitur qulog',  
Oytur til, atrni anglar dimog'.

Andoq ilik dog'iki, tutg'ay taom.  
Andoq ayoq dog'iki, qilg'ay xirom.

Yuz ne'mat qilmoq uchun shurbu akl,  
Har birisiga yana bir ta'mu shakl.

Mujmal ila o'tdi qalam yodidin,  
Ojiz uchun sharh ila ti'dodidin.

Qildi karam oncha mulavvan libos,  
Kim adadin aql eta olmas qiyos,

Markablar qullavu homunnavard,  
Vahm samandi kibi gardunnavard.

Bog'lari ul nav'ki xuldi barin,  
Suvlari ul tavrki moi main.

Jilva bila har buti siminbari.  
Ko'rguzub ul ravzada huru pari.

Qasr bo'lub charxdin a'lo anga,  
Suvu yig'och kavsaru tubo anga.

Simu diram naqdi adaddin fuzun.  
Dur bila gavhar dog'i haddin fuzun.

Bu bari in'omu ato bir taraf,  
Javhari aql o'ldi yano bir taraf.

Kim bu sifat gavhari raxshandani,  
Qaysi guhar, durri duraxshandani

Durji vujudingga nihon aylabon,  
Durjni ul naqd ila kon aylabon.

Borcha jahondin qilib ashraf seni,  
Ayladi rozig'a musharraf seni.

Topshurubon durri amonat sanga,  
Qildi karam toji karomat sanga.

Muncha niam berdiyu qildi raqam,  
Muniki: «Bishshukri tadumun-niam».

Har neki xoni niam ochib durur,  
Shukri bar'ning sanga vojib durur.

Shukriki oning hadu poyoni yo'q,  
Kimsa ado aylamak imkoni yo'q.

Borchani qo'yduq muni-o'q aytu bas,  
Kim bu nafaskim, sangadur hamnafas.

Kirmagi bir ne'mat erur mug'tanam,  
O'ylaki kirmakligi chiqmog'i ham.

Biri erur quti hayoting sening.  
Yana biri quvvati zoting sening.

Bu ikki ne'matki namudordur,  
Har biriga shukr yeri bordur.

Mumkin emas jon agar etsang fido,  
Ikki nafas shukrini qilmoq ado.

Anglay olursen hakam etsang tamiz,  
Kim Haq etibdur nafasingni aziz.

Haq chu aziz ayladi, xor aylama,  
G'ayri aning shukrig'a yor aylama.

Jon bila sen to nafas imkoni bor,  
Qadrini bilgilki, nafascha ne bor.

Har nafasing holidin ogoh bo'l,  
Balki anga hush ila hamroh bo'l.

Boshtin-ayog'ig'acha qil sarfi Haq,  
Tengri sanga yor, o'qusang bu sabaq.

G'aflat agar bo'lsa bu ishdin dame,  
Kim yo'q aningdek kishiga motame.

O'zni qilib g'ofilu oshuftahol,  
Har negakim, aylagasen ishtig'ol.

Garchi anga manfaati bo'lmasun,  
Jahd etkim, ma'siyati bo'lmasun.

Yaxshilig'i aylamasang ish chog'i,  
Aylamagil bori yomonliq dog'i.

Bo'lmasa taryok ila joningg'a bahr,  
Solmag'il achchig' bila jomingg'a zahr.

Anda qayu amrki dilkash durur,  
Borchadin ahbob yuzi xush durur.

Asra o'zungni birov ozoridin,  
Kimsaga ozurdaliq izhoridin!

Elni o'zung jonibidin emin et,  
O'zni tarab maskanida sokin et.

Qilma ulus irzu iyolig'a qasd,  
Aylama el joniyu molig'a qasd.

Bir nafase qayg'udin ozod bo'l,  
Yoru musohiblar ila shod bo'l.

Bog' aro ko'rsang guli navxosta,  
Borcha uchun suhbat et orosta.

Charla muroot ila as'hobni,  
Inda takalluf bila ahbobni.

Jonni alar maqdamidin gulshan et,  
Ko'zni alar chehrasidin ravshan et.

Bazl tariqini shior aylagil,  
Har neki boringni nisor aylagil.

Joning agar kom esa ixvoninga,  
Sarf etu qo'y minnatini joninga.

Jonni bu jam'iyat ila shod qil,  
So'nggi parishonlig'idin yod qil.

Bu ish uchun chekti sipehri barin,  
Har yangi oy hay'atidin tig'i kin.

Kim iki hamdamni qarinq anglasa,  
Vasl evida ayshguzin anglasa.

Qat' etib ul naxli barumandni,  
Kesgay o'shul rishtai payvandni.

Birini hijron tarafi boshlag'ay,  
Birini furqat tarafi toshlag'ay.

Charx ishi chun bu emish oqibat,  
Aylar emish so'ngra bu ish oqibat.

Bas gul ila savsani ozod ham,  
Norvanu sarv ila shamshod ham<sup>4</sup>.

Kim bu chaman ichra xiromon erur,  
Borchasi bir-biriga mehmon erur.

Har kishikim, bor esa yore anga,  
Har kishikim, yor esa bore anga.

Kom bila vaslini aylab havas,  
Topsa bu komig'a dame dastras.

Bo'yniga qonim meni yod etmasa,  
Ruhum o'shul yod ila shod etmasa,

Bo'ldi esa vasl aro kome anga,  
Istasa filjumla davome anga,

Haqqa tilin shukrguzor aylasun,  
Shukr tariqini shior aylasun.

Shoyad o'shul shukr ila bir necha dam,  
Urg'ay o'shul vasl aro bir necha dam.

Komini qilsun Haq aning bardavom,  
Jonig'a bersun bu davom ichra kom.

## LVII

*Chin marg'zorining mushkin g'izolining shershikorlig'i va majruh saydlarining aning domig'a giriftorlig'i va sher panjasidin alarning ajal tufrog'ig'a hamvorlig'i.*

Bor edi Chin mulkida bir nozanin,  
Ojiz aning naqshida naqqoshi Chin.

Orazi gulzori Xo'tandin misol.  
Ko'zi bu gulzor aro mushkin g'izol.

Surati Chin chehrai anvar anga,  
Mushki Xo'tan zulfi muanbar anga.

G'amzai bebokig'a jonlar asir,  
Balki Xito mulkida xonlar asir.

Ching'a xatar g'amzasi tarroridin.  
Ding'a xalal turrasi zunnoridin.



Ahli jahon husnining oluftasi,  
Shohi zamón zulfining oshuftasi.

Bir nafase urmayin onsiz nafas,  
Mumkin emas kimsaga jonsiz nafas

Gulrux etar erdi chu maydonga azm,  
Qilmoq uchun go'y ila chavgong'a azm.

Hamrah o'la olmas uchun xon anga,  
Qo'shmish edi necha nigahbon anga,

Kim kishi oning tarafi solsa ko'z,  
Yoxud aning jonibidin desa so'z.

Arz qilib jurmini navvobi xos,  
Hukm tariqi bila topqay qisos.

Kun emas erdiki, necha dardnok,  
Bo'lmas edi ushbu balodin halok.

Bir kun aning ishvasidin oshiqe  
Ishqu muhabbat yo'lida sodiqe.

Yillar aning hasratidin qon yutub,  
Qon ne bo'lur, sog'ari hijron yutub.

Xas kibi bir go'sha aro erdi past,  
Kim boshig'a sekretibon yetti mast.

Boda chu kuchluk edi, oshiq — zaif,  
Chust yiqildi bo'la olmay harif.

Chektilar ul xayli muakkal ani.  
Xon qoshig'a nechani, avval ani.

Ko'rdi chu xon necha asiri taab.  
Hukmi siyosat bila qildi g'azab.

Kim: «Borisin yer bila hamvor eting,  
Doy aro o'lturtungu devor eting.

Yuzlari bolchig'din o'lub toshqori,  
Xalq ko'rub ibrat ila har sori.

El dog'i ul qahrdin olg'ay hisob,  
O'lg'ay alar dog'i chekib ko'p azob».

Ahli jafu amrni chun bildilar,  
Harneki hukm etti. ravon qildilar.

Tog' aro yoshundi chu zarrin g'izol,  
Mushki Xo'tan sochti nasimi shamol.

Xonga magar dasht sori erdi bazm.  
O'tlanibon shahr to'shi qildi azm.

May boshida, ishq o'ti xud jonida,  
Shahrning oshubi dog'i yonida.

Keldi yo'l ul yergakim ul doy edi,  
Har sori yuz nola bila voy edi.

Anglag'ach ul ishni shahi kinavar,  
Elni qo'yub, ayladi ul yon guzar,

Tokim alardinki, qazo qildi rust,  
Bo'lg'usidur ishq tariqida chust.

Doy aro bir xaylni ko'rdi asir,  
Har biri o'z holig'a tortib nafir;

Borcha nadomat bila afg'on chekib,  
Emdiki afg'on tujanib, jon chekib.

G'ayri hamul oshiqi ozodavash,  
Kim bo'lubon ishq balosig'a xush,

Za'fu sarig' yuz bila holi yomon,  
O'ylaki devor orasida somon.

Tengriga har lahza sano aylabon,  
Shukr tariqini bajo aylabon.

Kim, bu nafaskim chiqadur jon manga,  
Yor g'ami aylamish oson manga.

Umrig'a qolganda ikki-uch nafas,  
Zikr etibon yor hadisiyu bas.

Tilida yor erdiyu so'zida yor,  
Og'zida yor erdiyu, ko'zida yor.

Ko'rgach ani hokimi bedodgar,  
Ko'ngliga ul ishq o'ti qildi asar.

Mahlakadin oni xalos ayladi,  
Yor harimi aro xos ayladi.

Ishq balosi aro shukr etti ul,  
Ko'r ne biyik martabag'a yetti ul.

Asra, Navoiy, bu nafas mug'tanam,  
Lek degil har nafase shukr ham.

Soqiy, o'lubmen mayi rangin uchun,  
May demakim, bir sanami Chin uchun;

Chini ayog'lar bila mast et meni,  
Chin elidek bodaparast et meni.

## LVIII

### O'N TO'QQUZUNCHI MAQOLAT

*Xurosonning adimul-misl kishvari bayonidakim, «Irama zotil-imodil-lati lam yuxlaq misluho fil-bilod» karimasi oyatidur aning shonida. Bataxsis Hirot dorus-saltanasining amnobodi tavsifidakim, «Va man daxalahu kona ominan» mazmuni hadisi durur, aning ta'rifida va garchi hadiqaye erdi, ammo qurub erdi va lekin shoh jo'ybori adli ani rashki xuldi barin qildi va agarchi ma'mura erdi, ammo buzulub erdi va lekin shahanshoh ehsoni me'moridin g'ayrati nigorxonai Chin bo'ldi'.*

Xoliqi ashyoki, jahon ayladi,  
Charxni paydovu nihon ayladi.

Yetti falakniki, qilib mustadir,  
Har biri bir sham' ila bo'ldi munir.

Oltisi gar sham'i duraxshandadur,  
Lek biri mash'ali raxshandadur.

Uch quyi, uch yuqori qildi shitob,  
Mash'ala to'rtunch uy aro soldi tob

Sham' qayu sham'ki, fikrat tuni,  
Har biri bir mash'alaning uchquni.

Mash'ala yo'qkim, duri tobon degil,  
Dur demagil, mehri duraxshon degil.

Ko'k yeti iqlimida sulton ham ul,  
Balki alar borcha tanu jon ham ul.

Chun solib o'rtanchi falak uzra nur,  
Ravshan etib nuktai «Xayrul-umur»<sup>2</sup>.

O'ylaki kavkab yeti taqsim erur,  
Bilki jahon ham yeti iqlim erur.

Har birisiga biridin taqviyat,  
Har biri birdan topibon tarbiyat.

Mehr chu ul oltig'a foyiq durur,  
Andag'i iqlim anga loyiq durur.

Ko'zga kavokib bo'la olg'aymu fosh,  
Andaki fosh aylasa nurin quyosh.

To'rtunchi charxki ma'vosidur,  
Ham o'shul iqlim murabbosidur.

Yerda bu iqlim erur dilpazir,  
Ko'kta quyosh toramidek benazir.

Bo'ldi chu mavzu' masohat fani,  
Dedilar iqlimi chahorum ani.

Ziynat aro ravzai rizvondur ul,  
Ravzani qo'y, mulki Xurosondur ul.

Sohati to'rtunchi falakdin vasi<sup>3</sup>,  
Rutbasi yettinchi samodin rafi<sup>3</sup>.

Xittasida shahr adaddin fuzun.  
Har birining ziynati haddin fuzun.

Shahrlari lutf ila xuldi barin,  
Xo'blar ul xuld ichida huri in<sup>3</sup>.

Tog'lari ollinda falak soda dasht,  
Borchag'a ko'k qullasidin sarguzasht.

Har birining javfida yuz turfa kon,  
Konin etib turfa javohir makon.

Chashmasidin bo'lmadi zohir suyi,  
Kondin oqib, balki javohir suyi.

Dashtlari sath ila oyina rang,  
Sabza ul oyinag'a har sori zang.

Sabzasidin gulshani minog'a rashk,  
Tufrog'idin anbari sorog'a rashk.

Yetti falak naqdig'a ganjina ul,  
Yetti aqolim tanu siyna — ul.

Anga jahon ko'ksi kelibdur sifot,  
Anda ko'ngul xittai poki Hirot<sup>4</sup>.

Kimki ko'ngul vasfida burhon dedi,  
Oni badan mulkiga sulton dedi.

Muni ham ulkim o'zin ogoh der,  
Borcha jahon kishvarig'a shoh der.

Ne ajab o'lsa ko'ngul o'rnig'a shoh,  
Chunki erur shoh yeri qalbgoh<sup>5</sup>.

Bo'ldi ko'ngul o'rnida bo'lmoq ishi,  
Kim ko'ngul andin uza olmas kishi.

Xo'b esa ne ayb ko'ngullarga ul,  
Bir-biridin keldi ko'ngullarga yo'l.

Ziynati andoqki, badan paykari,  
Vus'ati andoqki, ko'ngul kishvari.

Aytma kishvar, deki bog'i Eram.  
Dema Eram, aytki Baytul-haram.

Davrasi ul nav'ki payki xayol,  
Yuz yil aning davrini kezmak mahol.

Charxi nigun sathini hanjor etib,  
Muhrai xurshed ila hamvor etib.

Tufrog'ini mushksirisht aylabon.  
Hay'atini rashki bihisht aylabon.

Qo'rg'onining paykari andoq hasin,  
Kim uyotib qal'ai charxi barin.

Davrada har burjig'a andoq uruj,  
Kim qolibon ostida «Zotil-buruj».

Arki biyikrak to'quz aflokdin,  
O'ylaki gardun kurai xokdin.

Kungurida mehr kibi toblar,  
Borcha malak xaylig'a mehroblar.

Lavhasi ziynat bila koshinavard.  
Koshi anga yuz falaki lojuvard.

Pili falak kirgucha darvozasi,  
Toqi samo toqining andozasi.

Yer tubiga xandaqi andoq kirib,  
Kim ani yer muhrasidin oyirib.

Qal'asida hisn falakdek ulu,  
Shahrida anjum sipahidek g'ulu.

To'rt taraf jadvali bozor anga.  
Kirgan ulus borcha xaridor anga.

Harne xaridor gumon aylabon,  
Sotg'uchi yuz oncha ayon aylabon.

Qiymati ajnos bila har do'kon.  
Xoli etib havsalai bahru kon.

Raxtki bazzoz terib rang-rang,  
Atlasi aflok kibi tang-tang.

Huqqai gavhar bila har javhari,  
Charx ila zohir qilibon axtare.

Kirsa chiqar yo'l topa olmay ko'ngul,  
Sayrida savdoyi bo'lub aqli kul.

Masjidi Jomi' yana bir olame,  
Toqi yana bir falaki a'zame.

Shahr jahon, anda bu ham bir jahon,  
Ikki jahon bir-biri ichra nihon.

Charx uza zina aning minbari,  
Poyasi ul yergachakim Mushtari.

Oy kecha qandili jahontob anga,  
Qavsi quzah hay'ati mehrob anga.

Shahri aro bo'yla bino behisob,  
Qal'asining toshida xud ne hisob.

Har necha ko'z tushgucha devorbast,  
Barchada ma'muraye elga nishast.

Topg'ali ta'yini mahallot bahr,  
Ahli mahallot oyirib shahr-shahr.

Shahrlar otini mahallot etib,  
Bo'ldi chu yuz shahr Hiri ot etib.

Alloh-Alloh, ne Hiri, bu Hiri.  
Bir-biridin turfa aning har biri.

Ikki savobit falakidin nishon,  
Ikki xiyoboni iki Kahkashon<sup>6</sup>.

Oncha xavoniq bori ma'mur anga,  
Kim topa olmay kishi maqdur anga.

Har ulashur noni aning qursi mehr,  
Olg'on ani soyili qadxam sipehr.

G'ulg'ulai zikr falakdin o'tub,  
Qaysi falak, xayli malakdin o'tub.

Madrasalar har birisi arjumand,  
Poyada ko'k madrasasidek baland.

Tarhda sun' ilgi muhandislari,  
Ruhi qudus fayzi mudarrislari.

Foidag'a ahli chu ochib varaq,  
Garchi Utorid esa aytib sabaq.

Toqlari rif'atining yo'q hadi,  
O'ylaki ko'k gunbadi ko'k gunbadi.

Gunbadi koshisida kun aksi fosh,  
O'ylaki ko'k gunbadi ichra quyosh.

Har sori guldastasi andoq baland,  
Kim etibon fikrida guldastaband.

Xayli malak qubbasining zoyiri,  
O'ylaki sarv uzra chaman toyiri.

Qubba bo'lub Arshi muqaddas anga,  
Bir qafasa charxi muqarnas anga.



Hay'ati maxruti ila mustatil,  
Arsh sutuni bo'luridin dalil.

Mili bila mahchasi tortib alam.  
Zohir etib nuktai Lavhu Qalam.

Mu'zini har tun quyi sham'in tutub,  
Sham'i kavokibni falak yorutub.

Charx mururi bila ta'jilidin,  
Mintaqa xatti sizilib milidin.

Har sori bir masjidli oliy asos,  
Zinatini aql eta olmay qiyos.

Rif'at anga charxi muallo kibi,  
Charx dema, Masjidli Aqso kibi?

Foxta qandilida xilvatnishin,  
Arshda ul nav'ki Ruhul-amin.

Jam' ichida taqviyu toat eli,  
Balki malak xayli jamoat eli.

Besh navbat g'ulg'ulakim, yo'q hadi,  
G'ulg'ula yo'q, dabdabai Ahmadi.

Bog'lari har biri jannat misol,  
Ravzag'a har go'shasidini go'shmol.

G'ayri mukarrar bori sarmanzili,  
Ayshu tarab manzili har manzili:

Borcha chamanlar gulu gulzorliq,  
Har chamani yo'li girihkorliq.

Har girihida gulu gulshan dog'i,  
Yo'qki musaddaski, musamman dog'i.

Gullari nav'ini ne dey oncha gul,  
Oncha ne gulkim, sanay olg'oncha gul.

Naxlini dehqonki barumand etib,  
Shoxiga yuz mevani payvand etib.

Har shajaru yuz gul ila shevasi<sup>8</sup>,  
Turfaki yuz nav' bo'lub mevasi.

Sahnida yuz gul chiqorib bir yig'och,  
Har gulining atri borib bir yig'och.

Qushlari yuz nav' xush ilhon bori,  
Sabzau gul uzra xiromon bori.

Suv tarabangez chekib g'ulg'ula,  
O'ylaki ishrat nafasi bulbula.

Ayshg'a targ'ib kelib ul nido,  
Bog' dimog'in tar etib ul sado.

Qasrlari borcha rafi u matin,  
Kilk ushotib naqshida naqqoshi Chin.

Ziynat aro o'ylaki chini parand,  
Naqshida naqqoshi qazo naqshband.

Toqig'a ko'k poyasidin nardbon,  
Kunguri davrida Zuhul posbon.

Haddi janubisida bir turfa rud,  
Rud nekim, lujjai charxi kabud.

Charx demaykim, yuzida har hubob,  
Gunbadi firuzadin olmay hisob.

Haddi shimoliysi sori ikki nahr,  
Ul ikidin xurramu serob shahr.

Ikkisida ta'mi zuloli hayot,  
Ravzadag'i to'rtga andin uyot.

Xizr suyidek anga ravshan zulol,  
Nutqi Masih onda nasimi shamol.

Xittasig'a o'yla muazzam savod,  
Kim anga har go'sha bir a'zam savod.

Misru Samarqand ne monand anga,  
Zimnida yuz Misru Samarqand anga,

Kim ani Haq asrasun ofotdin,  
Emin etib horchu baliyotdin.

Mundoq emas erdiyu ermas shake,  
Muncha nekim ermas edi dahyaki.

Muncha sharaf topti shah insofidin,  
Ulki xirad lol erur avsofidin.

Xusravi g'ozi shahi ravshan ravon,  
Adlig'a shogird Anushirvon.

Ayladi shogirdligin chun havas,  
Yuz ishidin bildi bir ishniyu bas.

Adl tariqig'a qo'yub gomni,  
Adl ila o'rganmadi islomni<sup>9</sup>.

Yo'q buki yuz qoidai dilpazir,  
Saltanat amrida bari noguzir.

Qoldiyu ul adl ila topti hayot,  
Qo'ydi qiyomatg'a degin yaxshi ot.

Buki erur adlg'a andin baland,  
Dindog'i yuz qoidai dilpisand.

Qolsa tong ermas bani Odam aro,  
Oti yuz oncha bori olam aro.

To bani Odam ila olam erur,  
Olam ichinda bani Odam erur,

Adl ila olam yuzin obod qil,  
Xulq ila olam elini shod qil<sup>10</sup>.

Hukmung aro olamu odam dog'i,  
Yo'qki bu ikki yana olam dog'i.

LIX

*Bahromning may mastlig'idin baxti ko'zi uyqu mayli qilib, mamlakati  
binosi ul seldin yiqilg'oni va mazlumlarni faryodidin uyg'onib  
tadorukin qilg'oni.*

Qo'ydi jahon mulkini chun Yazdi Jird,  
Ayladi Bahrom tana'umni vird.

Bodai g'aflat ani mast ayladi,  
Mast nekim, bodaparast ayladi.

Shah chu bo'lur boda ichib masti xob,  
Mastlar-o'q mulkin etarlar xarob,

Xasta ko'ngul ovlomog' etmay havas,  
Sheva anga dashtda ov erdi bas.

Boda ichib, qilg'uchilar sho'ru shar,  
Ayladilar mulkini zeru zabar.

Ov aro bir kun oziqib begumon.  
Bo'ldi birov chotmasig'a mehmon.

Chotma dema, hajr qaro shomi de,  
Zulmu taab qushlarining domi de,

Oshiqlar ko'ngli uyidek yiqug'.  
Tirlari har tarafidin chiqug'.

Zulm o'qi teshganlari ma'lum anga,  
Bosh sig'urub bir necha mazlum anga.

Borcha yalang – hodisa torojidin,  
Borcha nigun zulm iligi kojidin.

Bir qurug' o'tmak bila suv kelturub,  
Ev eyasi boshladi xidmat turub.

Shoh chu ahvolini qildi savol,  
Dedi: «Budurkim ko‘rasen borcha hol».

Shah dedi: «Bu foqau ajzu niyoz  
Nedin erur, rost degil borcha roz?»

Dedi: «Burun yaxshi edi holimiz,  
Zulm xarob ayladi ahvolimiz.

Shoh ulus holidin ogoh emas,  
Juz mayu mutrib anga dilxoh emas.

Xayli ochibon tama' og'zini keng,  
Ayladilar mulkni yer bila teng».

Shah ko'ziga o'truda koshonaye,  
Uchradiyu har evi vayronaye.

Dedi: «Bu vayron ne edi burna chog'?»  
Dedi: «Saroy erdiyu davrinda bog'»:

Eski daraxtu guli navxiz anga,  
Ikki tegirmon suyi koriz anga.

Daxlu ziroat bila ul turfa nahr,  
Mazraani kent qilib, balki shahr.

Qolmadi koriz ishi qilmoqqa zo'r,  
Charx anga ko'z tegurub, bo'ldi ko'r.

Chun qurudi suv, qurudi bog' ham,  
Qolmadi gul, gul neki, yafrog' ham.

Ev suvamog'ning kuchi ham qolmadi,  
Balki bu ish qilg'uchi ham qolmadi.

Bog'u saro borcha bo'lub yerga tuz,  
Zulmu tama' bo'ldi, vale birga yuz.

Hodisa toroji yetib molg'a,  
Qolduq o'kush ajz ila bu holg'a».

Shah bilib ul pardada bu toru pud.  
Jonig'a o't tushdiyu boshig'a dud.

G'am qilichi bag'rin etib chok-chok,  
Yoqin edi g'ussadin o'lg'ay halok.

G'aflati usrukligidin uyg'onib,  
Joni xumor o'ti bila o'rtonib.

Sovudi ko'ngliga bori ayshu lahv.  
Bildi erur harne qilur borcha sahv.

Zulm eliga fikri zavol ayladi,  
Ko'nglida ko'p adl xayol ayladi.

Haq bila chun qildi bu niyat durust,  
Kim tilabon mujda birov yetti chust.

Dediki, korizni aylab shikof,  
Chiqdi suv hayvon suvidek poku sof.

Ev egasi Tengrig'a aylab niyoz,  
Dedi: «Hamonoki shahi ayshsoz,

Zulm qo'yub, adl durur niyati,  
Kim bu asar ayladi xosiyati».

Shahg'a bu so'zdin dog'i tanbih o'lub,  
Qildi g'ani ul kishi uzrin qulub.

Otlanibon mulkida dod ayladi,  
Borcha g'amin xalqini shod ayladi.

Adl aning ko'ngliga qilg'ach guzar,  
Kishvariga qildi hamul dam asar.

Xusravi G'oziki, emastur dame,  
Kim yemagay, mulku raiyat g'ami.

Mulki ne tong, gar erur obod aning,  
Xalqi ne hayrat, gar erur shod aning.

To abad o'lsun bori komi ravo,  
Xasta Navoiyg'a ham andin navo.

Soqiy, olib kel qadahi dilpisand,  
Tut manga, deb shoh duosin baland.

Jonki chekar zulm, dame shod etay,  
Tan uyin ul suv bila obod etay.

LX

### YIGIRMANCHI MAQOLAT

*Ul maqsud adosidakim, agarchi bu latoyif majmuasi safinaye durur, zaroyif tuhafidin mashhun va bu zaroyif safinasi junge durur favoidi laolisi anda gunogun. Va lekin chun tab' daryosidin avval sohilg'a kelgan nafois durur va zihn shabistonidin avval jilvai zuhur qilg'on aroyis, bu jihatdin Sulton Badiuzzamon bahodir doma hayotuhu ayoqig'akim, saltanat bog'chasining avvalg'i vardi va xilofat chamanining burun qad chekkan sarvi nozparvardi durur, nisor qilildi va aqd izdivojig'a tortildikim, bu nasoyih ko'nglida qolg'ay va bu javohirni qulog'ig'a olg'ay'.*

Olam aro harne huvaydo durur,  
Siri aning zimnida paydo durur.

Qayda zuhur aylasa mohiyati,  
Muzmar erur zotida xosiyati.

Keldi quyosh xosiyati nuru tob,  
Bo'ldi bulut nutfasi durri xushob.

Kong'a erur gavhari yakto xalaf,  
Bahrg'a ham anbari soro xalaf.

Bu xalaf insong'a ham inson erur,  
Shahg'a shahu, xong'a dog'i xon erur'.

Kon kibi ko'rgan shahi ozodani,  
Ko'rdik aning gavhari shahzodani.

Garchi bu kon ichra duri shohvor.  
Xayli erurkim, borisin kirdigor

Poya aro sohibi toj aylasun,  
Mehrvashu charxduvoj aylasun.

Ulki vale gavhari yakto durur.  
Borchasidin poyada a'lo durur.

Bilki erur moyai amnu amon,  
Xusravi Jamqadr Badiuzzamon<sup>3</sup>.

Zoti nazohatda maloik sifot,  
Pok sifoti bila yo'q hech zot.

Zoti bashar, lek sifoti malak,  
Balki sifoti bila zoti malak.

Mahzi latofatdin o'lub xilqati,  
Xalqi jahon ahlig'a Haq rahmati.

Ey kelibon nutq ila vasfing mahol,  
Notiqa vasfingda bo'lub gungu lol.

Ulcha sening hilmu viqoring durur.  
Men kibi el midhati oring durur.

Mehrki el vasfidin o'tmish ishi.  
Nurin aning ne o'ka olg'ay kishi.

Obi hayot elga demak jon berur,  
Bu so'z anga bori ne ta'rif erur.

Oyni yorug', charxni demak baland  
Tab'i baland elga emas diltisand.

Madh ila chun mumkin emas midhating,  
O'zga jihatdin qilayin xizimating.

Voqif erursenki, shahi komgor,  
Kim anga ko'p maxfi erur oshkor.



Dahr nekim tongla huvaydo qilur.  
Roi bu kun fikr ila paydo qilur.

Tongla yo'q, indin bo'lur ish daftarin,  
Bir-bir o'qubtur uzog'u kun barin.

G'ayb xayolotida yuz ming suvar,  
Xotiri ko'zgu sidatur jilvagar.

Muncha kamolot ila hukm aylamish,  
Kim neki ko'nglungga kelur yaxshi ish

Kelgilu ollimda sarosar degil,  
Bo'lmasa masmu', mukarrar degil.

Shahg'a so'zumdin bor esa e'tibor,  
Gar sanga ham pand desam yeri bor.

Bil munikim, umr vafosiz durur,  
Davlat ila joh baqosiz durur

Tushdek erur dahrda nokomu kom,  
Ko'z yumub ochquncha o'tubdur tamom.

Dahr binosini xarob anglag'il,  
Ne ko'runur anda sarob anglag'il.

Jumla jahon foniyi mutlaq durur,  
Boqiyi mutlaq tilasang Haq durur.

Jism uyining tarhini solg'uchi ul,  
Ruh anga berguchiyu olg'uchi ul.

Olam aro toki tirikdur kishi,  
Haq bila bo'lmoq erur ansab ishi.

Bo'lmasa Haq yodidin ogohliq,  
Bilki gadolikcha emas shohliq.

Bo'lsa gado Tengridin ogahlig'i,  
Bordur anga ikki jahon shahlig'i.

Harneki bu safhada tahrir erur,  
Roqim anga xomai taqdir erur.

Ollinga kelsa tilamas ish base,  
Haqdin erur, aylama nolish base.

Yetsa zafar bilma ilik kuchidin,  
Bil zafaru fathni berguchidin.

Shahlig'inga aylamagil e'tibor,  
Haq g'azabu lutfig'a qil e'tibor.

Ko'rki ne bir lahzada bo'ldi qatil.  
Tayri abobil ila «As'hobi fil».

Qildi adam manzili koshonasi,  
Har birisin birgina qush donasi.

Yo ne sifat tortti Zahhok ranj:  
Tengri nasib etti Faridung'a ganj<sup>4</sup>.

Qahridin ar sheri jayon ko'rdi bim,  
Uzdi boshin uy suti ichgan yatim.

Xaylingakim, sendin emas jismu ruh,  
Aql ila imon eshigidin futuh.

Haqdin erur bu niami bul'ajab,  
Rizqlarig'a seni qildi sabab.

Etti sababliqqa sani baxtiyor,  
Qismat etarga sanga ne ixtiyor?

Mundoq ila bu necha nodon sanga,  
Bo'lmasalar bandai farmon sanga.

O'ylaki qonuni rayosat durur,  
Borchasiga bimi siyosat durur.

Sangaki Haq lutf etibon toju taxt,  
Qildi karomat o'kush iqbolu baxt.

Hukmunga olamni zabun ayladi,  
El qadin amringg'a nigun ayladi.

Muncha karam shukrini gar bilmasang,  
Harneki amr etti ado qilmasang.

Zohir etib g'aflatu mag'rurluq,  
Aylamasang amrig'a ma'murluq.

Qahr yeri bormu, yo yo'q degil.  
Men ani deguncha, o'zung-o'q degil.

Yetsa g'azab tund yeli netgasen,  
Mulk aning mulki, qayon ketgasen?

Aylar esang fisq ila isyon anga.  
Ayla agar bor esa pinhon anga.

Xalqdin ul ishda xijolat durur.  
Xoliq agar ko'rsa ne holat durur?

Ishdaki eldin sanga bor infiol,  
Tengriga zohir esa. bo'lg'ay ne hol?

Istar esang maqsadi aslig'a yuz,  
Jodai shar'i Muhammadni tuz<sup>5</sup>.

Shahki, najot uyiga istar panoh,  
Ushbu yo'l ul uyga erur shohroh.

Egri kelur xatti chiqarg'och qalam,  
Satr yo'li jodasidin qadam.

Shar' tariqini shior aylagil,  
Adl ila mulkunga mador aylagil.

Shohki ish adl ila bunyod etar,  
Adl buzuq mulkni obod etar.

Kofiri odil ani obod etib,  
Mo'mini zolim ani barbod etib.

Shahki, erur adl ila davron anga,  
Bo'ldi sirot o'tmagi oson anga.

Kim yurumak ip uza kom ayladi,  
Adli chu tuz bo'ldi xirom ayladi.

Koming uchun tuz bo'lu adl ayla ish,  
O'qda agar adl yo'q, etmas ravish.

Adlki uch harf ila maqrun erur,  
Har biriga o'zgacha mazmun erur:

«Ayn»i aning mehre erur tobnok,  
Zulm qaro shomini qilmoqqa pok.

«Dol»i dag'i davlatu din tojidur,  
Din bila davlat eli muhtojidur.

Hurg'a gisu quyig'i «lom»i bil,  
Izzu sharaf qushlarining domi bil<sup>6</sup>.

Tojni kiy, mehr ila ko'zni yorut,  
So'ngg'i matin hablani ilgingga tut.

Har necha mazlum so'zi topsa tul,  
Tuli hayot istasang, o'lma malul.

Zulm o'tidin qilsa fig'on dodxoh,  
Soyai adling aro bergil panoh.

Qo'ymag'il ul soyada qayg'u anga,  
Sham' tubin qilma qarong'u anga.

Emdiki, mazlum so'zi chiqti tuz,  
Zolim agar nafsing erur, ko'rma yuz,

Nafskim, ul ayshi mudom istagay,  
Sanga gunah, o'ziga kom istagay.

Ganj uza istarki, yilon topsa bahr,  
Andin emas bahra, vale g'ayri zahr.

Chekma aning komini istab azob,  
Tavba bila qilg'il anga ehtisob.

Necha ulug' ersa gunah xirmani,  
Yelga berur ohi nadomat ani.

Jurm o'tikim, shu'lası payvast erur,  
Uzr sirishki suyidin past erur.

Lutfu karam garchi erur dilpazir,  
Qahru siyosat ham erur noguzir.

Har kishi olam elida xo'b emas,  
Har kishining har ishi marg'ub emas.

Yaxshi-yomonga chu teng o'ldi karam.  
Bo'ldi yomong'a ko'pu yaxshig'a kam.

Lutf nasimin tarabangez qil,  
Tig'i siyosatni dog'i tez qil.

Necha marazg'a gar erur sud qand,  
Nechaga ham zahr erur sudmand.

Maddakim, bermasa marham kushod,  
Nishtar-o'q aylar anga daf'i fasod.

Bormoq uchi birla chu chiqmas tikan,  
Igna bila qutulur andin badan.

Bo'lsa kerak fikr ila shohi zamon,  
Yaxshig'a yaxshiyu yomong'a yomon.

Ikkisidin bir kibi olsa hisob,  
Mamlakati ichra tushar inqilob.

Kimsani bot aylamagil arjumand,  
Ham yana oz ish ila qilma najand.

Mil uza chiqmoq angakim voyadur,  
Chiqmaqu tushmaklik uchun poyadur.

Poyadin ortuq kishi ursa qadam,  
Bimi yiqilmoqduru ranju alam.

Tifl hijo bilmay o'qur chun savod,  
Qil o'qurin zeru-zabar e'tiqod.

Kimniki, inson desang, inson emas,  
Shaklda bir, fe'lda yakson emas.

Naxlsifat sham' ila muz shushasi,  
Munung o't, oning suv erur xo'shasi.

Kimniki, aylay der esang mahraming,  
Ko'p sinamay aylamagil hamdaming,

G'aflat aro xush ko'rubon xush dema,  
Voqif o'lub so'ngra pushaymon yema.

Tushta ne hureki parison erur,  
Uyg'og' etar fahmki, shayton erur.

Oz ish uchun tund itob aylama,  
Qatlu siyosatda shitob aylama.

Bok yo'q, ar kechrak o'lur qati ishi,  
O'lsa, so'zung birla tirilmas kishi.

Suvda hubob o'lsa damingdin xarob,  
Mumkin erurmu yasamog'liq hubob?

Yaxshi emas afv siyosat chog'i,  
Lek kerak ishda farosat dog'i.

Garchi guvoh ayladi sobit gunoh,  
Ozmu o'tar shar'da yolg'on guvoh?

Har kishiningkim, so'zi yolg'on esa,  
Aylama bovar, nechakim chin desa,

Qasd ila yolg'on demadi rostgo'y,  
Chin demadi sa'y ila kazzobxo'y.

Tun bila to subh muvofiq durur,  
Avvali kozib, so'ngg'i sodiq durur.

Tutma tuzub kinu adovat fani.  
O'zga kishi jurmi bila o'zgani.

Roi esang tut bu nafas yaxshi pos,  
Har qo'yni o'z ayog'i birla os.

Royinga har amriki, keldi savob  
Mashvarasiz etma qilurg'a shitob.

Zavq esa tab'ingg'a salohi bila,  
El so'zi zimmida fasodin tila.

Aylama o'z rayingga ko'p e'tiqod,  
Mu'tamad el ra'yidin ista kushod.

Shahki, ra'yini ko'p etti pisand,  
Ra'y ko'rar el tiliga soldi band.

Garchi tavakkulsiz erur azm sust,  
Mashvarasiz qilma tavakkul durust.

Bo'lma malul o'lsa kengashda talosh,  
Asru uzun dog'i kerakmas kengosh.

Aylar ishingga chu bo'lur dastras,  
Vaqtidin o'tkarma oni bir nafas.

Gulga sahar vaqti berur jilva bog',  
Kechga yetushsa terar o'g'lon-ushog'.

O'z ishingga har necha ko'p bo'lsa mayl,  
Tengri ishiga ani qilg'il tufayl.

Nosihi sodiqki, erur beg'araz,  
Bil anga olamda topilmas evaz,

Qilsa g'alat rifq ila qilg'il davo,  
Tengrigadurkim, g'alat ermas ravo.

Ish kuni qo'yg'onda aduv sori yuz,  
To'ra bila burna yasolingni tuz.

Hamla ketur razmda taqsirsiz,  
Bilki kishi o'lmadi taqdirsiz.

Shomi ajal uyida yotmas kishi,  
Umr kuni go'rga botmas kishi.

Ikki qadam yong'ucha yetgach alam,  
Sa'y qilu ilgari qo'y bir qadam.

Nechaki Haq lutfidin o'ldi zafar,  
Say'ni ham bil sababi mu'tabar.

O'yla maosh aylaki, cheksang sipoh,  
Xalq duosi sanga bo'lg'ay panoh.

Jahd etkim, urmasun o'lg'och nabard,  
Oh yeli ko'zungga nogoh gard.

Qilmadi ming dushmani kinxoh o'qi  
Ul yarakim, ayladi bir oh o'qi.

G'olib esang razmda begonag'a.  
Qatlg'a sa'y etma bu shukronag'a.

Harneki bu nomada mastur erur,  
Borchag'a shoh ishlari dastur erur.

Ishda agar shahg'a shabih o'lg'asen,  
«Al-valadu sirru abih» o'lg'asen.

Ko'rmagasen yo'l aro ranju nadam.  
Har qadame o'rniga qo'ysang qadam.

Zoda murid u otani pir bil,  
Har ishida hukmig'a ta'sir bil.

Bo'lma bu pir ollida taqsirliq,  
Istar esang davlat ila pirlig.



LXI

*Xoja Muhammad Porsodin haj ahli duo istid'o qilmoq va o'g'li  
Xoja Abu Nasr aning istid'osi bila duo qilmoq.*

Haq yo'lida xojai qudsiy janob,  
Roqimi «Qudsiya»u «Fasl ul-xitob».

Na'li izi gunbadi davvorso.  
Ulki laqab keldi anga Porso.

Garchi o'zi nodirai asr edi,  
O'g'li aning Xoja Abu Nasr edi.

Faqrdan ul bir shahi ozodaxo',  
Ul shahi ozodau shahzoda — bu.

Xojag'a chun Makka sori bo'ldi azm,  
Xoja Abu Nasr dog'i bo'ldi jazm.

Aylab ato soliki atvorliq,  
O'g'li qilib mahrami asrorliq.

Ulki qo'yub bodiyada har qadam,  
Bu ham etib po'ya qadam bar qadam.

Chun necha kun bodiya qat' ettilar,  
Manzili maqsadlarig'a yettilar.

Xalq haj arkoni aytab tamom,  
Topibon ul tavr ila oliy maqom.

Yaxshi-yomon murshidu solik dog'i,  
Yo'q kishi o'rnig'a maloik dog'i.

Istadilar foniyu boqiy janob,  
Har tilagi Haq qoshida mustajob.

Xalq niyozini ado qilg'oli,  
Borcha xaloyiqni duo qilg'oli,

Muncha ulus ichraki ko'z tiktilar,  
Xoja sori borcha raqam chektilar.

Chunki bu ish Xojag'a topti vuqu',  
Xoja Abu Nasrg'a qildi ruju'.

Ayttikim, ul manga foyiq durur,  
Bo'yla baland ish anga loyiq durur.

Kimsaki yo'q rahbari bu yo'l aro,  
Mumkin erur ozmog'i har qo'l aro.

Yo'q edi bu yo'lda manga rahnamoy,  
Tengri meni qildi anga rahnamoy.

Bo'ldi mening ishim anga parvarish.  
Parvarishimdin anga ish qilmoq ish.

Yo'l itari meni haroson qilib,  
Yo'lni harosim anga oson qilib.

Menda xavotirdin o'lub yuz futur,  
Anda suluk ichra shuhudu huzur.

O'zum uchun, oning uchun menda g'am,  
Ul gum etib Haqda o'zin, meni ham.

Bo'yla debon qildi ishorat anga,  
Uzrg'a ne haddi iborat anga.

Ochti ilik ashk to'kub sham'vor,  
Yo ichi kuyganda nechukkim chanor.

Rahmatu afv istamak oyin etib,  
Xoja turub yig'labon omin etib.

So'ngg'i duo bu edikim, yo Iloh,  
Dermen uyotdin sanga aylab panoh.

Bilmas esam men tilak oyinini  
Aylama zoyi aning ominini.

Sa'y etibon o'yla atodek kishi,  
Yetti bu g'ayratg'a o'g'ulning ishi.

Yo Rab, ul ominu duo hurmati,  
Yo ul o'g'ul birla ato hurmati.

Kim bu ato birla o'g'ulni mudom,  
Davlatu din taxtida tut mustadom.

O'zga o'g'ullarni ham et muhtaram.  
Anga o'g'ul, munga inilarni ham.

Jumlai olamg'a alar ixtiyor,  
Olam eli ichra shahu shahriyor.

Shoh duosida tugondi kalom,  
Emdi Navoiyg'a erur boda kom.

Soqiy, olib kel qadahi bodaye  
Shah tutsun, yo ani shahzodaye.

To bo'layin mast sabohu maso,  
Necha riyo birla bo'lay porso.

## LXII

*Bu faqr kulbasini ajzu inkisor tufroqlarin chehra churuk somoni  
uza peshoni araqin oqizmoq bila kahgil etib, yuz ohu so'z bila suvamoqning  
itmomi va bu fano xirqasini za'fu iftiqor yamoqlarin kirpik sinuq ignasiga  
ashk uzun torin toqib, yuz darzdo'zliq bila yamamoqning ixtitomi va ul  
me'morliq xijolatidin uzr hujrasig'a yuz urmoq va bu xayyotliq uzridin  
xijolat yoqasig'a bosh yashurmoq va Haq ma'murai ehsonidin maskani  
afv tilamak va xazonai lutfidin xil'ati baxshish istamak.*

Chun meni shaydovashi oshufta hol,  
Bo'yla tamannog'a singurdum xayol<sup>1</sup>,

Kim necha kun ranji nihoni chekay,  
Obi hayot istayu jone chekay.

Noma uchun xoma tarosh ayladim,  
Xoma uchun noma xarosh ayladim.

Safha uza kilkim o'lub naqshband,  
Nay unidek chekti saririn baland.

O'ylaki nay nag'mada chekkay safir,  
Andin oshurdi nayi kilkim sarir.

Nay unin andoqki, qilib istimo',  
Zumrai so'fi aro tushgay samo'.

Bu nay uni savmaai xok aro,  
Balki to'quz gunbadi aflok aro,

Soldi bashar xaylida g'avg'o base,  
Xayli malak ichra alolo base.

Ham bashar eshitgach o'lub dardnok,  
Dard ila aylab yoqasin chok-chok.

Ham uchubon xayli malakdin hayot,  
Zaxm yegan qush kibi solib qanot.

Savtidin ar noxush, agar xo'b edi,  
Mulku malak ahlig'a oshub edi.

Emdiki bu gulruxi zebo uzor<sup>2</sup>,  
Topti xatu xol ila naqshu nigor.

Qildi chu mashshotai charx ehtimom,  
Bo'ldi iki haftaliq oydek tamom.

Partavidin chun yorudi mashriqayn,  
Tushti yana yer-ko'k aro sho'ru shayn.

Charx dabirig'a usholib qalam,  
Mehbaraning keyniga solib qalam.

Xozini gardun yetibon qoshima,  
Mehr bila evrulubon boshima.

Sochig' uchun kelturubon jon bila,  
Anjumi naqdini to'quz xon bila.

Xayli malak uzra diram sochibon,  
Durru guhar naqdini ham sochibon.

Hurmatima gard kibi yer qo'pub,  
Boshima aylanib ayog'im o'pub.

Ollima yuz ganj qator aylabon,  
Borin ayog'img'a nisor aylabon,

Boshim uza la'l sochib konidin,  
Dur to'kubon ollima ummonidin.

Men mutafakkir bu tahayyur aro,  
Bal mutahayyir bu tafakkur aro,

Kim bu varaqlarniki, xomam mening  
Qildi qaro o'ylaki nomam mening,

Bu qadar e'zozga qilmas gari,  
Balki emas, xo'rdida mingdin biri.

Ham yomon ermas, vale muncha emas,  
Yaxshi durur, vasf deguncha emas.

Ma'ni agar xo'b esa, tarkibi yo'q,  
Surati dilkash esa, tartibi yo'q.

Ayturig'a chunki qo'yuldi ko'ngul,  
Aytmay o'n bayt tutuldi ko'ngul,

Kim bor edi boshima ko'p mehnatim,  
Yo'q edi bosh qoshig'ali fursatim.

Ul chog'dinkim, varaqi osmon,  
Dudag'a zirnix qilur shustmon.

Subh etar har sori yog'du bila,  
Tun qorasin pok supurgu bila.

Tun yoshurur shuqqai anbarvashin,  
Subh chiqorur alami zarkashin,

Rost o'shul choqqachakim, bu alam  
O'zin etar sanjaqi mulki adam.

Qilmoq uchun tira shafaq harfini  
Shom qo'shar dudag'a shingarfini.

Charx qilur zohir etib kavkabin,  
Durg'a mukallal qora chodarshabin.

Menda bu mobayn erur zorliq,  
Xalq jafosig'a giriftorliq.

Bir dam ulus mehnatidin kom yo'q,  
Bir nafas el javridin orom yo'q.

Kelguchi bu xasta g'amobodig'a,  
Ketmaga xud kelmay aning yodig'a,

Bir suruk albatta ko'rub ketmayin.  
Toki burun ikki suruk yetmayin,

O't solibon xotiri vayronima,  
Tongdin aqshomg'a yetib jonima.

Ish buyurub o'ylaki oson emas,  
Butmaga aql ollida imkon emas.

Uzr demak borchag'a qattig' kelib,  
Necha chuchuk so'z desa, achchig' kelib.

Bazl agar bor esa aflokcha,  
Har falaki ollida xoshokcha.

Har kishi ko'zinki tama' ochti keng.  
Qatrau daryo erur ollida teng.

Olibu izhori shikoyat qilib,  
Ko'pni oz o'rnida hikoyat qilib.

Har biriga o'zgacha so'z muddao,  
O'zgacha so'z demaki, yuz muddao.

Bor esa Rustamcha birov quvvati.  
Hotami Toyicha aning himmati.

Ilgida Qoruncha bo'lub ganju mol,  
Topmoq erur xalq rizosin mahol.

Menki bularning baridin fardmen,  
Za'f uyida hamnafasi dardmen.

Muncha g'amu mehnat ila bovujud,  
Muncha taraddud bila guftu shunud.

Za'fi tabiiy xud o'lub bir sori,  
Borchalari bir sori, bu bir sori:

Kunduz olib oncha yubusat dimog',  
Kim kecha uyqu bila topmay farog'.

Kunduzikim, bo'ldi yana hol bu,  
Kechaki bo'ldi yana ahvol bu.

Kimgaki fursat bu sifat bo'lsa tor  
Nazmi xush andin qachon imkoni bor.

Men chu dedim uzr, erurmen maof,  
Bo'lmasa bu nazm duri asru sof.

Rishtai avqot chu ko'toh edi,  
Kelmadi ul nav'ki dilxoh edi.

Chun bu sifatdur bari oyin anga,  
Qaydin erur martaba chandin anga,

Kim el aro bo'yla tushub hoyu huy,  
Har sori solg'ay bir uzun guftu go'y.

Bo'lsa edi oncha manga dastras,  
Kim kecha-kunduzda bir-ikki nafas,

Raf' o'lubon mehnatu farsudaliq,  
Yetsa edi kom ila osudaliq.

Go'shai xilvat aro aylab nishast.  
Tab'ni qilsam edi fikratparast,

Nazm duri istariga xos o'lub,  
Bahri taxayyul aro g'avvos o'lub.

Qilsam edi ulcha xiromim durur,  
Olsam edi onchaki komim durur.

Bilgay edi kimgaki ma'ni bo'lur,  
Kim ravishi nazm degan ne bo'lur.

Ul biridin chunki tihi qoldi jayb,  
Kirmasa jayb ichra bu bir ham ne ayb.

Men bu navo birla tarannumsaroy,  
Kim dedi nogah xiradi pokroy:

K-ey qalaming ajz midodi aro,  
Bosh qo'yub insof savodi aro.

Haqdin o'lub za'finga quvvat qarin,  
Surati insofingga yuz ofarin.

Buki bayon aylading ermas yiroq,  
Kim dey olursen mundin yaxshiroq.

Desang edi ham tilagandek baland,  
Bo'lsang edi istagudek dilpisand.

Munchamu bo'lg'ay edi bozor anga,  
Jumlai ofoq xaridor anga.

Bo'ylaki savdosi jahon ichradur,  
Sho'ru shari kavnu makon ichradur.

Andin erurkim, bu jahon zevari,  
Gavhar aro bahr ila kon zevari.



Qildi sharaf kasbini shoh otidin,  
Mehru karam zilli Iloh otidin.

Ulki sharaf bahri aning zotidur,  
Gavhar o'shul bahr aro otidur.

Ey so'qulub sikkai adl otinga,  
Xutbai davlat o'qulub zotinga.

Halqa etib ko'kni uyoting sening,  
Xotami xurshed uza oting sening.

Men kimu madhingni bayon aylamak.  
Zarrag'a charx uzra makon aylamak.

Qatra kerak anglasa o'z poyasin,  
Bahr ila teng tutmasa sarmoyasin.

Lek ne ish kimgaki, taqdir erur,  
Anga shuruida ne tadbir erur.

O't aro parvonag'a devonavor.  
Kirmagiga qayda erur ixtiyor.

Telbaning atfol toshi yorasi —  
Yemagidin bormu durur chorasi?

She'rki ham tushti mening shonima,  
Ul o'tu bu toshdurur jonima.

Ne de olurmen tuzubon barkini,  
Mumkin emas xud tutorim tarkini.

Garchi xayolimg'a kelur goh-goh.  
Kim necha bu dag'dag'ai umrkoh.

She'rdur ulkim demagi sud emas,  
Ko'p desa, xud g'ayri ziyonbud emas.

Ulki g'azal chehrasiga bersa zeb,  
Anglab ani tab'kashu dilfireb.

Chin demagi harzavu hazyon bori,  
Turfa bukim, yaxshisi yolg'on bori.

Kimgaki umrida bu voqe' durur,  
Umr anga ming yil esa zoye' durur.

Avlo erur ulki, urub gomi faqr,  
Ko'yi fano ichra chekib jomi faqr.

Dunyo ishi maylini oz aylasam,  
Uqbo uzun yo'lini soz aylasam,

Sharbat esa, ul yo'l aro rag'batim,  
Bo'lsa yurak qoni mening sharbatim.

Siyam kerak bo'lsa qilurg'a farog',  
Ul ham o'lub tandog'i har sori dog'.

Xil'ati davlat yalang egnimda gard,  
Ikki ayog' sayrim uchun rahnavard.

Soya uchun chatrni qilmay pisand,  
Po'ya aro raxshg'a yo'q poyband,

Sayrda har bir qadamim yuz yig'och,  
Toji sharaf boshima jo'lida soch.

Yoling ayog'im tahida xorlar,  
Silsilai faqrima mismorlar.

Raxna sinuq boshima har toshdin,  
Chiqqoli o'zluk tarabi boshdin.

Ko'zda sirishkim duri shohonasi,  
Borcha fano qushlarining donasi;

Chun bu qush ul dona bila rom o'lub,  
Rishtai jismimdin anga dom o'lub.

Ko'ksuma g'am xanjari solg'on shikof,  
Dard eliga jism uyin aylab matof.

Po'ya qabarchuq bila aylab nisor,  
Maqdamima yuz guhari obdor.

Yo duri ashkimki, yo'l uzra tushub,  
Qonliq ayog'im tahig'a yopushub.

Zaxmlarim qoni bo'lub qatrabor,  
Dardu balo dashtin etib lolazor.

Oh o'ti uchqunlarikim charx urub,  
Lola yopurg'og'ini yel sovurub.

Har sharari lolag'a yafrog' aning,  
Tira o'chuk juzvi o'lub dog' aning.

Ranj solib jismg'a farsudaliq,  
Yo'lda dame istasam osudaliq.

Yo'l aro bir tog' etagin topibon,  
Jismima aflok etagin yopibon.

Uyqug'a qo'ymoq tilasam yerga bosh.  
Takyai xoro manga bir xora tosh.

Yer uza tufrog' bo'lub histarim,  
Soyadek ustiga yotib paykarim.

Ikki ayog'imkim, yururdin tolib,  
Qo'ynig'a Farhod ila Majnun olib.

Buki alar ishqicha yuz jonima,  
Dardicha ming xotiri vayronima.

Keldiyu men kimsag'a fosh etmadim.  
Nola chekib vasl talosh etmadim.

Ikkisi hayratda bu holat bila,  
O'zlari ishqida xijolat bila,

Anglab erur ishq muşallam manga,  
Ul birisi, bu birisi ham manga.

Ishq chekib poyam aningdek rafi',  
Dard qilib ko'nglum aningdek vasi',

Kim manga ko'k yer bila yakson bo'lub.  
Charx ochuq gulshani zindon bo'lub.

Himmatim ul avjda silkib etak,  
Kim yorutub gardi bila ko'z malak.

Qilsa shabistoni shuhudum zuhur,  
Xayli maloik anga jam'i tuyur.

Tayr dema, har sori xuffosh de,  
Anjumu ko'k huqqau xashxosh de.

Deb chu ochib didai ibratni keng,  
Bor ila yo'q, yo'q ila borini teng.

Istabon o'tmak boru yo'qdin daler,  
O'ylaki Sayyid Hasani Ardasher.

Ko'nglum etib bo'yla maqom orzu,  
Lek bo'lub, nafsg'a kom orzu.

Himmat uchub ravzai xurram sori,  
Nafs chekib chohi jahannam sori.

Yuzda malakvash bo'lub, ammo nuhuft,  
Dev ila shayton bo'lub ikkisi juft,

Yo'qki bu ikki bo'lubon juftu bas,  
O'zlaridek yuz tug'urub har nafas.

Har kishikim, bo'lsa ichida nihon,  
Dev ila shaytoni jahon dar jahon.

Botin aro boshlasa yuz makru rev,  
Fitna qilib muncha shayotinu dev.

Harne alar solsa tamanno manga,  
Turfa bukim, borcha muhayyo manga.

Tengri uchun, ey ko'ngul, insof ber,  
Dindin agar nafs chiqarmas ne der.

Menki bu nafs ilgida afgor men,  
Muncha balolarg'a giriftormen.

Zohirim avqoti yomondin-yomon,  
Botinim ahvoli xud ondin yomon.

Yig'lasam o'z xotiri noshodima,  
Yetmagusi ul dog'i faryodima.

Ashkni farzanki qilay bahri sof,  
Ko'ksuma solib kema yanglig' shikof.

Ne yuruy olg'ay kemadek paykarim,  
Ko'hi gunahdin bo'lubon langarim.

Zohiri holimda bashar surati,  
Surati jismimda kishi hay'ati.

Ma'ni ichinda kishilikdin yiroq,  
Balki aromizda ming illik firoq.

O'zni safo ahli qachon bo'lsa jam',  
Ravshanu tuz ko'rguzub andoqki sham'.

Ko'ngul aro chirmashibon yuz yilon,  
Balki xavotir yelidin qo'zg'alon,

Ulchaki men-men demasam yaxshiroq,  
Yaxshilar o'lsun, bu yomondin yiroq.

Zulmat aro botinimu zohirim,  
Turfa bukim, o'yla tilab xotirim,

Kim meni el ahli yaqin anglag'ay,  
Taqvoyu toatg'a qarinq anglag'ay.

Oshiqi g'amnok degaylar bari,  
Ko'ngli, ko'zi pok degaylar bari.

Ko'zni o'kush sa'y ila zabt etgamen,  
Yetsa ko'ngul zabtig'a ish, netgamen.

Oh, mening holima yuz qatla oh,  
Tutmasa ilgim karam aylab Iloh.

Kelmayu yoding'a zamoni hayot,  
Qilg'onim ish kelmagan andin uyot.

Borcha ishim xoma qaro aylamak,  
No'gi bila noma qaro aylamak.

Xoma tilimdin ham o'lub xiraroq,  
Noma yuzumdin ham o'lub tiyraroq.

Tushmasalar lujjai rahmat aro,  
Qayda yuyulg'ay bu ikidin qaro.

Yo Rab, agar bo'ldi kalomim uzun,  
Mundin ham jurm qilibmen fuzun.

Yaxshi esa, ber so'rug'umdin amon.  
Bo'lsa yomon boshtin-ayog'im yamon.

Ham yomonim lutf bila yaxshi qil,  
Bo'ldi chu ul yaxshi qabul aylagil.

Jilva ber el ko'ziga ham xo'b ani,  
Qilg'il ulus ko'ngliga marg'ub ani.

Har nechakim, jurmum erur pech-pech.  
Lekin erur rahmating ol'inda hech.

Kamluk ila necha manga bo'lsa bim.  
Sen karam aylakim, erursen karim.

### LXIII

*Ul qul hikoyatikim, ayog'i toyilib, ayog'luq oshini shohning boshi  
kosasig'a urdi va karamlig' shoh ollida o'z oshin pishurdi.*

Bor edi bir xusravi sohib karam,  
Kim karamidin el edi muhtaram.

Xizmat aro bor edi bir qul anga,  
Poyai xizmatda bakovul anga.

Bir kun aning bazmida shilon chog'i,  
Shohga ham ishtaho o'lg'on chog'i,

Nakbat ayog'ig'a urub toshni,  
Shah boshig'a to'kti isig' oshni.

El dedilar, holi ani o'lturur,  
Kim bu gunohig'a jazo ul durur.

Shoh boqib ko'rdi chu noshod ani,  
Lutf etibon ayladi ozod ani.

Dedi vazir: «Ey karaming bedarig',  
Yo'q edi sha'nida aning g'ayri tig'».

Shoh dedi lutf bila zavqnok:  
«Kim ani xud xijlat etibdur halok.

Kimsa o'lukni yana o'lturmadi,  
Tig'i siyosat boshig'a surmadi.

Har kishi xalq ichra gunahkorroq,  
Afvu inoyatga sazovorroq».

Yo Rab, aningdek karam etguvchi shoh,  
Yuz ming eshigingda erur xoki roh.

Har necha ko'p bo'lsa gunohim mening,  
Shukrki, bor sendek Ilohim mening.

Xijlat ila qolmadi xud jon manga,  
Yeri durur aylasang ehson manga.

Garchi emon qobili lutfu karam,  
Lek emon bir yo'li navmid ham.

Men kimu bahri karam etmak havas,  
Bahr agar uldur manga bir qatra bas.

Shukrki, ehsoning o'lub yovarim,  
Topti nihoyat varaqin daftarim.

Hayrati abror<sup>1</sup> ko'rub zotini,  
«Hayrat ul-abror» dedim otini.

Nuktai ta'rixiki, ahsan edi,  
Sekizu sekiz yuzu seksan edi.

Kim o'qusa, yo qilur ersa savod,  
Ruhum agar qilsa duo birla shod.

Tengri ishin komu murod aylasun,  
Ruhini jannat aro shod aylasun.

Emdi, Navoiy, mayi shukrona ich,  
Har necha bo'lsa to'la paymona ich.

Soqiy, olib kel to'la paymonaye,  
Yo'q, g'alat ettim, to'la xumxonaye.

To ani ko'p-ko'p olibon sipqoray,  
Kup-kup ichib, bir dam o'zumdin boray.





Farhod  
va  
Shirin



**BISMILLOHIR RAHMONIR RAHIM**

**I**

Bihamdik fathi avbob ul-maoni,  
Nasib et ko'ngluma fath o'lmak oni.

Ko'zumga ul eshik quflin padid et,  
Aning fathig'a kilkimni kalid et.

Ochib ul ganj quflin bu kalidim,  
Nasibim ayla neki bor umidim.

Nechakim istasam naqdu javohir,  
Qayon boqsam ko'zumga ayla zohir.

Terarga har nafas ko'proq havas ber,  
Havas bergach olurga dastras ber.

Anga tegur qo'lumnikim yiroqdur,  
Qo'lumg'a sol anikim yaxshiroqdur.

Nima ko'p olmog'imga mone' etma,  
Necha ko'p olg'onimga qone' etma.

Bu maxzan birla ko'nglumga g'ino sol,  
Nechakim sochsam ilgimga yano sol.

Durafshonliqqa kilkim fosh qilg'il,  
Tilimni dog'i gavharposh qilg'il.

Bu durlarkim ko'zumni andin ochting,  
Mening ilgim bila olamg'a sochting,

Tamannosin hazin ko'nglumdin olma,  
Sochilg'on birla tufrog' ichra solma.

Buyursang sochmog'in men benavog'a,  
Chiqor yuz benavo ilgin havog'a.

Ayurg'och bazi ila bu benavodin,  
Navosizlarg'a qormotqil havodin.

Gadolarg'a dag'i andin ato ber,  
G'nilarg'a dag'i oni tutober.

Shah olsa dog'i qilsun toji torak,  
Qul olsa ham anga bo'lsun muborak.

Anga ishq ahlini qil orzumand,  
Aning birla alarni ham barumand.

Durrin qil ko'zlariga har zamon yosh  
Va lekin la'lu yoqutini qon yosh.

Alarg'a oshkorovu nihoni,  
Ko'z ichra ashkdek asratqil oni.

Takallum ahlig'a sarmoya ayla,  
Ne dur nazm etsalar piroya ayla.

Zamona durjini andin to'lo qil.  
Falak javfini andin imtilo qil.

Ani sindurg'on elni qil shikasta,  
Xujasta ko'rgan elga tut xujasta.

## II

*Bu shavq dostonining «alif»lari sarvqadlar bo'yidek sanubarvash  
va «lom»lari binafsha zulflar turrasi yanglig' dilkash erkoniga bois  
fehrastida Haq otidin tug'ro va debochasi Qayyumi Mutlaq sifoti bila  
mutarro erkonining bayoni'.*

Bu rangin safha, balkim dard hog'i,  
Ayon har lolasida ishq dog'i.

Tahayyur o'ti har bargi gul anda,  
Tahassur dudi har bir sunbul anda.

Qushining nag'masi hijron surudi,  
Oqar suv barcha seli ashk rudi.

Shamolig'a samumi hajr hamroh.  
Samumi hajr yo'qkim, shu'lai oh.

Butub gulbunlaridin g'unchai dard,  
Chiqib ul g'unchalardin otashin vard –

Ki, bo'lmish bu baliyatlarg'a mansub,  
Ulus ko'nglig'a andin keldi marg'ub

Ki, bo'ldi safhasining ibtidosi.  
Tazarru' birla ul Xoliq sanosi

Ki, inson ko'nglin etti gulshani ishq,  
Bu gulshanning harimin maxzani ishq.

Ne maxzan, har duri sham'i farog'i,  
Ne durr, ne sham', durri shabcharog'i.

Va lekin husn o'tin aylab jahonso'z,  
Bularni andin etti olamafro'z.

Demay o't onikim, barqi duraxshon,  
Demay barqi duraxshon, mehri raxshon.

Tulu' etti chu ul raxshanda xurshid,  
Adam shomig'a bo'ldi sham'i jovid.

Aning nuri chu partav qildi zohir,  
Bori zarrot bo'ldilar mazohir.

Quyosh ma'shuqu har zot o'ldi oshiq,  
Dema har zot, zarrot o'ldi oshiq.

Chu paydo bo'ldi bu ahbobu mahbub,  
Jahon bozori ichra tushti oshub.

Bular borini paydo aylagan ishq,  
Birin ul birga shaydo aylagan ishq.

Nedin oshiqni o'rtar shayni ma'shuq,  
Chu oshiq munda keldi ayni ma'shuq.

Ikisi balki ayni ishq, faham!<sup>2</sup>  
Tugondi borcha so'z, vallohu a'lam!<sup>3</sup>

Ajab suratki bir naqqoshi mohir,  
Bo'lur yuz nav' surat birla zohir.

O'zi naqshu o'zi manqushu naqqosh,  
Kishi bu sirni mendek qilmadi fosh.

Netay asroridin devona bo'ldum,  
Dedim, chun hushdin begona bo'ldum.

Navoiy, telbalikni bartaraf qil,  
Yana bir lahza so'z boshig'a kelgil.

Taolallo, ne Hayyu Qodiri pok,  
Ki Aqli Kull anga deb: «Mo arafnok»<sup>4</sup>.

Sifoti aql shaxsig'a solib pech,  
Chu zotin fikr etib topib o'zin hech.

Qilib chun barq zotin mazhari kul,  
Jahoni aql xoshoki bo'lub kul.

Fano to'foni eltib borin oning,  
Jahonda qo'ymayin osorin oning.

Shuhudi aql darkidin mubarro,  
Vujudi dark shu'bidin muarro.

Nishoni benishonliqdin yiroqroq,  
Makoni bemakonliqdin qiroqroq.

Azaldin behad oshib ibtidosi,  
Abaddin asru toshib intihosi.

Damekim qahri o'ti tutmay orom,  
Erib ko'k o'ylakim bir qo'rg'oshun jom.

Gahekim ilm daryosi topib mavj,  
Yeti qot yer tubi qolib to'quz avj.

Qazo Farhodi<sup>5</sup> amri rahnamuni,  
Zabun ollinda gardun Besutuni.

Yeturgonga balo tog'ida bedod,  
Laqab aylab zamona ichra Farhod.

Ani g'am tog'ida ovora aylab,  
Qiyoni teshasidin pora aylab.

Necha bo'lsa Xito<sup>6</sup> mulkida xoqon,  
Solib biymi aning bag'ri aro qon.

Badan mulkin qilib alqissa ma'mur,  
Vaziri aql Mulkorosi<sup>7</sup> ma'mur.

Ko'ngul qasrig'a bo'lg'och naqshpardoz,  
Qilibon korgohi Monuviysoz<sup>8</sup>.

Qilib hikmat xirad Suqroti<sup>9</sup> qismi,  
Yasab jon ganjiga paykar tilismi.

Ne mahvash husnig'akim berdi tazyin,  
Ani aylab jahon ahlig'a Shirin<sup>10</sup>.

Chu aylab g'amzasi jonlarg'a toroj,  
Qilib vaslig'a Xusravlarni<sup>11</sup> multoj.

Shafaq Gulgunig'a xurshed etib rang,  
Yana jul charxi atlas, Kahkashon tang.

Kecha Shabdezin<sup>12</sup> aylab tangbasta,  
Yangi oydin qilib satlig'a dasta.

Qadar Shopurin<sup>13</sup> anjumdin sadafkor,  
Anga charxu shafaq shingarfu zangor.

Ajal Sheruyasi<sup>14</sup> tig'in qilib tez,  
Qatili yuz tuman andoqki Parvez.

Nikisoyi<sup>15</sup> zamong'a chun berib soz,  
Zamona ahlin aylab ayshpardoz.

Chu tortib Zuhra<sup>16</sup> lahni Borbadni<sup>17</sup>,  
Olib Bahromvashlardin<sup>18</sup> xiradni.

O'kush Farhodu Shirin aylasang jam  
Shabistonida bir parvonau sham`.

Va gar ming Besutundek<sup>19</sup> qilsang idrok,  
Yo'lida bir kesak, hal bir ovuch xok.

Solib chun qahr istig'nosi partav,  
Kelib kam zarralardin dog'i Xusrav.

Nekim lutfi nasimi birla mavjud,  
Bo'lub qahri sharori birla nobud.

Agar mavjudu ma'dum o'lsa olam,  
Anga ijodu e'domi musallam.

### III

*Munajat' insonning adam nihonxonasidin vujud koshonasig'a kelmakda adami ixtiyoridin nishona demak va vujud shohrohidin adam xobgohig'a bormoqda vujud iztiroridin fasona aytmoq va gunoh qilurda begunohlig'in devonavor da'vo qilmoq va devona zanjirin sog'ing'ondek bu devonalig' daf'in shar' silsilasi bila raf'i kulli qilib junun uzri uchun ahli hush silsilasig'a tortilmoq.*

Hohiy, andakim yo'q erdi budum,  
Adam uyqusida erdi vujudum.

Ne ruhum gulshanidin dard paydo,  
Ne jismim tufrog'idin gard paydo.

Vujudimda anosir band topmay,  
Tanim ichra so'ngak payvand topmay.

O'tumda yo'q tiriklik mehri tobi,  
Suyum yo'qluq biyoboni sarobi.

Bo'lunmay tufrog'im gardi fanodin,  
Nasime yo'q vujudumda havodin.

Ne tan, ne tanda bosh, ne bosh aro ko'z,  
Ne yuz, ne yuzda lab, ne lab aro so'z.

Ne jonu anda ne yuz dardi jonso'z,  
Ne ko'ngul, ne anga ming neshi dildo'z.

Nechukkim yo'q ko'ngul yo'q g'amdin ozod,  
Bo'lub yo'q jon dog'i yo'q qayg'udini shod.

Vujud ichra yo'q oloyish alarg'a,  
Adam kunjida osoyish alarg'a.

Borin ul uyqudin uyg'otting oxir,  
Yig'ibon bir-biriga qotting oxir.

Bu yo'qlarg'a yo'q erdi rasmu roye,  
Ne imkon xudkim o'lg'ay muddaoye.

Borisin bir-biriga band qilding,  
O'kush hikmat bila payvand qilding.

O'zung surdung raqam topqoch bu noma,  
Shaqiy yoxud said erkonga xoma.

Nasib etting ani qilg'onda jonliq,  
Tuman ming ajz birla notavonliq.

Rahm ichra g'izo ham ulki ma'lum,  
Havoyi dilkusho ham ulki ma'lum.

Bu zindondinki jismin ranja aylab,  
Chiqording yuz tuman ishkanja aylab.

Qilib hissu quvodin oni ma'yus,  
Ham etting mahd zindonida mahbus.

Etib besh-olti qatra sutga muhtoj,  
Ul o'lsa to'q, agar ul bo'lmasa och.

Och o'lsa yo'q tili istarga ma'kul,  
Bo'lub o'z holig'a yig'larg'a mashg'ul.



To'q o'lg'ach daf'ig'a yo'q aqli yori,  
Ne ul quvvatki bo'lg'ay ixtiyori.

Ishi Majnun kibi band ichra topok,  
Agar doya yumay jismini – nopok.

Ne man'i nola g'avg'osig'a oning,  
Ne satri avrat a'zosig'a oning.

Necha yil ranju mehnat sondin ortuq,  
Ne deyim, har ne desam ondin ortuq.

Bu san'atlar qilib olamg'a sotting  
Kim, oni odami xaylig'a qotting.

Bu yerga tegrukim bo'ldi shumori,  
Anga yo'q erdi hech ish ixtiyori.

Bu holat ichra tutmay oni ma'zur,  
Yana qilding necha amringg'a ma'mur.

Bu ishdur turfakim egriyu gar rost,  
Qo'ya olmas qadam bo'lmay sanga xost,

Ki gar egriyu gar rost kilki taqdir,  
Azalda aylamish ollig'a tahrir.

Sanga ul kotib ilgida qalamdek,  
Qalam no'gi aro balkim raqamdek.

Raqam chekmakka kotib yo'nsa xoma,  
O'shul damkim qilur tahriri noma.

Shuuri bormu ilgida qalamning,  
Va yo ul xoma no'gida raqamning.

Gar ul tahrir xatdur, gar nuqatdur,  
Bilur kotibki tuzdur yo g'alatdur.

Shuuri yo'qlug'i basdur guvohi,  
Ki bu ishda qalamning yo'q gunohi.

Anga bas yo'q edi bu benavolig',  
Qalamdek sarnigunluq yuz qarolig'.

Ki har qilg'ong'a hujjat ham tutarsen,  
Bu hujjat ichra diqqat ham tutarsen.

Berursen goh anga do'zax bila bim,  
Qilursen goh jismin o'tqa taslim.

Bu so'zni tutmasang, yo Rab, musallam,  
Yana bor turfaroq mundin so'zum ham.

Azal subhida malhuzungni keltur!  
Arog'a «Lavhi mahfuz»ungni keltur!

Ne qilg'on ish gar ermas anda maktub,  
Nekim qilsang erur adlingg'a mahsub.

Va gar ul lavh uza bo'lsa muharrar,  
Azal taqsimidin bo'ldi muqarrar.

Ne dersen bas bu jam'i benavog'a!  
Gunohe qilmayin qolg'on balog'a!

Navoiy, xomadek tortib uzun til,  
Ne dersen, oxir o'z haddingni bilgil!

Dame yo'q yova ayturdin qaroring,  
Junun ilgingdin olmish ixtiyoring.

Junun zanjirig'a pobast senmu?  
Agar majnun emassen, mast senmu?

Necha devonalig' Farhod yanglig',  
Chekib til teshai po'lod yanglig'.

Qaro tilni demakdin bir zamon chek,  
Desangkim bormag'ay boshing qalamtek.

Qalam surma bu nav' afsonalarg'a,  
Agarchi yo'q qalam devonalarg'a.

Junundin so'zga bir dam bo'lmay ogoh,  
Gar ortuq so'z dedim: astag'firulloh.

Ilohiy, boqmag'il majnunlug'umg'a,  
Karamdin chora qil mahzunlug'umg'a.

Yuzum sarg'ortibon nomam qarosi,  
Qarortib nomani xomam qarosi.

Inoyat aynidin xomam sari boq.  
Qizil ayla yuzum, nomamni ham oq.

Yuzum lutfung suyidin toza qilg'il,  
So'zum ko'sin baland ovoza qilg'il.

Mayi nutqum tarabxez ayla, yo Rab,  
Nayi kilkim shakarrez ayla, yo Rab.

Ketur ilgimga dog'i jomi tavfiq,  
Yetur ko'nglumga dog'i rohi tahqiq.

So'zum rohin qilib ravshan safodin,  
Shafobat jomi yetkur Mustafodin.

#### IV

*Ul quyosh ruxsori vasfidakim, tun kibi gisu quyoshig'a soya soldi va «Vash shams» bila «Val layl»<sup>1</sup> surasini aning yuz quyoshi bila zulfi tuniga o'xshatilg'onidin har biri bir biyik poya oldi, agarchi ul quyoshqa soya yo'q erdi va ul kechaga manzil quyosh ustida-o'q erdi. «Va sallallohu alo shamsi jamolihi va zilli kamolihi»<sup>2</sup>.*

Muhammad «kofu», «nun»g'a<sup>3</sup> qurratul-ayn<sup>4</sup>  
Tufayli kavn o'lub, yo'q-yo'qki, kavnayn<sup>5</sup>.

Nubuvvat kishvarining taxtgiri,  
Risolat taxtining sohib sariri.

Saririg'a to'quz aflok o'lub farsh,  
To'quz aflokni qo'yg'il, degil Arsh<sup>6</sup>.

Solib ham Arshu ham Kursiyga<sup>7</sup> soya,  
Bo'lub Kursiy aning taxtig'a poya.

Dema soya, degilkim zilli ra'fat,  
Ne zillu qaysi ra'fat, nuri rahmat.

Chu ul Haq zilli bo'lmoq poya topti,  
Qachon soya, o'ziga soya topti.

Yuzi gisuni chun piroya aylab,  
Ul oqshom kun yuziga soya aylab.

Ayog'in o'pgali gar tushti gisu,  
Bo'lur doim charog' osti qarong'u.

Muanbar zulfidek kam soya bo'lg'ay,  
Ki ul xurshedg'a hamsoya bo'lg'ay.

Gul uzra sunbuli ochmoq ajabdur,  
Quyoshqa soya chirmoshmoq ajabdur.

Chu aylab halqalar ul zulf paydo,  
Bo'lub mehr uzra kavkablار huvaydo.

Vayo ul Mushaf<sup>8</sup> uzra kilki taqdir,  
Qilib arsh o'rnig'a anjumni tahrir.

Emas mehr uzra kavkab – qil taammul,  
Yuzi gulzori ochmish har taraf gul.

Bo'lub ruxsorig'a har sori gullar,  
Jelilik barcha gardanbasta gullar.

Demon gul bandasidur bo'yni bog'lig',  
Gadoyedur to'ni haryon yamog'lig'.

Quchoq birla tikan basdur kamohi,  
Gadoliq tavrida oning guvohi.

Qadi xam bo'ldi go'yo bu mihandin,  
To'ni yirtug'lari ham bu tikandin.

Tikan bo'lmoqta a'dosig'a xunrez,  
Qilib Bathoda' no'gin xomadek tez.

Gar ilgi xoma sori qilmayin mayl,  
Qo'yub xattig'a boshin yuz tuman xayl.

Necha choki giribon qildi xoma,  
To'kub ashkini afg'on qildi xoma.

Ochib og'zin qilay deb dastbo'si,  
Muyassar bo'lmayin bu orzusi.

Chu bu davlatqa bo'lmay komron ul,  
Qaro og'riqqa bo'ldi notavon ul.

Dema noleki sihat topmayin hech,  
Tushubtur rishtai jonig'a yuz pech.

Emas tirnog'i uzra xoma gar shaqq,  
Bo'lub barmog'i no'gidan qamar shaqq.

Ilik tig'inki tortib fil-ishora,  
Qamar qolqonin aylab ikki pora.

Bo'lub qursi mahi tobonni ikki,  
Kishi andoqki bo'lg'ay nonni ikki.

Qilib chun ro'za ko'nglin nong'a moyil,  
Iki bo'lg'ach topib kom ikki soyil.

Yemak komini ko'nglidin yo'q aylab,  
Malakdek zikr ila ko'nglin to'q aylab.

Kavokib oyig'a devona oning,  
Maloyik sham'ig'a parvona oning.

Munga devonalig' solib taku toz,  
Anga parvonalig' har sori parvoz.

Chu shar'i shorii xattin qilib fosh,  
Ayoq andin chiqorg'on topmayin bosh.

Bu xatdan tosh angakim po'ya etmak,  
Yugurmak birla yo'q manzilg'a yetmak.

Qo'yar assor uyi chun egri gomin,  
Yo'l etmas qat' tez aylab xiromin.

Yo'lida egrilar assor uyidek,  
Yarab o'lturgali parvor uyidek.

Bu shori' birla topqon yo'l yaroqi,  
Yetib manzilg'a andoqkim Buroqi.

V

*Ul shahsuvor vasfidakim, qarong'u tunda tiyra xokdondin Buroqi  
barqvash uzra chiqqoni «Minaz-zulumoti ilan-nur»<sup>1</sup> din muxbir erdi,  
balki ul rokiibning pok zoti ostidag'i pok oti, bila «nurin alo nur»<sup>2</sup> din  
xabar berdi va bu nurlar malakut shabistonini munavvar va  
malak bo'stonini rashki sipehri axzar qildi.*

Ul aqshomkim, yuziga lu'batlari Chin,  
Yeshib marg'ula yoydi zulfi mushkin.

Nasim ul mushk isin butrotti har yon,  
Havo ra'nolarig'a sotti har yon.

Yoshundi mushk ichinda Chin g'azoli,  
Dema Chinkim, falak zarrin g'azoli.

Qayu zarrin g'azola, turki chin de.  
Qaro tufroqqa kirgon mahjabin de.

Quyosh so'gi ishi kirgach arog'a,  
Falak lu'batlari kirdi qarog'a.

Ne so'gu ne qaro. iqbol shomi,  
Jahonning asru farruxfol shomi.

Bo'lub har shabnami Nohid<sup>3</sup> yanglig',  
Yorub har axtari xurshid yanglig'.

Yorug‘luq muncha yo‘q anjumg‘a maqdur,  
Ochib ruxsori sham‘in yuz tuman hur.

Bu aqshom ul charog‘i olamafro‘z,  
Ichinda vasl sham‘i o‘tidin so‘z.

Solib bir go‘shada partav nihoni  
Kim, aylab mizbonlig‘ ummahoniy

Ki, yetti ul baridi homili roz,  
Qo‘linda bir Buroqi barqparvoz.

Biri payki nazardin tezdavroq,  
Biri raxshi gumondin garmravroq.

Yetishgach payk sharhi hol qildi,  
Haq istid‘osini irsol qildi:

«Ki yetsun olam ahlidin nihoni,  
Muhib sarvaqtig‘a mahbubi joni».

Bu so‘z mahbub eshitgach lol bo‘ldi,  
Navidi vasldin behol bo‘ldi.

Qo‘pub ot uzra andoq sekridi bot  
Ki, hayron qoldilar ham payku, ham ot.

Ham avval hamla raxshi barqxo‘din,  
O‘tub tufroqu elu o‘tu sudin,

Qamarg‘a chun xiromi tavsan aylab,  
Yuzi xurshedi oni ravshan aylab.

Atorud<sup>4</sup> bodpoyidin bo‘lub shod,  
Berib avroqu ajzosini barbod.

Yeturgach Zuhraga davlat rikobi,  
Dafin yirtib qudumi ehtisobi.

Quyoshqa chun surub gardun xiromin,  
Uyotdin yer quyi aylab maqomin.

Chopib Bahromg'a raxshin chu yakсар,  
Bo'lub ul Nahsi Asg'ar Sa'di Akbar.

Tushub chun Mushtariy<sup>s</sup> sori mururi,  
Quyoshni yoshurub har lam'a nuri.

Qolib yettinchi qo'rg'on posboni,  
O'tub chobuksuvori osmoniy.

Kirib chun sekkizinchi toram ichra,  
Topib har dam o'zin bir olam ichra.

Hamal mongrab qo'yub Savr olida bosh  
Ki, bo'lsak ikkimiz qurbon sanga kosh.

Tarab aylab damo-dam ikki paykar,  
Qo'yarg'a ollida boshin mukarrar.

Topib quvvatlig' andoq necha Xarchang  
Ki, tortib panjasidin sheri nar chang.

Tutub mahsuli hirzin xo'sha xirman,  
Chayong'a Kaffaning ostida maskan.

O'zin qoshig'a chun qurbon qilib yo,  
Qilib Jady anga shoxu pay muhayyo.

Dema Dalv ichra suvkim, kavsari roh.  
Topib Hut o'zni ul bahr ichra timsoh.

Bulardin chun biyik tortib amori,  
Savobit durlarin aylab nisori.

Alardin yuqoriroq chun qilib mayl,  
O'pub yo'lin maloyik yuz tuman xayl.

Qanot birla yo'li gardin qilib pok,  
Bu yeldin qolmayin ul yo'lda xoshok.

Berib chun Arshqa zoti tafoxur,  
Bo'lub Arsh afsar, ul afsar uza dur.



Chu Kursi to'ridin piroya topib,  
Biyik Lavhu Qalamdek poya topib.

Yuqorrog ko'rguzub chun raxshi novard,  
Chiqorib lomakon maydonidin gard.

Tushub andin biyik chun ittifoqi,  
Borib andoqki tebranmay Buroqi.

Samandin tashlagach ul ma'naviy ganj,  
Samandidek tutub paykin dog'i ranj.

Quvonib poybo'si birla Rafrat,  
Maloyik yer o'pub ollida saf-saf.

Etak silkib, ayoq tortib boridin,  
Qo'yub yuz benishonliq har soridin.

Etak yengdin ilik tortib ayoq ham,  
Ayoq birla ilik borib qiroq ham.

Tanidin to'rt gavhar naqshi borib,  
Bo'yi olti jihat to'nin chiqorib.

Demakim to'rtu oltidin mubarro  
Ki, beshu ikkidin dog'i muarro.

Chiqorib o'zlugi tufrog'idin gard,  
Ne o'zlukkim, o'zidin ham bo'lub fard.

Makoni bo'lmayin juz bemakonliq,  
Nishoni qolmayin juz benishonliq.

Chu qolmay ne nishoni, ne makoni,  
Topib maqsad makonidin nishoni.

Nasimin zohir aylab vasl bog'i,  
Topib maqsud isi yo'qlug' dimog'i.

Chekib dam ajdahoyi ganji maqsud,  
Yugurtub aylabon budini nobud.

Chu qildi jilva shodurvoni vahdat,  
Nasimi vasl ochib domoni vahdat.

Inoyat ilgi olamdin nihoni,  
Harimi vahdat ichra chekti oni.

Supurgach «Mo tag'os»<sup>7</sup> tufrog'in ul bog',  
Chekildi nargisiga kuhli «Mo zog'»<sup>8</sup>.

Anga bu surma bo'lg'och qurratul-ayn,  
Nasib o'ldi maqomi «qoba qavsayn»<sup>9</sup>.

O'zin gum aylabon, lekin topib Haq,  
Ko'runmay kimsa Haqdin ayru mutlaq.

Vujudi ko'rmadi juz Haq vujudi,  
Tuzuldi Haq kalomidin surudi.

Surudi nag'mau lahni kamohi,  
Shafolat aylamak ummat gunohi.

Chu aylab Haq tilidin ul shafolat,  
Bo'lub ham Haq javobidin ijobat.

Topib chun vasl etib mundoq havas ham,  
Havas qilg'ang'a topib dastras ham.

Yonib chun muncha mulku hashmat olib,  
Tani yonib va lekin joni qolib.

Borurda qolibi xokini tortib,  
Kelurda ruh aflokini tortib.

Bo'lub borg'onda durri loyiqi toj,  
Vale qaytib nechukkim bahri mavvoj.

Yonib gulshan agarchi g'uncha borib,  
Ko'z ochquncha kelib, yumg'uncha borib.

Borib kelmokligi darki qilinmay,  
Burunmu bordi, yo keldi bilinmay.

Ilohiy, bu nubuvvat toji haqqi,  
Aning bu sur'ati me'roji haqqi,

Kim andoqkim tilab ummat gunohin,  
Sen etting afv alar fe'li tabohin.

Navoiyni demay, bir benavoni.  
O'kush jurmu gunahg'a muhtaloni

Aning ummatlig'ig'a qobil ayla,  
Shafokat qilg'on elga doxil ayla.

Gar elga bahri g'ufroning havasdur,  
Chu ul xasdur, anga bir qatra basdur.

## VI

*Qalam vasfida bir necha qalam surmak va ul raqamkash ta'rifi  
raqamg'a keturmakki, nazm kishvari savodin yakqalama qilib erdi va  
«Panj ganj»<sup>1</sup> avroqig'a gavharposh raqami tortilib erdi va ul roqim  
bobida hamki munung xatti ma'nisin raqam-baraqam bildi, balki  
qalam-baqalam naql qildi. «Bayyazallohu taolo avroqa jaroyimih»<sup>2</sup>.*

Qalamkim rahnavardi teztakdur,  
Azaldin manzili favq ul-falakdur.

Magar vahm adhamidur tez raftor,  
Ne adham, jardai Shabdez<sup>3</sup> raftor.

Chiqib ustiga barmoq shahsuvori,  
Bo'g'un belbog'iyu tirnoq-uzori.

Choparda quyrug'in aylab alam ul,  
Qulog'idek ayog'din-bosh qalam<sup>4</sup> ul.

Dema Shabdez, bir qushdur xushovoz.  
Qanotsiz aylabon har sori parvoz.

Shaba minqoridin har sori zohir,  
Valekin ul shaba sochib javohir<sup>5</sup>.

Ne qushkim, qushda yo‘q bu nav’ jismi,  
Hakimi sun’ oni aylab tilismi.

Tanig‘a za‘f g‘olib, ko‘rmayin ranj,  
Vale javfi‘ aro yuz ma‘naviy ganj.

Aning bu ganjidan topmay kishi kom,  
Nechukkim ganjposhi Ganjaorom<sup>7</sup>.

Agarchi Ganjada oromi oning,  
Vale ganj uzra doim gomi oning.

Ko‘ngul kunjin qilib ganji maoniy,  
Og‘iz avvobi savtidin nihoni.

Iki labdin eshiklar aylabon ul  
Ki, har kim topmag‘ay ul ganj aro yo‘l.

Vale me‘mori hikmatsozi oning,  
Burundin qildi sangandozi oning.

Angakim o‘g‘riliq rasmin qilib fosh,  
Yetib aflok sangandozidin tosh.

Yog‘ib chun toshi har yon oshkoro,  
Topib ahbob – gavhar, xasm – xoro.

Otay deb xora, ganj og‘zini ochmay,  
Vagar ochib, ne gavharlarki sochmay.

Tutub gavharlari yaksar jahonni,  
Nechukkim xayli axtar osmonni.

Yo‘q, ul gavharki chun tuproqqa qolg‘ay,  
Ayog‘ ostig‘a chun qolg‘ay, usholg‘ay.

Aningdek gavharekim, jilva chog‘i,  
Muzayyan bo‘lg‘ay andin el qulog‘i.

Ne ul ziynatki osilg‘ay quloqtin,  
Vagar ochilsa ayrilg‘ay quloqtin.

Durekim, chun quloqni qildi maskan,  
Kirib qilg'ay ko'ngul durjini maxzan.

Ko'ngul durjin demay bo'lg'ay labolab —  
Kim ul daryoga solg'ay durni to lab.

Kim ul gavhardin olsa xalq har dam,  
Yuz ilda bo'lmag'ay mingdin biri kam.

Kishi mundoq bo'la olmay guharrez,  
Magar ul hinduyi zodi\* shakarrez.

Ne hindu, to'tii shirin maqol ul,  
Ne to'ti, bulbuli sho'ridahol ul.

Tushub olamg'a to'tidek bayoni,  
Yetib gardung'a bulbuldek fig'oni.

Bo'yig'a nazm solg'on hulla axzar,  
Dema to'ti, degil Xizri<sup>9</sup> payambar.

Aning zulmoti Hindustoni oxir,  
Ravon so'z chashmai hayvoni<sup>10</sup> oxir.

Agar bulbul desang, Hinduston — tun,  
Qaro zulmat dema, anbarfishon tun.

Bu andoq tun aro shabxez bulbul,  
Shabiston ichra sho'rangez bulbul.

Dema bulbul, de oni qaqnusi<sup>11</sup> zor,  
Topib lahnidin oning qaqnus ozor.

Agar qaqnus chekib yuz nola jonso'z,  
Anga ming nola o'qi borchadildo'z.

Dema o'q, balki har bir barqi ohi  
Ki, sekrib o'rtabon mah to ba mohi<sup>12</sup>.

Solib yuz shu'la har dam xirmanig'a,  
O'zining yo'qki, olam xirmanig'a.

Maoniy bahrig'a anfosidin mavj –  
Ki, ul mavj ostig'a qolib to'quz avj;

Takallum rishtasig'a nazmidin dur,  
Falak bahrig'a ul durdin tafoxur.

Savodi nazm anga abri bahori,  
Bo'lub el boshig'a gavhar nisori.

Sarosar ul bulut gavhar arodur  
Ki, naysoniy bulut yanglig' qarodur.

Savodi demakim, mushkin sahobi,  
Bo'lub har qatra anda durri nobi.

Bu durrkim vasfi sig'may so'zga hargiz,  
Latofatdin ko'runmay ko'zga hargiz.

Tili durrrposh, o'zi pokiza gavhar –  
Xiroji mulk, yo'qkim reza gavhar.

Ne gavhar, balki ilmu fazl koni,  
Dema konkim, degil ko'hi maoni.

Emas gar tog', bas shiddat qilib big',  
Netib gardung'a har dam yetkurub tig'.

Emas oson bu maydon ichra turmoq,  
Nizomiy panjasig'a panja urmoq<sup>13</sup>.

Tutaykim qildi o'z changini ranja,  
Nekim urdi aning changiga panja.

Kerak sher ollida ham sheri jangi,  
Agar sher o'lmasa, bori palangi.

Yo'q ersa jam' bo'lsa borsdek yuz,  
Alardin hosili yo'q, g'ayri puf yuz.

Agarchi yeldin ermas bahrg'a bok,  
Vale ming chok o'lur chun bo'ldi ko'lok.

Tegar daryog'a sarsar qo'zg'aloni,  
Vale har yel esib chayqatmas oni.

Nizomiy erdi andoq pili volo  
Ki, chekti ganju gavhar pili bolo.

Kerak ham pil erur, bu nukta ma'lum  
Ki, solg'ay pil xartumig'a xartum.

Agarchi pashshaning xartumi ham bor.  
El ozorig'a neshi shumi ham bor.

Chu surtar pil xartumini darham,  
Bo'lur zaxmig'a yuz ming pashsha marham.

Bukun ul pilu bu hindu erur bil,  
Kichikrak bo'lsa ham, lekin erur pil.

Kichik gar ersa el andeshasidin,  
Erur Hindustonning beshasidin.

Alo to abri nayson zinda pili,  
Kiyar bargustvon charxi nili.

Bu ikki pilni g'ufronparast et,  
Mayi rahmatdin ikki pilni mast et.

Navoiyg'a dag'i shavkat yeturgil,  
Bu ikki pildin quvvat yeturgil.

Ki, bo'lsun bu iki pili zamondek,  
Qayu pili zamon, pili damondek.

Ki, topib mast bo'lmoq peshasin ul,  
Musaxxar aylasun so'z beshasin ul.

Kel, ey soqiyki<sup>14</sup>, tushmish jonima jo'sh,  
Ketur bu iki yodi birla bir qo'sh;

Alar ishqida no'sh aylab iki jom,  
Tutay Jomiy<sup>15</sup> mayi madhin saranjom.

VII

*Hazrati shayxul-islomiy mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy  
(modda zillahu) madhidakim bu labtashnai vodiyi hayratqa muningdek  
ma'ni bodasining jomi aning himmati mayxonasining suvchilaridin  
dam-badam to'ldi va aning duosi piyolasining soqiylaridin labolab bo'ldi'.*

Iki pil o'lsa Xusrav yo Nizomiy,  
Erur yuz pil chog'lig' pil Jomiy.

Muhabbat jomi durdoshomi uldur,  
Hamono Zindapili Jomi<sup>2</sup> uldur.

Ko'rub sarmasti jomi vahdat oni,  
Demishlar Zindapili hazrat oni.

Chu ul may durdidin bo'lmish xuro'shi,  
Safo ahlidur oning durdno'shi.

Mayi tahqiq etar holatda oshom,  
Chekib lojur'a gar gardun erur jom.

Bo'lub zohir fano timsoli andin,  
Tutub olamni olam xoli andin.

Fano ul nav' etib nafyi vujudi<sup>3</sup>  
Ki, yer topib nabud o'rnida budi.

Bo'lub andoq fano dashtida ma'dum  
Ki, sayri shohrohi xatti mavhum.

Bu xatqa nuqtakim mavjud emastur,  
Xirad ollinda juz nobud emastur.

Fano mulkida jismi o'yla foni  
Ki, fahm aylab savodi a'zam oni.

Jahonni kim qila olg'ay tavahhum  
Ki, bo'lg'ay nuqtai mavhum aro gum.

O'zin xud bir jahoni begaron bil,  
Kamolotin o'zidek bir jahon bil.



Jahon ichra jahonkim topti muknat,  
Solib iki jahon<sup>4</sup> ahlig<sup>a</sup> hayrat.

Jahon yo<sup>q</sup>, olami kubro<sup>5</sup> de oni,  
Jahonda maqsadi aqso<sup>6</sup> de oni

Ki, harne olami sug<sup>7</sup>roda mavjud,  
Bori bu olami kubroda mavjud.

Boshikim tark tojiddin barumand,  
Bo<sup>8</sup>lub tojig<sup>a</sup> gardun tugma monand.

Libosi faqri kengrak yuz jahondin,  
Jahon silki kelib bir rishta ondin.

Zamiri lujjai zaxxori ma<sup>9</sup>ni,  
Kalomi gavhari shahvori ma<sup>9</sup>ni<sup>8</sup>.

O<sup>10</sup>zi daryo, so<sup>10</sup>zi durrdek muhayyo,  
Yana ma<sup>10</sup>nidin ul durr ichra daryo.

Kelib daryonasab, gavharhasabliq,  
Ishida necha boqsang bulajabliq.

Qalam bahri kafida turfa ishdur,  
Magar daryo aro butgan qamishdur.

Ajab ermas qamish bo<sup>11</sup>lmoq shakarrez,  
Va lekin bu qamish bo<sup>11</sup>lmish guharrez.

Uchidin ham guhar olamg<sup>a</sup> sochib,  
Ichidin ham shakar do<sup>12</sup>koni ochib.

Sarosar go<sup>13</sup>yiyo ul nay guhardur,  
G<sup>13</sup>alat qildim, labolab nayshakardur.

Og<sup>14</sup>izlar ichra lazzat shakkaridin,  
Quloqlar ichra ziynat gavharidin.

Qulog<sup>15</sup>ni bu guhar farsuda qilmay,  
Og<sup>15</sup>izni ul shakar oluda qilmay.

Shakar ul nav' topmay komi idrok,  
Guhar bu tavr kelmay ravshanu pok.

Alo, tokim, guhar serob bo'lg'ay,  
Shakarning shirasi jullob bo'lg'ay.

So'zin tut gavhari koni maoni,  
Shakarjulloblig'din asra oni.

Navoiykim muridu bandasidur,  
Irodat yo'lida afgandasidur.

Hamul gavhar bila ko'nglin yorutqil,  
Hamul shakkar bila komin chuchutqil.

Kalomin ul guhardek ayla rangin,  
Hadisin ul shakardek ayla shirin.

Keturgil, soqiy, ul jomi kiromiy  
Ki, tutsun rindlar sarxayli Jomiy.

Chu piri dayr may qildi havola,  
Icharmen gar erur gardun piyola.

## VIII

*Bu parishon ajzoningki, guli otashin avroqidek dahr gulistoni bulbullarini  
hazordaston bila o'tluq faryodg'a soldi — bargidin shu'la va xurdasidin  
sharora ko'rguzmoqiga bois ne bo'lg'ong'a qalam surmak va bu oshufta  
avroqningki, charxi barin ajzosidek jahon dashti majnunlarini ming balog'a  
doston qilib so'znok fig'ong'a uchratti — shafaqidin yolin va axtaridin  
axgar yorutmog'ig'a mujib ne erkanni raqam urmoq va o'zin bulbuli  
Majnundek gulrux Laylisi firoqig'a solib g'am tog'ida Farhod  
bila hamovoz qilmoq.*

Musha'bid charx aro har sehrsoze  
Ki, bir tug'rog'a naqsh etgay tiroze.

Agar ul paykar o'lsun zisht yo xo'b,  
Va gar makruh bo'lsun, yo'qsa marg'ub

Ki, gar avval anga etmas taammul.  
Zamir avroqida qilmas taxayyul.

Shuru' etmakligi imkon emastur.  
Xirad ollinda bu pinhon emastur.

Yana bir buki hech ish hodis o'lmas  
Biravgakim anga bir bois o'lmas.

Mangakim bu tamanno bo'ldi paydo  
Ki, shavqi ayladi ko'nglumni shaydo.

Durru gavhar xayolin jong'a soldi,  
Munungdek bahri bepoyong'a soldi.

Buyurdi solmoq ochib pechu tobin,  
Falak burjig'a o'rgamchi tanobin.

Balo tog'ig'a zo'r izhori birla,  
Keturmak naqb qoqum xori birla'.

Qalam bargu guli nasring'a surmak,  
Raqam Farhod ila Shiring'a surmak.

Munga dog'i zarur erdi taaqqul.  
Chiqormoq bir tikandin yuz tuman gul.

Zaruriy bo'ldi avzoig'a tag'yir<sup>2</sup>  
Ki, dilkash bo'lg'ay ushbu safha tasvir.

Yana bois bukim, ishq balosho'r,  
Bir o'tdin aylab erdi jonima zo'r<sup>3</sup>.

Tilim xud bor aning ta'rifida lol,  
Qilay xomam tilidin sharhi ahvol.

Hazin jonimda bor erdi baloye,  
Balolig' ishq ila har yon havoye.

Birov ishq solib jonimg'a anduh,  
Mashaqqat toshi yuklab ko'h to ko'h.

Bo'lub zulmi o'tidin xasta jonim,  
Qarorib dudi birla xonumonim.

Birov yo'q, kofiri qotilnihode,  
Parivash, devzulme, hurzode.

Ko'zining kufridin yuz jong'a ofat,  
Tuman ming kishvari imong'a ofat.

Sipohi zulm ila chun kelturub zo'r,  
Jahon mulkiga solib g'orati G'o'r.

Ko'zi solg'och ko'ngul kunjig'a oshub,  
Bo'lub kirpiklari sabru xiradro'b.

Tushub olam aro g'avg'osi haryon,  
Jahon mulkida vovaylosi haryon.

Farang ahlida zulmining fig'oni',  
Xitou Chinda javri qo'zg'aloni.

Shafaqgun may sori chun qo'l uzotib,  
Chu axsumlab quyosh jomin ushotib.

Kelib ul bo'lg'och el qatlig'a moyil,  
Ajral tig'u kafan aylab hamoyil.

Chu bog'lab bodpo javlonig'a bel,  
Falak avroqin eltib har taraf yel.

Junundin aqlkush, bal durdkash ham,  
Pari ruxsora, bal devonavash ham.

Meni mahzunni ishqiq barqraftor,  
Ul ofat o'tig'a aylab giriftor.

Falak zulm aylabon men muftalog'a  
Ki, aylab muftalo andoq balog'a.

Ichimni dard etib mahzun aningdek  
Ki, mahzun bo'lmag'ay Majnun aningdek:

Bo'lub vayrona ko'nglum g'am qushidin,  
Malomat toshi yog'ib to'sh-to'shidin.

Junun ko'nglumni dashti g'amg'a solib,  
Ne g'am, har lahza bir olamg'a solib.

Ne mahzun xotirimg'a vasli mumkin,  
Ne hajrida o'tum bir lahza sokin.

Bor erdi dard qotil, ishq bebok,  
Bulardin tandroq ma'shuqi cholok.

Vafosiz, tab'siz noahl ango xush,  
Vafo ahli bila bittab' noxush.

Malak xayli yesa ashkim uchun rashk,  
To'kubon ul pari har dev uchun ashk.

Sirishkim ishqida gavhar shamoyil,  
Vale ul badguharlar sori moyil.

Netay, ming zebu ziynat birla tovus  
Ki, bo'lg'ay hamnishini bumi manhus.

Bir oykim bo'lg'ay ul solib manga dard,  
Jahonpaymou harjoiyu shabgard.

Manga aylab g'amu mehnatni munis,  
O'zi har uyda bo'lg'ay sham'i majlis.

Olib anjum kibi sabru qarorim,  
Qaro aylab kechadek ro'zgorim.

Chu mundoq necha mushkil uzra mushkil,  
Manga yuzlandi tahqiq o'ldi hosil.

Ki, gar hikmat bila fikri mufidi  
Qilinmas, yo'qturur jondin umidi.

Ko'ngul ishq ahlig'a ming pora xushtur,  
Chu ma'shuq ahl emastur, chora xushtur.

Bu g'amin menda qolmay aqlu hushe,  
Bu nav' etti nido nogah surushe<sup>5</sup>

Ki, ey kunji malolatning xumuli,  
Tushub dardu balo ko'nglung qabuli.

Chu sen mundin burun xomang qilib tez,  
Suman bargini qilding sunbulomez,

Nechukkim Xizr zulmatdin nihoni,  
Ulusqa sochting obi zindagoni.

Yasoding ravzai zarkor tarhin,  
Chiqording «Hayrat ul-abror» tarhin<sup>6</sup>.

Xaloyiqqa sochib durri saminlar,  
Maloyikdin eshitting ofarinlar.

Agarchi ayturida ranj topting,  
Vale ko'rkim ne yanglig' ganj topting.

Necha kun kimsa ko'rgan birla ranji,  
Kiyursa ilgiga ul nav' ganji.

Ki, bo'lg'ay anda yuz ming durri raxshon,  
Durri raxshon kibi la'li Badaxshon.

Qizil oltun sarig' zirnixdin kam,  
Kumush qadri qaro tuprog'din ham.

Qo'yub muncha nuqudu ganji shohi  
Ki, andin yorubon mah to ba mohi.

Topib bir qalb siymu aylabon but,  
Anga yo'q toshu durr ichra tafovut.

Debon gohi buti siyminbar oni,  
Zamone lu'bati mahpaykar oni.

Uyolmay Haqdin aylab qiblagohing,  
O'tub aflokdin ishqida ohing.

Bu dunyoda seni zor aylabon ul.  
Qiyomatda giriftor aylabon ul.

Bo'lub dunyou dining jahldin hech.  
Kel etma jahlu mundoq jahldin kech.

Ushotib butni, imon ganji topqil,  
Qo'yub bu jahl, irfon ganji topqil.

Chu but sindiyu kufrung yelga berding,  
Musulmon bo'ldung ar xud kofir erding.

Qo'yub vayronalarda telbalikni<sup>7</sup>,  
Yana bir ganj sori sun ilikni.

Yana bir konni qazmog'liqqa mayl et,  
Qazib ahbob aro naqdin tufayl et.

Bu kon qazmoqni ulkim qildi pesha,  
Kerak xorofikan ilgida tesha.

Sanga bu teshavarlik bo'lsa matlub,  
Erur Farhod hamsuhbatlig'i xo'b.

Bu kon ishqida teshang xorarez et,  
Ani Farhod toshi birla tez et.

Qo'pub Farhod birla hammasof o'l,  
Itik metin bila xoroshikof o'l.

Bu ishda ne tayan bir lahza, ne tin,  
Yetur metinining o'rnig'a metin.

Agar Farhod o'ldi ko'p chekib ranj,  
Sanga Haq bergay o'lmasdin burun ganj.

Navo topib bu yanglig' ganjdin ham,  
Xalos o'lg'aysen andoq ranjdin ham.

Hazin Farhod shug'lin ayla shirin  
Ki, topqaysen nigore o'yla Shirin

Ki, ul Shiring'a bu yondoshsa bir dam  
Aning shirinlig'idin kelmagay kam.

Bo'lub ul ganj surat dilfiribing,  
Yetib ham ganji ma'nidin nasibing.

Qayu ganj, ulki olding beshidin bir,  
Ikinchisin olurg'a ayla tadbir<sup>4</sup>.

Erur sendin talab, bizdin hidoyat,  
Gadolig' sendinu bizdin inoyat.

Chu hotifdin<sup>9</sup> yetishti bu navidim,  
O'zumdin o'zga nav' o'ldi umidim,

Qo'yub vasvosu savdolarni bir yon,  
Yetishtim pir<sup>10</sup> dargohig'a giryon.

Tushub tuprog' ichiga zoru mahjur,  
Ko'zum chun topti ul tuprog'din nur.

Sipehr ollinda andoqkim ovuch xok,  
Va yoxud to'bi atrofida xoshok.

Demakka arzi holimni uyolib,  
Shukuhi jismima titratma solib.

Ko'rub tuprog'da ul mehri jahontob,  
Meni titratmadin andoqki simob.

Kulub chun subh mehr izhor qildi,  
G'amim shomini subhosor qildi.

Dedi: holing nedur, sharh ayla bir-bir.  
Chu so'rdi, daf'a-daf'a tushti taqrir.

Chu bo'ldi borcha ahvolimg'a voqif,  
Manga xud bo'ldi ul ikkinchi hotif<sup>11</sup>.

Nekim avvalg'i hotif hukm surdi,  
Ikinchi hotif oni-o'q buyurdi.



Qabul etdim tutub anfosi posi,  
Ravon qildim duoning iltimosi.

Chu ul boshlab Masihoso kalomin,  
Duo ul deb. maloyik aytib: Omin.

Duo yo'qkim, ijobatdin nishon ul,  
Ijobat birla balkim tav'amon ul.

Manga chun yetti bu davlat nishoni,  
Ochildi har yon avvobi maoni.

Qaro tuprog' uza ul abri purbor,  
Turub qildi o'zin ul nav' durbor

Ki, o'tti poyasi daryou kondin,  
Ne daryou ne konkim, osmondin.

Chu men tuprog' yerdin ko'kka yettim,  
Yer o'ptum dog'i o'z hujramg'a kettim.

Eshik yopmoqqa chun sundum ilikni  
Yopilg'och ul. Haq ochti yuz eshikni.

Ketur, soqiy, qadah xilvatda bir dam.  
Chu kelturdung eshikni bog'la mahkam.

Chu Jomiydan yetishti buyla kome,  
Aning yodi bila tut bizga jome.

## IX

*Bu iqbol varaqlarining muqobalasi va bu saodat tarhlarining mutorahasi va xayol bahrida maoniy tuhafi savdosi uchun masohat qilmoq va har fasona safinasin varaq-varaq, balki har tarix jungin safha-safha axtarib daryozada ajnosqa rad iligin urmoq va maoniy aqmishasi nafoyisin bu latofat hajlasi aroyisi uchun g'ayb tujjoridin hayot naqdin berib savdo qilmoq va jon rishtasi va kirpik ignasi bila libosi namoyish va xil'ati oroyish tikib bu abkor qadlarig'a solib jilva bermak'.*

Manga chun tolei farxunda kavkab  
Bu avj uzra bisot etti murattab<sup>2</sup>.

Malak avval pari birla supurdi,  
Falak anjum sirishkidin suv urdi.

Bo'lub saqf o'rnig'a avji muqarnas,  
Bisoti uzra yoydi charxi atlas.

Solib majmarg'a tun udi qamori,  
O'ti xurshed o'lub, anjum-sharori<sup>3</sup>.

Bu nuzhatgah mening oromgohim,  
Sipehr aylab jabinin xoki rohim.

Ham aylab subh safhamdin safo vom  
Ham olib rang xomam no'gidin shom.

Raqam azmig'a yo'ng'ach xoma boshin,  
Atorid yig'di sochilg'on taroshin.

Hanuz etmay qalam yozmoqni odat,  
Eshikdin kirdi iqbolu saodat.

Jahonni yuzlaridin shod aylab,  
Manga kirgach muborakbod aylab

Ki, Tengri harne komingdur yetursun,  
Nekim istarsen ollingg'a ketursun.

Falak yanglig' biyik himmat bu bo'lg'ay,  
Quyosh yanglig' arig' niyat bu bo'lg'ay.

Falak surtub jabinlar himmatingg'a,  
Quyosh deb ofarinlar niyatingg'a,

Ki, ko'zni bas rafe' ayvong'a solding,  
Biyikrak to'paning tuprog'in olding<sup>4</sup>.

Agar tuprog' tutsang bo'lsun oltun.  
Oqizsang qatrai xay — durri maknun.

Kishikim ichsa himmat bazmidin jom,  
Topar ul jomdin komin saranjom.

Ne qushkim bo'lsa himmatdin qanoti,  
Emas past oshyong'a iltifoti.

Ochib himmat qanotin Nasri Toyir',  
Erur gardun shabistonig'a soyir.

Kim o'lsa himmat ilkidin kushodi,  
Ne topsunkim, topilg'ondur murodi.

Biyiklik keldi himmatdin nishona  
Ki, himmatsizni past etti zamona.

Havo tutti chu aylab pashsha ta'jil,  
Anga o'jiz durur tuprog' uza pil.

Havoyi mushk urdi ko'k sori yuz,  
Qaro shomin yorutti necha yulduz.

Chu naqqob etti yer qozmoqni pesha,  
Tiriklay go'r aro kirmish hamesha.

Chu sen ham bo'yla himmat zohir etting,  
Taraddud yo'qki, maqsudung'a yetting,

Va lekin Tengrig'a aylab tavakkul,  
Aningdek ayla avvaldin taammul

Ki chun bu uyda qilg'ung naqshi debo,  
Kerak uy tarhi dog'i bo'lsa zebo.

Agarchi nazmi dilkash tushsa masmu'  
Aning afsonasi ham bo'lsa matbu'.

Burun jam' et nekim bo'lg'ay tavorix,  
Borida ista bu farxunda tarix.

Topilg'ay shoyad andog' bir necha so'z,  
So'z aytur elga ul yon tushmagan ko'z.

Ani nazm etki tarhing toza bo'lg'ay,  
Ulusqa mayli beandoza bo'lg'ay<sup>6</sup>.

Yo'q ersa nazm qilg'onni xaloyiq  
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq.

Xush ermas el so'ngincha raxsh surmak,  
Yo'likim, el yugurmishtur yugurmak.

Biravkim bir chamanda soyir erdi,  
Nechakim gul ochilg'on ko'rdi, terdi.

Hamul yerda emas gul istamak xo'b,  
Bu bo'ston sahnida gul ko'p, chaman ko'p.

Chu bu so'zlarga fikr etti zamirim,  
Ko'rundi borcha ma'ni dilpazirim.

Qilib ko'nglumni bu andisha shaydo,  
Tavorix ayladim har sori paydo.

Nazar aylab borin avvaldin-oxir,  
Bo'lub boshdin-ayoq ollimda zohir.

Topildi oncha so'zким, komim erdi,  
Quyuldi oncha maykim, jomim erdi.

Bu durlar chunki manzum o'lg'usidur,  
Quloq solg'ong'a ma'lum o'lg'usidur.

Ki, bu bahr ichrakim poyon anga yo'q,  
Yetishmak qa'rig'a imkon anga yo'q.

Yetishgan el necha durr olg'on ermish,  
Ne oliyqadr durrlar qolg'on ermish.

Ki chun men zori besarmoya yettim,  
Terib bu dilrabog'a zavar ettim.

Bu gulshanniki rashki naqshi Chindur,  
Nasimi ham, guli ham otashindur<sup>7</sup>.

Bo'lurdin dahr bo'stonida mavjud,  
Emasdur g'ayri so'zu dard maqsud.

Ki, ishq ahlidin o'lg'ay dostone,  
Muhabbat xaylidin qolg'ay nishone.

Vale chekkanlar ushbu jomdin roh,  
Sarosar bo'ldilar Xusravg'a maddoh"

Ki, mulki andoqu, oyini mundoq,  
Sipohi andoqu, tamkini mundoq.

Gahe Shabdezi olamgardidin deb,  
Zamone ganji bodovardidin deb.

Nishoti bazmida xonlar murassa',  
Ne xonlar, qasru ayvonlar murassa'.

Ichib gah Borbad lahni bila may,  
Gahi Shopur doston deb payopay.

Buzurg Ummid hikmatjo'yi oning,  
Ne hikmatjo', xushomadgo'yi oning.

Topib gah Maryam og'ushida orom,  
Shakar halvosidin gohi olib kom.

Bo'lub Shiring'a oshiq podshahvor,  
Goh ul mahbub o'lub, gohi parastor.

Yaqindurkim bu shohi nozparvard,  
Erur dardu halo oyinidin fard.

Aroda tek bir-ikki doston ham,  
Debu Farhoddin aytib nishon ham

Ki, bir xoroshikofi ko'hsori,  
Bo'lub Shirin g'amining beqarori.

Necha kun vasl uchun aylab taku dav,  
Ani ham o'lturub tosh ichra Xusrav.

Agarchi kilk naqsh aylab nigorish,  
Topibdur doston mundoq guzorish.

Vale nazmida har ustodi mohir,  
Chekibdur oncha qiymatlig' javohir

Ki, darkidin erur andesha hayron,  
Havossu aqli hikmatpesha hayron.

Alar nazmining ollinda meni zor,  
Chu fahm ettimki ko'p ko'rgumdur ozor.

Zaruratkim solib bir o'zgacha tarh,  
Bu mehnatnomani qilg'umdurur sharh<sup>9</sup>.

Agarchi yo'q turur durrluq taloshi,  
Erur tosh o'lsa ham chaqmoq toshi.

Nechakim o'tluq o'lsa la'l pora,  
Qachon bu toshdek bergay sharora.

Dema chaqmoq toshi, ko'hi anduh,  
G'amu anduh anda ko'h to ko'h.

Bu ko'hi g'am aro dardu mihandin,  
Guzirim qayda bo'lg'ay Ko'hkandin.

Nizomiy dedi, Xusrav bo'ldi payrav,  
Agar ul shoh edi, bu erdi xusrav.

Tanosub topib ul ikki yagona,  
Dedilar borcha Xusravdin fasona.

Meni mahzung'akim ishq etti bedod,  
Solib g'am tog'ida andoqki Farhod.

Munosibdur agar tortib navoni,  
Desam Farhodi mahzun dostoni<sup>10</sup>.

Yozib jon mushafidin ikki oyat,  
Debon Farhodu Shirindin hikoyat.

Xaroshida fig'on cheksam g'amangez,  
Bu suhon birla qilsam teshasin tez.

Chu avvalg'i fasihi Ganjaparvard,  
Raqamzad qildi bu afsonai dard.

Dedi: Farhod bir xorokan erdi,  
Va lekin o'z fanida yakfan erdi.

Magar Shiring'a bo'ldi orzuyi,  
Chiqarmoq xora ichra turfa jo'yi.

Bu ish ustodin istar erdi ul hur  
Ki, ta'rif etti ul mahzunni Shopur.

Parivash dedikim, kelturgil oni,  
Borib Shopur kelturdi ravoni.

Anga chun pardalar keynidin ul oy  
Takallum birla bo'ldi korfarmoy.

Unin oning eshitkach xasta Farhod,  
Bo'lub oshiq, chekib afg'onu faryod.

Qaroru sabri itti, hushi ketti,  
Anga yetti ishi oxirki yitti.

Va lekin sohiri Hindustoniy,  
Yozarda bu malomat dostoni.

Chu topti xomasi tahriri ta'jil,  
Bu ishga berdi ko'p tag'yiru tabdil.

Birar so'zni agar aytib muvofiq,  
Burung'i nomag'a qildi mutobiq.

Chu aslu gavharig'a surdi xoma,  
Bu yanglig' gavharoro qildi noma.

Kim ul nisbatda sultonlardin erdi,  
Xito mulkidag'i xonlardin erdi.

Hadisida nishoni purhunarliq,  
Jabinida shukuhi tojvarliq.

Vale nav'iki inson odatidur,  
Aningdekkim bashar xosiyatidur

Ki, har ish sorikim, tab' o'ldi moyil,  
Erur o'tkarmak andin o'zni mushkil.

Havas tortib sinon chun kelturub zo'r,  
Burun aylar xiradning ko'zlarin ko'r.

Bo'lur mag'lub, kim bo'lsa havaskesh.  
Bu ishta teng durur sultonu darvesh.

Aning zotig'a chun tab'i muhavvis,  
Tanosubsiz hunarlar qildi munis.

Ko'rub xoqoni Chin farzandin ul tavr,  
Ko'p etti man'ig'a ham lufu ham javr.

Chu ko'rdi mumkin ermas tarki odat  
Ki, zotiydur shaqovat yo saodat.

Ul ishdin necha bo'ldi fikrat ohang,  
Ko'rundi saltanat nomusig'a nang.

Zarurat birla jondin uzdi payvand,  
Dedi: qilsun safar farzona farzand.

Chu ul olamda urdi sayr uchun gom,  
Ul ishlar boshig'a tushti saranjom.

Bu maydong'a chu Ashraf<sup>1</sup> surdi markab,  
Bu so'zni o'zga nav' etti murattab.

Yana bo'lg'on ekan bu noma marqum,  
Vale roqim emastur yaxshi ma'lum<sup>2</sup>.

Uchovkim chektilar bu jomi sofi,  
Bu yanglig'dur guzorish ixtilofi.



Chu Xusrav surdi bu rangin fasona,  
Dedi so'z avvalidin ham nishona.

Manga ham chun bu pok insho ko'rundi,  
Bidoyatdin demak avlo ko'rundi.

Ne so'z kim bilmagaylar ibtidosin,  
Xush ermas necha xo'b etsang adosin.

Gar imon elga rahmatdin nishondur,  
Va lekin chun alifsizdur yamondur.

Agarchi shamsni oltun ko'rar his  
Vale chun shindin ayrildi bo'lur mis.

Berur mehnat tuniga sham' yog'du,  
Chu o'chti shu'lasini bo'ldi qarong'u.

Mangakim soldini shomi g'am nihon so'z,  
Desankim yorutay bu sham'ini jonso'z

Boshida bo'lmasa zarrin livoyi,  
Shabistong'a netib solg'ay ziyoyi.

Umidim ulki, bu sham'ini Tirozi  
Ki, bo'ldi jon uyining jilvasozi,

Quyoshdek charx ayvonin yorutqay  
Ki, oning partavi olamni tutqay.

Keturgil, soqiy, ul sham'ini duraxshon,  
Demay sham'ini duraxshon, mehri raxshon

Ki, mehr etgach ayon tog' uzra anvor,  
Chiqay tog' uzra men ham Ko'hkanvor.

X

*Tezrav xomani mistar shohrohiq'a kiyurmak va sodaro' noma maydonini  
shoh madhi ayturg'a kirpik bila supurmak, balki obdor nuktadin suv urub*

*ul xomani maddohlardek bu maydong'a solib ma'raka tutmak va bu  
garm ma'raka birla har maddoheki, bir shoh uchun madh etib  
turur ma'rakasin sovutmak.*

Qazo kilki chu tortib naqshi dilkash,  
Jahon avroqini qildi munaqqash.

Sipehr ajzosini berishtau band  
Aningdek bir-biriga berdi payvand

Ki, har juzvig'a chunkim bo'ldi tolib,  
Xirad tab'ig'a hayrat bo'ldi g'olib.

Chekib ko'kning sutunsiz borgohin,  
Muhayyo qildi olam korgohin.

Jahonda zohir aylab ko'p zaroyif,  
Jahon ahlin dog'i qildi tavoyif.

Tavoyif chunki bo'ldi muxtalifvash,  
Bu yerdek past, ul o'tdek tundu sarkash.

Bularg'a vojib erdi intizomi,  
Adolat vajhidin bermak nizomi.

Bu ishga anbiyoni qildi irsol  
Ki, bo'lg'aylar ulusqa din sori dol.

Alardin so'ng salotin topti ta'zim  
Ki, bergaylar alar ummid ila bim.

Nechukkim anbiyo ra'su raisi  
Muhammadning erur zoti nafisi.

Rusul xaylig'a sarxayli sipah ul,  
Alar bori sipah, xayl ichra shah — ul.

Salotinning ham andoq sarfarozi  
Erur go'yo azaldin Shohi G'oziy<sup>1</sup>.

G'azo maydoni ichra Haydaroyin<sup>2</sup>,  
Rivoji shar' aro payg'ambaroyin.

Nabi shar'ig'a bergan zebu zayn ul,  
Salotin sarvari Sulton Husayn ul.

Zihi olam – sadaf, zoting - durri pok,  
Aningdekkim, quyosh durrig'a aflok.

Quyoshdin ham yorug' royi muniring,  
Falakdin ham biyik oliy sariring.

Murassa' masnading a'lo jumondin  
Falak firuzaekim tushmish ondin.

Shukuhung jabhasidin chun Surayyo  
Yeti qatra araqdek yetti daryo.

Chu qahring tundbodi esti, olam –  
Bisotin tog'lardin qildi mahkam.

Yetib chun gulshani lutfung shamimi,  
Ko'runub elga o't jannat nasimi.

Oyu kun bog'i johingdin iki gul,  
Tun ul gulshanda mushkinfom sunbul.

Kavokib birla ul tun rangi darham,  
To'kulmish go'iy o sunbulg'a shabnam.

Qilichingdin ham el g'amginu ham shod,  
Sudindur mulk ham vayron, ham obod.

Qilib mavji balo ham zohir ul suv,  
Bo'lub ham fath ruxsorig'a ko'zgu.

Xadanging marg tayridin nishona,  
Aduv jismini aylab oshyona.

Vale ul oshyong'a bo'lmayin rom,  
O'tub yetgach zamone, tutmay orom.

Bo'lub axzar sinoning sarv monand,  
Aning ustida bargi bed payvand.

Yashil aylab ani zahri halohil,  
Bo'lub barcha xilof ahlig'a qotil.

Safi hayjoki o'q kelgay yog'indek,  
Kamanding tashlag'on shakli choqindek.

Choqin yo'q, rishtai iqbolu ta'yid,  
Bo'lub mahkam zafar bo'ynig'a jovid.

Samanding ul sahobi barqraftor  
Ki, sur'atdin qadam to farq raftor.

Zamona ablaqi yanglig' xiromi,  
Yururda sharq to g'arb ikki gomi.

Xiromi o'rga chiqmoqta tutundek,  
Egarmak vaqti dasht uzra quyundek.

Quyun yo'qkim hayuni devzod ul,  
Demonkim devzod ul, devbod ul.

Zamonikim jahong'a tushgay oshub,  
Zamin birla zamong'a tushgay oshub.

Chiqib charx uzra hayjo ahli gardi,  
Qolib gard ichra charxi lojuvardi.

Iki saf har biri bir ko'hi bedod,  
Sarosar tig'i oning tig'i fo'lod.

Jahonni tiyra gard aylab qarong'u,  
Sinonlar sham'i solib anda yog'du.

Kavurga dahr aro solib g'irevi,  
Hechukkim mast bo'lg'ay narra devi.

O'qi andoqki sarsar lola eltib  
Shafaqning jomidin pargola eltib,

Bahodirlar falakdek barcha xunrez,  
Shihoboso sinonlar aylabon tez.

Adam qo'rg'onig'a qochib amonliq,  
Falak olam aro sochib yamonliq.

Sen ul soat salobatdin sipehre,  
Qo'lungda tig'din raxshanda mehre.

Maozallohi, gardundek janobing  
Taharruk topsa azm aylab rikobing.

Surub har lahza bir yon tortibon tig',  
Shukuhi tundluqta o'ylakim mig'.

Solib har sori tig'i louboli,  
Aduvdin qilg'asen olamni xoli.

Qilib ul nav' tig'i bemadoro,  
Jahon ichra qiyomat oshkoro.

Quyosh botqay uzorin darham aylab,  
Falak qochqay ravon qaddin xam aylab.

Yonib maydondin etsang azmi ayvon  
Tushub ayvong'a silkib gardi maydon.

Tutub Jamshed<sup>3</sup> taxti uzra orom,  
Tilab xurshed yanglig' la'lgun jom.

Quyub og'zingg'a ul jomi Kayoniy<sup>4</sup>,  
Ichibkim, bo'lsun obi zindagoniy.

Ne mulkikim olib ul razm ichinda,  
Bag'ishlab barchani bu bazm ichinda.

Demon har mulkini bir podshog'a,  
Har ikki mulk balkim bir gadog'a.

Chu baxshish topib andog' mulku johe,  
Bo'lub ul dam gado ham podshohe.

Gadodin bo'lmasun ozurda roying,  
Erur chun podshahlar ham gadoying.

Alo to podshahlig' boqiy o'lg'ay,  
Tarab bazmida mahvash soqiy o'lg'ay.

Binoyi saltanat zotingg'a boqiy,  
Saodat mahvashi bazmingda soqiy.

Bu soqiy ilgidin joming payopay,  
Zuloli Xizr ul joming aro may.

Ketur. soqiy, sharobi armanisoz.  
Tut oni shoh madhin aylab og'oz.

Qil avval no'shu berkim, men qilay no'sh,  
Qo'sh ichsang tutki, men dog'i ichay qo'sh.

## XI

*Saltanat sipehrining mehri raxshandasi va xilofat tojining la'li  
duraxshandasi, jahonbonlig' jismining ruhi nozanini va kishvarsitonlig'  
aynining mardumaki jahonbini, olam xalqining rafei va zamon ahlining  
badei, ya'ni sulton Badiuzzamon Bahodir madhida: xalladallohu  
mulkahu va abbada davlatahu'.*

Azal subhiki qildi xomai sun'  
Taharruksiz xaroshi nomai sun',

Abad shomig'acha ne bo'lsa mavjud,  
Yozildi ul varaqda budu nobud:

Qadahchashqa xarobot o'ldi marqum,  
Vara'kashg'a munojot o'ldi maqsum.

Gadog'a notavonlig' bo'ldi ro'zi,  
G'anig'a komronlig' bo'ldi ro'zi.

Birovga qismat oz bo'ldi bag'oyat,  
Birovga baxshish o'ldi benihoyat.

Alarkim topti ko'p Haqdin atolar,  
Erurlar olam ichra podsholar.

Bular ichra dag'i ko'pdur tafovut,  
Biri yazdonparast o'lmish, biri but.

Shahekim Tengridin besa'yu ko'shish  
Bori shahlardin ortuq topti baxshish.

Jahong'a boisi amnu amon ul,  
«Badi ud-dahru Doroi zamon» ul.

Qachon andin gum etsang «dahru Doru»  
Sharif alqobi bo'lg'ay oshkoro.

Humoyun ismi mujmal bo'ldi ta'vil,  
Qiloyin emdi bir-bir oni tafsil.

Munung zimnida ne topmish azaldin,  
Deyin mashruh xoli har xalaldin.

Oti o'n harf ila bo'ldi murakkab,  
Budur tartib agar qilsang murattab.

Azaldin bir atog'a dol har harf,  
Atoyoning dalili harf-barharf.

Erur «be» – birru ehsonning dalili,  
Guhardek bahri Ummonning dalili.

Ikinchi harf davlatdin erur «dol»,  
Topib dinu diyonat andin iqbol.

Uchunchi yumndin aytib nishona  
Ki, tindi maqdami birla zamona.

Bo'lub to'rtunch anga «ayni» adolat,  
Qilib ham umri tulig'a dalolat.

Yana bir rostlig'din aytibon roz,  
Amonat bog'ida sarvi sarafroz.

Yana bir lutfdin aylab xabardor,  
Latofat gulshanida bahrabardor.

Biri yetti adaddin topti taqsim  
Ki, qilmish Haq nasibing yetti iqlim.

Yana birdin bo'lub millat kiromi  
Ki, sendindur musulmonliq nizomi.

Yana bir jilvasin aylab mukarrar  
Ki, bir Tengri durur yoring muqarrar.

Yana bir bu nidodin aylab ogoh  
Ki, bo'lmish qismating: «Nasrun minalloh»<sup>2</sup>.

Aning tarkibiga bu o'ncha holat  
Qilur, qilsang taammul, yuz dalolat.

Dalil o'ldi bu suratlarg'a oti,  
Va lekin bahri ma'ni durri zoti.

Aning zotig'a durr birla ne nisbat,  
Bu ma'nidinki, bordur durrg'a qiymat.

Durri zoti bo'lub daryoyi aflok  
Ki har durri erur bir axtari pok.

Bu bahr aflokidin ruxsori xurshed,  
Yuz uzra qatralar Birjisu<sup>3</sup> Nohid.

Gahekim sindurub toji Kayoniy,  
Olib ilgiga jomi Xusravoniy.

Tuzub suhbat «Bihishti soniy» ichra,  
May ichsa «Bog'i nav»<sup>4</sup> ayvoni ichra.

Ani majlis dema, oliy sipehri,  
Qadahdin davrida raxshanda mehri.

Dema mehr onikim, mehri sabukxez,  
Ne andoq tezrav, ne ishratangez.

Nishotafzoyroq Nohiddin ko'p,  
Sarius-sayrroq xursheddin ko'p.



Quyosh bir qatla har kun ko'kni soyir,  
Bu majlis charxin ul yuz qatla doyr.

Quyosh har davrida bir tiyra aqshom,  
Munung har davridin ravshanroq ayyom.

Agar ko'k sur'atidin sayr etib mehr,  
Mudiri har dam oning bir parichehr.

Mug'anniylar nishotafzo navodin,  
Chekib Nohidni har dam havodin.

Zarofat holatida bazlago'lar,  
Atorudqa qilib har dam g'ulular.

Bo'lur chun shah tarab birla qadahkash,  
Tarab kayfiyatidin bo'lsa sarxush.

Berib yuz ganj yaxshi so'zga bexost,  
Yomon so'zni qilib isloh ila rost.

Yomon men ayttim topib so'zum pech,  
Aning bazmida so'z o'tmay yomon hech.

Quyoshdek olamoro bazm chog'i,  
Jahong'a o'rt solib razm chog'i.

Qayonkim barqi tig'i shu'la sochib,  
Aduvning paykaridin boshi qochib.

Demasmenkim, kesib o'qi zirihni,  
Taxayyul toridin ochib girihni.

Sinoni chun yetib sahmi qazodek,  
Aduv qaddini aylab halqa yodek.

O'zi har sorikim surgach g'azabnok,  
Qilib ul saf yoqosin sar-basar chok.

Zafarg'a surma raxshining g'ubori,  
Quyoshqa shu'la tig'ining sharori.

Alo, tokim quyoshdin bo'lg'ay anvor,  
Yoruq qilg'ay jahon mulkini hamvor.

Jahon mulki anga bo'lsun muyassar,  
Quyosh toji aning boshig'a afsar.

Berib davron quyosh yanglig' kamoli,  
Falakdin bo'lmasun, yo Rab, zavoli.

Ketur, soqiy, qadah xurshedini bot,  
Ichay shahzoda yodi birla, hayhot!

Ki hajridin aning mahzunmen asru.  
Bo'lay behushkim, majnunmen asru.

## XII

*Bu deboi chiniy yuzin xitoyi soz naqshlar bila munaqqash qilmoq va ul xitoyi naqshlarni monuviy tiroz gullar bila dilkash bezamoq va bu guliston sahnida xoqoni Chin masnadi ehtishomin yoymoq va aning ehtishomi hadiqasi nasab guli va farzand mevasidin o'zga jami' azhor va favokih bila muzayyan erkonin aytmoq va dard bog'i g'unchasi va balo chamani shukufasi, ya'ni shahzoda Farhodning adam shabistonidin vujud gulshanig'a kelgonin qalam bulbuli tilidlin sayramoq'.*

Bu chiniy hullag'a bo'lg'on raqamkash,  
Yuzin bu tarh ila qildi munaqqash

Ki, Chin mulkiki, rashki naqshi Chindur,  
Savodi g'ayrati Xuldi barindur.

Shahe erdi muazzam xoni oning.  
Dema xoni oning, xoqoni oning.

Iki olamcha mulki vus'at ichra,  
Yeti garduncha taxti rifat ichra.

Sipohi yer yuzida qum hisobi,  
Ne qum, gardun uza anjum hisobi.

Tajammul onda Afriduncha<sup>2</sup> yuz ming,  
Xizona maxzani Qoruncha<sup>3</sup> yuz ming.

Uluvvi dargahi gardun misoli.  
Qayu gardunki, andin dog'i oliy.

Mo'g'ul qullar kibi ollinda xonlar,  
Bo'lub kishvardihi<sup>4</sup> kishvarsitonlar<sup>5</sup>.

Kafining bazli Ummondin ham afzun,  
Javohir sochmog'i kondin ham afzun.

Dema kondin, degil imkondin ortuq,  
Nekim yo'q ondin ortuq, ondin ortuq.

Zamona toqi ofoq aylab oni,  
Bari xonlar aro toq aylab oni.

Aningdek fard etib charxi kuhangard  
Ki, bir farzanddin ham aylabon fard.

Mukallal mehr durri birla toji,  
Aning bir o'zga durrga ehtiyoji.

Murodi bog'i yuz guldin barumand,  
Vale ul o'zga gulga orzumand.

Yuzidin ravshan aylab nuri kavnayn,  
Anga ko'zdin uchub bir qurrat ul-ayn.

Debonkim: «Chun jahonning yo'q vafosi,  
Emas mahkam amal qasri asosi.

Baqo ayvoni ko'p oli emastur,  
Havodisdin jahon xoli emastur.

Kishi gar qilsa ming yil podsholiq,  
Jahon mulkiga aylab kadxudoliq,

Chu tortar oqibat jomi fanoni,  
Borur dam fahm etar bir damcha oni.

Shahikim, ko'kka chiqqay taxtu johi,  
Gadokim, taxta kiz bo'lg'ay panohi.

Baqo tufrog'idin silkar zamon yeng,  
Bu dog'i ul ikisi teng durur, teng.

Ne chekkay ko'kka boshin tojdori  
Yo'q ersa bir durr andin yodgori.

Valaddur ul durru, volid sadafdur,  
Sadaf, ya'ni otou durr xalafdur.

Sadaf yo'q, bahr aro gar bo'lmas inju,  
Ani bil, bir nihoyatsiz achig' su[v].

Ne achchig' suvki masti vahshatoyin,  
Labida kaf, yuzida mavjdin chin.

Chamanda sarv bas ra'no shajardur,  
Yo'q andin naf', chunkim besamardur.

Shajarkim, juz latofat shevasi yo'q,  
O'tun o'rnidadur gar mevasi yo'q.

Yog'indin gar bulut yetkurmasa sud,  
Havoda ul hamonu bir qalin dud.

Chaqinkim yorudi anvori oning,  
Chu o'chti, qolmadi osori oning.

Agar o't o'chsa bo'lmas g'ussa yutmoq,  
Chu axgar qoldi osondur yorutmoq.

Men o'ldum ul tengizkim gavhari yo'q,  
Va yo ul o'tki oning axgari yo'q.

Tengiz yo'qkim, g'adiri vahshatangez,  
Qayu ul o'tki, yovshondin bo'lur tez.

Bu o'tlug'din erur bag'rimda dog'im,  
Qurutmosun debon davron o'chog'im.

Zihi hasratki, men yillar yutub qon,  
Bo'lub Chinu Xito mulkida Xoqon.

Bu foniy dayrdin bo'lg'ach xiromim,  
Kelib begonaye tutqay maqomim.

Ayoq qo'yg'ay firoschu bistaring'a,  
Ilik sung'ay sipohu kishvarimg'a.

Shabistonim aro orom qilg'ay,  
Zamona subhi irzim shom qilg'ay.

Manga yig'moqta yetgay mehnatu ranj,  
Anga separg'a qolg'ay maxzanu ganj.

Aodi ta'nu afsusinmu aytay,  
Eranlik nangu nomusinmu aytay.

O'g'ulsizlig'din o'ldi bu shikanjim  
Ki Haq daf' aylagay bu dardu ranjim.

Bu qattig' vartada ilgimni tutqay,  
Ko'zumni bir xalaf birla yorutqay».

Bu erdi muttasil guftu shunidi,  
Xudoyidin o'g'ul erdi umidi.

Bo'lub ko'z yoshidin haryon guharposh,  
Guhardek ko'zga istab o'zga bir yosh.

Bu maqsudi uchun sochib diramlar,  
Qilib ko'p nazrlar, aylab karamlar.

O'g'ulsizlarni ham aylab navoliq,  
Atosizlarg'a ham aylab atoliq.

Bulardin barcha komu muddaosi  
Bukim, bo'lg'ay bir o'g'ulning atosi.

Bo'lub g'ofilki, nekim kilki taqdir  
Raqam chekti, emas imkoni tag'yir.

Kishi har muddaodakim ko'rar sud,  
Yaqin ermas ani topmog'da behbud.

Baso gavharki rangi ahmar erdi.  
Ko'rundi la'lu, tutqach axgar erdi.

Ko'p asfar lavn soz etti zamona,  
Ko'rundi zarvaraq, erdi zabona.

Kishi komida sud ermas chu ma'lum,  
Rizo avlo durur bo'lg'ong'a maqsum.

Chu Xoqonning bu erdi muddaosi,  
Ijobat qurbini topib duosi.

Shabistonida tug'di bir yangi oy,  
Yangi oy yo'qki, mehri olamoroy.

Ochildi bog'ida bir otashin vard,  
Demaykim, vard, balkim shu'lai dard.

Kiyurdi ilgiga davron nigine,  
Nigin o'rnida la'li otashine'.

Yuzinda ishq asrori yozilg'on,  
Ichinda dard ta'vizi qozilg'on.

Niginu la'l yo'q, durri shabafro'z,  
Dema dur, gavhare — lekin jahonso'z.

Eshilgan rishtasi tobi vafodin,  
Teshilgan bag'ri hakkoki qazodin.

Ko'zida ashk selidin asarlar,  
Damida oh dudidin xabarlar.

Muhabbat nuri ollinda huvaydo,  
Jamolida vafu tug'rosi paydo.

Falak deb dard elining shohi oni,  
Malak deb dard o'ti ogohi oni.

Tushub ishq ahli ichra har taraf jo'sh,  
Chu tug'di o'tda sayr aylar Siyovush<sup>7</sup>.

Vafo xaylida g'avg'o shodlig'din,  
Biri-birga muborakbodlig'din.

Ato ul durrg'a chun nazzora qildi,  
Sadafdek og'zi kulmakdin yoyildi.

Sochib oncha javohir olam ichra  
Ki, andin bahru kon qolib g'am ichra.

Yasab kishvarni oyin birla borcha,  
Bu oyin tuhfa Chin birla borcha.

Bu yanglig' hukmi om aylab nadivor  
Ki, «Chin mulkida bo'lsa harne devor

Yasalsun borcha oyin birla zebo,  
Tutulsun borig'a iksunu debo.

Ne debo, borchasi sanginu dilkash,  
Xito suratlari birla munaqqash».

Qilib bu nav' ziynat birla oyin,  
Tamomi Chinni suratxonai Chin.

Xaloyiq harne qilsa tergamak yo'q,  
Ne qilg'onni yomon qilding demak yo'q.

Tuzub bir jashnkim charxi kuhansayr,  
Aning davrida bu toqi kuhandayr —

Aningdek ko'rmayin bazmi Kayoni,  
Yuzidin bircha ham bermay nishoni.

Falakdek xon fuzunroq anda haddin,  
Quyosh qursi kibi non xud adaddin.

Olib kishvar elining ehtiyojin,  
Bag'ishlab elga uch yilliq xirojin.

Ulus tutmay tarabdin bir dam orom,  
Vale asrab tarab tavrída andom.

Tarab g'avg'osin ul kishvarda chog'lab,  
Mashaqqat korvoni raxt bog'lab.

Qilib yag'mo xaloyiqdin garona,  
Tutub aysh anda manzil jovidona.

Yuzinda kimsa chindin topmayin bahr,  
Magar dashti yuzi lek ul dag'i shahr.

Qilib mahv el ichidin boda qayg'u.  
Qaro qayg'uni daf' aylab qizil suv.

Ketur, soqiy, chekib yirlar uchun un,  
Manga to'ydin ulush ber, jomi gulgun.

Meni Chin ahli yanglig' mayparast et,  
To'lo chinii ayog'lar birla mast et.

### XIII

*Shahzoda Farhodqa «Al-asmou tanzilum minas-samo»' hukmi bila ishq sipehri avjidan nomdorliq nasib bo'lmoq va shavq gulshanida g'uncha erkonda guldek ko'nglaki chok, balki bulbuldek ko'ngli g'amnok bo'lmoq va dard muallimi maktabida ishq kutubin lafz-balafz, balki muhabbat avroqin harf-baharf o'qumoq va dilovarliq maydonida shijoat varzishini qilichdek tez etib o'qdek tuz etmek va zamon kinavarlaridin xuddek saromad va nayzadek sarafroz bo'lmoq.*

Bu zebo bazmning alhonnamoyi,  
Bu yanglig' bo'ldi so'z dostonsaroyi:

Ki, chun Xoqong'a Tengri berdi farzand,  
Bo'lub ul hadya birla shodu xursand.

Jamoli birla ko'nglin aylabon xush,  
Otin qo'ymoq sori bo'ldi raqamkash.



Jamoliddin ko'rungach farri shohi,  
Bu fardin yorudi mah to ba mohi.

Qo'yub yuz himmatu iqbolu davlat,  
Hamul far soyasidin topti ziynat<sup>2</sup>.

Bu javharlarg'a chun isnod topti,  
Murakkab aylagach Farhod topti.

Bu farni hodiyi baxt etgach irshod,  
Ravon shahzoda otin qo'ydi Farhod<sup>3</sup>.

Hariru hulla ichra bog'labon chust,  
Murassa' mahd ichinda tongdilar rust.

Bu nav' ermas ato qo'ymadi otin  
Ki, ko'rgach ishq aning pokiza zotin.

Anga farzona Farhod ism qo'ydi.  
Hurufi ma'xazin besh qism qo'ydi.

Firoqu rashku hajru oh ila dard,  
Biraz harf ibtidodin aylabon fard.

Borin ustodi ishq etgach murakkab,  
Tarakkubdin bu ism o'ldi murattab<sup>4</sup>.

Malolat mahdida zor etti oni,  
Bu qayd ichra giriftor etti oni.

Maalqissa chu topti mahd maskan,  
Qafas davlat humoyig'a nishiman.

Arusi charx tun-kun doyakirdor  
Bo'lub har tavri holidan xabardor.

Beshik davrida chiniyu xitoyi,  
Bo'lub yuz no'shlab dastonsaroyi.

Ko'zining nozi eldin eltib uyqu,  
Anga uyqu keturmakka navogo'.

Ko'runmay o'zga yoshlardek sifoti,  
Ko'ziga bo'lmay uyqu iltifoti.

Sutikim, sog'ibon og'zig'a doya  
Ki jismi andin olg'ay qutu moya.

Anga ichmak bo'lub nokom yanglig',  
Mavizu shirai bodom yanglig'.

Ne qatra sut ichurgach doyai ishq,  
Bo'lub bir gavhari sarmoyai ishq.

Topib har qatra bir durrdin nishoni,  
Va lekin borchasi durri maoni.

Icharda mo'rdin o'ksuk g'izosi.  
Topib qut onchakim, arslon bolosi.

Birovkim ishqdin bo'lg'ay anga qut.  
Sut ichsa durr bo'lur, qon ichsa yoqut.

Bu yanglig' chun bir o'ldi yoshi oning,  
Sharaf durrig'a yetti boshi oning.

Qadam urdiyu tarki mahd qildi,  
Qo'yub emgak yururga jahd qildi.

Chu uch yoshig'a chekti davri aflok,  
Takallum qildi andoqkim durri pok.

So'zi bori bo'lub afsonai ishq,  
Maqomu maskani koshonai ishq.

Ajabdur uch yoshida ko'zga atfol,  
Nechukkim o'n yoshida o'zga atfol.

Qolib bu ishda el hayroni oning,  
Sipehru mehr sargardoni oning.

Ato bu nav' ko'rgach ish hisobin,  
Munosib angladi ilm iktisobin.

Keturdilar hakimi nuqtadone,  
Bilik birla jahon ichra jahone.

Falak mushkillari hal fikratidin,  
Falakka mushkil oning diqqatidin.

Quyosh yanglig' yorug' rayi muniri,  
Vale andin yoruq mo fizza miri<sup>5</sup>.

Qayu ilmiki yo'q andin nihonroq,  
Aning qoshida yo'q andin ayonroq.

Surub hay'at sori chun fikrati raxsh,  
Sipehr ajzosin aylab jav-bajav paxsh.

Va gar hikmatda royi jism etib qism,  
Ko'ziga nuqtai mavhum ulug' jism.

Tabiiyu, riyoziyu, ilohiy,  
«Alif, be, te»dek olinda kamohi.

Bo'lub Yunonda hikmat viridi oning  
Arastu bir kichik shogirdi oning.

Yorutqoch bazmni donoi olam,  
Tilab shahzodani doroyi olam.

Qilib ta'limig'a yuz nav' ta'kid,  
Falak ollinda manzil tutti xurshid.

Alif, be degach ustod ibtidodin,  
Alif oldi alamdin, be balodin.

Ham avval kunda berdi sarvi gulxad  
Atog'a hadyai ta'limi abjad<sup>6</sup>.

Uchunchi oy ravon bo'ldi savodi,  
Burung'i yilda Qur'on bo'ldi yodi.

Agar bir qatla ko'rdi har sabaqni,  
Yana ochmoq yo'q erdi ul varaqni.

Ne soʻznikim oʻqub koʻngliga yozib,  
Dema koʻngliki, jon lavhiga qozib.

Oʻqub oʻtmak, uqub oʻtmak shiori,  
Qolib yodida safha-safha bori.

Koʻrub chun ishq oshiqliq maqolin,  
Topib oshufta mahzun koʻngli holin.

Aning sharhini takror aylabon koʻp,  
Oʻqurda nolayu zor aylabon koʻp.

Boʻlub oshiq gʻami sharhida gʻamnok,  
Yaqo chokin oʻqub, aylab yaqo chok.

Kim etsa darddin oz-oz rivoyat,  
Qilib ul dard anga koʻp-koʻp siroyat.

Kishi koʻnglin bilib afgor yigʻlab,  
Ne koʻzda ashk koʻrgach zor yigʻlab.

Hakim ul ishda qolib lol har dam,  
Qilib andin yuz istidlol har dam.

Atogʻa gah boʻlub gʻolib tahayyur,  
Anoni goh etib ojiz tafakkur.

Bu deb atfolgʻa bu navʻ oʻlur hol,  
Ul aytib, yoʻqtururmu oʻzga atfol.

Qilib har bir ani bir navʻ taʻbir,  
Biri bilmay ne navʻ erkanni taqdir.

Ishi bu yangligʻ erdi el aro fosh  
Ki, to umridin oning oʻtti oʻn yosh.

Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,  
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm.

Boʻlub oʻn yoshqa umrining mururi,  
Yigirmi yoshcha qaddu jismu zoʻri.

Ulum avroqi chun bir-bir yopildi,  
Dilovarliq silohi mayli qildi.

Chu oz fursat anga mayl etti zohir,  
Qayu bir mayli qilg'och bo'ldi mohir.

Olib qavsi quzah chekmakka qullob,  
Turub mashriq etib mag'ribg'a partob.

Qaro tun gar nishon aylab Suhoni<sup>7</sup>,  
Falakcha novakig'a ul nishoni.

Debon Turki falak<sup>8</sup> otqonda zihlar,  
Tavahhum toridin ochib girihlar.

Qilichi zarbasi ollinda har marz,  
Shikof andoqki suvdin yer aro darz.

Ne yer, tog'iki kisvat qildi xoro  
Bu kisvatdin qilib darz oshkoro.

Qilib gar hamla Alburz<sup>9</sup> uzra bir gurz,  
Bo'lub gardu chiqib gardung'a Alburz.

Evurgach nayzasin davri falakvor,  
Bo'lub qalqon o'ziga charxi davvor.

Tubo mixi bila sonchib samakni,  
Teshib no'gi bila davri falakni.

Chu maydon azmig'a solib takovar,  
Buzug'luq boxtardin to ba xovar.

O'tub ko'k bodpoyidin samandi,  
Tushub Bahrom<sup>10</sup> bo'ynig'a kamandi.

Yeti gardung'a ofat shashparidin,  
Bo'lub suv Hut<sup>11</sup> bag'ri xanjaridin.

Asad bo'ynin uzub sarpanja birla,  
Zabuni bir asad<sup>12</sup> har panja birla.

Qilib Ro'yintan<sup>13</sup> o'z ilgini ranja,  
Tutub chin panjasi o'llig'a panja.

Hamul ilmi baland ovoza birla,  
Bu yanglig' zo'ri beandoza birla

O'zin abjad o'qur eldin tutub kam,  
Dema donishki, zo'ri dast ila ham.

Bo'lub shahlar eshigining gadoyi,  
Va lekin ul gadolar xoki poyi.

Anga teng podsholig', yo gadolig',  
Gadoliqqa teng etmay podsholig'.

Demon, ham ko'ngli poku ham ko'zi pok,  
Tili poku so'zi poku o'zi pok.

Munungdek tiynati pokiga loyiq,  
Duosin aytibon poki xaloyiq.

Aning sori sovug' yel essa nogoh,  
Chekib Chin mulkining xalqi sovug' oh.

Qilib el xonumon oning fidosi,  
Ne xonumonki, jon oning fidosi.

Ato yuzlanmasun deb dardu ranje,  
Etib har kun boshig'a sadqa ganje.

Vale bir zarra dard o'lg'och padidor  
Bo'lub ul ganjlar birla xaridor.

Asiri dard ichi-yu toshi oning  
Ki, to o'n to'rt bo'ldi yoshi oning.

Ketur, soqiy, sharobi dardparvard  
Ki, bo'ldi ko'nglumiz parvardai dard.

Boshing'a dard chekmastin burun tig',  
Bu dam bazmi nishoti aylagil big'.

#### XIV

*Farhodning shabob gulshanidakim, tarab gulbunining nishot gullari  
ochmoq mahali durur, dard xorlari ko'rguzmoki va bulbuldek shavq  
o'ti xorxoridin fig'on tuzmoki va xoqon bu ishtin g'unchadek diltang bo'lib,  
aning chorasi uchun to'rt bog' tarhin solg'oni va to'rt qasr bino qilg'onikim,  
shoyad bu bog'lardin maqsud guli topilg'ay va ul qasrlardin murod  
eshigi ochilg'oy.*

Muhandiskim bu qasr obod qildi,  
Bu yanglig' tarhini bunyod qildi.

Ki chun xoqong'a ul kom o'ldi hosil,  
Tarab hazmida orom o'ldi hosil.

Shabistonida ul sham' o'ldi ravshan  
Ki, bazmi gullaridin bo'ldi gulshan.

Necha ul sham' bor erdi dilafro'z.  
Vale ko'p shu'la tortar erdi jonso'z.

O'ti gohi chekar erdi zabona,  
Bo'lub gohi sirishkim yuzda dona.

Yuziga ishq har dam deb nihoni  
Ki, qilg'umdur bu gulni za'faroniy.

Qadig'a g'am yuki deb roz har dam  
Ki, qilg'um bu «alif»ni «dol»dek xam.

Ko'ziga aytibon afsona qayg'u  
Ki, bir kun ikisidin olg'um uyqu.

Boqib ko'ngligau tahdid etib dard  
Ki, bu evdin chiqorg'um oqibat gard.

Ne ishkim charx etar izhorin oning,  
Burunroq ko'rguzur osorin oning.

Isitmoq chun sharorat zohir aylar,  
Badanda ul harorat zohir aylar.

Chu yafrog'ni to'kar bodi xazoniy  
Burun rangini aylar za'faroniy.

Angakim bir balo yetkursaq taqdir,  
Yetar avvalroq ahvolig'a tag'yir.

Aning, chun bor edi ollinda ko'p ranj,  
Tarab ayyomi ham erdi alamsanj.

Qachonkim aylabon ishratqa ohang,  
Dame no'sh aylamakka jomi gulrang.

Nishot ahli bo'lub har yon navosoz,  
Nishotangez doston aylab og'oz.

Surudikim ulusni xurram aylab,  
Aning xurramlig'in dardu g'am aylab.

Ne doston ichra mazkur o'lsa Majnun,  
Aning ko'ngli bo'lub albatta mahzun.

Ne alhon bo'lsa bir g'amdin rivoyat,  
Bo'lub bu g'amdin ul g'amgin bag'oyat.

Eshitgach ishqu oshiqliq surudin,  
Tiya olmay ko'zidin ikki rudin.

Bo'lub Xoqon aning holidin ogoh,  
Tafakkur aylabon tortib sovug'oh

Ki, nevchun doyim ul shod ermas erkin?  
Hamisha g'amdin ozod ermas erkin?

Ne erkin ohu afg'onig'a bois,  
Ne qayg'u ashki g'altonig'a bois.

Xito mulkida har nav'i g'aroyib  
Ki, mumkin bo'lmag'ay andoq ajoyib.

Sumanbarlar bori zebou nozuk,  
Hunarvarlar bag'oyat chustu chobuk.



Musha'bidlar sipehri bevafoson,  
O'g'urlab muhra ko'k tosidin oson.

Chu aylab la'b har nayrangsozi,  
Falak har lahza yeb o'n qatla bozi.

Qilib tunni yorug', kunni qarong'u,  
Suvdin o't yondurub, o'tdin sepib suv.

Ko'kartib shu'laliq o'tdin sipandon,  
Osib o'rgamchi tori birla sandon'.

Bulardin dog'i purmakru fusunroq,  
Hisobi haddu g'oyatdin fuzunroq,

Etib har kun oning bazmida hozir,  
Alar aylab fusunu makr zohir.

Qilib shahzoda har qaysig'a ta'miq,  
Bo'lub kayfiyati ollinda tahqiq.

Chu hal bo'ldi bo'lub bir dam tarabliq,  
Bo'lub raf' ul ajab ishdin ajabliq,

Ne shaklikim ketar ashkoli oning,  
G'aroyib ichra qolmas holi oning.

Bular birla dog'i shohi jahongir  
Chu aylay olmadi bu ishga tadbir.

Bo'lub bechora ko'p qildi taammul,  
Yana bir o'zga ish qildi taxayyul,

Ki, qilg'ay to'rt oliy qasr bunyod,  
Bo'lub har fasl bir qasr ichra Farhod.

Tuzub ul qasrda ishratqa asbob,  
Farog'at birla no'sh etgay mayi nob.

Yasab har qasrning davrinda bog'e.  
Ki, bo'lg'ay har gul andin shabcharog'e.

Topib ul fasl rangin ahli nirang,  
Muvofiq aylagaylar qasrini rang.

Bahoriy qasrining tuzgach asosin,  
Olib gullar jamolidin qiyosin.

Buti gulchehradek shang aylagaylar,  
Yuzidek oni gulrang aylagaylar.

Yana qasreki tobistoniy o'lg'ay,  
Tana'umning saro bo'stoni o'lg'ay<sup>2</sup>.

Qilur ul fasl bargu sabza ohang,  
Tanosub birla qilg'aylar yashil rang.

Yana bir qasrkim bo'lg'ay xazoniy,  
Chu bor ul fasl rangi za'faroniy<sup>3</sup>.

Anga bu rang ila bergaylar oyin,  
Qilib zarkorlig' birla har oyin.

Yana bir qasrni aylab shitoyi,  
To'shab kofurgun jinsi xitoyi<sup>4</sup>.

Berib nisbatda qoru muzg'a payvand,  
Etib rangin oning kofur monand.

Bu yanglig' to'rt qasri charxkirdor  
Ki, bo'lg'ay to'rt fasl andin namudor.

Muhayyo aylagaylar naqshi chindek,  
Fazosi ravzai xuldi barindek.

Tugangach ravzadek har hayti ma'mur  
Keraklik bo'lsa g'ilmon anda yo hur.

Xitou Chinda tanlab nozaninlar,  
Bori g'ilmonvashu havro jabinlar.

Bu jannatlarg'a qilg'aylar xiromon,  
Nechukkim ravza ichra huru g'ilmon.

Shak ermaskim, bulardin shohzoda  
Tana'um birla bo'lg'ay dilkushoda.

Burundinkim solur ish tarhi ustod,  
Tamom o'lg'uncha har bir ishratobod,

Hunarvarlarki qilg'aylar hunar fosh,  
Agar xorotaroshu xoh naqqosh.

Biri har dam yo'nub yuz nav' xora  
Ki, qilg'ay havz yo farshu izora.

Biri har dam chekib yuz naqshi dilkash  
Ki, har bir qasrni qilg'ay munaqqash.

O'shul muddatg'acha bu korxonona  
Ki, ko'rguzgay tunganmakdin nishona.

G'aroyib ko'p huvaydo bo'lg'usidur,  
Base shakl anda paydo bo'lg'usidur.

Ko'runub har zamoni ko'zga bir shakl,  
Ko'z olg'och bo'lg'usidur o'zga bir shakl.

Chu bo'ldi jilvagar ashkol yuz nav',  
Anga ham bo'lg'usi timsol yuz nav'.

Yasarda bo'lsa har san'atqa mashg'ul,  
Yasalg'ach bo'lg'usi ishratqa mashg'ul.

Chu bu ishlarga bo'ldi tab'i mu'tod,  
Shak ermas bo'lmog' ul ishlardin ozod.

Chu Xoqon topti mundog' chorag'a dast,  
Ichiga shodlig' yuzlandi payvast.

Bor erdi ollida farxunda dastur,  
Mamolik ra'yidin obodu ma'mur.

Topib oroyish andin mulku ziynat,  
Tutub el ichra Mulkorog'a shuhrat.

Shah etmay mayl anga aytilmayin ish,  
Aning ra'yidin ayru qilmayin ish.

Hamul Farhodg'a erdi atobek.  
Ko'rub Farhod xud oni atodek.

Aning oshufta holidin bu ranjur.  
Nechukkim ganji yag'mo topsa ganjur.

Shah ul fikr aylagach, eldin nihoni,  
Kirib xilvat aro chorlatti oni.

Qusuru hur ishin tarh etti borin,  
Taxayyul qilg'anin sharh etti borin.

Duo aylab dedi farxunda dastur  
Ki hech ish qolmamish royingg'a mastur.

Ravon qilmoq kerak emdi shurui.  
Anga-o'q ayladi shah ish rujui.

Chu Mulkoro eshitti, qo'pti filhol,  
Shahi mulk ollida yer o'pti filhol.

Chiqib shoh ollidin o'lturdi dilxush,  
Bo'lub asbob jam'ig'a raqamkash.

Ketur, soqiy, manga jomi mayi nob,  
Bu soatkim muhayyo bo'ldi asbob

Ki, gardun yetti qasridur vafosiz.  
Jahonning to'rt fasli ham baqosiz.

## XV

*Mulkoroning to'rt ravzai Eram' monand bila to'rt qasri fulakpayvand imoratin to'rt ayirib har biriga Zuhalvash sarkor va Atorudson me'mor ta'yin qilib rub'i maskundek obodlig'ig'a mashg'ul bo'lg'oni va Farhodning ish tamoshosig'a kelib, ahli hunar san'atini tamosho qilib, Qorani<sup>2</sup> sangtarosh ishiga yetishgach g'arobatidin fahmi teshasi ul ish idroki xorasidin kund bo'lub, quyosh mag'rib tog'ig'a mayl etgondek, aning xorosi ustiga tushub, metin tilidin*

*so'z so'rub, xoro sadosidin javob topib, ul ish mayli mumdek  
ko'ngliga «Kan-naqshi fil-hajar»<sup>1</sup> bo'lg'oni.*

Muhayyo aylagan bu korxonada,  
Bu yanglig' surdi vaz'idin fasona

Ki chun shah qildi Mulkoroni ma'mur  
Binolar mulkdin qilmoqda ma'mur.

O'zi otlandi davlat birla xushhol,  
Tushub davlat kibi ollinda iqbol.

Rikobida hakim erdi adadsiz,  
Muhandisshevalar ollinda hadsiz.

Kezib Chin davrida shodu qadahkash,  
Aningdek to'rt mavzi' qildilar xush.

Ki har bir ko'rguzub jannat fazosi.  
Fazosidek suvi birla havosi.

Kelib bir faslg'a har bir muvofiq,  
Bo'lub shahzoda oromig'a loyiq.

Topib devor arkonini avval,  
Buyurdi har biriga to'rt jadval.

Chekildi bir yig'och tul ichra har xat,  
Yig'och o'rni ham o'ldi xat bar xat.

Chu topti bog' tarhi zebu oyin,  
Qilildi to'rt qasr o'rmini ta'yin.

Buyurmoqta o'tub dorog'a navbat,  
Yetishti ishta Mulkorog'a navbat.

Xito mulkida erdi ikki ustod,  
Ikavlon tav'amonlig' birla hamzod.

Laqabda biri Boniy<sup>2</sup>, biri Moniy,  
Muni ko'rgan tasavvur aylab oni.

Qilib me'morliq Boniy ishin fosh,  
Kelib Moniy Xito mulkida naqqosh.

Bo'lub Boniyg'a ul yanglig' mahorat,  
Ki sharhidin kelib ojiz iborat.

Chehib bu qasri miynokor tarhin,  
Kishi andoqki bir devor tarhin.

Suv uzra gunbazi gardun hisobi,  
Anga soz etmak andoqkim hubobi.

Kelib har ne bino ul qilsa bunyod,  
Yiqilmoqdin falak qasridek ozod.

Bo'lub tufrog'i oning xoradin berk,  
Yasab ohakni ohanporadin berk.

Vale Moniy oningdek naqshbandi  
Ki, naqshin charx anga naqshin parandi.

Mudavvar mustaqim o'lsa raqamkor,  
Chehib andoqki jadval birla pargor.

Chu bog'lab surati bejong'a zavar,  
Bo'lub ul nav'kim ruhi musavvar.

Kelib ul naqsh kilki soyasidin  
Ki, kelmay yuz qalam piroyasidin.

Kishiga tushda ta'lim etsa zohir,  
Qo'pub ul uyqudin ustodi mohir.

Yana bir ustodi chobuk erdi  
Ki, ham luk, san'ati ham nozuk erdi.

Qilib xoro safi birla masof ul,  
Laqabda Qorani xoroshikof ul.

Chu metin no'gini xorokan aylab,  
Qatiq xoroni ravzan-ravzan aylab.

Chu nozuklukni aylab xomasi fan,  
Bo'lub bir lavh uza umre qalamzan.

Yana har nav' ustodi yagona  
Ki, ko'rmay fannida andoq zamona.

Tilab borini dasturi xiradmand,  
Ish ahvolidin o'ldi nuqtapayvand

Ki, shahg'a bo'yla amre hodis o'lmish,  
Anga shahzoda fikri bois o'lmish.

Bu yanglig' to'rt bog'i jannatoyin,  
Ichinda to'rt qasri ravza tazyin.

Kerakkim to'rt fasl ul tutsa orom,  
Bo'lub ko'ngli qushi har ravzag'a rom.

Borining rangu vaz'in ayladi sharh  
Ki, ul nav'u bu nav' etmak kerak tath.

Chu so'z topti nihoyat, to'kti yarmog',  
Taammulsiz nechukkim toshu tufrog'.

Alar ham korband aylab bilikni,  
Qo'pub ko'zlarga qo'ydilar ilikni.

Chu Mulkoro alarni qildi xushdil,  
Masolih jam' etarga bo'ldi moyil.

Burun ul ishni qildi to'rt sarkor  
Ki, jam' etkaylar ulcha bo'lsa darkor.

Qo'yub yuz kordon har ish boshida,  
Yana ming korgar har yuz qoshida.

Toshirg'a toshu xishtu bel aroba,  
Tutub Chin ichra obodu xaroba.

Solib ham tog'u ham homung'a afg'on,  
Og'ir yukdin tushub gardung'a afg'on.

Chiqib har tog' uza yuz xoraandoz,  
Ish uzra o'lturub ming xorapardoz.

Aroba demakim, garduni doyr,  
Bo'lub xoro yuki ostida soyir.

Shafaq birla falakdin to'lg'amay bosh,  
Toshib ish boshig'a oqu qizil tosh.

Bo'lub har novakash bir bahri jo'shon,  
Ruboiy bahri soz aylab xurushon.

Alarning bahri zo'ridin nishona  
Ki, har yon kemalar aylab ravona.

Topilmay udu sandal ichra najjor,  
Nechukkim kirsra do'kon ichra tujjor.

Bo'lur chun arrasi chekmakda mahrur,  
Yog'ib sandal nechukkim qishda kofur.

Bo'lur har doygar gardung'a payvast,  
Qolib bel urg'uchi balchiq aro past.

Urarda belin kirgach fig'ong'a,  
Otib bir parcha balchiq osmong'a.

Biyik toq ustida ustodi banno,  
Quyidin qilsa xisht olmoq tamanno,

Topib yuz ming qamar sayr ichra tavse',  
Zuhul birla vale borig'a tarbe'.

Payopay korfarmodin hayohay,  
Hayohaydin qilib el ish payopay.

Tushub xayli bani odamg'a oshub,  
Bani odam solib olamg'a oshub.

Bo'lur gardon aningdek to'rt sarkor  
Ki, sargardon qolib bu yetti pargor.



Ketib ustodlardin ishda qonmoq,  
Ne tinmoq bir zamone, ne tayanmoq.

Ul ishlarga bu yanglig' bo'ldi chun tarh,  
Sarosar qildilar shahzodag'a sharh.

Ki, mundog' to'rt qasri charxkirdor,  
Bo'lubtur to'rt jannatdin padidor.

Ki, har bir toqidek ko'rmaydur ofoq  
Ki, bo'lg'ay rub'i maskun ichra ul toq.

Chu ta'rif ettilar haddin ziyoda,  
Havas qildi ko'rarga shohzoda.

Minib ot, o'ldi ul yon dashtpaymoy,  
Nechukkim tavsani gardun minib oy.

Surub yuz mahvash atrofida markab,  
Aningdekkim, qamar davrida kavkab.

Chu raxshin surdi ul yon bemaduro,  
Qiyomat ko'rdi bo'lg'on oshkoro.

Tushub bir olam elga bul-ajab jo'sh.  
Bo'lub borig'a xobu xo'r faromush.

Chekib gardung'a to'rt andoq bino bosh  
Ki, gardun deb anga har lahza: shobosh!

Falak toqig'acha bog'lab havoza,  
Zuhal yanglig' chiqib ustiga roza<sup>5</sup>.

Qo'yorg'a har bino oli ravoqi,  
Bo'lub qolip hamono charx toqi.

Ishida mahv oningdek har bir ustod  
Ki, ishdin o'zga bori ishdin ozod.

Ko'rub shahzoda andoq turfa ahvol,  
Tahayyur barmog'in tishlab — qolib lol.

Qayu bir peshakim andesha aylab,  
Qolib hayronu tahsin pesha aylab.

Kezar erdi boqib har peshavarni  
Ki, ko'rdi necha chobuk teshavarni.

O'kub har sori qulla-qulla xoro,  
Qilibon pora-pora bemadoro.

Itik teshalarig'a har qaro tog'.  
Pichoq ollinda andoqkim, sarig' yog'.

Birining mumdek ilgida xora,  
Qilib suv g'ulbig'a sher oshkora.

Biri yumshog' yig'ochdek xorapardoz.  
Sutung'a pilpoya aylabon soz.

Aroda naqshbandi hiylasozi,  
Muhandis shevai paykartirozi

Temurdin xomasi har yon ravona,  
Qilib tosh uzra tufroqdek nishona.

Chehib yuz nav' paykar xomasidin  
Ki, Moniy lol o'lub hangomasidin.

Gahi hanjor ila, gohi qilib zo'r,  
Solib san'at bila ofoq aro sho'r.

Ko'rub shahzoda andoq kordone,  
Tamoshosig'a mayl etti zamone.

Chu tushti, soldilar bir tosh uza raxt,  
Yasab shoh o'ltururg'a xoradin taxt.

Saodat birla tutqoch anda taskin,  
Dedi: «Ey kordoni san'at oyin.

Degil bu san'atingdin bizga fasli –  
Ki, andin zohir o'lsun far'u asli.

Oting aytu oni hamkim bu pesha  
Ki, yo'ng'ay mumdek xoroni tesha.

Nedindur ko'rmaduk bu nav'i hargiz  
Ki, bo'lmish fahm idrokida ojiz?

Yig'ochekim qatiroq bo'lsa zarra,  
Pichoq yetkach bo'lur andoqki arra.

Ne suv birla beribsan teshanga zeb  
Ki, topmas xora yo'nmoq birla oseb.

Hamul xomangki aylar xora tanqir,  
Aning kayfiyatini ham ayla taqir».

Yer o'пти kordoni naqshpardoz,  
So'zin qildi duo birla sarog'oz

Ki: «To bo'lg'ay havodis Ko'hi Qof<sup>6</sup>  
Chaqilg'ay ildirim xoro shikofi.

Havodis toshidin osuda boshing,  
Ushotsun dardu g'am boshini toshing.

Qatig xasming nasibi xora bo'lsun,  
Mashaqqat tog'ida ovora bo'lsun.

Chu so'rdung avval o'tim shuhratini  
Va so'ngra san'atim kayfiyatini.

O'tim Qoran, ishim xud oshkoro,  
Qo'lumda teshau o'llimda xoro.

Bukim so'rdungki metin birla tesha,  
Nechuk sinmay yo'nar xoro hamesha?<sup>7</sup>

Aning suv bermagida holati bor  
Ki, andin aylamasbiz elga ixbor.

Su bersa o'yla afzorig'a ustod,  
Yuz il xoro demaykim, yo'nsa po'lod,

Sinardin teshavar osuda bo'lg'ay,  
Tugangay baski ishdin suda bo'lg'ay.

Xito ahli bu san'at aylabon soz,  
Bo'lub olam elidin ishta mumtoz.

Bu el ham ulcha men bilganni bilmay,  
Dalilim buki: men qilganni qilmay».

Chu dono surdi mundoq nuktai pok,  
Bo'lub shahzoda bilmakka havasnok

Dedi: «Ollimda bo'l shug'lungg'a mashg'ul.  
Ki, bu san'at erur ko'nglumda maqbul.

Gahe yo'ng'il, gahe naqsh ayla xora,  
Men aylay o'lturub bir-bir nazora».

Hunarvar yetkurub gardung'a boshin,  
Muhayyo aylabon afzoru toshin.

Ko'rub shahzoda ko'nglin shug'lig'a band,  
Bo'lub xorotaroshu naqshpayvand.

Qayu bir teshakim xorog'a solib,  
Bu tahsin aylabu hayratqa qolib.

Bu erdi shug'li to ul lahzakim mehr —  
Yashurdi burqai xoro aro chehr.

Qo'pub ul xoradin shahzoda nokom,  
Tutub xorosumi ustida orom.

Savodi shahr sori xorapaymoy,  
Nechukkim tog' aro mehri falaksoy.

Ketur, soqiy, manga bir jomi rangin  
Ki, tushmish g'am toshi ko'nglumg'a sangin

Ki, ul sel anda g'am xorin supurgay,  
Demay g'am xorikim, xoroni surgay.

## XVI

*Farhodning Qoran bila xoro yo'narda muqorin bo'lub, balki ul oyning bu Zuhal bila qiron qilmog'i va bu fanda anga sohibqironliq eshigi ochilmog'i va Moniy qalam mo'yidin tasvir fanin qalam-baqalam, balki mo'-bamo' bilmog'i va jamii sanoyi' va hunar daqoyiqi aning ilgiga kelmog'i va to'rt yilda to'rt hadiqai Eram misol va to'rt qasri Xavarnaq timsolningkim, to'rt fasl muqtaziyoti rangi bilan bino qo'yulub erdi, itmomi va xoqonning alarni Farhodga musallam tutub, anda bazmi ishrat tuzarga ehtimomi.*

Bu xoro uzra tez etkan qalamni,  
Yuziga bo'yla naqsh etti raqamni:

Ki, chun shahzoda tushti uyga ul shom,  
Yo'q erdi ko'nqlida bir lahza orom.

Bo'lub xoro tamoshosig'a mag'lub,  
Solib har dam havas ko'nqlig'a oshub.

Nechakim aql piri zufunundur,  
Havas atfoli ilgida zabundur.

Chu bo'ldi tun qaro tog'i nigunsor,  
Nechukkim zilzila bo'lg'onda ko'hsor.

Quyosh la'li chekib tog' uzra avrang,  
Falakni subh qildi marmariy rang.

Chu gardun qullasig'a mindi xurshed,  
Tamosho azmig'a otlandi Jamshed'.

Surub markabni chun ul yon yovushti,  
Hunar ahliga rustoxez tushti.

Solib har xayl ichiga chun nazar tez,  
Tavaqquf aylamay aylab guzar tez.

Debon har kim ishiga chun solib ko'z,  
Ham oning istilohi birla bir so'z.

Topib ahli hunar bu nav'i komin,  
Fuzunroq aylab ishda ehtimomin.

So'zidin chun tamattu' oldi har xayl,  
Ravoni ayladi Qoran sori mayl.

Yana tutti hamul xoroda maskan  
Yana yo'ndi hamul xoroni Qoran.

Buyurdikim, kelib ustodi haddod,  
Yasog'ay teshau metini po'lod.

Hamul ohangudozi ohaninchang,  
Ravon qildi buyurg'on ishga ohang.

Bo'lub o'tdin temur la'li Badaxshon,  
Shafaq ichra nechukkim mehri raxshon.

Yasab har nav'idin afzori diljo',  
Vale afzorig'a Qoran berib suv.

Suv bergach olibu xoro yo'nub tez,  
Bo'lub xorodin ul suv otashangez.

Ne ish soriki solib ko'z nihoniy,  
Nihonu oshkoro onglab oni.

Tasarruflar qilib ul nav'i mulhaq  
Ki, birdin ming bo'lub ul ishga ravnaq

Aningdek qildi xoro yo'nmog'in vird  
Ki, yuz Qoran qoshida bo'ldi shogird<sup>2</sup>.

Gahi eldin qilib andesha pinhon,  
Olur erdi qo'lig'a tesha pinhon.

Qilib bir damda oncha ish nihoni  
Ki, qilg'ay o'zgalar bir oyda oni.

Bu erdi har kun oning ishtig'oli  
Ki, to ul peshada bo'ldi kamoli.

Chu bo'ldi to'rt yil gardun mururi,  
Yasoldi to'rt firdavsu qusuri.

Tashida qildi Qoran san'atu soz,  
Ichinda bo'ldi Moniy naqshpardoz.

Hamon alvon bilakim tushti taqdir,  
Tuzatti har bir evga naqshu tasvir.

Qalamzang'a<sup>3</sup> bo'lub surmak qalam fan,  
Yonida korfarmo<sup>4</sup> ham qalamzan.

Qayu suratki Moniy qildi timsol,  
Anga Farhod ochti chehra filhol.

Bu ishni dog'i oz fursatda qildi,  
Aningdekkim, kerak alqissa bildi.

Ul evlarga tuganguncha ichu tosh,  
Ham o'ldi xorabur, ham bo'ldi naqqosh.

Bularni qo'yki, har ustodi mohir  
Ki, qildi san'atin ul evda zohir,

Chu har yon mayli bir dam zohir o'ldi,  
Ul ishda ustodi mohir o'ldi.

Butub alqissa har bir qasri ohiy,  
Yasaldi bog'lari jannat misoli.

Bahoriy ravza topqoch zebu tazyin,  
Ichu toshig'a gulgun bo'ldi oyin.

Bo'lub suratlariga chehra gulrang,  
Qilib gulzor aro ishratqa ohang.

Gileme solinib gulgunu zebo,  
Yasolib ko'rgasi gulrang debo.

Bo'lub gulrang ravzan, tobadon ham,  
Eshik gulrang, balkim oston ham.

Butub havzeke andin ruh olib qut,  
Ushoq tosh tegrasida la'lu yoqut.

Bo'lub gulrang may havz ichra to lab,  
Arig'lardin dog'i oqib labo-lab.

Ochilg'on har taraf bir gulshani gul,  
O'kulgan har sori bir xirmanani gul.

Kezib gulchehralar har sori mavzun,  
Kiyib boshdin-ayoq deboyi gulgun.

Yana bir ravza tobistoni uslub  
Ki, keldi qasri miynorangu marg'ub.

Topib ul dog'i axzar zebu oro,  
Qolib sargashta andin charxi xazro.

Yeri uzra sarosar sabza navbar,  
Chamanlar sarbasar sarvu sanavbar.

Qushi to'ti. ne to'tikim surushe,  
Malakdek hulla birla sabzpo'she,

Ravon bir sho'xi sabzorang har yon,  
Tutub bir jomi miynorang har yon.

Bo'lub har havzning toshi zabarjad,  
Ushoq tosh o'rnig'a sohib zumurrad.

Falak yanglig' yashil qasrida toshi,  
Yashil toshi kibi toqida koshi.

Aningdekkim, yashil koshiyu xora,  
Yashil chini bila farshu izora.

Demay har sarv, balkim har giyohi,  
Bo'lub ishratqa anda Xizri rohi.

Yana bir ravzag'a rangi xazoniy,  
Tana'um kulgusiga za'faroniy.

Muzahhab toqi bazmoroyi oning,  
Mutallo farshi gardunsoyi oning.



Hunar kilki bila aylab hunarkor,  
Ichin zarkoru toshin dog'i zarkor.

Ichining surati ruhi musavvar,  
Tashining shamsasi mehri munavvar.

Bo'lub havzining oltun farshu xishti,  
Nechukkim xisht ila farshi bihishti.

Mayi asfar bu havz<sup>5</sup> ichra ravona,  
Suv ichra mehr aksidin nishona.

Nechukkim havzdin oqib sorig' muł,  
Xazoniy bargdin yog'ib sorig' gul.

Sanamlar jilvagari mehri samovash,  
Ayog'din-bosh libosi kahrabovash.

Bori ma'shuqu oshubi zamona,  
To'ni rangi borining oshiqona.

Yana bir ravza rangi sarbasar nur,  
Bayoz ichra kirib, andoqki kofur.

Bo'lub qasrining ichu toshi marmar,  
Ne marmar, yashmi kofuriy sarosar.

Safodin havzi siymi nob yanglig',  
Tala'ludin suyi simob yanglig'.

Bo'lub gachkorlig' siymin ravoqi,  
Nechukkim qosh ichinda ko'zning oqi.

Bari oq hulladin oyini oning,  
Bari farshi bo'lub oq chini oning.

Yorub har ev xitoyi siymtandin,  
Tan uzra hullasi bargi sumandin.

Sadafgun havz aro har yon oqib suv,  
Bu suvdin sekregan har qatra inju.

Bu yanglig' to'rt suratxonai Chin,  
Ichinda to'rt qasri ravza oyin.

Qayu bir qasr har ayvon sipehre,  
Ne suratxonakim, har shamsa mehre.

Tugandi zeb aro Bog'i Eramdek,  
Qayu Bog'i Eram, Bayt ul-haramdek<sup>6</sup>.

Chu Mulkoro shuruu ehtimomi,  
Muhayyo qildi ul ishni tamomi.

Kelib Xoqon qoshida qildi taqdir,  
Munungdek to'rt mushkil ishni bir-bir

Dedi chun borchaning kayfiyatini jazm,  
Tamoshosig'a Xoqon ayladi azm.

Surub so'l yonidin farxunda dastur,  
Savodi mulk royi birla purnur.

Yurub o'ng yonidin shahzoda Farhod,  
Bo'lub shah shod, bal shahzoda ham shod.

Guzar aylab burung'i ravza sori,  
Shahu shahzodau dastur bori.

Tushub chun qildilar azmi tamosho,  
Desang firdavs o'lur ul nav' hosho.

Ko'rub bog'ida yuz turluk ajoyib,  
Topib qasrida ming oncha g'aroyib.

Ikinchi xud jinondin bul-ajabroq,  
Uchunchi qasr ondin bul-ajabroq.

Bo'lub to'rtunchida baskim latofat,  
Bu uchdin dog'i ortuqroq g'arobat.

Bu andin yo'qki, ul mundin kelib xo'b,  
Biri-birdin kelib matbuu marg'ub.

Bo'lub darkida ojiz aqlu jon ham,  
Muqir ajzig'a fahmi xurdadon ham.

Muni har kim ko'rub ra'nou cholok,  
Ani ko'rgach ketib bu yodidin pok.

Anga har kim qilib fikru taammul,  
Muni ko'rgach unutub oni bilkul.

Berib ustodlarg'a oncha in'om.  
Ne oncha yuz tama' qilg'oncha in'om.

Biyikroq chekti Mulgoro maqomin,  
Burung'icha yuz aylab ehtiromin.

Tutub shahzodag'a borin musallam,  
Hamul huru qusuru ravzani ham.

Solib jashnu tarab tarhini bir yil  
Ki, sharhidin aning ojiz bo'lub til.

Dedi dasturi Mulkorog'akim: «Bot  
Ki, ta'xir ichra keldi biymi ofot.

Tuzat har yerda onglab fasl chog'in,  
Uch oyliq ayshu ishratning yarog'in.

Hamul uch oyki faslining havosi  
Qilur ul qasr lavni iqtizosi».

Eshitgach hukm dasturi xiradmand,  
Buyurg'on ishga bo'ldi sa'ypayvand.

Ochib har sori maxzanlarg'a abvob,  
Tuzotti aysh uchun bir yilliq asbob

Ki, bo'lg'ay har uch oy bir ravzada to'y  
Ki, o'lgay har kuni yuz otu ming qo'y.

Munga loyiq bari ma'kulu mashrub'  
Ki, ham ko'pdin-ko'pu ham xo'bdin-xo'b.

Sochiq birla navou sozi oning,  
Xitoyi jins poyandozi oning.

Adadsiz mevai ishratfizoyi,  
Nihoyatsiz yana xoni xitoyi.

Ketur, soqiy, sharobi chini oyin  
Ki, jonim qasdi etmish bir buti Chin.

Chu qildi Chin shahi may bazmig'a azm.  
Yasoli biz dog'i may azmig'a bazm.

### XVII

*Bahor nasimi nafas bila lola o'tin yorutub, g'uncha pardasin ochqonda,  
balki lolau gul yafrog'larin chaman gulruxlari boshig'a sochqonda xoqon  
Farhod bila gulnoriy qasr mayli qilib, gulgun may o'ti hila bazm ravshan etib,  
chaman rayohindin xoli bo'lub, ashjor xizrvashtash yafrog'lar bila sipehri axzardin  
namuna bo'lg'onda rayhoniyy qasrda tarab bargin tuzotib, rohi rayhoniyy ichib;  
daraxt yashil kisvatin za'faroniyy hullalarga badal qilg'onda za'faroniyy qasrda  
oltun sog'arg'a asfar may to'kub; day tojiri bog' libosin kofurkirdor qilib, balki  
tog'u sahrog'a kofurbor bo'lg'onda qasri kofuriyy aro billurgun qadah ichra  
kofuriymizoj may no'sh etib, har hadiqada uch oy nishot qilib, bir yilni  
bu nav' tarab bila o'tkarib xoqon Farhodning mizojig'a iloj qila olmog'oni.*

Hamal tahvili etkach mehri gulchehr,  
Ochar yuz gul zamona ko'rgach ul mehr.

Qilur mashshotai sun' oshkoro,  
Arusi dahrning husnig'a oro.

Qilur tun birla zulfu kun bila eng,  
Etar lekin bo'yi birla sochin teng'.

Rutubat yetkurub har sori yog'in,  
Tar aylab qatradin gullar dimog'in.

Bulut aylab rutubat ul sifat fosh  
Ki, nargis urkudar solib quyi bosh.

Ko'rub nargisda mundoq turfa uyqu,  
Qizortur g'unchani har lahza kulgu.

Tilar chun g'uncha shakkarxanda qilmoq,  
Topar ul kulgudin gul-gul ochilmoq.

Bulutkim g'uncha uzra jola otib,  
Hamono kulgusidin bag'ri qotib.

Munikim g'uncha tinmas kulgusidin,  
Muhaqqaq bilma nargis uyqusidin.

Ochar nargis muza'far tosi chandon,  
Bo'lur ul za'farondin g'uncha xandon.

Agar xud no'sh qilmas g'uncha oni,  
Nedin bas komin aylar za'faroni?

Hamonokim emastur za'faron ul  
Kim, aylar xurda og'zida nihon ul,

Chun aylar xurda yig'mog'liqqa ohang,  
Tutar bu xurdadin dahr oni diltang.

Hamonoxurda to'kmakka nigundur,  
Belida yo'qsa oning ne tugundur?

Chekar bog' ichra bulbul oncha afg'on,  
Ki, afg'oni qilur gul bag'rini qon.

Va yo gul ko'rguzur bir paykar ondin,  
Qizil har bargi bir o'tluq par ondin.

Chu bulbuldin bo'lur paykorguzin gul,  
Bu ma'ni birla derlar otashin gul.

Qachon yel qilsa har bargini pora,  
Uchar har sori ul o'tdin sharora.

Bo'lur gulshan harimi sarbasar gul,  
Latofat ichra bir gulshancha har gul.

Nasimi subh o' lur bog' ichra gulbor,  
Bo' lur bog' otashin gul birla gulnor<sup>2</sup>.

Bu o' t yonida bulbul maskan aylar,  
Qanot urmoq yelidin ravshan aylar.

Qilur gulbun chu gul ochmoqni ohang,  
Bo' lur gulshan yuzi gul birla gulrang.

Bu fasl ichraki olam bo' ldi gulgun,  
Shafaqgun aksidin mir' oti gardun.

Huvaydo qildi har gul bir shamoyil,  
Shah o' ldi qasri gulgun sori moyil.

Tuzoldi oncha asbobi tana' um  
Ki, gulshan bo' ldi oning ostida gum.

To' shab qasr ichra yuz deboi gulrang,  
Qo' yuldi taxti gardun sori ohang.

Shah o' lturdi, yonida shohzoda,  
Qilib orazlarin gulrang boda.

Qo' yub taxt ollida kursii gulfom,  
Bo' lub ustida Mulkorog' a orom.

Turub bazm ichra yuz gulchehrai Chin,  
Borig' a hulla gulrangu gulogin.

Mayi gulgun tutub gulchehra soqi,  
Ichar el qo' ymayin bir qatra boqi.

Mug' anniy nag' ma tortib betaammul,  
Biaynih o' ylakim, gul fasli bulbul.

Gul aylab barg, har bir sarvi navxez,  
Qilib har raxnadin qasr ichra gulrez.

Botib bazm ahli gul bargida to farq,  
Shafaq bahrida mehr o' lgan kibi g' arq,

Chekib gulrang may shahzoda Farhod,  
Guli ruxsorida xoqon bo'lub shod.

Yuziga boqibu borib o'zidin,  
Oqib xushvaqtlig' ashki ko'zidin.

Qilib har lahza mufrit mehr zohir,  
Sochib boshig'a gah gul, gah javohir.

Yo'q ulkim, bazm eli shaydosi oning  
Xitou Chinda vovaylosi oning.

Bu yanglig' to nujumi charxpaymoy,  
Hisobi fasl ila o'tkardi uch oy.

Alar gulnorgun qasr ichra gulposh,  
Ko'tarmay la'lgun maydin dame bosh.

Itikrak esdi chun gulshan shamoli,  
Chamanni borcha guldin qildi xoli.

Yashundi bargi gul yafrog' ichinda,  
Nihon o'ldi shajar yafrog' ichinda.

Libos etti chaman miyno masallik,  
Ne miyno, gulshani xazro masallik.

Chamanlar ichra yo'l-yo'l sarvi ozod,  
Degilkim soldi tuz-tuz soya Farhod.

Dema sarvu sanubar, har niholi  
Bo'lur sarvu sanubardin misoli.

Berib yafrog' nishon to'ti paridin,  
Shajar tovusi jannat paykaridin'.

Anga dog'i qovursun obkashdin,  
Munga ham toj shoxi xizrvashdin.

Shajar gar bo'lmasa tovus bog'i,  
Nedin tovusdek bo'ldi ayog'i?

Magar onglab o'ziga uyqu chog'in.  
Pari ichra o'g'urlab bir ayog'in.

Qilib noranj oltundin ayon ganj,  
Libos aylab o'ziga bargi noranj'.

Uyotdin ishqpechon bargi pechon,  
Chiqib har shox uza yuz ishqpechon.

Yashil safha chamanning marg'zori,  
Kumush jadvaldek oning jo'ybori.

Samar suvlar bo'lub oyinaohang,  
O'lang aylab ayon ul ko'zguda zang.

Yo'q, ul suv bog'ning ruxsori onгла,  
Anga sabza xati zangori onгла.

Bu fasl ichraki zebi olam o'ldi,  
Bori ofoq sabzu xurram o'ldi.

Qilib ul gulshani miyno sori azm,  
Tuzub ul sabzai ra'no uza bazm.

Falakvash qasri axzar ichra mayno'sh  
Ki, aylab charxi axzarni faromo'sh.

Qilib Farhodu xoqon hulla chini,  
Bo'lub Chin taxtining masnadrishini.

Yashil to'n ichra har yon siymbarlar,  
Yashil barg ichra andoqkim shajarlar.

Qizil rohu yashil chini piyola,  
Nechukkim sabza sahni ichra lola.

Mayi gulrang chini sog'ar ichra,  
Shafaq andoqki charxi axzar ichra.

Ayoqchiliq etib har sori oyin,  
Achig' may tutqali bir sabzi shirin.



Bo'lub may shirasidin otashangez,  
Berib ul o'tqa taskin qursi kashnez.

Taom ichra takalluflarg'a dastur,  
Ham andoqkim, burunroq bo'ldi mazkur.

Bo'lub ham qasri miyno ichra uch oy,  
Nishotu aysh birla bodapaymoy.

Chu qildi kahrabogun mehri gardun,  
Yig'ochlar bargi rangin kahrabogun.

Yetishti kahrabogun qasr chog'i.  
Ochildi kahrabogun qasr bog'i.

Shajar yafrog'i bo'ldi kahrabodek,  
Demakim kahrabo, mehri samodek.

Bu nav' o't sori bo'lg'och yel guzori,  
Sochib har sori gulrezi chinori.

Chinorekim ichiga o't tutoshib,  
Ul o'tning shu'lasini bargidin oshib.

Sabo qilg'och suv ichra zarfishonlig',  
Suning tig'ini aylab zarnishonlig'<sup>45</sup>.

Uchub barg o'tidin har yon sharora,  
Nechukkim zarvaraqqin pora-pora.

Sarig' yafrog' uzakim o'lturub zog',  
Bo'lub andog'ki sorig' lolada dog'.

Terak sorg'ortibon yuz zorlardek.  
Sarig' og'riq bila bemorlardek.

Chamanning har yig'ochi bir sarig' qush.  
Bo'lub bori tulak ayyomig'a to'sh.

Havo qilmoqqa yafrog'din ochib par,  
Chu yeldin silkinib, har yon sochib par.

Qilib har tun nasimi subhgohi,  
Shajar bargin nechukkim subh kohi.

Aningdekkim chekib oshiq sovug' oh,  
Qilur kohi yuzin ul ohi jonkoh.

Quyun yafrog'ni aylandursa har yon,  
Bo'lur majnuni sargardonu uryon.

Qilib zarhal xazon naqqoshi tartib,  
Qilurg'a bog' avroqini tazhib<sup>6</sup>.

Bu shug'li ichra aylab sahv tarkin,  
Zar andar zar qilib barg uzra bargin.

Quyoshdek tob urub qasri muzahhab,  
Xazoniy barglar girdida kavkab.

Ajab fasle jahong'a ko'rguzub yuz  
Ki, bir kun jilva aylar mehru yulduz.

Munungdek faslda shahzodau shoh.  
Bu nazhatgahni qildilar tarabgoh.

Qilib kisvat hariri za'faroni,  
Iki gardun quyosh ichra nihoni.

Muzahhab shirada oltun surohi,  
Bo'lub oltun suyi lavn ichra rohi.

Uy oltun, farshi oltun, tomi oltun,  
May oltun, zarfi oltun, jomi oltun.

Hulal qasr ichra har yon zebi zarhal.  
Kavokibdek guhar birla mukallal.

Ko'runub ko'zga oydingek namudi,  
Quyosh zarrishtasidin toru pudi.

Mug'anniylar chekib dilkash navolar,  
Solib zarkor toq ichra sadolar.

Favokih bazm aro limuvu noranj,  
Bihi ko'rgach oni ko'rmay yana ranj.

Tarab ko'prak bo'lub dasturdin ham,  
Dema dasturkim, maqdurdin ham.

Uch oy bu qasr aro ham tuzdilar jaysh,  
Surudu boda birla qildilar aysh.

Sovurdi chun shajar bargini sarsar.  
Suning simobini day qildi marmar<sup>7</sup>.

Havo dog'i bulutdin kiydi sinjob,  
Bulut dog'i havog'a sochti simob.

Day ustodi nechukkim zargari Chin,  
Zilol atfoli lavhin qildi siymin.

Bulutdinkim tomib har qatrai suv,  
Burudatdin yog'ib olamg'a inju.

Arig'kim obgin hanjar aylab,  
Sovuq og'zi luobin xanjar aylab.

Falak tundin ko'mur aylab saranjom,  
Shafaqdin solibon o't anda har shom.

Ul o'tni tong yeli birla dam aylab,  
Isitmog'liq uchun qaddin xam aylab.

Qamar sarchashmasi har tun to'ngub muz,  
Muz o'lg'on qatralar girdida yulduz.

Muz aylab yer yuzin oyinaoyin,  
G'alat qildim, degil oyinai Chin.

Sovuq o't tab'idin eltib harorat,  
Sharar o'rtarga ko'rguzmay sharorat<sup>8</sup>.

Qiziq kul tobi yo'q onchaki sinjob,  
Yo'q oltoyicha yong'on shu'lag'a tob.

Qizil axgar aqiqi nob yanglig'.  
Burudatdin guli serob yanglig'.

Qizil o't sovug' andoqkim qizil gul,  
Aning dudi bo'lub gul uzra sunbul.

Yog'ib andoq burudat zamhariri  
Ki, taxta tosh bog'lab suv hariri.

Kafin og'zi bila muflis dam aylab,  
Iki tiz ko'ksi ichra mahkam aylab.

Qo'lin qo'ltug'lar ichra mu'takif ham,  
Qulog'lardin o'tub iki katif ham.

Mizojin topmayin xurshed mahrur,  
Sochib olamg'a nur o'rnig'a kofur.

Jahon ham qor ila kofur monand,  
Havo ham muz bila bulurpayvand.

Sovug'ning bo'yla kofuru buluri,  
Oqortib borcha olamni zaruriy.

Agarchi hullalarning rangi kofur.  
Va lekin osu qoqum birla mahrur.

Yana bazm o'ldi anjumdek muhayyo,  
Bo'lub jam'iyat andoqkim Surayyo.

Tutub har sori bir Chin nozanini,  
Tuman ming noz ila bir zarfi chini.

Gar oti chiniyi fag'furi oning,  
Vale rangi kelib kofuri oning.

Degancha balki yuz oncha takalluf.  
Takalluf bobida qolmay taassuf.

Nishotu aysh o'lub sharh aylagoncha,  
Qayu sharh aylagonchakim, yuz oncha.

Bu yanglig' ham o'tub ishratda uch oy.  
Bo'lub ul to'rt yerda majlisoroy.

Bularg'a bois ulkim shohzoda,  
Bu yanglig' aysh birla ichsa boda.

Nishotin har zamon may toza qilg'ay,  
Tarab har lahza beandoza qilg'ay.

Vale ul bermay o'z tavig'a tayg'ir.  
Nechuk tayg'ir topqay naqshi taqdir?

Hamul purdardu so'zga ohi oning,  
Anodin nolai jonkohi oning<sup>9</sup>.

Biravkim zor yig'lab-yig'lab ul zor,  
Topib ko'ngli el ozoridin ozor.

Chiqorib so'zlig' so'z boshidin dud,  
Sovug' oh aylab ohin otasholud.

Bo'lub el anduhidin ko'ngli g'amnok,  
Yoqo chokin ko'rub, ko'ksin qilib chok.

Birovkim ishqdin qilsa rivoyat,  
So'rub har dam mukarrar ul hikoyat.

Tafahhus aylab andin ko'p nishoni,  
Nishonin ko'nglida asrab nihoni.

Visol ichra zamirin shod topib,  
Alamdin xotirin ozod topib.

Yetishgach hajr sharhi zor yig'lab,  
Iki ko'z aylabon xunbor yig'lab.

Chu xoqon o'z ishin nazzora qildi,  
G'alat topti, nechakim chora qildi.

Yengib ul hol aro hayronlig' oni,  
Qilib sargashta sargardonlig' oni.

Qadahsiz, soqiyo, hayronmen asru,  
Evur sog'arki sargardonmen asru.

Ko'ngulga ishq o'ti solg'och sharora,  
Anga yo'q may suyidin o'zga chora.

### XVIII

*Xoqonning xonlig' tojin o'z gavhari bila arjumandi sarmoya qilurning  
mojarosi va jahonbonliq taxtin o'z naqdi bila balandpoya etarning  
muddaosi va o'z qarig'onidini boshi oqorg'on sarguzashtin demoq va ko'zi  
adam uyqusig'a mayl qilg'on afsonasin aytmoq va Farhodning toj  
soyasidin boshin qochurub, taxt poyasidin ayog'in yashurmoq va boshin  
xoqon taxti ayog'iga qo'yub uzr aytmog'i va uzri boshtin-ayog  
xoqon ko'ngliga yoqib o'z so'zidin qaytqoni.*

Bu kishvar uzra urg'on ko'si shohi,  
Bu oyin birla tuzdi so'z sipohi'

Ki, xoqon har nechakim chora qildi,  
Qazo ichra o'zin bechora bildi.

Ko'rub Farhod tog'i avjini tund,  
Qilib ul tog' royi tig'ini kund.

O'zin solmay yana bir fikr etib soz,  
Bu yanglig' bo'ldi ishga chorapardoz

Ki, chun qilmish kuhulatdin tajovuz,  
Kibar mehrobig'a qo'ymish yoshi yuz.

Yana Farhod bo'lmish navjavon ham,  
Xiradmandu rashidu pahlavon ham.

Yo'q ulkim Chinda xoqonliqqa loyiq,  
Bori olamda sultonliqqa loyiq.

Nekim shahlig' aro shoyist bo'lg'ay,  
Kim ul shahlarg'a darboyist bo'lg'ay,

Yaratmish Haq aning zotida borin,  
Ayon qilmay kerakmas ish g'uborin.

Erur bori hunar ichra kamoli,  
Tamomi ayblardin zoti xoli.

Yig'iyu nolau afg'ondin o'zga  
Ki, yo'qtur hech aybi ondin o'zga.

Birovkim topsa shahlig'din rayosat,  
Tuzuk bo'lmas ishi qilmay siyosat.

Chu ko'ngli bor aning riqqatg'a moyil,  
Erur andin tashaddud naqshi zoyil.

Kerakmas erdi tab'i muncha sofi  
Ki, bo'lg'ay saltanatg'a ul munofi.

Birovkim olam ichra shoh kelmish,  
Ulus boshig'a zillulloh kelmish.

Kerakkim shaxsdin ne topsa poya,  
Hamul holatni zohir qilsa soya.

Tomug', uchmog' yaratmish Hayyi Jabbor,  
Agar Vahhob erur, Qahhor ham bor.

Angakim berdilar mir'oti shohi,  
Erur ul mazhari zoti Islohi.

Aning zotig'a bo'lg'onlar mazohir,  
Kerak bo'lmoq sifoti birla zohir.

Sifotidin biri har kimda kamdur,  
Munofi shahlig' asbobig'a hamdur.

Chu bor ul mazhari sirri jamoli,  
Jaloliyat o'tidin zoti xoli.

Qayu dushmanki, qasdi joni qilg'ay,  
Tilarkim, jon aning qurboni qilg'ay.

Havodis shastidin gar kelsa yuz o'q,  
Ravo ko'rgay o'ziga, o'zgaga yo'q.

Bu ish darveshlikda xush sifatdur,  
Vale shohlig'da noxush xosiyatdur.

Shah ar tig'i siyosat qilmasa tez,  
Chekilgay xalq aro yuz tig'i xunrez.

Qaroqchi qoni o'lsa raxtida dog',  
Bu gul tojirg'a aylar tog'ni bog'.

Agar zolimg'a yo'qtur shohdin bok,  
Erur ul xushdilu, mazlum — g'amnok.

Yatim etsa ichib ko'y ichra bedod,  
Bu g'amdin tifli maktab bo'lmas ozod.

Bularni ul demak bo'lmaski bilmas,  
Bilur, lekin nechukkim bildi qilmas.

Manga bu qissa bas mushkil tushubtur,  
Kim ul mazlum ko'chakdil tushubtur.

Netaykim zo'ridindur pil ojiz  
Ki, sindurmas singak nishini hargiz.

Ne osig' sherdin ko'p zo'r panja,  
Ayog'ida chu bo'lmas mo'r ranja.

Ne sud, ar ilm aro fardi zamondur,  
Chu jahl ahlig'a biymidin amondur.

Emastur anda bu xudroylig'din,  
Erur olamg'a beparvoylig'din.

Necha bu ishta bo'ldum fikratandish,  
Davo yo'q erdi, qolmish emdi bir ish.

Anga tutsam musallam saltanatni,  
Zarurat tark qilg'ay bu sifatni.



Qachon ish tushsa o'z boshig'a beshak,  
O'ziga tutqusidur borcha emgak.

Chu qildi olam ahlig'a taahhud,  
Yomon elga bo'lur vojib tashaddud.

Siyosatni birov chun qildi bunyod,  
Bo'lur tadrij birla tab'i mu'tod.

Bu ishning lazzatin chun topti komi,  
Bo'lur har lahza ko'prak ehtimomi.

Bu ra'yi birla xoqon xushdil o'ldi  
Ki, ya'ni borcha komi hosil o'ldi.

Topildi ishga chun bu nav'i taqrib,  
Ravon shohona jashne qildi tartib.

Tilab arkoni davlatning tamomin,  
Qilib hozir eshikning xosu omin.

Berib shahzodag'a yonida manzil,  
So'z og'oz etti oson, lek mushkil

Ki, chun Haq aylabon zohir hidoyat,  
Manga qildi jahonbonlig' inoyat.

Xitou Ching'a berdi komronlig',  
Qayon azm aylasam kishvarsitonlig'.

Tajammul haddi imkondin fuzunroq,  
Nekim qilsam gumon ondin fuzunroq.

Ne komelim taxayyul ichra sig'may,  
Ne ayshekim taaqqul oni yig'may.

Borig'a qildi ko'nglumni barumand,  
Karomat qildi borin g'ayri farzand.

Bukim mulkumga yo'q erdi valiahd,  
Og'u ta'mi berur erdi yesam shahd.

Bu g'amin muttasil pajmurda erdim,  
Hayotim bog'idin ozurda erdim.

Chu yig'lab yerga ko'p qo'ydim yuzumni,  
Yorutti Haq sening birla ko'zumni.

Bihamdillah, nekim qildim tamanno,  
Borin iqboldin toptim muhayyo.

Bu kun yuz shukrkim, qildi O'g'onim,  
Seni ming onchakim bo'lg'ay gumonim.

Chu Haq zotingni koni ma'ni etmish,  
Xaloyiq vasfidin mustag'ni etmish.

Ne ishtin bo'lsa shahlig' e'tibori,  
Bukun mavjud erur zotingda bori.

Falak pili sahardin cheksa xartum,  
Qoshingda pashsha xartumicha ma'lum.

Ulumung bahridin olsoq hisobi,  
Atorud shaklidur andin hubobi.

Zamiring vasfi mustahsan emastur,  
Quyosh ravshan demak ahsan emastur.

Seni dono demak yoxud xiradmand,  
Demakdurkim achig' maydur, chuchuk – qand.

Bukun andinki, bor Haqning qazosi,  
Kuhulat birla shayxuxat arosi.

Yoshim ellik bavodisin tay etmish,  
Ne ellik, oltmish haddig'a yetmish.

Ishimga dam-badam qilsam taaqqul,  
Erur holimg'a kun-kundin tanazzul.

Qariliq aybini yoshursa bo'lmas,  
Borur chog' bo'ldi, boqib tursa bo'lmas.

Havas bo'lsa qarig'a navjavonliq  
Xijolat zohir aylar sargaronliq.

Tabiat septi chun mushk uzra kofur,  
Yana kofur mushk o'lmoq ne maqdur?!

Saqol oqi o'lumga peshravdur,  
Tiriklik sabzasi uzra qiravdur.

Ani uzmak yigit bo'lmoq g'amida,  
Saqol yulmoq durur o'z motamida.

Iki-uchni yulub yuz aylagan resh,  
Topar besh-olti kundan so'ng o'n-o'n besh.

Birovkim rang etarga qilsa ohang,  
Bo'lur chun necha kun o'tti necha rang.

Ko'rub ul rangrezlik ishlarini,  
Tarog' kulmakka ochib tishlarini.

Tarog' gar kulsa oncha sa'b emas hol,  
Balo ul lahzadurkim kulsa atfol.

G'arazkim makru hiylat birla qori,  
Yona olmas yigillik ko'yi sori.

Yigitlik ayshi bisyor o'ldi bisyor,  
Qarilik ranji dushvor o'ldi dushvor.

Mangakim bo'yla dushvor ish tushubtur,  
Ishim dushvorliqqa yovushubtur.

Agarchi umrdindur shikva chog'i,  
Qayu shikva, qilurmen shukr dog'i

Ki, Haqkim andin o'ldi har hidoyat,  
Manga qildi hidoyat benihoyat.

Yigitliq ondakim arzoni etti,  
Xitou Chin elining xoni etti.

Qarilik ko'yiga solg'och xiromim,  
Seni qilmish mening qoyim maqomim.

Jahon shomida gar bir oy kamdur,  
Quyosh chunkim tulu' aylar ne g'amdur.

Chinor ar bog'din kam qilsa soya,  
Ne g'am chun chiqti sarvi sidrapoya.

Ne bok ar beshadin chiqqay hizabre,  
Chu bo'lg'ay o'rnida g'urranda babre.

Atokim sen kibi farzandi bo'lg'ay,  
Hayoti naxlining payvandi bo'lg'ay.

O'lum vaqti yetishgach g'am yegaymu,  
Agarchi o'lsa ham o'ldum degaymu?

Chu yo'qtur e'timodi umr ishiga,  
Qachon o'lmoq yaqin ermas kishiga?

Yigit istar qariliqning navidi,  
Qarig'a yo'q yigit bo'lmoq umidi.

Qariliq dardi bedarmondur oxir,  
Bir ish ko'nglumda ko'p armondur oxir

Ki, o'lmasdin burun ochib ko'zumni,  
Sarir uzra yigit ko'rsam o'zumni

Ki, ya'ni toju taxtu saltanat ham,  
Sipohu mulku molu mamlakat ham.

Bori bo'lsa sening birla muzayyan,  
Seni o'z o'rnuma qilsam muayyan.

Sanga tutsam musallam podsholiq,  
Xaloyiq ustida kishvarxudoliq.

Manga shahliqda qulluq ham qil emdi,  
Atoliq ham, o'g'ulluq ham qil emdi.

Nekim elning salohidur, oni qil,  
Mening budur salohim, emdi sen bil.

Bu bazm ichra chu ko'rdi shohzoda  
Ki, achchig' tutti behad shoh boda.

Oningdek chekti ohi otasholud  
Ki, yetti ohidin ko'k saqfig'a dud.

Topib ul nuktadin ozor yig'lab,  
O'zin tufroqqa soldi zor yig'lab.

Dedi gardung'a tortib ohi jonkoh  
Ki: «Ko'p yillar tirik bo'lsun shahanshoh.

Sariri charx bo'lsun taxti johi,  
Fuzun anjum sipohidin sipohi.

Nishoti bog'i har kun toza bo'lsun,  
Guli aysh onda beandoza bo'lsun.

Qo'lidin tushmasun jomi Kayoniy,  
Ichinda may ziloli zindagoniy.

Bu so'zlarniki shah qildi xitobim.  
Ne dermen menki, ne bo'lg'ay javobim.

Turub ma'razda so'z haddimni bilmon,  
Javob ayturg'a o'z haddimni bilmon.

Necha tufrog' esa jismi haqirim.  
Vale bir-ikki so'zdin yo'q guzirim.

Biri ulkim, chu yo'q umr e'timodi,  
Yigit-qarig'a tengdur zulmu dodi.

Vale olamda harne bo'lsa mavjud,  
Baqosig'a erur bir nav'i ma'hud.

Qayu mash'alki bazm aylar muzayyan,  
O'char yuz ming sharar, ul shu'la ravshan.

Giyah yuz ming bo'lur bo'stonda barbod,  
Vale yuz yil turar bir sarvi ozod.

Bo'lur yuz pushta homun sel chog'i,  
Turar o'z o'rnida Alburz tog'i.

Kichiklarga kichikdur umr asosi,  
Ulug'larg'a ulug'roqdur qiyosi.

Yana bir buki, umr ar topsa yuz yil,  
Chekarmu pashsha, har nekim chekar pil.

Uqobu Kuykanakni qilsalar qayd<sup>2</sup>,  
Qachon qilg'ay aning saydini bu sayd.

Agarchi arsa xoli qolsa mutlaq,  
Tutarmu anda shoh o'rnini baydaq.

Quyosh mag'rib sori yoshursa diydor,  
Tuman ming zarradin bir yo'q padidor».

Surub bu nuktalarni shohzoda,  
Atoning shavqini qildi ziyoda.

Dedi xoqonki: «Ey sham'i farog'im,  
Farog'u sham' yo'q, ravshan qarog'im.

Hadising lutfi yuz ming jondin ortuq,  
Ne jonkim, chashmai hayvondin ortuq.

Bu so'zlar gavhari durjinki ochting,  
Guhar ul durjdin olamg'a sochting.

Quloq topti duri shahvor sendin  
Va lekin men zaifi zor sendin.

Tama' bu ranglig' so'z tutmas erdim,  
Javobim bu sifat ko'z tutmas erdim.

O'zungdin gar meni xushdil tilarsen,  
Murodim umrdin hosil tilarsen,

Ayon qilmoq kerak bu soʻzda posim,  
Qabul etmak kerak bu iltimosim».

Bu yangligʻ koʻrdi chun shahzoda surat,  
Qabul etmakligi erdi zarurat.

Yana tufrogʻ oʻpub bunyod qildi,  
Hazin koʻnglin atoning shod qildi.

Ki: «Chun shah uzr manʼin qildi bilkul,  
Manga ne hadki qilgʻoymen taammul.

Vale chun men haqiru, ish ulugʻdurʻ,  
Bu soʻz arzin zarurat qilgʻulugʻdur.

Chu men bu choqqa tegru gʻofil erdim,  
Bu ish taklifidin forigʻdil erdim.

Ishim ishratqa bazmoroliq erdi,  
Farogʻat birla beparvoliq erdi.

Bir-ikki yil inoyat aylasa shoh  
Ki, xizmatdin oʻzumni qilsam ogoh.

Shah ollinda hamisha hozir oʻlsam,  
Bu ish kayfiyatigʻa nozir oʻlsam.

Yaqin bilsam rivojin ham kasodin,  
Tanisam ham salohin, ham fasodin.

Kichikrak ish burunroq boʻlsa taʼyin,  
Qililsa har ne sahv oʻlgʻongʻa talqin.

Ne ishkim yaxshiroq qilsam shurui,  
Boʻfulsa yaxshiroq ishning rujui.

Jahonda har kishikim bir ishi bor,  
Ishida ul kishining varzishi bor.

Chu varzish boʻlmasa mushkil durur ish,  
Boʻlur oson qachonkim yetti varzish.

Manga ham varzish o'lsa oshkoro,  
Qilay ne hukm bo'lsa bemadoro».

Chu surdi nuktani bu nav' dilkash,  
Bayonidin atosi bo'ldi dilxush.

Ketur soqiy, manga bir jomi shohi  
Ki, bo'lg'ay g'am sipohining panohi.

Qadah shahlig'din ortuqdur ko'zumga,  
Qilay zulm, elga qilg'uncha o'zumga.

### XIX

*Xoqonning o'z gavharin xazoyin g'aroyibi, balki g'aroyib xazoyinig'a  
kiyurmog'i va aning ko'ziga la'lpora ushoq toshcha va qizil oltun qaro  
tufrog'cha ko'runmay, ko'zi jaz'i billuriy durjg'a tushub, suvda mehri  
xovariydek bulurda oyinai Iskandariyg'a' tushgoni va ul ko'zgu tilismidin  
g'arib suratlar anga yuz ko'rguzub, ko'ngli ko'zgu aksidek  
iztirobg'a tushgani.*

Bu so'zni nuktago'yi nomaoro  
Bu yanglig' ayladi hangomaoro

Ki, chun xoqon bu so'z e'lomi birla,  
Javobin topti andoq komi birla.

Nishotu aysh asbobini yig'may,  
Tarabdin balki Chin mulkiga sig'may.

Qilib shahzodag'a oncha rioyat  
Ki, topmay aql anga haddu nihoyat.

Tilab qilmoq jahon oning fidosi,  
Jahonni qo'yki, jon oning fidosi.

Anga mundoqki ayshu zavq yetti,  
Evaz o'trusida yuz fikrat etti

Ki, ne sochg'ay boshig'a bahru kondin  
Ki, bo'lg'ay munbasit shahzoda ondin.



Chu bas oliy edi mehmon janobi,  
Bo'lub gavhar qoshida tosh hisobi.

Bu ishdin mizbong'a ajz g'olib,  
Aning ko'ngli tilar ashyog'a tolib.

G'arobat maxzan ichra chun ko'p erdi,  
Tutub ilgin xazoyin ichra kirdi.

Xazoyin demakim, yuz bahr ila kon,  
Toshih naqdina anda ulcha imkon.

Adadsiz uy bori ganj ustida ganj,  
Xirad ganjuri arzidin alamsanj.

Burun qirq uy bo'lub oltun makoni,  
Har evda qirq xumi xusravoni.

Bu maxzanda g'arobatdin bu ma'lum  
Ki, bir xum oltun erdi o'ylakim mum.

Ani kim, mum deb ilgiga olib,  
Nekim andin yasay degach, yasolib.

Yana qirq uy aro ajnosi zebo,  
Bir uyda qirq tung iksunu debo.

G'arobat munda behaddu nihoyat,  
Topilmay bulajab san'atqa g'oyat.

Tuman ming jinsi chiniyu xitoyi,  
Basar torining o'lmay rahnamoyi.

Bo'lub yuz rang ipak birla musavvar,  
Biridek ko'rmayin charxi mudavvar.

Bo'lub tasvirida yuz chehra paydo  
Ki, Aqli Kull bo'lub husnig'a shaydo.

Tikilgan to'n hisobin kimsa bilmay,  
Birisi ham kesilmay, ham tikilmay.

Hunarvardin bari omoda bo'lg'on,  
Mukammal korgoh ichra to'qulg'on.

Harir onchaki yo'q poyoni oning,  
Yuz oncha hullakim, yo'q soni oning.

Aningdek hullalar kelturdi ganjur  
Ki, andin kiysa gar o'n hulla bir hur.

Hanuz o'lg'oy tanu andomi ma'lum,  
Tanining rangi nasrinfomi ma'lum.

O'kulgan nofadin xarvor-xarvor,  
To'kulgan mushk xud anbor-anbor.

Javohir onchakim fikrat dabiri  
Hisob aylab topilmay mingda biri.

Oqzib ko'z suyin har la'li serob,  
Olib jon naqdini har bir duri nob.

Buluru yashm yuz ming bulajab zarf  
Ki, har birga xiroji mulk o'lub sarf.

Qilib ganjur yuz mundoqni hozir,  
Bo'lub ham shoh, ham shahzoda nozir.

Necha boqqon soyi hayrat bo'lub fosh,  
Kulumsub gohu, gohi irg'otib bosh.

Tamoshodin to'yar chog' chun yovushti,  
Ko'zi bir bulajab paykarg'a tushti.

Buluri nobdin bir turfa sanduq,  
Yasomaydur degaysen oni maxluq.

Safoliq xulqi ko'nglidin namudor,  
Ichinda bir ajab hay'at padidor.

Vale ul turfa hay'at sirri mubham,  
Murassa' qulfi ila sanduq mahkam.

Dema sanduq, yuz ofat hisori,  
Eshigin rust bog'lab qal'adori

Ki, ofat qal'asi mahkamroq avlo,  
Aning asrori ham mubhamroq avlo.

Chu anda bulajab ko'rdi shamoyil,  
Bo'lub shahzoda bilmaklikka moyil.

Dedi: «Bas turfadur bu san'atu soz,  
Dengizkim, ne durur bu pardada roz?»

Kalidi qayda bo'lsa, hozir aylang,  
Ochib quflini, sirrin zohir aylang!»

Qilib xoqon bu ma'nida madoro,  
Ravoni ayladi uzr oshkoro.

Ki, bu sanduq sirrin kimsa bilmas,  
Kalidi yo'qturur, qufli ochilmas.

Ani ko'rdung, bilurning fikridin kech  
Ki, biz ham ko'rduk, ammo bilmaduk hech.

Eshitgach shoh uzrin shohzoda,  
Havas savdosini qildi ziyoda.

Dedi: «Har ishki qilmish odamizod,  
Tafakkur birla bilmish odamizod?»

Ulum ichra manga to bo'ldi madxal,  
Topilmas mushkile men qilmag'on hal.

Muning ham bilmaguncha aslu budin,  
Muayyan qilmag'uncha toru pudin

Ne imkonkim qaror o'lg'ay ko'ngulga,  
Tasalli oshkor o'lg'ay ko'ngulga».

Nechakim shoh uzrangez bo'ldi.  
Aning savdosi ko'proq tez bo'ldi.

Nechakim shoh etib ko'prak taammul,  
Bo'lub shahzoda ko'prak betahammul.

Shah aylab necha ul ishga nazora,  
Topilmay rostlig'din o'zga chora.

Dedikim, quflin oning ochtilar bot,  
Ichidin chiqti bir raxshanda mir'ot.

Safo bobida mehri xovariy ul,  
Ne mehr, oinai Iskandariy ul.

Sadafda durri bayzochehr yanglig',  
Falak sanduqi ichra mehr yanglig'.

Hakimikim nigor aylab tirozin,  
Yozib keynida maxfiy borcha rozin

Ki: «Bu mir'otkim, getinamodur,  
Anga xurshedcha nuru safodur.

Erur Iskandari Rumiyy nigori,  
Jahon ahlig'a oning yodgori

Ki, aylab to'rt yuz dono bilan jahd,  
Alardin har bir Aflotung'a<sup>3</sup> hamahd.

Sipehr ahvolining sohibvuqufi,  
Jahonning korbandu faylasufi.

Tanib afloku anjum toliin tuz,  
Bu ko'zgu san'atida qo'ydilar yuz.

Necha yil ranj tortib bemadoro,  
Bu paykar naqshi bo'ldi oshkoro.

Bu ko'zgukim erur hikmat jahoni,  
Tilismedur shigarf anda nihoni<sup>4</sup>

Ki, har kim ochmog'ig'a sa'y qilsa,  
Aning sa'yi bila bu ish ochilsa.

Kelib ko'zguni yerdin olsa filhol,  
Safolig' chehrig'a ko'z solsa filhol,

Nekim umrida andin turfaroq ish,  
Emas mumkin, agar xud no'shu gar nish

Ki, Tengri aylamish ko'rmakni ro'zi.  
Qazo boshig'a kelturmakni ro'zi.

Bo'lur bu ko'zgu ichra jilvaoro,  
Qilurg'a g'ayb sirrin oshkoro.

Vale ochmoqlig'i mushkildur asru,  
Gudozi jismu ranji dildur asru.

Angakim tushsa ochmoq iztirobi,  
Bu bo'ldi ul muammoning hisobi.

Ki, Yunon mulki ul farxunda kishvar  
Ki, hikmat birla topti zebu zavar.

Hakimikim topib ashkoli aflok,  
Bu kishvar tufrog'idin bir ovuch xok.

Toshi hikmat elining durri toji,  
Giyohi borcha illatlar iloji.

Shimoliy haddida tog'e durur tund  
Ki, tig'i ko'k misosidin erur kund.

Kishi Yunon sori bormoq keraktur,  
Inon ul toqqa boshqormoq keraktur.

Aroda qolsa uch manzil masofat,  
Ul uch manzilda voqedur uch ofat.

Burung'i manzil ichra ajdahoye,  
Yaratqon Tengri qahridin baloye<sup>5</sup>.

Ikinchi manzil ichra Ahraman bil,  
Anga bedodu ofat da'bu fan bil.

Uchunchida tilismi bulajab soz,  
Bu ikidin dog'i mushkilrak ul roz.

Bu uch manzildin o'tkorganga mahmil.  
Deyilgon tog' erur to'rtinchi manzil.

Bu tog' ichra kishi qilsa guzore,  
Ko'rar hijron tunidek tiyra g'ore.

Erur g'or ichra Suqroti yagona,  
Dema Suqrot, Buqroti<sup>6</sup> zamona.

Tirik bor ersa donoyi xiradmand,  
Ochar borg'on kishi ashkolidin band.

Vagar qaydi hayot ichra emastur,  
Kishiga ne g'arazkim multamasdur.

Tavajjuh chun aning ruhiga qilg'ay,  
Girihlik rishtai bandi ochilg'ay».

O'qug'och shohzoda qissani pok,  
Bu mushkul hallig'a bo'ldi havasnok.

Oningdek g'olib o'ldi iztirobi  
Ki, bu fikr uzra bordi xo'rdi xobi.

Chu Xoqon fahm qildi muddaosin  
Uzotti man'i uzra mojarosin.

Nechakim shoh ko'prak tutti mavquf,  
Vale shahzoda ko'prak bo'ldi mash'uf.

O'g'ulg'a garchi mushkul hol tushti,  
Atog'a sa'broq ahvol tushti.

O'g'ulg'a yuzlanib andoq suubat,  
Atog'a andin ortug'roq uqubat.

Ketur, soqiy, sharobi bexudona  
Ki, sa'b ish soldi ollimg'a zamona.

Nechakim sa'b erur gardun jafosi,  
Erur bexudlug' ul ishning davosi.

XX

*Farhodqa Yunon mulki azimati jazm bo'lub, hikmat bila Mulkoroni chorlab,  
so'z kumaytini Yunon vodiysig'a solib, tilism muddaosin, balki muddao  
tilismin aning qoshida ochqoni va Mulkoro ani nasihat bila mumtane'  
qila olmay muddaosin xoqong'a arz qilib, bu muhlik so'zdin Xoqonning ruhi  
Farhodi badan Chinidin adam Yunonig'a yuzlangali yovushub, Mulkoro  
bila ko'p mashvarat qilg'ondin so'ngra Farhod bila Yunon mulkiga  
cherik tortib borurni muqarrar qilg'oni.*

Bu mehnat sharhin ulkim qildi tahrir,  
Bu yanglig' ayladi afsona taqrir

Ki, chun shahzodag'a javri havodis,  
Munungdek mushkul amre qildi hodis.

Aningdek bordi oromu qarori  
Ki, chiqti o'z qo'lidin ixtiyori.

Bu erdi bimkim devona bo'lg'ay,  
Xirad oyinidin begona bo'lg'ay.

Tuta olmay chu ul savdoni pinhon,  
Tilab xilvatda Mulkoroni pinhon.

Anga taqrir qildi mojarosin,  
Havas ko'ngli aro solg'on balosin.

Dedikim: «Gar gado, gar shoh bo'lsun,  
Agar g'ofil. vagar ogoh bo'lsun,

Tana`um birla mehnat xo'bu zishti,  
Nekim bo'lmish azaldin sarnavishti,

Ani to ko'rmagay imkon emastur,  
Xirad ollinda bu pinhon emastur.

Agar shoh, ar gadodur odamizod,  
Emas bo'yni qazo hukmidin ozod.

Yozilg'on nuktani tag'yir qilmoq,  
Erur suv uzra xat tahrir qilmoq.

Qazo kilki ne xatkim qildi mastur,  
Emas hargiz ani tag'yiri dastur.

Zamonning bori ishda zufununi,  
Erur gardun fununining zabuni.

Kishining yer yuziga hukmi yetsun,  
Qazoyi osmoni yetsa, netsun?

Xaloyiq ajzidinkim nuktaronmen,  
Bulardin men dog'i bir notavonmen.

Nekim ollimg'a yozmish kilki taqdir,  
Manga yo'qtur ani ko'rmakka tadbir.

Azalda bu emish Haqning qazosi,  
Mening ollimg'a bu ish ibtilosi.

Aningkim ko'ngli topmish aqldin nur.  
Kerak tutsa meni bu ishda ma'zur.

Bukun ollimg'a tushmish turfa holat,  
Agarchi elga bor andin malolat,

Mening hech anda yo'qtur ixtiyorim  
Ki, ollimg'a yozibtur kirdigorim.

Bilurmen mushkul ishdur asru, lekin  
Qila olmon qazo o'tini sokin.

Kerakkim, aylasang Xoqong'a taqrir,  
Mening ollimg'a kelturganni taqdir.

Atoliq haqqi chun bordur aroda,  
Ijzat istaram bu mojaroda.



Dag'i yo'lumg'a himmat zod qilsun,  
Va gah-gohi duoda yod qilsun.

Aning himmat bila gar bo'lsa yodi,  
Shak ermas topmog'im bu ish kushodi.

Ijzat bermasa Tengri tonuqdur,  
Haq ollinda bu asrorim ochuqdur

Ki, besomon bo'lub bechoraliqdin.  
Guzirim yo'qturur ovoraliqdin.

Olib boshim, demay obod ila cho'l,  
Hamul maqsad sori tutqum durur yo'l.

Yo'lumda devdur, gar ajdahodur,  
Tilism ichra agar yuz ming balodur,

Yumub borcha tahoshidin ko'zumni,  
Ul ofatlarg'a urg'umdur o'zumni.

Ishim chun man' ko'yidin yiroqdur,  
Ijzat bo'lsa shahdin yaxshiroqdur».

Bu muhlik ruq'a chun irod qildi,  
Yana muhlik qasam ham yod qildi

Ki: «Yo'l topmas bu maqsudimg'a tag'yir,  
Sen emdi sa'y etarda qilma taqsir».

Chu Mulkoro eshitti bu fasona,  
Chekib ko'nglidin ohi bexudona.

Malomat aylabon aytay desa pand,  
Ko'rubkim, pand eshigin aylamish band.

Ne so'zdin istasa tutmoq qo'lini,  
Ko'rubkim bog'lamishdur so'z yo'lini.

Ajab nav' onglabon ul surati hol,  
Qolib ojiz dam urmoqdin, bo'lub lol.

Vujudin aylabon bu shu'la nobud,  
Yetib ko'k gunbaziga ohidin dud.

Ko'zi bu dud ranjidan yoshorib,  
Qo'pub yig'layu shoh ollig'a borib.

Tilab xilvat, kirib xoqon qoshig'a,  
Mudovo aylay olmay ko'z yoshig'a.

Ko'rub ayturda ranji benihoyat,  
Qilib har ne eshitkanni hikoyat.

Chu onglab shoh aning bu mojarosin,  
Urub ko'ksiga, chok aylab yaqosin.

Ikav ul mehnati anbu h birla,  
Base yig'lashtilar anduh birla,

Chu ko'p qildi jaza' shohi zamona,  
O'pub tufrog'ni dasturi yagona.

Bo'lub dardig'a bir-bir chorapardoz,  
Nasihat qildi sokin-sokin og'oz

Ki: «Shoho, har ne sabb o'ldi qazodin,  
Topilmas choraye o'zga rizodin.

Bukun chun shah zamonning a'qalidur,  
Munavvar ko'ngli davlat mash'alidur'.

Ne hojat aytmoqkim chun tushar ish,  
Jaza'din behdur o'lmoq choraandish.

Xirad gar bo'ldi ersa chorapayvand,  
Natija choradin topqay xiradmand.

Gar o'lsa chorag'a taqdir mone',  
Kerak bo'lmoq qazo hukmig'a qone'».

Dedi shah: «Ey saodat sham'i roying,  
Ko'ngul oromi nutqi dilkushoying.

Kishi o'z jonidin to'ymoq bo'lurmu.  
Ani mundoq bila qo'ymoq bo'lurmu?

Ko'ngul dardig'a darmondur nasihat,  
Qiloli ulcha imkondur nasihat.

Agar xud topti taskin davlat o'ldi,  
Ko'ngulga komu jong'a rohat o'ldi.

Asar qilmasdek o'lsa ko'ngliga pand,  
Bo'loli har ne Haqdin kelsa xursand».

Bu so'z birla yana Xoqonu dastur<sup>3</sup>,  
Taraddud qildilar behaddu maqdur.

Base har nav' tadbir ayladilar,  
Topilmay naf', tag'yir ayladilar.

Chu sa'b erdi ishida orzuxoh,  
Nasihatgo'ga bo'ldi orzu koh.

Necha til guftugo'si ko'prak o'ldi,  
Aning ul orzusi ko'prak o'ldi.

Chu Xoqon chorasidin bo'ldi ma'yus.  
Taxayyul qildi etmak oni mahbus.

Yana habsig'a ham qilmay tahammul,  
Davosin ayladi mundoq taxayyul —

Ki, oning ko'nglini ozurda qilmay,  
Hayoti gulbunin pajmurda qilmay.

Cherik solg'ay Xitou mulki Ching'a,  
Yurub chekkay sipah Yunon zaming'a.

Angacha o'g'lig'a hamroh bo'lg'ay,  
Yomon-yaxshisidin ogoh bo'lg'ay.

Yetarga ulcha aylabtur iroda,  
Zamoni kirgusi mumtad aroda.

Anga tegru erur qilg'on xayoli,  
Ko'nguldin chiqmag'ining ehtimoli.

Muyassar gar emas bu ul zamonda,  
Ne Haqdin kelsa ko'rgay oni onda.

Chu bu andesha tushti ko'nglig'a xo'b,  
Ravoni dedi Mulkorog'akim: «Qo'p!

Borib Farhodning ollinda bir-bir,  
Borisin daf'a-daf'a ayla taqrir».

Qo'pub dastur aning sori urub gom.  
Debon har nuktakim shoh aylab e'lom.

Ko'rub shahzoda hosil muddaosin.  
Hamul ishda atosining rizosin.

Bilibkim, gar desa yolg'uz borurmen,  
Bu ishni o'z qoshimdin boshqorurmen.

Emas ul ish muruvvat iqtizosi,  
Bo'lur ul g'amda musta'sal atosi.

Ato yo'qkim, tushar kishvarga oshub,  
Ne kishvar, gunbadi axzarg'a oshub.

Rizo izhor etib, dedi, ravon bo'l,  
Qil andoqkim, tutoli ul taraf yo'l.

Qo'pub, dastur o'lub maqsudi hosil,  
Kelib xoqonni dog'i qildi xushdil.

Cherikka aylabon miodu buljor,  
Tavochi har taraf yetkurdi ul jor.

Kel, ey soqiyki, o'tti aysh chog'i,  
Manga tut emdi otlonur ayog'i.

Dimog'imdin olib bir jom ila hush,  
Meni qil devbandu, ajdahokush.

XXI

*Xoqonning Farhod jihatidan Yunon mulkiga sipoh tortqoni va ul kishvar hukamosi aning gardi sipohidin ko'z yorutub, yorutqon ko'zlarin alarning oyinai ruxsori bila jilo bermoqlari va ul oy va quyoshning anjumkirdor hukamo anjumani bila Suhayloyi<sup>1</sup> hakim g'orig'a bermoqlari va Suhaylo partavi iltifotin alar ahvolig'a solib, «Jomosp»<sup>2</sup> ahkomi bila Farhodning balandaxtarliq mujdasin berib, Suqrot g'orig'acha manzil-bamanzil rahnamoyliq qilib, umri kavkabi ul tog'da g'urub qilg'oni va Farhodning ul kavkab partavi bila hayrat shomida yo'l boshqorg'oni.*

Kishikim, topti ma'ni shohrohin,  
Bu yanglig' chekti so'z xaylu sipohin.

Ki, xoqon onglabon ul ish g'animat  
Ki, Yunon mulkiga qilg'ay azimat.

Tariqi azm ko'sin urdi filhol,  
Cherik jam'iga el chopturdi filhol.

Sipah oz chog'da, mulku kishvaridin  
Yetishti daf'a-daf'a har saridin.

Yig'ildi bir cherikkim bu kuhan dayr,  
Aningdek ko'rmamish tokim qilur sayr.

Sipah daryosi ichra jo'sh tushti  
Ki, mavji charx bahrig'a yovushti.

Tikildi o'rduyikim ko'rmamish ko'z,  
Xazu iksunu atlas, onchakim bo'z.

Har oq uy charxi gardun korgohi,  
Yana garduncha oning borgohi.

Ducho'ba uchi bu feruza xirgoh,  
Aning ikki ko'mochi mehr ila moh.

Qozuq siyminu zarrinkim qoqilg'on,  
Kavokibdek sipehr uzra choqilg'on.

Chekib xarpushta g'oyatdin fuzunroq,  
Saroparda nihoyatdin fuzunroq.

O'n ikki poyalig' bir taxti oliy.  
O'n ikki burj anga gardun misoli.

Vale har burjin oning Nasri Toyir  
Tay etmay bo'lsa gar yuz qarn soyir.

Bo'lub har poyadin zarkash tanobi,  
Falak qutrini qat' etkan shihobi.

Kelib har borgah ayvoni Jamshed,  
Muzahhab har gul anda rashki xurshed.

Kelib anjum adadlig' borgohi,  
Vale mo'ru malax yanglig' sipohi.

Bu yanglig' yer ko'tarmas xayl birla,  
Bori olamni tutqon sel birla.

Azimat qildi Yunon mulki sori,  
Sipohi ishqdek jon mulki sori.

Cherik oyini bo'ldi sarbasar ko'ch,  
Yurush bo'ldi muqarrar ko'ch-barko'ch.

Iki kun turmayin bir yerda mahmil,  
Azimat aylabon manzil-bamanzil.

Qayon ul azmdin ovoza borib,  
Eshitkan xalq hushi oza borib.

Yetib har mulk fathining navidi,  
Kelib har qal'a quflining kalidi.

Necha manzilda bir kishvar bo'lub fath,  
Dema kishvarki, bahru bar bo'lub fath.

Necha oy qat' etib sahrovu vodi,  
Ko'rundi kishvari Yunon savodi.

Chu ogah bo'ldilar ul mulk aro xayl  
Ki, xoqon xayli ul yon aylamish mayl.

Kelibon o'tru ashrofu raoyo,  
Chekib maqduricha har kim hadoyo.

Bo'lub hikmat eliga aysh vorid,  
Sharaf burjig'a yetgandek Atorid.

Bori davlat bila iqbol monand,  
Kelib Xoqong'a istiqbol payvand.

Yana ul mulkning yaxshi-yamoni,  
Taqqabul aylabon moli amoni.

Qo'yub yuz ul falakqadr ostong'a,  
Berib kishvar shahi kishvarsitong'a.

Qilib shah borchag'a lutfu inoyat,  
Etib har xayl maqdurin rioyat.

Ko'p aylab ahli hikmat ehtiromin,  
Qilib har qaysining ta'yin maqomin.

Chu aylab dastbo'sidin sarafroz.  
Alar aylab duou midhat og'oz.

Chu topib bori hikmat ahli taskin,  
Qilib bunyod shohi hikmatoyin

Ki: «Biznikim, sipehri muxtalifroy,  
Bu kishvar sori qildi dashtpaymoy.

Emas erdi mamolik fathi maqsud.  
Erur erdi maholik fathi maqsud<sup>3</sup>.

Bu bo'lmish xotiri olig'a ma'lum  
Ki, bu kishvardadur bir marz ila bum

Ki, bo'lmish anda tog'e oshkoro,  
Ayog'din-boshig'a bir pora xoro.

Erur xoro ichinda tiyra g'ore,  
Nechukkim furqat ichra shom tori.

Topib ul tiyraliq Suqrot din nur,  
Nechukkim Mushtariydin shomi dayjur».

Anga yetguncha uch manzilda bir-bir,  
Nechukkim bilmish erdi qildi taqdir.

So'zin qilg'och bayon so'rdi nishoni  
Kim: «Andoqkim bilursiz ayting oni.

Ki, qaysi sori bu maqsad ayondur,  
Masofat ne qadardur, yo'l qayondur?»

Yer o'ptilar, qo'pub ul xayli dono  
Ki: «Shoh o'z komig'a bo'lsun tavono.

Bu so'z kim shah so'rar andin nishona,  
Bu mulk ichra hakimedur yagona.

O'tub besh yuzdin ayyomi hayoti,  
Suhayloyi Hakim el ichra oti,

Erur Yunonda Suqroti zamon ul,  
Tutub Suqrotdek g'ori nihon ul.

Tariqi inzivodur vir di oning,  
Hunarda borhamiz shogirdi oning.

Bilur ul, ahli hikmatning panohi,  
Bu ishning borcha ahvolin kamohi.

Eshitkon birla bizlar ham bilurbiz,  
Ne so'z kim, shah so'rar, sharhin qilurbiz.

Va lekin chun bu ma'ni toru pudi,  
Emas tahqiqimiz, yo'q nukta sudi.

Nechuk bilmay degay so'z ahli hikmat,  
Xususan so'rsa oni ahli davlat.



Bu mushkil nukta hallin ul qilur, ul,  
Aning sori buyursang boshlali yo'1».

Chu shah topib bu ma'nidin nishona,  
Bo'lub shahzoda ko'ngli shodmona.

Rikob ahli ravoni chektilar ot,  
Ato birla o'g'ul otlandilar bot.

Bo'lub ul hikmat ahli borcha hamroh,  
Alardin nuktajo' shahzodau shoh.

Ko'rundi dasht aro bir qulla pora,  
Hakim onda nihon bo'lg'on mag'ora.

Tushub markablaridin borcha nokom,  
Yayoq ul g'or sori urdilar gom.

Biri ul hikmat ahlidin nihoni,  
Kirib g'or ichra ogah qildi oni

Ki, hamrahlig' etib iqboli jovid,  
Atorud sori kelmish oyu xurshed<sup>4</sup>.

Suhaylo chun eshitti ul iborat,  
Alar ihzorig'a qildi ishorat.

Adab birla kirib shahzodau shoh,  
Qo'pub o'z o'rnidin donoi ogoh.

Ko'rushti ikkisi birla kulub shod,  
Alar ham o'ptilar ilgin bo'lub shod.

Hakim o'lturdi mushkil qilg'ali hal,  
Alarning ikkisin o'lturtub avval.

So'rub yo'l ranjidan shahlarni bir-bir,  
Kelur kayfiyatidin so'rdi taqrir

Ki, qat' etmakda bu yanglig' uzun yo'l,  
G'arazni onglatingkim qaysidur ul.

Dedi shah sarbasar shahzoda holin,  
Boshig'a ko'zgudin tushgan xayolin.

Hakimi nuktadon chun bildi holat.  
Ham o'ldi shodu ham topti malolat.

Quchub shahzodani ko'nglin qilib shod,  
Dedi: «Sen, senki oting keldi Farhod».

Suhaylo chun otin tahqiq qildi,  
Nekim ul so'rdi, bu tasdiq qildi.

O'pub mongloyini donoyi ogoh.  
Sujud aylab, dedi: «Alhamdu lilloh

Ki, oncha o'lmadimkim, charxi g'ammoz  
Meni bu komima qildi sarafroz.

Necha yuz yil durur g'or ichradurmen,  
Necha yuz ranju timor ichradurmen.

Manga Jomospdin erdi bu e'lom,  
O'zidin so'ngki yozmish erdi ahkom<sup>5</sup>

Ki, mendin so'ngra garduni sabukpay  
Chu ming yil aylasa yer davrasin tay.

Chiqib shahzodaye Chin kishvaridin,  
Kelib Yunong'a davlat rahbaridin,

Oti Farhodu har donishda mohir,  
Saodat farri ruxsorinda zohir,

Tutub ranju anog'a jonu jismim,  
Ochar Iskandari Rumiyl tilismim

Va lekin ikki manzil bo'lg'usidur,  
Ki oning qat'i mushkil bo'lg'usidur.

Birida ajdar aylab jonsitonlig',  
Damidin qilg'usi otashfishonlig'.

Birida Ahraman aylab sitam fosh,  
Havodin boshig'a yog'durg'usi tosh.

Suhaylo hikmatoyini rasadband  
Ki, ul bo'lg'usi mendin so'nggi farzand.

Qabul etsun duo birla salomim,  
So'ngida bo'yla fahm etsun payomim

Ki, bu maqsadg'a qasd etkanda Farhod.  
Aning maqsudig'a ko'rguzsun imdod.

Ul ishga mayl ko'p shah qilg'usidur,  
Vale Farhoddin ochilg'usidur.

Suhaylo ham bu maxfiy sirni bilsun  
Ki, gar qilsa madad, bu birga qilsun.

Chiqar, ajdarni o'ldurganda Farhod,  
Aningdek ganjkim olam bo'lur shod.

Topar chun devni qatl etti, kini,  
Sulaymoni nabining xotamini<sup>6</sup>.

Tilism ul kunki ochg'ay bemadero,  
Bo'lur Jamshed jomi oshkoro.

Bularni qilsa davlat ong'a taslim,  
Barisin aylasun Xoqong'a taslim.

Anga Suqroti dono manzari bas,  
Yana Oyina Iskandari bas.

Olib Suqrotdin ul ishda talqin,  
Ravon ko'zguga bo'lg'ay ozimi Chin.

Ko'rub ko'zguda nekim, ko'rgusidur  
Ki, davron boshig'a kelturgusidur».

Chu dono munda tortib so'z xitobin,  
Chekib vallohu a'lam bissavobin:

«Men ul payg'omdinkim muftaxirmen,  
Necha yuz yil dururkim muntazirmen.

Qilibmen borcha mushkullarg'a tadbir  
Kim, ul kelgusidur ollingg'a bir-bir».

Qo'pub ul g'or peshonig'a bordi,  
Tutub ilgiga bir zarfe chiqordi.

Dedi: «Bu zarfkim mar'i bo'lodur.  
Samandar<sup>7</sup> yog'idin bilkim to'lodur.

Ko'p otashgoh o'tidin topmisham dog'  
Ki, to jam' aylamishmen bu qadar yog'.

Chu ajdar birla bo'lg'ungdur hamovard  
Ki, andin chiqqusi aflok uza gard.

Bu yog'din surtub avval o'z taningg'a,  
Samandar hamlalig' xorokaningg'a

Ki, ajdar birla razm etgan zamonda,  
Bu yog' o'tdin seni tutqay amonda.

Chu ajdar o'lgay ilgingdin ko'rub ranj,  
Sanga bo'lg'ay nasib ul ranjdin ganj.

Aningdek ko'rguzur axtar hisobi,  
Yana kashfu riyozat iktisobi

Ki, ul ganj ichra topqungdur g'aroyib  
Ki, topqay Ahraman ondin navoib.

Falak chun Ahramang'a tutsa motam,  
Qo'lidin kirgusi ilgingga xotam.

Tilism ochmoq maqolotin tamomi  
Kim, alhaq ul hadisidur kiromi<sup>8</sup>.

Erur bir lavh siym uzra yozig'liq,  
Toparsen dev bo'ynida osig'liq.

Ko'rarsen chun tilism ochmoqqa ta'yid,  
Tilism ichra toparsen jomi Jamshid.

Raqamlar davrini aylab munaqqash,  
Anga Iskandari Rumiya raqamkash.

Chu ul arqom g'avrig'a yetarsen,  
O'qub Suqrot holin fahm etarsen.

Aning ko'rganda ko'zgudek jamolin,  
Sanga onglatqusidur ko'zgu holin.

Chu ko'zgu sirrini onglab yugurgung,  
Ko'rub ko'zguni ko'rgung, har ne ko'rgung.

Emas ruxsat lisoni nuqtapardoz,  
Ochorg'a mundin ortuq pardai roz».

Dediyu zarfni topshurdi filhol  
Va qo'pqil, ishta emdi qilma ehmol.

Manozildin berib bir-bir nishona,  
Dedikim: «Emdi bot bo'lg'il ravona.

Umidim ulki, bot o'lg'ay kushoding  
Ki, men yakbora qildim xayrboding».

Anga qilg'och bu nav' ishlarni ta'lim,  
Ravoni jonni qildi Haqqa taslim<sup>9</sup>.

Alar yub ashk suyidin tanini.  
Hamul maskanda aylab madfanini.

Turub anda guruhi ahli hikmat,  
Ravon bo'ldilar ikki ahli davlat.

Biyobon qat' etib manzil-bamanzil,  
Anga tegruki aytib erdi komil.

Chu ul manzilg'a yo'l iqbol berdi  
Ki, ondin nari manzil ajdar erdi.

Tinib aqshomg'acha farsudaliqdin,  
Tamattu' toptilar osudaliqdin.

Chu dud etti ayon tun ajdahosi,  
Yoshundi dud aro olam fazosi.

Quyosh ganji bo'lub tufroqqa maxfi,  
Qarordi bu buyuk vayrona saqfi.

Yorutub aysh durri shabcharog'in,  
Ravona qildilar ishrat ayog'in.

Kel, ey soqiy qilib ichmak azimat,  
Tiriklik shomini bilgil g'animat.

May ich bir dam, tuzub ishrat asosi,  
Chekardin burna dam umr ajdahosi.

## XXII

*Farhodning ajdahovash ko'hpaykariga minib ajdahokushlik tig'in chekib,  
ajdaho vodiysig'a kirib, ajdaho uni o'q yilonidin damor chiqarg'ondek  
ajdahoni o'q yiloni bila toru mor qilmog'i, dog'i ajdaho g'org'a yuzlangandek  
ajdaho g'orig'a yuzlanib, Afridun ganjini topmog'i va dog'i ul ganjda  
ajdaho monand qilich bila halqa urg'on yilondek qalqonni iliklab ul  
ganjni atosi bila xaylig'a nisor qilmog'i.*

Kecha dudini surgach tong nasimi,  
Chiqordi subh ganji lavhi simi.

Quyosh tun g'oridin bo'ldi ravona,  
Nechukkim, ajdar og'zidin zabona.

Niyoz ashkin to'kub Farhodi g'amnok,  
Burun ul suv bila g'usl aylabon pok.

Ne ta'limiki, qilmish erdi dono,  
Borig'a korband o'ldi hamono.

Qo'yub tufroqqa yuz, aylab tazarru'  
Xudoyidin qilib nusrat tavaqqu'.

Atosining ayog'ig'a qo'yub bosh,  
Duoyi himmat istab oqizib yosh.

Ato aylab yoqosin choku yig'lab,  
Bo'lub bori ulug' g'amnoku yig'lab.

Bihillik istabon ozoda shahdin,  
Dema shahkim, bori xaylu sipahdin.

Sipohu shoh fig'oni tez tortib,  
Falak javfida rustoxez tortib.

Bo'lub ul o'ylakim shohi kavokib,  
Falakvash ajdahopaykarg'a rokiib.

Silohi razm aro ul nav' o'lub g'arq  
Ki, ondin to quyosh charx aylamay farq.

Ul ahvolig'a istab Haqni yovar,  
Hamul manzil sari surdi takovar.

Ato ul nav' ko'rgach o'g'li holin,  
Yurudi keynicha tortib yasolin.

Chu raxshi qildi ul yon po'ya paydo,  
Bo'lub ajdar alomoti huvaydo.

Kelib o'llig'a dashti o'ylakim qir,  
Degilkim, qildi yo'l azmig'a shabgir.

Firoq ayyomidek zulmot monand,  
Topib zayli ajal shomig'a payvand.

Xabar deb rangi hijron olamidin,  
Qarorib dasht ajdarho damidin.

Botib kul ichra raxshi qilgoch ohang,  
Qilib ul gard gulgunini shabrang.

Yetishti bir ufunatliq nasime  
Ki, qilg'ay atri jannatni jahime.

Ko'p el, ul atrdin es tarki qildi,  
Cherikning ko'pragi otdin yiqildi.

Qilib Farhod berk o'z bag'rig'a tish,  
O'zin solmay, chu tushmish boshig'a ish.

Ko'ringach ajdahoning tiyra g'ori,  
Azimat qildi oning g'ori sori.

Yetishgach el nasimi ajdahog'a,  
Ajal go'yo sinon urdi balog'a.

Mahobat birla chiqti g'or ichidin,  
Balodek gunbazi davvor ichidin.

Tomug'ning shu'lasidek iztirobi,  
Hamul o't dudi yanglig' pechu tobi.

Damidin shu'la sekrib pora-pora  
Ki, ondin olam o'rtaq har sharora.

Tutun yanglig' dami abri kasofat,  
Shararlar anda har bir barqi ofat.

Tani ranju baloning ko'hsori  
Va lekin og'zi ul ko'hsor g'ori.

O'tu pechida dud ul g'or ichinda,  
Aningdekkim, o'zi ko'hsor ichinda.

Uzolg'on tog'dek andomi oning,  
Vale yo'q seldek oromi oning.

O'zi xud tog'u tumshug'dek anga bosh,  
Vale tumshug'kim ul bo'lg'ay qaro tosh.

Bo'lub ikki ko'zi nazzora chog'i,  
Nechukkim naftning o'tlug' bulog'i'.



Teshuklar burnida vahshat tanuri,  
Tanuri yo'qki, naft o'tig'a mo'ri.

Ne o'tkim og'zidin tortib zabona,  
Bo'lub nafti yorutqondin nishona,

Falakpaykar tani ko'hi baloye,  
Qo'lu but har biri bir ajdahoye.

Ajal sarpanjasidek to'rt panja,  
Berurdek yetti gardung'a shikanja.

Bo'lub har panjaning tirnog'i besh dos  
Ki, hiddat ichra har dos o'lg'ay olmos.

Kelib xokistari a'zosi rangi,  
Kemurdek nuqtalar birla palangi.

Chiqorib quyrug'in gardung'a har dam,  
Aningdek berk urub homung'a har dam

Ki, tiyra aylabon olamni gardi,  
Bo'lub kuhli sipehri lojuvardi.

Bu hay'at birla chiqti g'ordin tez,  
Tishi xunrezu og'zi otashangez.

Ko'zi tushkan zamon shahzoda sori,  
G'azabdan qolmayin sabru qarori.

Yuz urdi ul sori andog' g'azabnok  
Ki, jon qasdig'a ajdarhoyi aflok.

Ochib og'zin balo darvozasidek,  
Tomug' otashgahi andozasidek.

Dami o't sochmoq etti oshkoro  
Ki, avval tu'masin qilg'ay muharro.

Chu pishti aylagay bir luqmai xom,  
Berib o'z luqmagohi ichra orom.

Muni tuz totmoq onglab ishtahosi,  
Keyin, qolg'on cherik bo'lg'ay g'izosi.

Chu o'tdin yo'q edi shahzodag'a bim,  
Hamul yanglig'ki topmish erdi ta'lim.

O'ti chun bo'lmadi ul dam asarliq,  
Anga bo'ldi fuzun sho'ridasarliq.

Ochib og'zin yutarg'a ayladi xez,  
Qilib Haq yodini shahzoda ham tez.

Chekib qavsi quzahni bedarangi,  
Anga bog'lab sinon yanglig' xadangi?

Aningdek ochti ajdar og'zig'a shast  
Ki, dedi gurdi anjumbo's: «Bardast!»

Chu ajdar xam-baxam erdi ravona,  
O'qig'a har xam o'ldi bir nishona.

Agarchi ajdaho bor erdi darron,  
Vale ul o'q yiloni o'tti parron.

Teshib behad tani osudasini,  
Kabob etkan kibi qo'y ro'dasini.

Kabob o'tin yoqib, bo'lmoq uchun to'q,  
Ul o't ichra kabob aylab o'zin-o'q.

Anga chunkim bu yanglig' keldi tuz zaxm,  
Dema tuz zaxmni bir, balki yuz zaxm.

Bo'lub zoyil taarruz ehtimoli,  
Oyog'i sustayib, sa'b o'ldi holi.

Dilovar sekretib markab, chekib tig',  
Qilib bir hamla tund ul nav'kim mig'.

Anga tig' urmog'idin topmayin farq,  
Sipehr andinki tog' uzra tushar barq.

Chu mundoq barqi tig'in zohir aylab,  
Ishin bir tig' ila-o'q oxir aylab.

Fano g'orig'a chun oni kiyurdi,  
Aning g'orig'a ajdarvashni surdi.

Yetishgach g'or ichiga bemahobat,  
Ko'ziga uchradi mundoq kitobat.

Musayqal taxta tosh uzra qozilg'on,  
Nihoni ganj ahvoli yozilg'on

Ki: «Ey ulkim solib ofoq aro sho'r,  
Berib Tengri sanga tavfiq ila zo'r.

Chu o'lturgung durur bu ajdahoni,  
Aning g'orida ganjidur nihoni.

Aning chun rishtai umrini uzdung,  
Erur bu ganji maxfiy dastmuzdung.

Erur bu g'or gardundek mudavvar,  
Chu markaz nuqtasin topting muqarrar<sup>1</sup>.

Ko'mukluk yerga toshidur shabahgun  
Ki, bor vazn ichra ming botmondin afzun.

Qilich no'gi bila davrini yorg'il,  
Solib sarpanja o'rnidin qo'ng'org'il.

Chu qilding raf ul tosh zahmatini,  
Kirib ko'r, Haq taolo qudratini».

O'qub shahzoda ul farxunda tahrir,  
Bitilganni bajo kelturdi bir-bir.

Qilib bori yozilg'onni rioyat,  
Topib ganji oningdek benihoyat

Ki, gardun xozini darkida ojiz,  
Ko'zi ko'rmay mingidin birni hargiz.

Necha ming xum nihon qilg'on Faridun.  
Vale har bir nechukkim xumi gardun.

Bo'lub oltun-kumush ba'zida zohir,  
Vale ba'zida qiymatlig' javohir.

To'rida ganjning bir oli ayvon  
Ki, har burchidag'i o'rgamchi Kayvon.

Bu ayvon ichra bir taxti murassa',  
Aning ustida yuz jinsi mulamma'.

Bular ustida tig'i obdori,  
Kelib burronlig' ichra Zulfiqori<sup>4</sup>.

Aning yonida bir qalqonki, aflok  
Topibon qubbasin xurshedidek pok<sup>5</sup>.

Yozilg'on safhai anda bu mazmun  
Ki: «Ulkim yor o'lub baxti humoyun.

Bu qalqonu qilich tushsa iliga,  
Birin osib, birin bog'lab beliga.

Agar yuz dev birla qilsa novard,  
Zamon ichra chiqorg'ay borchadin gard

Ki, qalqon qubbasida misli xotam,  
Sulaymon yozdurubtur ismi a'zam.

Budur xosiyatikim, yuz tuman dev,  
Desakim. zohir etkay makr ila rev.

Bu qalqonni yoping'on bemaduro  
Ki ism o'lg'ay alarg'a oshkoro.

Barining paykari nokor bo'lg'ay,  
Qaro tufrog' ila hamvor bo'lg'ay.

Qilichda dog'i ismedur bitiklik  
Ki, ul bu ismdin topmish itiklik.

Aning xosiyati bukim muhorib,  
Agar bu tig' birla bo'lsa zorib.

Kishikim bo'lmag'ay shoyistai tig',  
Tani bo'lmog'ay oning xastai tig'.

Vale yetkach iki bo'lgay yamonni,  
Shayotini lainu Ahramanni».

Bu ikki tuhfani chun topti Farhod,  
Yarotqong'a sujud etti bo'lub shod.

O'pub ul tig' ila qalqonni olib,  
Beliga bog'labu bo'ynig'a solib.

Ravon bo'ldi xiromon seli sori,  
Minib surdi sipohu xayli sori.

Chu ul ajdar bila qilg'onda novard,  
Tutub erdi jahonni qiyrgun gard.

Sipohining ko'pi borib o'zidin,  
Bu g'oyib hushluqlarning ko'zidin.

Chiqib chun keldi ul ofot ichidin,  
Sikandar uylakim zulmot ichidin.

Chehib xoqonu Mulkoro fig'onlar,  
Fido aylab sipohu xayli jonlar

Ki, ul topmay gazand andoq balodin,  
Xalos o'lmish aningdek ajdahodin.

Biriga qatlidin oning xabar yo'q  
Ki, olamda ul ajdardin asar yo'q.

Chu kayfiyatni fahm etti atosi,  
Dedi jon aylagay oning fidosi.

Eli ham onglag'och aytib sanolar,  
Dedilar ko'z yoshi birla duolar.

Chu qildi tog' mushkoso shamoli,  
Muanbar gardidin olamni xoli.

Padidor o'ldi mehri xovari ham,  
Ko'rundi ajdahoning paykari ham.

Bilindi vodiyu tog'i ko'rundi,  
Eshigi g'orning dog'i ko'rundi.

Surub g'or og'zig'a Farhodu xoqon,  
Ul ajdardin tamomi dasht aro qon.

Chekib xoqong'a ul ganji kiromi  
Ki, bo'lg'ay xaylig'a in'omi omi.

Ul ikki tuhfaning kayfiyatin deb,  
Bitilgan har biri xosiyatin deb.

Bo'lub ul ganjdin xoqon tarabnok  
Ki, o'z ganjдин ortuq etti idrok.

Vale ul ikki naqdi bebahodin,  
Tog'i ul ikki bo'lg'on ajdahodin.

Nishoti bo'ldi mufrit, daf' o'lub ranj  
Kim, ul xushroq ko'rundikim iki ganj.

Etak sori cherikka berdilar mayl  
Ki, tutmish erdi sahroni qizil sel.

Tushurdilar cherikni xurramu shod,  
Bo'lub ajdar g'amidin barcha ozod.

Ne xushdur ajdar o'lmak ranj birla,  
Kishi qilmoq tana'um ganj birla.

Alar ul ajdahodin forig'ulbol,  
Bo'lub ganji farog'at birla xushhol.

Quyosh Farhodi chun tortib sinon tez,  
Qaro tog' ajdarig'a bo'ldi xunrez.

Shafaqdin ko'kni andoq tutti qoni,  
Ki bo'ldi yerdagi qondin nishoni.

Alar ham aysh uyin omoda aylab,  
Shabiston ichra azmi boda aylab,

Tuzub bazmi falak bo'stoni yanglig',  
Ichib gulgun may ajdar qoni yanglig'.

Ketur soqiy, mayu bo'l g'amgusorim,  
Demaykim g'amgusorim, yori g'orim

Ki, bo'lg'ay anda ajdar qonidek rang,  
Sochay ganj, ichmagiga qilsam ohang.

### XXIII

*Farhodning devbodxiromliq devzodi ustiga sekrib Ahraman beshasi azmig'a sekretib ul vahshatzoy, balki savdoafzoy beshag'a kirib, Ahraman manzilig'acha surub yetgoni va Rustam<sup>1</sup> Mozandaron<sup>2</sup> beshasida dev o'lturg'ondek ul beshah Ahramanin qatl etgoni va Ahramanvash raxshin Ahraman qasrig'a surgoni va Sulaymon xotamin ilgiga kiyurgoni va yonib xoqon bila xaylin boshlab ul manzilda tushgoni.*

Chu septi dahr tun mushkiga kofur,  
Sochildi Ahraman anfosidin nur.

Tutub holig'a tun ifriti motam,  
Sulaymoni falak ko'rguzdi xotam.

Yana Farhod o'lub ish azmig'a chust,  
Beliga harb tig'in bog'labon rust,

Qilib bo'ynig'a qalqonni hamoyil.  
Tuzotti razm uchun bori shamoyil.

Tutub ul devpaykar uzra orom,  
Qo'yubon Ahraman vodisig'a gom.

Yana xoqon chekib gardung'a ohin,  
Falakdin o'tkarib gardi sipohin.

Ovuchlab Ahraman qo'rqunchidin jon  
Va lekin jondin ul holatda ranjon.

O'zin xud solibon ul yo'lg'a nokom,  
Sipohi ham urub nokomdin gom.

Surub Farhod elidin ilgariroq.  
Kirib urg'on sori gom ichkariroq.

Ko'runub xaylig'a gohi qarosi,  
Ochug' yorim yig'och chog'liq arosi.

Bu yanglig' yo'l kesar erdi shitobon,  
Dam urmay qat' etar erdi biyobon

Ki, bo'ldi ollida bir besha paydo,  
Xiradg'a vaz'idin andesha paydo.

Ne besha Ahraman bo'stonu bog'i,  
Aning ne uchi paydo, ne qirog'i.

Yig'ochi ostida ko'k sabzalar fosh,  
Vale ko'k sabzasidin o'tkarib bosh.

Ko'han ashjor har yon boqsa yuz ming,  
O'tub boshi falakdin har birining.

Etib haykallari paydo mahobat,  
Qilib yafroqlari zohir g'arobat.

Payopay devlox oning jiboli,  
Sarosar devbod oning shamoli.

Bo'lub har bargi bir mir'oti vasvos,  
Tuta olmay xirad o'z hushini pos.

Ichinda jonvar boshdin-ayoq dev,  
Bo'lub har shakl birla ko'rguzub rev.



Qilib har rud suyining sadosi,  
Ayon yuz g'ulu shayton mojarosi.

Mahobat fartidin rudida har tosh,  
Degaysenkim yotibdur bir kesuk bosh.

Hubobi gunbazi aql uyiga zid,  
Nechunkim gunbazi charxi musha'bid.

Suyining mavji savdoning xututi,  
Chekib hush uzra xat oning xututi.

Osilg'on barg shoxi xizrvashdin,  
Yozilg'on anda ta'viz obkashdin.

Agar qilsa guzar ul sori oma,  
Bori sargashtalikka girdnoma.

Ichi kuygan yig'och kovoki ochuq,  
Bo'lub g'ulu shayoting'a alochuq.

Xirad boshin evurub devloxi,  
Quruq shox anda har bir dev shoxi.

Bosib maxlas yo'lin tufrog'i oning,  
Chiqib har sori ming so'qmog'i oning.

Vale bu turfaroqkim aqli ogoh  
Bo'lub har sori ming yo'l ichra gumroh.

Bo'lub shaytonu g'ul oning vuhushi,  
Firibu fitna borining xurushi.

Shag'oli tortibon afg'oni anduh,  
Chekib kirgon kishining holig'a vuh.

Tikonlarkim chekib har sori domon,  
Debonkim: bormag'il ul yon xiromon.

Ilib dastorni har shoxi gustox.  
Shajar shoxi demakim, dev urub shox.

Qushi anduhu dard alhoni tortib,  
Musofir elga so'g afg'oni tortib.

Sahobekim, bo'lub durbor yig'lab,  
Anga kirgan kishiga zor yig'lab.

Shamolikim, solib har yon g'irevi  
Degilkim, na'ra aylar narra devi.

Bo'lub har sabza no'gi nishtari tez,  
Ne nishtar, qon to'karga xanjari tez.

Qayonkim yel yetishgach tebratib shox  
Ishoratkim: bu sori kirma gustox.

Chinori tebratib ilgini har yon  
Ki, ey kirgan kishi, Tengri uchun yon!

Ul aylab Haq taolog'a tavakkul,  
Bu beshha ichra surdi betaammul.

Kesib yo'l o'ylakim oshuftaroye  
Ki, bo'ldi beshada paydo fazoye.

Sarosar ul fazoda sabzau vard,  
Va lekin sabzasi ranju guli dard.

Chu qildi ul sori surmak xayoli,  
Ko'rundi ollida bir qasri oliy.

Surub ul qasr sori devzodin,  
Qilib devu pari Tengrisi yodin.

Tovush chun ongladi ifriti qattol,  
Chiqardi boshki, fahm etkay nedur hol.

Ne ko'rdikim yiroqtin shahsuvari,  
Kelur parvosiz oning qasri sori.

Ko'runub hay'atidin tezhushluk,  
Bilinib paykaridin devkushluk.

Chu ko'rdi Ahraman ul kavkabi sa'd,  
Urub bir qahqaha ul nav'ikim ra'd.

Chiqib keldi sahobi qahr yanglig',  
Ayog'din-boshqa tegru zahr yanglig'.

Sochib olamg'a jismi beqarori,  
Qiyomat o'tiyu do'zax sharori.

G'ururidin zamon bo'stonig'a larz,  
Xurushidin falak ayvonig'a darz.

Tanida har sari mo' bir sinondek,  
Sinon yo'q, balki ajdarvash yilondek.

Tomib chun jismidin har qatrai rev,  
Etib tadrij ila charx oni bir dev.

Qaroliqdin yuzi shomi malolat,  
Uzunluqda bo'yi ro'zi qiyomat.

Qo'lida bir sutun balkim chinore,  
Tuzu hamvor andoqkim minore.

Uchida berkitib bir ko'hpora,  
Bo'lubon dastasi oning minora.

Chekib boshig'a bu andozaliq gurz  
Ki, gar ul tekxa, tufrog' o'lg'ay Alburz.

Aningdek urdi yuz shahzoda sori  
Ki, sarsar savsani ozoda sori.

Debon: «K-ey g'aflatoyin odamizod.  
Bitilgan davri charx ollingg'a bedod.

Bu beshakim o'tarda vahm etib lol,  
Solur babr anda panja, sher changol.

Malak o'tsa o'char oning hayoti,  
Uqob uchsa kuyar oning qanoti.

Bu kelmakdin sening nedur xayoling  
Ki, kirmish qoninga fikri maholing».

Bu yanglig' ko'p yasab muhlik navola,  
Boshig'a gurzini qildi havola.

Bo'lub shahzoda qalqonig'a moyil,  
Qilich birla chopib gurzini hamoyil.

Aningdekkim tushub boshig'a toshi,  
Bo'lub ul toshdin ozurda boshi.

Tushub o't Ahramang'a ko'rgach oni,  
Tutub bosh, qasrig'a qaytib ravoni.

Tutub bir gurz ondin sahmginroq,  
Kelib avvalg'idin purqahru kinroq.

Oni ham urg'ali eltib havog'a,  
Tushurmasdin burun farmonravog'a.

Qalam aylab aningdek chustu shirin  
Ki, aytib devbandi charx tahsin.

Necha hamlin bu yanglig' aylagach rad,  
G'azabdin Ahraman tund o'ldi behad.

Chekib na'ra yuz urdi tog' sori,  
Nechukkim tiyra abri ko'hsori.

Olib bir tog'ning toshin tamomin,  
Havoda ko'rguzib yeldek xiromin.

Yuz urdi o'ylakim abri bahoron,  
Ki Farhod uzra qilg'ay sangboron.

Ko'rub Farhod ani qalqong'a kirdi,  
Ne qalqonkim, hasin qo'rg'ong'a kirdi.

To'sh o'lg'och Ahramang'a ismi a'zam,  
Qo'lidin zo'r ketti, jismidin ham.

Aningdek osmondin yerga tushti  
Ki, tosh ostida o'lmakka yovushti.

Dedikim sangboron aylagay yo'q,  
Ham oxir sangsor o'ldi o'zi-o'q.

Ko'rub Farhod ul xorofikanni,  
Dema xorofikankim, Ahramanni.

Oti ollinda xoru zor aningdek,  
Ayog'i ilgi ham nokor aningdek.

Hamoyil aylagan tig'in chekib bot,  
Boshig'a dev yanglig' sekretib ot,

Choqindek tig' ila boshig'a yetti,  
Ishin bir zarb ila-o'q oxir etti.

Qo'yub qasrig'a yuz, andoqqi Rustam,  
Eshikda bog'labon raxshini mahkam'.

Qadam qo'ydiyu kirdi qasr aro tez,  
Kafida dev chopqon tig'i xunrez.

Ne qasrikim jahon ichra jahone.  
Jahoni naqd boqsa har qayone.

Eshiklar bog'labon har sori behad,  
Temur qufl anda mahkam, o'ylakim sad.

Yozilg'on buki: ne jinsi xazina  
Erur ul uyda zohir yo dafina.

O'tar erdi o'qub har birni bot-bot,  
Ko'rundi bir eshik, hayhot-hayhot.

O'zi oltun, javohir birla tarse',  
Yozilg'on davrida bir nav' tavqe' —

Ki, ochilmas bu uyning qufli oson,  
Ochardin bo'lmoq avlodur haroson.

Bu ma'ni ko'nglidin zoyil qilib hush,  
Ravon savdomizoji Ahramankush.

Murassa' quflg'a urdi ilikni.  
Uy ichra sindurub kirdi eshikni.

Evi ko'rdiki ko'rmaydur misoli.  
Nechukkim kinasiz el ko'ngli xoli<sup>4</sup>.

Boqar erdi qilib har sori ta'jil,  
Osilg'on ko'rdi bir yoqut qandil.

Furuzon lam'a andin Mushtaridek,  
Yorutub evni sham'i xovaridek<sup>5</sup>.

Tushurdi dog'i filhol ochti oni,  
Sulaymon xotamin topti nihoni.

Vale qandil aro bu so'z muharrar  
Ki, xotam kingakim bo'lsa muyassar.

O'qub xotam aro yozilg'on ismin,  
Ochar Iskandari Rumiy tilismin.

O'qulsa ko'p qilur farxunda hotif,  
Ul ish mushkillaridan oni voqif.

Niginni o'ptiyu, ko'ziga qo'ydi,  
Ko'ngulni Haq sanosin derga qo'ydi.

Bajo kelturdi chunkim shukri Bori,  
Chiqib azm etti qolg'on xayli sori.

Chu markab beshadin toshqori surdi,  
Cherikni bas ajab holatda ko'rdi.

Borida Ahraman xavfi padidor.  
Taabdin titrab andoqkim sapidor.

Ko'rungach shohzoda ko'zlariga,  
Yana bori kelibon o'zlariga.

Ko'rub xoqoni Chin Farhodni shod,  
Bo'lub ul dog'i shod andoqki Farhod.

Dema Farhodkim, fardi zamona,  
Cherigin boshlabon bo'ldi ravona.

O'tub el Ahramanning beshasidin,  
Bo'lub fard Ahraman andeshasidin.

Yetib ul sabzau dilkash fazog'a,  
Eramdek ruhbxash obu havog'a.

Tushurdi qasr davrida cherigin,  
Ochib ul qasrning oliy eshigin.

Atosi birla dasturi kiromi,  
Uchovning qasr aro bo'ldi xiromi.

Xazoyinni ikovga qildi taslim,  
Qilib xotam hadisni dog'i tafhim.

Yana yetti alarg'a shodmonliq,  
May istab zohir o'ldi komronliq.

Hamul shohona bazmi ishrtanjom,  
Tuzuldi ul sifatkim burnog'i shom.

Chu gardun Rustami xur tig'in oldi,  
Zamon oq devining bo'ynig'a soldi.

Halok aylab ani holi tabohi,  
Jahonni tiyra qildi dudi ohi.

Alarg'a ayshu ishrat erdi boqiy,  
Bo'lubon jilvagar gulchehra soqiy.

Labolab Ahraman boshi kibi jom,  
Tutub aylarlar erdi boda oshom.

Kel, ey soqiy, manga may qil havola,  
Etibon Ahraman boshin piyola.

Ki. qilg'ay ul qadahdin ruhi mastim,  
Zamone nafs devin zerdastim.

#### XXIV

*Farhodning Sugrot tog'i tilismin ocharg'a kamar bog'lab hayvonvash chashma  
tegrasidagi marg'zori axzarda Xizr muloqotidin sarsabz bo'lg'oni va Xizr anga  
Xizri rah bo'lub g'am zulumatidin chiqorib, hayot suyidek ta'limlar bila toza  
hayot bergoni va g'am tilismini aning ko'nglidin ochilg'onidek aning tilismini  
g'amidin ko'ngli ochilg'oni va Xizrning jismi tilismida ravshan ko'nglidek  
tilism jismida jomi jahonnamoy topqoni va ul jomg'a Xizr suyidek may solib  
Sikandar yodi bila no'sh etgoni.*

Chu zulmat ra'yati bo'ldi nigunsor,  
Quyosh Iskandari ko'rguzdi ruxsor.

Bezaldi gunbazi axzar tilismini,  
Tamom andoqki Iskandar tilismini.

Yana Farhod kiydi ish libosin,  
Boshida toza aylab muddaosin.

Atosining ayog'ig'a dajamvor  
Tushub. aylab o'zin tufroqqa hamvor.

Tilab himmat, duo birla qo'pub tez,  
Jahonpaymosi uzra ayladi xez.

Yana ish azmig'a bo'ldi ravona,  
O'qub xotam duosin bexudona.

Padid o'ldi falakdek marg'zore,  
Quyosh yanglig' ichinda chashmasore'.

Zulolij chashmai hayvon masallik,  
Bo'lub har qatra andin jon masallik.

Qirog'inda daraxti ko'kka hambar,  
Bu hayvon suyi, ul — Xizri payambar.



Yetib Farhod anda bo'ldi xurram,  
Yig'ochqa bog'labon raxshini mahkam.

Hamul suv ichra g'usli ayladi pok,  
Yubon g'am chirkini bo'ldi tarabnok.

Sujud etti tilab maqsudig'a yo'l,  
Tazarru' aylabon Ma'budig'a ul.

Ko'targach boshni ko'rdi sabzpo'she.  
Yuzi nuroni andoqkim Surushe.

Chu ko'rdi oni, holi topti tag'yir,  
Buyurdi lutfu shafqat ko'rguzub pir

Ki, ey farzand, g'amdin barkaron bo'l,  
Bu ishkim koming o'lmish, komron bo'l.

Meni Xizr anglakim, tuttum yo'lungni  
Ki, to bu yo'lda tutqoymen qo'lungni.

Sikandar birla chun mehnatg'a tushtuk,  
Tilab hayvon suyin zulmatg'a tushtuk.

Suv istab ul ko'p urdi har taraf gom  
Va lekin yetti ul suvdin manga kom.

Mening jonim chu ul suv birla qondi,  
Sikandar jon chekib, labtashna yondi.

Ishin chun qildi charx aylab hasad band,  
Chiqib ofoq aro bo'ldi rasadband.

Anga ish bog'lamoq bo'ldi hamesha,  
Manga ochmoq aning bandini pesha.

Tilismi hamki bog'labdur zamiri,  
Ocharda menmen elning dastgiri.

Tilismedinki, band o'lmish bu vodiy,  
Kelibturmen sanga bo'lmoqqa hodiy.

Chu mundin yo'lga kirgungdur saranjom,  
Sana har nechakim urgungdurur gom.

Ko'rungay chun tilismi charxmonand,  
Hisore bo'lg'usi gardung'a payvand.

Hamul yerdin o'n ikki ming qadamdur,  
Vale har bir qadamda yuz nadamdur.

Yo'li o'r, yuqqoridur toshi malso,  
Quyiroqdur kishi bir gomin olso.

Yo'li bir so'qmoq ikki sori xora,  
Itik har xora andoqkim katora.

Kishi har necha yo'l qilg'on esa tay,  
Hamul yo'ldin chiqorsa nogihon pay.

Itik xoro oyog'in aylabon chok,  
Ko'rar bu chashma uzra o'zni g'amnok.

Vagar xud tuz yurub qat' ayladi yo'l,  
Chu o'n bir ming qadam qat' ayladi ul

Bo'lur yo'lda ayon bir xora darband,  
Temur zanjir ila bir sheri nar band.

Kishini yutqudek og'zin ochib keng,  
Degil darband ila og'zi erur teng.

Kishikim o'tsa andin baxt o'lub rom,  
Erur qo'rg'on eshigi yona ming gom.

Chu to'qquz yuz qadam ursa yurub tuz,  
Yo'l uzra taxtasange ko'rguzur yuz.

Anga chiqqoch kishikim tepsa mahkam,  
Ochilur qal'aning darbandi ul dam.

Bo'lur darvoza ichra oshkoro,  
Temur jismiki qilmish paykaroro<sup>2</sup>.

Erur odamg'a monandu mushobih,  
Iligida temurdin yo qilib zih.

Chekib ul yog'a bir o'q oshkoro  
Ki, xoro toshidin o'tgay guzoro.

Va lekin ushbu paykar poy to farq,  
Bo'lub o'tdek temur o'pchin aro g'arq.

Aning ko'ksida bir oyina bog'liq,  
Safo ichra quyosh ko'zgusi chog'liq.

Kishi ul yuz qadam yerdin chekib o'q,  
Otib ura hamul oyinani-o'q.

Yiqilg'ay yerga ul paykar hamul dam,  
Ne yolg'uz ulki boru uzra yuz ham.

Ochilg'ay ul tilismi pech-darpech,  
Kishi kirgay anga vahm etmayin hech.

Vale otqon zamon baxt o'lmay ogoh.  
Kishi yozsa o'shul ko'zguni nogoh.

Kushod o'lg'ay anga ul barcha novak,  
Chiqorg'ay par oningdekkim chakovak.

Tani bo'lg'ay qafas monand holi,  
Tiriklik bulbulidin lek xoli.

Chu sen dog'i bu ishga aylagung azm,  
Degan so'zlarni asra ko'nglunga jazm.

Desangkim, toymag'oy ul yerda goming,  
Sanog'liq gom ila bo'lsun xiroming.

O'qurda «ismi a'zam» tutma orom,  
O'qumay «ism» qo'yima yo'lda bir gom.

Chu qilsa hamla sher og'zini ochib,  
Damidin ajdahodek shu'la sochib.

Ravon xotamni oning og'zig'a ot  
Ki, oning birla daf' o'lg'usi ul bot.

Olib xotam yana bo'lg'il ravona,  
Hamul toshqachakim dedim nishona.

Chiqib tosh uzra ochay deb eshikni.  
O'qu yoyinga chun urg'ung ilikni.

Necha otmoqqa bo'lsa iqtidoring,  
Kerak albatta «ism» o'lg'ay shioring.

Chu qildi Xizr bu ishlarni ta'lim,  
Dedi: tush yo'lg'a emdi, aylamay bim.

O'pub, Farhod, ayog'in yo'lg'a kirdi,  
Nekim qildi oning ta'limi erdi.

Chu bo'ldi sher darband ichra mavjud,  
Anga xotamni otqoch bo'ldi nobud.

Olib xotam, yana urdi sanab gom,  
Hamul tosh ustiga tutquncha orom.

Chu tosh uzra ayog'in tepti mahkam,  
Hisor ichra sadoye tushti ul dam.

Sado chun behadu andoza bo'ldi,  
Ochilg'on burnoroq darvoza bo'ldi.

Eshik ochilg'och-o'q bo'ldi sado yo'q.  
Ul o'pchinliq chiqib keldi chekib o'q<sup>3</sup>.

Yana boru uza yuz novakafkan,  
Chekib o'qlar, kiyib borisi javshan.

Xadangin borcha ul yon tortibon tuz  
Ki, Farhod anda ko'rguzmish edi yuz.

Ko'rub Farhod mundoq ibtiloni,  
Bir-o'q jonig'a yuz tiyri baloni.

Tavahhum aylamay ul ranjpaymoy,  
Taanni birla olib o'q ila yoy.

Chu tortib novakin aylab darange.  
Aningdek urdi ko'zguga xadange

Ki, mahbub urg'ay asrab g'amza chog'in,  
Muhib ko'ksiga qo'yg'on eski dog'in.

Chu tegdi ul xadangi barqosor,  
Yiqildi bu xadangafkan nigunsor.

Yiqilg'och bu, hamul yuz ro'yitanvash  
Ki, boru uzra erdilar kamonkash.

Alar ham borcha yerga bo'ldilar past,  
Quyig'i novakafkan birla hamdast.

Yana Farhod ko'rgach bo'yla ahvol,  
Tilin mundog' g'arobatlar qilib lol.

Solib Haq hamdig'a filhol tilini,  
Sanog'a qildi go'yo lol tilini.

Qadam qo'ydi ravon darvoza sori,  
Hamul oshubi beandoza sori.

Bori oshubdin xoli ko'rub yo'l,  
Hisor ichra azimat ayladi ul.

G'animat ko'rdi har yon haddin afzun,  
O'kulgan har taraf yuz ganji Qorun

Ki, Iskandarki olib yetti kishvar,  
Hududi boxtardin to ba xovar.

Jahon ochmoqdakim ko'p ranj topib  
Va lekin har ne naqdu ganj topib.

Tilism aylab bu gardunvash hisorin,  
Qilib maxzan hisori ichra borin.

Hisori markazida bir imorat  
Ki, o'jiz vasfidin yuz ming iborat.

Ziyo har yon sochib, andoqki shid<sup>4</sup> ul.  
Bag'oyat muxtasar, lekin mufid ul.

Eshik ochib anga chun qo'ydi gome,  
Ko'rundi toqida raxshanda jome<sup>5</sup>.

Safou tob aro andoqki xurshed,  
Dema xurshed, balkim jomi Jamshed.

Bo'lub geti aro mehri samo ul,  
Hamul oyinai getinamo ul.

Bori maxfiy umur izhori anda,  
Jahon holoti ravshan bori anda.

Tashida jilva aylab markazi xok,  
Ichinda lek to'qquz davri aflok.

Tashi ul nav'kim komil zamiri,  
Ichi andoqki sohibdil zamiri.

Ani chun topti Farhodi taabnok,  
Bag'oyat bo'ldi xushholu tarabnok.

Qo'yub ul ganju jomi xusravona,  
Yonib xayli sori bo'ldi ravona.

Yetib sarchashmag'a mindi takovar,  
Ravon Xoqon sori surdi dilovar.

Yetib Xoqonu xaylin shod qildi,  
Tuman ming qayg'udin ozod qildi.

Etib bori cherikka rohbarliq,  
Alar keynicha aylab paysiparliq.

Anga tegruki ul sarchashma erdi  
Ki, anda Xizr anga ta'lim berdi.

Tushurdi sarbasar xaylu sipahni,  
Olib bo'ldi ravon dasturu shahni.

Angachakim bor erdi sheru darband,  
Yana to ul hisori charxpayvand.

Ichinda bor ekan zohir xazoyin,  
Bulardin ayru har maxfiy dafoyin.

Borin Xoqong'a chekti tuhfaoyin.  
Anga tegruki ul jomi jahonbin.

Debon yuz nav' shukri Ezidi pok,  
Yonib manzilg'a keldilar tarabnok.

Qamar Farhodi chun ko'rguzdi jismin.  
Buzub kunduz hisorining tilismin.

Sikandardek kirib zulmatga xurshed,  
Tilism ichra yoshundi jomi Jamshed.

Alar topib yana ishratqa asbob,  
Solib jomi Jam ichra bodai nob,

Surub gohi Sikandardin tarona,  
Debon Jamsheddin gohi fasona.

Kel, ey soqiy, tuzub ishrat maqomin,  
Quyub may, tut manga Jamshed jomin.

Sikandar ko'zqusini aylab ifsho,  
Qilay Jamshedning jomin tamosho.

## XXV

*Farhodning Iskandar tilismin ochib, xoqon va Mulkoro bila Suqrot tog'ig'a azimat qilmog'i va ul tog'ning irtifo'da falakdin bosh o'tkarganidin sarguzashti aytmoq va tiyra g'orlarning har biri hijron tunidin savod ko'rguzganidin afsona demak va Farhod jomi jahonnamoda aqolimi sab'a mamolikin taqsim qilib Suqrot g'orin topqonidin yo'l ko'rguzmak va jom*

*partavida yo'l ohangi qilmog'idin tarona tuzmak va alarg'a Suqroti gavhari  
tog' konida lome' bo'lub tilism mushkilin «koniyan minkon»<sup>1</sup> ravshan  
qilmog'i va ul gavhari adam konig'a kirib bu sayrafiylar<sup>2</sup> maqsudin  
gavharin iliklab qaytmoqlarin kayfiyatining aytilmog'i.*

Sahar Suqroti chun tog' avji tutti,  
Jamoli nuri olamni yorutti.

Sipehr avroqidin asbobi oning,  
Quyosh jirmidin usturlobi oning<sup>3</sup>.

Yana Farhod istab ishga somon,  
Minib tavsan uza bo'ldi xiromon.

Yuz urdi betaammul tog' sori  
Ki, anda dedilar Suqrot g'ori.

Ravon xoqonu dasturi hunarvar,  
Aning keynicha surdilar takovar.

Xaloyiqqa azimat ko'si urmay,  
Cherikni chashma boshidin ko'churmay.

Ming, ikki mingcha xosilxos xodim,  
Bo'lub xoqon rikobida mulozim.

Surub Farhod keynicha shitobon,  
Yetishtilar qilib qat'i biyobon.

Aning birla bo'lub ul yo'lda hamroh,  
Kesarlar erdi vodi xayl ila shoh.

Yetishgach tog'ning domonasig'a,  
Hakimi ahd xilvatxonasig'a

Solib ko'z, ko'rdilar hadsiz biyik tog',  
Yer oning zaylida bir to'da tufrog'<sup>4</sup>.

Zuhal boshig'a yetib boshi oning,  
Falak jomin ushotib toshi oning.



Yig'ochi soyasida charx koxi,  
Quyiroq shoxasidin Sidra<sup>5</sup> shoxi.

Urub tig'i falak jismig'a suhon,  
O'tub ul jismdin andoqki ko'hon.

Bukim ko'ktin o'tub suhonliq aylab,  
Falak buxtisig'a ko'honliq aylab.

Qamar ojjig'a suhonidin andom,  
Taharruk ojjig'a, suhong'a orom.

Aning avjida qorikim padidor,  
Qirilg'on oj ushog'idin namudor.

Ko'runub takasidin Jady poya,  
Asad qoplonining ostida soya.

Chiqib javfida yuz ming chashma raxshon,  
Biri ul jumladin mehri duraxshon.

Giyoh anda tuman ming borcha nofe',  
Adadsiz ranjg'a har qoysi dofe'.

Biyiklik ichra to'qquz osmoncha,  
Tubining davrasi ikki jahoncha.

Ayon atrofida payg'ora<sup>6</sup> bisyor  
Ki, idrokida bo'lmay aqlu his yor.

Yo'q anda g'orning boshi-ayog'i,  
Ne oning uchi paydo, ne qirog'i.

Aningdek har birining javfi tira  
Ki, andin mehri anvar sham'i xira.

Agar kirsang'anga badri muniri,  
Ko'runub tiyralikdin qursi qiri.

Bu yanglig' tira har birning savodi,  
Savodi ichra har yon tog'u vodi.

Oqib vodida yuz daryoyi xunxor,  
Tog' ichra xud ming ajdarhoyi xunxor.

Yetib ul tog' aro shahzodau shoh,  
Chu bo'ldilar bu kayfiyatdin ogoh.

Qilib Xoqonni hayrat lolu ojiz  
Ki, bilmas erdi mundoq yerni hargiz.

Bo'lub ul chorag'a Farhod mulham,  
Berib shah birla xaylig'a ko'ngul ham.

Dedikim: «Hozir aylang jomi Jamni  
Ki, el ko'nglidin olsun bu alamni».

Ravoni boribon kelturdilar jom  
Ki, andin mushkil ish topqay saranjom.

Anga qilg'och nazar istab kushoyish,  
Jahon timsolig'a topti namoyish.

Qayon boqqach qilib, ravshannazarliq  
Bir iqlim etti zohir jilvagarliq.

Burun ofoq mulkin qildi taslim,  
Judo qildi yako-yak yetti iqlim.

Mamolik jilvasidin ko'zni yopti  
Ki, Yunon mulkin ul jom ichra topti.

Qilib har yon nazarlar xaylin iblog',  
Anga yetkurdikim bor erdi ul tog'.

Chu tog' ahvolini qildi shumora,  
Etib har g'orning javfin nazora.

Nazar topti hamul g'or ichra anjom  
Ki, topmish erdi Suqrot anda orom.

Topib ko'p fikr ila g'or og'zig'a yo'l,  
Kishi topqon kibi yor og'zig'a yo'l.

Dedikim: olibon kirdilar avval,  
Jahonbin jomni, andoqki mash'al.

Olib kirganki oni yo'lg'a tutti,  
Qarong'u tunni kunduzdek yorutti.

Qilib ul jomdin nur o'yla tafsir  
Ki, mash'al partavi qilg'onda shabgir.

Surub g'or ichra yuz ofot ichinda,  
Sikandar o'ylakim zulmot ichinda.

Chu bo'ldi Xizrdin ul yo'l nishoni,  
Topildi nogah obi zidagoni.

Hamul yerdin ayon bo'ldi nishona  
Ki, maxfiy erdi Suqroti yagona.

Nishona ulki yo'lg'a yetti g'oyat,  
Qaro tunga yetishgandek nihoyat.

Qilib markablaridin tushkali mayl,  
Shahu shahzoda, balkim jumlai xayl.

Topildi chun bu yanglig' turfa voya,  
Ko'rundi toshdin bir zinapoya.

Chiqib shahzoda birla shoh ikavlo,  
Vaziri kordon birla uchavlo.

Besh-olti poya chiqqoch bo'ldi paydo,  
Fazoyi anda ayvone huvaydo.

Yurugoch ul sori shahzodau shoh,  
Ko'rundi to'rida bir turfa dargoh.

Tutub dargoh aro bir lahza orom,  
Solib partav hamul getinamo jom

Ki, keldi uy harimidin nidoeye,  
Nido, kirmak uchun erdi saloeye.

Qo'pub chun kirdilar pursho'rxotir,  
Ko'ngul uyiga andoqkim xavotir.

Uy ichra ko'rdilar bir porai nur,  
Bo'lub ev partavidin bayti ma'mur.

Bo'lub bir burj ichinda mehrdek gird,  
Hakimi charx aning ollinda shogird.

Muzakko ruhdin jismi namudor,  
Mujarrad aqldin shaxsi padidor.

Etakni tog'dek tortib jahondin,  
Nechukkim tog' tebranmay makondin.

Safosi la'l yanglig' oshkoro,  
Libosi la'li ravshan uzra xoro.

Bo'lub xoro sipehrida jahone,  
Jahon jismida yoxud toza jone.

Jahonni qo'yki, oliyshon vujudi,  
Jahonda olami kubro namudi.

Kelib ko'ngli aningdek bahri zoxir  
Ki, anda zohir avval to ba oxir.

To'la durluq sadaf yanglig' bo'lub gum,  
Bu daryo ichra yuz ming charxu anjum.

Yuzi mir'oti anvori Ilohi,  
Ilohiy sirrini anglab kamohi.

Xayining qatrasini tomg'onda bir-bir,  
Sochib anjum kibi olamg'a ta'sir.

Bo'lub g'orida har dun ankabuti,  
Bir usturlobi<sup>7</sup> gardun ankabuti.

Falakdek tab'i soyir, jismi sokin,  
Safar aylab, vale yo'q sayr mumkin.

Sipehri hilm zotidin huvaydo,  
Shukuhi ilm ruxsorida paydo.

Ko'rungach bu sifat oliy guhar zot,  
Bo'lub xam ollida yer o'ptilar bot.

Shukuhidin bo'lub betob tanlar,  
Ko'ngullar za'f etib, titrab badanlar.

Ko'z ochti chun amini maxzani roz,  
Alarni qildi so'rmoq birla e'zoz

Ki, muhlik yo'l mururidin nechuksiz,  
Baliyoti zaruridin nechuksiz?

Quyi solib bori boshlarni filhol,  
Javob ayturg'a tillar sarbasar lol.

Dedi xoqong'akim: ko'p chekting emgak,  
Evazlar bergusidur Tengri beshak.

Bizing soriki kelding ko'p chekib ranj,  
Agarchi yo'lda ro'zi bo'ldi ko'p ganj.

Adadsiz javharu naqdi kiromi,  
Sulaymon xotami, Jamshed jomi.

Yana ham ikki mujda yetkururbiz,  
Qo'lungg'a ikki javhar topshururbiz.

Biri bu ikki javhardin xabardur,  
Biri bir javhari oliy asardur".

Xabar bukim, hayoting ko'p yil o'lg'ay,  
Dag'i ko'p mulk fathi hosil o'lg'ay

Ki, ajdodingda qilsang necha fikrat,  
Yo'q o'lg'ay sencha surgan umru davlat.

Yana bir muhrayedur nafliq, bil  
Ki, chun qolg'ung jahon mulkida ko'p yil.

Agar za'feyu ranje bo'lsa tori,  
Va gar yetsa qoriliq inkisori.

Qachon ul muhrani og'zingg'a tutsang,  
Evursang har yonu suyini yutsang.

Maraz — sihat bila bo'lg'ay mubaddal,  
Ano — quvvat bila bo'lg'ay mubaddal.

Qariliq ranji daf' o'lg'ay tamomi,  
Shabob o'lg'ay aning qoyim maqomi.

Chu Mulkorog'a fosh etti bashorat,  
Bu nav' etti bashoratlig' ishorat

Ki, chun sen dog'i tortib ko'p alamni,  
Bu sori ranjag'a solding qadamni,

Necha shah bo'lsa olam taxtgiri,  
Sen-o'q bo'lg'aysen ollinda vaziri.

Qachonkim yetsa ranju za'fdin band,  
Seni ham muhradin qilg'ay barumand.

Va lekin o'lingizda bir xatar bor  
Ki, ondin borchag'a joyi hazar bor.

Anosirning ikisidin durur bu,  
G'alat gar qilmasam: yel bo'lg'ayu suv<sup>9</sup>.

Agarchi bo'lg'usi ko'p ranja bo'lmoq,  
Xudoy etkay nasib ondin qutulmoq.

Chu ondin o'tti ersa umr posi,  
Bo'lur aql etsa besh yuz yil qiyosi.

Alarg'a tegurub bu mujdalarni,  
Chiqordi uzr ila evdin alarni.

Dedi shahzodani, kelgil yaqinroq,  
O'ziga qildi hamrozu qarinq.

Ko'zin ochib jamolin yaxshi ko'rdi,  
Base diljo'yulqlar birla so'rdi.

Qo'pub ollinda chun yer o'пти Farhod,  
Hakimi donishomuz etti bunyod

Ki: «Ey dardu alam birla sirishting,  
Azaldin ishq bo'lg'on sarnavishting.

Safo kelturdungu xush kelding oxir,  
Qarong'u uyni ravshan qilding oxir.

Erur ming yilki bo'lub ko'hsori,  
Chekarmen maqdamingning intizori.

Yuzung ko'rdi ko'zum, alhamdulillah,  
Seni topti o'zum, alhamdulillah.

Eshit, bir necha so'z kim vaqt erur tang  
Ki, aylarmen baqo ko'yig'a ohang.

Muni bilkim jahon fonidur asru,  
Haqiqat ahli zindonidur asru.

Agar topsa Sikandar mulki zoting,  
Gar o'lsa Nuh<sup>10</sup> umricha hayoting.

Chu ketmoqlik keraktur bot, agar kech,  
Hamul davlat bila bu umr erur hech.

Bukim Haq ayladi insonni mavjud,  
Anga mavjudliqdin borcha maqsud.

Erur Haq amrig'a ma'mur bo'lmoq,  
Bu ishdan o'zgadin ma'zur bo'lmoq.

Chu mahbubi haqiqiy uldurur ul,  
Aning vasli sori qat' aylamak yo'l.

Gar ul mahbub vasli bo'ldi ummid,  
Budur iqboli sarmad, baxti jovid.

Vale bu davlatedur asru oliy,  
Erur mushkil anga yetmak xayoli.

Bu yo'l ichraki behad dardu g'amdur,  
Uzoq tortar, vale ikki qadamdur.

Kim ul ikki qadamning qat'i ming yil,  
Kishi ursa qadam mumkin emas bil.

Biri o'zlukni qilmoq bo'ldi foniy,  
Yana bir dog'i topmoq bo'ldi oni.

Kishi o'zlukni qo'ymay oni topmas,  
Tengiz kesmay duri yaktoni topmas.

Bu o'zlukdin qutulmoq chorasoz,  
Nima yo'q o'ylakim ishq<sup>1</sup> majoziy.

Angakim qoldi g'am shomig'a jovid,  
Burun subh o'ldi tole', so'ngra xurshed.

Majoziy ishq<sup>1</sup> bo'ldi subhi anvar,  
Haqiqiy ishq<sup>2</sup> anga xurshedi xovar.

Qilib ishq<sup>1</sup> majoziy zoru g'amnok,  
Etar oshiq tanin andoqki xoshok.

Haroratlar etib ul xasqa moyil,  
Qilur o't yetgach o'rtanmakka qobil.

Choqilg'och barqi ishq<sup>1</sup> jovidoni,  
Yetishgach bir sharar kul aylar oni.

Sening ollingdadur ishq<sup>1</sup> majoziy  
Ki, jisming o'rtabon so'zu gudozi.

Ham ovozangni ofoq ichra solg'ay,  
Ham ovozing kuhan toq ichra solg'ay.

Qilib ishqing o'ti olamni ravshan,  
Ne olam, nilgun toramni ravshan.



To'la qilg'ay g'ami ishqing jahonni,  
Jahonni qo'yki, to'qquz osmonni.

Qayonkim ishq aro bir fard bo'lg'ay,  
Ko'zi nuri yo'lungdin gard bo'lg'ay.

Yetib to'qquz falak toqig'a ho'yung,  
Yeti kishvarni tutqay guftu go'yung.

Yig'ilsa ishq eli xaylu sipohi,  
Sen o'lg'aysen borining podshohi.

Majoziy ishqdin o'rtansa joning,  
Borib seli fanog'a xonumoning.

Haqiqiy ishqdin esgay nasime,  
Yetib oning nasimidin shamime.

Bo'lub ma'shuqi asli chorasozing,  
Haqiqatqa badal bo'lg'ay majozing.

Yetib mazharg'a bexudluq qiyosi,  
Kelib muzharg'a ishqing intihosi.

Baqo mulkida topqung qahramonliq,  
Haqiqat taxtida sohibqironliq.

Atongdek yuz tuman Xoqonu qaysar,  
Unut bo'lg'ay jahon ahlig'a yaksar.

Sening qolg'ay jahon ichra sifoting,  
Tariqi ishq ichinda yaxshi oting».

Bularni aytib, o'rgatti duoye  
Ki: «Kelsa ollinga bandu baloye,

O'qurg'a bu duo chun moyil o'lg'ung,  
Bori bandu balolardin qutulg'ung.

Yana ko'zgu ishim hodis o'ldi.  
Sanga bu yon kelurga bois o'ldi.

Sikandarning tilisminkim ushotting,  
Xadangikim ul o'pchinlukka otting

Kim, o'q tegdi oning oyinasig'a,  
O'tub bo'ldi tarozu siynasig'a.

Burung'i ko'zgukim ashkingni sochti,  
Bu o'q oning tilismin dog'i ochti.

Yonib mundinki Chin shahrig'a yetkung,  
Hamul ko'zguni ko'rmak mayli etkung.

Nekim keynida yozmish paykaroro,  
Sanga yuzinda bo'lg'ay oshkoro.

Ani ko'rgach yetib ishq ibtilosi,  
Bo'lub oshiqlig'ingning ibtidosi.

Yana har necha boqsang ko'rmagung hech,  
Ishing sarrishtasig'a tushkusi pech.

Bo'lub ojiz ishingdin ahli tadbir,  
Boshingg'a kelgusidur ulki taqdir.

Nechakim bo'lg'usi holing tabohi,  
Falakka yetkusi ko'nglungning ohi.

Vale tortib sipahlar ishq matlub,  
Aningdek qilg'usi ko'nglungni mag'lub

Ki, ondin bir nafas gar bo'lsang ogoh,  
Ko'p ortuqroqki ming yil bo'lg'osen shoh.

Chu men ham qildim oxir xayrboding.  
Murodim buki yetkach ul muroding,

Hujumi ishq tug'yonida gohe  
Sog'ing'oysen meni ham tortib ohe».

Chu dono chekti bu g'oyatg'a so'zni,  
Bas etti so'zni dog'i yumdi ko'zni.

Chekib Farhod hijronida vaylo,  
Uzun yo'l tutti andoqkim Suhaylo<sup>13</sup>.

Ko'rub Farhodi mahzun o'yla holat,  
Ko'zidin yog'durub ashki malolat.

Base yig'lab nechukkim ahli motam,  
Aning holig'a, o'z ahvolig'a ham.

Tilab Xoqonu Mulkoroni darhol,  
Alar dog'i ko'rub ul purxatar hol.

Ikov xud toshqori o'lmokka yetib,  
Nekim dono bayon aylab eshitib.

Tilab bir necha donovash kishini,  
Saranjom ettilar dono ishini.

Berib qabrig'a oncha vaqfdin bahr  
Ki, ul tog'u navohini qilib shahr.

Chu ul ma'mura vaz'in qildilar tuz,  
Qo'pub sarchashma sori qo'ydilar yuz.

Sipoh ichra tushub Xoqonu Farhod,  
Ne bu o'z holidin g'amgin, ne ul shod.

Quyosh Suqroti<sup>14</sup> chun yer qildi maskan,  
Kecha Luqmoni bunyod etti shevan<sup>15</sup>.

Yasab ko'ku qaro birla libosin.  
To'kub ashk ayladi zohir azosin.

Alar Suqrot so'gidin topib dard,  
Vale Chin yodi birla darddin fard.

Tuzub bazm ul kecha ham komu nokom,  
Ichib achchiqqa-achchiq bir necha jom.

Kel, ey soqiyu hikmat ayla oyin,  
Manga tutg'il mayi mamzuj rangin.

Qadah sarchashmasig'a solibon jo'sh,  
Meni qil jo'shdin bir lahza xomo'sh.

## XXVI

*Farhodning Xoqon bila Chin azmig'a dashtpaymolig'i va Chinda yuz ko'rguzgan oyinai chiniy g'amidin shaydoliq'i va ul ko'zguga tamoshu qilg'och, Arman kishvari, balki Eram bog'i va Arman vodiysi, balki hayrat tog'i anga hulyai namoyish va jilvai oroyish qilmog'i va Shirinning jamoli ko'zgusin ul ko'zgu jamolida mushohada qilib, oh urub yiqilg'oni va aning ohi ul ko'zgu yuzin tiyra qilg'oni.*

Sahar sarchashmasi chun bo'ldi ravshan,  
Falakning marg'zorin qildi gulshan,

Safo topib falak Yunon zamini  
Sipah chekti quyosh Xoqoni Chini.

Qilib Xoqon yana Chin mulkiga mayl,  
Dema Xoqonki Farhodu bori xayl.

Xazoying'a qo'yubon mu'tamadlar,  
Berib har birga mingdin ko'p madadlar.

Azimat Ching'a bo'ldi ko'ch-barko'ch,  
Ishi yo'q erdi ul yo'lda magar ko'ch.

Demay yo'l qat'ig'a chunkim qo'yub yuz,  
Kechani kechau kunduzni kunduz.

Yetib Xoqon yana Chin kishvarig'a  
Nabi ul nav'kim din kishvarig'a.

Tushub taxtig'a shohi kishvaroroy,  
Aningdekkim sharaf burji aro oy.

Qo'yub Farhod chun Chin shahrig'a gom,  
Taraddud ichra tutmay ko'ngli orom.

Qilib ko'zgu xayolining umidin,  
Tilab filhol maxzanlar kalidin.

Eshiklarni ochib qolmay qarori,  
Sarosima yugurdi ko'zgu sori.

Ko'rungach ul bulurin paykari pok,  
Bo'lub andeshalig' ko'ngli tarabnok.

Tushurdi ul latofat huqqasini,  
Latofat yo'qki, ofat huqqasini.

Kalidin istabon xozindin olib,  
O'zin yuz ming balo bandig'a solib.

Kalid aylab zabona shaklidin til,  
Bo'lub oni ochar man'ig'a qoyil.

Tutub qufl og'zi zulfinini mahkam,  
Etib imo oni ochmasqa ul ham.

Urub zulfini qufl ichinda yuz pech  
Ki, ya'ni bu xatarliq fikrdin kech.

Kishi taqdirdin bo'lmas chu qochib,  
Chiqordi ko'zguni sanduqni ochib.

Ko'rub ul nav'kim mir'oti xurshed,  
Jahonni ko'rguzub chun jomi Jamshed.

Tushub ko'ngliga hayratdin sharora,  
Aning ruxsorig'a qildi nazora.

Ne ko'rdi: turfa dashti nozparvard,  
Ko'runmay sahnida juz sabzai dard.

Giyohi nishtar, ammo zang tutqon,  
Guli el qoni birla rang tutqon.

Musalsal sunbulining band-bandi,  
Qaroru hush saydining kamandi.

Binafsha andakim gardun ko'korting,  
Kajak yanglig' xirad bo'ynini tortib.

Tutub nargislari jom etkali no'sh,  
Qilurg'a taqvo ahlin mastu behush.

Yoqib o't lolasi jon kuydururg'a,  
Ko'ngulga dog'i hirmon kuydururg'a.

Sochib tufrog'lari mushki tatori,  
Qaro bo'lmoq uchun el ro'zgori.

Demaktin lol o'lub savsan maqoli  
Ki, budur munda har ozoda holi.

Ko'korting anda ko'k armon guli ko'p,  
Ko'korgon balki nofarmon guli ko'p.

Quyundin ko'rguzub har yon zamona,  
Bori sargashtaliklardin nishona.

Qilib zohir bu vodiyning qirog'i,  
Qatiq tog'i nechukkim hajr tog'i.

Ayog'in dog'i aylab rust yerga,  
Chekib boshin falakka roz derga.

Falak vaz'in aning tuloni aylab,  
Jahon bahrig'a langar oni aylab.

Kamargohida xayli benihoyat,  
Yasol tortib hujum aylab bag'oyat.

Kamarda bir ariq qozmoqqa mashg'ul,  
Arig' topib kamar shakli bila tul.

O'zining shakli birla navjavone,  
Demaykim, navjavone, notavone.

Hamul xayl ichra aylab peshavarlik,  
Demaykim peshavarlik, teshavarlik.

Bu holat ichra paydo bo'ldi xayle,  
Nechukkim tog' ichinda tund sele.

Bori chobuksuvoru moh paykar,  
Javohirdin berib paykarga zavar.

Jabinlar gul-gulu kirpiklari xor,  
Qabog'lar keng-kengu, og'izlari tor.

Alarg'a shohu sarvar gul'uzore,  
Demaykim, gul'uzore, shahsuvore.

Samandi sayridin ko'k tavsani lang,  
Quyosh ruxsori ollinda xijilrang.

Quyoshg'a tarh uchun tashlab ruxu ot,  
Vale yuz qatla har soat qilib mot'.

Solib olamg'a o't boshdin-ayog'i.  
Jahon o'rtab ayog'din-boshi dog'i.

Bo'lub ul xayl har bir o'ylakim oy,  
Bu ul xayl ichra mehri olamoroy.

Takovar uzra yeldin otashangez,  
Hamul el sori surdi yel kibi tez.

Tamosho aylayu har sori boqib,  
Qayonkim boqib, o'tlar elga yoqib.

Chu nogah otg'a ul yon mayl berdi  
Ki, Farhodi hazin timsoli erdi.

Aning ruxsorig'a chun boqti timsol,  
Tani timsol yanglig' bo'ldi behol.

Yarolig' sayd yanglig' nola qildi,  
Bu yanglig' nola chun qildi, yiqildi.

Ko'rub Farhod ul yanglig' yiqilmoq,  
Havas qildi ani nazzora qilmoq.

Yaqinroq kelturub ko'zgu jamolin,  
Nazora qildi ul mahro' jamolin.

Chehib Farhod un o'z timsoli yanglig',  
Yiqildi jismi jondin xoli yanglig'.

Bo'lub timsoli yanglig' — og'zi xomush.  
Hamul timsolidek zoyil qilib hush.

Ko'rub chokarlar andoq qattiq ahvol,  
Xabardor ettilar Xoqonni filhol.

Chu Xoqon angladi bu mojaroni,  
Yugurdi ul taraf yirtib yaqoni.

Anosi sochin ochib mo'ya tortib,  
Ani o'lgan sog'inib po'ya tortib.

Chehib afg'onni Mulgoro atodek,  
Kim, ul Farhodg'a erdi atobek.

Yana Bahrom<sup>2</sup> Mulkorog'a farzand,  
Guzin Farhodg'a hamzodu dilband.

Bo'lub nisbatda ko'kaltoshi oning,  
Tariqat bobida qardoshi oning.

Aning holig'a chun nazzora aylab,  
Yaqo o'rnig'a ko'ksin pora aylab.

Bo'lub parvonadek atrofig'a jam',  
Vale ul yotib andog'kim o'chuk sham'.

Qo'yubon hushsizliq ko'yiga yuz,  
O'ziga kelmayin bir kecha-kunduz.

Chu tebratti nasimin subh bog'i,  
Isidin hushig'a keldi dimog'i.

Ko'z ochib ko'rdi boshi uzra xayle  
To'kub ko'z yoshidin yuz uzra sele.



Chu yig'lar erdi Mulkorou Bahrom,  
Alarg'a lutf birla berdi orom.

Tutub so'gin ato birla anosi,  
Muni ko'rgoch, halok etti hayosi.

Yaqin erdiki tarki hush qilg'ay,  
Yana avval yiqilg'ondek yiqilg'ay.

Tuman ming uzr qo'lmoq birla qo'pti,  
Ayog'larig'a yuz surtub yer o'pti.

Dedi: «Bilmon, ne holat dast bermish  
Ki, sizga mujib ushbu motam ermiş.

Bu ish gar xo'b, agar zisht erdi bori,  
Manga, billah, yo'q erdi ixtiyori.

Tutung ma'zurkim, rasvo bo'lubmen,  
Demay rasvo bo'lubmenkim, o'lubmen.

Bo'lung xush botinu zohirda mendin,  
G'ubore asramang xotirda mendin».

Bu yanglig' zohir aylab ko'p malolat,  
Berib xotirlarig'a istimolat.

Ko'zi birla tili garchi bu sori,  
Va lekin jonu ko'ngli ko'zgu sori.

Alar bu nuktalardin shodmona,  
Qo'pub uylarga bo'ldilar ravona.

Bu yanglig' chun alarg'a chora qildi,  
Yana ul ko'zguga nazzora qildi.

Burung'udek yuzi erdi qorang'u,  
Hakimikim yasog'ondur bu ko'zgu<sup>3</sup>.

Tilismín bo'yla qilg'ondur padidor  
Ki, har shakl ondakim bo'lg'ay namudor.

Chu nozirg'a tamosho hosil o'lg'ay,  
Yana hosil tilismi botil o'lg'ay.

Chu Farhod ul talabdin bo'ldi navmid,  
O'zin ko'rди g'amu mehnatda jovid.

Dedi chun o'lgali g'amdin yovushti  
Ki: «Oh ish tushti, ammo sa'b tushti.

Agar qilsam o'zumni pora-pora,  
Chu matlub o'Imag'ay hosil, ne chora?!

Burun andinki kuygay joni zorim,  
Junun olg'ay ilikdin ixtiyorim,

Kerakdur choraye andesha qilmoq,  
Xirad rasmini da'bu pesha qilmoq.

Takalluf aylabon bo'lmoq xiradmand  
Ki, bo'lg'ay shoh ko'ngli shodu xursand.

Chu paydo bo'ldi aylar ish yarog'i,  
Menu ul dam baloyi ishq dog'i.

Yo'q ersa emdi betoqatliq etsam,  
Boshimni olibon bir sori ketsam,

Muqarrardurki, shohi kishvaroro,  
Zamone qilmayin sabru madoro.

Qilur yuz ming cherik ta'yinki filhol,  
Meni istab toparda qilmay ihmol:

Alar Chin mulkida har yon choparlar,  
Iki-uch kundan o'tkarmay toparlar.

Agar razm aylasam ko'rgach sipahni,  
Kerak qatl aylamak ko'p begunahni.

Chekay farzan urushqa tig'i po'lod,  
Yo'q elga, o'zuma aylay bu bedod.

Necha el bo'ynig'a tig' ursa bo'lg'ay,  
Yozuqsiz nechani o'ltursa bo'lg'ay?!

Ham oxir zarbdin qo'l bo'lsa nokor.  
Tutulmog'liq kerak ul lahza nochor.

Manga Chin ahli ne qilmish yomonliq  
Ki, bu nav' o'lg'amen borig'a qonliq.

Agar shah surmasa zulmu itobin,  
Ne bergum Tengriga oxir javobin.

Ko'zum ne nav' tushkay shah ko'ziga,  
Netib boqqoymen ul dam el yuziga.

Bori bir yonu bu bir yonki nogoh,  
Shah o'lsa bulajab holimdin ogoh.

Ulus qilg'ay meni girdimda ta'yin  
Ki, qilg'aylar alar hifzimni oyin.

Bu mushkil ish qachonkim hosil o'lg'ay,  
Ishim tadbiri ul dam mushkil o'lg'ay.

Debon devona, solsa band ayoqqa,  
Qutulmoq ul zamon chekkay yiroqqa.

Agar farzan jununum dog'i ketgay,  
Nechakim aytsam, kim bovar etgay.

Hamul avloki to o'zumni bilsam,  
Qila olg'oncha o'z hifzimni qilsam».

O'ziga qildi topqoch ish hisobin,  
Xirad qonunida ish irtikobin<sup>4</sup>.

Muni bilmayki qilg'och ishq bedod,  
Bo'lur yuz aqlu donish rasmi barbod.

Ketur soqiy, sharobi oshiqona  
Ki, bo'lmishmen xirad birla fasona.

Meni ishq fano bazmida xos et.  
Xirad ranju balosidin xalos et.

XXVII

*Farhodning ishq shu'lasida kuyub ul o'tni jon pardasida yashurmoqdin  
va hajr xunobasin yutub ul zahrni ko'ngul ichinda singurmoqdin gulbargi  
ahmardek jamoli za'faroniy va naxli sanubardek niholi xayzaroniy bo'lub  
asr hukamosi va dahr atibbosi aning bahori sihhati xazoni marazg'a  
yuzlangonining tashxisini savdog'a qilib bu savdo bila aning maqomi  
ta'yinin jazoyir bila daryog'a qilg'onlari va bu daryo safari savdosidin  
anga sud istab nasiblari ziyonbud bo'lg'oni.*

Tariqi ishq ixfosida mohir,  
Bu yanglig' ishq sirrin qildi zohir

Ki, Farhod aylabon ishqin nihoni,  
Xiraddin ko'rguzur erdi nishoni.

Qayu uy ichra bo'lsa shu'la mavjud.  
Emasdur uyga boki gar chiqor dud.

Yonib o't chiqmos o'lsa dudi mutlaq,  
Ul uy devorig'a bo'lmoq kerak shaq.

Falak ham mehrin oqshom aylamas fosh,  
Bo'lur zohir chu anjumdin to'kar yosh.

Yoshurg'ay nofa xud mushki tatori,  
Yoyilmoqda isi, ne ixtiyori.

Chu lola g'unchasi zohir bo'lur chog',  
Necha ko'nglida asrar yoshurun dog'.

Bo'lur garchi ochilg'on chog'i ma'lum,  
Bo'lur avval toshida dog'i ma'lum.

Nechakim istadi Farhodi g'amnok,  
Yoshurmoq o't yopib ustiga xoshok.

Va lekin elni ohu ashki nogoh,  
Qilur erdi nihon dardidin ogoh.

Xiradning pardasig'a qayda yoro,  
Yoshurmoq ishq o'tin aylab madoro.

Quyoshni zarra yoshurmoq bo'lurmu,  
Hubob uzra tengiz turmoq bo'lurmu?

Yopar fonusi birla shu'lani sham',  
Ko'rarlar pardadin ul shu'lani jam'.

Ko'z ichra maxfiy o'lmas ashk qoni,  
Bo'lurmu shisha ichra may nihoni?

Anga ul dardu g'am o'tin yoshurmoq,  
Ko'ngulga yoshurun dard o'ti urmoq.

Necha kun ichra oncha kor qildi,  
Zaifu notavonu zor qildi.

Ki, har kim ko'rsa aylar erdi ma'lum  
Kim, ul xoroni bir o't aylamish mum'.

Chu ul oyg'a yetib andoq malole,  
Falakning sayridin bo'ldi hilole.

Uzori bo'ldi sorig' lola yanglig',  
Durri ashk anda yoqqon jola yanglig'.

Vale ul lolaning dog'i siyohi,  
Og'iz ochqoch ko'rungay dudi ohi.

Qadi naxlikim erdi sarvi cholok,  
Zaifu xamliq o'ldi o'ylakim tok.

Vale ul tokning tab'idag'i may,  
Bo'lub ko'nglida qon yutmoq payopay.

Tanining za'fi tundin-tunga ko'prak,  
Bo'lub ul za'f kundin-kunga ko'prak.

Necha afg'ondin etsa og'zini berk,  
Yo'q erdi nola chekmakta anga erk.

Dimog'ida burunkim quvvat erdi,  
Tanida dog'i zo'ru sihhat erdi.

Rioyat aylar erdi benihoyat,  
Fig'on zohir bo'lur erdi bag'oyat.

Bu damkim, bo'ldi savdoyi dimog'i,  
Marazlarg'a ulondi jismi dog'i.

Junun tab'ida ko'rguzdi nishona,  
So'z ayta boshladi savdoiyoana.

Ko'ngulda qolmadi sabru qarori,  
Ilikdin bordi borcha ixtiyori.

Ko'rub ul holin oning shohu dastur,  
Bo'lub ikkisi kundin-kunga ranjur,

Berib ko'p pandu ta'siri topilmay,  
Qilib ko'p fikru tadbiri topilmay.

Chu ko'rdilarki borur ish ilikdin,  
O'tar andisha tadbiru bilikdin.

Kengashti shah tuzub majma' ahibbo,  
Bo'lub hozir nekim bo'lg'on atibbo.

Aning holotida so'z o'tti behad,  
Biri so'zni qabul etti, biri rad.

Ham oxir ahli hikmat ettilar arz  
Ki: «Ey olam eliga qullug'ing farz!

Bu yanglig' bizga bo'lmish za'f tashxis  
Ki, savdodin dimog'i topti tanqis.

Mizojida harorat g'olib erdi,  
Yana mayg'a mizoji tolib erdi.

Mayi mufrit bila asli harorat  
Bo'lub bir, bo'yla ko'rguzdi sharorat.

Iki-uch yoshdin o'n bir, o'n iki yosh,  
O'qumoq fikriga soldi quyi bosh.

Iki-uch yilki mayli pasha qildi,  
Bag'oyat anda ko'p andesha qildi.

Bularga yor bo'ldi haddi yo'q yo'l,  
Yana bir ham harorat boisi ul.

Bular bir yonu fikri benihoyat,  
Musaxxin tab' aro ul ham bag'oyat.

Bular fikridin o'lmay tab'i xoli,  
Tilism ochmoq sori tushti xayoli.

Ne savdo tuxmikim ko'nglida ekti,  
Ne fikratlarki ul savdoda chekti

Ki, ajdar qildi jismin otasholud,  
Zamona devi soldi boshig'a dud.

Harorat muncha topsa tab'i nori,  
Ajab yo'q, bo'lsa ul bir o't sharori.

Bu holatlar angakim bo'ldi hodis,  
Dimog'i yubsig'adur borcha bois'.

Chu horu yobis o'lmishdur mizoji,  
Naqizi birla qilmoqdur iloji.

Bukunkim fasl erur javzo ayog'i,  
Quyoshning o'tidindur lola dog'i.

Samumoso kelur har soridin yel,  
Samum ichra samandarvash kezar el.

Yaqindurkim, quyosh tobidin axtar,  
Erib simobdek oqqay sarosar.

Quyunning dasht ichinda iztirobi,  
Isig'dindur yilondek pechu tobi.

Havo ko'hsor uza otashfishondur,  
Bulog'lar qaynari ondin nishondur.

Shafaq ermas durur mag'ribda har shom,  
Qizormishdur qizib bu sarnigun jom.

Qizig'on ko'radin gardun nishona,  
Quyoshdin onda o't tortib zabona.

Kemur shomu dam onda subhdam bil,  
Shihob ul ko'radin chiqqon alam bil.

Emas har yon oqor suvlar bila yer  
Ki, yer har yon isig'din oqizur ter.

Quyoshdin soya qochmoqliqqa moyil,  
Aroda aylabon shaxsini hoyil.

Havo tab'ida issig' bo'yla kori,  
Ajabroq buki oning tab'i nori.

Anga yubsu harorat bo'ldi vorid,  
Ilojidur havoyi rutbu borid.

Muningdek erki kasb etgay iloj ul,  
Erur daryo aro besh kunchilik yo'l.

Tushubtur davri o'n shar'iy<sup>3</sup> jazira  
Ki, ta'rifida qolur aql xira.

Chekib bosh ul jazira ichra tog'e,  
Bu tog' uzra yeti-sekkiz bulog'e.

Muhit ul chashmalar davrida daryo,  
Falak bahri sog'in dog'i Surayyo.

Jazira davrida suvdin rutubat,  
Vale avjida sovug'din suubat.



Biyik ul tog' avji, o'ylakim kuz.  
Sovug'din bog'lonur sarchashmalar muz.

Azimat qilsa ul yon shohzoda,  
Ajab yo'qkim, bo'lur ko'ngli kushoda.

Dimog'i za'fi quvvat dog'i topqay,  
Muborak jismi sihat dog'i topqay.

Havo ta'siridin bo'lmay haroson.  
Ilojin aylamaklik bo'lg'ay oson».

Atibbodini ne so'z kim bo'ldi manqul,  
Ko'rundi shahg'a bir-bir bori ma'qul.

Ravon hukm etti Mulkorog'akim bot,  
Chu fahm etting atibbodini maqolot.

Necha kun qilg'umizdur azmi daryo,  
Safar asbobini qilg'il muhayyo.

Vazir andoqki topti hukmi oliy,  
Muhayyo qildi hukm o'lg'onni holi.

Murattab bo'lg'och ish hukm ayladi shoh,  
Borib shahzodani qilmog'liq ogoh.

Ne so'z kim o'tti, arz etmoq tamomin,  
Aning daryo sori bo'lmoq xiromin.

Eshitgach qissani shahzoda Farhod,  
Nishot aylab hazin ko'ngli bo'lub shod.

Dedi: «Shah ollida ayting payomim  
Ki, shah komi erur olamda komim.

Ne haddim ulki degaymen o'g'ulmen,  
Bori qullardin o'ksuk xasta qulmen.

Qayon azm etkoli bo'lsa yarog'i,  
Mening boshim durur shahning ayog'i».

Chu shahg'a qildilar bu nuktani fosh.  
Duo qildi ko'ziga to'ldurub yosh.

Dedi: «Aylab murattab kemalarni,  
Soling onda keraklik nimalarni

Ki, men ham ayladim ko'nglumni jozim  
Ki, tongla bo'lg'amen daryog'a ozim».

Eshitgach bu xabarni shohzoda,  
Nishoti bo'ldi ayturdin ziyoda.

Base taskin hazin ko'nglig'a berdi  
Ki, maqsudi aning bu nav' ish erdi

Ki, zohir aylabon bir tavr hiyla,  
Bir ishni aylagay nav'i vasila

Ki, Xoqon topmoyin andin kudurat,  
Ul etgay azmi g'urbat bizzarurat.

Bu ish maqsudig'a monand bo'ldi,  
Bag'oyat xotiri xursand bo'ldi.

Tushub daryo kibi ko'ngli aro jo'sh,  
Kema og'zidek og'zi lek xomush<sup>4</sup>.

Tamavvujdek xayolig'a tasalsul,  
Tasalsul topibon yuz ming taxayyul.

Ketur, soqiy, Muhiti bodai ol,  
Bu daryo ichra sog'ar zavraqin sol.

Erur g'am bahrida jismi haqirim,  
Hamul zavraq bila bo'l dastgirim.

### XXVIII

*Xoqon bila Farhodning sipehr tavsanidek xinglardin inib falak buxtisidek  
junglarga minib Chin sipohining sabo xayli daryo yuziga chin solg'ondek bahr  
maydonig'a sabodek betahoshi kirmoqlari va muqavvas fulklar bila tiyrlari*

*falak qavsi bila qazo o'qidin nishona ko'rguzmak va nahangvash jo'ng  
og'zi bila bodbonlar kafan pardasi bila go'r og'zidin fasona tuzmak va  
safoyin g'aroyibidin necha harfi aytmog va amvoj navoyibidin necha  
naqshe tortmog va sarsarning zolim sipohi daryo olamidin rustaxez chiqarib  
«va izal-bihoru fujjirat»<sup>1</sup> tafsirin mavj xututidin bahr sahifasida sizmog  
va ko'lokning nihoyatsiz tog'larining taoqubi «va izal-jibolu suyyirat»<sup>2</sup>  
ma'nosin kema tiyri no'gi bila falak avroqig'a yozmog va ko'prak  
falakvash kemani fano nahangi yutmog va daryovash safinalar adam  
daryosi tubin tutmog va Xoqonni daryo talotumi Mulkoro hila Chin  
mulkiga solmog va Farhod ishq daryosida qolg'ondek ul xunxor bahr  
aro taxtapora uzra qolmog.*

Bu daryo ichra ulkim bo'ldi g'avvos,  
Chiqordi bo'yla durri ma'niyi xos

Ki, tayyor o'ldi chun daryo yarog'i,  
Bo'lub ozim shahu shahzoda dog'i.

Surub markabni daryo sohilig'a,  
Oyu kun keldi mohi manzilig'a.

Nazarlar chun tengizdin oldi bahre,  
Yig'ochdin bahr uza ko'rundi shahre.

Adaddin ko'p kema bori yarog'liq,  
Savodi bir muazzam shahr chog'liq.

Iki yuz jo'ng hadsiz har biri keng,  
Falak jo'ngini har bir tutmayin teng.

Uchi ko'k Hutiyu Savrini sonchib,  
Tubi yer govu mohisini yonchib<sup>3</sup>.

Qamarg'a tiyri oning chehrasoy,  
Iki tiyr ichra sargardon qolib oy.

Muningdek tiyr ila har bodhoni,  
Sipehri atlasu mihvar nishoni.

Chekilgan har tanobi bodbonning  
Shuoiy xatti mehri zarfishonning.

Ichi bir ev, vale olam evidek,  
Ne olam, nilgun toram evidek.

Qilib najjori gardun hiylasozi,  
Quyi yerida farsh o'rnig'a kozi.

Tushub suv ustida saqfi niguni,  
Ichinda tiyridin oliy sutuni.

Sutunning bir uchi daryo uyiga,  
Bir uchi gunbazi xazro uyiga.

Sutune bu sifat kim ko'rdi bori,  
Bir uchi yona bir uyning madori.

Yoyib ham bodbondin ko'kka e'lom,  
Tutub ham langari ko'k uzra orom.

Anosir bo'lmayin siflig'a hoyil,  
Qilib ko'kning quyi davrida manzil.

Bo'lub a'loda tiyr, asfalda tori,  
Falakning ikki jonibdin madori.

Quyiyu-yuqori, ul tiyr ul tor,  
Falak davrida qutr aylab padidor.

Bulardin boshqa gardun sayr kishti,  
Ravonliqda yelu suvdin sirishti.

Adadda uch yuz ellik bahrpaymoy,  
Falak ummonida har bir yangi oy.

Yana sandal bila zavraq hisobi,  
Mingu ming yilcha har birning shitobi.

Ham ildamliqda sarsardek ravona,  
Ham aylanmoqda igrimdin nishona.

Suv uzra sayru davri ul sifat tez  
Ki, tufroq uzra sur'at vaqti Shabdez.

Bo'lub ming besh yuz ul majmuig'a son,  
Qilib o'lturg'on el sayrini oson.

Yosolib jo'ng uza taxti Kayoni,  
Maqom aylab shahu shahzoda oni.

Bo'lub Chin ahlidin ul shahri cho'bin,  
Aningdekkim, yana bir kishvari Chin.

Yarog'u sayr xotir istagoncha,  
Nechakim istagay xotir, yuz oncha.

Safar asbobi birla har safina,  
Nechukkim ganji Qorundin dafina.

Qurug'liq ichra chun qolmadi hech ish,  
Ravoni kemalarga bo'ldi junbish.

Taharrukdin topib andoq taxalxul  
Ki, Chin shahri aro tushkay tazalzul.

Necha ming jald mallohi hunarvar,  
Balig' yanglig' suv ichra mavjparvar.

Surar markab alarg'a zavraqi tez,  
Bo'lub sur'atda suvdin otashangez.

Bori maqsudi sori aylabon mayl,  
Alar maylig'a tobe' shoh ila xayl.

Chu yo'lg'a kirdilar ul ming yagona,  
Suv uzra olame bo'ldi ravona.

Savodi suvda jirmi xok' yanglig',  
Ne jirmi xokkim, aflok yanglig'.

Yopib daryo yuzin mushkin niqobi,  
Falakni o'ylakim mushkin sahobi.

Jazira azmig'a bori qo'yub yuz,  
Borur erdilar ikki kecha-kunduz.

Suv uzra yel ayon etkach tamavvuj,  
Shahu shahzodag'a ondin tafarruj.

Ayon mavj ichra hardam yuz g'aroyib,  
Bo'lub ming zohir, ul yuz bo'lsa g'oyib.

Necha ko'z tushsa ko'k suv charxmonand,  
Tutub atrofi ko'k zaylig'a payvand.

Xiromon har taraf yuz turfa mohi,  
Xirad mohiyatin bilmay kamohi.

Ulug'lar sahmnoku o'yla hoyil  
Ki, aylab ko'rguchi hushini zoyil.

Suda yuz tog'u yo'q biriga orom,  
Vale tog'iki bo'lg'ay mohi andom.

Nechakim orqasi tog' avji yanglig',  
Tanida naqshi daryo mavji yanglig'.

Tengizda ko'rguzib andog' shitobi  
Ki, charxi obgun ichra shihobi.

Shigarfu dilrabo har birga haykal,  
Urub sayri su ko'zqusiga sayqal.

Tengiz dalvi suyin hardam qilib qut,  
Aningdekkim, su ichkay Dalvdin' Hut.

Kichikroqlarg'a andog' sho'ru oshub  
Ki, toptub bahr alar g'avg'osidin ko'b.

Kichik birla ulug'lar son ichinda,  
Nechukkim sabza sarviston ichinda.

Kashaflar har birining sahmi behad,  
Yasab suv uzra jismi birla gunbad.

Bo'lub me'mori qudrat anda boni,  
Sudin qilmay xarob andoq binoni.

Taharruk birla saqfi bo'lmayin shaqq,  
Nechukkim gunbazi charxi muallaq.

Balig' sayd aylabon har yon nahangi,  
Nechukkim rang sayd etkay palangi.

Tani bir tog'dekkim, bo'lsa xoro,  
Temurdin tishu changal oshkoro.

Kelib orqosi oning tez parra,  
Niholi umrni kesmakka arra.

Ne parra, g'am sipohi kayburi ul.  
Baliyat qal'asining kunguri ul.

Su mavjin og'zida qilg'il tasavvur  
Ki, bir javshanni tutqay hardam anbur<sup>6</sup>.

Nahang atrofida saqlovidin sho'r,  
Nechukkim ajdahho atrofida mo'r.

Yana har yon ko'runub ko'zga xarchang,  
Azimat aylagan vaqti kaj ohang.

Kashaf jismig'a jismi lams etar chog',  
Urung'ondek biri-birga iki tog'.

Ko'runib jonvar bahr ichra behad,  
Nechukkim dasht ichinda har nechuk dad.

Tamavvuj bahr uzakim tutmay orom,  
Alar ustida sun' ilki yoyib dom.

Shahu shahzoda har yon beshumora  
G'aroyib aylar erdilar nazora.

Bayaknogoh qazoyi osmoniy,  
Ayon qildi baloyi osmoniy.

Esa boshlodi yel behad xatarnok,  
Hujum etti tengiz yuzinda ko'lok.

Janubiy haddidin sarsar kelib tez,  
Tengiz ahlig'a bo'ldi vahshatangez.

Qari mallohlar mundoq baloni,  
Ko'rub arz ettilar yirtib yaqoni

Ki, har yuz yilda bu yel bir qilur sayr,  
Va lekin yo'qturur bu sayr aro xayr.

Ravon yetkurdilar bir turfa zavraq,  
Yangi oy zavraqidin tezravroq

Ki, bo'lmasdin burun bu yel ziyoda,  
Tashindik munda shohu shohzoda.

Qo'pub Farhod chun zavraqqa kirdi,  
Urub yel jo'ngu zavraqni oyirdi.

Ato jo'ng ichra qoldi tortibon voy,  
O'g'ul zavraqda bo'ldi bahrapaymoy.

Arog'a tushti andoq ayru tushmak  
Ki, mumkin bo'lmas ondin so'ng ko'rushmak.

Alar ayrilg'och o'ldi yelga tug'yon,  
Ne tug'yonkim, jahonni tutti to'fon.

Tengiz ul nav' chayqoldiki aflok,  
Ko'rundi suv uza andoqki ko'lok.

Kelib bir-bir so'ngicha yuz tuman mavj,  
Payopay yetkurub ko'k avjig'a avj.

Qayu bir pushtakim har pushtasi tog',  
Ne tog'kim suyidin ko'k atlası dog'.

Chiqib chun ko'kka bu sifli makondin.  
Inib sifli makong'a osmondin.

Munungdek bir demakim, yuz tuman ming.  
Urub yuziga sili osmonning.



Hamono bu sifat yetkanda sili,  
Bo'lub bu charxi axzar rangi nili.

Yasab chun ul sudin aylab tavahhum,  
Yangi oy kemasin kirmakka anjum.

Urub har kemakim gardung'a ko'lok,  
Bo'lub daryo uza andoqki xoshok.

Iki kema biri-birga qotilmay,  
Ulusdin ham iki bir-birni bilmay.

Kema gardung'a chiqmoqni fan aylab.  
Falakni tiyri ravzan-ravzan aylab.

Bo'lub har yon nujumi osmoni,  
Falak ravzanlar o'lg'ondin nishoni.

Hamono ko'kka suv baskim to'qushti,  
Falak gunbazlarining saqfi tushti.

Qilib suv mavji birla Hutu Xarchang,  
O'z avjiddin tengiz qa'rig'a ohang.

Ko'runub suvda xurshedi jahontob.  
Bulur ichra nechukkim la'li serob.

Falak mulkida chun topmay masolik,  
Qo'nub suv uzra o'rdakdek maloyik.

Qazo har jo'ngni bir yon ushotib  
Ki, yerdin ko'kka, ko'kdin yerga otib.

Bu oshub uzra ba'zikim usholmay,  
Ichinda kimsa o'z holig'a qolmay.

Bu yanglig' erdi daryo iztirobi,  
Yopilg'uncha jahong'a tun niqobi.

Chu tun kishtida kun yoshurdi qoqum  
Gum etti bahr sinjobi talotum'.

Su uzra chunki sarsar tutti taskin.  
Yer uzra bahri axzar topti tamkin.

Deyilgan bahr aro har nav'i kema,  
Ichinda oncha xalqu oncha nima.

Ko'pi bir-birga tekkandin usholib,  
Falak avjida suv qa'rida qolib.

Xaloyiqdin bo'lub aksar tabohi  
Ki, har yon birni aylab tu'ma mohi<sup>h</sup>.

Chu kishtilarni gardun pora aylab,  
Badanlar zavraqin ovora aylab.

O'nu yuz kemadin gar bir usholmay,  
Ichinda o'nu yuzdin biri qolmay.

Tushub ba'zig'akim bir taxta pora,  
Ani suv mavji solib bir kanora.

Vale Xoqonu Mulkoro visoqi  
Ki, bir jo'ng ichra erdi ittifoqi.

Nechakim kina qildi charxi zolim,  
Vale ul jo'ng qolmish erdi solim.

Ichinda xalq o'lukdek barcha xomush,  
O'lub ba'ziyu, ba'zidin borib hush.

Chiqibon garchi bir daryo kanori,  
Solib oni qazo Chin mulki sori.

Yanalar ham chu yeldin qolmadi biym,  
Qazodin har biri tushti bir iqlim.

Chu Xoqon jo'ngi chiqti ul qiroqqa,  
Xabar bo'ldi yaqin birla yiroqqa.

Bo'lub ul el chu o'tkan ishdin ogoh,  
Chiqorib elni gar dastur, agar shoh.

Qilib ko'p sa'ykim ul xayli madhush  
Ravoyih kasbidin bir-bir topib hush.

Bo'lub ham shoh o'z holidin ogoh,  
Xaloyiq dog'i ogoh, o'ylakim shoh.

Ko'rub Farhodini chun shoh g'oyib,  
Yana yig'lab tutub boshdin masoyib.

Vale gohi berib imkong'a ham yo'l  
Ki, shoyad bir taraf chiqmish ekin ul.

Qilib Suqrot axborin dog'i yod,  
Vale o'lmay qutulg'ondin bo'lub shod<sup>9</sup>.

Ko'rub ul umru davlatni g'animat,  
Yana Chin taxtig'a qildi azimat.

Ketur, soqiy, qadahkim notavonmen,  
Malolat bahrida ozurda jonmen.

Qadah kishtisig'a jonimni xos et,  
Meni bu g'ussa bahridin xalos et.

### XXIX

*Farhodning sinuq zavraq jismi zavraq sinuqida qolib ani daryo mavji Yaman' mulki sari solib Yaman ahli kemasiga uchrag'oni va ul kema tojirlari aningdek durri garonmoya topqonlaridin sevunub ul bu minnat adosidin g'ang'a qolg'oni, dog'i jazoyir haromilari ul kema qasdin qilib tujjor qurug' yerdagi balig'dek iltirobqa tushub, Farhod alarni nahang baliq xaylini qochurg'ondek biror shast kushodi bila qochurg'oni va suvda alarning zavraqi hayotiga o't urg'oni va Yaman bahridin kanora tutqoni va Suhayldek Yaman ahli ko'zin yorutqoni va Shopur<sup>2</sup> anga daryoda oshno bo'lub, aning safhai zamiri nuqushin fahm qilg'oni.*

Kishikim ayladi bu bahr gashtin,  
Bu yanglig' dedi daryo sarguzashtin

Kim, ul holatdakim chayqoldi daryo,  
Sipohi mavjidan qo'zg'oldi daryo.

Hamul zavraqki rokib erdi Farhod,  
Sinib ko'k bahridin yetganda bedod.

Bo'lub g'arqa muhiti bekarong'a,  
Qolib bir taxta ul bexonumong'a.

O'zin ul taxta uzra mahkam aylab,  
Vido' o'z jismu jonidin ham aylab.

Nechukkim taxta jismi notavoni,  
Yetib og'zig'a har dam xasta joni.

Ko'rub ul sho'r bahri bekarondin,  
Ilik yub har nafas yuz qatla jondin.

Chu gardun shom kishtisin ushotti,  
Falak bahrig'a anjum durri botti.

Tamavvuj yig'di daryo yuzidin dom,  
Talotum qushlarig'a bo'ldi orom.

Tushub ul taxta sayrining guzori,  
Yaman mulkiyu Toyif<sup>3</sup> haddi sori.

Bo'lub Farhodg'a ul taxta maskan,  
Nechukkim jong'a bo'lg'ay taxtai tan.

Vale jismida jonidin ramaq yo'q,  
Tanida ruh harfidin nasaq yo'q.

Muningdek hol aro bir tez kishti  
Yaman azmig'a daryodin yetishti.

Ichinda necha daryomoya tojir,  
Guhar savdosig'a bo'lg'on musofir.

Chu ko'rdilar kelur bir taxta pora,  
Aning ustida shaxse oshkora.

Solib malloh yetkurdilar oni,  
Kema yonig'a kelturdilar oni.

Ne ko'rdilarki yotur navjavone,  
Havodis zarbasidin notavone.

Bo'lub hush anga zoyil ichkulukdek,  
Yotib ul taxta ustida o'lukdek.

Chu ko'p qildilar ahvolig'a tadqiq,  
Nafas og'zig'a kelmak bo'ldi tahqiq.

Hayoti aylabon ul elni xurram,  
Ani kishtiga chektilar hamul dam.

Dimog'ig'a tutub har nav' mashmum,  
Ko'zin ochib hayoti bo'ldi ma'lum.

Quyub bo'g'zig'a sharbat, og'zig'a qut,  
Bo'lub ul to'mau sharbat anga qut.

Qo'pub o'lturdi, dog'i so'rdi ahvol,  
Dedilar har ne bor erdi anga hol.

Eshitti chun javob aylab savolin,  
Bular ham so'rdilar ul xasta holin.

Dedikim: «Biz guruhi tojir erduk,  
Yaman sori Xo'tandin soyir erduk

Qilibon kemamizni g'arqa ko'lok,  
Cho'kutub daryo tubiga boru yo'q pok.

Manga ro'zi bo'lub bu taxtapora,  
Bo'lubsiz taxtai umrumg'a chora.

Men ushbu taxtag'a bo'lg'och hamog'ush,  
Dimog'imdin hamul soat ketib hush.

Gahi hushumda, gohi hushdin fard,  
Boshimg'a kelmayin juz mehnatu dard.

Ketib erkan durur bu lahza hushum  
Ki, solmish munda baxti saxtko'shum.

Manga bu yerga tushgandin xabar yo'q,  
Bu xud o'tti agar bordur, agar yo'q.

Mening xud qat' o'lub erdi hayotim,  
Yo'q erdi mutlaq ummidi najotim.

Bukim jonim o'lumdin emin o'ldi,  
Sizing altofu ehson zomin o'ldi.

Nechakim aylasam holim qiyosi,  
Ko'runur sa'b bu minnat adosi.

Meni charx o'ltururdin xirakushvor,  
Sizing tirguzganingiz bo'ldi dushvor.

Agar ming yil tirik bo'lg'oymen oxir,  
Netib bu uzrunguz qo'lg'oymen oxir.

G'aribu xastamen ham zoru ojiz,  
Kishiga tushmasun bu hol hargiz

Ki, el yuz nav' tutqoylar anga qo'l,  
Yuzidin birga xizmat qilmag'ay ul.

Va lekin to tirikmen bandangizmen.  
Necha bo'lsam tirik sharmandangizmen».

Ko'rub ul xalq bu arzi tazallum,  
Aning zimnida bu husni takallum.

Ayog'din-boshiga xusravnishonliq,  
So'zida bahrdek gavharfishonliq.

Bo'lub bori asiru zori oning,  
Dilu jon birla xizmatkori oning.

Muvajjah aklu shurb aylab muruvvat,  
Navosiz jismig'a kirguncha quvvat.

Alar bori anga maftunu shaydo  
Ki, bo'ldi necha zavraq suvda paydo.

Ko'rub kishti eliga tushti motam,  
Fuzunroq bo'ldi bu motam damo-dam.

Tilab borisi bir-birdin bihillik,  
Ko'rub Farhod ishidin tangdillik.

Demay molu hayotu jondin afsus,  
Va lekin borcha aytib ondin afsus.

Qolib hayron alardin so'rdi Farhod  
Ki, «Nevchun bo'ldingiz mahzunu noshod?»

Dedilar, yig'labonkim: «He so'rarsen,  
Bu zavraqlarki bahr uzra ko'rarsen.

Qaroqchilar durur ahli jazoyir,  
Bo'lurlar bekaron bahr ichra soyir.

Agar yolg'uz, agar ikki, agar uch,  
Kema yo'luqsa har yon kelturur kuch.

Otarlar kemaga qorurai naft  
Ki, har qoruradur bir ko'rai naft<sup>4</sup>.

Urub o't kemani chin kuydururlar,  
Tamomi kema ahlin o'ltururlar.

Qilurlar xalq molin nahbu g'orat,  
Alarg'a bahr uza budur tijorat.

Bizing emin yo'l o'zga sori qolmish,  
Bu sori bizni daryo mavji solmish.

Ne elga yetsa bu majma' navidi,  
Ketar ul xayldin maxlas umidi».

Chu fahm etti bu ish farzona Farhod,  
Alarg'a ko'p ko'ngul berdi bo'lub shod.

Dedi: «Qayg'urmangizkim bermagay Haq,  
Alardin hech ofat sizga mutlaq.

Sizing xayl ichra bormu erkin oyo,  
Necha o'q birla ko'prak zo'rluq yo».

Chekib borisi hayrat birla hayhot,  
Vale ne istadi, kelturdilar bot.

Aning zo'rig'a garchi yo yo'q erdi.  
Hamul yo loyiqi dog'i o'q erdi.

Yasab yo go'shasin, o'qni tuz aylab,  
Ul ishning irtikobin yolg'uz aylab.

Tuzotguncha o'qu yoyin dilovar,  
Yetishti har yon ul xayli jafogar.

Yasab qoruralar o't yog'dururg'a,  
Kemavu kema xalqin yondururg'a.

Yetib ul yergakim qorura yetmas,  
Dema qorura, o'q ham oncha ketmas.

Qilib qoruraafganni nishona,  
Aningdek otti Farhodi yagona

Ki, urdi naftliq qorurani-o'q,  
Ushotti ul yolinliq ko'rani o'q.

Tushub o't, o'rtonib qoruraandoz,  
Hamul zavraqqa ul xayli dag'oboz.

Yana bir ham otorg'a chun yovushti,  
Anga dog'i bu yanglig' shu'la tushti.

Chu ikki kema xayli kuydilar pok,  
Yuz urdi qochqoli ul xayli bebok.

Kema boshini qaytorg'uncha nokom,  
O'n-o'n beshning ishin qildi saranjom.

Alardin ba'zi kuydi. ba'zi o'ldi,  
Nekim qolg'on qochib ovora bo'ldi.



Bu ish ul kema ahlin aylabon lol,  
Biri xushhol bo'lsa, o'ni behol.

Bori boshin qo'yub qoshig'a oning,  
Qo'pubon evrulub boshig'a oning,

Fido aylab anga jonu jahon ham,  
Nisor aylab qoshida molu jon ham.

Aning za'fi edi har dam fuzunroq,  
Maloli rishtasi haddin uzunroq.

Alar diljo'y o'lub, lekin bu bedil,  
Ko'rundi necha kundan so'ngra manzil.

Yamanning furzasig'a<sup>5</sup> qildilar mayl,  
Sudin tufroqqa chiqtilar bori xayl.

Bori ozod o'lub ming ibtilodin,  
Dema ming ibtilo, yuz ming balodin.

Topib ul shahr aro bir turfa manzil,  
Ravoni yeshtilar manzilda mahmil.

Dame qilmay madoro oshkoro,  
Bo'lub ollinda oning majlisoro.

Qilib paydo keturdilar mayi nob,  
Yamanda yo'q aqiq ul nav'i serob<sup>6</sup>.

Chu may birla qizishti boshi oning,  
Surohidek oqib qon yoshi oning.

Kelib yodig'a har dam taxtu johi,  
Bihishti qasr ila xaylu sipohi.

Atou qolmog'i daryo aro zor,  
Anou ko'nglida yuz bahri ozor.

O'ziyu bu sifat ovora bo'lmoq,  
Tuman ming mung aro bechora bo'lmoq.

Gahe bekaslik aylab ko'nglini resh,  
Gahe bemorlig'din jonida nesh.

Gahe joni kuyub shaydoliq'idin,  
Gahe matlub nopaydoliq'idin.

Tushub har lahza o'zga olam ichra,  
Solib elni g'amidin motam ichra.

Ulus holig'a chun aylab tafakkur,  
Biri yig'lab, biri aylab tahayyur.

Kishi holin kamohi fahm qilmay,  
O'zi dog'i o'z ahvolini bilmay.

Bu xayl ichra bor erdi rahnavarde,  
Musofirshevai ozoda marde.

Hunar bobida ustodi zamona,  
Zamona ichra naqqoshi yagona.

Varaqli kilki aylar chog'da tasvir,  
Bo'lub noyibmanobi kilki taqdir.

Ne surat yozg'ali topib chu dast ul,  
Jahonni aylabon suratparast ul.

Jahon mulkin kezib kishvar-bakishvar,  
Hududi boxtardin to ba xovar.

Xito mulkiga ham tushgan guzori,  
Kelib olliq'a Moniy dastkori.

Tilab manshur ul tutmay musallam,  
Musallam tutmay ul istarda bu ham.

Qalam ahliq'a oning tarhi dastur,  
Jahon ahli debon otini Shopur.

Sayohatda qazoi osmoni  
Bularg'a hamrah aylab erdi oni.

Base hayron edi Farhod ishida  
Ki, ko'rmaydur edi tavrin kishida.

Ne ish ul qilsa aylar erdi ta'miq.  
Qila olmas edi holini tahqiq.

Tengizda dog'i ul razmig'a hayron,  
Qurug'luq ichra bu bazmig'a hayron.

Bu damkim ko'rdi oning holi zorin,  
Sirishku nolai beixtiyorin.

Tafarrus birla topti fikratandesh  
Ki, ko'nglin ishq tig'i aylamish resh.

Qilay der erdi har so'zdin mudovo,  
Anga Farhod qilmas erdi parvo.

Jihatsiz kuymagiga soldi chun ko'z,  
Sola boshladi dardi ishqdin so'z.

Necha ishq o'tidin qilsa hikoyat,  
Anga aylar edi ko'proq siroyat.

Bilib so'zin xiradmandi yagona,  
Der erdi ishqdin o'tlug' fasona.

Dame ul yig'lamoqdin tutmay orom,  
Ani bu nav' o'ziga ayladi rom.

Guzin Farhodg'a bexavfu kulfat  
Bo'lub Shopur ila ul nav'i ulfat

Ki, onsiz birdam o'lg'och istab oni,  
So'rub dardu muhabbat dostoni.

Bu taqrir aylabu ul yig'labon zor,  
Chu taqrir aylamay ko'p topib ozor.

Bu yanglig' chunki hamdam topti o'zni,  
Rafiqu yoru mahram topti o'zni.

Soʻrub holin harifi chobuk andin,  
Chekib sirrini nozuk-nozuk andin.

Chu bebok erdi ishqu boda gʻammoz,  
Ochib ul mast oshiq pardai roz.

Nekim Shopur soʻz soʻrsa nihoni,  
Nihoni aylar erdi voqif oni.

Topa boshladi soyil chun javobin,  
Savoli yuzidin ochti niqobin.

Dedi: «Avval najodu gavharing de,  
Yana holingni aytu kishvaring de».

Dedi Farhod: «Qoʻy kishvar hadisin,  
Unutqil asl ila gavhar hadisin.

Manga ul nuktadin behbud yoʻqtur,  
Eshitmaktin sanga ham sud yoʻqtur.

Vale soʻrdung chu holimdin fasona,  
Sanga bir mujmale aytay nishona».

Muni ham urdi naʼli bozgunaʼ,  
Ishidin boʻyla koʻrguzdi namuna

Ki, men dilxastai zoru balokash,  
Burun el yangligʻ erdim shodu dilxush.

Bori ishdin ibodat ixtiyorim,  
Salohu zuhd ila taqvo shiorim.

Manga bir tun baloye boʻldi tori,  
Muqavvas koʻkdin oʻqi tegdi kori.

Tushumga kirdi bir farxunda kishvar  
Ki, koʻrmaymen anga monanda kishvar.

Nishoni ulcha koʻrmish erdi bir-bir,  
Anga borin yako-yak qildi taqrir.

Yetishtikim degay ul mohi dilxoh,  
Dey olmay bexud o'ldi tortibon oh.

Bilib Shopur aning holin kamohi,  
Bo'lub jon birla oning choraxohi.

Boshin o'z ko'ksiga qildi hamog'ush,  
Dimog'ig'a keturdi sa'y ila hush.

Ul el tortib aning ruxsorig'a may,  
Bo'lub behush ichmakdin payopay

Ki, har so'z kim debon ul ikki hamroz,  
Alar fahm etmayin anjomu og'oz.

Ko'rub Shopur ul majma'ni bexud,  
Qilib Farhod ishig'a sa'y behad.

Dedi: «K-ey zodi sarvi bo'stoni,  
Va lekin topqon osebi xazoni.

Bu yanglig'kim sanga men hamdam o'ldum,  
Bori maxfiy ishingga mahram o'ldum.

Hamono bu emish Tengriga taqdir  
Ki, qilg'aysen manga holingni taqdir.

Hamul ganjeki bo'lmishdur umiding,  
Yetishgay quflig'a mendin kaliding.

Yema g'amkim bu yerkim deding oni,  
Sarosar vasfig'a berding nishoni

Ki, yo'q ul nav' dilkash yer jahonda,  
Ko'rubmen oniyu bo'lmishmen onda.

Havosi jonfizo, gul anda xirman,  
Nazohatda Eramdek, oti — Arman.

Borur bo'lsang sanga hamrahliq aylay,  
Demay hamrahliq, chokarliq aylay».

Ko'rub Farhod mundog' nuktaovar,  
O'zi baxtidin etmas erdi bovar.

Degan afsonani fahm etti Shopur  
Ki, bovar aylamas ul zor mahjur.

Dedikim: «Chun inonmassen kalomim,  
Sanga sobit qilay andoqki komim».

Chiqardi safhavu kilkin qalamzan,  
Hamul yer suratini bo'ldi raqamzan.

Aningdek qildi tarh ul naqshi diljo'  
Ki, yo'q erdi tafovut bir sari mo'.

Chu Farhod ul raqam nazzora qildi,  
Aning da'vosi chin erkoni bildi.

Topilg'och do'st mulkidin nishoni,  
Yiqildi mast tortib do'stgoni.

Ketur soqiy, manga ishrat ayog'in  
Ki, davron berdi maqsudim so'rog'in.

Meni chun qildi mohi armani zor,  
Chekay bir necha sog'ar armanivor.

### XXX

*Farhodning Shopur dashtpaymolig'i, balki rahnamolig'i bila Yaman mulkidin Arman kishvarig'a azimat qilg'oni va Armaning Eramoso sabza va rayohinidin g'unchadek ko'ngli gul-gul ochilg'oni va Armaniya tog'i kamarida xoro qozodurg'on el ajzin ko'rub ul kayfiyatini so'rub xoro qozorg'a kamar chust etgoni va bu xabarning chustu shirin Mihinbonu bila Shiringa yetgoni.*

Bu vodiy qat'ida farxunda hodi,  
Aningdek ko'rguzur maqsad savodi

Ki, chun Farhod ochti uyqudin ko'z,  
Kelib yodig'a Shopur aytqon so'z.

Hamul kog'azki bo'ldi naqshpayvand,  
Chekib tarhi hamul kishvarga monand.

Hanuz etmay qarong'u ketmak ohang.  
Havo ko'zlarda erdi surmagi rang.

Qo'pub Shopurning qoshig'a bordi,  
Ayog'in o'pgali boshig'a bordi.

Tovushidin aning uyg'ondi Shopur,  
Topib tun zulmatida bul'ajab nur.

Dedi: «K-ey dard ila ishq ahli shohi,  
Izing xayli muhabbat qiblagohi,

Bu kelmakdin sanga ne multamasdur,  
G'araz xud kecha o'tgan so'z emasdur?»

Chu o'tkan so'zni Shopur ayladi yod  
Ayog'iga aning bosh qo'ydi Farhod

Ki: «Ey jon maqsadi dilkash payoming,  
Ko'ngul maqsudi ruhafzo kaloming.

Hamul savdo bila ko'nglumgadur sud,  
Hamul so'zdur hazin jonimga maqsud.

Vafo va'dangg'a fosh etmak keraksen,  
Degon so'z boshig'a yetmak keraksen».

Eshitgach oni Shopuri yagona,  
Dedi: «K-ey tal'ating sham'i zamona.

Sen ersang hamrahim jannat durur yo'l  
G'araz bu ersa, bismillah, ravon bo'l».

Etib Shopur yo'l azmig'a ohang,  
Aning hamrahlig'in Farhodi diltang.

Qadamda ko'rguzub ul toza damliq,  
Bu aylab soya yanglig' hamqadamliq.

Kesarlar erdi yo'lni gom-bargom,  
Yurub manzil-bamanzil tutmay orom.

Bo'lub Farhodg'a Shopur munis.  
Tutub oning bila sayr ichra majlis.

Gahe hamrahliq xosiyatidin,  
Gahe hampeshalik jinsiyatidin.

Gahe ul safhani ilgiga olib,  
Nazar boshtin-ayog' tarhig'a solib.

Xayolig'a tuman ming ofarin deb,  
Raqam qilg'onni rashki naqshi Chin deb.

Qilib daxl ishta andoq har zamoni  
Ki, bu ham naqshpardozi onglab oni.

Bu yanglig' muddati yo'l qildilar tay  
Ki, Arman kishvarig'a qo'yдилar pay.

Dedi Shopur: «Kel, ey farxunda yovar,  
Budur sen tushta ko'rgan mulku kishvar.

Tamosho aylayu bo'lsun xiroming,  
Yo'l uquncha talab qilg'on maqoming».

Chu Farhod etti ul so'zni taaqqul,  
Urar erdi qadam aylab taammul;

Iki-uch kun chu bo'ldi ehtiyoti,  
Padidor o'ldi bir kun ko'p nishoti

Ki, bo'ldi ollida bir dasht paydo  
Ki, aqlin tushta aylab erdi shaydo.

Hamul sabza, hamul savsan, hamul gul,  
Hamul gullarning atrofida bulbul.

Etib taqvo ko'zin tufrog'i xiyra,  
Yeli aylab xirad sham'ini tiyra.



Ko'runub qayda boqsa ul halojo'y,  
Gulu xoru giyohi oshnoro'y.

Sola boshladi har dam pora ko'ngli,  
Etib har lahza za'f ovora ko'ngli.

Balo vodiysig'a solib qadamni,  
Malolat avjig'a tortib alamni

Dedi Shopurg'a: «K-ey yori hamdam,  
Sanga hamdamliq oyini musallam.

Hamul vodiyu gardunsoy xoro  
Ki, ko'rmish erdim o'ldi oshkoro.

Yaqinroq manga hamrah bo'lg'il emdi,  
Mening holimdin ogah bo'lg'il emdi».

Hamul xayleki g'avg'o aylamishlar,  
Qozarg'a tosh alolo aylamishlar.

Tilar ul sori yetgay joni mahjur,  
Ravon mayl ayladi ul sori Shopur.

Yetishtilar ul ikki oshnovash,  
Anga tegruki ul xayli jafokash

Guruhe erdi dardu dog' ichinda,  
Arig' qozmoqqa shog'il tog' ichinda.

Aningdek xorani kesmakda ojiz  
Ki, ko'rmay kimsa andoq ajz hargiz.

Iki yuz xorabur ilgida tesha,  
Urub ul tesha tosh uzra hamesha.

Va lekin o'yla qattiq erdi xoro  
Ki, gar yuz tesha tegsa bemadaro.

Kesilmay bir naxudcha tosh chog'liq,  
Naxudcha demakim, xashxosh chog'liq'.

Iki yuz ustod uch yil qilib kin,  
Zamone tinmayin urmoqta metin.

Qozilib ikki-uch yuz qori<sup>2</sup> xora,  
Qolib oning ko'pi ham nimkora.

Alar qon yig'labon mundog' anodin,  
Vale sarkorlar tinmoy jafodin.

Nazar qildi chu ul holatg'a Farhod,  
G'amin o'ldi ko'rub ul nav' bedod.

Kirib ul xayli mazlum ichra g'amgin,  
Hiloliy qoshlarig'a g'ussadin chin.

Dedi: «K-ey men kibi xayli balokash,  
Falakdin ko'nglungiz mendek mushavvash!

Bu mehnatkim chekarsiz rozin ayting,  
Hamul anjom ila og'ozin ayting

Ki, nevhundur bu ranju ibtilongiz,  
Qachondindur falakdin bu balongiz?

Ko'rub sizni tutun boshimg'a oshti,  
Tutun nekim, ichimg'a o't tutoshti».

Ko'rub ul xayl aning farrux jamolin,  
Eshitib bo'yla ruhafzo maqolin.

Shukuhidin bo'lub hayronliq elga,  
Maqolotida sargardonliq elga.

O'pub yer, dedilar ul xayli g'amnok  
Ki: Ey Ruhul-amindek<sup>3</sup> gavharing pok.

Yaqin ermas malaksen yo basharsen.  
Xudo yoringki, bas oliy guharsen.

Malak xorijda gar ko'rmaydurur biz,  
Seningdek xud bashar ko'rmaydurur biz.

Vujudung ko'rmasun g'am ranju tobi,  
Nekim so'rdung budur oning javobi

Ki, bu kishvardakim rashki jinondur,  
Bukun ismatpanohe hukmrondur

Ki, Afridun sari borur nasabda,  
Erur Jamsheddin ortuq hasabda.

Agarchi soya solmas boshig'a toj,  
Va lekin tojvarlardin olur boj.

Belin garchi kamar topmay kamohi,  
Vale zarrin kamarlardur sipohi.

Bu yanglig'durki, fahm etting sifotin.  
Mihinbonu debon davr ahli otin.

Bu kishvar ichra o'ttuz-qirq qo'rg'on,  
Bori ko'k hisnidin<sup>4</sup> burjin oshurg'on.

Aning hukmidadur bemehnatu ranj,  
To'lo har yerda Qorun ganjidek ganj.

Tajammul xaylida imkondin ortuq,  
Necha yil fikrat etsa ondin ortuq.

Jahondin xotiri ozodasi bor  
Ki, bir gulchehra xoharzodasi<sup>5</sup> bor.

Harimi iffat ichra shoh ul ermish,  
Sipehri ismat uzra moh ul ermish.

Ani ham vasf etardin bahramiz yo'q,  
Otin dog'i tutarg'a zahramiz yo'q.

Yuzin ko'rmaydur oning odamizod,  
Magar bir necha gulrux sarvi ozod.

Kim oni ko'rsa gashtu sayr ko'rmas,  
Ani ko'rgan kishini g'ayr ko'rmas.

Yuzi gul, kirpigi derlar tikandur,  
Ne bor andoqki hargiz bor ekandur.

Mihinbonu ko'p aylab ehtiromin,  
Yasabtur jon uyi ichra maqomin.

Yuzi birla qilur bazmini gulshan,  
Aning birla ko'rar olamni ravshan.

Bu tog'ekim aning vasfidadur tul  
Ki, bordurbiz ani qozmoqqa mashg'ul.

Kelibdur bir boshi sharqi shamoyil,  
Yana bir boshi g'arbi sori moyil.

Oqar sharqisida bir chashma holi,  
Suyi ul nav'kim hayvon ziloli.

Debon «Ayn ul-hayot»<sup>6</sup> ul chashmani xayl  
Ki, o'lgon ichsa aylar jon sari mayl.

Gahi ul hur bu sori qo'yar gom,  
Pari sarchashmada tutqondek orom.

Parilar birla aylab azmi ishrat,  
Tuzarlar anda gohi bazmi ishrat.

Erur g'arbida ul mahvash makoni  
Ki, holo Armaniya derlar oni.

Yeridur nazhat ichra jannatoso,  
Aning yonida tog'i charxfarso.

Erur bu nav' ul mahvash xayoli —  
Ki, ul manzilda solg'oy qasri oliy.

Muhayyo borcha rangu bo'yi oning,  
Vale ustida yo'qtur suyi oning.

Muhandislar nechukkim charxi sayyor,  
Yugurtub chashma suyi sori tayyor.

Topibkim bir arig' qozilsa diljo',  
Yetar ul hur qasri o'llig'a suv.

Vale ul chashma to bu qasri ofat,  
Topibdur o'n yig'och' chog'liq masofat.

Bu jadvalkim chekibdurlar aroda,  
Ariq qozmoq qilibdurlar iroda.

Buyurmishlar bu xayli notavong'a,  
Balo tog'ida jam'i xasta jong'a

Ki, aylab chok metin birla xoro,  
Ariq qilg'oylar andoq oshkoro —

Kim, ul oriqqa har kim suv keturgay,  
Suv ul ayvong'acha turmay yugurgay.

Bu xoro tesha birla bo'lmas afgor,  
Nechukkim tesha, metin aylamas kor.

Erur uch yilki jon tortib hamesha,  
Usholmoy qolmadi metinu tesha.

Mashaqqatdin yigitni el qori der  
Ki, qozilmish iki-uch yuz qori yer<sup>8</sup>.

Bu yanglig' birla umri Nuh topsoq,  
Badanda ko'prak ondin ruh topsoq.

Chu mehnatning hadu poyoni yo'qtur,  
Tuganmaklik bu ish imkoni yo'qtur.

Gahi faryodu afg'oni chekarbiz,  
Gah ish qilmoq uchun joni chekarbiz.

Emas bu tesha urmoq ishga darxurd,  
Kecha-kunduz qoqarbiz ohani sard<sup>9</sup>.

Nechakim zohir etsak uzri ma'qul,  
Alar ollinda ermas uzr maqbul.

Bu erdi holimizkim topti ta'vil,  
Bu ham ijmol birla, yo'qki, tafsil».

Chu kayfiyatni ma'lum etti Farhod,  
Alar holig'a ko'ngli bo'ldi noshod.

Dedi: «Bu necha mazlumi sitamkash,  
Falak bedodidin bo'lg'on alamkash

Ki, vayronlig'larida yuz xalaldur,  
Agar qilsam madad voqe' mahaldur.

Hunarni asrabon netkumdur oxir,  
Olib tufroqqamu ketkumdur oxir?!»

Temurchidin tilab dam birla ko'ra,  
Beliga bog'labon charmin tanura<sup>10</sup>.

Dam uchin ko'rag'a chun mahkam etti,  
Ravon to'kti ko'mur, dog'i dam etti.

Ko'murni qildi chun axgar nekim bor,  
Tilab metinu tesha harnekim bor.

Solib axgar aro borin qizitti,  
Necha afzor qildi chun eritti.

Har o'n-o'n beshni bir metin qilib rust,  
Yana ham onchani bir teshai chust.

Necha gurza, necha sunboda aylab,  
Kamar qozmoq ishin omoda aylab.

Nihoniy borchag'a andog' su berdi  
Ki, Qorandin nihon o'rganmish erdi<sup>11</sup>.

Taraddudg'a solib oni bu ahvol,  
Ulusni girdida hayrat qilib lol.

Savole aylay olmay kimsa bir so'z,  
Shukuhidin tikib bori anga ko'z.

Chu xoli ayladi afzordin el,  
Ravon xoro kesarga bog'ladi bel.

Kirib oriqa qozmoq ayladi mayl,  
Qozoboshladi qumni o'ylakim sel.

Kesib har teshasi qilg'och xaroshi,  
Falak pili yukidek pora toshi.

Chu metin zarbidin aylab siteza,  
Qatiq xoroni aylab reza-reza.

Aningdek teshadin sekrib ushoq tosh  
Ki, nozir bir yig'ochdin qochurub bosh.

Uchub yetkanda zarbi dasti oning  
Ki borib o'n yig'och farrasti oning<sup>12</sup>.

Hamul kun-o'q daleri xorabur gov,  
Muhayyo qildi xoro ichra bir nov

Ki, uch yil ikki yuz xorobur ustod,  
Ola olmay ham oncha xoradin dod.

Hunar mundog' chu zohir ayladi ko'b,  
Tushub ul tog' aro el ichra oshub.

Bo'lub ham korgar, ham korfarmoy<sup>13</sup>,  
Mihinbonu qoshig'a dashtpaymoy

Ki, qilg'aylar bu ishkim ko'rdilar naql,  
Inonmas garchi oni ko'rmayin aql.

Ketur soqiy, manga ul la'li rangin  
Ki, tushti g'am yuki ko'nglumga sangin.

Aningdek mayki, chun og'zing'a yetkay,  
Ichimda dardu g'am toshin eritkay.

XXXI

*Farhodning teshasi toshni pora-pora qilmog' bila tog' bag'rig'a kov-kov  
solg'on sadoni Shirin eshitgani va quyosh tog'din tulu' qilg'ondek ul ko'hi  
balo sarvaqtig'a yetgani va aning metini lam'asining barqi munung xorodek  
ko'ngliga asar etgani va quyosh tufroqqa nur sochqondek ul xokiya mehr  
zohir qilg'och, aning tufrog'dog'ilardek o'zidin ketgani va umri quyoshi  
boshig'a kelgach aning hayoti sham'i o'chg'oniga Shopurning sham'dek  
kuyub yig'lab boshig'a o't chiqorg'oni va o'lukni mahdg'a solg'ondek ul  
quyosh oni tufrog'din ko'tarib bihishtoso manzilig'a olib borg'oni.*

Xabar berguchi sarrofi guharposh,  
Bu yanglig' ayladi naqdi xabar fosh

Ki, chun ul xaylni hayrat qilib dang,  
Qilibon Armaniya sori ohang.

Boqib Farhodning kesgan toshig'a,  
Xabar yetkurdilar Bonu qoshig'a

Ki, mundog' navjavone bo'ldi paydo  
Ki, bo'ldi ko'rmokidin xalq shaydo.

Bu yanglig' xora kesmak qildi bunyod  
Ki, qilmoq mumkin ermas odamizod.

Jahon ahlidek ermas vaz'u tavri,  
Bir andoq ko'rmagan aflok davri.

Malakvash odamidur ko'hmonand,  
Kesakdur teshasig'a ko'hparkand.

Nekim ko'rganni kelganlar yako-yak,  
Turub arz ettilar beshubhau shak.

Mihinbonu eshitgach hayrat etti.  
Inonmay bir zamone fikrat etti.

Xabarg'a chun ayon bo'ldi tavotur,  
Ishondi, lek oni eltib tahayyur.



Qo'pub gulrux harimin qildi ma'vo.  
Nechukkim ravzai jannatni Havvo'.

Dedi: «K-ey bog'i umrum sarvinozi,  
Harimi xilvatim sham'i Tirozi.

Ko'ngul mehri uzoring birla xursand,  
Soching har torig'a jon rishtasi band.

Eshitkim, turfa roze kelturubmen,  
Hadisi dilnavoze kelturubmen.

Seni Haq xo'blardin qildi chun fard,  
Erur bori ishing o'zungga darxurd.

Arig' qozmoqnkim hukm aylamishsen,  
Qatiq toshlarni qozsunlar demishsen.

Bu ham bir ish dururkim qilmamish xalq,  
Muningdek ish qilurni bilmamish xalq.

Agarchi sa'b edi boshtin-ayog'i,  
Qazo sahl etkon ermish oni dog'i.

Birov, derlarki, paydo bo'lg'on ermish,  
Qiyomat oshkoro bo'lg'on ermish».

Eshitgandek ani tavru shiorin,  
Eshitturdi pari paykarg'a borin.

Ki uch yilda ne ish butmish sarosar,  
O'zi bir kunda qilmishdur barobar.

Mihinbonu chu bu roz etti ifsho,  
Parivash ayladi mayli tamosho.

Dedi: «Ul yon janibat<sup>2</sup> surgulukdur,  
Bu ish gar voqe' o'lsa ko'rgulukdur.

G'animatdur ani ko'rmak kishiga,  
Tamosho aylamak qilg'on ishiga.

Erur alhaq ajoyib mehmon  
Ki, Tengri bizga yetkurmishdur oni.

Bu qushkim muhtaloyi dom o'lubtur,  
Bu gulshanda anga orom o'lubtur.

Balo ichra farog'i birla kelmish,  
Tuzoqqa o'z ayog'i birla kelmish.

Zaruratdur anga qilmoq rioyat  
Kim, ul bizga keraklikdur bag'oyat.

Arig'kim muzdig'a yuz ganj berdim,  
Suyi kelmay ilik ondin yub erdim<sup>3</sup>.

Bihamdillahki, Haq yetkurdi komim  
Ki, mundoq kimsa bo'ldi saydi domim».

Tilatti no'shlab ta'jil ila ot,  
Ravon bo'ldi Mihinbonu dag'i bot.

Sumanbar xizmatida to'rt yuz qiz  
Ki, otlanmas edi hargiz bularsiz.

Bor erdi bodpoyi rangi gulgun,  
Qolib andin yururda xingi gardun.

Anga rokib hamisha ul parivashi.  
Bo'lub ul devpaykar ham parikash<sup>4</sup>.

O'zi gulrangu gul monand zoti,  
Bo'lub Gulgun<sup>5</sup> xaloyiq ichra oti.

Jahon bog'ida yo'q ul bodpodek,  
Bo'lub gul bargin elturga sabodek<sup>6</sup>.

Keturdilar bu xingi<sup>7</sup> bodpaymoy,  
Ravon mindi shafaq Gulguniga oy.

Xiromon bo'ldi ul yon sarvi ozod,  
Rikobida hamul xayli parizod.

Surub ul sori xushvaqtu tarabnok  
Ki, Farhod aylar erdi xorani chok.

Mihinbonu dog'i hamrahlig' aylab,  
Sumanbar holidin ogahlig' aylab.

Keyindin qavm ila xayli shitobon,  
Qilib har soridin qat'i biyobon.

Parivash devzodin surdi chun tez,  
Gul uzra sarsar o'ldi shabnamangez.

Yetishti raxsh uza ul nav' cholok  
Ki, gardun tavsanida mehri aflok.

Tushub har yon musalsal zulfi bandi\*,  
Bo'lurg'a xoraafkanlar kamandi.

Kamand o'lmayki, ikki shomi dayjur,  
Aroda farq etib bir xatti kofur.

Bo'lub me'jarda ul mushki siyahtob,  
Qaro shomiki yopqay oni mahtob.

Yuzi atrofida durri laoli,  
Quyosh davrida axtarlar misoli.

Ne durkim, sekretib bu charxi gardon,  
Quyoshning chashmasidin qatra har yon.

Iki qoshi hiloli fitnaangez,  
Yozilg'on ko'p ul oy boshida xunrez.

Mudom aylarga qon to'kmak kengoshi,  
Bo'lub ikkisining payvasta boshi.

Bu xunrez ittifoqig'a qilib jahd,  
Yuzidin mushaf ochib qilg'oli ahd.

Ko'zi islom eliga topibon dast,  
Yotib mushaf yuziga kofiri mast.

Bo'lub sihat olurda goh ranjur,  
Bo'lub gah ayni usruklikta maxmur.

Ko'zi behol xoboludliqdin,  
Labi maygun sharoboludliqdin.

Ne ikki anbaroso zulf vah-vah,  
Ne ikki jonfizo lab, Alloh-Alloh.

Shakardek lab, vale yo'q tuz kam anda,  
Tuzekim qandi olam-olam anda.

Bu yanglig' qand ila tuz kimsa bilmay  
Kim, ul hayvon suyi ichra ezilmay.

Savodi xoli o'g'riliqqa monand,  
Kelib kunduz kuni eltur uchun qand.

Olib shirinliq, ammo avd etar dam,  
Ayog'lari bo'lub shakkarda mahkam.

O'g'urlarda tuzu shakkar nihoni,  
Shakar tutmish va yo tuz tutmish oni.

Engi gulzorida ko'p rang ila bo',  
Labi ayn ul-hayotidin ichib suv.

Ravonparvar yuzining toza vardi  
Ki, hayvon chashmasidur obxo'rdi.

Og'iz ustida burni turfa timsol,  
Tutub yonida manzil hinduyi xol.

Qo'yub ul hinduyi tojir sifoti,  
Shakar tungida<sup>9</sup> Hinduston naboti.

Naboti Hind yo'qkim, g'unchai gul,  
Qilib devona Aqli Kullni bilkul.

Kumushdek rangi nasrinfomi oning,  
Kumushdin g'unchadek andomi oning.

Bo'lub har kirpiki bir no'gi xoma,  
Qorortib qatl uchun yozmoqqa noma.

Varaq aylab anga lavhi uzorin,  
Qorortib olam ahli ro'zgorin.

Qadi ozoda jannat savsanidek,  
Yuzi gul, lek o'zi gul xirmanidek.

Harorat otashin la'lidin oshib,  
Hamul gul xirmanig'a o't tutoshib.

Sharar qilg'och ul o'tdin mayli aflok,  
Quyosh boshdin-ayog'in o'rtabon pok.

Zaqan davrida andoq xatti mavhum  
Ki, qilg'ay oni solim savq ma'lum.

Nechukkim mehr yonida hiloli,  
Ko'runur yo ko'runmasdin xayoli.

Bu davrikim ani tasvir etib vahm,  
Og'izni nuqtasi taqdir etib vahm.

Quloqda durri nobi gavhari ham,  
Qamar davrida Zuhra, Mushtariy ham.

Qadu oraz bila shamshodu gulfom,  
Ne shamshodu ne gul, sarvi gulandom.

Qadi ruh ofati chobukluk ichra.  
Beli jon rishtasi nozukluk ichra.

Bo'yu jismin deyolmon qucliqu yanglig'.  
Paridek chustluqdin uchqu yanglig'.

Labidin jon tomib bisyor-bisyor,  
So'zidan shahd oqib xirvor-xirvor.

Labidin tomibu oqib latofat,  
Yuzidin oqibu tomib malohat.

Bo'yida hullalardin ruh olib qut,  
Vale alvonidin yuz aql mabhut.

Qilib kirpik o'qidin tiyrboron,  
Nechukkim tog' aro abri bahoron.

Labining har so'zi yuz jong'a ofat,  
Sochi har tori ming imong'a ofat.

Bu yanglig' qotiloso kelsa ko'zga  
Yo'q ish oh urmoqu o'lmoqdin o'zga.

Yururda raxshi aylab tog'ni past,  
O'zi ot uzra jomi husnidin mast.

Falak raxshida mehri xovaridek,  
Ne raxshu mehr, dev uzra paridek.

Qayonkim tavsanin aylab ravona,  
Yiroqtin alhazar aylab zamona.

Bu yanglig' surdi xoroko'b tavsan,  
Anga tegruki erdi xoraafkan.

Biyikrak chiqtiyu har sori boqti,  
Zamin birla zamonna o'tqa yoqti.

Ne ko'rdi? Xora ichra xorakove,  
Qozib xoroda metin birla nove.

Dema nove, ne nove qaysi xoro,  
Bo'lurcha o'n tegirmon suvg'a majro.

Qilib xorog'a barnoye siteza,  
Urub zarb aylar erdi reza-reza.

Ne barnozod<sup>10</sup>, sarvi bo'stoni,  
Ko'rub davrondin osibi xazoni.

Shukuhidin bo'lub xoro haroson,  
Qo'pub metinining ollidin oson.

Muqavvas qoshida chin, og'zida band.  
Qadin g'am tog'i aylab qavs monand.

Biyikrak haykali ahli zamondin,  
Fuzunroq shavkati pili damondin.

Boshida tojvarlik farri paydo,  
Yuzida saltanat nuri huvaydo.

Ayog'ig'a sinib xori mazallat,  
Boshini sindurub sangi mashaqqat.

Jabinida muhabbat dardi zohir,  
Uzori uzra g'urbat gardi zohir.

Tanida benavolig'din asarlar,  
Yuzida oshnolig'din xabarlar.

Qo'lida teshaye, yo'q teshakim, gurz,  
Bo'lub tufroq aning zarbidin Alburz.

Ko'rub Shirinni hayrat lol qildi,  
Taajjub bir yo'li behol qildi.

Ko'rungach ko'zga mundoq chehri oning,  
Ichiga soldi sho'rish mehri oning.

Gahe ashki yugurdi shiddatidin,  
Gahe ko'ngli buzuldi mehnatidin.

Ochilmasdin burunroq pardai roz,  
Yaqinroq surdiyu so'z qildi og'oz.

Labi la'lini gavharposh qildi,  
Bu yanglig' nukta durrin fosh qildi

Ki: «Ey nodir yigit ofoq ichinda,  
Yagona charxi nili toq ichinda.

Ayon holingda ko'p-ko'p bulajabliq  
Ajabdin ham ajab ranju taabliq.

Ne sen o'xshab jahonda bir kishiga,  
Ne qilg'on ishing o'xshar el ishiga.

Bu ishkim, biz demay bunyod etibsen,  
Bag'oyat ko'nglumizni shod etibsen.

Bo'lur erduk husuli ichra ojiz,  
Hunar ermas, qo'lung ko'rguzdi mu'jiz.

Agar yuz qarn uzroyin bo'loli,  
Netib bir kunchilik uzring qo'loli.

Ishing uzrida yuz bizdek o'tongay,  
Ne bizdin, Tengridin o'llingg'a yong'ay».

Tilatti bir tabaq birla javohir,  
Dedi: «Muzdung emas, ey ishda mohir!»

Qo'lub uzr ul tabaq boshini ochti,  
Javohirni aning boshig'a sochti.

Parivash bu fasohat birla maftun,  
O'zidin bexabar Farhodi majnun.

Yiqib jismini anfosi shitobi,  
Teshib ko'ksini ko'ngli iztirobi.

Tani titratmadin orom topmay,  
Bu beoromliq anjom topmay.

Dedi: «Jonparvar anfosingdin o'ldum,  
Unungdin, umr ranjiddin qutuldum.

Ne anglaykim, qayu mahro' ekansen,  
Ichim qon aylagan senmu ekansen?

Meni g'urbat aro bechora etkan,  
Diyoru mulkdin ovora etkan.

Chiqib jonim unungdin bo'lg'och ogoh,  
Yuzungni ko'rmay o'ldum oh, yuz oh!»



Aningdek oh to'fonin chiqordi  
Ki, mahvashning niqobi yelga bordi.

Ko'rungach ul jamoli olamoro,  
Aning matlubi bo'ldi oshkoro.

Hamul erdiki maftun bo'lmish erdi,  
Ko'rub ko'zguda majnun bo'lmish erdi.

Birovkim aks ko'rgach hushi ketsa,  
O'zin ko'rgach ne tong, jon tarkin etsa.

Birovkim bo'lsa mayning zikridin mast,  
Ne tong, ichkanda bo'lsa yer uza past.

Chu Farhod ul pari erkanni bildi,  
Chekib o'tluq fig'on andoq yiqildi

Kim, ul holatda Shirin ko'rgach oni,  
Gumon qildi magarkim chiqti joni.

Aningdek chekti ohi otasholud  
Ki, oyni abr aro yoshurdi ul dud.

Chu ul sham'i vafoda qolmadi nur,  
Yetib parvonadek boshig'a Shopur.

Boshin qo'ynig'a oldi yig'labon zor  
Ki: «Ey yo'q qismating juz ranju ozor!

Bas ermas erdi g'urbat dardu dog'i  
Ki, o'chti bejihat umrung charog'i.

Vafo yo'lida ul manzilg'a yetting  
Ki, bir ko'rmak bila jon tarkin etting.

Kamolul fazlu oyiningdin afsus,  
Hayovu aqlu tamkingin afsus.

Zamiru ra'yi pokingdin darig'o,  
Fig'oni dardnokingdin darig'o.

Qo'lungdin hayfu shastingdin dog'i hayf,  
Shukuhu zo'rdastingdin dog'i hayf.

Qani farru shukuhu zo'rdasting.  
Tavonolig' aro yuz ming shikasting.

Bashar xaylida sen bo'lmay malakson.  
Nedin bo'lmas bori yer birla yakson.

Ne shah boshig'a afsar erding ekin,  
Qayu afsarg'a gavhar erding ekin.

Ne kishvar tushti erkin motamingg'a,  
Qayu el qoldilar erkin g'amingg'a.

Ne Xoqon so'gung ichra qoldi, oyo,  
Qayu iqlim eli qo'zg'oldi, oyo.

Chehib ranjing manga g'am bo'ldi podosh  
Ki, hargiz ko'r magay erdim seni kosh!»

Debon Shopur bu yanglig' fasona,  
Sumanbar aylabon ashkin ravona.

Chu bu oshubig'a yuzlandi taskin,  
Ani chorlab Mihinbonu va Shirin.

So'rub Farhod holidin hikoyat,  
Ul aylab bilgan ahvolin rivoyat.

Debon ul zor, Shirin zor yig'lab,  
Mihinbonu dog'i bisyor yig'lab.

Ani mahd ichra solib xusravoyin,  
Yonib o'rdularig'a zoru g'amgin.

Olib egniga mahdin nozaninlar,  
Yurub ollida giryon mahjabinlar.

Solib bir borgah kunjida taxte,  
To'shab ul taxt uza shohona raxte.

Ani taxt uzra qo'ydilar chekib oh,  
Ne ul eldin, ne o'z holidin ogoh.

Ketur, soqiy, sharobi bexudona  
Ki, bexudluq bila bo'ldum fasona.

Ajab behush o'lubmen ishq aro bil,  
Meni bir jom ila behushroq qil.

### XXXII

*Farhodning madhush dimog'iga hush bog'idin nasim yetmak va nasimdek tebranib tog' sori azimat etmak va tesha bila tog' bag'rin yormoq, balki tog' poralarni havog'a uchurmoq bila qiyomat qo'parmoq va Shopur ani paydo qilib Shirinni aning g'ami ishq shaydo qilmoq va Shirinning ko'ngli xorasini aning teshasi fikri xarosh qilg'onin Mihinbonu ma'lum qilib, teshadek tafakkur boshin quyi solmoq va gohi diljo'yluq bila ul bedilg'a ko'ngul bermak, balki ko'nglin olmoq.*

Bu mahd alvohig'a qilg'on nigorish,  
Bu yanglig' qissag'a berdi guzorish

Ki, chun zoyil bo'lub Farhoddin hush,  
Ani yotquzdilar taxt uzra madhush.

Ne ul ogah tiriklik olamidin,  
Ne jismida asar paydo damidin.

Qolib bu nav' ikki kecha-kunduz,  
Olib gah-gah nafas, lek ochmayin ko'z.

Hayoti qaydidin Shirin qilib sho'r,  
Yangi jon topibon bechora Shopur.

Uchinchi kecha uyqu el ko'ziga  
Kim, ul ochib ko'zin, keldi o'ziga.

Ko'rub shohona taxtu borgohe,  
Yotib taxt uzra ul andoqki shohe.

Necha ul hol aro qildi tafakkur,  
Tafakkurdin fuzun bo'ldi tahayyur.

Vale yodig'a bu keldikim ul oy,  
Dema oy, oftobi olamoroy

Aning sarvaqtig'a solib edi nur,  
Bo'lub erdi necha so'z dog'i mazkur.

Yaqin bildiki, borg'ondur o'zidin,  
Parining yo yuzidin, yo so'zidin.

Hayodin terga bo'ldi abrdek g'arq,  
Ul uydin chiqti sekrib o'ylakim barq.

Tafarrus qildikim mehri diloro,  
Aning holig'a qilg'ondur madoro<sup>1</sup>.

O'zi chun qatlin og'oz aylagandur,  
Azo birla sarafroz aylagandur.

Sevuntub tog' sari bo'ldi shitobon,  
Xijolat birla qat' aylab biyobon.

Yetib oriqla ko'p aylab takupu,  
Hayo teridin andoq oqizib suv.

Topib metini birla teshasini,  
Ayon aylab ravon o'z peshasini.

O'zi birla debonkim: «Ul parichehr,  
Meni majnunga muncha ko'rguzub mehr.

Esim ketkonda e'zoz aylamishdur,  
Tarahhumdin sarafroz aylamishdur.

Aning podoshi ne kelgay ilimdin,  
Va yoxud shukri ne o'tkay tilimdin.

Hamono bu arig'dur borcha komi  
Ki, itmomig'a ko'ptur ihtimomi.

Umidim ulki, umri tezrihlat  
Meni mahzung'a bergay oncha muhlat

Ki, bu komin ravo qilg'oymen oning.  
Bu dardig'a davo qilg'oymen oning».

Chu bu fikr etti ko'ngli yangi boshdin,  
Chiqordi gard gardun uzra toshdin.

Aningdek xora chopmoq etti bunyod  
Ki, chiqti tog'din gardung'a faryod.

Qachon tosh uzra metin tez soldi,  
Falak toqig'a rustoxez soldi<sup>2</sup>.

Dami dudi bila metini gardi,  
Yoshurdi ko'zga charxi lojuvardi.

Ne gardu dud, mig'i dardu anduh,  
Tutub Arman hududin ko'h to ko'h.

Dema mig', aytqil abri bahoron,  
Yog'in birla tagargi sangboron.

Hamul metinki tosh uzra bo'lub g'arq,  
Damo-dam lam'asidin ko'rguzub barq.

Ne soatkim, xaroshi xora aylab,  
Qatig' xoroni andoq pora aylab

Ki, bolchig' pushtasin no'gi itik bel,  
Va yo poru bila qor oritur el.

Kecha-kunduz ne tinmoq, ne tayonmoq,  
Ne bir dam qon yutardin ko'ngli qonmoq.

Tamoshosig'a har kun xayl-barxayl,  
Ulus ul sori tush-tushdin qilib mayl.

Qilib har kim nazar oning ishiga,  
Tahayyur barmog'in eltib tishiga.

Ko' rardin yo'q kamarburlarg'a to'ymoq,  
Ne haddi yerga pushti dast qo'ymoq.

Aning xorog'a mundaq kov-kovi.  
Bu so'zni bo'yla taqdir etti rovi

Kim ul tunkim Mihinbonu uyidin,  
Mihinbonu yo'q, ul mahro' uyidin

Kelib o'z holiga ul hushi zoyil,  
Chiqib bo'ldi hamul tog' sori moyil.

Chu topti xira ko'zlar subhdin nur,  
Ne ul xayl oni toptilar, ne Shopur.

Qo'pub Shopur xud keynicha hordi,  
Vale Shirin ko'zi g'amdin qorordi.

Topib Shopur, o'lub g'amdin yana shod.  
Tushub hajr o'tig'a Shirini noshod.

Qo'yub Shopur ayog'iga aning bosh,  
To'kub Shirin firoqidin aning yosh.

Tegib hijron o'qi mahvashqa kori,  
Ilikdin ko'rdi borur ixtiyori.

Bahona bo'yla qildikim: «Bu bedil  
Ki, qilmish erdi bu kishvarni manzil.

Bu ishkim tog' aro men soz etibmen  
Ariq qozmoq ishin og'oz etibmen.

Hamono ul yigitni Hayyi Soni',  
Mening ranjimni qilmasliqqa zoyi'.

Bu marzu bum sori kelturubtur  
Ki, sarvaqtimg'a oni yetkurubtur.

Ani gar topmasoq bu ish qililmas,  
Vagar yuz qarn sa'y etsak qozilmas.

Kishilar har sori chopmoq keraktur,  
Qayon bo'lsa ani topmoq keraktur».

Mihinbonu ul oy jahdu shitobin.  
Chu ko'rdi fahm qildi iztirobin

Ki, xorokan<sup>3</sup> damidin shu'lai garm  
Qilibtur xoradek ko'nglin aning narm.

Nasihati bildikim, ko'p naf' bermas,  
O'ziga keltururning vaqti ermas.

Qilib ul ishda hikmatlar rioyat,  
Ani topmoqqa jahd etti bag'oyat.

Topib, filhol qildilar xabar fosh  
Ki, oriqda burung'idek qozar tosh.

Bilib, oyg'a tarab yuzlandi chandon  
Ki, bo'ldi lablari gulbargi xandon.

Qila boshladi mahzun ko'ngli chora  
Ki, ne nav' aylagay oni nazora.

Kamingohe<sup>4</sup> topib boqqoy anga to'q,  
Bu ko'rgay oni, ammo ul muni yo'q

Kim, ul ko'rsa qilib bedilliq og'oz,  
Yana ko'proq ochilg'ay pardai roz.

Vale aylab Mihinbonu hamesha,  
Aning qoshig'a bormog'liqni pesha.

So'rub ahvolin oning gohu begoh,  
Tilab maxfiy g'amidin bo'lmoq ogoh.

Topib holin nechakim aylab idrok,  
Hunardin mamlu, ammo aybdin pok.

Xati mehrini ko'ngli ichra tortib,  
Vale ul mehr kundan-kunga ortib.

Havas aylabki, mundoq pok payvand,  
Manga ne bo'lg'ay erdi bo'lsa farzand.

Va lekin hajrdin zor erdi Shirin,  
Kecha to subh bedor erdi Shirin.

Ne dardin derga bir hamdardi oning,  
Ne subhu shom xobu xo'rdi oning.

Ne bir hamdam anga bo'lmoqqa ma'nus.  
Ne qo'yub holi izhorig'a nomus.

Qoshig'a borg'oli aylab taammul  
Ki, nogah bo'lmag'ay ul betahammul.

Desakim bormayin gulchehri zebo,  
Bo'la olmay hazin ko'ngli shikebo.

Firoq o'tida miskin joni oning  
Ki, bo'lg'ay dardu yo'q darmoni oning.

Ketur, soqiy, mayi gulrangi xushbo'  
Ki, urg'ay chorasiz dard o'tig'a suv.

Munungdek may manga armon bo'lubtur  
Ki, dardim asru bedarmon bo'lubtur.

### XXXIII

*Farhodning ul tosh arig'in, balki arig' toshin qazib Armaniya tog'iga yetkurub ul tog' fazosida qasri qulla monand, balki asosi ko'hpayvand bino qilib itmomg'a yetkurgoni va «Bahr un-najot»' havzin qasr ollinda metini xoroshikof bila namudor qilib ul havz va arig' atrofing safoda bulurkirdor va jiloda oyinai chiniy davri bila dastasidin namudor qilg'oni va bu ariqqa suv ochmoq uchun abri bahoriydek ko'zlaridin ashkbor va durri ashkidin gavhar nisor qilib «Ayn ul-hayot» chashmasig'a yuzlangani.*

Bu rangin nuktaga hangomaoro,  
Bu yanglig' qildi kilkin nomaoro



Ki, Farhod ul arig'ni chora aylab,  
Qazar erdi shikofi xora aylab.

Umidi ulki bu ish topsa itmom.  
Tamoshog'a kelib sarvi gulandom<sup>2</sup>.

Yana bir qatla ham ko'rgay jamolin,  
Simo' etgay ravonoso maqolin.

Tarabdin chiqsa munglug' joni oning,  
Jahonda qolmagay armoni oning.

Va gar xud bo'lmasa ul yon xiromi,  
Bu ish sori chu ko'ptur ehtimomi.

Husuli ranju dardi dildur asru,  
Ul oyning ollida mushkildur asru.

Bu mushkil ishga bo'lsa chorapardoz,  
Eshitgach ul sihi sarvi sarafroz.

Muyassar ko'rsa komu muddaosin,  
Bu hosil aylagay oning rizosin.

Bu nav' ummid birla subh to shom,  
Anga yo'q erdi tosh chopmoqdin orom.

Muhandisvor aylar erdi avval,  
Arig'ning ikki yonin ikki jadval.

Ham uch qori kanoridin kanori,  
Ham oning umqi erdi ikki qori<sup>3</sup>.

Vale har jadvalikim, tortar erdi,  
Hamono ming qoridin ortar erdi.

Bu ming qori sarosar topsa pardoz,  
Yana ming qori aylar erdi og'oz.

Qilib har ming qori qozg'onda xora,  
Burun metini birla xora pora.

Burung'i ikki yuz xorokani rust,  
Tashirlar erdi sing'on xorani chust.

Arig' javfin alar qilg'uncha xoli,  
Bu olib teshasin ilgiga holi.

Arig'ning qilg'oli malso xaroshin,  
Qilibon teshaning paydo taroshin<sup>4</sup>.

Yo'narg'a teshani ilgiga olso,  
Qilib yuz-yuz qori xoroni malso.

Musayqal aylabon ko'zgu masallik  
Ki, anda yuz ko'runib su masallik.

Iki yondin qilib xoroni payvand,  
To'shab farshin aning dandona monand<sup>5</sup>.

Biror yerkim tugansa erdi xoro,  
Yerida tufroq o'lsa oshkoro.

Bu yanglig' yerda mehnat ortar erdi,  
Yasab o'tguncha zahmat tortar erdi.

Vale solmay o'zin zoru dajamvor,  
Yo'nub xoroni taxta-taxta hamvor.

Hamul jadval bila pargorin asrab,  
Raja torin chekib hanjorin asrab.

Olib bir-bir yo'nulg'on xorani chust,  
To'shab ul taxta-taxta toshni rust<sup>6</sup>.

Arig' hanjorin andoq aylabon soz,  
Muhandispesha aylar erdi pardoz

Ki, bo'lub xoroi yakpora ul marz,  
Shikofida topa olmay kishi darz.

Va gar ollig'a kelsa erdi tog'e,  
Ko'targuncha topa olmay farog'e.

Ani chopmoqqa aylab teshani tez.  
Bo'lub ul qatra suvdin otashangez.

Tutub ul tog'ning avjida maskan,  
Bo'lub xoroshikofu qullaafgan.

Kamar bog'lab yiqorg'a chun hajarni,  
Yiqib har zarbi dasti bir kamarni.

Solib chun zarba tog' avjig'a payvast,  
Qilib har zarb ila bir qullani past.

Payopay chun solib metini kori,  
Yugurtub qulla-qulla dasht sori.

Chu metin orqasin aylab hajarko'b,  
Bo'lub har sekregon toshi qamarko'b.

Qamarg'a bo'yla tosh o'lg'och havola,  
Bo'lub qalqon aning ollida hola<sup>7</sup>.

Ko'rub anjum yog'arni ul ushoq tosh,  
Taharrukdin o'g'urlab har taraf bosh.

Ushoq tosh aylabon gardun yuzin resh.  
Nechukkim qullalar homun yuzin resh.

Falak har lahza garchi bosh o'g'urlab,  
Yer uzra yog'dururg'a tosh o'g'urlab.

Jafo toshiki holo charx etar fosh,  
Hamonokim, tuganmaydur hamul tosh.

Falakka tog'ning gardin chiqorib,  
Iki-uch kunda o'rnidin qo'ngorib.

Hunardin ko'rguzub yuz sehri Bobil<sup>8</sup>,  
Arig' o'tkargali qilg'uncha qobil.

Qilib ul tog'ni chun yer bila teng,  
Arig' qozmoqqa har yon qo'l ochib keng.

Hamul avvalgi pargorin chekib tuz,  
Qozar erdi arig'ni kecha-kunduz.

Chu oz fursat bu yanglig' ko'shish etti,  
Arig'ning boshi qasr o'rnig'a yetti.

Yo'nub havze, kesib xoroni payvast,  
Masohat ichra vaz'i shast-darshast'.

Dema havz, aytqil daryocha oni,  
Suyi lekin ziloli zindagoni.

Bor erdi qasrning o'rnida bir tosh,  
Biyiklikda falakdin oshurub bosh.

Mudavvar vaz' ila pargori oning,  
Va lekin davri besh yuz qori oning.

Bu yanglig' xorag'a xoroburi chust,  
Ura boshladi metin zarbasin rust.

Yo'nub atrofin andoq berdi hanjor  
Ki, qasre aylagay charxi barinvor.

Chu oz fursat ul ishga bo'ldi mashg'ul,  
Qoyodin yo'ndi qasri o'yla maqbul.

Su sori toqi oliyshoni oning,  
Yetib ko'k toqig'a ayvoni oning.

Ichinda gunbazi ayvong'a loyiq  
Yana dahlezi gunbagz'a muvofiq.

Yana uch sori ham uch toqu ayvon,  
Uyolib har biridin toqi Kayvon.

Har uy lutfu safodin oyat anda,  
Ravoqu rahbalar beg'oyat anda.

Bu yanglig' yo'ndi qasri olamoro,  
Bori ajzo anga bir pora xoro.

Qilib ayvonida yuz tarh tahrir.  
Mavoze' tarh qildi bori tasvir.

Chekib ul sarvi gulrux taxtu johin,  
Bu taxt uzra hamul husn ahli shohin.

Parilar qulluq aylab xizmatida,  
Parivashlar qo'yub yuz hazratida.

Bu suratlarni aylab garchi bejon,  
Bularni aylabon surat, ani jon.

Chekib yuz ming bu yanglig' turfa timsol  
O'zin ul sho'x o'trusida behol.

Qayu mavzudakim, ul mohpora  
Muning shakli qilib bexud nazora.

Bu ishlarda bo'lub Shopur yori,  
Yetib har birga kilki chirakori.

Bu sizsa odami, taksir etib ul,  
Bu cheksa jonvar, tash'ir etib ul<sup>10</sup>.

Chu ul oy suratini aylab guzorish,  
O'zi xoro uza aylab nigorish.

Chekarda ul jamoli getioroy  
Gahi ohe chekib, gahi chekib voy.

Bu yanglig' qasr topib zebu oyin,  
Latofat ichra suratxonai Chin<sup>11</sup>.

Tugangach qasrg'a bu zeveru soxt,  
Ravoni havzni ham qildi pardoxt.

Chu bo'ldi havzdin bir yo'li forig',  
Kesib har yonidin bir turfa orig'.

Rioyat qildi andoq vaz'u tavrini  
Ki, aylang'ay arig'lar qasr davrin.

Kelib dargah muhozisiḡ'a har nahr,  
To'kulgay suvlari ul sorikim shahr.

Topib aql irtifoining shumori,  
Iki ming qori har bir obshori

Ki, suv ondin quyi chun aylasa mayl,  
Yasagay bog'u bo'ston anda har xayl.

Nekim xoro chopar ish topqach itmom.  
Su boshig'a urub xorofikan gom

Ki, suvni bog'lag'ay ul nahr ichiga,  
Alolo tushti mulku shahr ichiga.

Aningdek tog' sori tuttilar yo'l  
Ki, igna solsa yerga tushmagay ul.

Tamoshog'a qo'yub el ul sifat yuz  
Ki, kasratdin ko'runmay tog' ila tuz.

Yaqo birla yurub Farhodi mahjur,  
Yonida gom urub bechora Shopur.

Xirom aylab hunarmandi yagona,  
Ko'zidin yosh o'lub turmay ravona.

Tushub dilbar xayoli joni ichra,  
Solib o't xotiri vayroni ichra.

Suyin turg'uzmayin ko'zida qayg'u,  
Arig' novig'a oqib ashkidin suv.

Bu qayg'u eltibon oni o'zidin,  
Oqib bechoraliq ashki ko'zidin

Ki, mundoqkim el o'lmish dasht paymoy,  
Tamosho qilg'ali kelgaymu ul oy?

Agar kelsa meni bemor o'larmen,  
Vagar ham kelmas o'lsa, zor o'larmen!

Ani bu fikr andoq aylabon lol  
Ki, fahm aylab ulus tavridin ul hol.

Mihinbonu aning keynicha rokib,  
Surub atboi bepoyon mavokib.

Tajammul onchakim, el fahmi yetmay,  
Takalluf onchakim, el bovar etmay.

Aning har gomig'a aylab nisori,  
Sochib boshig'a naqdi beshumori.

Sinug boshig'a bo'lmoq la'lu durposh,  
Ko'runub bahr aro yoqqon kibi tosh.

Surub ollib'ga gardunvash mavokib,  
Bori sur'atda andoqkim kavokib

Ki, minmakdin bo'lub oromi oning,  
Dame ting'ay qoborg'on gomi oning.

O'pub ul bodpolarning ayog'in,  
Tushub yo'lg'a tutub ikki qulog'in.

Ulus holig'a oning zor yig'lab,  
Qilib dardi ko'ngulga kor yig'lab.

Qo'yub ul gomu el keynicha anbu,  
Qayu anbu, balkim ko'h to ko'h.

Qayon ul ketti el keynicha ketti,  
Bu holat birla suv boshig'a yetti.

Zamone tinmog'in qildi bahona  
Ki, yetgaymu ul oshubi zamona?

Ko'zida suv va lekin jonida o'rt,  
Bo'lub har sori boqmoqdin ko'zi to'rt.

Ketur, soqiy, mayu daf' et xumorim  
Ki, o'lturdi xumori intizorim.

Xumori hajr bas muhlik balodur,  
Anga yo vasl yoxud may davodur.

XXXIV

*Farhodning «Ayn ul-hayot» suyin «Bahr un-najot» havzi arig'ig'a ochib,  
ko'zidin ul chashma rashahotidek ashki rudin sochib, Armaniya sori xiromi  
va xaloyiqning ul arig' atrofida tamosho uchun g'avg'oyi omi va parivashning  
parikash devzodi po'yadin qolmoq va Farhod devonavor parikash bila  
parivashin egniga olmoq va Armaniya tog'i sori barqdek gom solmoq  
va falaki qadxamdek mehr ostida yugurmak va mehrni falak ayvonig'a  
yetkurmoq va junun bodpoyini qulla sori surmak.*

Bu ko'hsor ichra xoro aylagan chok,  
Quyar mundog' ziloli sofiyu pok

Ki, chun Farhod suv ochmoqqa ketti,  
Xabar har soridin Shiring'a yetti.

Kim, ul qozib arig'e poku soda,  
Necha ishlar dog'i aylab ziyoda.

Yasab ul nav' qasri charxmonand  
Ki, topib kungiri gardung'a payvand.

Bu yanglig' kilk ila tahriri oning,  
Bu yanglig' naqsh ila tasviri oning.

Qilib ishlarki, qilmay odamizod,  
Bo'lub ko'rmakdin oni odami shod.

Qo'yub ko'ngliga yuz ko'hi alamni,  
To'kub ko'zdin tuman ming seli g'amni.

Urub ohidin o't hardam zabona,  
Suv ochmoq azmig'a bo'ldi ravona.

Sanam xud tinmayin so'zi nihondin,  
Tutar erdi xabar har lahza ondin.



Va lekin bu xabarni chun eshitti.  
Qaroru sabri ketti, hushi itti.

Buyurdikim: «Ravonroq kelturung ot»,  
Buyurg'och ashhab kelturdilar bot.

Ul ashhab girdu past erdiyu rahvor,  
Nechukkim bo'lsa g'alton durri shahvor.

Chu chiqti yelga gulbargi taridek,  
Falak raxshiga mehri xovaridek.

Kishi Bonug'a' chopturdi shitobon  
Ki, qildi sayr azmi mehri tobon.

Quyoshdek sayrda bordur shitobi  
Ki, bir dam manzil etkay burji obi.

Hamul xorokani po'lodbozu<sup>2</sup>,  
Ariqqa men yetishmay qo'yimasun suv!

Xabar chun bildi Bonu shod bo'ldi,  
Surub bedil qoshig'a uzr qo'ldi:

«Ki, ey bizdin sanga yetgan malolat,  
Yetishmay bizga sandin juz xijolat.

Dame ting'ilki qilding ko'p taku po'y,  
Hamono azm etibdur sarvi gulro'y

Ki, ushbu sarzaminni ravshan etgay.  
Arig'ni sarvu guldek maskan etgay».

Navozishlar qilib bedilni behad,  
Buyurdi soldilar ul yerda masnad.

Chiqib masnad yuzida tutti orom,  
Hamul tavsanni aylab so'z aro rom.

Ipak zaylucha ham soldurdi filhol,  
Dedi: «O'ltursun ul sho'rida ahvolla!»

O'pub tufrog'ni xoroko'bi' xoki  
Ulusni o'rtab ohi dardnoki.

Kelib yer tutti Bonu xizmatida  
Malak ul nav'kim gardun qatida.

Mihinbonu navozish aylabon soz.  
Anga diljo'yuluqlar qildi og'oz.

Debon har lahza shafqat birla bir so'z.  
Hayodin ul tikib yerga iki ko'z.

Shukuhu hilmi aylab elni bevazn.  
Giyohu xasqa tog' ollida ne vazn.

Adab birla berib gohi javobi  
Ki, har lafzi aning durri xushobi.

So'zidin fahm o'lub aqlu kayosat.  
Yuzidin bilgurub fahmu farosat.

Bularg'a munda mundoq rasm, qonun  
Ki, chiqti bir g'ubori to'tiyogun.

Chu pechu tob birla avj tutti.  
Falak yo'qkim, quyosh aynin yorutti.

Dedilar: «Bu g'ubori surmamonand  
Ki, tutti charx kuhli birla payvand.

Hamono xo'blar sultoniningdur,  
Jamol avji mahi toboniningdur».

Bu yon go'yoki surmishdur takovar  
Ki, gardidin ko'runmas mehri xovar.

Ulusni surdilar ul suv boshidin,  
Ne suv, Farhod ila Bonu qoshidin.

Yana Farhodni titratma tutti,  
Isig' dam jismida qonin qurutti.

Mihinbonu kelib pand etti bunyod,  
Qasam Shirin boshidin aylabon yod

Ki: «Ey farzand, bir dam tut o'zungni,  
Dame asra ko'ngul birla ko'zungni!

Bu dam gar topsa hushung rishtasi pech  
Bo'lur bu necha yil qilg'on ishing hech.

Seni devonalig' gar qilsa mag'lub,  
Pari paykar bo'lur el ichra mahjub.

O'zungni asra bir dam, bo'lma g'oyib  
Ki, dahr ahli tilab topmas maoyib.

O'zungni ham, meni ranjurni ham.  
Parishon aylama ul hurni ham».

Bu yanglig' ko'p sabaq irshod qildi,  
Muassir ko'p qasam ham yod qildi.

O'zin zabt etkucha ul zori g'amkash,  
Yetishti telba boshig'a parivash.

Uzori birla o't olamg'a solib,  
Samandardek ulus o't ichra qolib.

Dema, yuz uzra zulfi anbarolud  
Ki, ul o't zohir aylab anbarin dud.

Hamul o't shu'lasi o'rtab jahonni,  
Bu dud aylab qaro yuz xonummoni.

Kamoli sur'atidin sarvi gulro'  
Ravon aylab uzori o'tidin suv.

Bo'lub fahm ul sudin ayni latofat,  
Ko'ngul elturga lekin seli ofat.

Yuzida xol o'lub gulbarg uza zog',  
Va yo ter ostida suv ichraki bog'.

Dema suvkim, ziloli zindagoni,  
Ne Xizru ne Sikandar topib oni.

Bo'lub g'alton latofatdin gul uzra,  
Sochib yuz qatra har dam sunbul uzra.

Sochi zulmotida yuz ming Sikandar,  
Itib dud ichra andoqkim samandar.

Takovar uzra ra'no qaddu andom,  
Balolar sochib, ofatlar qilib om.

Yuzi mehri niqob ostida pinhon.  
Nechukkim, oy sahob ostida pinhon.

Bu yanglig' yetti oshubi zamona,  
Samandi na'li sarko'bi zamona.

Dedi bedilg'a Bonukim: «Ravon bo'l,  
Ishingga ham qadam qo'y, ham uzot qo'l.

Bu ofatkim buyon solmish guzarni.  
Tushardin ul taraf asra nazarni.

Sanga garchi bu talqin bejihatdur,  
Va lekin holiyo bu maslahatdur».

Sitamkash Bonu ollida yer o'pti,  
Qo'lin Shopur tutti toki qo'pti.

Olib metin suv ochmoq etti bunyod,  
Yetishti ul sori huri parizod.

Boqar erdi arig'ning ichu toshin,  
Kulumsub tebratib har lahza boshin.

Oshib har ishda hayrat nozaning'a,  
Bo'lub qoyil payopay ofaring'a.

Paripaykarda so'z yo'q g'ayri tahsin  
Urub devona suv ochmoqqa metin<sup>6</sup>.

Sug'a orig' shikofin ochti chun chust,  
Burun novu mamarni bog'labon rust.

Chu ul yo'l bo'ldi xoro birla masdud,  
Bu yo'lg'a mayl qildi tezrav rud.

Arig' novi chu bo'ldi suv maqomi,  
Tegirmon novidek bo'ldi xiromi.

Xaloyiq ichra g'avg'o tushti har yon,  
Ulus ichra alolo tushti har yon.

Arig'ning ikki yonidin alolo,  
Nishot ahli tuzub dirno talolo.

Mug'anniylar iki yondin navosoz,  
Tuzub ul ro'd lahni birla ovoz.

Mihinbonu bila Shirin surub ot  
Ki, qasr ollig'a yetkaylar sudin bot.

Va lekin suv bo'lub andoq sabukrav  
Ki, yetmay girdig'a xingi sabukdav.

Yugurmakka ulus baskim qilib mayl,  
Yiqilib bir-biri ustida har xayl.

Qilib el keynidin ham po'ya Farhod,  
Ko'zi ul yonkim ul huri parizod.

Sumanbar chopib erdi o'n yig'och yo'l,  
Demaykim tuz, tamomi tog' ila cho'l.

Yana qaytib samandin surdi chun tez  
Yeti-sekkiz yig'och bo'ldi sabukxez.

Nasimekim, yuki siym o'lg'ay oxir  
Taharrukda anga biym o'lg'ay oxir'.

Aningdek bodpoyi tutti orom  
Ki, bosqon yerdin o'tmas bo'ldi bir gom.

Bor erdi sursa chirmoshib ayog'i,  
Paripaykar yiqilmoq xavfi dog'i.

Chu oshiq ongladi qilg'och taammul  
Ki, yeldin tushkudekdur yer uza gul.

Yer o'pmaklikka majnundek xam o'ldi,  
Quyosh ostida gardundek xam o'ldi.

Ko'tardi orqasig'a bodponi,  
Nechukkim, bodpo ul dilraboni?

Bir ilgi ikki qo'lin qildi mahkam,  
Yana bir ilgi ikki butlarin ham.

Aningdek po'yada ko'rguzdi ta'jil  
Ki, gardi surma bo'ldi mil dar mil.

Mihinbonu ani nazzora aylab,  
Topa olmay ilojin chora aylab.

Chu ikki-uch yig'och gom urdi shaydo,  
Bo'lub ollinda qasru havz paydo.

Qadamni qo'ydi qasr ayvoni sori,  
Salomat raxshi birla shahsuvori.

Turub ayvonda solim chun egib qad,  
Hamul turg'on su birla sarvi gulxad.

Boshig'a sarvning aylandi filhol,  
O'pub yer, zor yig'lab, yondi filhol.

Chiqib tog' uzra aylab ashkboron,  
Chekib un, o'ylakim abri bahoron.

Chu ul qildi bulutdek tog' uza mayl,  
Arig'din suv yetishti o'ylakim sel.

Labolab ul sudin chun havz to'ldi,  
Arig'lar dog'i molomol bo'ldi.

Bo'lub suv qasr atrofig'a doyr,  
To'kuldi dasht uza bo'lmoqqa soyir.

Ariqqa qo'ydilar «Nahr ul-hayot» ism,  
Falakvash havzg'a «Bahr un-najot» ism.

Ketur, soqiy, tag'ori bahr timsol,  
Qadah kishtisin ul may bahrig'a sol!

Arig' ichmak erur jonim hayoti,  
Tugatmak bahri may umrum najoti.

### XXXV

*Mihinbonu bila Shirinning Farhodni firoq xoro kamari etagidin domangir  
bo'lub visol atlasi charxi haramida to'qquz parda ichra mahram qilib  
ziyofat harir va hullalari uzra majlis tuzatmoqlari va o'n fanda o'n  
sohib kamol qizkim, asharai komila alar ta'rifidin ushri ashir bo'la olg'ay,  
aning qoshinda izhori fazl qilib o'zlarining qonidek, ya'ni yuzidek xijolat  
boshlarin quyi solmoqlari va Shirinning falak qasridin quyosh chiqqondek  
qasr hujrasidin chiqib mehri jamoli kavkabasi bila anjumanni ravshan  
qilmoqlig'i va Farhodi siyah sitora ollinda hiloliy jom aro shafaggun  
may tutub, aning ishq'i bila ichib o'z ishq'i bila anga ichurub,  
bir-birining bodai ishqidin mast bo'lub yiqilg'ontari.*

Guzorish suyidin bu havzi xoro.  
Bu yanglig' mavj qildi oshkoro

Ki, ul suv havz aro qilg'och tamavvuj,  
Ulusqa necha vaqt o'ldi tafarruj.

Mihinbonu bila Shirini g'amkash,  
Bo'lub ul mushkil ish itmomidin xush.

Buyurdilarki topti qasri zebo,  
Ayoqdin-boshqa tegru farshi debo.

Nishotu aysh o'lub imkondin ortuq,  
Sururu shodmonlig' ondin ortuq.

Valek ul oy uzorin oh tobi.  
Nazarda qilmish erdi mohtobi.

Base diltang edi bedil g'amidin,  
Bo'lub diltanglik hosil g'amidin.

Mihinbonug'a bas mushkil ish erdi  
Ki, mahvashning xayolin bilmish erdi.

Vale topmas edi bu ishga chora  
Ki, yondoshqay buluru sangi xora.

Chu ko'rdi itti bedil telbalikdin  
Pari paykar dog'i borur ilikdin.

Dedi mahvashqa: «K-ey jonimg'a payvand!  
Hazin jonim jamoling birla xursand.

Bu shaydovash yigitkim chekti ko'p ranj  
Ki, muzdi dast anga bor erdi yuz ganj.

Necha ko'p bo'lsa istig'nosi oning  
Yo'q ersa ganjdin parvosi oning.

Vale bizdin dog'i xushdur muruvvat  
Ki, bersak so'z bila ko'ngliga quvvat.

Anga taklif qilsak mehmonliq,  
Ikimiz zohir etsak mizbonliq.

Ani istarg'a el qilsak ravona,  
Tuzatsak bazmgohi xusravona.

Yasosoq sandali uzra maqomin,  
Qilib diljo'liq etsak ehtiromin.

Bular birla gar oni aylasak rom,  
Rioyat aylasak nekim erur kom.

Vagar qilg'onga bo'lmas mayli zohir,  
Qilurni qilmish o'lg'oybiz biz oxir.



Bular gar ko'ngliga bo'lmas tirozi,  
Xud o'lg'ay daf' elning e'tirozi».

Bu so'zdin lolarux guldek ochildi,  
Rujuin ham aning rayig'a qildi.

Mihinbonu ravoni hukm surdi,  
Nekim matlub edi, borin buyurdi.

Bilurlar erdi Bonu rasmu royin,  
Hamul dam topti bazm ashobi oyin.

Dedi Bonuki: «Ayvon ichra kunduz,  
Qo'yoli jomi may ichmak sori yuz

Ki, havz o'lsun nazar o'lig'a o'tru,  
Bu manzildin g'araz chun erdi bu suv.

Jahong'a mushk sepsa shomi dayjur,  
Qilib ravshan falakdek sham'i kofur,

Tutoli bir nafas qasr ichra orom,  
Vale orom tutmay tortali jom».

Iki-uch hushmandi nuktapardoz  
Yibordikim, qilib har yon taku toz,

Topib Farhodi zori benavoni,  
Keturgaylar bu majlis ichra oni.

Borib toptilar oni zoru mahjur,  
Balou dardig'a yo'q haddu maqdur.

G'amu andisha o'tining sharori,  
Sharori dardu mehnat beqarori.

Topib ko'rmaktin oni yuz malolat,  
Ravon qildilar izhori risolat.

Ayog'larig'a qo'ydi bosh yig'lab,  
Nechukkim sel to'kti yosh yig'lab.

Dedi: «K-ey nuktangiz jonimg'a ummid,  
Ne jon ummidi, balkim umri jovid.

Izingiz gardi toji iftixorim,  
Ne qilmoqqa mening ne ixtiyorim».

Eshitgach bo'ldilar xushdil ravona,  
Ani e'zoz aylab xusravona.

Ul o'ldi shah, bular xaylu sipohi,  
Anga tegruki erdi bazmi shohi.

Yetishgach Bonu aylab behad ikrom,  
Dedikim, kursi uzra tutsun orom.

Bajo kelturdi ul bemisl nodir,  
Nekim Bonug'a bo'ldi hukm sodir.

Ishorat aylag'ach Shopuri bedil,  
Ravon kursi tubida tutti manzil.

Chu kursi uzra manzil tutti Farhod,  
Mihinbonu takallum qildi bunyod.

Nekim imkoni bo'lg'ay husni taqdir,  
Ravo ko'rmay aning uzrida taqsir.

Bu ham har nav'kim anglab xitobin,  
Xijolatlar bila aytib javobin.

Chu mardumliq hadisi topti poyon,  
Ravon xon chektilar behad namoyon.

Chu qolmay ishtiho xonlarg'a boqi,  
Surohi kelturub majlisqa soqi

Tuzuldi o'yla bazmi xusravoyin  
Ki, ko'rmay o'yla charxi kajravoyin.

Surohilar mayidin ruh olib qut,  
Qadahlar har biri bir pora yoqut.

Bo'lub gulrang may moi maindek,  
Safou rangi la'li otashindek.

Bu la'lu zarfning yoqut jismi,  
Hisor shira bu maxzan tilismi.

Tilismi topqan el nogah ochilmoq,  
Havosi telbarab usruk yiqilmoq.

Mihinbonu ichib davron ayog'i,  
Chekib Farhod ila Shopur dog'i.

Ne majlis, bog'i rizvondin namudor,  
Ne boda, obi hayvondin namudor.

Ayoqchilar shakarguftoru dilband,  
Qilib dilbandliq birla shakarxand.

Mug'anniylar aningdek lahnparдоз  
Ki, jonlar pardadin raqs aylab og'oz.

Bu majlis ichra hozir o'n dilorum,  
Bori ham sarv qomat, ham gulandom:

Bo'lub Shirin bisotining nadimi,  
Alardin xush Mihinbonu harimi.

Kelib har qaysi bir fazl ichra mohir,  
Mahorat shevasi har birda zohir.

Biri ash'or bahri ichra g'avvos,  
Biri advor<sup>1</sup> davri ichra raqqos.

Biri mantiq<sup>2</sup> rusumida raqamkash,  
Biri hay'at<sup>1</sup> ruqumig'a qalamkash.

Birining shevasi ilmi haqoyiq<sup>4</sup>,  
Balog'atda<sup>5</sup> biri aytib daqoyiq.

Biri tarixda so'z aylab fasona,  
Biri hikmat<sup>6</sup> fani ichra yagona.

Hisob ichra birining zihni borib  
Muammoda' birisi ot chiqorib<sup>8</sup>.

Bu fanlarda bular bir-birdin ahsan  
Yuz ul fanliq aro har qaysi yakfan<sup>9</sup>.

Diloromu Diloroyu Diloso,  
Gulandomu Sumanbo'yu Sumanso.

Parichehru Parizodu Parivash,  
Paripaykar zihi o'n ismi dilcash.

Chu evruldi labolab davr ayog'i,  
Qizidi bazm yanglig' el dumog'i.

Mihinbonu kamol izhori aylab  
Daqoyiqdin savol izhori aylab,

Alarg'a aylagach juzvi ishorat,  
Padidor o'ldi yuz dilcash iborat.

Funun bozori ichra sho'r tushti,  
Atorudg'a degin g'avg'o yovushti.

G'aroyib ko'p qila boshladi zohir,  
O'zining fannida har sho'xi mohir.

Alarg'a chun taammul qildi Farhod,  
Unutqon nuktalarni ayladi yod.

Daler o'lmish edi may jur'atidin,  
Ne may, jomi payopay jur'atidin.

Ani chun tab'i poku zihni oliy,  
Qilib erdi zamon sohibkamoli.

Boqib ul sori tab'i ravshanidin,  
Savole qildi har birning fanidin.

Javobida sanamlar borcha ojjiz,  
Eshitmay o'yla mushkil nukta hargiz.

Alar chun shubhasig'a topmayin daf  
O'zi-o'q aylabon ul shubhani raf.

Fasohatda so'zidin qosir idrok  
Ki, har bir lafzi erdi gavhari pok.

Takallumni qilib chun nuktaparvard,  
Bo'lub bazm ahli aqlu hushidin fard.

Mihinbonu qolib hayron so'zidin,  
So'zin chun go'sh etib, borib o'zidin.

So'zidin zohir asrori Ilohiy,  
Jamolidin ayon anvori shohiy.

Yuzi oyini sog'ar lola aylab,  
Ul oyg'a sabzasidan hola aylab.

Mihinbonuki donishparvar erdi,  
Bilik ahlig'a shohi sarvar erdi<sup>10</sup>.

Muhaqqaq bildikim, ulkim yo'nar tosh,  
Qochurmishdur guharlig' tojdin bosh.

Shukuhi ollida topti o'zin past,  
Kalomi janbida ko'rdi so'zin past

Kishi gavharg'a jola aylasa ot,  
Ham oning gavharidin bilgurur bot.

Tushub taxt ustidin aylab tavozu',  
Qilib taxt uzra ul chiqmoq tavaqqu'.

Ul aylab ko'p tazallumlarki, Bonu  
Nekim der jonima minnat, magar bu.

Balo tog'ini mujgon birla yormoq,  
Yorib tirnoq ila yerdin qo'ngormoq.

Buyursa bo'lmag'um andin haroson  
Ki, bu ishdin erur yuz qatla oson.

Gadou saltanat taxti yiroqdur,  
Anga tufroq uza yer yaxshiroqdur.

Chu Bonu ko'rdi bepoyon ibosin,  
Yana istab aning ko'ngli rizosin.

Dedi: «Taxt uzra gar tutmassen orom,  
Manga yer uzra o'lturmoq erur kom».

Buyurdi oldilar taxti murassa',  
Yer uzra soldilar farshi mulamma'.

To'shalgach bu bisoti komroni,  
O'zi o'lturdi, lek o'lturtub oni.

Yana chun jomi may bo'ldi ravona,  
Guharrez o'ldi Farhodi yagona

Dema yolg'iz bo'lub so'zdin guharposh  
Ki, so'zcha yuz iki ko'zdin guharposh<sup>11</sup>.

Ul oy hijronidin jonida oshub,  
G'amidin charx ayvonida oshub.

Pari xud pardaning keynida hozir,  
Bo'lub majmui ahvolig'a nozir.

Sirishki tinmayin oqib ko'zidin,  
Gah o'zida, gahi borib o'zidin.

Pari yanglig' nazarlardin nihoni,  
Ko'rub ul elniyu, el ko'rmay oni.

Vale Bonu tutub ko'z uchidin pos  
Ki, xorokan nechuk yumshatmish olmos.

Munung ashki gahi boshidin oshib,  
Gah oning ohidin olam tutoshib.

Dedi ko'nglida Bonukim: bu g'amnok  
Ki, mundoq mumkin ermas gavhari pok.

Manga xud barcha holi bo'ldi ravshan  
Ki, qilmish rostliq — ish, poklik — fan.

Chu yo'qtur bir nazar qilmoqqa tobi,  
Chiqorg'a yovushur joni xarobi.

Malakdur kelgan inson suratida,  
Malakvashliq mubarhan hay'atida.

Bu holat ichra har nav'i gumondin  
Emas mumkin xayoli fosid ondin.

Bukun qilg'ay xilofi poklig' ul,  
Emas bermak ravo imkong'a ham yo'l.

Anga ko'zu ko'ngul juz pok emasdur,  
Nazarda pok ko'zdin bok emasdur.

Kuyar shavq o'tidin joni asiri,  
Erur yerida bo'lsam dastgiri.

Bu muhlik g'amda chiqsa joni oning,  
Yaqin bo'ynumg'a bo'lg'ay qoni oning.

Dedikim: «Xo'blar shohig'a ayting,  
Malohat avjining mohig'a ayting

Ki, bir dam mizbonliq rasmi tutsun,  
Yuzidan mehmon ko'zin yorutsun!

Labidin jong'a qilsun mizbonliq,  
Yuzidin ko'zga etsun mehmonliq!»

Sumanbar<sup>12</sup> xud eshitur erdi oni,  
Bo'lub bu nuktadin osuda joni.

Xiromon bazm aro bo'ldi ravona  
Ki, qo'zg'oldi xiromidin zamona.

Yuzinda mehr o'tidin asarlar,  
Ko'zida ashk selidin xabarlar.

Ko'zidin hajr arokim ashki borib,  
Bori mujgon sinonlarin suvorib.

Qilib Farhod metini kibi tez,  
Bo'lub ul xorarez, ammo bu xunrez.

Og'izdin ohikim kam bo'lmayin hech,  
Bu yel zunnori zulfidin ochib pech

Ki, har tori yuz imon aylagay band  
Ki, qilg'ay kufr zunnorig'a payvand.

Uzori o'tig'akim ashk urub suv,  
Ulusning kuymagin ko'prak qilib bu.

Qoshindakim girih zohir qilib g'am,  
Yangi oy fitnaliq andoq kelib kam.

Jamolidin qo'yub davrong'a minnat,  
Tutub davron bu ishdin jong'a minnat.

Uzoridin qilib davronni ravshan,  
Qoshidin toq ila ayvonni ravshan.

Solib o't jong'a la'li otashini,  
Jahong'a chehrai burqa'nishini.

Chiqarg'ach pardalarning keynidin chehr  
Nechukkim to'rt burqa' ostidin mehr<sup>13</sup>.

Qo'pub bazm ichra el qo'zg'oldilar bot,  
Aningdekkim, quyosh chiqqonda zarrot.

Bir o't Farhodi besomong'a tushti  
Ki, jismin pok o'rtab, jong'a tushti.

Ko'zi tushgach ul oyga, chekti bir oh  
Ki, dudidin qorordi yetti xirgoh<sup>14</sup>.

Yaqin erdiki, tarki hush qilg'ay.  
Yana behushlar yanglig' yiqilg'ay.



Vale may zo'ri bo'ldi dastgiri  
Ki, hushin ayladi farmonpaziri.

Maqomin yonida ko'rguzdi Bonu,  
Kelib o'lturdi ul zonu-bazonu.

Quyosh chun tutti oy yonida manzil,  
Ham o'z o'rnida manzil tutti bedil.

Chu yerliq o'z yerida tutti orom,  
Ayoqchilar payo-pay tuttillar jom.

Labolab necha sog'ardin parivash,  
Chu o'z devonasidek bo'ldi sarxush.

Hijobi boda zo'ridinki ketti,  
Pari izhori insoniyat etti

Ki, ey olam elidin fardu nodir!  
Kelib zoting bori qudratda qodir.

Hunarda zerdasting borcha olam,  
Hunar yo'qkim, kamolu fazl aro ham.

Kishikim, qilsa ta'rifing xayoli,  
Quyosh ravshan demaktur, charx — oliy.

Balodin asrasun davron taningni,  
Ne yolg'uz tanki, joni purfaningni.

Yo'lungda ganj agar solg'oybiz oxir,  
Qayu uzring qo'la olg'oybiz oxir.

To'kub mahvash bu yanglig' durri shahvor,  
Qolib bedil nechukkim naqshi devor.

Parivash bo'ldi chun mundog' guharposh,  
Ayoq tutmoq uchun qo'pti urub bosh.

Ul o'n qizkim o'n ishda erdi mohir,  
Tutub har qaysi bir xoni javohir.

Parivashning qayon bo'lg'och xiromi,  
Sochib bir xonni har yon tushsa gomi.

Nisori la'lu dur sharh aylagoncha,  
To'kub Farhod xud ko'zdin yuz oncha.

Pari ul shakl ila bir-bir qo'yub gom.  
Kelib majnun qoshida tutti orom.

Dedi la'lig'a olib la'li ahmar<sup>15</sup>:  
«Sening ishqingda no'sh ettuk bu sog'ar!»

Sumurdi uyla shamshodi qasabpo'sh  
Ki, mundin oldi oning ichkani hush.

Ichib jomi labo-lab tutti ul dam  
Ki: «No'sh etkil mening ishqimda sen ham!»

Iki hol ul may ichra hosil erdi  
Ki, ham hayvon suyi, ham qotil erdi.

Chu oshiq may isidin bor edi mast,  
Ajab soqiyg'a ko'rkim bo'ldi hamdast.

Olib sipqordi andoq bexudona  
Ki, sog'ar naqshidin ketti nishona.

Bu sog'ar bo'lsa erdi jomi aflok,  
Qo'yub og'zig'a sipqorg'ay edi pok.

Vujudi naqshi ko'nglidin yuvuldi,  
Ko'ngul nangi vujudidin qutuldi.

Qilib o'zni xalos o'zluk g'amidin,  
Ne o'zluk, balki yo'qluq olamidin.

Ayog'ni topshurub fardi zamona.  
O'zin tufroqqa soldi bexudona.

Boshi chun ul sanamni sajda etti,  
Bu olamdin yana olamg'a ketti.

Ko'tarmak istadi hoshin parizod,  
Yiqildi jismi, ketmish erdi Farhod.

Bu shirin hol chun nazzora qildi,  
Aning yonida Shirin ham yiqildi.

Ikisin og'zig'a tutqonda mir'ot,  
Nafasdin hech asar yo'q erdi. hayhot.

Ketur soqiy, manga mir'oti joni  
Ki, anda topqamen jonon nishoni!

Chu jonon aksi ko'rguzgay bu ko'zgu,  
O'zumdin borg'amen ul nav'kim suv.

### XXXVI

*Farhod bila Shirin may visolidin, balki visol mayidin birhol, balki behol bo'lg'onlari va charxi kabud, balki davri hasud soqiysi alarning aysh sog'ari, balki sog'ari ayshig'a zahri hirmon, balki behush doruyi hijron qo'shqoni va Xusravi Parvez Shirinning shakarlablar shohi erkanin bilib, visoli no'shin ko'ngliga shirin qilib, shirin maqol elchidin chuchuk so'zlar aytib yiborib, Shirin labi jullobidin kom orzusin shakarrez qilur muddao qilg'oni.*

Raqam qilg'on bu so'zu dard rozin,  
Aningdek chekti bu paykar tirozin

Ki, chun bazm ichra ul ikki sitamkash,  
Yiqildilar tana'umdin qilib g'ash.

Yana bazm ahli tortib ohu nola,  
Bag'ir qoni bo'lub ichgan piyola.

Ko'tardilar ravon mahvashni bir yon,  
Yana ul bedili g'amkashni bir yon.

Anga bir uyda solib bistari noz,  
Kelib yotquzdilar huzn aylab og'oz.

Yana bir uyda yer solib nihoni,  
Yig'ishturdilar ul ko'hi baloni.

Visol ichra yetishmay oshnolig',  
Falak soldi aro yerda judolig'.

Tong otquncha ikov behol edilar.  
Mashaqqat xaylig'a pomol edilar.

Chu tebrandi nasimi subhgohi,  
Sahargah o'ylakim Farhod ohi.

Falakni tun g'uboridin supurdi,  
Ne tun, savdo tutunin dog'i surdi.

Ul ikki ishq savdosida madhush,  
O'ziga keldilar aylab madad hush.

Xijolatdin qo'pub Farhodi diltang,  
Baliyat tog'i sori qildi ohang.

Paripaykarda xud bir sa'b holat  
Ki, aylab jonining qasdi malolat.

Mihinbonuni ojiz aylab ul hol,  
Bo'la olmay ul ishda forig'ulbol.

Ne bedil tarkini tutmoqqa xushnud,  
Ne mahvashqa nasihat aylabon sud.

Desakim bermayin bedilg'a quvvat,  
Taqozo qilmay insofu muruvvat.

Ko'p o'lsa mehribon xudkomlig'din,  
El ichra vahm etib badnomlig'din.

Vale chun bilmish erdi ishq pokin,  
Bu yanglig' ishq aro dardi halokin.

Tilab har necha kunda bir dam oni,  
Ichib bir necha jomi komroni.

Chu mahvash ilgidin aylab qadah no'sh,  
Bu ham behush o'lub, ul dog'i behush.

Yana ul hushig'a kelgach tutub tog',  
Muning jonig'a qolib yuz tuman dog'.

Bu yanglig' voqi' erdi muddati hol,  
Yetishmay hol bo'lmoq erdi behol

Ki, nogohon sipehri bemaduro,  
Ajab mansuba qildi oshkoro.

Bu tarix ichra mag'rib hukmroni,  
Ne mag'ribkim, jahon kishvarsitoni.

Ajam birla Arab mulkida dovar,  
Arab birla Ajamg'a shohu sarvar.

Shahi erdiki derlar oni Xusrav,  
Mutii amri garduni sabukrav.

Jahon mulkin tutub xaylu sipohi,  
Madoyin' mulki oning taxtgohi.

Nasabda topibon Kisrog'a payvand,  
Qayu payvand, farzandig'a farzand.

Baqo mulkiga chun Kisro<sup>2</sup> qo'yub yuz,  
Berib ziynat aning mulkiga Hurmuz<sup>3</sup>.

Chu Hurmuzning bo'lub ul yon xiromi,  
Bo'lub Parvez aning qoyim maqomi.

Oti Xusrav, laqab otig'a Parvez<sup>4</sup>,  
Bu otu bu laqab shuhrat qilib tez.

Ulusqa irs birla hukmron ul,  
Atodin to ato xusravnishon ul.

Bilibkim, mulk anga yetmish qazodin,  
Nekim yetti ato, yetmish atodin.

Qayu birkim qo'yub oyini ra'fat,  
Xalafqa topshurub taxti xilofat.

Yaqin anglabki davroni kuhangard,  
Anga ham tutqusi bu sog'ari dard.

Chu nogah xoli o'lsa umri jomi,  
Keraktur bir xalaf qoyim maqomi.

Agarchi aqdi zavj aylab mukarrar,  
Bo'lub erdi anga gavhar muyassar.

Va lekin ermas erdi loyiqi toj  
Ki, bo'lg'aylar anga toj ahli muhtoj.

Nikoh ichra tilar erdi takarrur  
Ki, topqay tojg'a shoyista bir dur.

Topib bu ishda chun aylab taammul  
Ki, sho'ra xas qilur zohir, chaman gul.

Bulutdin obi hayvon gar topar bahr,  
Bo'lur albatta pur xarmuhrag'a zahr.

Vagar xud ichsa suv o'rnida zahrob,  
Chamanda gul butar, lavnida yuz tob.

Gar o'lsa tarbiyat kam yo ziyoda,  
Tabiat aylamas tag'yir zoda.

Xirad dehqoni mundog' nuktaye der:  
«Ki dona sochqoli yaxshi kerak yer»<sup>4</sup>.

Bu ma'ni ko'nglida chun topti orom,  
Bo'lub bu komning keynicha nokom.

Mamolik ichra munhilar uzotib,  
Aningdek bir samin gavhar so'rotib

Ki, silki izdivoji ichra chekkay,  
Agar gul eksa, gulzor ichra ekkay.

Bu avqot ichra bo'lmish erdi mashhur  
Ki, olam ichra kelmish ravzadin hur.

Ne hurekim, yurub qilg'och takallum,  
Uyotdin tuboyu<sup>6</sup> Kavsar<sup>7</sup> bo'lub gum.

Quyosh bo'lmish falakdin yerga nozil,  
Va lekin tutmish Arman ichra manzil.

Ul oydin yorumish ul xittai pok,  
Quyoshdin o'ylakim bu markazi xok.

Kishiga o'xshamas go'yo paridur,  
Pari yo'q, oftobi xovaridur.

Nasabda jaddi a'lo anga Jamshed,  
Hasabda so'ngg'i mavlo anga xurshed.

Bo'lub oshuftasi nodir misoli,  
Bori fanlar aro sohibkamoli.

Uzub eldin aning ishqida payvand,  
Ne ul elga va ne el onga monand.

Huvaydo haykalida ko'htanlik,  
Qilur ashg'oli holo ko'hkanlik.

Demakim tesha birla ko'hkan ul  
Ki, zarbi dast ila xoroshikan ul.

Vale tortib fig'on chekmakdin ohe,  
Bo'lub ko'hi tani andoqki kohe.

Ko'rub ondin bu yanglig' notavonlig',  
Pari paykar ham aylab mehribonlig'.

Agar ma'shuq erur fardi zamona,  
Bu oshiq ham erur fardi yagona.

Yoyildi elga chun bu amri matbu',  
Magar Xusravga dog'i bo'ldi masmu'<sup>8</sup>.

Ul oy avsofini ahli zamondin,  
Eshitur erdi bal yaxshi-yamondin.

Harorat ko'ngliga solmish edi jo'sh,  
Taraddud jonin etmish erdi madhush.

Xayolida kecha-kunduz ul erdi,  
Tilida kecha-kunduz so'z ul erdi.

Vale mavquf edi munhilarig'a  
Ki, ne kelgay alar inhilarig'a<sup>9</sup>.

Alar ham har tarafdin onglabon hol,  
Kelibon qildilar bilganni irsol.

Birikim bor edi Armang'a ozim,  
Bor erdi xalq aytur so'zg'a jozim

Ki, shah mahdig'a loyiq ul paridur  
Ki, Arman mulki oning kishvaridur.

Yana har kimki har yon bormish erdi,  
Yuz urg'on mulkni axtormish erdi.

Dedi bori oning ovozasidin.  
Sadoyi husni beandozasidin

Ki, olam ichra jannat huri uldur,  
Quyosh yanglig' jahon mashhuri uldur.

Eshitgan birla Xusrav moyil erdi,  
Bular kelmak g'arazg'a hoyil erdi.

Chu tush-tushdin bu so'zlar bo'ldi paydo,  
Havas bir yo'li ko'nglin qildi shaydo.

Burun qildi muni ko'ngli aro jazm  
Ki, Arman sori filhol aylagay azm.

Solib ul gulsiton sori guzarni,  
Kiyurgay qo'lg'a sarvi siymbarni<sup>10</sup>.



Yana qildi taammul saltanatdin  
Ki, shahlig'dur munofi ul sifatdin.

Buzurg Ummid edi yoru nadimi,  
Ulus donosiyu olam hakimi.

Bilib ravshan samakdin to samo ul,  
Anga har mushkil ishda rahnamo ul.

Ani xilvatda chorlab ochti rozin,  
Sumanbar ishqidin so'zu gudozin.

Chu qildi borcha sirin oshkora,  
Tavaqu' ayladi ul ishga chora.

Hakim ul nav' muztar ko'rgach oni,  
Taammul aylabon mumtad zamoni

Dedi: «Bok ermas, osondur bu tadbir,  
Mizojing topmayin bu ishda tag'yir.

Muayyan aylagil ravshan zamire,  
Risolat shevasida benazire.

Ichi durri maoni birla purjo'sh,  
Sadaf yanglig' va lekin og'zi xomush.

Sadafdek chunki og'zin ochqay oxir,  
Hadis o'rnig'a gavhar sochqay oxir.

Anga ham taqvo o'lsun, ham asolat,  
Mihinbonug'a yetkursun risolat.

Saloming birla aylab oni e'zoz,  
Debon vuslat so'zin qilsun sarafroz.

Agarchi arzi johu rif'at etkay,  
Vale boshi bu so'zdin ko'kka yetkay.

Eshitmishmenki, Bonu kordondur,  
Paripaykar dog'i bisyordondur.

Chu savdo topsalar bu nav' mavjud,  
Ilkdin bermagaylar bu sifat sud.

Yaqinkim, aylab ul ishdin mubohot,  
Yiborgaylar risolat noqilin bot.

Javobu muddao topsoq muvofiq,  
Qiloli fikrin oning anga loyiq.

Vagar xud ochsa uzr aytur sari qo'l  
Ki, aslo aql xud bermas anga yo'l.

Sangakim borcha ishga dastrasdur  
Aning fikri dog'i dushvor emasdur».

Chu arz etti so'zin donoyi davron,  
Pisand etti borin doroyi davron.

Topib andoq kishikim bo'ldi mastur,  
Qilib bu muddaokim bo'ldi mazkur.

Rasuli kordon so'zning tamomin,  
Chu qildi fahm, tez etti xiromin<sup>11</sup>.

Kecha-kunduz demay borur edi yo'l,  
Qadam qo'yg'uncha Arman mulkiga ul.

Ketur soqiy, qadahkim komim uldur  
Ki, ollimda ajab dushvor yo'ldur.

Ne bir sog'arki, sog'ar tut payopay  
Ki, bu vodiyni hexud tay qilay, tay.

### XXXVII

*Xusrav elchisi Arman kishvarig'a yetgona va Mihinbonu munhiylariga muddaosin zohir etib, Bonu ani ko'rarga bazmi saltanat qurg'oni va Hudhud Bilqis ollinda o'lturg'ondek rasulning Bonu qoshinda o'lturg'oni va Sulaymoni zamon risolatin qushlar tili bila arz qilg'oni va tovusni Anqo' juftlug'ig'a so'z solg'oni va Bonuning bahona domin ochqoni va hiyla donasin sochqoni va ul ziyrak qushning bu dona va domdin ram qilib*

*qochqoni va farog'bol hosil qilmay qahramonlig' Qofig'a ketgoni va ul  
Qof Anqosi bu ma'nidin g'azab minqori bila qahr changolin tez etgoni.*

Bu vodiy qat'ida qilg'on sayohat,  
Bu yanglig' qildi izhori fasohat

Ki, chun Armang'a yetti homili roz<sup>2</sup>,  
Bo'lub ko'nglida yuz turluk fusunsoz.

Xabar yetkurdilar Bonug'a navvob  
Ki, davlat bu taraf bo'lmish inontob.

Rasule qasru toqi Kisraviydin,  
Ne Kisrokim, bisoti Xusraviydin.

Kelibdur aqldek boshtin-ayoq hush,  
Takallum vaqti go'yo, yo'qsa xomush.

Solib Bonu quloq ul mojarog'a,  
Tushurmak hukm etib mehmonsarog'a.

Ko'p aylab aklu shurb ichra zarofat,  
Buyurdi ulcha imkoni ziyofat.

Yibordi nuktadoni hushmand el,  
Daqiq idroklik mushkilpisand el

Ki, noziklik bila aylab qiyosin,  
Nekim bor onglagaylar muddaosin.

Qilib ma'lumi ul xayli yagona,  
Bo'lub dargah bisotig'a ravona.

Qilib arzida izhori xijolat  
Kim, ul xijlat-o'q aylab arzi holat.

Mihinbonu bilibkim, charxi soyir  
Yana ne bulajab la'b etti zohir.

Dedikin: «Tongla asrab bor' chog'in,  
Muhayyo aylangiz ko'rmak yarog'in.

Ko'ray e'zoz ilakim mehmondur,  
Ulug' yerdin yetishgan kordondur.

Manga ma'lumi chun bo'ldi xitobi,  
Degaymen har nekim bo'lg'ay javobi».

Eshitgach hukm, yer o'ptilar ul xayl,  
Chiqib hukm o'lg'on ishga qildilar mayl.

Tushub Bonu tafakkur olamig'a,  
Tafakkur yo'q, tahayyur olamig'a.

Desa zohir qilay ul ish rizosin,  
G'animat onglabon davlat asosin.

Kelib yodig'a Farhodi sitamkash,  
Hazin ko'ngli bo'lur erdi mushavvash.

Bu so'z raddin qilurg'a bo'lsa mashg'ul,  
Topilmay hech nav'i uzri ma'qul.

Desa Xusravni o'zdin kam emastur,  
O'zin tengsiz desa, ul ham emastur.

Agar farzan, o'zi bo'lsa rizomand,  
Bo'lurmu rozi ul sho'xi shakarxand?

Agar kuch birla bo'lsa oy rizosi,  
Ne bo'lg'ay bu rizoning intihosi?

Vagar qilsa ibo tarhini bunyod,  
G'azanfardin yetar jayranga bedod<sup>4</sup>.

Harif ermas yoling'a hulla chandon,  
Ushotur shisha yuz ming bo'lsa sandon<sup>5</sup>.

Bu ma'nida base aylab madoro  
Ki, yaxshi uzre etkay oshkoro.

Taxayyul tuxmini yuz nav' ekti,  
Ham oxir oyni ul roy ichra chekti

Ki, gardundin bu ish voqe' durur bil,  
Yamon gar yaxshisin ham fikrini qil.

Eshitgach qissani huri parizod,  
Qo'yub tufrog' uza yuz, qildi faryod

Ki: «Ey na'layning o'rni qiblagohim!  
Harimi nazhating g'amdin panohim!

Necha yetkay sanga mendin malolat,  
Necha kelgay manga ondin xijolat.

Boshimg'a tig'i g'am sursang ne bo'lg'ay,  
Bu so'z deguncha o'ltursang ne bo'lg'ay.

Meni hindudek otashgahg'a boshla,  
Uzorim xolidek o't ichra tashla

Ki, jismim bo'lsa ul o't ichra nobud,  
Sochimdek chiqqay ondin chirmanib dud.

Malolimdin bari olam qutulsin,  
Tanim yuz ming balodin ham qutulsin.

Manga Farhod ishqiy tuhmati bas  
Ki, chehram ko'rmayin ul zoru bekas.

Yiqilmoqdur shiori oh tortib,  
Ko'nguldin nolai jonkoh tortib.

Qulog'i mustami' bo'lmay so'zumga,  
Ko'zi oylar o'tub tushmay yuzumga.

Tog' ichra sel yanglig' oqizib yosh,  
Urub tosh uzra hardam seldek bosh.

Xayolim birla ko'nglin qone' aylab,  
Firoqim ichra umrin zoye' aylab.

Yuzumdin didai giryoni mahrum,  
Visolimdin balokash joni mahrum.

Qolib men ham yiroq ul notavondin,  
Nechukkim mendin ul, men dog'i ondin.

Bu bizga holu yuz nav' eida shuhrat,  
Ne yuz shuhratki, yuz ming nav' tuhmat.

Manga ne yoru ne oshiq havasdur,  
Agar men odam o'lsam ushbu basdur!<sup>6</sup>

Agar Bonu iloji bilsa qilsun,  
O'zumni o'ttururmen yo'qsa bilsun!»

Mihinbonu ani chun bo'yla ko'rdi,  
Yuziga darddin ashki yugurdi.

Ko'ngulga chora tarhin soldi filhol,  
Ko'ngul berdiyu, ko'nglin oldi filhol.

Dedi: «Ey ko'rmagingdin ko'ngluma kom!  
Huzuringdin hazin jonimg'a orom.

Ne so'z kim sen deding jonimg'a yoqti.  
Hadising joni pajmonimg'a yoqti.

Sanga bori so'zingda muttafiqlan,  
Muhiq sen-sen dog'i, men ham muhiqlan.

Sen emdi g'am yema, ko'nglungni xush tut,  
Tarab birla o'zungni bodakash tut.

Tuzub men tongla jashni xusravona,  
Qilay elchini uzre deb ravona».

Degan miodi birla oni ko'rdi,  
Talattuf birla yo'l ranjini so'rdi.

Yana Xusravg'a ham aytib duolar,  
Base so'rdi debon madhu sanolar.

Quyi solib suxanvar farqi taslim.  
Qo'pub aylab anga shoyista ta'zim.

Ko'rub ul xusravona taxtu avrang,  
Anga loyiq shukuhu hushu farhang.

Nihon ko'nglida yuz ming ofarin deb,  
Hasabda loyiqi toju nigin deb.

Chu bazm oyinig'a bo'ldi nihoyat,  
Anga in'omlar aylab bag'oyat.

Ijzat berdi ta'zim aylabon ko'p,  
Dedi shahg'a duolar aytu yer o'p.

Yana deb zohir etgach muncha savlat  
Ki, degaylar javob arkoni davlat.

Payomovar chu topti so'zga anjom,  
Yer o'pti, dog'i qo'ydi tashqari gom.

Tilab navvobni Bonu ravone,  
Alarg'a sharh qildi dostone.

Ki: «Ayting bu rasuli kordong'a,  
Ki, desun Xusravi Kisonishong'a

Ki, payg'omiki bu jonib yibording,  
Niyoz ahlini tufrog'din ko'tording.

Chekib tufrog'ni charxi axzar uzra,  
Chiqording zarra mehri xovar uzra.

Vale tole'g'a chun yo'q ro'yi behbud,  
Sen ar yuz muncha qilsang lutf ne sud.

Agar yuz yil bu ishga yesam armon,  
Chu bu dardimg'a darmon yo'q, ne dermon.

Bizing birlaki sen vuslat qilursen,  
Sharafdur bizga bu, sen ham bilursen.

Vale voqi' durur bir turfa holat  
Ki, bor oni demaktin ham xijolat.

Vale har neki Tengri qilsa taqdir,  
Kishiga yo'q rizodin o'zga tadbir.

Budur so'z hosilikim, bu qamarchehr  
Ki, oning sori garm o'lmish sanga mehr.

Hunardur garchi boshdin to ayog'i,  
Va lekin bor durur bir aybi dog'i

Ki, juft otin qoshida tutsa bo'lmas,  
Bu so'zning girdiga yovutsa bo'lmas.

Eranlardek erur da'bu shiori,  
Chopib, o'q otib, o'lturmak shikori.

Kishiga yo'q bizing el ichra yoro,  
Anga qilmoq bu so'zni oshkoro.

Kim etsa qoshida bu so'zga madxal,  
Magarkim kechgay o'z jonidin avval.

Anga bu ayb bermish Koshifi G'ayb,  
Ne Haqdin bo'lsa, bo'lmas aylamak ayb.

Yo'q ersa ul bani odam parisi,  
Quyoshedurki, ko'ptur mushtarisi?

Angakim o'lsa olam xalqi mushtoq,  
Nechuk ul juftdin qolg'ay edi toq.

Jihat bu erdikim bu kunga tegru,  
Uy ichra qoldi ul gulchehra mahro'.

Chu shahni aybimizdin qilduk ogoh,  
Nekim hukm aylasa hokim durur shoh».

Tugatgach so'zni Bonuyi zamona,  
Qo'pub navvob, eshitgach ul fasona.

Payomovarg'a ochib pardai roz,  
Barisi bo'ldilar afsonapardoz.



Javobida o'zin ojiz topub ul,  
Qo'pub, kelgan sari tutti ravon yo'l.

Chu yetti anda, mundin har ne bildi,  
Ravon Xusrav qoshida arza qildi.

Eshitgach tund o'lub doroyi dovar,  
G'azabdin qilmadi ul so'zni bovar.

Yana bir tundroq elchi yibordi,  
Aning dog'i javobi bo'yla bordi.

Necha qatla borib keldi rasuli,  
Muyassar bo'lmadi maqsad husuli.

G'azab ul nav' garm etti dimog'in  
Ki, dudi tiyra qildi kun charog'in.

Dedi: «Holim mening ul yerga yetti  
Ki, bu nav' el so'zumdin nafrat etti.

Yaqindurkim bu bema'ni fasona,  
Erur boshtin-ayog' makru bahona.

Manga bas ermas erdi bu qadar nang  
Ki, qilg'oymen alarg'a o'zni hamsang.

Eshitmaklik kerak bu mojaro ham,  
Ki, qilg'aylar alar so'zdin ibo ham.

Erur o'z baxtig'a bermak nigunluq,  
Zabunlarga ayon qilmoq zabunluq.

Nega xud chiqmasun sung'ur jahondin,  
Ko'rub shavkat sadosi mokiyoundin?

G'azanfar xud netar changolu yolin,  
Chekar bo'lsa tishi o'yning maholin.

Agar umr o'lsa ul ayyoralarg'a,  
Demay ayyorakim, makkoralarg'a.

Sitamdin yetkuray andoq sazoye.  
Solay kishvarlari ichra baloye

Ki. qayda bor esa bir hiylapayvand,  
Qiyomatg'a dekin bo'lg'ay anga pand».

Bu so'zlarni dehon azm ayladi bot,  
Sipahlar tortibon hayhot-hayhot!

Kerak ishq ahli qul bo'lmoq bu so'zga  
Ki. «shahliq o'zgadur, oshiqliq o'zga»<sup>8</sup>.

Ketur, soqiy, qadah ogohliqdin  
Ki. andin jur'a xushroq shohliqdin!

Ichib may, saltanat ilmay ko'zumga.  
Qilay zulm, elga qilg'uncha, o'zumga!<sup>9</sup>

### XXXVIII

*Xusravning Shirin soridin kelgan talx javoblaridin achchig'lanib qalin sipoh chekib, Arman viloyatig'a sho'ru g'avg'o solg'oni va Mihinbonu Armaniya qo'rg'oninkim, har burji rif'atda sekizinchi hisorning o'n ikki burjidan bosh o'tkarib, har kungirasi to'qquzunchi hisn uchig'a xisht yetkurub erdi berkitgoni va Xusrav qal'a tegrasin evrularda Farhodni qayo ustida ko'rub tutmoq xayoli qilib Farhodning til xaroshi bila aning bag'rig'a nish sonchib, ko'ngliga tig' urmog'i va ilik toshi bila boshidin xudin va alami boshidin mahhasin uchurmog'i va Xusravning tug'i boshsiz va boshi xudsiz o'rdusig'a surmoki va cherigin qo'rg'on sori ko'churmoki.*

Maoni xaylini qilg'on murattab,  
Bu maydon ichra mundoq surdi markab

Ki, chun surdi sipah Armang'a Parvez,  
Nizou qahr tig'in aylabon tez.

Ne o'rdusig'a bor erdi kanora,  
Ne ul o'rduning ahlig'a shumora.

Sipah gardi qarortib kun charog'in,  
Mushavvash aylabon gardun dimog'in.

Sipohi chekti ko'rguzmakka bedod  
Ki, bermas olami bedodgar yod.

Necha kun chun manozil qat' qildi,  
Cherik Arman savodig'a yoyildi.

Xabar Bonu sori yetkurdi har xayl  
Ki, tutti borcha Arman mulkini sel.

Qayu bir selikim, daryoyi ofat,  
Qayu daryoki, to'foni maxofat.

Anga xud bu ish ermas erdi mubham,  
Burundin ishni qilmish erdi mahkam.

Hisorin royu harfi qal'adori,  
Qilib mahkam nechukkim ko'k hisori.

Ne qo'rg'on, bir hasinu berk qo'rg'on,  
Falak hisnini arkidek yashurg'on.

Samon oshlig' toshig'on yo'l nishoni,  
Falak yanglig' yonida Kakhashoni.

Tutub har kungiri keynida orom,  
Muborizshevaye andoqki Bahrom.

Chiqib boru anga gardung'a tegru,  
O'tub xandaq yana gardung'a tegru.

Yazak qilsa tutub ul avj bora,  
Kecha xandaq suyi sori nazora,

Quyi kavkabni ko'rguzgay safodin.  
Kavokib aksi tushgandek samodin.

Bu mahkamliq bila oncha zaxira  
Ki, idrokida qolib aql xira.

Suhovash donasin dastosi gardun,  
Ming yil davr etsa bo'lmay tortmoq un.

Hamaldek qo'zi yuz mingdin ziyoda,  
Uy anda savr yanglig' pada-poda'.

Yana har jinsi kiymak yo yemakdin,  
Bo'lub kasratda mustag'ni demakdin.

Bo'lub Bonuyi korogahg'a pesha,  
Hisor ahlini zabt etmoq hamesha.

Paripaykar bila Bonuyi sardor,  
Qilib Farhodni dog'i xabardor.

Anga zohir etib ul ish qiyosin,  
Qilib qo'rg'onga kirmak iltimosin.

Parining so'zini ul yerga solmay,  
Parining xotiridin kecha olmay,

Qo'yub nokomdin qo'rg'on sori gom,  
Vale toshqori tutmish erdi orom.

Topib ul qal'aning toshida bir tosh<sup>2</sup>,  
Kim ul ko'k qal'asidin o'tkarib bosh.

Tutub erdi aning ustida maskan  
Ki, bo'lg'ay razm vaqti xoraafkan.

Kelib Xusrav ham aylab jahdu ta'jil,  
Yiroqroq tushti qo'rg'ondin yarim mil.

Adaddin ko'p sipohin chun tushurdi,  
Tamosho aylay Arman sori surdi.

Humoyun mavkibida ming dilovar,  
Aning birla surub ul yon takovar.

Hisor atrofida solib nazar tez,  
Bo'lub har lahza nav'i fikratangez.

Nazora aylar erdi har zamone,  
Ko'rar erdi yer uzra osmone<sup>3</sup>.

Ne topib olmog'i sa'yida behbud,  
Ne kelmakdin pushaymonliq etib sud.

Tutub Farhod ul tosh uzra manzil,  
Nechukkim dur qilur bosh uzra manzil.

Nazar Farhodg'a chun soldi Parvez,  
Degil ko'ksiga tegdi dashnai tez<sup>4</sup>.

Dedi: «Ul bulajabvash odamizod  
Ki, ko'rgach oni ko'nglum bo'ldi noshod;

Tafahhus aylangizkim, ne kishidur  
Ki, xotirni hazin qilmoq ishidur».

Birov farzona sori surdi otin,  
Yetib Xusrav tilidin so'rdi otin.

Dedi bedilki: «Ot ahli emasmen,  
Otim tutmoqqa dog'i arzimasmen.

Qazodin o'yla tufroq o'ldi zotim,  
Kim ul tufroq aro gum bo'ldi otim.

Ichimga ishq o'tidin tushkali dud,  
Ne otim, balki zotim bo'ldi nobud.

Meni ot anglamakdin ishq etib yot,  
Men otdin yotu mendin yot o'lub ot.

Va lekin dahr aro ahli talavvun,  
Adamg'a aylab itloqi taayyun<sup>5</sup>.

Qilurlar chun vujudim tufrog'in yod,  
Hamonokim atarlar xasta Farhod».

So'zin Xusrav qilib boshdin-ayoq go'sh,  
Yaqin erdiki borg'ay mag'zidin hush.

Eshitmish erdi ko'p avsofin oning,  
Eshitgach bu kalomi sofin oning.

Agarchi vola etti hayrat oni,  
Vale ishq ichra o'rtab g'ayrat oni.

Dedikim: «Nuktasidur choshniyi bahr,  
Manga andin nasib ermas, magar zahr.

Qilur rangin so'zi xotir mushavvash,  
Hamonokim yilonedur munaqqash.

Kalomi nechakim sofu arig'dur,  
Manga nuqsondin o'zga ne osig'dur.

Chu bor ondin g'amu mehnat nasibim,  
Erurmen oshiqu uldur raqibim.

Erur ko'nglida shirkat orzusi,  
Ne shirkat, balki mulkiyat g'ulusi.

Bu xoredurki, yo'ldin olg'ulug'dur,  
Aning ko'si rahilin cholg'ulug'dur.

Qo'lumg'a muft solmish oni iqbol,  
Kerakdur bo'lmoq andin forig'ulbol.

Chamanni chun aritsam bu tikandin,  
Tong ermas, bar yemak sarvu sumandin».

Dedi: «Besh-o'n muboriz sekretib ot,  
Mening ollimg'a oni kelturung bot».

Alar chun qildilar ul sori parvoz,  
Chiqib tosh uzra Farhod etti ovoz:

Ki: «Ey chobuk sipahdori dilovar,  
Qo'lungda baxt yoru charx yovar.

Agar Xusrav esang xud bil bu so'zni,  
Emas ersang ham eshitgil bu so'zni:

Sanga mendinki kelmak multamasdur,  
Tariqi multamas mundoq emasdur

Ki, chopturdung o'n-o'n besh pahlavonni  
Ki, qilg'aylar talaf bir notavonni.

Vagar xud qasdu qatlim erdi maqsud,  
Manga mundin ziyon yo'qtur, sanga sud.

Bu jam'i begunah qonig'a kirding.  
Sipohingni o'z ilging birla qirding.

Desang bu nukta ermas, rost hosho,  
Boqib, Haq sun'ini qilg'il tamosho

Ki, boshdin uchqusidur mili xudung,  
Bu tosh birlaki yetkurdim durudung»<sup>6</sup>.

Yana bir tosh otib, dedi ravoni:  
«Mungadur mahchai tug'ung nishoni».

Iki toshi qilib sur'atda ta'jil,  
Payopay ucti yetgach mahchau mil.

Dedi: «Ey kim, bu elga podshahsen,  
Yo'q ersang shoh, sarxayli sipahsen.

Bu erdi ishq xayli dastburdi  
Ki, sen ko'rdung, sipohing dog'i ko'rdi.

Bu elni qaytarurg'a amr qilg'il,  
Yo'q ersa borcha bir-bir o'ldi bilgil.

Bu toshikim uchurdi xud mili,  
Hamuldur bosh uchurmoqning dalili.

Nazar qilkim seningdek bir sipahdor  
Ki, bo'lg'ay xayli ichra ming kulahdor.

Birov jonig'a qilg'ay qasdi nohaq,  
Evaz bu nav' yetkurg'ay anga Haq

Ki, bir majnun qayodin tosh uchurg'ay,  
Yetib ul tosh, sendin bosh uchurg'ay.

Boshingdin kechtim oxir bil g'animat,  
Boshing olib yo'lungg'a qil azimat

Ki, mendin bo'lmayin hech amr noshi,  
Manga bo'ldi sening qasding xaroshi.

Nechakim ishqdin ranjur erurmen,  
Nekim qilsam, sanga ma'zur erurmen.

Ki, Arman tog'ida kin aylasam fosh,  
Yaqin bilkim, erur har toshu bir bosh.

Gumon qilma bor ersang ishda dono,  
Sipohu mulk ila bo'lmoq tavono

Ki, Haq ollinda butmas ming sipahdin,  
Ish andoqkim bir ohi subhgahdin.

Sangakim ro'zi etti podshahliq,  
Mening qildi nasibim xokirahliq.

Ko'ngul aylab sen ul shahliq bila keng,  
Mening ollimda ul tufroq bila teng.

Ne ishkim shah topib ondin navoye,  
Vale yuz qatla or etgay gadoye<sup>7</sup>.

Jafo maydonig'a har dam surub ot,  
Kishi andin nechuk qilg'ay mubohot.

Erur bu turfaroqkim tortibon tig',  
Qarortib yerni xayling o'ylakim mig'.

Qilib el mulki ichra qatlu toroj,  
Olay deb mulk elidin taxt ila toj.

Birovnikim berib mulkini barbod,  
Qilursen nozanin ko'nglini noshod.



Shikastig'a sitam yoyin qurarsen.  
Eshittim, ishq lofin ham urarsen.

Bu bo'lg'ay dardu ishq oyini voh-voh,  
Vafou mehr sharti Alloh-Alloh!

Kishi ishqida zor o'lmoq bu bo'lg'ay.  
G'amidin beqaror o'lmoq bu bo'lg'ay!»

Ilik zo'ri bila andoq otib tosh,  
Qilib tig'i zabon mundoq yana fosh.

Tushub Xusravg'a toshi iztirobi,  
So'zining ham topa olmay javobi.

Yonarda erta kunni qilmayin kech.  
Yovuq bormoqqa topmay maslahat hech.

Topib kelgan sipohidin malolat,  
Yuz oncha qal'a ahlidin xijolat.

Bu sayridin anga bo'lmay ravo kom,  
Yonib o'rdusi sori bordi nokom.

Teshib xudin aning Farhod toshi,  
Ichin tig'i zabonining xaroshi.

Ketur, soqiy, mayu, g'am xaylini yeng  
Ki, ermish ishq aro shohu gado teng!

Necha ishq ichra shahlig' lazzati bor,  
Gadolig'larning o'zga holati bor.

### XXXIX

*Xusrav Farhodning qattig' toshidin pajmurda va qattiq so'zidin ozurda kelib, Buzurg Ummid bila ulug' chora umidig'a so'zlashib, lutfomiz alfozg'a qahr va shahdangiz kalomg'a zahr qotqoni va bu umid va biym maktubin rasuldin Mihinbonu sori uzotqoni va elchining shahdliq zahri shishasi qal'aning xorasidin usholg'oni, ya'ni Mihinbonuning xoradek*

*mahkam javoblaridin ojiz qolg'oni, dog'i Xusrav Armaniya hisorin muhosara qilg'oni va qal'a darvozalari bog'lanib, xusumat eshiklari ochilg'oni.*

Fasona aytur ustodi suxanvar,  
Bu yanglig' toqti so'z hikrig'a zevar

Ki, Xusrav garchi ul kun bo'ldi diltang,  
Yonib diltang, uyig'a qildi ohang.

Ham oxir qo'ydi ko'p aylab marog'a,  
Buzurg Ummid ila so'zni arog'a.

Buzurg Ummid ani aylab tarabnok,  
Dedi: «Qayg'urmag'ilkim, yo'qturur bok;

Ko'histon ahli ko'p otqay faloxan,  
Junun ahli ko'p etgay yova so'z fan.

Yilon netgay urub nish ajdahoni,  
It urmak birla yonmas korvoni'.

Nechuk majnun so'zin oqil eshitgay,  
Junun o'ti bila ko'nglin eritgay.

Eshitgan nuktani ko'nglungga olma,  
Eshitsang juz eshitmaslikka solma.

Bu avlokim yana bir nuktapardoz,  
Borib Bonu sori pand etsa og'oz.

Kalomi ichra bo'lg'ay lutfu tahdid,  
Nechukkim biym bo'lg'ay, bo'lg'ay ummid.

Shak ermaskim ayon aylab madoro,  
Zabunliq aylagaylar oshkoro.

Bu ish bo'lmoqliq avlo chora birla,  
Siteza qilsa bo'lmas xora birla

Ki, bu qo'rg'on erur mahkam bag'oyat,  
Zaxira anda dog'i benihoyat.

Seningdek shahki xurshedi jahonsen.  
Qayu xurshed, Jamshedi zamonsen.

Qachon ul yon tilarsen razm solmoq,  
Keraktur razm solg'on kun-o'q olmoq.

Bu yanglig' fath agar xud dast bermas,  
Ani yuz yilda olmoq mumkin ermas.

Chu bo'lmas razm ila olmoq muqarrar,  
Magar tadbir ila o'lg'ay muyassar.

Emas tadbiri holo mundin o'zga  
Ki, chekkaybiz bir ish naqshini so'zga».

Fusungar aytibon yolg'onu chindin,  
Chekar af'ini afsun birla indin<sup>2</sup>.

Degach bu so'z topib shaxsi suxandon,  
Uzottilar ani g'amginu xandon.

Kelib qo'rg'ong'a ul farxunda rovi,  
Bu yanglig' ayladi so'z kov-kovi

Ki: «Shahkim charxni rom aylamishdur.  
Qamarg'a bu so'z e'lom aylamishdur

Ki, biz farzandliq tarhini solib,  
Buyon keldik vafo ko'sini cholib.

Burunkim tushmamish amre aroda,  
Qiling andoqki, qilmishbiz iroda.

Agar avvalg'idektur so'z hisobi,  
Bu so'zdur ul parishon so'z javobi

Ki, siyminbarki keldi mehri ofoq,  
Gar o'lsa siz degondek juftdin toq,

Eranlar maylidin fard o'lsa zoti,  
Alarg'a yo'qsa mutlaq iltifoti.

Bor ermish telbai xoroshikofe,  
So'zi boshtin-ayoq sahv u gazofe.

Xiradg'a yuz tanaffur hay'atidin,  
Xirad ahlig'a dog'i suhbatidin.

Bu shan'at birla ul nangi zamona,  
Urub tun-kun fig'oni bexudona.

O'zin aylab aning ishqig'a mansub,  
Qilib oshiq o'zin, ul oyni mahub.

Bu ish topib bori olamda shuhurat,  
Nechuk ul oyg'a bo'lmoy hech g'ayrat.

Ani istab yana qoshig'a doim,  
Vafoomiz so'zlar deb muloyim.

Visoli birla aylab ko'nglini shod,  
G'ami hajridin aylar ermish ozod!

Siz aytur so'z zilole bo'lsa sofi,  
Erur bu ish aning birla munofi.

Va gar yolg'ong'a oxir bo'lsa roje',  
Bas ul so'z voqe', o'lmish g'ayr voqe'?!

Agar bu sahvingizg'a mu'tarifsiz,  
Karam birla kechurduk ham ani biz.

Xatodin xoli ermas odamizod,  
Erur Haq ishda sahv etmoqdin ozod.

Chu qilduq mulkunguzg'a mehmonliq,  
Qiling siz ham tariqi mizbonliq.

Aroding murtafe' bo'lsun kudurat,  
Kuduratsiz safo bo'lg'ay zarurat».

Tugatti so'zni chun roviyi farrux,  
Mihinbonu bu yanglig' dedi posux:

«Kim, ulkim Xusrav aytibturki, Farhod  
Emas siyratda misli odamizod.

Ne yanglig' degabiz bu so'z javobin  
Ki, xud ul deb eshitmish o'z javobin.

Bizingdek yuz tuman vasf etsa yuz yil,  
Deyolmas vasfining mingdin birin til.

Gado debdur, erur ul shohzoda,  
Sharafda ondinu bizdin ziyoda.

Ne ilmu fanki bor olamda ahsan,  
Bu ahsandurki, ul bor anda yakfan.

Aning ul gavhari volosi bordur  
Ki, bu o'kmakdin istig'nosi bordur.

Yana bir buki debtur sarvi gulchehr,  
Eranlarg'a agar bor ersa hemehr.

Nedin Farhod anga chun bo'ldi oshiq,  
Erur ko'ngli aning birla muvofiq.

Bukun Farhod ul ozodavashdur  
Ki, yo'qluq bodasidin jur'akashdur.

Fano o'ti aro andoqki xoshok,  
Vujudi xirmanin pok o'itamish pok.

Bo'lubtur o'yla Haq zotida foniy  
Ki, yo'qtur anda o'zlukning nishoni.

Bu ash'yo ichra kim bo'lg'ay mazohir,  
Ko'rar mazharni har yon bo'lsa nozir.

Qayu mazharki ajmal kelsa mavsuf,  
Ajab yo'q anda ko'prak bo'lsa mash'uf.

Va lekin to erur Shiring'a shaydo,  
Ishi bo'lmaydur andin o'zga paydo

Ki, ko'rmish ikki yo uch qatla oni,  
Tiriklikdin anga qolmay nishoni.

Aningdek tarki aqlu hush qilmish  
Ki, ikki-uch kun o'lgandek yiqilmish.

Azosidin bo'lub har xayl ranjon,  
Yana Haq mavhibat aylab yangi jon.

G'arazdin pok topib oni gulrux,  
Ko'rub farxunda ruxsorini farrux,

Qilur jonin aning vasli fidosi,  
Va lekin ko'p durur oning ibosi

Ki, ko'rgach hush tark etmak hamondur,  
Kelib bu o'zidin ketmak hamondur.

Bu ma'nidin tutub gah dashtu gah ko'h,  
Zaif egniga yuklab bori anduh.

Erur oning xayoli birla qone',  
G'amu dardu maloli birla qone'.

Vale mahvashqa oning vasli maqsud  
Ki, yo'q makruhe tab'i anda mavjud.

Bukim debtur, karih oning jamolin,  
Ne til birla deb erkin bu maqolin?

Ani men ayta olmon zisht yo xo'b,  
Sanga ko'rmakligi bor ersa matlub,

Borib Tengri uchun ko'r oni bexost  
Ki, Xusrav so'zlamish egrimu yo rost?

Yuzi gulzoridin chun vard tergung,  
Ne aytay men, o'zing insof bergung.

Bukim Xusrav erur bu ishga moyil  
Ki, men bo'lg'aymen o'z sahving'a qoyil.

Bu erdi so'zki, taqrir o'ldi bir-bir,  
Borib ollinda bir-bir ayla taqrir.

Desakim, sahvdur, yo'q hech bokim,  
Agar chin desa ham bor o'zi hokim».

Quloq chun elchi ul so'zlarga solib,  
Qo'pub yondi deganlardin uyolib.

Kelib shoh ollida og'oz aylab,  
Nekim fahm etti sharhi roz aylab.

Bu so'zlardin bo'lub g'olib xijolat,  
Taraddud soldi Xusravg'a malolat.

Bir ulkim, har ne aylab erdi maqsud,  
Sarosar topti yor ollinda mardud.

Bu ham ozurda ko'nglin etti maqtul,  
Raqib o'lmoq habib ollinda maqbul.

Chu qildi podshahlik e'tiborin,  
G'azab oldi ilikdin ixtiyorin.

G'azab tig'in chiqorsa podshahlar,  
Ulug' mujrimcha bordur begunahlar.

Qamishliq ichra chun o't tushti nogoh,  
Qurug'-o'l kul bo'lur bo'lg'uncha ogoh<sup>4</sup>.

Qayonkim zohir etti seli bedod,  
Yiqorda teng durur vayronu obod.

Chu Xusravni g'azab mag'lub qildi,  
Anga ul mulk elin mag'zub qildi.

Ko'chub qo'rg'on sori surdi samandin,  
Solay deb ko'k hisorig'a kamandin.

Sipah azm etti ul yon favj-barfavj  
Ki, choyqatti cherik daryosini mavj.

Aningdek yer yuzin tutti sipohi  
Ki. tutqay mashq avroqin siyohi.

Qabab qo'rg'onni dapqur-dapqur ul xayl,  
Tusharg'a qildilar to'shluq-to'shi mayl.

Chu qo'rg'on davrig'a yovushtilar bot,  
Suron solib yonibon tushtilar bot.

Suron yo'q. sur savtining safiri,  
Qayu bir surkim, mahshar nafiri<sup>5</sup>.

Ihota qildilar qo'rg'onni bebok,  
Nechukkim arz jirmin davri aflok.

Ketur soqiy, qadah andoqki gardun,  
Shafaqdek boda solib anda gulgun.

Ko'raykim bu hisori lu'batakboz,  
Yana ne nav' to la'b etgay og'oz!

## XL

*Xusrav qo'rg'onni qabab tushub davrida yana bir qo'rg'on egirgani va Armaniya qo'rg'oni arkdek Xusrav egirgan qal'aning davrig'a kirgani va cherikning Farhod toshi qo'rqunchidin anga yovuy olmay ming qari yiroqdin tushganlari va Xusrav aning giriftorlig'i bobida bir hiylagar topib so'z rishtasin tugushganlari va ul hiylagar afsun rishtasi domin ochib tazvir ashki donasin sochib ul telba qushni<sup>1</sup> giriftor qilg'oni, balki gul isi bila ul ishq bulbulining<sup>2</sup> hushin uchurg'oni va Shopur sayyodni halok qilib, kamindag'ilar saydni eltib Xusravg'a tortqonlari.*

Falak hisni demay. lu'bat hisori,  
Aningdek ochti bu lu'bat uzori

Ki, chun tushti qabab qo'rg'onni Parvez,  
Adovat o'ti bo'ldi dam-badam tez.

Uloshti mo'rjalu yerni qilib shaqq,  
Cherik atrofig'a qozdurdi xandaq.



Yasab xandaq toshida boruvu burj,  
Parivash qo'rg'onining naqdig'a durj.

Qabab ul hisn davrin toshqi qo'rg'on,  
Nechukkim qubba atrofini qolqon.

Hisor ahli dog'i voqif tunu kun,  
Chiqarmay qal'adin kunduz unu tun.

Kecha lekin fig'oni fosh birla,  
Yurub to subh hozir bosh birla'.

Tong otkuncha furug'i sham'u mash'al  
Yorutub qal'ani andoqki manqal.

Valek ul yonki Farhod erdi sokin,  
Cherik kelmak yovuq yo'q erdi mumkin.

Tiyib a'do sipohin ming qoridin,  
Dema bir soridinkim, har soridin.

Yetib toshi nechukkim, ra'd toshi,  
Uchub gar tegsa sheri sharza boshi.

Toshig'a ming qori yerda nishona,  
Urub gar xud erur xashxosh dona.

Bu andin turfaroqkim tegsa ul tosh,  
Bo'lub Alburz' tog'i bo'lsa xashxosh.

Chopib xoroni beandoza haddin,  
Otar toshi yo'nub ko'prak adaddin.

Bu ishlar bor edi mardudi oning,  
Vale izhoridin maqsudi oning

Aodi xaylini qo'rqtmoq erdi,  
Alardin o'zni solim tutmoq erdi.

Yo'q ersa yo'q edi mumkinki ul zor,  
Tegurgay pashshaning parrig'a ozor.

Birovga yetsa erdi charxdin ranj.  
Bu andin ko'p bo'lur erdi alamsanj.

Zaife cheksa erdi dardlig' oh,  
Bu tortar erdi yuz ming ohi jonkoh.

Ne mumkin erdi ul mahzun ishiga  
Ki, andin bir alam yetkay kishiga.

Vale a'doni qo'rqutmoq futuri,  
Anga jon vahmidin erdi zaruri

Ki, jonkim andadur jonon vafosi,  
Nechuk qilg'ay ani dushman fidosi.

Shukuhidin yetib biym ahlig'a biym,  
Ko'rub taslim andin ahli taslim.

Borib darmondalar qoshig'a oning,  
To'kub ko'z yoshi ko'z yoshig'a oning.

Topib andin navozishlar gadolar,  
Ko'rub har dam navolar benavolar.

Ayoqqakim tikan kirsan nihoni,  
Tilab mujgoni birla cheksa oni.

Anga bu holu, ammo Xusravi ahd,  
Aning daf'ig'a aylar sa'y ila jahd.

Tunu kun aylabon oning so'zin zikr,  
Buzurg Ummid birla ko'p qilib fikr

Ki, shoyad ishga nav'i chora bo'lg'ay  
Ki, Farhod o'rtadin ovora bo'lg'ay

Ki, andin bo'lmasa xotir haroson,  
Bo'lur qo'rg'onni olmoq ul dam oson.

Aning har bir ishin kim el qilib fosh,  
Taajjub yo g'azabdin irg'otib bosh.

Ham oxir bo'ldi paydo naqshboze,  
Ne mushkil hiyla bo'lsa chorasoze.

Qachonkim zohir aylab makru talbis,  
Bo'lub bir fahmi yo'q shogirdi iblis.

Anga shah zohir etti muddaosin  
Ki, istarbiz bu majnun ibtilosin.

Agar sen aylasang bu ishga chora,  
Berurmen naqd behaddu shumora.

Fusunpardozi mundog' surdi guftor  
Ki, oni makr ila aylay giriftor.

Aningdekkim, dimog'idin ketib hush,  
O'luk yanglig' yiqilsun yerga madhush.

Vale kelturmagiga chora bilmon,  
Bu ajimdin bu ishga bora bilmon.

Dedi Xusrav: «Sen etsang oni behush,  
Kamingahda qo'yay men yuz ziriho'sh

Ki, chopqoylar kamindin bo'lg'ach ogoh,  
Keturgaylar ani andoqki dilxoh».

Chu mundoq va'da qildi shohi g'addor,  
O'pub yer tebradi gumrohi makkor.

Yasab o'zni takalluf birla mahzun,  
Jununsiz, lek shakli-misli majnun.

Hamul vodida bir gul uzdi xushbo',  
Sepib bargi aro behushdoru.

Ravon Farhod sori urdi gomin,  
Yasab devonalar yanglig' xiromin.

Chekib ul nav' ohi oshiqona,  
Degaysen, urdi o't andin zabona.

Chu Farhod ul surudi dard eshitti,  
Qaroru hushi ketti, sabri itti.

Boqib chun ko'rdi qaddin o'ylakim yoy,  
Degaysen, ko'rdi devona yangi oy.

Yetib jonig'a ko'ngli iztirobi,  
Urub ko'nglig'a o't joni xarobi.

Dedi: «K-ey dard o'tidin shu'laangez,  
Daming qilg'on o'tumning shu'lasin tez.

Ne holing boru qaysi ko'ydinsen,  
Bu yanglig' telba, ne mahro'ydin sen?

Manga g'am tig'in urdi ishq bebok,  
Sening ko'ksung nedin bu nav' erur chok?

Manga gardundin o'ldi zulmu bedod,  
Nedin sen tortasen afg'onu faryod?

Manga hajr o'tin etmish baxt ro'zi,  
Sanga muncha nedindur hajr so'zi?

Mening jismim qilib ishq o'ti nobud,  
Sening ohing nechun zohir qilur dud?»

Chu topti hiylagar bu nav' bozor,  
Yana izhor aylab ranju ozor.

Dedi: «K-ey ishq elining podshohi,  
Bo'lub bul xayl ayog'ing xokirohi.

Meni mahzun falon iqlimdinmen  
Ki, forig' har umidu biymdinmen.

Meni yuz ranj ila Haqning rizosi,  
Yana garduni gardon iqtizosi.

Bu kishvar jonibi ovora qildi,  
Birov ishq bilan bechora qildi.

Ko'rar erdim gahi ul dilraboni,  
Yiroqtin oshkora, gah nihoni.

Necha hajrida zoru g'amkash erdim,  
Yiroqtin ko'rmaki birla xush erdim.

Bukun Xusravki Haq bersun jazosin,  
Bu kishvardin yiroq solsun balosin.

Kelib bu shahr bo'ldi qal'abandon.  
Kirib qo'rg'ong'a ul gulbargi xandon.

Meni majnun biyobon ichra qoldim,  
Balovu dardi hijron ichra qoldim.

Erurmen chun g'arib, el tonimaslar,  
Manga ham oshnovu yor emaslar.

Chu borsam qal'a sori zulm etib fosh,  
Boshimg'a yog'dururlar o'q bilan tosh.

Eshik ochilmadi chun ul talabdin,  
Yaqin erdiki o'lgaymen taabdin.

Chu dardim sa'bu hamdardim yo'q erdi.  
Juz ohi dardparvardim yo'q erdi.

Senikim ishq dashti rahravisen,  
Mazallat kishvarining xusravisen.

Eshittim bu qayo uzra vatangoh,  
Tutubsen ul sifatkim taxt uza shoh.

Kelibmenkim, sanga holim degaymen,  
Ulus fahm etmas ahvolim degaymen.

Chekib ishq ilgidin har lahza faryod,  
Degaymen hajr elidin har nafas dod!

Degaymen ishq o'tig'a xaslig'imni,  
G'aribu oshiqu bekaslig'imni».

Chu Farhod oncha ohu dardi jonso'z,  
Ko'ribkim, zohir etti ul siyahro'z.

Anga xud muncha hojat ermas erdi,  
Degan yuz ming fusundin bir bas erdi.

Damidin shu'lalar gardung'a bordi,  
Ko'zidin sellari homung'a bordi.

Fusungar sharh qilg'ondek malolin,  
Mushobih topti o'z oshufta holin.

Chekib huy oncha sho'ru shayn qildi  
Ki. g'amkash jismi za'f aylab yiqildi.

Yugurdi hiylagar devonalardek,  
Yiqilg'on sham' uza parvonalardek.

Chu ko'rdi xastani beholu xomush,  
Dimog'iga aning kelturgali hush.

Gulekim sepmish erdi no'shdoru,  
G'alat sharh ayladim. behushdoru.

Dimog'ig'a qo'yub qildi tavaqquf  
Ki. hushi zoyil o'lg'ay betaxalluf.

Anga qolmaydur erdi hushidan bahr,  
Quyar erdi o'lukning komig'a zahr.

Chu hushi xaylin etti bo'yla g'orat,  
Qo'pub far'yod etib qildi ishorat.

Uyumush erdi bir tosh uzra Shopur,  
Yamon tush ko'rmagidin erdi ranjur.

Ul undin seskanib, borib qarori,  
Sarosima hoqib Farhod sori.

Ne ko'rdi? Borib o'zdin ul malakvash,  
Bo'lub shaytonvashe har dam navokash.

Anga bildiki andin bo'lmish ul rev  
Ki, yetti har tarafdin ul suruk dev.

Chu fahm ettiki bormish ilgidin ish,  
Yiqilmay bag'rig'a mahkam qilib tish.

To'kub Farhodning ul holig'a yosh,  
Qo'nqordi ul qayodin bir og'ir tosh.

Biyikrak yerda tutmish erdi manzil,  
Ayog' ostida hiylatsoz g'ofil.

Aningdek urdi ul tosh birla oni  
Ki, avval mag'zi, so'ngra chiqti joni.

Usholdi tosh birla ul qotiq bosh,  
Masaldurkim, «ushotur boshni tosh»<sup>4</sup>.

Agar ul xastag'a yetkurdi ofot,  
Yana ofoddin topti mukofot.

Chu yettilar suruk xayli jafokesh,  
Bo'lub Farhod holig'a badandesh.

Biri deb sudroli Xusravg'a tegru,  
Biri deb eltoli boshini ayru.

Chu ko'rdilar jamoli jonfizoyin,  
Unuttilar taaddi rasmu royin.

Ko'tardilar ani aylab yuz ikrom,  
Qilib avd urdilar Xusrav sori gom.

O'lukdek o'zda yo'q Farhodi mahjur,  
Yovushub o'zni o'lturmakka Shopur.

Bo'lub chun tog' aro ul navhapardoz,  
Sadodin tog' etib ham navha og'oz.

Bu yanglig'kim falak aylab sitezi,  
Tushub qo'rg'on eliga rustaxezi.

Va lekin yoshurub ul ishni nokom  
Ki, nogah bilmagay sarvi gulandom.

Ki, fahm etsa yumub jondin ko'zini,  
Shake yo'qturki o'lturgay o'zini.

Alar aylab asir ul notavonni,  
Mashaqqat tog'ida bexonumonni.

Chopib Xusravning o'rdu sig'a tegru,  
Qayu o'rduki, qarshusig'a tegru.

Tutub jo'ldu olur yormoqqa qalqon,  
Degilkim aylamishlar tog'ni talqon.

Ketur, soqiy, qadahkim, benavomen,  
Xumori hajr eliga muhtalomen.

Meni holimni onglardin yiroq qil,  
Necha behush esam, behushroq qil.

### XLI

*Farhodni ul xaylning Xusrav qoshig'a yetkurgoni va Xusrav aning boshidan-ayog'ig'acha salosil va ag'lol hukmi surgoni va Buzurg Ummid hikmat bila ul handlarg'a muqayyad devona dimog'ig'a hush keturgoni va Xusrav hujjat yuzidini anga so'z qotqoni va Xusravning savoloti shishalarin javoblari xorolari bila ushotqoni va aning bu nav' qattiq so'zlari sangboronidin Xusravning ko'nglidog'i savollari shishasidek sinib aning qatlig'a jozim bo'lg'oni va ul muhlik so'zlari himoyati bila qatldin qutulg'oni.*

Bu bexudlig' yo'lining hushmandi,  
Bo'lur bu nav' ma'ni naqshbandi

Ki, chun Farhodni ul xayli cholok,  
Shah o'llig'a yeturdilar tarabnok.

Bo'lub Xusrav ul ishdin shodmona,  
Ato aylab alarg'a xusravona;



Dedi, majnung'a soldilar og'ir band,  
Iki ilgin qilib band uzra payvand.

Majonindek muqayyad qildi hosil,  
Bori a'zosin ag'lolu salosil.

Buyurdikim hakim o'lub hamog'ush,  
Kiyurdi notavonning mag'zig'a hush.

Ko'zin chun ochti ul majnuni bexud  
Ki, bo'lmish erdi majnundek muqayyad.

O'zin ko'rdi ajoyib hol ichinda,  
Salosil qaydida, ag'lol ichinda.

Boshida Xusravoyin borgohi,  
Turub atrofida xaylu sipohi.

To'rida borgahning bir biyik taxt,  
Aning ustida bir shohi javonbaxt.

Ayog'i ostida taxti Kayoniy,  
Boshi ustida toji Xusravoniy.

Taajjub birla oning sori boqib,  
Boshini irg'otib, ilgini qoqib.

Qilib gah ishqiy oyinida g'ayrat,  
Etib gah haykalu shaklida hayrat.

Yaqin bildi chu bo'ldi fikratandesh  
Ki, ne fe'l aylamish charxi jafokesh.

O'zin solmay xidevi g'ayratoyin,  
Qo'pub o'lturdi solib qoshig'a chin.

Adab birla hayo rasmin qilib fosh,  
Burun indurdi majlis ahlig'a bosh.

Chu da'bi yo'q edi so'rmay demak so'z,  
Og'iz so'zdin tikib, tikti quyi ko'z.

Shukuhidin yetib Xusravg'a tag'yir,  
Qilib ishq o'ti ko'nglig'a ta'sir.

Unutti aylamakni qatlu bedod,  
Anga boqib takallum qildi bunyod.

Dedi: Qaydinsen, ey majnuni gumrah?  
Dedi: Majnun vatandin qayda ogah.

Dedi: Nedur sanga olamda pesha?  
Dedi: Ishq ichra majnunluq hamesha.

Dedi: Bu ishdin o'lmas kasb ro'zi,  
Dedi: Kasb o'lsa basdur ishq so'zi.

Dedikim: Ishq o'tidin de fasona!  
Dedi: Kuymay kishi topmas nishona.

Dedikim: Kuymagingni ayla ma'lum!  
Dedi: Andin erur joh ahli mahrum!

Dedi: Qay chog'din o'ldung ishq aro mast?  
Dedi: Ruh ermas erdi tang'a payvast.

Dedi: Bu ishqdin inkor qilg'il!  
Dedi: Bu so'zdin istig'for qilg'il!

Dedi: Oshiqqa ne ish ko'p qilur zo'r?  
Dedi: Furqat kuni ishq balosho'r.

Dedi: Ishq ahlining nedur hayoti?  
Dedi: Vasl ichra jonon iltifoti.

Dedikim: Dilbaringning de sifotin!  
Dedi: Til g'ayratidin tutmon otin!

Dedikim: Ishqig'a ko'nglung o'rundur?  
Dedi: Ko'nglumda jondek yoshurundur.

Dedi: Vaslig'a borsen orzumand?  
Dedi: Bormen xayoli birla xursand.

Dedi: No'shi labidin topqay el bahr?  
Dedi: Ul no'shdin el qismidur zahr.

Dedi: Joningni olsa la'li yodi?  
Dedikim: Ushbudur jonim murodi.

Dedi: Ko'ksungni gar chok etsa bebok?  
Dedi: Ko'nglum tutay ham ayla deb chok!

Dedi: Ko'nglung fido qilsa jafosi?  
Dedi: Jonimni ham aylay fidosi.

Dedikim: Ishqdin yo'q juz ziyon bud!  
Dedi: Bu keldi savdo ahlig'a sud.

Dedi: Bu ishq tarki yaxshiroqdur!  
Dedi: Bu sheva oshiqdin yiroqdur!

Dedi: Ol ganju qo'y mehrin nihoni!  
Dedi: Tufroqqa bermon kimyoni!

Dedi: Joningg'a hijron kinakashdur.  
Dedi: Chun bor vasl ummidi xushdur.

Dedikim: Shahg'a bo'lma shirkatandesh!  
Dedi: Ishq ichra tengdur shohu darvesh!

Dedi: Joningg'a bu ishdin alam bor!  
Dedi: Ishq ichra jondin kimga g'am bor?

Dedi: Kishvar beray, kech bu havasdin!  
Dedi: Bechora, kech bu multamasdin!

Dedi: Ishq ichra qatling hukm etgum!  
Dedi: Ishqida maqsudumg'a yetgum.

Dedi: Bu ishda yo'q sendin yiroq qatl!  
Dedi: Bu so'zlaringdin yaxshiroq qatl.

Nechakim bo'ldi mushkil so'z xitobi,  
Base oson anga yetti javobi.

Chu Xusrav ko'rdi bu yanglig' tahavvur,  
Takallum aylamak sochqon kibi durr.

Bir o't tushti ichiga bexudona  
Ki, otashgohidek chekti zabona

Ki, mendek shahg'a mundoq razl duni.  
Ayog'din-boshqa band ichra zabuni.

Hayotining niholig'a sinib shox,  
Javob aytur ne so'rsam bo'yla gustox.

Siyosat qilg'uluqdur bu fidoyi  
Ki, har bir tog' ila vodi gadoyi

Yana ko'rguzmagay bexavfu dahshat,  
Salotin xizmatida so'zga jur'at.

G'azab birla buyurdi shohi g'addor  
Ki, urdilar hisor ollinda bir dor.

Keyin bog'lab qadog'liq qo'llari rust,  
Borib chekmaklik oni dorg'a chust.

Chekilgach, o'ylakim abri bahoron,  
Ulus qilmog'lig' oni tirboron.

Necha kun turmoq ushbu hol birla,  
Ko'rub xalq oni bu ahvol birla.

Aning holidin olmoq borcha ibrat,  
Gadolar qilmasun deb shahg'a shirkat.

Necha kundan so'ng o't aylab furuzon,  
Tamug' o'ti kibi tafsonu so'zon.

O't ichra tashlamoqliq o'ylakim barq  
Ki, bo'lg'ay shu'la to'foni aro g'arq.

Bu yanglig' o'tg'a yondurmog'lig' oni,  
Kul o'lg'och ko'kka sovurmog'lig' oni.

Bo'lub yo'q dahr ichidin bori oning,  
Jahonda qolmamoq osori oning.

Bo'lub Farhod ul so'zdin tarabnok,  
Kulub dedikim: «Ey shohi g'azabnok!

Tasavvur qilma kome tortadursen,  
Adudin intiqome tortadursen.

Ki, ne hukm aylading maqsudum uldur,  
Ne kelsa ishq aro behbudum uldur.

Murodim ishqida o'lماكlik erdi,  
Bukun mundoq murodim Tengri berdi.

Sanga har nechakim joyi g'azabdur,  
Manga bu ishda yuz ayshu tarabdur

Ki, bu hijronki har dam erdi o'lماك,  
Ne o'lماك, banddin bandimni bo'lماك.

Adam yo'lig'a garchi boshqarursen,  
Bir o'lماك birla andin qutqarursen.

Yana jonkim hayot ozori bo'lमish,  
So'ngaklar chorcho'bi dori bo'lमish.

Biyiklik yetsa ul dori fanodin,  
Qutulg'ay jon bu bir dori anodin.

Yanakim hukm qilding tirboron,  
Sanga yog'durmamish o'q xayli hijron.

Mangakim, hajr aro yuz ibtilodur,  
Hamisha tirboroni balodur.

Sening bu tirboroningki yetgay,  
Meni qutqarg'ay andin, o'zga netgay?

Bukim dedingki, kuydursunlar oni,  
Kul aylab ko'kka sovursunlar oni.

Firoq o'tig'a kuymay sen hamono,  
Bu o't ichra kul o'lmaysen hamono.

Menikim hajr o'tig'a soldi gardun  
Ki, bor uchqunlari do'zaxdin afzun.

Bu do'zaxdin xalos etkungdur oxir,  
Tarab xuldig'a xos etkungdur oxir.

Xaliloso', ochib o'tdin gulumni,  
Bukim debsen sovursunlar kulumni.

Bu ham xushturki jismi xokpayvand,  
Tarakkub qaydig'a bo'lg'uncha poband.

Kul o'lmog'lig' bila bo'lsa fanosi,  
Sovursa yor ishqining havosi.

Bu kul mushkin bulutdek topsa poya,  
Solib dildor boshi uzra soya.

Gahi yog'dursa hajr ashkin yog'indek,  
Gahi cheksa firoq ohin choqindek.

Yog'in ham ko'yi tufrog'ini tutsa,  
Choqin ham mulkining tog'in yorutsa.

Siyosatlarki aylar shohi jabbor,  
Mening sori durur har sirfakim bor».

Vale bu turfadurkim notavone,  
G'aribe, oshiqe, ozurda jone.

Ichinda ishq o'tidin ming oshub,  
Boshinda charxdin yuz ming lagadko'b.

Jafo birla sipehri tezraftor,  
Ani bir ishq ila aylab giriftor.

Eshitib xalqdin ishq so'zini,  
Anga shohe raqib etgay o'zini.

Birovga ko'rmay o'zin oshiq etgay,  
Bu oshiqlik'da otin sodiq etgay.

Yig'ib xaylu sipohi vahshatangez,  
Chekib gardunga yuz ming tig'i xunrez.

Aning mulkiga solg'ay qatlu toroj,  
Badandin bosh tushurgay, boshdin toj.

Bu g'avg'oyi baland ovoza birla,  
Muningdek xayli beandoza birla,

Hamul gulchehraning zoru g'aribi  
Ki, bu shah qilmish oni o'z raqibi.

Qilib qasd ul g'aribi benavog'a,  
Tumon ming mehnat ichra muftalog'a.

Ne rom aylab ani darxost birla,  
Ne aylab qatl zarbi rost birla.

Iki toshidin ul yanglig' bo'lub past  
Ki, yuz ming xayl ila topmay anga dast.

Ham oxir ko'rguzub makri nihoni,  
Qilib yuz revu behush aylab oni.

Esi yo'qliqda aylab makru tadbir,  
Ayog'-boshig'a solib bandu zanjir.

Chu qo'ymay band aro bir uzvini bo'sh,  
Dimog'ig'a keturgaylar ani hush.

Bu holat ichra ko'rguzmay tarahhum,  
Itobomiz qilg'ay shah takallum.

Savol etkay sarosar ta'naomiz,  
Itiklik ichra har bir xanjari tez.

Javob o'lg'och savolotig'a vofi,  
Anga bo'lmay muvajjah nukta kofi.

G'aribi xastag'a qilg'ay siyosat.  
Zihi oyini arbobi rayosat!

Siyosat yo'qki, bir o'lturmaku bas.  
Necha turlukki shiddat andin o'tmas.

Burunkim qatl yetkurgay malolat,  
Meni yoqindur o'lturgay xijolat

Ki, odil shah qilib makru fusun ham,  
Bo'lur ermish bu g'oyatqa zabun ham.

Adolat ushbu bo'lg'ay, lavhashalloh!<sup>2</sup>  
Shijoat muncha bo'lg'ay, borakalloh!

Damekim ermas erdim ishq asiri,  
Yerim erdi xirad mulki sariri.

Shuur anvoridin holimg'a partav,  
Manga ul kun yo'luqsa erdi Xusrav.

Agar yuz muncha bo'lsa erdi xayli,  
Borining kinu qon to'kmakka mayli.

Borining tori umrin uzgay erdim,  
Yigitlikni anga ko'rguzgay erdim.

G'urur o'ti ichidin so'ngay erdi,  
Shijoat rasmini o'rgangay erdi.

Bu dam hamki zaifu notavonmen,  
G'aribu oshiqu bexonumonmen.

Meni tutmoqqa ul kunkim qilib mayl,  
Sipohidin yibordi bir qolin xayl.

O'zi bilgayki, ul tosheki urdum,  
Boshidin xudining milin uchurdum.

Agar qilsam edi boshin nishona,  
Bor erdi boshig'a hukmum ravona.



Kechib ul qavmu xayli qonidin ham,  
Alarning qoni, oning jonidin ham.

Omon chun topti mendin boshi oning.  
Boshim qasdi erur podoshi oning.

Tiriklik rasmi mendin xud yiroqdur,  
O'lum hijronda andin yaxshiroqdur.

Qilibmen margni hijrong'a tarjeh,  
Bu so'zg'a hojat ermas asru tavzeh.

Vale essa Xito sori nasime,  
Bu ishdin anda yetkursa shamime.

Topib Xoqon xabar ovarasidin,  
Qayu ovora, bag'ri porasidin

Kim, ul ne nav' qolib g'urbat ichra,  
Hamul g'urbatda yuz ming shiddat ichra.

Ne bedod aylab o'lturdilar oni,  
Solib o't ichra kuydurdilar oni.

Yetishmay kimsa far'yodig'a oning,  
Ne ishlar keldi Farhodig'a oning.

Hamono tor o'lub olam ko'ziga,  
Bu g'amdin bas kela olmoy o'ziga.

Chekib bebok tig'i xunfishonni,  
Cherik birla qaro aylab jahonni.

Olurg'a kina birla intiqomin,  
Bu kishvarlarga ko'rguzgay xiromin.

Chekib mag'ribda tig'i kini bedod,  
Tirik mushkilki qo'yg'ay odamizod.

Madoyin shahrin odamdin oritqay,  
Xito mulkig'a tufrog'in toshitqay.

Chu osorini mahv etkay jahondin.  
Su quygay anda bahri bekarondin.

Ravoqu toq bo'lg'ay anda noyob.  
Ayon bo'lg'ay minor o'rnig'a girdob.

Tugangay odam avlodi hisobi,  
Kishi o'rnig'a bo'lg'ay shaxsi obi.

O'lub men begunah, Xusrav gunahkor.  
Bu vayronliqqa ul bo'lg'ay tabahkor.

Manga charx etsa yuz ming kinu bedod,  
Bu so'zdin xud ne nav' etgay edim yod.

Vale Parvezning nodonlig'idin,  
Bo'lurg'a dahrning vayronlig'idin,

Tahammulsiz bo'lub topti so'zim tul,  
Xaloyiq qilmasun vahmig'a mahmul.

So'zumni har ne erdi ko'tah ettim,  
Jahondin do'st yodi birla kettim.

Bu so'zlarni debon qo'rg'ong'a boqti,  
O'pub yer, o't ulus jonig'a yoqti.

Dedi: «Emdi qiling nekim qilursiz,  
Osarsiz, gar choparsiz, siz bilursiz!

Tugatgach, so'zni bedod ayladilar,  
Ani Xusrav qoshidin sudradilar.

Anga tegruki dor urmishlar erdi,  
O'tun, o't dog'i kelturmishlar erdi.

Tushub bori ulus ichra g'irevi  
Ki, o'lgay begunah andog' xidevi.

Xabar qo'rg'onda bo'lmish erdi ravshan  
Ki, mundog' la'b qildi charxi purfan.

Parirux<sup>3</sup> birla Bonudin nihoni.  
Kuyarlar erdi el yod aylab oni.

Ko'rub dor ostida jismi xarobin,  
Hamul bo'ynig'a bog'lang'on tanobin.

Hisor ahli aro vayronlig' erdi,  
Yetib o'lmoqqa ulkim jonlig' erdi.

Buyon Xisrav bila jam'i xavosi,  
Xavosi demayinkim, omu xosi.

Qolib hayron aning donolig'idin,  
Tahavvur birla beparvolig'idin.

Xaloyiq yig'labon bekasligiga,  
Siyosat<sup>4</sup> loyiqi ermasligiga.

Yebon Xusrav dog'i ul ishdin afsus,  
Vale qo'ymoy aning tarkiga nomus.

Buzurg Ummid daxl etmak ko'rub farz,  
Tilab xilvat ravoni ayladi arz.

Ki. o'lturmaklik oni bejihatdur,  
Junung'a bandu zindon maslahatdur.

Anga o'xsharki ozroqdur gunohi,  
Tahoshisizlig'i basdur guvohi.

Agarchi tab'ida devonalig' bor,  
Tariqi aqldin begonalig' bor.

Va lekin so'zlaridur rostmonand,  
Taammul farz erur qilmoq, xudovand.

Biyik tog' uzra gar topsoq maqome,  
Aning habsig'a qilsoq ehtimome.

Iki-uch oycha zindon ichra tursa,  
Iki-uch yuz nigahbon ichra tursa.

So'zida rostlig' gar bo'lsa paydo,  
Tirik bo'lsa ne g'am ul zor, shaydo.

So'zi yolg'on ekandin bo'loq ogoh,  
Qila olurbiz ul dam ulcha dilxoh».

Chu dono nukta surdi hikmatomiz,  
Rizo berdi aning rayig'a Parvez.

Bor erdi ul yaqinda bir biyik tog',  
Qo'yub tig'i qamar ruxsorig'a dog'.

Hisore anda mahkam charxmonand,  
Qilib asrar uchun jurm ahlini band.

Yasab devi hamul qo'rg'onni hosil  
Ki, bor ermish aning oti Salosil<sup>6</sup>.

Salosil qo'rg'oni el ichra mashhur,  
Aning oti bilakim qildi ma'mur.

Uzottilar ani ul qal'a sori  
Kim, o'z dildoridek bo'lg'ay hisori.

Qo'shub hushyorvash besh yuz nigahbon,  
Aningdekkim but atrofida rahbon.

Kel, ey soqiy, meni majnunni mast et,  
Soching zanjiri birla poybast et.

Ki, bu qayd ichra bo'lsa muhtalolig',  
Vujudim qaydidin bo'lg'ay raholig'.

## XLII

*Farhodni junun ahlidek pari silsilai ishq'i bila Salosil dev qo'rg'onig'a yiborganlari va nigahbonlar aning malakiysifat va farishtazotlig'in bilib qaydin itloqqa, hadal qilib dasht yuzlari va tog' qullarida mutlaq ul-inon qilg'onlari va aning vuhush galasida po'ya qilib sibo' halqasida mo'ya qilmog'i va tuyur qatorida forig'ulbol bo'lub riyoh g'uhorida parishon hol*

*kezmoki va shom zillida g'urbati qaro kunin ravshan qilib subh ollida hajri  
shomi qarosin savod qilg'oni va quyoshda mehri o'tin yorutub  
bulutqa ishq havosida faryod bila ashki yomg'urin ko'rguzgoni.*

Bu dasht ichra hakimi hushpayvand,  
Aningdek oldi so'z majnunidin band

Ki, chun Farhod ul qo'rg'ong'a bordi,  
Nigahbonlar bila zindong'a bordi.

Ani asrarlar erdi pos birla,  
Yo'lida qum to'shab almos birla

Ki, Xusrav hukm etib erdiki nogoh,  
Qochursa ul el oni bo'lmay ogoh

Evaz ba'zisining bo'ynini urg'ay,  
Yana ba'zini qo'rg'ondin uchurg'ay.

Alarg'a bu tavahhumdin hamesha,  
Tunu-kun voqif o'lmoq erdi pesha.

Va lekin ohu faryodidin oning,  
Arig' avqotu avrodidin oning.

Anga bo'lmish edilar o'yla maftun  
Ki, bo'lg'ay ishq aro Laylig'a Majnun.

Ulumi xufyakim Suqroti komil  
Aning holig'a qilmish erdi shomil.

Alardin biri bir ism erdi nomi,  
Bu xosiyat ani aylab kiromi

Ki, yuz ming band aro gar bo'lsa qoyil,  
Qayonkim borsa bo'lmay band hoyil.

Yo'lida bo'lsa yuz mahbus darband,  
Chu ul yetgach ochilg'ay sarbasar band.

Ani chun ism g'amdin forig' etgay,  
Qayonkim istar o'lsa ko'ngli ketgay.

Qilib ul ism amrig'a itoat  
Ki, ojjiz bo'lmag'ay qilmoqqa toat.

Yarim tunlar ochib har bandkim bor.  
Yana ollinda har darbandkim bor

Chiqib aylar edi ul tog'ni gasht,  
Matofi erdi gohi tog'u gah dasht.

Beribon toshqa ko'ksidin ozor  
Ki, yig'lab tog' aning ahvolig'a zor.

Urub jonig'a tig'i louboli,  
Qilib dard o'tidin ko'nglini xoli.

Chekib tog' ichra yuz afg'onu faryod,  
Urub o'z jonig'a ming tig'i bedod.

Yonib ul chog'dakim ketmay qarong'u,  
Hanuz el ko'zlarida sokin uyqu.

Tutub pinhoni ul bandu kushodin  
Ki, el fahm etmagaylar ul aro din.

Chu bo'lsa el aro bu nukta mashhur,  
Hamono Xusrav etkay elni maqhur.

So'rub fahm etmay ul ishni kamohi,  
Ul el ahvolig'a yetgay tabohi.

Va lekin sirrin anglab erdilar xayl,  
Aning komig'a aylab jon bila mayl.

Bilibkim ul humoyi charxparvoz,  
Bora olur qayonkim qilsa andoz.

Vale yeb ul ulus fikrini behad,  
O'zin band ichra qilmishdur muqayyad.

Dedilar borcha: «K-ey olamda nodir,  
Valoyat nuri ruxsoringda zohir.

Nedin bilduk o'zingni band etibsen,  
Salosil qaydida xursand etibsen.

Bizingdek xalq joni benavosi,  
Sening bir tori mo'yungning fidosi.

Qayonkim xotiring istar, qadam ur,  
Bu mahzun xaylni Tengriga topshur.

Nechakim yetsa Xusravdin g'aromat,  
Ne bo'lsiq biz bo'lub, sen bo'l salomat».

Dedi Farhodkim: «Ey notavonlar,  
Falakdin men kibi ozurda jonlar'.

Qachon kelgay bu ish ahli vafodin,  
Xususan men zaifi muhtalodin

Ki, rag'bat aylabon komi havog'a,  
Necha mahzunni solg'aymen balog'a».

Alarning komi ul shaydo xiromi,  
Aning komi alar ayshi mudomi.

Javonibdin bu yanglig' erdi holat,  
Aning ko'nglig'a ish erdi havolat.

Alar ozod etib erdilar oni,  
Aning ul tegrada lekin makoni.

Qo'yar erdi gahi qo'rg'on sori gom,  
Tutub bir dam alar qoshida orom.

Bori ko'z yorutub farrux yuzidin,  
Tamattu'lar olib shirin so'zidin.

Yanakim ishq o'ti urdi zabona,  
Chekar erdi fig'oni bexudona.

Qo'yar erdi hamul vodiy sari yuz.  
Qilib qat' ollida tog' o'lsa, gar tuz.

Junundin kim topib tab'ida orom,  
Qoshida jam' o'lub doim dadu dom.

Sulaymondek barig'a hukmi jori,  
Agar dashtiyu yoxud ko'hsori?

Sulaymonvash chekib ul yerga poya  
Ki, qushlar tortibon boshig'a soya.

Qilib ishq o'yla shavkat rahnamuni  
Ki, sheri sharzani aylab zabuni.

Bo'lub ul gohi sher ustiga rokib,  
Sibou vahsh anga xaylu mavokib.

Zamone babru qaplondin bo'lub shod.  
Qilib dildor ko'yi itlarin yod.

Bo'riga sharh etib gah arzi holin,  
To'kub yosh, yod etib Yusuf<sup>2</sup> jamolin.

Bo'lub tulkug'a bu yanglig' niyozi  
Kim, ul ko'y itlarig'a berma bozi.

Qo'lin aylab qulonlar bo'yni bandi,  
Yetib erkin debon ul oy kamandi.

Qilib gohi kiyiklar birla bozor,  
Tilab mushkin g'azolin yig'labon zor.

Tovushqon uyqusi andin olib hush,  
Sog'inib dilbaridin xobi xargo'sh.

Ko'rub kabki darining sayru gomin,  
Qilib yod ul buti ra'no xiromin.

Humoy ollig'a jismi vahmtakni  
Solibkim, elt itiga bu so'ngakni.



Qanotlarin o'pub ko'rgach hamoma  
Ki, yor o'llig'a mendin elt noma.

Tazarv etsa xirom ollida nogoh,  
Chekib ul qaddi ra'no hajridin oh.

Qilib zog' ollida afg'ong'a ohang  
Ki, zulfidin magar kasb aylading rang.

Etib to'ti qoshida hushini gum  
Ki, la'lidin magar olding takallum.

Quchub qo'yni aro bag'riqaroni.  
Anga deb bag'ri kuygan mojaroni.

Boqib qumri sori yig'lab bag'oyat,  
Etib o'z bo'yni tavqidin hikoyat.

Debon hudhudg'a soz aylab fig'onlar,  
Boshig'a o't tutoshqondin nishonlar.

Qilib bulbulg'a ul so'z ichra bir-bir,  
Ani ishq o'ti kul qilg'onni taqrir.

Chu faryod aylabon murg'i shabovez,  
Chekib ul dog'i o'z afsonasin tez.

Berib yuz lahn ila qaqnug'a payg'om,  
Etib hijron o'ti so'zini e'lom.

Saharkim sharqdin ko'rguzdi anvor,  
Yaqo chok aylabon subhi Xo'tanvor.

Boqib mashriq sori boshlab fasona,  
Chekib tong qushlari yanglig' tarona.

Debon: «K-ey subh, men ishq ichra g'amnok,  
Ne ma'nidin sen aylabsen yaqo chok?»

Bor o'xshar men kibi mehri nihoning  
Ki, sorig' yuzdadur ashki ravoning.

Meningdek o'rtanur o'xshar iching ham  
Ki, sovug' oh erur og'zingda har dam.

Magar joningg'a yetting hajr elidin  
Ki, mendek oh urarsen tong yelidin.

Tanimdek kuymasa jismi nizoring,  
Tunu anjum nedur dudu sharoring?

Chu sohibdarsen, dardinga rahm et,  
Tarahhum aylabon faryodima yet.

Saharkim gulshan ichra gul ochilg'ay,  
Gul uzra turrai sunbul sochilg'ay.

Chu gul termakka ul sarvi gulandom,  
Qo'yar gulshanda gulruxlar bila gom.

Sovug' ohimni bilgurtub damingdin,  
Ko'zum yoshini anglat shabnamingdin».

Tulu' aylab chu mehri olamafro'z,  
Debon: «K-ey partaving bazmi g'amafro'z.

Magar mehr o'tidin mendek hazinsen,  
Nedin, yo'q ersa, mundog' otashinsen?

Magar mendek muroding qildi padrud  
Ki, tebrab har yon ashkingdin borur rud.

Falakdindur magar mendek azobing  
Ki, o'rtanmak biladur iztirobing.

Agar yo'q hajr aro o'zdin boribsen,  
Nedin men notavondek sorg'oribsen?

Junun mendek o'tungg'a quymasa yog',  
Maqoming nega subhu shom erur tog'?

Meningdek bo'lmasang qayg'u ichinda,  
Nedin gah o'tdasen, gah su(v) ichinda?

Bari holatda chun hamdardim o'ldung,  
Anisi joni g'amparvardim o'ldung.

Chu o'tsang mahvashimning maskanidin,  
Tushub iqbol yanglig' ravzanidin.

Tariqi mehribonlig'ni fan ayla,  
Qoshida kuymagimni ravshan ayla.

Yuzum lavnini rangingdin ayon qil,  
G'amim xaylini dardingdin bayon qil».

Sahardin chiqqucha kun bo'yla holi,  
Gah oning, gah muning birla maqoli.

Yoyilg'och kun yana har yon urub gom,  
Dame bir yerda yeldek tutmay orom.

Dami o'ti shafaqning hamnabardi,  
Uchurg'ondek sabo shingarf gardi.

Samumi ohidin olamg'a oshub,  
O'tidin nilgun toramg'a oshub.

Ayog'ig'a tikilgan har itik tosh,  
Ayog'i orqasidin o'tkarib bosh.

Etib ko'ksiga urg'on xorapora,  
Etin yo'qkim, so'ngakni pora-pora.

Solib jismig'a tig'i ishqibebok,  
Shikof uzra shikofu chok uza chok.

Tongib dardig'a charxi qaydpayvand,  
Kamand uzra kamandu band uza band.

Chu g'am dashtida majnunvor yig'lab,  
Unidin murg'u mohi zor yig'lab.

Bo'lub paydo urarda tig'i motam,  
Teshuklar tog' aro, bal raxnalar ham.

Jarohatlarki solib xanjari oh,  
Tanida dard xaylig'a kamingoh.

Qayodin tig'i ohi pora eltib,  
Ne pora, yuz taroshi xora eltib.

Topib vodiy aro har sathliq marz,  
Sirishki xaylidin har sori yuz darz.

Dami dudi sharori ko'h to ko'h,  
Yasab abri balou barqi anduh.

G'irevi toshni pajmurda aylab,  
Fig'oni tog'ni ozurda aylab.

Ko'nguldinkim fig'on tinmay chiqorib,  
Salodin un chekarg'a tog' horib.

Icharga qon qilibon lolani jom,  
Vale ko'k jomikim bo'lg'ay shafaqfom.

Tilab ul jom aro ham boda to lab,  
Dema bir, ham damodam, ham labolab.

Aning bu bodasi xunobi anduh,  
Dema xunob, la'li nobi anduh.

Ketur, soqiy, qadah gardunni aylab,  
Anga mamlu mayi gulgunni aylab.

Yo'q ersa boda, quy zahri halohil,  
Hayotu hajr mushkil keldi, mushkil.

### XLIII

*Farhod ro'zgorining qarolig'i, ya'ni hajr shomig'a muhtalolig'i va ul shom tuli nihoyatsizlig'ikim, adami iborat aning quyoshining ayni va subhining damidin bo'lg'ay va savodining g'oyatsizlig'ikim mavti kinoyat aning humumining qalbi va zulmatining etagidin bo'la olg'ay va mundaq tiyra tunda aning xasdek tanining kuymagikim, tutun ichra axgardin afsona aytur erdi va bu yanglig' qattig' kechada teshukluk bag'rining qong'a*

*bo'yalmog'ikim, xora ichinda yoquti ahmardin nishona ko'rguzur  
erdi va mundoq tunni sham dek gudoz bila sahar'ga yetkurgani  
va charxdek taku roz bila kunduzga kelturgani.*

Bu bazmi g'ussa ichra bodapaymoy,  
Bo'lur har lahza mundoq majlisoroy

Kim, ul anduh bahrining nahangi,  
Balou dard tog'ining palangi!

Junun vodiysining Majnunnihodi,  
Ne Majnunkim, bu vodi devbodi.

Malomat bodasining bahrno'shi,  
Mazallat tog'ining majnunxurushi.

Mashaqqat g'ori ichra ajdahovash,  
Malolat jomidin zahri balokash.

Firog' o'tig'a otashgoh ko'ngli,  
Yuz otashgahcha chekkon oh ko'ngli.

Jahonni dudi ohi tiyra qilg'on,  
Murodi subhig'a ul tun yopilg'on.

Falak bahrig'a bo'lg'on ashki hamdast,  
Umidi qasrin ul sel aylagan past.

Tosh otqonda balo ko'rgach, ani ur,  
Qilib ul tosh maqsudi ko'zin ko'r.

Baloi hajr shomi dardnoki,  
Bu tunda ya's zahrining haloki.

Yegan joni falakdin tig'i bedod,  
Balo afloki, furqat tog'i Farhod.

Chu andoq hajri bepoyong'a qoldi,  
Ne hijron, dardi bedarmong'a qoldi.

O'tub kunduz bu yanglig' ro'zgori,  
Sahardin tung'acha afg'onu zori.

Chu bo'ldi shom to subhi dilafro'z,  
Ishi kunduzgacha yuz dard ila so'z.

Kishining bo'lsa har kun ming balosi,  
Qatiq ul nav' emaskim tun palosi<sup>2</sup>.

Anga bu hajr ayyomida bir shom,  
Savode yoydi mehnat zulfidin dom.

Ne shom anduh mulkining savodi,  
Vale qilmay Xo'tan iqlimi yodi.

Savodi dudi olamg'a yopib qiyr,  
Vale ul qiyr hajr ahlig'a damgir.

Bo'lub ofoq aro zulmat saboti,  
Itib ko'kdin quyosh obi hayoti.

Ziyo Iskandari holi tabahdin,  
Ko'rub navmid o'zin bir Xizri rahdin.

Sipehr o'rtab jahoni benavoni,  
Kuli birla qaro aylab havoni.

Dema kul, g'am tuni sham'ig'a duda,  
Qarorib olam aylab oni suda.

Qarong'u mehr otashgohidin dud  
Valek ul dud qiyri zulmatandud.

Kavokib sayr qilmoqdin muarro,  
Savobitdek taharrukdin mubarro.

Falak yotib ayog' ilgin uzotib,  
Eshak yanglig' qaro balchiqqa botib.

O'zin a'mo ko'rub arbobi binish,  
Qaro bosqon kishidek ofarinish.

Yeru suv qa'rin istab murg'u mohi,  
Qalin mo'ru malaxdek tun sipohi.

Hayotin tark etib mehri humoyun.  
Qilib davron ani tufroqqa madfun.

Azo tutmoq uchun aylab bahona,  
Uzorin chum qaro aylab zamona.

Firoq ahlig'a har kavkab qilib tez,  
Shuoi xatti no'gin tig'i xunrez.

Ko'ziga subh sho'xi surma tortib  
Ki, oning oqini dog'i qarortib.

Muazzin halqim<sup>3</sup> chiqmay navosi.  
Bo'lub bu surmadin oning g'izosi.

Aningdek surmadin ko'zlar kelib tang.  
Ko'runub ko'zga olam surmairang.

Qarong'udin ko'runmay ko'zga olam.  
Ko'runub ko'zga olam o'zga olam.

Falakda yo'q taharrukdin namuna,  
Agar fahm o'lsa dog'i bozguna.

Keturmay subh ul oqshomg'a ayyom.  
Qiyomat subhiga ul nav'kim shom.

Qanot parvozidin xuffosh yopmay,  
Tilab ko'k gunbazi darzini topmay.

Bo'lub zulmatdin andog' pardalar fosh  
Ki, istab pardasin toshlarni xuffosh.

Qo'nub ko'k sabzasida yuz tuman bum,  
Nima yo'q ko'zlaridin o'zga ma'lum.

Borining jismi tun dudi aro gum,  
Ochuq ko'zlar qolib andoqki anjum.

Yo'q erkandur bu yanglig' zog' hargiz  
Ki, bo'lg'ay changida ming bum ojiz.

Demon tun onikim, zindoni anduh,  
Bu zindong'a qolib ul koni anduh.

Ani hijron g'ami pajmurda aylab,  
Ne tunkim, jonidin ozurda aylab.

Yamon holig'a zolim charxi bebok,  
Yaqosin Kahkashondin aylabon chok.

Qilib har lahza qasdi joni ul tun,  
Kishiga kelmay andoq bir qaro kun.

Bo'lub boshi mashaqqat toshidin resh,  
Mashaqqat toshi, balkim boshidin resh.

Qonab anduh tog'idin ayog'i,  
Ayog'idin dog'i anduh tog'i.

Usholib ilgi hijron panjasidin,  
Ayog'din boshi g'am ishkanjasidin.

Tani za'fiki yo'l bermay demakni,  
Ayon aylab teri uzra so'ngakni.

Ichinda sham' o'tluq joni ma'yus,  
Teri birla so'ngok andoqki fonus.

Falak toshu o'ti aylab siteza,  
Qilib teshuk-teshuk, bal reza-reza.

Solib g'am tog'i ichra pechu tobi,  
O'zin yerlarga urmoq iztirobi.

O'larda jon taloshur notavondek,  
Kamarda boshi yonchilg'on yilondek.

Ajal xanjarlari jismini darron,  
O'tub andin ajal g'avg'osi parron.

Urubon lahza-lahza tosh uza bosh,  
Boshin pargola-pargola qilib tosh.



Harorat andog' aylab jismig'a kin  
Ki, topib o'tdin oning so'zi taskin.

Tani tufroqqa tushgach betaammul,  
Hamul dam jismidin tufrog' o'tub kul.

Ani har dam bu nav' aylab bahona,  
Qaro tufroqqa o'lturtub zamona.

Topib ul tabda chun tabxoladin bahr,  
Suyidin og'zig'a har dam oqib zahr<sup>4</sup>.

Zamona zahr solib har zamoni.  
Og'izda talxkom etmokka oni.

Bu yanglig' hol ila ul shomi anduh,  
Anga anduh yuklab ko'h to ko'h.

O'tub hijron sipohi xayl bar xayl,  
Damo-dam boshi uzra o'ylakim sel.

Ko`runub ming balo har dam ko'ziga  
Ki, bir soat kela olmay o'ziga.

Chu bo'ldi toqatiyu sabri barbod,  
Chekib faryod qildi navha bunyod

Ki: «Ey zolim sipehri kinaparvard!  
Chiqording ushbu xoki jismdin gard<sup>5</sup>.

Tariqi zulm yo kin muncha bo'lg'ay,  
Jafo qilmoqqa oyin muncha bo'lg'ay!

Ajal tig'in chekib sursang ne bo'ldi,  
Meni bir qatla o'ltursang ne bo'ldi?!

G'aribu xastau mahzun emonmu,  
Balo vodiysida majnun emonmu?!

Anikim Tengri aylabtur zabardast,  
Birovni ko'rsa g'urbat kojidin past,

Kerak lutfu karam bo'lg'ay shiori,  
Yo'q ersa qilmag'ay ming zulm bori.

Qayon bordi sening ozarming oxir,  
Qaro tufroqqa mehri garming oxir?!

Necha jonimg'a mundoq kecha bo'lg'ay,  
Kecha jonimg'a mundoq necha bo'lg'ay?

Boshimg'a ko'rki ne tun kelturubsen,  
Demon tun, ne qaro kun kelturubsen?

Qayu tun, qiyrgun ming devi xunxor,  
Meni qilding bularg'a qatl uchun xor.

Necha ming yil qilib sayr emdi tolding,  
Va yo baxtim kibi uyqug'a qolding?

Degil har kungi goming qoni oxir,  
Har oqshomg'i xiroming qoni oxir?

Magar men oh o'qin otkonda kori,  
Ayog'ing bo'ldi ul o'qlar figori.

Agar afgor emassen, bir qadam ur,  
Gar o'lmayesen, chiqorg'il subh, dam ur.

Ul oy hijronida holimg'a rahm et,  
Qaro shom ichra ahvolimg'a rahm et!»

Anga bu holkim oy bo'ldi tole',  
Yorutti yerni chun xurshedi lome'.

Base sa'y aylabon bechora qo'pti,  
Yangi oydek xam aylab qad, yer o'pti.

Dedi: «Ey tiyra shomim ravshan etgan,  
O'lar holatda faryodimg'a yetgan.

Ne bo'lg'ay rahm etib jonimni olsang,  
Ul oyning ko'yi tufrog'ig'a solsang.

Bo'lurdektur adam sori xiomim,  
Anga yetkursang oxir dam salomim».

Solur erdi nazar ko'klarga bir-bir  
Ki, nogah ko'zlariga uchradi Tir<sup>6</sup>.

Dedi: «K-ey do'stlar holin raqamzan,  
Sipehr avroqida doim qalamzan.

Qarog'im aylasang netgay siyohi,  
Bitisang holatim sharhin kamohi.

Qachon nur ul quyosh tobidin olsang,  
Qoshig'a chirmabon nomamni solsang».

Ko'rungoch Zuhra, un tortib damo-dam,  
Qadin afg'ondin aylab changdek xam.

Debon: «K-ey yer uza ko'kdin tarabrez,  
Unung jonbaxshu nag'mang ishratangez.

Zamone tori xunyogarlig'ing uz,  
O'larmen navhagarlik sozini tuz<sup>7</sup>.

Ul oy bazmida bo'lsang nag'mapardoz,  
Halokim navhasin ham aylagil soz».

Ko'rub to'rtunchi manzarni chu xoli,  
Debon: «K-ey mehrsiz garduni oli.

Quyoshingni quyoshimdek yoshurdung,  
Manga hijron tunin haddin oshurdung.

Yorut olamni, mehring zohir ayla,  
Mening bu shomi hajrim oxir ayla».

Ko'rub beshinchi qo'rg'on qahramonin,  
Debon ul tunda holining yamonin.

Anga deb: «K-ey shioring kinu novard,  
Qilurda qatl tig'ingdek javonmard.

Qiliching aylabon qonimg'a rangin,  
Tiriklikdin yetur jonimg'a taskin.

Tanim ul ko'yning boshig'a tashla  
Boshimni itlari qoshig'a tashla».

Boqib oltinchi ko'kta Mushtarig'a.  
Qilib arz ul saodat axtarig'a».

Ki: «Ey burji sharaf masnadrishini,  
Saodat taxtu tojining amini.

Duoye qilki. Haq bersun murodim,  
Bu mehnat shomidin bo'lsun kushodim.

Boshimdin hajr shomi dudi ketsun,  
Ko'zumga vasl subhi nuri yetsun».

Yettinchi qullag'a aylab guzora  
Zuhalg'a der edi aylab nazora

Ki: «Ey bahri viqoru ko'hi tamkin,  
Shioru shevang o'lg'ay hilmu taskin.

Vujudung hajr tog'idek garonsang,  
Ayog'ing sabr shaxsidek kuhanlang.

Bu dardim ichra ber sabru sabote  
Ki, yo'q jonimda hijrondin hayote».

Yana bir huqqa bo'lg'och durrig'a durj,  
Kezib ul toram ichra burj bar burj.

Tilab har burj aro mahpaykarini,  
Sharaf mehri, saodat axtarini.

Bo'lub chun to'qquzunchi ko'kka sobit,  
Nazora aylabon xayli savobit.

Debon har birga dardi holidin roz.  
Firoq ichra qatig'ahvolidin roz.

Qilib anjumni ohi dudidin gum,  
Bu dudu ashkin aylab charxu anjum.

Debon: «K-ey durri ashkimdin nishon siz.  
Bo'lung ashkim duri yanglig' ravon siz.

Hazin ko'nglumki yuz ming pora bo'lmish,  
Havosida aning ovora bo'lmish.

Demonkim, har biri bir pora qondur,  
Guli anduh bargidin nishondur.

Oling har biringiz bir porasini,  
Yig'ib oning tuman ovarasini.

Azimat ko'yiga tez aylang oxir.  
Aning boshig'a gulrez aylang oxir.

Demon gulbarg soching osmondin  
Ki, yog'durtung yog'in ustiga qondin.

Chu hijroni gunahsiz oldi jonim,  
Aning ko'yini tutsun bori qonim».

Bu yanglig' to sahar aylab marog'a<sup>9</sup>,  
Qilib yuz mojaro har mojarog'a.

O'lardin benadomatliqlar aylab,  
O'zi birla qiyomatliqlar aylab.

Chu bordi quvvati afg'on qilurdin,  
O'zi o'ziga qasdi jon qilurdin.

Yana tushti o'lukdek tark etib hush,  
Azosig'a bo'lub olam siyahpo'sh.

Yaqosin motamida subh etib chok,  
To'kub anjum durin so'gida aflok.

Chu oni g'am tuni o'lturdi ne sud,  
Dam urmoq mehridin subh otasholud.

Bu ermish rasm bermak zoli ofoq,  
Chu masmum o'ldi, andin so'ngra taryoq<sup>10</sup>.

Ketur, soqiy, manga taryoqi joni,  
Demon taryoq, obi zindagoni.

Yongildim chun topib men hajrdin bahr,  
To'kub taryoqni, quy jomima zahr.

#### XLIV

*Farhodning bandi ochilg'onin va zindondin kanora qilg'onin Xusrav bilib nigohbonlarg'a siyosat fikri qilib, yana Farhod ishqi tog'ining tig'idin hisob olg'oni va ul ishni hilmasga solg'oni va Shirinning ishq ahli surud va simoidin aning marsiyasi navhasin istimo' qilg'oni va simo'da vajd ahlidek bexudona yiqilg'oni va Shopurning Farhod tirikligi xabarin Shiring'a hayot mujdasi yetkurgani va jonbaxsh damidin jonsiz jismig'a ruh kiyurgani va Shirin kirpikdin xoma murattab qilib hajr dudasi bila ashkidin qaro murakkab qilib noma raqam urub Shopur Farhod sori qadam urmog'i.*

Bu avroq uzra surgan xomai dard,  
Raqam bu nav' qildi nomai dard.

Kim, ul fursatdakim Farhodi bexud.  
Balo qo'rg'onig'a bo'ldi muqayyad.

Bo'lub asror ulus sirrig'a voqif  
Kim, uldur g'ayb asrorig'a koshif.

Fano burjida raxshon axtar uldur,  
Vafo durjida ravshan gavhar uldur.

Viloyat mash'alidin jonida nur,  
Karomat nuri birla ko'ngli ma'mur.

Qachonkim, ko'ngli istar ochilur band.  
Alar ko'ngli uchun o'zin qilur band.

Alar jon birla oni aylab ozod,  
Hamul ozodlig' birla bo'lub shod.

Valek ul tegrada oning matofi,  
Yiroq tushmas edi hargiz tavofi.

Ki, ul holatni ma'lum etsa Parvez,  
G'azabdin bo'lmag'ay ul elga xunrez.

Valek ul qayddin oning xalosi,  
Alar birla tariqi ixtisosi.

Bori Xusravg'a zohir bo'ldi bir-bir  
Ki, hukmig'a ne yanglig' etti tag'yir.

Burun qindin chekib tig'i siyosat,  
Alarg'a ayladi big'i siyosat.

Chu ish kayfiyatig'a bo'ldi tolib.  
Yana ko'ngliga bo'ldi vahm g'olib.

Kim, ul bedildin o'lmas bo'lsa g'ofil,  
Afolloh', balki sohibdil, ne bedil.

Bori holig'a chun qildi nazora,  
G'arobat fahm bo'ldi beshumora.

Chu el hifzig'a ul shaydoi ayyom,  
Yiroq qo'ymas emish ul marzdin gom.

Dedi: «Avloki bilmaslikka solsam,  
Eshitsam ham eshitmaslikka solsam».

Topib Farhodni ul rishtada band,  
Bu bandi birla Xusrav bo'ldi xursand.

Valek ul vaqtikim Farhodi bedil,  
Tutuldi chora aylab «shohi odil».

O'zin qo'rg'ong'a solmish erdi Shopur,  
Ani aylab ul ish anduhi ranjur.

Dema ul ranj ila bistarg'a tushti  
Ki, gulxan ichra xokistarg'a tushti.

Ishi erdi fig'onu nola qilmoq,  
Tanin tosh birla yuz pargola qilmoq.

Ulus onglabki, Parvezi jafokesh,  
Bo'lub yuz makr birla hiylaandesh.

Tutub Farhodni g'adr aylab og'oz,  
Tikib dor o'ldi avval kinapardoz.

Yana ne hiyla ko'rguzdi xayoli  
Ki, bedildin qilib maydonni xoli.

Ani to qay taraf ovora qildi,  
Bu yanglig' bori daf'in chora qildi.

Hamul holatda Farhodi yagona,  
Ne so'zlar birlakim aytib tarona.

Ne so'z kim bo'ldi Xusravdin xitobi,  
Savolotig'a ne bo'ldi javobi.

Yana chun qatl hukmin qildi Parvez,  
Degon so'zlar nechukkim dashnai tez.

Aning hukmig'a parvo qilmag'oni,  
Asosin ko'zga mutlaq ilmag'oni.

So'z ichra fahm o'lub sultonlig' andin,  
Xitou Chin eliga xonlig' andin.

Najodi fahm bo'lmoq gavhari ham,  
Bulardin faxri yo'qluq bir sari ham.

Bo'lub erdi xaloyiq ichra mashhur,  
Yamon, yaxshi demaktin erdi ma'zur.

Ki, el Parvezdin mag'bun edilar,  
Dog'i oning uchun maftun edilar.

Deb ul ma'nida tab' ahli g'azal ko'p,  
Mug'anniylar yasab savtu amal ko'p.



Chekib dard ahli ohin oshiqona,  
Tuzub ul savtlar birla tarona.

Ayolg'u borchag'a Farhod holi,  
Surud ul xastai noshod holi

Ki, Xusravg'a ne nav' o'ldi giriftor,  
Arolarida ne nav' o'tti guftor.

Bu dam holi dag'i mafhum emas, lek  
O'luk yoxud tirik ma'lum emas lek.

Bu yanglig' omning savti simoi,  
Bo'lub ham erdi Bonu istimoi.

Anga bo'lmay bu g'amda aqlu his yor,  
Tahayyur birla yig'lar yerdi bisyor.

Bo'lub ko'p g'ussa ul g'amkashg'a zohir  
Ki, bu ish bo'lmasun mahvashg'a zohir<sup>2</sup>

Ki, bu nav' anglasa oning so'zini,  
Shak ermasturki o'lturgay o'zini.

Vale gulchehra g'amgin erdi behad,  
O'zinda erdi gohi, gohi bexud.

Sezib erdiki, ul g'urbat asiri,  
Hamono bo'ldi dushman dastgiri.

Yoshurub parda ichra holi zorin,  
Nechukkim hullada jismi nizorin.

Bu o'tdin suv bo'lub xorosi oning,  
Vale yo'q so'rg'oli yorosi oning.

Chekib hijron aro ohi nihoni,  
Qarorib dudi ohidin jahoni.

Magarkim bir kun ul g'amnoki miskin,  
Firoq ichra bag'oyat erdi g'amgin.

Chu ko'ngli hajr toshidin siniqti,  
Zamone qasr tomi uzra chiqti.

Ki, bir soat havo kasb qilg'ay,  
Havodin g'unchadek ko'ngli ochilg'ay.

Qulog'ig'a yetushti bir hazin un  
Ki, lahn aylar edi bir zori mahzun.

Ani ul nag'ma lahni zor qildi,  
Buzuq ko'ngliga behad kor qildi.

Quloq soldiki abyotin eshitgay,  
Surud ichra maqolotin eshitgay.

Anga har bayt bir g'amxona erdi,  
Bori Farhoddin afsona erdi.

Ne kelturgan boshig'a charxi kajrav,  
Nelarkim ayladi jonig'a Xusrav.

Bayon aylab aning favtin chekib ho'y,  
Demakda favt qilmay bir sari mo'y.

Eshitgach mahvash ul lahni g'amangez,  
Degil bag'rig'a tegdi dashnai tez.

Aningdek chekti bir ohi jigarso'z  
Ki, o'chti sham'i mehri olamafro'z.

Yuziga boshladi urmoq taponcha,  
Boshin dog'i urub yerga yuz oncha.

Sekiz gul bargi birla betaammul,  
Sarig' gul uzra oqizdi qizil gul<sup>3</sup>.

Bo'lub barmoqlari qondin hino rang,  
Vale la'li qururdin kahrabo rang.

Sirishki qoni yuz qonida oqqon,  
Hamonokim yur erdi qon bila qon.

Bo'lub gulgun hariri chok elidin,  
Nechukkim gul yaqosi tong yelidin.

Kelib gulgun hariru parniyoni  
Qolog'ay chun oqib har yerda qoni.

Urub gulgun yaqo chok aylaguncha,  
Bo'lub zohir gul ichra ikki g'uncha.

Dema g'uncha, iki paykon de oni,  
G'am o'qi ko'ksidin o'tkan nishoni.

Iki nargis aro yuz qatra lola,  
Sovuq ohi bila gulrang jola.

Ochib sunbulni gulbargi tar uzra,  
Savodi shom mehri xovar uzra.

Sochi shominki aylab mehru mah po'sh,  
Yuzin ul so'gidin aylab siyahpo'sh.

Yuzi o'tida zulfi anbarolud,  
Ul o'tqa chun yog'ib ashki, chiqib dud.

Urunub oncha sho'ru shayn qildi  
Ki, za'f aylab, esi ozib yiqildi.

Boshi ustida Bonu ashkrezon,  
Qaroru sabri ko'nglidin gurezon.

Bu holat ichra yetti xasta Shopur,  
Zamona zarbasidin jismi ranjur.

Yer o'pti Bonu ollinda qo'yub bosh,  
So'z aytib, shodmonlig'din to'kub yosh

Ki: «Gardunmasnado, anjumsipoho,  
Humoyunorazo, ismatpanoho».

Hamul kundinki shohi kishvari ishq,  
Balo avjida raxshon axtari ishq.

Desam shah — shah, desam darvesh — darvesh.  
G'aribu xasta Farhodi jigarresh.

Aduvning domi makrig'a bo'lub sayd,  
Aning qaydig'a zohir bo'ldi yuz qayd.

Bihamdillah<sup>5</sup>, anga qayd aylagonni,  
O'kush talbis ila sayd aylagonni.

Olib bir devkush xoroki ottim.  
Jahannam xittasi sori uzottim.

Ko'zum chun orazidin bo'ldi mahjur,  
Yotardim go'shalarda zoru ranjur.

Ne sud oning sori bo'lmoqqa ozim.  
Ne yuzkim sizga bo'lg'oymen mulozim.

Tuno kungacha erdim zoru g'amkash,  
Yiqilg'on bir buzug' ichra mushavvash.

Chu qo'rg'on ichra bo'ldum asru diltang,  
Qo'pub tashqari chiqmoq qildim ohang.

Qadam boru uza har sori soldim  
Ki, o'zni qal'adin tashqori soldim.

Ki, ul xayl ichra kezib ertau kech,  
Topa olg'aymu men andin xabar hech?!

Kirib Parvez o'rdusig'a bu shom.  
Tutub har anjuman yonida orom.

Yetib ishratgahu g'amxonalarg'a,  
Quloq solur edim afsonalarg'a.

Hamono qat' o'lub gardun nifoqi,  
Ajab mansuba tushti ittifoqi.

Ki, ham ushbu kun ul fardi zamondin,  
G'aribu xastau bexonumondin.

Ulus ichra hadisi toza erdi,  
Bag'oyat bulajab ovoza erdi».

Nechukkim anglamish erdi yako-yak,  
Borin sayrodi andog'kim chakovak<sup>6</sup>.

Munga tegruki holo sog' emishtuk,  
Yeri gah dashtu gohi tog' emishtuk.

Aodi xavfidin hosil farog'i,  
Bo'lub a'dosining chashmu charog'i.

Valoyatdin ko'rub holida partav,  
Ani vahm aylab o'lturmakka Xusrav.

Vale aytibki, ul bemisli ayyom.  
Agar ul marzdin qo'ysa yiroq gom:

Ani asrar ulusni o'ltururmen,  
Ne o'lturmakki, borin kuydururmen.

Bu vahmu himdin ul bedili zor  
Ki, Xusravdin birovg'a yetkay ozor.

Kim, ul bo'lg'ay bu ozorig'a bois.  
Jafou qatlu timorig'a bois.

Hamul tog' tegrasidin komu nokom,  
Tuta olmas yiroqroq yerda orom.

Chu men oning bu ahvolin eshittim,  
Anga bormay ravone sizga yettim.

Kim elning chinu yolg'on so'zlaridin  
Ki, ko'prakni yasarlal o'zlaridin.

Bilur erdimki Bonu qayg'ulug'dur,  
G'ami Farhod tog'idin ulug'dur.

Yana ham xo'blar shohini anduh  
Bilur erdimki tutmish ko'h to ko'h.

Dedimkim, sizga dey avval xabarni,  
Qilay xandon burun gulbargi tarni.

Yana sizdin anga ham ko'z tutay so'z,  
Borib oning yuzidin yorutay ko'z.

Tavaqquf so'zgakim dersiz etaymu,  
Yo'q ersa so'z, anga botroq ketaymu?»

Mihinbonu bu yanglig' so'rdi posux  
Ki: «Ey alfozi xush, diydori farrux.

Takallumlarki lafzing surdi darham,  
Jarohatliq ko'ngulga erdi marham.

Sening hajringda erduk asru noshod,  
Yana Farhod hajrin qilma xud yod.

O'zungni hajridin ozod qilding,  
Aning hajri g'amidin shod qilding.

Nedur ikki qadah tutqon zamon no'sh,  
Yana zahri halohil tutmog'ing qo'sh.

Borur bo'lsang anga e'lomimiz ko'p,  
So'zumiz behadu payg'omimiz ko'p.

Sumanbar<sup>7</sup> holatin ham sharh qildi  
Ki, ne so'z anglab ushbu dam yiqildi.

Bihamdillahki, ko'rduk seni bori,  
Ani ko'rgoncha bo'ldi e'tibori».

Debon yig'lashtilar ko'p ul, dag'i bu,  
Hazin Shopur ila dilxasta Bonu.

Ikavlon munglashib, so'zlar qilib yod,  
Yetishganni falakdin zulmu bedod.

Debon Shopur ul dilxasta holin,  
Mihinbonu debon mahvash malolin.

Bu yanglig' qissalar o'tkuncha laxte,  
Yotib Shirin nechukkim sho'rbaxte.

Dimog'ig'a tutub har dam buxurot,  
Ani o'z holig'a kelturdilar bot.

Ko'z ochqoch ko'rdi Shopuri hazinni,  
Yana yod etti Farhodi guzinni.

Biyik un chekti andog' bexudona  
Ki, afg'onidin o't chekti zabona

Ki: «Ey Shopur, qaydin bo'yla yetting,  
Kelibsen fard, Farhodingni netting?

Hamul kun mehr ko'sin urmish erdim,  
Borur chog'da sanga topshurmish erdim.

Rafiqu yorliq mundoq bo'lurmu,  
Amonatdorliq mundoq bo'lurmu?

Manga o'z g'oyibimdin bir nishon ayt,  
Desangkim, hajridin o'lmay, ravon ayt.

Gar etsang maksu, nogah chiqsa jonim,  
Yaqin bilkim erur bo'yingg'a qonim».

Dedi Bonuki: «Ey jonimg'a payvand,  
Labing la'li kelib bag'ring'a parkand.

Zamone iztirobing topsa taskin,  
Base so'z arz etar Shopuri miskin

Ki, har birdin yetib yuz komu rohat,  
Butar ham yangi ham eski jarohat».

Eshitgach bo'yla so'z sham'i Tirozi,  
Kuyub, zohir bo'lub ashki niyozi.

Dedi: «K-ey misli yo'q ustodi naqqosh,  
Demay naqqoshkim, yoru qarindosh.

Ne der bo'lsang o'zungni tutma ma'zur».   
 Ravon bunyod qildi xasta Shopur.

Ishin Farhodning andoqki bildi,   
 Borin Shirin qoshida arz qildi.

Anga tegruki holi ul tirikdur,   
 Vale hajringda holi bas irikdur.

Borur erdim anga zoru jigaxor,   
 Dedim avval seni aylay xabardor.

Agar mahvashqa yo'l topmay maloli,   
 Iki-uch nukta yozsa sharhi holi.

Borib ollinda mo'jiz ko'rguzurmen   
 Ki, o'lgan bo'lsa dog'i tirguzurmen.

Pari paykar dedi, jonimg'a minnat.   
 Ravon qo'ptiyu qildi azmi xilvat.

Bitidi dard ila bir turfa maktub,   
 Demay har satrikim, har lafzi marg'ub.

Chiqib Shopurg'a topshurdi filhol,   
 Ul olib yo'l sori gom urdi filhol.

Qilib yo'l qat'ini eldin nihoni,   
 Angachakim eshitmish erdi oni.

Yetishti ul saharkim, shomi Farhod   
 Tong otquncha qilib jonig'a bedod.

Borib erdi o'zidin zoru mahjur   
 Ki, yetti qoshig'a farzona Shopur.

Qilib ram tegrasidin vahsh ila tayr,   
 Borib qoshig'a ul payki sabuksayr.

Ko'rub andoqki oni ko'rmasun ko'z,   
 Ne jismi ichra jon, ne og'zida so'z.



Chehib afg'on olib qo'ynig'a boshin,  
Yuziga ul sifat yog'durdi yoshin

Ki, ul yanglig' gulob urg'och yuziga,  
Ochib bedil ko'zin, keldi o'ziga.

Chu ul ko'rdi muni, bu ko'rdi oni,  
Ikovlon tortibon muhlik navoni.

Solibon bir-birining bo'ynig'a qo'l,  
Anga gah bu, munga gah yig'ladi ul.

Chehib andoq bu oshub imtidodi  
Ki, qon yig'lab alarg'a tog'u vodi.

Ayog'in o'пти Shopuri g'amandud,  
Chiqordi qo'ynidin maktubi maqsud.

Olib Farhod chunkim ochti noma,  
Tani za'f ayladi andoqki xoma.

O'qumoq boshlag'och ul zori mahzun,  
Bu erdi noma alfozig'a mazmun.

#### XLV

*Shirinning nayi kilki shakarrezlik, halki sahifai kofurig'a mushkbezlik qilg'oni  
va hajr qaro shomi mushkidin ro'zgori tiyra bo'lub ul royiha yabusatidin'  
dimog'i za'fi quvvatin va sudoi shiddatin va nomus pardalari nofasida  
ishq g'ammoz mushki isin nihon asramoq suubatin raqam urg'oni va  
Farhod o'qub aning sunbuli mushkinidek pechu tobdin esi ozg'oni va  
bexudona aning nomasig'a javob yozg'oni*

«Aning hamdi bila bu nomai dard  
Ki, soldi dahr aro hangomai dard.

Vafo ahlini qilg'on mazhari qahr,  
Solib komig'a hijron jomidin zahr.

Ko'rub ishq ahlig'a kuymoklik avlo,  
Jaloliyat bila aylab tajallo.

Urub chun ishq barqin betaammul,  
Agar sarvu agar xaskim qilib kul.

Muhabbat selig'a berganda bedod,  
Yiqarda demayin vayronu obod.

Yeturgach g'am yelining turktozi,  
O'chub teng mash'alu sham'i Tirozi.

Qilib chun mehnat o'ti dudini fosh,  
Agar ko'ru agar bino to'kub yosh.

Sinib g'am toshidin yetkursi kina,  
Agar yoqut agar xud obgina.

Somong'a gar berib ranji nihoni,  
Hamul kohivash aylab kahraboni.

Agar bulbul fig'on qilmog'i ondin,  
Bo'lub gul jaybi choki dog'i ondin.

Ham ondin zarra tobu iztirobi,  
Ham ondin mehri raxshon so'zu tobi.

Bitib chunkim berib insho kushodi  
Kim, ushbu noma yo'q, mehnat savodi.

Demon bir sham'din parvona sori,  
Samandardin bir otashxona sori<sup>2</sup>

Ki, ya'ni men zaifi xastajondin,  
Malolat qal'asiga posbondin<sup>3</sup>.

Sangakim, qal'ang o'lmish ko'hi anduh,  
G'amu dardu firoqing ko'h to ko'h.

Nedur ahvoling, ey zori g'aribim,  
Visolim davlatidin benasibim?

Chekardin g'am tog'in holing nechukdur,  
Bu yukdin jismi chun noling nechukdur.

Qatiq g'urbat aro holing ne erkin,  
Achiq furqatda ahvoling ne erkin?

Firoq ichra nechukdur jismi zoring,  
Ne yanglig' to'lg'onur o't ichra toring?

Sochim fikrida tunlar aylasang pech,  
Qarorurmu jahoning tun kibi hech?

Qoshim mehrobini yod aylagan dam,  
Yangi oydek bo'lurmu qomating xam?

Ko'zum fikri ichingga solsa qayg'u,  
Balo har go'shadin tug'yon qilurmu?

Chu mujgonim g'amidin chiqsa ho'yung,  
Bo'lurmu bir tikon har tora mo'yung?

Qarog'imni taxayyul aylagan chog',  
Xayoling shaxsi o'rtarmu yangi dog'?

Engim gulbargidin bo'lg'onda mahzun,  
Yuzung gul-gul qilurmu ashki gulgun?

Qilib xolim g'ami ko'nglungga kinlar,  
Qo'narmu ul yarang uzra chibinlar?

Yuzum hajrida to'ksa ko'zlaring suv,  
Quyosh ruxsorig'a boqqung kelurmu?

Ko'zung la'lim g'amidin to'ksa qon yosh,  
Bo'lurmu la'l ul qon birla har tosh?

Tiling qilsa hadisimdin rivoyat,  
O'zung birla qilursenmu hikoyat?

Tishim yodida ko'nglung cheksa nola,  
Yoshingni sovuq oh aylarmu jola?

Zamiring qilsa og'zimni tavahhum,  
Adam yo'lida aylarmu o'zin gum?

Zanaxdonim bila zulfi girihgir,  
Hazin ko'nglungga erkin chohu zanjir?

Qarog'im durri ashking qilsa kavkab,  
Bo'lurimu ko'zlarinig durrdin labo-lab?

Qadim hijroni bo'lsa kinaxohing,  
Chiqormu sarv yanglig' dudi ohing?

Xayol etsang xiromimdin shamoyil,  
Ravoning chiqqali bo'lurmu moyil?

Belimdin za'f bo'lsa ko'nglunga hol,  
Bo'lurmu mo'yadin mo', noladin nol?

Tanim siymi ichingni qilsa mahzun,  
Bo'lur erkin yuzung ul g'amdin oltun?

Maqoming tog' yo sahromu erkin,  
Yoningda bistaring xoromu erkin?

Humoyi ishrating ma'dum ekinmu,  
Boshingg'a soya solg'on bum ekinmu?

Kiyik erkin yururda rahnamoying,  
Qulon erkin samandi bodpoying?

Sharafdin bo'lg'on ermishsen Sulaymon,  
Mening birla unutmahdu paymon!<sup>4</sup>

Vuhush ermish sening ollingda xodim.  
Sibo' ermish tobug'ingda mulozim.

Bahoyim tobei farmoning ermish,  
Janohi tayr shodurvoning ermish.

Chu sen topting Sulaymonliq maqomin,  
Demon qil manga Bilqis ehtiromin<sup>5</sup>.

Agar Bilqisdek yoru azizing  
Bo'la olmon, ham o'lg'aymen kanizing.

Bir ish Bilqisliqqa bo'lsa mone',  
Sulaymong'a pari ham keldi tobe'.

Agar Bilqis bo'lmoq yo'qsa haddim,  
Pariliqdin xud o'lmas qilsa raddim.

Ne bo'lg'ay erdi charxi zulmpesha,  
Meni sendin judo qilmay hamesha.

Xiroming chog'i yo'ldosh o'lsam erdi,  
Sukuning vaqti qo'ldosh o'lsam erdi.

Quyosh yanglig' bo'lub kunduz qarining,  
Bo'lub tun soya yanglig' hamnishining.

Tikon kirska kafingg'a kinasidin,  
Chiqorsam erdi kirpik ignasidin.

Ayog' sunsang bo'lub g'amdin xaroshing,  
Mudom o'lsa edi qo'ynumda boshing.

Ko'rub xoru xas o'rnungda nihoni,  
Sochim birla supursam erdi oni.

Chu bilsam garddin ko'nglungda qayg'u,  
Yer uzra ashkdin sepsam edi suv.

Boshingg'a tushsa mehnat shomi jovid,  
Yuz ochib zohir etsam erdi xurshid.

Agar joningg'a qasd etsa uzun kun,  
Sochim yetkursa erdi anbarin tun.

Yuzungni olmasam erdi engimdin,  
Aritsam erdi ashkingni yengimdin.

Junun ta'vizig'a ko'rganda moyil,  
Qo'l etsam erdi bo'ynungg'a hamoyil.

Tilar bo'lsang yuzung ko'rmakka ko'zgu,  
Yuzum yuzungga tutsam erdi o'tru.

Suv istab tushsa o'tlug' ko'nglunga jo'sh,  
Labimdin tutsam erdi chashmai no'sh.

Damo-dam aylabon hamdamlig'ingni,  
Kecha-kunduz qilib mahramlig'ingni.

Tunungda sham'i majlis bo'lsam erdi,  
Kun o'lsa yoru munis bo'lsam erdi.

Chu aylabtur sipehri tezraftor,  
Seni bir yon, meni bir yon giriftor.

Kishi gar ko'ksini yuz pora qilsun,  
Falak bedodig'a ne chora qilsun?!

Aning bedodidin kim bo'lsa noshod,  
Qilur jonig'a bedod uzra bedod.

Necha sen bastai bandu balosen,  
Balolar bandi ichra muhtalosen.

G'amu dardingcha dard imkoni yo'qtur,  
Balou mehnating poyoni yo'qtur.

Vale bo'lmish jahon ahlig'a ma'lum  
Ki, ilgingda qotiq xoro erur mum.

Chekarga dardu anduh jur'ating bor,  
Balo tortarg'a sabru toqating bor.

Agarchi furqatimdin notavonsen,  
Vale ham ersenu ham pahlavonsen.

Agar tug'yon qilur hijron maloli,  
Qilursen oh ila ko'nglungni xoli.

Mashaqqat o'ti qilsa jisminga kin,  
Berursen ashk seli birla taskin.

Yetishgach dard chun har yon ketarsen,  
Fig'onu po'ya birla daf' etarsen.

Agar ko'ksungga ursang g'ussa toshi,  
Vagar joningga mehnat durboshi".

Nekim qilsang so'zi sig'mas kishining  
Ki, bu tavri bo'lur oshiq ishining.

Meni zoru zaifu poshikasta,  
Boshimdin to ayoq a'zo shikasta.

Firoqing tig'idin yuz pora jonim,  
Ne jonim, balki jismi notavonim.

Kuyub hajr o'tidin jonu ko'ngul ham,  
Ne kuymakkim, bo'lub yuz qatla kul ham.

Ichimga shu'lai ishqing tutoshib,  
Tutoshib demakim, boshimdin oshib.

Ichimda bo'lsa yuz o't oshkoro,  
Nafas dudin urarg'a qayda yoro?!

Gar o'lsa la'l birla ko'zlarim kon,  
Oqizmoq qatraye andin ne imkon.

Necha xotun kishi bor ersa tavsan,  
Bo'lub ozodalig'da sarvu savsan.

Jamol ichra mahi tobondin afzun,  
Mahi tobonni qo'ykim, ondin afzun.

Anga yaxshiki aylab dilraboliq,  
Vafo ahlig'a qilg'ay bevafoliq.

Haq andin asrasunkim ul zabunvash,  
Birovning ishqidin bo'lg'ay mushavvash.

Girihlar hajrdin qoshig'a tushgay,  
Girihlik ishq ishi boshig'a tushgay.

Ne ishq o'tig'a kuymaklikka tobi,  
Ne andin qurtulib joni xarobi.

Ayog' ostig'a qolsa notavon mo'r,  
Ketursa qatlig'a yuz ajdaho zo'r.

Chu ul bo'lmish xaloyiq poymoli,  
Yuz ajdar changida bo'lg'ay ne holi.

Chaqilsa barq olam ichra bebok,  
Tura olg'aymu o'trusida xoshok?

Bu mushkilroqki mundoq zoru bedil  
Ki, bedilliq erur jonig'a mushkil.

Anga bir yon erur yuz muncha afsus,  
Yana bir yon hijobi nangu nomus.

Nihoni ursa tun-kun yuz tuman pech,  
Agar nomusi bordi borchasi hech.

Bag'oyat mushkul ish ermish, bag'oyat  
Ki, oshiq nangu nom etgay rioyat.

Uchursa ohi yetti ko'k<sup>7</sup> niqobin,  
Yuzidin ochmag'ay burqa' hijobin.

Demon mendin sening darding erur kam,  
Sening ham ko'pturur darding, mening ham.

Vale yuz muncha dardi toza birla,  
G'amu anduhi beandoza birla.

Chu dardu g'urbatingni yod etarmen,  
Hazin jonimg'a yuz bedod etarmen.

Agarchi bo'lg'oli ishqing asiri,  
O'tar aflokdin ohim nafiri.

Dame xush urmadim afg'on ichinda,  
Dame xush bo'lmadim hijron ichinda.

Olib dushman sipohu afsarimni,  
Qilib toroj mulku kishvarimni.



Menu xaylim nechukkim bumi manhus,  
Bo'lub bir g'or aro tog' ichra mahbus.

Munungdek mulkning shohu faqiri,  
Bo'lub boshdin-ayoq dushman asiri.

Tutulg'onlar qilib jonini taslim,  
Qutulg'onlarni har dam o'lturub bim.

Bular elga mening ishqim ishidin.  
Qulog'im yolqibon el qarg'ishidin.

Qilib jonimg'a qasd eldin uyotim,  
O'chub Bonu uyotidin hayotim.

Vale yuz muncha mehnat bo'lsa erdi,  
Ne yuz, ming muncha shiddat bo'lsa erdi,

Seni ko'rsam edi nogoh-nogoh,  
G'amim yo'q erdi billoh, summa billoh<sup>8</sup>.

Bu dam hamkim firoqingdin o'lubmen,  
Yuz o'lgandin ham ortuqroq bo'lubmen.

Hayotim vaslinga ummid ilandur,  
Umid ul rahmati jovid ilandur.

Agar hajringda yuz yil g'ussakashmen,  
Agar vasling umidi bo'lsa xushmen.

Tavaqu' ulki bu oshufta noma  
Ki, bu oshufta qildi naqshi xoma.

O'qub mazmunidin olsang hisobin,  
Karam aylab yiborgaysen javobin

Kim, ul har g'amda bo'lg'ay hirzi jonim.  
Balou g'ussadin xatti amonim.

Chu bo'lsang holima ogohu a'lam,  
Javobin ham yibor, vallohu a'lam».

O'qub bu nomani ul zori badhol,  
Ko'p urdi tob jismi o'ylakim nol.

Gahi bexud chekar erdi fig'oni,  
Qo'pub yuz charx urar erdi zamoni.

Junun osorini ko'p zohir etti,  
O'ziga keldi gohi, goh ketti.

Junundin garchi ko'p bo'ldi nafiri,  
Yo'q erdi noma yozmoqdin guziri.

Chiqordi noma asbobini Shopur,  
Murakkab aylamakka mushku kofur<sup>u</sup>.

O'zin devona birdam zabt qildi  
Kim, ul dardu balo sharhi yozildi.

Berib Shopurni qildi ravona,  
O'zi dard o'ti ichra qoldi yona.

Yugurdi nomabar chun noma olib,  
Ne nav' o'lsa o'zin qo'rg'ong'a solib<sup>u</sup>,

Yetib mahvashning ollinda yer o'pti,  
Bitikni yerga qo'ydi, dog'i qo'pti.

Sumanbar yig'layu xilvatqa kirdi,  
Sarodin hujrai mehnatqa kirdi.

Ochib chunkim o'quy boshlodi oni,  
Bu yanglig' erdi ul g'am dostoni.

#### XLVI

*Farhodning Shirin nomasi muqobalasida xoma uchun metin no'gidek tez etib, ul xoma bila varaq taxtasin metin xoro taxtasig'a tekkondek otashangez qilg'onini va pari afsunidin ajz zohir qilib, telbalardek o'zin itlar silsilasig'a tortib loba ko'rguzgonini pari paykar o'qub, parizadalardek iztirobqa tushub, ko'ngli qushi majnuni sori parvoz qilib, ani ko'rarga ko'zi uchqoni, balki majnuni uyqu xaylidek aning ko'zidin uchqoni.*

Aning oti bila bu g'am savodi  
Ki, naqshi kilkidur olam savodi.

Yorug'a husn sham'i shomi dayjur,  
Chiqorib ishq barqi noridin nur.

Chehib chun ishq norining duxonin,  
Qarortib dard elining xonumonin.

Quyoshdek kimning aylab husnin ofot,  
Ulusni qo'zg'abon andoqki zarrot.

Anikim oshiq aylab zarra monand,  
Qilib sargashtaliklar birla xursand.

Angakim bermayin o'z mulkidin bahr,  
Qilib g'urbat mayin talx o'ylakim zahr.

Diyoru yor dardin qattig' etgan.  
Firoqu hajr jomin achchig' etgan.

Birovgakim berib g'urbatda maskan,  
Jahon ahlin qilib jonig'a dushman.

Anikim do'stdin aylab tarabnok,  
Ulus dushmanlig'idin bermayin bok.

Chiqorur elni g'am hangomasidin,  
Qilib masrur dilbar nomasidin.

Balo tog'in sarosar xora qilg'on,  
Anga ishq ahlini ovora qilg'on.

Muhabbat dashtini qilg'on baloye,  
Etib har mo'rin oning ajdahoye.

Surub chun nuktani hamd ichra laxte,  
Deb andin so'ng nechukkim sho'rbaxte

Ki: «Bu mehnat o'tining dostoni,  
Savodi g'ussa dudidin nishoni.

Tikondin yo'qki sarvu yosaming'a,  
Tomug'din balki firdavsi baring'a.

Tomug'ni qo'yki, ohin tortqon kun,  
Bo'lub bir do'zax ohidin har uchqun

Ki, ya'ni men g'aribi notavondin,  
Tutulg'on zor ko'ngli xasta jondin.

Ko'ngul bo'lg'on baloyi joni oning,  
Borib jondek ko'ngul olg'oni oning.

Angakim yo'q hadim jonon demakka,  
Qayu jonon demakkim, jon demakka.

Va lekin chun junun ma'zuridurmen,  
Junun birla jahon mashhuridurmen.

Nedinkim ofatim bo'lg'on paridur,  
Pari yo'q, odamilar sarvaridur.

Ishim chun telbalikka topti payvand,  
Ajab yo'q, so'z desam devonamonand.

Junun ahli hadisi borsa har yon,  
Bo'lur zohir xirad ahlig'a hazyon.

Paridin noqili afsonadurmen,  
Ne tong sahv o'lsakim, devonadurmen.

Va lekin keldi chun Layli misoli,  
Qilay Majnun kibi ko'nglumni xoli.

Nigoro, mahvasho, iffatpanoho,  
Jahon mahvashlarig'a podshoho!

Sanga haddim yo'q o'lmoq nuqtapardoz,  
Tilarmen itlaringg'a aytmoq roz.

Nedur ko'yung aro itlarg'a holat,  
Farog'at birladurlar, yo malolat?

Kecha ul ko'y aro qilg'onda faryod.  
Qilurlarmu bu itgan itni ham yod?

Yig'ilib halqa urg'on mojaroda,  
Meni yo'qlarmu erkinlar aroda?

So'ngak chaynarda aylab qahru kinlar,  
Qurug' jismim sog'inurmu ekinlar?

Qilurda tu'ma toshdin yonchqon bosh,  
Bilurlarmukin yer boshim nelar tosh?

Su sori tillari qilg'on zamon mayl,  
Sog'inurlarmu ashkim suyini sel?

Bo'yinlarig'a sagbon cheksa zanjir,  
Sog'inurlarmu zanjirimni bir-bir?

Qilodang tavqidin har dam topib zavq,  
Sog'inurlarmu tushkan bo'ynuma tavq?'

Yotib bosh qo'ysalar ul ostong'a,  
Qolur erkinmu yer bu notavong'a?

Bilibkim manga ne yetmish qazodin,  
Ulurlarmu ekin har tun azodin?

Hinodin qo'llarin ko'rganda rangin,  
Ko'zum qonin sog'inurlarmu erkin?

Rasan topsa bo'yunlarig'a payvand,  
Bilurlarmu ekin bo'ynumda yuz band?

Bular ichra bor erdi bir zaif it,  
Meningdek zoru majruhu nahif it.

Tani zoru so'ngak birla bo'g'unlar,  
Mashaqqat torig'a solib tugunlar.

Quloqdin ikki yuzga parda solib,  
Yuzin ochmoqqa itlardin uyolib.

Qilibon quyruq'in sudrarni pasha,  
Horib ul yukni tortordin hamisha.

Chibinlar jismini majruh etar chog',  
O'luksa uzra andoqqim suruk zog'.

Ichimdek xasta jismining xaroshi,  
Boshimdek, dard tufrog'ida boshi.

Ichimda hajr o'qi solg'oncha yora,  
Qo'turdin oncha zaxmi oshkora.

Mening zaxmimdag'i qonlar nihoni,  
Nihon aylab aning zaxmini qoni.

Meningdek za'f o'tidin jonida o'rt,  
Yuzung ko'rmak xayolidin ko'zi to'rt.

Vafo bobida ikkimizda da'vo,  
Muhabbat shartida ham bizda da'vo.

Topib o'z holatin bu notavonda,  
Manga ulfat tutub ul ostonda.

Mening holimg'a ul aylab tarahhum,  
Anga ul nav'kim ahli tana'um.

Ko'rubmen anda mardumlig' nishoni,  
Ko'zumda indabon mardumdek oni<sup>2</sup>.

Ko'zum qonining oqmog'in chu boqib,  
Aning dog'i ko'zumdek qoni oqib.

Rafiq erdi manga men ham rafiqi,  
Mening holimg'a rifq oning tariqi.

Ne erkin za'f ichinda holi, yo Rab,  
Bu itdekmu ekin ahvoli, yo Rab?!

Toporda ostoningda panohi,  
Meni ko'zlarmu erkin goh-gohi?!

Ko'ngulda o'ylakim dardi nihoning  
Kirarmenmu ekin ko'nliga oning?

Yalar vaqti jarohatlarni darham,  
Bilurmu, yo'q mening zaxmimg'a marham?

Ayog'i ko'yunga gah-gah yetarmu?  
Agar yetsa bu itni yod etarmu?

Sanga jonni fido qilmoq havosi,  
Ne haddimkim bo'lay ul it fidosi?

Sening holing so'rarg'a qayda yoro,  
Bas oning holin etsam oshkoro.

Bukim maktub aro durrlar qilib darj.  
Latoyif naqdi ko'p aylab eding xarj.

Aning uzrida ojizdur bayonim  
Ki, har harfig'a bo'lsun sadqa jonim.

Deb erding menda ham ko'ptur g'amu dard.  
Bu so'zdin kuydi joni dardparvard.

Meningdek yuz tuman ming o'lsa har dam,  
Muborak xotiringg'a bo'lmasun g'am!

Bitib erdingki, sen gar notavonsen,  
Va lekin g'am chekarga pahlavonsen.

Agar tog' o'lsa, teshangdin nigundur,  
Va gar sher o'lsa, panjangdin zabundur.

Manga ul zo'ru shavkat qayda qolmish,  
Nafas urg'uncha quvvat qayda qolmish?

Men ul mo're dururmen zoru ojiz  
Ki, andoq azj aro yo'q mo'r hargiz.

Ilayimda kesak ko'hi balodur,  
Ko'zumga pesa rishta ajdahodur.

G'amingdindur manga tobu tavon ham,  
Erur darding chekardin quti jon ham.

Necha ishqingdin o'lsa jismima zo'r,  
Va lekin ajdahoni ishq etar mo'r.

Va gar xud mo'r erur pomoli oning,  
Xayol etkim, ne bo'lg'ay holi oning?

Raqam aylab edingkim, taxtu johim,  
Diyoru kishvaru xaylu sipohim.

Menu Bonu bo'lubturbiz hisori,  
Hisoru mehnat ichra ko'hsori.

Bu so'zning gar javobin ayta olmon,  
Vale ayturda ojiz dog'i qolmon.

Bitilgan so'z erur boshtin-ayoq rost,  
Bu nav' ermish azalda Tengriga xost.

Kishiga har nekim kelgay qazodin,  
Davoye yaxshiroq yo'qtur rizodin.

Bilurmenkim ne kelmish kishvaringg'a,  
Ne bir kishvarki xaylu chokaringg'a.

Vale ulkim erur xaylu sipohing,  
Muteu banda, balkim xoki rohing.

Alardin gar biri tutsang meni ham,  
Biri ham yo'qki, tutsang barchadin kam.

Agar insofni tortib arog'a,  
Taammul aylasang bu mojarog'a.

Manga yetgan baliyat ko'pu ozi,  
Bori birla bo'la olur muvozi.

Desang mehnatqa sen erding sazovor,  
Alarg'a zulm qildi charxi davvor.



Fido borig'a joni notavonim,  
Ne qilsang ham turubdur xasta jonim.

Gar ermas muncha birla ham kifoyat,  
Mening bo'ynumg'a yuklarsen jinoyat.

Yo'lingda bor esam tufrog'din kam  
Va lekin chiqmadim tufrog'din ham.

Manga ham bor edi erkin diyore,  
Diyorim xayli ichra iqtidore.

Atom shoyadki xoqon erdi erkin.  
Necha iqlim uza xon erdi erkin.

Yetib erdi ekin boshimg'a toji,  
Ayog'im ostig'a ham taxti oji.

Xitou Chin aro o'n ikki ming shahr,  
Topar erdi ekin hukmum bila bahr.

Munga loyiq sipohu xaylu johim,  
Tariqi saltanatda dastgohim.

Yetib chun ishq xayli turktozi,  
Haqiqiy ishq, yo'q ishq majozi.

Balo xayli aro bechora bo'lmoq,  
Diyoru mulkdin ovora bo'lmoq.

Tuman ming odami gar banda, gar xayli,  
To'kub bu so'g aro ashk o'ylakim sel.

Ato birla ano qolib azog'a,  
Necha ming shahr eli ranju anog'a.

Alarni davri charx aylab adamvor,  
Mening jismimni xud tufroqqa hamvor.

Yana ko'rkim, havodis toshidin dard,  
Chiqorib har dam ul tufroqdin gard.

Azaldin ishq ekan bo'lsa sirishtim,  
Qazodin dardu mehnat sarnavishtim<sup>3</sup>.

Bu ishda kimga tig'i ta'n uroyin,  
O'zumni yo'qsa kimni yozg'uroyin

Ki, yuz mendek, tuman andoqki Xusrav.  
Habo bo'lsa, qazo ollinda bir jav.

Nekim bo'lsa qazoi osmoni,  
Kishiga bo'lmas isnod etmak oni.

Qayon erdim, qayon chekti jununum,  
Junundin yova so'z bo'ldi fununum.

Yozarda nomani hushumdin ozdim,  
Junundin hech bilmonkim, ne yozdim.

Chu men devona o'zdin erman ogoh,  
Ne sahv ettim raqam, astag'furulloh.

Xato, afv et qalamg'a bu raqamdin  
Ki, majnunlar bo'lur ma'fu qalamdin.

Qalamg'a chun tugondi safhada sayr,  
So'z itmomi edikim «tamma bilxayr!<sup>4</sup>»

Pari paykar o'qug'uncha bu maktub,  
Nihodidin chiqib yuz qatla oshub.

Tanida noma chirmar ip kibi tob.  
Vale ul ipga tob ul jismi betob<sup>5</sup>.

Qo'yub yerga shag'abdin har zamon yuz,  
Qadi g'amdin dame xam, bir zamon tuz.

Chekib gardung'a ohining sharorin  
Ki, o'rtab ul sharar sabru qarorin.

Bo'lub bir lahza ko'ngli ishratanduz,  
Tirik erkonga Farhodi jigarso'z.

Zamone nola tortib furqatidin,  
Chekib vo hasratolar hasratidin.

Qilib Bonug'a arz ul turfa maktub  
Ki, boshtin to ayog'i erdi marg'ub.

Qilib Bonu dog'i ko'p nomadek pech.  
Davoye topmayin ul dardig'a hech.

Bilib ul xasta holotin kamohi  
Ki, bor ermish durri daryoi shohi.

Ikisi ko'z yoshidin ko'p sochib durr.  
Aning holig'a yeb har dam tahassur.

Qilib Shopur izzu ehtiromin,  
Burung'idin biyik aylab maqomin.

So'rub Farhodning holini bir-bir,  
Ikov yig'lab bu qilg'on soyi taqdir.

Ne xushtur topsa bir mahjuri jovid,  
Birovdin noumid o'lg'onda ummid.

Navoiyg'a talab, yo Rab, shior et,  
Necha navmid esa, ummidvor et!

Ketur, soqiy, mayu bir dam oyilma!  
Meni ham darddin navmid qilma.

Umiding'a meni xursand etgil,  
Umidim buki, ummidingg'a yetgil!

#### XLVII

*Farhod ko'ngli jarohatlari Shirin nomasi navardidag'i kalomi Masihi'  
Maryam', balki ul kog'azg'a chirmab yiborgan marhamlaridin o'ngalmoqqa  
yuz qo'yg'oni va Shirin bag'ri haroratlari Farhod bitigi mazmunidin,  
balki Maryam rishtasig'a chirmab yiborgan isitma ta'vizi afsunidin taskin  
topqoni va bu silsilai muhabbatni Shopur mutaharrik qilg'onin Xusrav*

*anglab ani salosili mehnatqa tortqoni va Farhod halokig'a charx zolidek  
tadbir qilg'oni va aning umri zavoli tadbiri topilg'oni.*

Bu maxfiy nuktaning mushkilkushoyi,  
Bu yanglig' bo'ldi ma'ni rahnamoyi

Ki, chun Shopur ul ikki notavondin  
Shikasta jism ila ozurda jondin

Yeturdi bir-biriga nomai shavq,  
Qiziq bo'ldi yana hangomai shavq.

Xabar Xusravg'a yettikim rasule,  
Rasule yo'qki, josusi fuzule.

Ham eltur telbadin ul oyg'a payg'om,  
Hamul oydin berur majnung'a e'lom.

Aningdek ishq bozori erur tez  
Ki, bo'lg'udek durur yuz fitnaangez.

Hamono dashtdin devona Farhod,  
Hisoru fitnadan huri parizod.

Debon bir-biriga yuz afsunu nayrang,  
Aningdek aylagaylar bir yon ohang.

Ki, Xusrav topmag'ay gardin alarning,  
Ne sud ul dam yemak dardin alarning.

Agar ham topsa tortib ko'p uqubat,  
Saranjomida bordur ko'p suubat

Ki, chu devona minsa devzode,  
Yonida ul sifat havronajode.

Harifi ermas oning yuz ming odam  
Ki, bo'lg'ay har biri ish vaqti Rustam.

Chu erdi maskani bu qal'a tog'i,  
Yalang majnun kibi boshtin-ayog'i.

Vujudi hajrdin zoru zabun ham,  
Qadi g'am toshi tortardan nigun ham.

Olib bir toshkim a'dog'a otti,  
Ne Xusrav, bir cherik ko'nglin ushotti.

Qachonkim minsa gardunpaykari tez,  
Qo'lida chekkan o'lsa tig'i xunrez.

Erur Xusravg'a bas andishai xom,  
Qayon ul borsa qo'ymoq ul taraf gom.

Chu bu afsonani fahm etti Parvez,  
Tafakkur o'ti tushti ko'ngliga tez.

Hamul yerdinki erdi xasta Farhod,  
Bu yerga tegrukim ul sarvi ozod<sup>3</sup>.

Ne yo'lkim bor edi aylab kaminlar,  
Kamingahlarda qo'ydi ahli kinlar

Ki, tergab borg'anu kelgan kishini,  
Tafahhus aylabon har kim ishini.

Aningdek kimsa uchrab yo'llarig'a  
Ki, taqdir o'ldi kirsam qo'llarig'a.

Keturgaylar ani Parvez uchun tez,  
O'zi bilgay nechukkim qilsa Parvez.

Qazodin ul iki-uch kunda Shopur  
Topib Farhod pobo'sig'a dastur<sup>4</sup>.

Parivashdin yana bir noma olib,  
Borur erdi sabodek po'ya solib.

Chu toptilar ul el, qilg'onni matlub,  
Tafahhus qilg'och oni, chiqti maktub.

Bitik birla o'zin Xusravg'a filhol,  
Tavaqu'lar bila qildilar irsol.

Chu bu nav' ish ayon qildi zamona,  
Bo'lub Xusrav bag'oyat shodmona.

Qilib ul elga ulkim sharti ehson  
Ki, bu mushkil alardin bo'ldi oson.

O'qudi chun ochib ul turfa noma,  
Quyida solib boshin andoqki xoma.

Chiqordi ul savodi anbarolud.  
Savodi xoma yanglig' boshidin dud.

Savodi erdi mehnat dudasidin,  
Balo bozori mushki sudasidin.

G'am ahlining savodi motami ul.  
G'alat qildim, savodi a'zami ul.

Ayoqdin-boshqa dardu g'am nishoni,  
Bori mehru muhabbat dostoni.

Xazoni hajr ketmakning navidi,  
Bahori vasl yetmakning umidi.

Midodi mushki diljo'yi muhabbat,  
Kelib har harfidin bo'yi muhabbat.

Hikoyatlar sarosar mahramona,  
Bo'lub har birda zohir yuz nishona.

Vafodinkim, bo'lub har so'z adosi,  
Bo'lub har so'zda bir-birning fidosi.

Burung'i nomalardin ko'p surub roz.  
Vafou mehr anga anjomu og'oz.

Vafodin va'dau paymonlar aylab,  
Bu paymonlar uza aymonlar aylab.

Bo'lub ko'p zikr maktub ichra Parvez,  
Ani deb gohi zolim, gohi xunrez.

Bitib Armanni vayron qilg'onini,  
Ulusqa g'orati jon qilg'onini.

Qilib ishqida yuz ming ta'na og'oz  
Ki, ulkim, ishq sirridin demak roz

Ki, chekkay tig'u urgay ishq lofin,  
Musallam kim tutar mundoq gazofin?!

Quloq ishq ahli solmas bo'yla so'zga  
Ki, shahliq o'zgdur, oshiqliq o'zga.

Kerak oshiqqa jon — jonon fidosi.  
Tilar ul qilsa jonon — jon fidosi.

Agar oshiq budur, ma'dum xushroq.  
Visol iqbolidin mahrum xushroq.

Haq andin asrasunkim, bo'yla oshiq  
O'zin ko'rgay murod avjida foyiq.

Chu ul maqsud bilmish ishqdin kom,  
Mening vaslim xayolidur anga xom.

Erur bu ishda sa'yu ehtimomi,  
Tamomi harzau zoye tamomi.

Mening jismimda to jondin ramaqdur,  
Ishim qo'rg'onda o'zni asramaqdur.

Qazo qilsa meni oning asiri,  
O'lumdin chun kishining yo'q guziri.

Tanimni aylabon xanjar bila chok,  
Ani qilmay visolimdin tarabnok.

Bu yanglig' ko'p hadisi otashangez  
Ki, bir-bir o'qudi borini Parvez.

Balou dard o'ti jonig'a tushti,  
Tazalzul jismi vayronig'a tushti.

Agar insof ila aylab taammul,  
Bilibkim, har nekim yozmishdur ul gul.

Savob ish mutlaq oning jonibidur,  
Bori ishda Haq oning jonibidur.

Va lekin saltanat nomusu nomi,  
Yana surmak havoyi nafs komi.

Ani insof sori qo'ymayin hech,  
Solib ko'ngliga fikri pech-darpech.

Ishorat aylabon Shopurg'a band,  
O'zi g'am bandida Shopur monand.

Buzurg Ummidni chorlab nihoni,  
Arog'a qo'ydi pinhon mojaroni

Ki, bu ish anduhidin chiqti jonim.  
Ko'ngildin ko'z sori mayl etti qonim.

Manga bu dard aro bir chora qilg'il,  
Halok o'lg'umdurur yo'q ersa, bilgil.

Kim ul devona sori devpayvand,  
O'zi devu so'zi devona monand.

Bu ra'noni aningdek aylamish sayd  
Ki, dev etgay kishini ozg'urub qayd.

Singursam g'ussadin o'lmaq kerakdur,  
Ishimga borcha el kulmak kerakdur.

Kishi ko'rgaymu mundoq turfa o'lmaq,  
Ulusdin yig'lamoq o'rnig'a kulmak?

Agar xud aylasam oshubu bedod,  
Muning birla ham o'lmas xotirim shod

Ki, majnunni bilurmen begunahdur,  
Gunahsiz qong'a mayl etmak tabahdur.



Kamandi rishtai fikrim uz oxir,  
Manga bu ishda bir yo'l ko'rguz oxir.

Ikovlon aytibon afsona behad,  
Ko'p aylab bir-birining ra'yini rad.

Ham oxir bo'yla bo'ldi ishga tadbir,  
Qayu tadbir? Makru revu tazvir

Ki, topqaylar nahusat intisobi  
Ki, bo'lg'ay qatl anga ra'yi savobi.

Degaylarkim borib devona sori,  
Nuhusat o'tidin urg'ay sharori.

Degaykim, Xusrav Arman shahrin oldi,  
Bori komin sipehr ilgiga soldi.

Ishi Shirin bila surmak durur kom,  
Mihinbonu bila ichmak durur jom.

Qilib Bonu anga Shirinni hammahd,  
Ikovdurlar nechukkim shakkaru shahd.

Chu ul ko'rdi sanga Xusravni foyiq,  
Anga oshiqlig'ing emdi ne loyiq?

Chu sendin ketti ul, sen ham qo'pu ket,  
Yeriga yetti, sen ham mulkinga yet.

Shak ermas chun bu yanglig' nag'ma tutqay,  
Aning ko'nglini Shirindin sovutqay.

Bu so'z birla sovub mayl etsa bir yon,  
Qo'pubon boshin olib ketsa bir yon.

Bular andin qachonkim bo'lsa navmid,  
Aroda qolmag'ay bu ranji jovid.

Bo'lur ko'rguzmak oncha notavonliq  
Ki, zohir qilg'ay ul oy mehribonliq.

Bu o'q gar tushmasa ko'ngliga kori,  
Qiloli o'zga tadbir ixtiyori.

Bu yanglig' rishtag'a chun so'z tuguldi.  
May istab shah qadah monand kuldi.

Ketur, soqiy, qadahkim, bir g'amim bor  
Kim, ul g'amdin ajoyib motamim bor.

Malolat xayli qasdi jonim etmish,  
Qadah tutkim, qo'lumdin chora ketmish.

### XLVIII

*Zoli makkora, balki Farhodkushi xunxoraning tig'i zabonin tez etib,  
Farhod qatlini angez etgoni, dog'i ul tog' sori azimat etib, Farhod  
boshig'a ajaldek yetgoni va aning hayot qushi qasdig'a makr rishtasi  
domin ochib, tazvir ashki donasin sochqoni va jismi qafasin marg  
sangboroni bila sindurg'oni va umri bulbulin ul pora-pora  
qafasdin uchurg'oni.*

Bu motam navhasozi o'rtabon dog',  
Aningdek so'z yuziga urdi tirnog'

Ki, chun ul nav' tadbir etti Parvez,  
Topib kelturdilar bir hiylatangez.

Qadi ikki bukulgan pir zole,  
Falak zoli kibi hiylatsigole<sup>1</sup>.

Xututi makrdin yuzinda yuz chin,  
Tiliga o'tmayin umrida so'z chin.

Chu soz aylab fusunu hiylai shum,  
Qo'lida xora yumshab, o'ylakim mum.

Berib surgach fusunliq mojaroni,  
Atog'a qizni, o'g'ulg'a anoni.

Qo'yub ko'nglin chu afsunu hiyalg'a,  
Quyoshni aylabon oshiq Zuhalg'a.

Atab ko'k pir zoli xola oni,  
Ano deb Dallat ul-muhtola oni<sup>2</sup>.

Etib tadbir ila ul xolani bikt,  
Har oqshom Dallat ul-muhtolani bikt.

Kuyovga aqdidin sobit qilib sud,  
Arastu bo'lsa aylab oni xushnud.

Qachon nosozliq aylab iroda,  
Buzub bir so'z bila yuz xonvoda.

Naxud folidin ahkomi yako-yak,  
Jave yo'q elga ul ahkom aro shak<sup>3</sup>.

Qilib hukm ichra yuz Buqrotni gum.  
Bisotida naxudlar misli anjum.

Urarg'a zulm tig'in tezhush ul,  
Demaykim tezhush, Farhodkush ul.

Chu hozir qildilar majlisqa oni,  
Dedilar borcha ahvoli nihoni.

Qilib ko'p va'da birla ko'nglini garm,  
Qo'pub ul yo'lg'a tushti, qilmay ozarm

Ki, gar Farhod bo'lsun ko'hi po'lod,  
Beray afsun bila bir damda barbod.

Necha kun qat'i dasht aylab payopay,  
Gahi dashtu gahi vodi qilib tay.

Ham oxir yeshti ul tog' uzra mahmil  
Ki, tutmish erdi Farhod anda manzil.

Ravon oning sori bo'ldi ravona,  
Yasab ko'nglida yuz muhlik fasona.

Hisobi makrini qilmoqqa tavzih,  
Osib sindurg'udek bo'yning'a tasbih.

Taharmuz tor-pudi birla miqna',  
Talavvun jinsi jinsidin muraqqa'<sup>14</sup>.

Degil Maryam haramda topmayin kom,  
Kelibdur Tur uza tutmoqqa orom.

Ko'rub Farhod yerdin qo'pti filhol,  
Salomig'a, alifdek qad qilib dol.

Savol etti kelur kayfiyatini,  
Bu kelmaktin ne erkan niyatini.

Dedi qalb oyati xolis namuna,  
Urub holig'a na'li bozguna

Ki: «Bordurmen zaifi xastajone,  
Ulusdin rishta uzgan notavone.

O'n-o'n besh yil maqomim xilvat erdi,  
Ishim xilvatda Haqqa toat erdi.

Jahon ichra kishi birla ishim yo'q,  
Ishim bu — Tengridan o'zga kishim yo'q.

Chu Arman mulkida amniyat erdi,  
Mening holimg'a bu kayfiyat erdi.

Bu shohekim, kelibtur oti Parvez,  
Aningdek fitna o'tin ayladi tez

Ki, eldin bordi zavqi xonumoni,  
Eshitmish bo'lg'asen sen dog'i oni.

Chu ul mulk ahli bo'ldi munqalib hol,  
Manga ham munqalibvash bo'ldi ahvol.

Huzuri toat anda qolmadi hech,  
Dedimkim, erta kunni qilmayin kech.

Xaloyiqdin yiroqroq tiyra g'ore,  
Topay yonida oning chashmasore.

G'izou qut olib zikri nihondin,  
Kiray andoqki, hargiz chiqmay ondin.

Ajaldin yetsa umrum xaylig'a zo'r,  
Hamul tiyra mag'ok o'lg'ay manga go'r.

Kezar erdim bu savdodin mushavvash  
Ki, keldi ko'ngluma bu sarzamin xush.

Yumishmen umrdin garchi ilik men,  
Vale bu tog' aro men to tirikmen.

Vafosizdur chu xayli odamizod,  
Vafosizni ne qilsun odami yod.

Qaro toshdin vafou mehr umidin  
Tama' qilmoq bo'lur, yo'q odamidin!»

Eshitti chun bu afsunlarni Farhod,  
Bag'oyat bo'ldi andin xotiri shod.

Tabarruk istabon tufrog'in o'pti,  
Niyoz aylab, oyog'in dog'in o'pti.

Dedi: «K-ey orazingda nuri tavfiq,  
Zamiring maxzani asrori tahqiq.

Bukim dahr ahlig'a nomuttafiqsen,  
Muhiqsen, billahu vallah muhiqsen!»

Vafosizliq jahon ahlig'a xo'dur,  
Vafo eldin alarg'a justujo'dur.

Bo'lur ma'lumkim bir amri noxush,  
Zamiring bu sifat qilmish mushavvash.

Magar Armanda amre bo'ldi tori  
Ki, yuqti ko'nglunga oning g'ubori».

Dedikim: «Ey o'g'ul, chindur kaloming,  
Javobin dog'i chin aylay payoming.

Vido' etmish bu kishvardin amonlig',  
Amonlig' o'rnig'a kelmish yamonlig'.

Nihoyatdin erur ko'p anda ofot,  
Vale bukim ayon bo'ldi bu avqot.

Mihinbonu bila Xusrav yaroshti,  
Xususiyat aroda haddin oshti.

Solib payvand ishin Xusrav arog'a,  
Bu ham berdi rizo ul mojarog'a.

Iki yondin yoyib vuslat bisotin,  
G'animat bildi el ayshu nishotin.

Aningdek fisq ila lahv o'ldi oyin  
Ki, bo'ldi bartaraf islom ila din.

Qolib may selig'a ul kishvaru taxt,  
Saloh ahli arodin chektilar raxt.

Chu har kim bordi bir yon zoru g'amnok,  
Bu sori soldi men g'amginni aflok.

Vale bu turfaroqkim, ul jamoat,  
Unuttilar chu oyini salomat.

Xudo soldi aroda ranji jovid,  
Murodidin borini qildi navmid».

Tana'um shomi sham'idin borib nur,  
Mubaddal bo'ldi motam birla ul sur.

Hamul gulruxki, derlar oni Shirin,  
Bu ma'nidin ekandur asru g'amgin.

Chu bo'ldi aqd amri oshkoro,  
Chekib gardung'a afg'on bemadoro'.

O'ziga qatl tig'in urdi filhol,  
O'zin bu g'ussadin o'lturdi filhol.

Dedi ba'ziki: «No'sh etgan durur zahr  
Ki, bo'lg'ay no'shidin Parvez behahr».

Bori taqdir ila ul sarvi navxez,  
Baqo mulkiga soldi gomini tez.

Anga oshiq emish bir zori noshod,  
G'aribe, dardmande oti Farhod.

Firoqi ichra yub ilkini jondin,  
Aning ishqi bila bordi jahondin.

G'amidin ohu afg'on birla bordi,  
Aning vaslidan armon birla bordi.

Ishe qildiki, kelmas ul kishidin  
Ki, yuz shayullah oning ul ishidin.

Ne ruhi pok edi ul sarvi cholok  
Ki, keldi pok, oxir bordi ham pok.

Chekib Farhod uchun ohi halokin,  
Aning yodida berdi joni pokin.

Borur dam og'zida Farhod zikri,  
Ichinda dog'i ul noshod zikri.

Bori Parvez ranjin zoyi' etti,  
Vale Farhod yodi birla ketti.

Tilidin tortibon fartut' tig'e,  
Der erdi har nafas ohu darig'e.

Qilib fartut bu afsonani big',  
Tushub Farhod ichiga yuz tuman tig'.

Uzun tortib halok afsonasin bu,  
Tushub oning ko'zig'a so'ngg'i uyqu.

Sovug' damlar bila ul zoli damsard,  
Chiqordi ko'kka ul tufrog'din gard.

Debon har dam darig'i otasholud,  
Falakka chekti ul xoshokdin dud.

G'irevi tortibon Farhodi mazlum,  
Dedi: «Bas qilki, bo'ldi qissa ma'lum.

G'araz gar jon edi, olding ana hoy!  
O'luk tandin ne istarsen yana, voy!

Ko'ngul qonin ichardin to'yg'il emdi,  
Meni o'z mehnating'a qo'yg'il emdi!

Debon qo'pti jahondin silkibon qo'l,  
Adam dashtig'a hanjor aylabon yo'l».

Yoshidin tog'da solib selrezi,  
Demakim, selrezi, rustaxezi.

Bu seli jismining qasrin qo'ngorib,  
Hayoti xayli ham ul suvg'a borib.

Ketur, soqiy, qadah ul nav'kim sel  
Ki, qilg'ay rangi oning qon sari mayl.

Aningdek may ichardin mo'ya tortay,  
Tutub Farhod so'gin, po'ya tortay.

## XLIX

*Farhodning umri xayli vujud mulkidin jalo bo'lg'oni va ul jalo parishonlig'idin ajal xaylig'a mubtalo bo'lg'oni va hayoti yuz yoshurub, ya'ni aning yoti bo'lub umri quyoshi botib, ya'ni ul umr anga talx ko'runub qayo tig'i bila ko'ksin yorib, ko'ngli chokidin yillar yoshurg'on dardu anduh tikonlarin chiqarib bexudona afsonalar bila ko'nglin xoli etgoni va marg jomin paymona qilib navmidlig' ashki mayi ravon bo'lg'oni va ul fano bodasidin paymonasining to'lg'oni va ul paymonani ajal soqiylari ilgidin sipqora ichgoni va sog'olmas maydin jonon yodi bila mast bo'lub jonidin kechgoni.*

Bu motamnoma yozg'on kilki cholok,  
Qaro mundoq kiyib, aylar yoqo chok



Ki, chun ul hajr dashtining shikori,  
Yedi bag'rig'a andoq zaxmi kori

Ki, ul itik qilichdin sa'b yora,  
Ayirdi bag'rin aylab ikki pora.

Fig'on tortib, qo'porg'a mayl qildi,  
Vale har nechakim qo'pti. yiqildi.

Ajal yag'mosi oldi jismidin zo'r,  
Yorug' olamni ko'rdi o'ylakim go'r.

Qatiq tosh uzra talpinmoqqa tushti,  
So'ngaklar jismida sinmoqqa tushti.

Urub tosh uzra mahkam har zamon bosh  
Ki, borib bosh, onsiz qolg'usi tosh.

Etib har neki bor ashkin ravona  
Ki, yig'lardin qutuldung jovidona.

Ko'nguldin tashladi har sori marham,  
Ushotib anda novaklarni darham

Ki, o'tti andin ishkim, yora butgay,  
Ajal paykoni etgan pora butgay.

Momug'lar tashladi har yon tugandin,  
Ochib yuz chashma qon majruh tandin.

Tuganlar momug'idin har yon ul tog',  
Ochib yuz lola, lekin borcha bedog'.

Chekib zaxmini tikkon rishta har yon,  
Solib ul tori xunog'ushta har yon.

Bu yanglig' raxnalar birla ochib ul,  
Ajal kirmakka, jon chiqmoqqa ham yo'l.

Ajal ko'ksini pora-pora aylab,  
Chiqorg'a xayli umri chora aylab.

Chiqib ko'ngli o'tidin dudi anduh,  
Tutub mehnat sahobi vodiya ko'h.

Boshi ustida oning zor yig'lab,  
Yomon holig'a majnunvor yig'lab.

Yarodin jismi sarto-sar ochib gul,  
Bu gullar qatra qonlardin sochib gul.

Sochilg'on gul bila atrofi gulrez,  
Dema gullarki, o'tlar sochilib tez.

Guli zohir qilib har yon guli dard  
Topib davron o'tidin otashin vard.

Debon boshimni yonch, ey charxi zarkor  
Kim, ul ermas bukundin nori darkor'.

Ko'zum o'y, ey baliyat qahramoni  
Kim, ul ko'rmas bu kundan so'ngra oni.

Tilim, ey tig'i g'am, kes betavahhum  
Ki, emdi istamon ondin takallum.

Damim yo'lini tut, ey charxi kinxoh  
Ki, bordi emdi chekmak nolau oh.

Oyog'im sindur, ey anduh toshi  
Ki, ketti po'yadin emdi xaroshi.

Tanimni g'ayr kuydurgil demasmen  
Ki, bu dard o'tidin rozi emasmen!

Ajal, ko'ksumni sarto-sar shikof et,  
Borurda ranjdin ko'nglumni sof et!

Taab, ko'nglumni yuz ming pora ayla,  
Adam sori borin ovora ayla!

Falak, bag'rimni qil parkand-parkand  
Ki, emdi bordi ondin bizga payvand!

Manga, ey ishq. hamdardona bording,  
Qusure qilmading, mardona bording.

Boshimdin emdi, ey hijron g'ami, kech.  
Xudo yoringki, taqsir etmading hech!

Tanim tufroqqa, ey g'am, muttasil qil.  
Nekim mendin sanga yetmish, bihil qil.

Tilab qatlim boshimdin oshqil, ey yosh,  
Yuzumga har ne sendin keldi, shobosh.

Azimat ayla mohim sori, ey oh.  
Qo'shay jonimni, qil o'zungg'a hamroh!

Boqib sahrog'a to'kti ashki sofi  
Ki, ey dardu g'am ahlining matofil!

Rafiqi xokiyu hamvoru soda,  
Nekim vasf aylasam andin ziyoda.

Base ko'rdung ayog'im zarbidin ranj,  
Base po'yam bila bo'ldung alamsanj.

Yoshim seli bila bag'ringni yordim.  
Yugurmak birla gardingni chiqordim.

Bu soat mehnatimdin forig' o'ldung,  
Bihil qilg'ilki, ranjimdin qutuldung.

Bo'lub bu motamidin dasht g'amnok  
Ki, vodiydin yaqosin aylabon chok.

Boqib qildi vasiyat tog' sori,  
Dedi: «K-ey, ofarinish burdbori.

Uluvi qadring aylab ko'kka ohang,  
Shukuhi hilmdin zoting garonsang.

Etakdin notavonlarg'a panahsen,  
Hajardin xastalarg'a tak'yagahsen.

Sanga mendin yetibdur oncha yotliq  
Ki, yuzungdin uyotliqmen, uyotliq.

Gahe bag'ring bo'lub tesham g'ilofi,  
Gahe jisingda metinim shikofi.

Yuzung yoshimg'a xunolud gohe,  
Damimdin boshing uzra dud gohe.

Bori jurmumg'a tig'i afv surgil,  
Borur chog'imda afv aylab kechurgil».

Fig'oni birla tog' afg'oni ortib,  
Sadodin har zamon yuz nola tortib.

G'amidin bag'rin aylab oncha pora  
Ki, qondin la'l o'lub har pora xora.

Boqib gardung'a dedi: «K-ey, sitamkor,  
Jafoda kavkabi baxting'a hamkor.

Shioring har necha javru jafodur,  
Bihilmen, chun mening da'bim vafodur.

Agarchi sendin o'ldi jonima ranj,  
Vale mendin ham o'ldung sen alamsanj.

Ham afg'onim bila pajmurda bo'ldung,  
Ham ohim o'tidin ozurda bo'ldung.

Yuzungga po'yadin gardim yoyildi,  
Quyoshing dudi ohim tiyra qildi.

Emastur anjumungning zarfishoni  
Ki, ohim o'qlaridindur nishoni.

Bukun ne oh qoldi, ne fig'onim,  
Ne ohu ne fig'on, nomu nishonim.

Chu tufrog' o'lg'usi jismi jahongard,  
Zamiring ichra ondin qolmasun gard.

Chu bo'ldim yo'q, meni yo'q erdi tutqil,  
Agar bor erdi tutsang ham, unutqil».

Falakning bu so'zidin dardi oshib,  
Shafaqdin joni ichra o't tutoshib.

Bo'lub sargashta topmay istiqomat,  
Anga qilg'ondin aylab yuz nadomat.

Boqib meting'a dedi: «Ey asirim,  
Mashaqqat kunlarida dastgirim.

Yetib mendin sanga ko'p sarzanishlar,  
Vale sendin manga ko'p parvarishlar.

Urubmen kuch ila boshingni toshqa,  
Boshingni boshqayu no'gungni boshqa.

Sen aylab saxtjonliq mehnatimda,  
Qadam aylab boshingdin xizmatimda.

Manga bu nav' zulmu javr pesha,  
Chekib bu mehnatim sen dog'i, tasha.

Bukun maxlas toparsiz mehnatimdin,  
Ikov ozod o'lursiz shiddatimdin.

Qiling rahmim ko'rub bu nav' holim,  
Borur chog'da ravo ko'rmang malolim.

Keching har neki qilmishmen jafodin,  
Qo'yung jonimg'a minnatlar vafodin».

Urub metinu tasha tosh uza bosh,  
Fig'onlar motami eldek qilib fosh.

Belidin osilib andoqki atfol,  
Zaboni hol ila sharh aylabon hol

Ki, gar tog'u vagar yerdur yurarbiz,  
Qaro tufroqqa kirsang ham kirarbiz.

Ko'rub atrofida darrandalarni,  
Yana charrandau parrandalarni.

Dedi: «K-ey borchangiz ko'nglumga munis,  
Kecha-kunduz harifu yori majlis.

Vafo birla muxammar xilqatingiz,  
Murakkab mehr birla tiynatingiz.

Nifoqu g'adrdin tab'ingiz ozod,  
Yo'q ul yanglig'ki xayli odamizod.

Bo'lub ma'nus ranji g'urbatimda,  
Kelib ma'luf dardi furqatimda.

Bo'lub ba'zi ichimga qutu moya,  
Uchub ba'zi qilib boshimg'a soya.

Bo'lub yolg'uzlug'umda qavmu xaylim,  
Erishib har qayonkim bo'lsa maylim.

Manga bilgurtmay bekasligimni,  
Diyoring'a qarın ermasligimni.

Fig'onimdin ko'rub ko'p sa'b holat,  
Biringiz qilmay izhori malolat.

Manga sizdin erur behad xijillik,  
Ne til birla tilay oxir bihillik».

Ul aytib bu hadisı yig'labon zor,  
Alar fahm aylab anda o'zga ozor.

Sarosar unlarini tez tortib,  
Ne un, g'avg'oyi rustoxez tortib.

Xurush aylab nechukkim motamiylar,  
Yo'q andoqkim vafosiz odamiylar.

Alar birla chu fasle nukta surdi,  
Ajal dard o'qini jonig'a urdi.

Bu so'zlardin o'zini topti ma'zul,  
Zamone bo'ldi o'z holig'a mashg'ul.

Tugangan fahm etib umri baqosin,  
Sovug' oh urdi yod aylab atosin.

Anosi ham ko'zi o'llig'a keldi,  
Ko'zidin ikki qonlig' rud ochildi.

Falak boshig'a urdi bir katora  
Ki, to ko'ksiga bo'ldi ikki pora.

Dedi: «Ne hol erur hayhot-hayhot;  
Netar jonimni olsang, ey ajal, bot?!

O'lardin burna yuz o'lmak nedur bu,  
Boshim yuz tig' ila bo'lmak nedur bu?

Kuyuk tang'a yolin urmoq ne erdi.  
Momug' uzra choqin urmoq ne erdi?

Bular fikri ichimdin urmayin bosh,  
Boshim tufroq aro kirgay edi kosh.

Buzug'luq, ey falak, ko'rguzdung oxir.  
Buzulg'on xotirimni buzdung oxir.

Bu ne insof edi, ey soqiyi dahr,  
O'lar chog'da qadah tutmoq to'la zahr.

O'luk boshig'a tig' urmoq ne ya'ni,  
Bir-o'q bas, bedarig' urmoq ne ya'ni?!»<sup>2</sup>

Chu bu sho'robag'a yetti nihoyat,  
Dedi achchig'-achchig' yig'lab bag'oyat

Ki: Ey bodi sabo, Tengri uchun qo'p,  
Yetib Chinu Xito mulkiga yer o'p!

Demon, xoqon qoshida bu o'g'uldin  
Ki, g'urbat ichra o'lgan xasta quldin.

Quyundek sadqa qil avval o'zungni,  
Chu bo'lding sadqa, mundoq de so'zungni.

Kim, ul ovorai bexonumoning,  
Bag'ir xunobidin bir qatra qoning

Itib, olamda hirmon birla o'ldi,  
Yuzungni ko'rmay armon birla o'ldi.

Ne qonlar yuqti bag'ridin yoshig'a,  
Ne ishlar tushti gardundin boshig'a.

Bo'lub afsunu makru, hiylatangez,  
Anga ne zulmlarkim qildi Parvez.

Agar tuzluk bila topsa hisobin,  
Berur erdi ming andoqning javobin.

Va lekin egrilikni aylab oyin,  
Yasab yuz nav' yolg'on, o'ylakim chin.

Birovkim xilqatin qildi qazo rost,  
Qilur bovar, necha so'z bo'lsa norost.

Manga ne deyki ul kofir, ne qildi,  
Qazodin erdi qildi, har ne qildi.

Budur komimkim, Bahromi dilovar  
Ki, bor erdi manga ul yoru yovar.

Cheriklar jam' aylab bemadoro,  
Bu yon qilsa azimat oshkoro.

Qilichi to'yg'arib Xusravni jondin,  
Tilasa hegunah qonimni ondin!

Eshitgach shoh bu o'tlug' fasona,  
Agar boshidin ursa o't zabona.

Yomon ahvolima aylab yaqo chok,  
O'zin tufrog'larg'a ursa bebok.



Qo'shub yig'lasa bu ovarasini,  
Qayu ovora, bag'ri porasini.

Bo'tam deb goh bo'zlab, goh o'kursam,  
Jafotoshin sinuq ko'ksiga ursa,

Yer uzra tojini urmoqqa qo'yman,  
Tepib taxtini sindurmoqqa qo'yman.

Degil mendinki, ey shohi jahongir,  
Topilmas Tengri taqdirig'a tadbir.

Mening ishq ermish avvaldin sirishtim,  
Yana g'urbatda o'lmak sarnavishtim.

Ne Haq yozg'onni ko'rmay chora bormu,  
Davoyi bo'lmayin ovora bormu?!

Bu ishga ollinga hukmi qazo ber,  
Ne ish Haqdin qazo bo'lmish, rizo ber!

Meni gar umrdin charx etti navmid,  
Jahon mulkida bo'lsun shoh jovid.

Yiqilsa hujra, bo'lsun qasr obod.  
Qurusa sabza, bo'lsun sarv ozod.

Anomg'a bu xabardin tushsa oshub,  
G'amimdin xora uzra bo'lsa sarko'b.

Jahonga o't solib g'avg'osi har yon,  
Yetardek bo'lsa vovaylosi har yon.

Bu vahshig'a xitob etsa «qo'zum» deb,  
Bu bekasni sog'insa «yolg'uzum» deb.

Aningdek bo'lsa sho'ru iztirobi  
Ki, bo'lsa bartaraf burqa' hijobi.

Qilibon yod g'amparvardasidin,  
Yugursa chiqsa to'qquz pardasidin.

Debon «Ey rishtai jonimg'a payvand»,  
Uzoring aylasa parkand-parkand.

Sochidin bo'lsa yulmoq birla mahjur  
Ki, Chinda bo'lsa mushk o'rnida kofur.

Damimdin dud olib ketgaysen oxir,  
Xaloyiqqa hijob etgaysen oxir.

Degaysen: «Ey, yuzung ruhum g'izosi,  
Izing gardi ko'zumning to'tiyosi.

Manga bas erdi bu dardi g'amandud  
Ki, to Tengri vujudum qildi mavjud.

Bukim sen behad erding orzumand  
Ki, bo'lg'ay munising bir turfa farzand.

G'amimdin bo'lmading bir lahza dilxush,  
Hamisha bor eding zoru mushavvash.

Gar atfol etsa mayli sabzau bog',  
Kichikdin erdi qismim dard ila dog'.

Mening dardimg'a qolib jismi zoring,  
Mening dog'imdin o'rtanmak shioring.

Tilab yoqut, laxti xora topting,  
Tilab xurshed, otashpora topting.

Ulug' bo'lg'on soyi bechora bo'ldum,  
Diyoru mulkdin ovora bo'ldum.

Manga o'vorlig' to charx berdi,  
Firoqimdin ishing o'rtanmak erdi.

Bas ermas erdi umre kuymaking bas,  
Kuyub-kuyub, kul o'ldung o'ylakim xas.

Bu xusron baski, chun g'am rudi tuzdum,  
Sirishkim selidin ka'bamni buzdum.

Bukim men-men, manga o'lmak dag'i hayf,  
Ulus ahvolima kulmak dag'i hayf.

Sen ar dardimdin o'lsang ranjfarsoy,  
Manga ul ranju g'amdin voyu yuz voy!

Meni rozilig'ingdin qilma navmid,  
Manga do'zax o'tini solma jovid.

Vagar fahm etsa Mulkorou Bahrom  
Ki, holim qayda bosh chekti saranjom.

Qarortib yuz, chekib qon yosh ila harf,  
Raqam aylab siyohi uzra shingarf.

Qaro kizlar bo'yunlorig'a solib  
Ki, yuzdin kizu kizdin yuz bo'yolib.

Aningdekkim kiyar yirtib libosin,  
Quyosh so'gida olam tun palosin.

Urub gah dashtu gah tog'larg'a o'zni,  
Ne dashtu tog'ki, tufrog'larg'a o'zni.

Ber avval qatla Mulkorog'a taskin,  
Degil, oqil qazog'a aylamas kin.

Manga bo'lg'on qazoyi osmoniy,  
Ne qilg'oy erdim, oyo ko'rmay oni?!

Yana Bahromg'a yetkur salomim,  
Chu yetkurdung salomim, de payomim

Ki: «Ey jonim topib joningg'a payvand,  
Ko'kaltoshu ini, shogirdu farzand.

Gar ohingdin chiqorsang charx uza dud,  
Ne sud ondin sangau ne manga sud

Ki, istarsenki, tekkay yerga yonim,  
Bo'lub xushnud sendin xasta jonim.

Ne bir dam tin, ne bir soat tayong'il,  
Ne harbu kina surmakdin o'song'il.

Bu yon azm aylamak jazm ayla filhol,  
Cherik jam' aylabon azm ayla filhol.

Bu ishdin rohati jonimni ista,  
Topibon qotilim, qonimni ista!

Aning birla kelur xaylimg'a bir-bir,  
Hadisim daf'a-daf'a ayla taqrir.

Degilkim, oshkorou nihoni,  
Mening o'rnumg'a ko'rdik borcha oni.

Nekim hukm etsa ta'xir etmasunlar,  
Buyurg'on ishda taqsir etmasunlar!

Xo'tan mulkiki, jannatdin nishondur  
Savodi uzra jannat jonfishondur.

Gar anda sayr bo'lsa ixtiyoring,  
Hadoyiq jonibi tushsa guzoring.

Hamono to'rt bog'i ravza oyin,  
Ichinda to'rt qasri xuld tazyin<sup>3</sup>

Ki, bo'lmish erdi hukmimdin muhayyo,  
Gulu asmori andoqkim Surayyo.

O'tarda jilvagohing bo'lg'usidur,  
Esarda xoki rohing bo'lg'usidur.

Bahoriy ravza sori qilsang ohang,  
Mening so'gum uchun to'k ashki gulrang.

Chu sayfiy ravzag'a<sup>4</sup> mayl aylasang shod.  
Halokim naxli shoxu bargin et yod.

Xazoniy ravzag'a<sup>5</sup> qilsang xirome,  
De anda bu sarig' yuzdin salome.

Shitoyi ravzani<sup>6</sup> qilsang guzargoh,  
Damim yod aylab, anda chek sovug' oh.

Yana Moniyg'akim naqqoshi Chindur,  
Anga kilki qazodin ofarindur.

Degaysen ul mahalkim, kilki tahrir,  
Chekib ul to'rt qasrim qildi tasvir;

Biri Yunong'a markab surganimni,  
Qilib razm, ajdaho o'lturganimni.

Ikinchi Ahramang'a aylabon kin,  
Jahonni qilg'onim qon birla rangin.

Uchunch Iskandari Rumiyl tilismin  
Ki, ochtim teng qilib yer birla jismin.

Bo'lub to'rtunch Suqrotga raqamkash  
Ki, g'ori ichra kirdim ajdahovash

Ki, to olam binosi bo'ldi bunyod,  
Bu yanglig' qilmadi ish odamizod.

Chekibtur sa'y etib bisyor-bisyor,  
Yudik boshtin-ayoq zinhor-zinhor.

Yug'ondin so'ng so'yub ayvondin oldik,  
Haririn suvg'a yoxud o'tg'a soldik.

Nechukkim, foniy o'ldi jismu jonim,  
Jahondin bo'ldi gum nomu nishonim.

Ishim gardun kuhan toqidin itsun,  
Misolim charx avroqidin itsun.

Ko'ra olmasni bildik yaxshi gar dun,  
Mening naqshimni devor uzra gardun.

Yana Qorang'a ham mendin salom ayt,  
Nekim payg'om qilg'umdur, tamom ayt!

Degil, har toshkim, tesham ushotti,  
Yig'ib gardun borin boshimg'a otti.

Qachon yog'dursa gardun yuz tuman tosh.  
Bular ostida netgay bir sinuq bosh?!

Falakvash tog'larkim, yerga soldim,  
Qazodin borchaning ostig'a qoldim.

Manga bo'ldi falak qatl aylagan chog',  
Uzolg'on turbatimning toshi bir tog'.

Ul o'ttikim, degaymen ko'hi g'ammen  
Ki, ko'hi g'amning ostida adammen.

Qayu naqshimki xoro uzra qozding,  
Boshida ismu alqobimni yozding.

Chekib metin xaroshi xora qilg'il,  
Otimni men kibi ovora qilg'il.

Chu qoldi toshning ostida zotim,  
Bo'lur gar bo'lmasa tosh uzra otim.

Yana olamda shahru tog'u vodiy,  
Kezib ishq ahlig'a qilg'il munodi

Ki, Farhod o'ldi oshiqliq aro zor,  
Vale yetti anga Xusravdin ozor.

Bukim, der erdingiz sultonimizdur,  
Raiyat biz-bizu ul xonimizdur.

Bukun sultoningizg'a zulm yetti,  
Jahondin notavonlig' birla ketti.

Kerakkim jam' o'lub tortib sipahlar,  
Tutub so'g o'ylakim, o'lganda shahlar.

Burun Xusravg'a chun abri bahoron,  
Qilib oh o'qlaridin tirboron.

Fig'on o'tidin o'rtab kishvarini,  
Kul aylab toju taxtu afsarini.

Bo'lub giryon bu zori benavog'a,  
Bering boru yo'qin seli fanog'a.

Vafo qasrin bu yanglig' aylab obod,  
Ravonimni o'zungizdin qiling shod».

Yana Shopurg'a deb xayrbodim,  
Degaysen: «K-ey rafiqi nomurodim.

Ne qonkim, yutmading hamdamlig'imdin,  
Ne g'amkim, chekmading mahramlig'imdin.

Manga ul vaqtdinkim hamdam o'ldung,  
Giriftori balou motam o'ldung.

Vafo oyinu sharti muncha bo'lg'ay,  
Magarkim Tengri-o'q uzrungni qo'lg'ay.

Hamisha voqif o'l qabrim toshidin,  
Ayog'ing chekma tufrog'im boshidin».

Chu bu yerlarga yetkurdi navoni.  
Yetishti og'zig'a ozurda joni.

Bo'lub mundoq maqolotidan ogoh,  
Dedi: «lohav!», etib «astag'firulloh».

Buzulg'on joni jononig'a tushti,  
Balo o'ti buzuq jonig'a tushti.

Ul o't bir nav' kuydurdi vujudin  
Ki, kul qildi vujudi toru pudin.

Qilib jononi otin tilga ta'lim,  
Tutub jonon otin, jon etti taslim.

G'amu dardu balog'a tushti g'avg'o  
Ki, gardun ahlig'a yovushti g'avg'o.

Bu motam ichra ishq otashangez.  
Solib bo'ynig'a aynidin qarò kiz.

Qolib dardu halo beyoru munis,  
Bo'lub hijron tuni besham'i majlis.

Falak mung birla oning jonin olib,  
Bularni dog'i onsiz mungg'a solib.

Sibo' ul holni aylab nazora,  
Qilib Farhodkushni pora-pora.

Ko'zidin ashki g'altonin oquzmay,  
Yer uzra qatrai qonin tomuzmay.

Tishu changol ila yirtib damo-dam.  
Dema Farhodkushkim, o'zlarin ham.

Ko'rub ul zoru bekas motamidin  
Ki, hayvon beh vafosiz odamidin.

Ketur, soqiy, menga bir jomi qotil,  
Labolab aylabon zahri halohil.

Chu toptim ishq aro Farhodvashliq,  
Qilay ul jom ila Farhodkushliq!

## L

*Dahr evi bunyodsizlig'idakim, bir to'da tufrog'durur suv ichinda va charx gunbadi baqosizlig'idakim, bir mutaharrik hubobdurur suv ustida va bu obo va ummahot zодasidinki, inson bo'lg'ay — vafò imkoni yo'q muqtazosidin Xusrav bila Mihinbonu yarashqoni va qo'rg'onda qabalg'onlarning tog' va dashtqa butrashqoni va Shirin mizoji Farhod o'lumidin o'lum holiga yetgan uchun ani Armaniya tog'ining ravonoso fazosi va ruhafzo havosig'a yiborgantari.*

Jahondin rahrav ersang bog'la mahmil  
Ki, osoyish yeri ermas bu manzil.

Nedin derlar jahonni rub'i maskun  
Ki, uch rub'idur oning suvg'a madfun.



Kishi nokom qayg'u uzra bo'lg'ay  
Ki, tushgan manzili suv uzra bo'lg'ay.

Havodis tundbodi solsa bir mavj  
Ne tong, suv tutsa ul rub' uzra ham avj?!

Muni ma'man dema, degil xarobe,  
Muni maskan dema, degil hubobe.

Hubob ar suv uza gunbaznishondur,  
Puf etkach ul hamondur, suv hamondur.

Uyekim bir nafasdin bo'lsa barbod,  
Ne qo'ysun oqil andog' uyga bunyod?!

Bu yanglig' uyda ya'ni tursa bo'lmas  
Ki, forig' anda bir dam ursa bo'lmas.

Hubob ermas erur bir to'da tufroq,  
Ne bo'lg'ay suv aro tufroq ishi boq!

Bu tufroq tegrasida charxi doyr,  
Nechukkim oshyon davrida toyir.

Ajab toyirdurur charxi mutabbaq,  
Ishi urmoq kabutardek muallaq'.

Kabutar gar tutar orom o'lub rom.  
Anga ne rom bo'lmog'liq, ne orom.

Hamonokim erur sahroyi ohang,  
Bu ma'nining dalilidur anga rang.

Kabutar yo'q, kabutarxonadur ul,  
Dema anjunki, sochqon donadur ul.

Kabutarbozin ustodi qazo bil,  
Nekim ul aylasa avlo, rizo bil!

Kabutar sayd o'lur, sayyod erur bu,  
Dema sayyodkim, jallod erur bu.

Hilolu mehr oning tashu tig'i,  
Qilurg'a qatl yo'q hayfu darig'i.

Elidin mohvashlar bag'ri pora,  
Nechukkim zarra, behaddu shumora.

Erur mashhurkim jallodi mag'bun,  
Chu ming qon to'ksa aylar tig' madfun.

Bukim ming kimsa har kundur qatili,  
Quyosh tig'ini ko'mmakdur dalili.

Bu yanglig' ming kishi qatli ishidur  
Kim, oni desa bo'lg'oykim kishidur

Ki, borchu shoh yo shahzoda bo'lg'ay,  
Va yoxud mufradu ozoda bo'lg'ay.

Aning bu nav' maqtulida so'z dur,  
Menu sendekka xud ne boshu ko'z dur.

Kishining necha ko'prak gavhari pok,  
Aning bedodidin ko'prak alamnok.

Chu asli pok gavhar keldi yoqut,  
Teshib bag'rini qon aylar anga qut.

Quyoshkim koinot andin olur nur,  
Qilur har tun qaro tufroqqa mastur.

Base sog'arning andin qoni to'lg'ay  
Ki, bir dam fosiqe xushhol bo'lg'ay.

Etib yuz javhari pokizani xok  
Ki, andin bangiye bo'lg'ay farahnok.

Berib bir naxlg'a har dam shikaste,  
Ki, ting'ay tobidin otashparaste.

To'kub Farhod qonin bemaduro  
Ki, Xusrav maydin o'lg'ay majlisoro.

Maalqissa: chu Farhodi jigarso'z,  
Fano bazmida bo'ldi majlisafro'z;

O'zin ko'p domu dad o'lturdi g'amdin,  
Yana ko'p xastahol o'ldi alamdin.

Urub halqa aning davrida bori,  
Azosidin qilib afg'onu zori.

Bo'lub ul nav' atrofida sokin  
Ki, bo'lmay el yovumoq anda mumkin.

O'lar hoida go'yo notavone,  
Hamul marz ahlidin bexonumone<sup>2</sup>.

Ani ko'rmakka bormish erdi ranjur  
Ki, bo'lg'ay xizmatidin shodu masrur.

Yetishgach fahm etib ul nav'i holot  
Ki, o'tti sharh ila bori maqolot.

O'zin bir tosh darzi ichra solib,  
Ko'rub holin aning hayratqa qolib.

Ishin to Haqqa vosil bo'ldi joni,  
Qilib fahm, oshkorovu nihoni.

Tilabkim, aylabon qabrini zohir,  
Aning boshi uza bo'lg'ay mujovir.

Vale qaytib, qilib ashkini xunrez  
Ki, sheru babr changolin ko'rub tez.

Kirib xalq ichrau ovoza solib,  
Xabar har anjumang'a toza solib.

Chu deb bu so'zni ul afgor yig'lab,  
Eshitgan xalq borcha zor yig'lab.

Chu bu mudhish xabar har sori yetti,  
Ne Xusrav, balki Shirin ham eshitti.

Maqolotin qilib Xusrav taqqul.  
Tafakkur birla ko'p aylab taammul.

Necha kun qayg'udin kulgusi kelmay,  
Necha tun vahmidin uyqusi kelmay.

Agarchi bu umid aylab ani shod  
Ki, Shirindur aning, chun bordi Farhod.

Vale bu vahmdin har lahza g'amgin  
Ki, netgay kinig'a, charx aylasa kin?

Kelib chun jahl g'olib, nafs tolib,  
Bo'lub ul nafs jo'yoyi matolib.

Muni bilmayki, tutqon zahrlik jom,  
Qilur ham zahr oshomin saranjom.

Fatila dog' uchun o't solsa har dam,  
Agarchi kuydurur, lekin kuyar ham.

Yilondin kimga zaxmi bo'lsa hodis,  
Hamul zaxm-o'q bo'lur qatlig'a bois.

Dedi: «Bu ish kerakmas erdi mundoq,  
Chu bo'ldi, bo'lmas ishda sust bo'lmoq».

Yibordi kordonlar qal'a sori,  
Berib har birga so'zning ixtiyori

Ki, arz aylab sitam, taslim dog'i,  
Umid yetkaylar ifsho, biym dog'i.

Ko'p afsunlar bila bo'lub mulozim,  
Iki tavsanni qilg'aylar muloyim.

Fusungarlar chu bu guftor topib,  
Borib qo'rg'on ichinda bor topib;

Debon Bonug'a jondin ko'p sanolar,  
Yana mahvashqa andin ko'p duolar.

Debon Xusravdin oncha mehribonliq,  
Niyozu ajz birla notavonliq.

Fusundin ko'rguzub oncha daloyil  
Ki, Bonuni qilib ul ishka moyil.

Kirib arkoni davlat ham arog'a,  
Bo'lub hamdoston ul mojarog'a.

Debon xilvatda ko'p rozi nihoni  
Ki, Xusravdur jahonning hukmroni.

Nasabda borcha sultonlar shahidur,  
Hasab ichra nihonlar ogahidur.

Bizing birlaki qilmish mayli payvand,  
Ne derbiz bo'lmayin bu ishga xursand?

Tirik bo'lsa edi Farhodi g'amgin,  
Qilur erdi kiroy qilmoq munga kin.

Chu ul bordi, xusumat bejihatdur.  
Bu shah ra'yig'a kirmak maslahatdur.

Nechuk qilg'ay bir ish ahli maoni  
Ki, sudi ozu ko'p bo'lg'ay ziyoni?!

Kerak Parvez paymonig'a kirmak.  
Erur bevajh el qonig'a kirmak.

Bu kishvarniki zulmi qildi barbod.  
Magar ham qilg'ay oning adli obod!

Harif ermas durur xorog'a shisha.  
Chu tushti o't, kuyar xirmon hamisha.

Mihinbonu bu so'zlar aylagach go'sh,  
Ko'rub ma'qul, bir dam bo'ldi xomush.

Bu ishni dog'ikim Farhodi mazlum,  
Ne yanglig' o'ldi qilmish erdi ma'lum.

Aning dardig'a ko'p qon yutmish erdi,  
Anolardek azosin tutmish erdi.

Yo'q ul yolg'uzki sarvi lolaruxsor,  
Qilib so'gida yuz pargola ruxsor.

Etib ming zaxm jismi dardnokin,  
Tilab albatta qilmoq o'z halokin.

Necha qatla tilab zahri nihoni,  
Icha olmay chu el fahm aylab oni.

Kuyarga aylab otashgah sori mayl,  
Muyassar bo'lmayin chun anglabon xayl.

Qo'yub Bonu kecha-kunduz nigahbon,  
Aningdekkim, but atrofida rahbon.

Bo'lub ojiz ul oyni asramoqdin,  
Xayolin lahza-lahza anglamoqdin.

Pari andoq bo'lub devona payvand  
Ki, jismidin uzub tish birla parkand.

Damo-dam nolau g'avg'osi tinmay,  
Payopay ohu vovaylosi tinmay.

Debon «Farhodu» tortib o'yla faryod  
Ki, tortib hajridin faryod, Farhod.

Gahe g'urbatda holi zorin aytib,  
Aodi makridin ozorin aytib.

Gahe ta'rif etib husnu jamolin,  
Viqoru hushu farhangu kamolin.

Gahi deb zoru navmid o'Imagidin,  
Chekib hijroni jovid o'Imagidin.

Gahi qo'shmoqta mazlumum deb oni,  
Asiru zoru mahrumum deb oni.

Xayoli hirla tunu kun maqoli,  
Maqoli birla oyu yil xayoli.

Qolib Bonu bu ish fikrida hayron,  
Bo'lub holig'a har dam ko'ngli vayron.

Qila olmay dame bir ishga mashg'ul  
Ki, muhlik g'amdin o'lg'oy joni ma'zul.

Yana qo'rg'onda ham qolmay zaxira,  
Bo'lub el dog'i Bonu birla tiyra.

Kichiklar aylabon ohu tazallum,  
Ulug'lar ta'n ila aylab takallum

Ki, bu ish garchi elga dilkash erdi,  
Va lekin filhaqiqat noxush erdi.

Ulusqa mehnatu nokomlig' ham,  
Jahon xalqi aro badnomlig' ham.

Yamon gar yaxshi, har ne bo'ldi hodis,  
Anga bir turfa barno erdi bois

Ki, arzir erdi gar yuz muncha qilsoq,  
Qayu yuz muncha, gar o'lguncha qilsoq.

Chu bois bartaraf bo'ldi aro din,  
Ne ochilg'ay sababsiz mojarodin?

Bizing kishvarni bu shoheki olmish,  
Base ajzu niyoz o'rtog'a solmish.

Tarab bu nav'kim, qilmak keraktur,  
Bu ishni mug'tanam bilmak keraktur.

Bo'lub Parvez payvandi bila shod,  
Bu zindondin ulusni qilmoq ozod.

Yo'q ersa bo'lmish elning toqati toq,  
Yaqindurkim bo'lub Bonu bila oq<sup>1</sup>.

Berib tatvil mundoq guftu go'g'a,  
Ochib qo'rg'onni bergaylar aduvg'a.

Eshitgach bo'yla har yondin takallum,  
Tushub ko'nliga haddin ko'p tavahlum.

Kirib Shirin qoshig'a ochti rozin,  
Falakdin oshurub so'zu gudozin

Ki: «Ey jismimg'a, bal jonimg'a payvand.  
Yuzungga jismu jonim orzumand.

Bir ishdurkim, takallum sursa bo'lmas,  
Netaykim oni ham yoshursa bo'lmas».

Ulus bu nav' deydurlar hikoyat,  
Tamomin ayladi bir-bir rivoyat.

Dedi Shirinki: «Ey quti hayotim,  
Degumdur, garchi mone'dur uyotim.

Manga juft ul, ulusning fardi erdi  
Ki, ko'nglum quti, oning dardi erdi.

Chu kechti juftdin ul toqi ofoq,  
Nechuk men juft ko'zlay, ul borib toq?

Vafo ahli ishi mundoq bo'lurmu?  
Vafo aylar kishi mundoq bo'lurmu?

Firoqida bukunluk-tonglaliqmen,  
G'amidin o'ylakim, suvsiz baliqmen.

Baliq holi bu bo'lg'ay suvdin ayru  
Ki, tolpinmoqdin o'lg'ay istabon suv.

Aning hajrida tolpinmoq ishimdur,  
Chu tolpindim, o'lub tinmoq ishimdur.

Manga chun yo'q tiriklikning falohi,  
Siz aylang ulcha bo'lg'ay el salohi.



Ulug'a ko'p shikanju ranj berdim,  
Men archi bermadim, bois men erdim.

Tiriklikda xud ettim elni noshod,  
O'larda bori etmay zulmu bedod».

Mihinbonu chu topti bo'yla ruxsat,  
Chiqib xushdil, g'animat ko'rdi fursat.

Saloh amrida bog'lab chust belni,  
Tilab Xusrav qoshidin kelgan elni,

Dedi: «Shoh o'llig'a ayting salomim,  
Yana bu nav' arz aylang payomim

Kim, ul kundinki doroyi zamona  
Ki, bo'lsun toju taxti jovidona,

Qilib payvand e'lomin sarog'oz,  
Meni bu so'z bila qildi sarafroz.

O'pub maktubni qoshimg'a qo'yдум,  
Sudo' afsunidek boshimg'a qo'yдум.

Qilib qosidg'a oyini muroot,  
Chiqordim charx uza ko'si mubohot.

Va lekin ko'rguzub dilreshliq ham,  
Qilib oyini durandeshliq ham.

O'zum-o'q qildim o'z aybimni izhor,  
Shikasti gavhari jaybimni izhor.

Ne bildimkim bu so'zda rayb ekandur,  
Demak o'z aybini xud, ayb ekandur.

Bu dam hamkim yetubtur hukmi shohiy,  
Erurmen ulcha mumkindur mubohi.

Agar shah ko'nglida yo'qtur kudurat,  
Qilurbiz xizmatin jondin zarurat.

Vale voqe' bo'lubtur bir ajab ish  
Ki, andindur manga ranju taab ish

Ki, bu muddatki darbandonliq erdi,  
Falakdin bizga sargardonliq erdi.

Haroratdin havo erdi shararrez,  
Yubusatdin yel erdi otashangez.

Xaloyiq kasratig'a yo'q taayyun,  
Tushub qo'rg'on aro andin taaffun.

Latofat jo'yborining tazarvi,  
Malohat gulshanining zod sarvi.

Jamol ayvonida mohi dilorom  
Ki, bo'lsun shahg'a oning vaslidin kom.

Bo'lub ozurda ul noxush havodin,  
Nishoti bulbuli qolmish navodin.

Haroratdin tushubtur bistar uzra,  
Nechukkim axgare xokistar uzra.

Qavidur ul sifat ranju maloli  
Ki, bordur har zamon bir o'zga holi.

Magar shah lutfi-o'q yovarliq etgay,  
Mening jurmumg'a uzrovarliq etgay.

Yiborgay lutf birla nomai afv,  
Xato xattig'a surg'ay xomai afv

Ki, el ozod o'lub mahbusliqdin,  
Qutulg'ay qal'a ham madrusliqdin».

Ufunatdin qutulsa sarvi gulrux,  
Bo'lub xurram havodin shodu farrux.

Atibbo necha kun aylab taraddud,  
Kam o'lsa dardu ranjiddin tashaddud.

Shah ar ko'rsa, aziz o'lg'ay azizi,  
Vagar xud qilsa xor o'lg'ay kanizi.

Eshitganlar bu harfi jonfizoni,  
Borib Xusravdin olib mujdagoni.

Nishotu aysh fartidin deolmay,  
Eshitgach Xusrav o'z holida qolmay.

Bashorat fartidin aylab ishorat  
Ki, cholg'aylar ravon ko'si bashorat.

Tarabdin ho'yu g'avg'o bo'ldi har yon,  
Qiyomat oshkoro bo'ldi har yon.

Yarash birla solib ovozalarni,  
Ochib, rust aylagan darvozalarni.

Qabolg'on el kezib har yon havasdin,  
Tamom andoqki, qush chiqqay qafasdin.

Tuzub oncha nishot asbobi Parvez  
Ki, hayrat aylabon charxi sabukhez.

Yasab bir mahdi oliy xusravona,  
Qilib arkoni davlatni ravona

Ki, Bonu mahd ichinda maskan etgay.  
Aning oliy bisotin ravshan etgay.

Bo'lub Bonu dog'i amrig'a ma'mur,  
Qilib Xusravning ayvonini purnur.

Aroding raf' o'lub kinu kudurat,  
Nishotu aysh yer topib zarurat.

Chu suhbat bo'ldi garm andoqki dilxoh.  
Sanam holin tafahhus ayladi shoh.

To'kub ko'z yoshi Bonuyi alamsanj,  
Dedi: «Tab'ida bordur za'fdin ranj.

Atibho aylabon tashxisi holin,  
Kelib xud arz qilg'aylar malolin.

Vale qo'rg'on ufun, ul notavondur,  
Burun vojib anga naqli makondur

Ki, tolibdur havoyi jonfizog'a  
Ki, mu'tod erdi jonparvar havog'a».

Dedi Xusravki: «Har yerning havosi  
Ki, anfa'dur sen-o'q sen rahshunosi.

Ishorat qilki tortib anda mahmil,  
Quyoshqa qilg'il ul ma'voni manzil».

Dedi: «Arman shimoli sori tog'e  
Ki, avjidadur oning qasru bog'e.

Base zahmat chekib suv kelturubtur,  
Hamono shah dog'i oni ko'rubtur.

Agar xud shahdin o'lsa hukmu farmon,  
Hamul yerdur aning ko'ngliga armon».

Eshitgach Xusrav o'ldi ko'ngli noshod  
Kim, ul suvni keturmish erdi Farhod

Ki, ming Xusrav kibi yuz yil chekib ranj,  
Ul ish bo'lmas edi gar to'ksa yuz ganj.

Rizo, lekin zarurat hirla berdi  
Ki, bermakda rizo bechora erdi.

Ravon Bonu ravon etti amori  
Ki, oyni eltibon ul ravza sori.

Falakni oyg'a mahmil ayladilar,  
Chamanni gulga manzil ayladilar.

Quyosh ul jonfizo ayvong'a bordi,  
Pari sarchashmai hayvong'a bordi».

Ketur, soqiy, mayikim jonfizodur  
Ki, bu rangin chaman bas bevafofur.

Bo'lay usrukki, bor ollida bir jav,  
Demay Farhodu Shirin, balki Xusrav.

## LI

*Quyoshni shafaqqun amoriyg'a solib falak qo'rg'onidin chiqorg'onda  
sahob monand amoriy zayli ochilmog'i va Sheruyani bir ko'rmoki zarradek  
sargashta qilmog'i va Sheruyag'a Shirin ona bo'lur vahmidin otasin o'lturg'oni  
va raxshi tamanno aning shabistonig'a surgoni va Shirin charbzabonlig'  
bila anga taskin berib, Farhod so'ngagin Armaniyadan kelturgani  
va o'z hamog'ushlig'i bila ul jismg'a ruh kiyurgani, yo'q-yo'qki,  
jismin aning jismig'a tegurganidek ruhin dog'i aning  
ruhig'a yetkurgani.*

Bu so'zda iftitoh etgan kalomin,  
Bu yanglig' ayladi so'z ixtitomin

Ki, chiqqoch qal'asidin sarvi gulchehr,  
Aningdekkim, falak qo'rg'onidin mehr.

Maqomi bo'ldi gulnori amori,  
G'azoli tegrasida lolazori.

G'azole demakim, zarrin g'azola,  
Shafaqdin har yon atrofida lola.

Harorat birla titratmak nishoni,  
Quyoshdek rangin aylab za'faroni.

Surarda Armaniya sori mahmil  
Ki, qilg'ay sihat ayvonida manzil.

Chiqib Xusrav sipohining tamomi,  
Tamosho sori borining xiromi.

Amorisig'a ul oyning qolib mot,  
Quyosh atrofida andoqki zarrot.

Magar hodis qilib erdi havodis,  
Ajab shahzoda shah mulkiga voris.

Sharar andoqki, bo'lg'ay o'tqa farzand  
Bashoqdekkim, erur temurga parkand.

Aning birla atosi tab'i noxush,  
Ato tavri dog'i kelmay anga xush.

Ato hargiz o'g'ul ko'ngliga boqmay,  
O'g'ulg'a ham ato af'oli yoqmay.

Bu kunkim, xalq chiqti beshumora,  
Chiqib ul ham qilur erdi nazora.

Quyosh mahdig'a boqqach tund bode,  
Amori zaylig'a berdi kushode.

Bulut chun ketti, zohir bo'ldi ul oy,  
Dema oy, oftobi olamoroy.

Ko'rub Sheruya ul husni jahontob.  
Ichiga ishq o'ti soldi nihon tob.

Borib manzilg'a chun tushti dilorom,  
Munung ko'nglidin itti hosil orom.

Tunu kun zoyil o'ldi xo'rdu xobi,  
Bo'lub afzun damodam iztirobi.

Chu bildikim o'lar bu g'amda beshak,  
Dedi ko'nglida «o'lmakdin tirilmak».

Kerak tadbir ila qilmoq xayoli  
Ki, mumkin bo'lg'ay ummidi visoli.

Ato qatlig'a bu ish munhasirdur,  
Bu ishga ishq g'avg'osi musirdur.

Chu oshiq bordur o'z qatlig'a bebok,  
Yanalar qatlidin ko'nglida ne bok.

Dedi: «Xusrav agar chiqsa arodin,  
Bo'lur komim ravo ul dilrabodin.

Ani daf' aylasam olam meningdur,  
Bu mehri olamoro ham meningdur.

Emas ummid yalg'uz podshahliq  
Kim, oning vasliyu yuz podshahliq».

Chu fikr etti bu tadbiri xatoni,  
Ulusqa va'dalar aylab nihoni.

O'ziga chekti Xusrav qavmu xaylin,  
O'zi sori borining topti maylin

Ki, Xusrav zulmi haddin oshmish erdi,  
Jafosi tund seli toshmish erdi.

Falak chun zohir etti bo'yla san'at,  
Qilib Sheruya birla borcha bay'at

Tutub Xusravni mahbus ayladilar,  
Yuziga raxna madrus ayladilar.

Chu ul bo'ldi muqayyad qildilar jahd  
Ki, qilg'aylar ani tufroqqa hammahd

Ki, nogah uzmagay ul qush bu domin,  
Alarg'a zohir aylab intiqomin.

Nayomidin chiqorg'ay tig'i bebok,  
Alardin yer yuzini aylagay pok.

O'g'ul qatl etgali ohang qildi,  
Ato qonig'a tig'in rang qildi'.

O'g'ul qilmadi oning qasdi joni  
Ki, davron istadi Farhod qoni.

Agar Farhodqa zulm etti Xusrav,  
Evaz bot ayladi charxi sabukrav.

Anga gar bu yeturdi tig'i bedod,  
Munga davron keturdi tig'i po'lod.

To'kub qon xalq bag'ri yorasidin.  
Ham oqti qoni bag'ri porasidin.

Agar qotil gado, gar komrondur  
Ki, shar'i ishq aro ham qong'a-qondur.

Falak cholok erur gar zulm chog'i,  
Erur chobuk mukofotida dog'i.

Birovg'akim, birovdin yetti ofot,  
Hamonokim, qatig'roqdur mukofot.

Birovkim, rishtaye uzdi jafodin,  
Evaz tutmoq kerak ko'z ajdahodin.

Kim etti kul bir uchqunni nihoni  
Ki, barqi qilmadi kul oxir oni?!

Qasos amrida davron keldi cholok,  
Dema davronki, soyir to'qquz aflok.

Sitamdin bas ilikni chekmak avlo,  
Vafou mehr tuxmin ekmak avlo.

Chu mazra' ichra sochting har ne dona,  
Hamul dona, ko'targung jovidona.

Chu mahsulidin o'lmas kimsa qochmoq,  
Keraktur yaxshiliq tuxmini sochmoq

Ki, Xusrav zulm tig'in urdi chun tez,  
Ham urdi zulm tig'i charxi xunrez.

Agar Sheruya dog'i etti bedod,  
Anga dog'i falakdin yetti bedod.

Chu ul bu ishni qildi bemadoro,  
Xilofat ko'sin urdi oshkoro.



Chiqib taxt uzra qo'ydi boshig'a toj,  
Qoshida tojvarlar bo'ldi muhtoj.

Chekib Bonuni o'tkan mojarog'a.  
Sanam aqdida so'z soldi arog'a.

Dedi Bonuki: «Mahvash notavondur,  
Mizojida takassurdin nishondur.

Agar zotig'a sihat qilsa yori,  
Erur o'z ilgida o'z ixtiyori.

Necha ul oydin ayru kishim yo'q,  
Vale har ishki, ul qilsa, ishim yo'q.

O'zi birla hikoyat qilmoq avlo,  
Tamannoni rivoyat qilmoq avlo.

Chu oshiq johil erdi, ishq-qattol,  
Sanam ollig'a holin qildi irsol

Ki, bir ko'rmak bila husningni, ey hur,  
Ul o'tdin ko'nglum andog' bo'ldi mahrur

Ki, andin shu'la chun jonimg'a tushti,  
Qurushmoq tandag'i qonimg'a tushti.

Manga andoqki ul o't soldi partav,  
Ne Farhod ul sifat kuydi, ne Xusrav.

Dalil istar esang, da'vo surubmen  
Ki, ishqingda atomni o'lturubmen.

Qazodin bo'lg'oli olam binosi,  
Anga tegruki bo'lg'ay intihosi.

Bu yanglig' ishq javru zulmidin pech,  
Manga tushgan kishiga tushmamish hech.

Sipehr avroqini axtarsa bir-bir,  
Ne o'tkan ish payig'a borsa bir-bir.

Manga arzir agarchi komronmen,  
Demak ishqingda rasvoyi jahonmen.

Ishim rasvoliq ichra bebadaldur.  
Ulusqa to jahon bo'lg'ay masaldur.

Vafo qilmoq bila komim ravo qil,  
Visoling va'dasi aylab vafo qil.

Ibo qilmoqlig'ing ham gar bilurmen,  
Yaqin bil, ne qila olsam. qilurmen.

Manga bu ishq aro yo'q oncha yoro  
Ki, va'dang birla qilg'aymen madoro».

Payomovar chu yetkurdi bu payg'om,  
Borib o'z holidin sarvi gulandom.

O'ziga zulfi yanglig' urdi ko'p pech.  
Vale onglatmay oni og'zidek hech.

Taammul birla topti ish yuzin pok  
Ki, bordur ul fidoyi asru bebok.

Tilab joh ulki o'lturgay atoni,  
Ajab yo'q, kom uchun ne qilsa oni?!

Dedi: «Ko'rmak ani mendin yiroqdur,  
Ani ko'rmakdin, o'lmak yaxshiroqdur.

Agar topsam o'lumni ko'rmay oni.  
Bu o'lmakdur hayoti jovidoniy».

Taammul birla roye topti shofi  
Ki, bor erdi aning fikriga vofi.

Dedi so'z homilig'a lutf etib ko'p  
Ki, har so'z kim deding bori erur jo'b.

Degil shahg'a duo birla niyozim,  
Duodin so'ngra sharh et ushbu rozim

Ki, har amriki ul bo'lg'ay qazodin.  
Ul ishdin o'tmamak avlo rizodin.

Bu erkondur qazoyi osmoniy  
Ki, Xusrav sanga bergay mulki foniy.

Sening ilgingda qilsa, Kirdigoring  
Aning qatlin, sening ne ixtiyoring?!

Xirad har kimgakim, Haqdin atodur,  
Bu ishda e'tiroz etmak xatodur.

Sanga bo'lg'on kibi ishqim balosi.  
Manga ham tushmish erdi ibtilosi.

Qatilikim atongdin ko'rdi bedod.  
Bori ishq ahlining sarxayli Farhod,

Bo'lub ishqim kamandining asiri,  
Men oning ishq bandining asiri.

Bu ikki ishqdek har lavsdin pok,  
Kerak ko'rmaydur erkin davri aflok.

Mening ishqimda etti tarki jon ul,  
Adam sarmanzilin qildi makon ul.

Aning hajrida men bemori bedil,  
Qushmenkim, qilurlar nimbismil?

Erur za'fim dog'i oning g'amidin,  
Halokim dog'i oning motamidin

Ki, ishqimda aningdek fardi olam,  
Vafo bobida g'amparvardi olam.

O'lub men qilmasam zohir vafoye,  
G'amidin tutmasam so'gu azoye.

Ko'ngulning aytkim, ne holi o'lg'ay,  
Nechuk oning g'amidin xoli o'lg'ay?!

Ishorat qilsa shah aylab meni shod  
Ki, Shopur o'lsa g'am qaydidin ozod.

Ani bir xayl ila qilsam ravona,  
Anga tegruki o'lmish ul yagona.

Qaro kiysam, dog'i tutsam azosin,  
Gum etsam jon aro ishqj balosin,

Xalos aylab badanni mehnatidin,  
Ko'ngulni xoli etsam furqatidin.

Bu ish bo'lg'och, ne shah qilsa ishorat,  
Manga xud bo'lg'usidur ul bashorat.

Tunu kun soyadek yonida bo'lsam,  
Ne qilsa, hukmu farmonida bo'lsam.

Agar bu ishga rozi bo'lmasa shoh,  
O'luk topqay meni, bo'lguncha ogoh.

Borib Sheruyag'a farxunda qosid.  
Chu qildi arz bu yanglig' maqosid.

Bo'lub ko'ngli bag'oyat shodu xurram,  
Qo'yub Shopurni hukm etti ul dam

Ki, sarvi lolarux qilsun degandek,  
Muborak xotiri ne istagandek.

Ko'rub Shopurni mohi parichehr,  
Atorud birla qilg'ondek qiron mehr.

Tushub tufroqqa Shopuri jigarxun;  
Qilib qon yoshi mujgonin tabarxun.

Chekib devonalardek un parizod,  
Ani ko'rganda Farhodin qilib yod.

Zamone tuttilar bir nav'i motam  
Ki, bo'ldi qiyr-gun feruza xotam<sup>3</sup>.

Jaza' to'fonig'a chun bo'ldi taskin,  
Dedi Shopuri mehnatkashg'a Shirin.

Nekim Sheruyadin kelgan maqolot,  
O'zi ma'ruz qilg'on ham xayolot.

Chu ul bu kayfiyatdin bo'ldi ogoh,  
Anga o'z taxti mahdin qildi hamroh.

Iki-uch yuz kishi aylab mulozim,  
Hamul maqsudi sori qildi ozim<sup>4</sup>.

Buxuru udu so'zu, nofai tiyb,  
Nihoyatsiz qilib shohona tartib

Ki, ko'hsor ichra topib ko'hkanni,  
Balo tog'i kibi jonsiz badanni.

Amori ichra solib shoh monand,  
Falak mahdi ichinda moh monand.

Keturgaylar badanni jon qoshig'a,  
Badan yo'q. jonni bal jonon qoshig'a.

Borib Shopuru ul xayli sitamkash,  
Anga tegruki ul maqtuli g'amkash.

Ko'rubkim halqa urmishlar dadu dom,  
Tutub ul nuqtadek davr ichra orom.

Bulardin ko'hiyu dashtiy qilib ram,  
Alar o'rnin tutub bir dam bular ham.

Muborak jismini nur ichra topib,  
Hariru hulla birla oni yopib.

Qilib shohona bori ehtiromin,  
Parivash mahdida aylab maqomin.

Qilib Shopuri miskin nolalar ko'p,  
Uzub o'z jismidin pargolalar ko'p.

Amorini qo'yub bo'ynig'a bori,  
Kishidin poyalar topib amori.

Fig'on birla vido' aylab dadu dom,  
Hamul yer tegrasida topib orom.

Alar kelturdilar Armang'a oni,  
Qo'yub qasr ichra mahvashdin nihoni.

Chu bori ishni tayyor ayladilar,  
Parivashni xabardor ayladilar.

Chu mahvash bildikim ne ish ochilmish,  
Nechuk mehmon shabistonig'a kelmish.

Yuzi ul mujdadin guldek ochildi,  
Qo'pub mehmonsarog'a azm qildi

Ki, mehmonig'a qilg'ay mizbonliq,  
Demaykim mizbonliq, jonfishonliq.

Bakulliy raf' o'lub ranju maloli,  
Simo' aylab surud aytib visoli.

Dedi Bonug'a: «Budur iltimosim  
Ki, bir dam tutmag'aylar xalq posim

Ki, ul yoreki mahrum erdim ondin,  
To'yub erdim g'amida xasta jondin.

Eshitgan birlakim Shirin o'lubtur,  
Mening dardimdin ul miskin o'lubtur.

Vafodin qilmamish ishqimda taqsir,  
Bu dam navbat manga yetmish, ne tadbir.

Gar ul ishqimda hirmon birla ketti,  
Vale ishq kamolin sobit etti.

Manga ham bor edi ishqida lofe,  
Tilarmen bo'lmag'ay lofim gazofe.

Vafoda ul o'z insofini olmish,  
Ul aylab o'z ishin, ish bizga qolmish.

Umidim ulki, yetgay o'yla holat  
Ki, mehmondin manga yetmay xijolat.

Vafosin jonda pinhon aylagaymen,  
Nisori maqdami jon aylagaymen.

Agarchi bor edim Bonug'a yotliq,  
O'lar damda uyotliqmen-uyotliq.

Bihillik istabon yer o'pti filhol,  
Qilurg'a azmi xilvat qo'pti filhol».

Yurub uy sori, jondin yub ilikni,  
Kirib rust etti ichkardin eshikni.

Malolat qolmayin ko'nglida chandon,  
Xirom etti amori sori xandon.

Chu ul mahd ichra kirdi sarvi gulro',  
Ko'rarkim, eltmish mehmonni uyqu.

Munungdek uyquni kim ko'rdi jovid.  
Ki, uyg'onmay yetib boshig'a xurshed.

Bu yanglig' uyqu ko'rgach sarvi cholok,  
Anga hamxobaliq qildi havasnok'.

Qo'yubon ro'y-barro', do'sh-bardo'sh,  
Bo'lub o'z bedili birla hamog'ush.

Ko'nguldin shu'laliq ohe chiqordi,  
Ko'zi hamxobadek uyqug'a bordi.

Ne uyqu, kimsa andin qonmas uyqu,  
Qiyomatqa degin uyg'onmas uyqu.

Bu bo'lsa uyqu, uyg'onmoq ne ya'ni?!  
Munungdek uyqudin qonmoq ne ya'ni?!

Ketur soqiy, qadah tutqil manga qo'sh  
Ki, bo'ldum gulruxum birla hamog'ush.

Bir uyqu bo'lsun ul maydin padidor  
Ki, bo'lgaybiz qiyomat subhi bedor.

### LII

*Shirinning Farhod ishqida jon berganin bilib, Mihinbonu dog'i joni shirin tarkin qilib, bu holatda Bahromi dilovarning Chin mulkidin kelgani va bu vaqoyi' vahshatidin yorug' jahong'a qarong'u go'rni tarjih qilg'oni va Sheruyai zolim amvolidin Farhod uchun raddi mazolim qilib, Armanda podshohi odil tayin etgani va Chin bila Mag'ribzamin cheriklariga ijozat berib qaytarib, o'zi zohir saltanati tarkin etgani va ma'naviy saltanatqa yetgani.*

Bu motamxona ichra navhapardoz,  
Bu yanglig' etti lahni navha og'oz

Ki, chun mahvash ul uy ichra kirib chust,  
Eshiklarni kiyirdin bog'ladi rust.

Mihinbonu bila xaylu tabori,  
Necha chektilar oning intizori.

Sanam qo'ymodi uydin tashqari gom,  
Yopilg'uncha jahong'a pardai shom.

Tahammulsiz bo'lub uy sori borib,  
Eshik ochilmog'ondin so'ng qo'ngorib.

Amori sori qo'ydilar qadamni,  
Ochibon parda, ko'rdilar sanamni

Ki, Farhodi bila yotib hamog'ush,  
Qo'yubon ro'y-barro', do'sh-bardo'sh.

Ko'ziyu qoshi uzra, ko'zu qoshi,  
Sari mo' bo'lmayin zohir tahoshi.

Ketib ul furqati behaddu g'oyat,  
Bo'lub ro'zi visoli benihiyat.



O'luk oshiq bila ma'shuqi bejon,  
Nechukkim sarv birla ishqpechon.

Quchub o'z oshiqin ma'shuqi mahkam,  
Nechukkim, oshiq o'z ma'shuqini ham.

G'alat qildim, bo'lub Farhodu Shirin,  
Riyozni jannat ichra ishratoyin.

Falakda ikkisining ruhi poki,  
Qolib tufroqqa ikki jismi xoki.

Chu Bonu ko'rdi mundaq turfa holat,  
Anga xud bor edi jondin malolat.

Chiqib gardun sori afg'oni oning,  
Fig'oni birla chiqti joni oning.

Chu Shirin joni erdi, onsiz o'ldi,  
Damekim o'ldi onsiz, jonsiz o'ldi.

Magar jon keynicha chiqti fig'oni  
Va yo chiqti fig'oni birla joni.

Aning naxli hayoti dog'i sindi,  
Zamona ko'ngli andin dog'i tindi.

Ajab nav' o'ldilar ul notavonlar,  
Fido bu nav' o'lmaklikka jonlar.

Eshittimkim, hamul aqshom guruhe,  
Riyozat birla qozg'olg'on shukuhe.

Adadda qirq ul xayli kiromi,  
Bu yanglig' tush ko'rubturlar tamomi

Ki, jannat ichra bog'e osmoncha,  
Munungtak bog' aro qasre jahoncha.

Hamul dilkash chamandin ruh olib qut,  
Ham ushbu qasr o'lub bir dona yoqut.

Safovu ziynati imkondin ortuq,  
Nekim vashf aylagaylar ondin ortuq.

Aning ta'rifida ketmak ne hojat,  
Kishi uchmoqni vashf etmak ne hojat.

Bu qasr ayvoni ichra nurdin taxt,  
Bu taxt uzra hariri hulladin raxt.

Chiqib ul taxt uza Farhodu Shirin,  
Nechukkim gulshan ichra sarvu nasrin.

Jamolu ziynatu zebu safoda,  
Bo'lub yuz onchakim, dori fanoda.

Aning sori ato birla ano ham,  
Kelib Bonu munung sori yano ham.

Jamolu mulku johi har birining,  
Bo'lub olamda bo'lg'onning biri ming.

Alar so'rg'on emishkim bu jamoat,  
Ne qilmishlar ekin taqviyu toat

Ki, bu qasr ichra manzil aylamishlar,  
Muningdek poya hosil aylamishlar,

Deb ermish xozini jannatki, Farhod  
Jahonda ishq tarhin soldi bunyod.

Aningdekkim, kechib sultonlig'idin,  
Jahon mulki ichida xonlig'idin.

Murodu orzudin tortibon qo'l,  
Havoyi nafs sori tutmayin yo'l.

Bo'lub ma'shuqidin hirmon bila xush,  
Balovu mehnati hijron bila xush,

Vujudin o'rta otashnok ishq,  
Solib o't olam ichra pok ishq.

Kechib avval diyoru xonumondin,  
Vale so'ngra jahondin, balki jondin.

O'tar dam o'yla foniy bo'ldi mutlaq  
Kim, ul ishqini boqiy ayladi Haq.

Vujudin o'rtab ul so'zu gudozi,  
Haqiqatqa badal bo'ldi majozi.

Tutub soqiyi vahdat jomi tavfiq.  
Nasibi ayladi Haq rohi tahqiq.

Baqo shahrida sultonliqqa yetti,  
Haqiqat mulkida xonliqqa yetti.

Aning dardida ko'rganlar vaqoye'  
Ki, qildilar murodu kom zoye'.

Kechib iqboli bepoyonlaridin,  
Ilik bori yudilar jonlaridin.

Alar ranjini ham Haq zoye' etmay,  
Munga xijlatlarini shoye' etmay.

Ato birla ano o'lmishlar erdi,  
Firoqinda fano bo'lmishlar erdi.

Yana Shirin kibi ma'shuqi cholok,  
Aning hijronida Bonuyi g'amnok.

Bularning ham aning komi uchun Haq,  
Qilib bori gunohin mahv mutlaq.

Borig'a bahri rahmat ro'zi etti,  
Bu yanglig' bog'i jannat ro'zi etti.

Berib bu qasri davlatni muabbad,  
Riyozni xuldni tutti muxallad.

Bular aylab anga jonlarni payvand,  
Aning vasli bila jannatqa xursand.

Vale vahdatda joni poki oning.  
Bo'lub Haq birla istihloki oning.

Bu tush ko'rganlar uyg'ong'och hamul dam,  
Bo'lub voqif bu ishdin ahli olam.

Chu dahr avroqin axtardim bag'oyat,  
Bu yanglig' dog'i toptim bir rivoyat

Ki, oshiqliq aro Farhodi mahjur,  
Chu bo'ldi borcha olam ichra mashhur.

Yetishti ahli kufru ding'a dog'i,  
Xabar bordi Xitou Ching'a dog'i.

Vale ul xitta avzoig'a taqdir,  
Solib erdi base tabdilu tayg'ir.

Aning hajrida Xoqon o'lmish erdi,  
Kichik qardoshi xoqon bo'lmish erdi.

Ano dog'i ani istarga jozim  
Bo'lub erdi fano mulkiga ozim.

Vale ul vaqt Bahromi dilovar,  
Nahange erdi qon ichra shinovar.

Qilichi suyi daryoyi maxofat,  
Bo'lub javharlar anda mavji ofat.

Falak bahromig'a gar ko'rguzub kin,  
Ko'runub ollida Bahromi Cho'bin'.

Falak raxshin zabun aylab samandi,  
Zuhal qaddin nigun aylab kamandi.

Qarong'u kecha chiqqach o'qi yodin,  
O'tub yetti falakdin, yo'q Suhodin.

Tutub Chinu Xito ahli musallam  
Ki, ish vaqti emas Farhodin kam.

Valek ul soyir eldin jovidona,  
So'rub Farhod holdin nishona;

Chu ul ish tutti shuhrat Hind to Rum,  
Xito ahlig'a dog'i bo'ldi ma'lum.

Bu so'z yetgan zamon Bahromi bixrad,  
Xito xonig'a bor erdi sipahbad.

Vale Farhodsiz bor erdi ranjur,  
Nechukkim yorsiz Farhodi mahjur.

Chu xon ham bor edi Farhodg'a a'm,  
Aning soridin ermas erdi beg'am.

Kelib xon ollida arz etti Bahrom  
Ki, bu yanglig' xabar bo'lmish durur om.

Ki: «Mag'rib sori mulki Arman otlig',  
Bor ermish yuz Eram andin uyotlig'.

Bu mulk ichra bor ermish bir parizod  
Ki, bo'lmish ishqidin devona Farhod.

Agar hukm etsa xon lufu atodin,  
Cheriklar jam' etib Chinu Xitodin

Azimat aylabon Mag'rib zaming'a,  
Yetursam o'zni Farhodi guzing'a.

Topilsa, qilsam ul holig'a tadbir,  
Yo'q ersa, ko'rsam ulkim bo'lsa taqdir».

Ijzat berdi xon, royin ko'rub xo'b  
Ki, vahmi bor edi Bahromdin ko'p.

Dedi: «Ul xud o'lubtur, bu ham itsun.  
Qayonkim, xotiri mayl etsa, ketsun!»

Ijzat topti chun farxunda Bahrom,  
Cherik tortib zamone tutmay orom,

Kelib Mag'rib zaming'a ko'ch-barko'ch,  
Qilib elning iki ko'chieha bir ko'ch.

Chu Arman sori soldi zilli iqbol,  
Tilab ul elni tahqiq ayladi hol.

Mukarrar ko'p qilib so'rmakda tadqiq,  
Aningdekkim, bor erdi qildi tahqiq.

Urub dard o'ti ko'nglidin zabona,  
Hamul madfan sori bo'ldi ravona.

Qilib ta'jil, yetti xotiri resh,  
Hamul dam go'yiyo charxi jafokesh.

Ulus Farhod so'gin qilmay oxir,  
Bu ikki motam etmish erdi zohir.

Chekib vohasrato ul kishvar ahli,  
Faza' ichra nechukkim mahshar ahli.

Birovni istadi Bahromi ranjur  
Ki, holat fahm qilg'ay keldi Shopur.

Eshitmish erdi oning vasfini ham,  
Guzin Farhodg'a erkanni hamdam.

Ham eshitmish edi Shopuri miskin,  
Ani Farhodning dardig'a taskin.

Topishtilar chu bir-birni so'rushub,  
Base yig'lashtilar keb-keb ko'rushub.

Bilib Bahrom chun so'rmoq qilib fan  
Ki, ul gunbaz durur yorig'a madfan.

Kirib, gunbazg'a ko'kdin voyi oshib  
Ki, ko'k gunbazlarig'a o't tutoshib.

Qilib bir nav' shevanlarki ul bum  
Erib ohi o'tidin o'ylakim mum.

Jahong'a o't solib bir kecha-kunduz,  
Debon Farhod ayog'ig'a qo'yub yuz

Ki: «Ey jondin meni navmid qilg'on,  
Balou mehnatim jovid qilg'on.

Ko'zum chiqsun, seni ko'rguncha mundoq,  
Kesilsun til, so'zung so'rguncha mundoq.

Nelar kelmish boshingg'a g'urbat ichra,  
Ne g'urbatlar chekibsen shiddat ichra?!

Nasibing so'zu ohe bo'lg'on ermish,  
Taning ko'hi chu kohe bo'lg'on ermish.

Qani ul ajdahog'a surmak oxir?  
Qani ul Ahraman o'lturmak oxir?

Qani ulkim, chu bo'lg'och king'a moyil,  
Bulutni charx etib o'lig'a hoyil?

Qani tig'ingdin o'lmoq tog' aro darz?  
Qani gurzingdin o'lmoq dasht aro larz?

Firoq ayyomi tovsholg'on emishsen,  
Bas og'ir uyqug'a qolg'on emishsen.

Ko'zung ochib, ko'targil boshing oxir  
Ki, kelmish bir hazin qo'ldoshing oxir!

Ne uyqudurki yetti ko'kka ho'yum,  
Jahong'a o'rt soldi guftu go'yum.

Yetib gardung'a un seskanmaging yo'q,  
Tushub olamg'a o't tebranmaging yo'q.

Ko'z ochmassen, debon: «kelgan qulumdur»,  
Masal chin bo'ldikim: «Uyqu – o'lumdur!

Meningdek qul sanga olamda mavjud,  
Sen a'do zulmidin bu nav' nobud.

Bu ishning toqati mendin yiroqdur,  
Muni ko'rguncha o'lsam yaxshiroqdur.

Sening qoningg'a tortib tig'i kinni,  
Teng etsam yer bila Mag'rib zaminni.

Qazib tog'ini daryosig'a solsam,  
Tengiz suyini sahosig'a solsam.

Bilodi bahr ichinda bo'lsa noyob,  
Minoridin nishonlar bo'lsa girdob.

Tuman ming qonning o'lsam razmsozi,  
Sening qoningg'a bo'lg'aymu muvozi?!

Bulardin topmasam ruhungni xushnud,  
Bu qonlardin manga ne bo'lg'usi sud?

Netay mundin nari tig'u kamarni,  
Boshimg'a toj yanglig' dardisarni?

Zirihni ne qilay, xaftonni naylay,  
O'qu yoni netay, qalqonni naylay?

Ne deb o'zni xayol aylay dilovar,  
Nedin aylay havas minmak takovar?

Ne deb emdi qilay maydong'a ohang,  
Boshimg'amu uray gurzi garonsang?

Ne nav' emdi tutay bazm ichra orom,  
Ne ko'nglum birla tortay la'lgun jom?

Manga hajringda may zahr o'ldi, billah,  
Tarabdan umr bebahr o'ldi, billah!

Nasibim g'ussau dard ayladinglo,  
Vujudum tufrog'in gard ayladinglo!»

Anga bu navhalar birla o'kurmak,  
Ish elga ashkidin xunoba surmak.



Bo'lub ul dard birla navhapardoz,  
G'amin Shopur yonida hamovoz.

Chu bu oshubi bir dam topti orom,  
O'pub yer, qo'ydi uydin tashqari gom.

Yibordi kimsakim, Sheruya kelsun,  
Nekim so'rsam, javobin arz qilsun!

Agar topsam oni har jurmdin pok,  
Qilay lufu karam birla tarabnok.

Vagar xud begunahlig'inda shakdur,  
Bilay ul damki, ne qilmoq kerakdur.

Bo'lub Sheruya ul ma'nidin ogoh,  
Tavahumdinki, surgay kina nogoh.

Shah ollindaki qohirlik ishidur,  
Gunahsizroq, gunahlikroq kishidur.

Agarchi ul dog'i shoh erdiyu tund,  
Temur tig'in qayo tig'i qilur kund.

Qilib Shopur ihzorin tavaqqu',  
Aning ollinda ko'p qildi tazarru'.

Dedi: «Bu so'z aro sensen guvohim  
Ki, Farhod amrida yo'qtur gunohim.

Anga har kimnikim qotil bilibmen,  
Atom ham bo'lsakim, qatlin qilibmen.

Muni Bahromshoh ollinda qil arz,  
Vale bilkim qilibmen xizmatin farz.

Agar tutsa meni kelmakda ma'zur,  
Ne hukm etsa bo'lay jon birla ma'mur.

Ani ko'rmakda g'olibdur harosim,  
Sening ollingda budur iltimosim

Ki, bu ma'nidin o'tkorgaysen oni,  
Karam yo'lig'a boshqorgaysen oni.

Erurmen gar bu nav' etsang muruvvat,  
Qiyomatqa degin mamnuni minnat».

Chu oni ko'rdi Shopur asru mazlum,  
Kelib ahvolin etti shahg'a ma'lum

Ki: «Men yo'q, balki Tengridur guvohi  
Ki, bu ishlarda yo'q oning gunohi.

Vale kelmakda ojizdur bag'oyat,  
Manga qilsang bu kelmakni inoyat.

Nekim holi desang, jon birla qilsun,  
Ne so'ngra ahdu paymon birla qilsun».

Ko'rub Shopurg'a ul qissani kom,  
Aning kelmoqligidin kechti Bahrom.

Dedi: «Lekin bu kishvar ahli ta'yin  
Qila olmosa nekim qilsa taxmin

Ki, to Xusrav cherik chekmish bu sori,  
Ne nuqson bo'lmish andin elga tori.

Ham oncha vajah andin elga yetsun,  
Ani yetkurgach o'z mulkiga ketsun.

Vale ahd aylasunkim, yetsa filhol,  
Yana bir oncha andin qilsun irsol».

Degach Shopur hukm ul notavong'a,  
Eshitgach hukm, minnat qo'ydi jong'a.

Nekim el istadi to'kti xizona,  
Xizona sarf etib bo'ldi ravona.

Yana oncha yibormakka qilib ahd,  
Ani ham yetkurub ko'p aylabon jahd.

Yig'ib Arman elin farxunda hokim,  
Qilib Farhod uchun raddi mazolim

Ki: «Xusravdin ne ishkim bo'ldi hodis,  
Kishikim desa Farhod erdi bois;

Nekim arz etsa nobudu ziyondin,  
Olib za'fini, xushnud o'lsun ondin».

Bu so'zdin sho'ru g'avg'o tushti har yon,  
Fig'on birla alolo tushti har yon

Ki: «Haqdin borimizning iltimosi  
Bu erdikim, aning bo'lsoq fidosi.

Chu biz yo'lida so'z jondin degaybiz,  
Ne bo'lg'ay molkim, ondin degaybiz.

Emas el royi birla hukmi taqdir,  
Nekim taqdir anga bo'lmish ne tadbir.

Duosig'a hamisha mushtag'ilbiz,  
Ne qilmish har ne qilmish ham bihilbiz».

Muhosiblarg'a ta'yin etti filhol  
Ki, ul el ichra qismat topti amvol.

Tuzarga mulk aro hashmat asosin,  
Tilab el ichra Bonu aqrabosin.

Birovnikim, topib borig'a foyiq  
Ki, bo'lg'ay saltanat amrig'a loyiq.

Qilib Arman elining podshohi  
Ki, bo'lg'ay kishvar ahlining panohi.

Qilib ul adl oyinini bunyod  
Ki, adlidin bo'lub vayronlar obod.

Ne yerkim buzdi beandoza Xusrav,  
Ani aylab imorat toza xusrav.

Berib Bahrom anga hashmat asosin,  
Livou toju ganji beqiyosin.

Topib ham maqdamidin taxt poya,  
Solib ham boshi uzra chatr soya.

Aning sultonlig'in chun shohi Bahrom,  
Nechukkim istabon aylab saranjom,

To'kub Chin ahlig'a ko'p naqd ila ganj.  
Qo'lub ko'p uzrlarkim, ko'rdunguz ranj.

Yeting ahlu ayolingizga yonib,  
Diyoru mulku molingizg'a yonib.

Alar ham chun ko'rub bu nav' surat,  
Base yig'lab, vale yonib zarurat.

Dedi: «Xoqong'a elting bo'yla e'lom  
Ki, topti bir-birin Farhodu Bahrom».

Alar chun tuttilar xushluq sori yo'l,  
«Qayonkim bor esang sen dog'i xush bo'l».

Sipahni chun bu so'z birla uzotti  
Taayyun band ila qaydin ushotti.

Etib Farhodning qabrini zohir,  
Ulu Shopur bo'ldilar mujovir.

Fano tufrog'ig'a chun bo'ldilar past,  
Baqo fayzi yeta boshlodi payvast.

Qo'yub shahliq, chu qildi xoki rahliq,  
Chu yaxshi boqti, xud ul erdi shahliq.

Navoiy foniyo'l, istar esang kom,  
Nechukkim bo'ldilar Farhodu Bahrom!

Ketur soqiy, manga jomi fano ber,  
Nechakim oni sipqorsam, yano ber!

Magar qilg'ay meni bu jom payvast,  
Alar yanglig' fano tufrog'ig'a past!

### LIII

*Saltanat shajarasining samarasi va xilofat bog'ining shajarasi, hidoyat avjida manzil etgan, tamalluqning nihoyatig'a yetgan, riyo qasri bunyodin qo'nqorg'on, balog'at ayvonida ot chiqorg'on, ya'ni sultonzodai olam Abulfavoris Shohg'arib' Bahodir xallada davlatuhu<sup>2</sup> madhida bir necha so'z surmak va nasihatimiz nuktalar arzg'a tegurmak, umid ulkim, bu shohvor durrlarni tufrog'din olg'ay va adosida quloq solg'ay, balki ul garonmoya gavharlarni quloqqa solg'ay*

Jahon bog'iki, rashki naqshi Chindur,  
Qayu Chin, g'ayrati xuldi barindur.

Bu bog' ichra kishi qilsa taammul,  
Topar har bir chaman sahnida yuz gul

Ki, bo'lg'ay har birida rang u bo'yi  
Vale yo'q rang u bo'dek guftu-go'yi.

Guli xandonda gar bo'lsa tabassum,  
Vale bulbul kibi yo'qtur tarannum.

Gulekim bo'lsa rang u bo'yi oning,  
Ham o'lsa nuktai diljo'yi oning.

Namudor ichra gulkirdor bo'lsa,  
Takallum ichra bulbulvor bo'lsa.

G'arib o'lg'ay nihoyatdin ziyoda,  
Bu yanglig' gulkim o'lg'ay shohzoda.

Qayu shahzoda ul koni malohat,  
Takallum vaqti daryoyi fasohat.

Fasohat bobida shahg'a qarib ul,  
Bori shahlar fasihi Shohg'arib ul.

Zihi nutqung takallum vaqti jonbaxsh,  
Masiho yanglig' anfosing ravonbaxsh.

Ne ma'ni bo'lsa diqqatdin nihoning,  
Hal aylab oni tab'i xurdadoning.

Kichik yoshda qilib tab'ing shumora,  
Xirad pirini tifli shirxora.

Sening zotingg'adur bu so'z furug'i,  
Kichik yoshdin ulug'larning ulug'i.

Erurda kavkabi baxting yangi oy,  
Erursen badr yanglig' olamoroy.

Qachonkim, badrlig' topsa hiloling,  
Quyoshdin bo'lg'ay ortuqrog' kamoling.

Yangi oy badrliqdin keldi mahjur,  
Quyoshdin har kecha kasb etmasa nur.

Quyoshliq istasang kasbi kamol et,  
Kamol ar kasb etarsen, bermalol et.

Kishi ta'limdin topsa malolat,  
Topar ilm ahli ollinda xijolat.

Kishi farzan avonu zolim o'lsa,  
Va lekin nuktadonu olim o'lsa.

Baso zohid kishikim om ichinda,  
Anga muhtoj o'lur islom ichinda.

Birovkim qilsa olimlarga ta'zim,  
Qilur go'yoki payg'ambarga ta'zim.

Hadis o'lmish nabiyydin bo'yla hodis  
Ki, olim keldi payg'ambarga voris,

Kishikim bo'lsa olam podshohi,  
Aning ummatlig'idindur mubohi.

Birovkim ilm ila bo'ldi barumand,  
Angakim voris o'ldi — bo'ldi farzand.

Erursen shoh — agar ogohsen sen,  
Agar ogohsen sen — shohsen sen.

Chu bo'ldi nuktadin ogoh to'ti,  
Ani derlar xaloyiq shoh to'ti.

Vale tovuskim, ming zevari bor,  
Ne zevarkim, boshida afsari bor.

Bu afsar birla shah demaslar oni  
Ki, bor asli yamon Hindustoni.

Bilik shoh aylasa hayvonning otin,  
Ne tong, gar shoh qilsa kimsa zotin?

Shahekim, ilm nurin topti zoti,  
Aning to hashr qoldi yaxshi oti.

Sikandar topti chun ilmu hunarni,  
Ne yanglig' oldi ko'rgil bahru barni.

Aningdek saltanat ahli ko'p erdi,  
Qayu birga bu nav' ish dast berdi?

Iki ming yil o'tub yuz ming xiradmand,  
Bo'lub hikmatlari birla barumand.

Temurxon<sup>3</sup> naslidan sulton Ulug'bek<sup>4</sup>  
Ki, olam ko'rmadi sulton aningdek.

Aning abnoyi jinsi bo'ldi barbod  
Ki, davr ahli biridin aylamas yod.

Valek ul ilm sori topti chun dast,  
Ko'zi ollinda bo'ldi osmon past.

Rasadkim bog'lamish — zebi jahondur,  
Jahon ichra yana bir osmondur.

Bilib bu nav' ilmi osmoniy  
Ki, andin yozdi «Ziji Ko'ragoniy»<sup>5</sup>.

Qiyomatg'a degincha ahli ayyom,  
Yozorlar oning ahkomidin ahkom.

Bilik garchi ko'runur ko'zga ziynat,  
Vale shahlarg'a bordur o'zga ziynat.

Vagar ilm ichra bo'lmay birga qone',  
Baridin bahravar bo'lsang ne mone'.

Guzar qil har necha ilm o'lsa hosil,  
Chu din ilmig'a yetsang ayla manzil.

Shah uldurkim, shiori ilmi dindur,  
Nedinkim ilmi din ilm ul-yaqindur<sup>6</sup>.

Ulum ichra o'qusung yuz tuman fasl,  
Tamomi far'u, din ilmi erur asl.

Bu din ilmiki xomam qildi tahrir,  
Erur fiqhu hadisu so'ngra tafsir.

Chu takmil o'ldi bu uch ilm sen bil,  
Yana har ilm maylin qilma, yo qil.

Va lekin tibbu hikmat ham erur xo'b  
Ki, sihatdur kishi jismida matlub.

Qayu jismeki oning sihhati yo'q,  
Qilurg'a Tengri amrin quvvati yo'q.

Birovkim paxta birla suvni yutqay,  
O'zung dekim, ne yanglig' ro'za tutqay.

Netib qilg'ay safodin sajdaye fosh,  
To'shakdin ulki olmas lahzaye bosh.

Ul uch din ilmiyu bu bir badandur,  
Bular muhtoji yaxshi, gar yomondur.



Ko'rardin bu ulum o'lg'ach kaloli,  
Muborak tab'inga yetsa maloli.

Ravon tarix sori rag'bat ayla,  
Salotin birla azmi suhbat ayla.

Jahondin ko'rki kimlar kom olibdur,  
Bu eski dayr kimlardin qolibdur.

Qani Tahmurasu<sup>7</sup> Jamshidu, Zahhok<sup>8</sup>  
Ki, har bir oldi olam mulkini pok?

Nazar qilkim, olib nettilar oxir,  
Nekim borin solib kettilar oxir.

Alar xud kettilar gar kech, agar bot,  
Vale qoldi alardin dahr aro ot.

Bu ot gar yaxshidur, yoxud yomondur,  
Qilurg'a oni bois ko'r, ne fandur.

Qayu fankim shuru' etmaklik onda,  
Kishidin yaxshi ot qolg'ay jahonda.

Qila olg'oncha ul bo'lsun shioring  
Ki, yaxshi ot qolg'ay yodgoring.

Chu din ilmig'a komil bo'ldi roying,  
Hal etti xotiri mushkilkushoying.

Emas hojat ne qil deb kimsadin pand  
Ki, ham olimsen ul dam ham xiradmam.

Nazar qilkim ne amru nahy etar Haq,  
Haq amru nahyidin bosh chekma mutlaq.

Ne kim qil deb turar favt etmagil hech,  
Nelarkim qilma debtur borchadin kech.

Vagar hikmatqa bo'lsa iltifoting  
Ki, bo'lsun Nuh umricha hayoting.

Burun qil o'z mizojingg'a taammul,  
Ne holi bor ekonni angla bilkul.

Chu tahqiq anglading hikmat musirdur,  
Mungakim ne mufidu ne muzirdur<sup>9</sup>.

Mufid ashyog'a doyim ishtig'ol et,  
Vale bor ishda mayli e'tidol et.

Nekim bo'lsa muzir, bo'lg'il haroson  
Ki, bo'lg'ay tab'inga mushkillar oson.

Nekim bo'lsa mizojingg'a guvoro,  
Anga ko'p mayl qilma oshkoro.

Bu so'zni ahli hikmat deb durur xo'b,  
«Yamondin oz behkim, yaxshidin ko'p»<sup>10</sup>.

G'izo bo'lsa mufidu tab' rog'ib,  
Bas et tab'ing hanuz o'lg'onda tolib.

Bu dog'i topmag'uncha hazmi komil,  
Badanni qilma ortuq yukka homil.

Agar hayvon suyidur g'ayri maqdur,  
Erur gar me'da qilmas hazm, ma'zur.

Bu yanglig' hikmat oyinida chust o'l  
Ki, doyim komronu tandurust o'l.

Vagar tarix sori aylagung mayl,  
Muni bilgachki ne ish qildi har xayl.

Salotineki bo'ldilar jahongir,  
Ne yanglig' qildilar har ishda tadbir.

Qayu zulm ayladi, qay bir adolat,  
Ne ishga ayladi har bir dalolat.

Ne ishdin mamlakat obod bo'ldi,  
Qayu ishdin ulus barbod bo'ldi.

Nedin topti mamolik istiqomat,  
Ne ishdin elga yuzlandi salomat.

Cherik oyini ne ishdin tuzuldi,  
Aduvning xayli ne ishdin buzuldi.

Ne nav' ish birla topti din ishi sud,  
Ne ishdin oxirat topti ziyonbud.

Ne ish har shohning bo'ldi sifoti  
Ki, qoldi olam ichra yaxshi oti.

Topibdur daf'a-daf'a borcha tahrir,  
Chu solg'ungdur nazar borig'a bir-bir.

Shak ermas anglabon ravshan zamiring,  
Anga mayl aylagay royi muniring

Ki, bu olamda borcha sudung o'lg'ay,  
Yana olamda ham behbudung o'lg'ay.

Nechukkim, shoh topmish dinu dunyo,  
Sanga ham yetgay ushbu ikki ma'no.

Bu ikki ishni gar qilsang tavaqqu',  
Ne ishkim shah qilur, qilg'il tatabbu'.

Bu ma'nilarki, xomamdur raqamkash,  
Agar xud kelmayin tab'ingg'a noxush.

Shak ermasturki, hangomi havoyij,  
Amalg'a kelturub, topqung natoyij.

Yetursa naf'i kulliy har bir irshod,  
Mening ruhum duodin qilg'asen shod.

Sanga bu pand har dam naf' bergay,  
Duo qilsang manga ham naf' bergay.

Ketur soqiy, mayu ko'nglumni shod et.  
Qadimiy qullug'um haqqini yod et!

Ishim chun pand bermaktur payopay,  
Eshit pandu manga tut bir qadah may.

LIV

*Bu noma itmomig'a xoma tuzmakdin taronasoqliq' va bu hangoma  
ixtitomida sa'y ko'rguzmakdin fasonapardoqliq' va bashariyat iqtizosi  
bila hadsiz lof zohir qilmoqdinkim o'z nafyig'a «Lo»<sup>1</sup>durur — uyolmoq  
va yarimchuq da'vo ko'rguzmakdinkim o'z man'ig'a «da»<sup>2</sup>durur — xijolatqa  
qolmoq va bedilona ajzg'a tushmakdin g'oyatsiz izzat ko'rmoq va dilso'xtavor  
faqr ko'rgazmak bila nihoyatsiz farah topmoq, «Alhamdu lillohil-lazi vaffaqani  
min iftitohihi ilo ixtitomihi; va sallalohu alayhi va olihi va ashobi kiromihi»<sup>3</sup>.*

Manga chun fikrati xurshedsoya,  
Bu oliy toram uzra berdi poya

Ki, gardun qal'asig'a raxsh surdum,  
Quyoshni gardi markabdin yoshurdum.

Kumaytim<sup>4</sup> po'ya chun gardung'a soldi,  
Atorud kilku sanduqi usholdi.

Aningdek sirmadim Birjisdin<sup>5</sup> toj  
Ki, boshi taylasong'a<sup>6</sup> bo'ldi muhtoj.

Falakdin yerga sochdim oncha anjum  
Ki, ofoq o'ldi ul anjum aro gum.

Qolib anjum aro bu dori shevan,  
Diram ostida ul yanglig'ki, maxzan.

Ne axtar, har biri Birjisu Nohid<sup>7</sup>,  
Ne Birjisu qayu Nohidu xurshid.

Sipehr avji uza chun poya toptim,  
Quyosh jirmi bila olamni yoptim.

Bori olamni tutqoch mehr nuri,  
Yorudi el ko'zi andin zaruri.

Basorat ahli nekim tuttilar ko'z,  
Nechukkim, kom edi, yoruttilar ko'z.

Vale chun ko'ri modarzod yetti,  
Bu bepoyon ziyoning nafyin etti.

Ko'zikim, anga kunduz, kecha bo'lg'ay,  
Muayyandur jahonda necha bo'lg'ay<sup>4</sup>.

Quyoshkim, soldi olam ichra yog'du,  
Yetishti pashshadin anqog'a tegru.

Vale yuz muncha gar nur o'lsa ma'lum,  
Ne ma'lum aylagay xuffosh ila bum?

Danilarg'a birovkim zarfishondur,  
Eshak o'llig'a to'kmak za'farondur.

Ne topqay ko'palak sham' o'tidin zavq,  
Kerak parvona kuygay ko'rguzub shavq.

Gulikum dahr bog'in gulshan aylar,  
Nasimi ko'z charog'in ravshan aylar.

Nechakim rangu bo'yi jonfizodur,  
Jual xaylig'a atridin vabodur.

Jual ko'ngli uchun bog' ichra bulbul,  
Deyolg'aymuki, ruhafzo emas gul?

Jual andoqki, lo'liyi siyahro'y,  
Yasar payvasta sahro dashtida go'y.

Ani elturda naqdi jon masallik,  
Nigun aylar boshin chavgon masallik.

Bu go'y o'lmish duri g'altoni go'yo,  
Dema dur, balki naqdi joni go'yo.

Aning tab'i aro bo'lg'onni marg'ub,  
Desunmu soru bulbulkim erur xo'b?

Jualg'a xirmani gul rangu bo'yi,  
Bil andoqkim, aning bulbulg'a go'yi.

Vale har kimsakim tab'i mudiqdur,  
Bilur bu ikkidin qay bir muhiqdur<sup>9</sup>.

Hamul bulbul bukun menmenki, aflok  
Qushe fahm aylamas mendek shag'abnok<sup>10</sup>.

G'ami ishq ichra ming afg'oni oning.  
Har afg'onida ming dostoni oning.

Bu gulshan bulbuli bo'stonsaroyi,  
Dema bo'stonsaro, dastonsaroyi.

Navoiy, haddin oshti so'zda lofing,  
Bilindi ayni voqe'din gazofing.

Bu da'vi dastgohin bir zamon yig',  
Chu da'vi ichra ma'ni yo'q, ne osig'?

Qo'yay bir lahza shoirliq shiorin.  
Chin aytay o'z shiorim yo'qu borin.

Men ul tufrog'menkim, charxi bebok,  
Natija bermas ondin g'ayri xoshok.

Yo'q ulkim garddek el farqin olmish  
Ki, xas yanglig' ayog' ostig'a qolmish.

Lagadko'bi zamondin yuz maloli,  
Bo'lub olam elining poymoli.

Nechakim el ayog'idin topib ko'b,  
Quyundek tushmayin holig'a oshub<sup>11</sup>.

Mashaqqat xaylidin bo'lg'on soyi past,  
Yetib ul xayl-xayli dast-bardast.

Gahikim sarsari mehnat yetib tez,  
Qilib ajzosin oning vahshatangez.

Havodis tundbodi qo'zg'oloni  
Qazib bir damda bunyodidin oni.

Ayirib bir-biridin uzv-uzvin,  
Demakim, uzv-uzvin, juzv-juzvin.

Havoyilar kibi bechora aylab,  
Maqomi aslidin ovora aylab.

Urub gah tog'u gah homung'a oni,  
Chekib xasdek gahi gardung'a oni.

Qilib yel xaylidek bir dam jahongard,  
Buxor ajzosi yanglig' osmongard<sup>12</sup>.

Chekib yel ho'yidin afg'onin oning,  
Olib sargashtalig'din jonin oning.

Havodis tundbodi chun bo'lub sust,  
Qaro tufroqqa oni tashlabon rust.

Chu eltib osmon uzra jahondin,  
Yana tufroqqa otib osmondin.

Hamono ko'kka chekmaktin xayoli,  
Bukim, urgay yana tufroqqa holi.

Tuganmay charxdin bu ranju oshub,  
Yana yetib havodisdin lagadko'b.

Balo dashtida mundog' bir ovuch xok  
Ki, muncha kin anga yetkurgay aflok.

Ayog' ostida kohi dardparvard,  
Yana bir lahza bosh uzra bo'lub gard.

Chu taskin davlatidin topibon bahr,  
Qaro tufroqqa o'lturtub ani dahr.

Bu tufroq topsa ham bir yerda orom,  
Ne topqay xasdin o'zga andin ayyom.

Bu xas ham yo'qki, andin zoda bo'lg'ay,  
Sukunu sayr aro balkim qo'shulg'ay.

Natija bersa bu tufroq ila gard,  
Xasu xoshok o'lur, yo'q sabzau vard.

Bo'lur ul nav' tufroq hamki dehqon,  
Ichi fikrida bog'lab yuz gireh qon.

Berib surmak bila jismig'a xorish,  
Yuziga bal xututidin nigorish.

Chekib hifzi uchun davrida devor,  
Qilib doyin hisori ohanivor.

Sochib har nav' guldin dona anda,  
Chu sochti gom qo'ymay yona anda.

Yetishmay anda yot elning ayog'i,  
Ne yot elkim, uzub yot o'tni dog'i.

O'turmay<sup>13</sup> vaqtidin bir lahza suyin,  
Tama' aylab bu suvdin obro'yin.

Topib muncha navozish qil taammul  
Kim, ul tufroq nevchun bermasun gul.

Muqarrardur ochilmoq qilsa ohang,  
Berur bir rang gul yo'q, balki yuz rang.

Bo'lub olamg'a ziynat rangi bo'yi,  
Chiqib bulbullarining hoyu ho'yi.

Meni xokiga ham charxi sabukgom,  
Sukun manzilgahida bersa orom.

Taraddud mehnatidin shod qilsa,  
Ulus bedodidin ozod qilsa.

Mahol ummid ila har bir jafokesh,  
Damo-dam urmasa bag'ring'a yuz nish.



Bo'lub ming g'ussa o'qig'a nishona,  
Zamirim bo'lmasa zanburxon.

Topib taskin jafogarlar hujumi,  
Tepukdin tinsa ko'nglum marzu bumi.

Chu ko'rmay kom shahdin har tabahkor,  
Meni qilmosa ollinda gunahkor.

Birov bo'lsa shah ollinda muotab,  
Meni qilmosa ul ishda muxotab.

Bo'lub mundoq g'amu ranjimdin ogoh,  
Tarahhum aylasa ahvolima shoh.

Nishotim bog'ida bir fikr qilsa  
Ki, gohe g'unchadek ko'nglum ochilsa.

Yigirmi to'rt soat kecha-kunduz,  
Yigirmi to'rt dam ursam nafas tuz

Ki, andin vaqtima yetsa huzure,  
Birovdin topmasa ko'nglum future.

Raqam qilg'on parishon nomalardin,  
Yozilg'on rabti yo'q hangomalardin.

Hamono teztak aylab qalamni,  
Ravonroq torta olg'aymen raqamni.

Ham o'lg'ay bu raqamdin san'ati ko'p,  
Ham o'lg'ay san'atida diqqati ko'p.

Vagar tole' bo'lub kulliy madadgor  
Ki, bo'lmay axtari baxtim hasadgor.

Farog'at kunjida bir go'sha tutsam,  
Meni el, men dog'i elni unutsam.

Bori ashg'oldin shah tutsa ma'zur  
Ki, bo'lsam so'z demok shug'lig'a ma'mur.

Yana shoh iltifoti bo'lsa goh-goh  
Ki, bo'lsa nazm yo nozimdin ogoh.

So'zumga gah berib islohdin zeb,  
Gahi in'omi etsa so'zga targ'ib<sup>14</sup>.

Deyolmasmenki, Xusrav yo Nizomiy,  
Va yo nazm ahlining sarxayli Jomiy

Nechukkim chektilar til xanjarini,  
Sarosar oldilar so'z kishvarini.

Alar o'trusida men ham chekib tig',  
Chekarga so'z sinonin qilg'amen big'.

Vale Haq lutfig'a eltib panohi,  
Shah iqbolidin istab takyagohi.

Deyolg'aymenki, ko'p aylab tazarru',  
Bularg'a aylay olg'aymen tatabbu'

Ki, arz etsam manga yetmay malolat,  
Havodoring'a yuzlanmay xijolat.

Bo'lub ahsanta lafzi elga oyin,  
Yetishgay shahdin ehson, dog'i tahsin.

Nizomiy olsa Barda<sup>15</sup> birla Ganja,  
Qadam Rum ahlig'a ham qilsa ranja.

Chekib Xusrav dag'i tig'i zabonni,  
Yurub fath aylasa Hindustonni.

Yana Jomiy ajamda ursa navbat<sup>16</sup>,  
Arabda dog'i cholsa ko'si shavkat.

Agar bir qavm, gar yuz, yo'qsa mingdur,  
Muayyan turk ulusi xud meningdur<sup>17</sup>.

Olibmen tahti farmoning'a oson,  
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.

Xuroson demakim, Sherozu<sup>18</sup> Tabrez<sup>19</sup>  
Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez.

Ko'ngul bermish so'zumga turk jon ham,  
Ne yolg'uz turk, balkim turkmon ham.

Ne mulk ichraki bir farmon yibordim,  
Aning zabtig'a bir devon yibordim<sup>20</sup>.

Bu devon tutti ul kishvarni andoq  
Ki, devon tuzmagay daftarni andoq.

Necha daftar qaro qilg'aymen oxir,  
Jihatsiz mojaro qilg'aymen oxir.

Navoiy necha degung so'zni hazyon,  
Bu hazyonlarni qo'y, bir Tengriga yon.

So'zing hazyon, magar uyqudadursen  
Ki, ma'ni qasdidin osudadursen.

Bu g'aflat uyqusidin bir ko'z ochqil,  
Yuzungga ashk — uyqu daf'i sochqil.

Urub yuzga nadomat ashkidin suv,  
Magar ketgay ko'zungdin bo'yla uyqu.

Bu suv yo'q ko'zni qilg'ay uyqudin pok,  
Ko'ngulni dog'i qilg'ay qayg'udin pok.

Demon ko'zu ko'ngul hangomasin ham  
Ki, pok etgay amalning nomasin ham.

Nadomat ashkidin har zori g'amnok,  
Yub etsa nomai a'molini pok.

Ul ashkin abri rahmat yomg'uri bil,  
Ne yomg'ur, fazl bahrining durri bil.

Ilohiy, so'zni chektim pech darpech,  
Hijo tumori yanglig' sarbasar pech.

Gumon qilmon xatokore o'zumcha,  
Xato ham sarbasar topmon so'zumcha.

O'tub umr etmayin bir safha oro  
Ki, bo'lmay yuz varaq jurm oshkoro.

Chu mushkafshon bo'lub xomam qarosi,  
Bo'lub ul mushklar nomam qarosi.

Va lekin men necha bo'lsam xatokor,  
Bihamdillah, sen ermassen jafokor.

Manga garchi xato sondin fuzundur,  
Sanga bahri ato ondin fuzundur.

Chu tushsa bahri afvungga talotum,  
Ajab yo'q yuz jahon jurm o'lmog'i gum.

Kishi o'z jurmidin ne uzr qo'lg'ay  
Kim, ul daryo aro bir qatra bo'lg'ay.

Agarchi qatra bo'ldi ersa nopok,  
Bo'lur ul damki, tushti bahr aro pok.

Chu bahri afvung o'lsa uzrxohim,  
Nedur men-menki, ne bo'lg'ay gunohim.

Karamdin aylasang jurmumni nobud,  
Sanga yo'qtur ziyon, ko'ptur manga sud.

So'zum xo'b ersa rahmat ayla hamroh,  
Vagar dedim yomon: astag'firulloh.

Bihamdillahki, bu g'am dostoni,  
Firoq ahlig'a motam dostoni.

Tugatmay nomai umrumni ayyom,  
Visol ayyomi yanglig' topti itmom.

Chu tarixi yilin onglay dedim tuz<sup>1</sup>,  
Sekiz yuz sekson erdi dog'i to'qquz.

Navoiy sayr etib soʻz boʻstonin,  
Raqamzad qildi chun bir dostonin.



Chu qolmay dostondin nukta boqiy,  
Tutub sogʻar toʻla ber turfa soqiy.

Labolab chun yetib ul jom payvast,  
Damo-dam soʻz demakda ul boʻlub mast.


Vale bu doston qilgʻuncha mastur,  
Koʻp aytib soʻz, bagʻoyat boʻldi maxmur.

Ketur soqiy, anga bir doʻstgoniy  
Ki, tutqay doʻstlargʻa doʻst oni!

Manga tutqilki, soʻzni koʻtah ettim,  
Tinay bir lahza chun manzilgʻa yettim.

A wide, ornate border with a repeating floral and geometric pattern in gold, red, and green surrounds the entire page.A large, intricate circular medallion with a scalloped edge, featuring a complex floral and geometric design in gold, red, and green. It frames the central text.

Sharh  
va  
izohlar

A smaller, intricate decorative medallion with a four-pointed star shape, featuring a complex floral and geometric design in gold and red, located at the bottom center of the page.

## «HAYRAT UL-ABROR»NING SHARH VA IZOHLARI

### I

1. Alisher Navoiy o'zbek tilida birinchi «Xamsa» yozgan shoir sifatida mashhurdir. Bu besh dostonidan iborat majmuaning birinchi dostoni falsafiy-didaktik mazmundagi «Hayrat ul-abror»dir. Bu doston Sharqda birinchi bo'lib fors tilida «Xamsa» yozgan ulug' ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy (1141–1203)ning «Maxzan ul-asror» dostoniga javoban yozilgan. Lekin bu tipdagi dostonlarni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, Navoiyning bu asarining yuzaga kelishida Amir Xusrav Dehlaviy (1254–1305)ning «Matla ul-anvor», Abdurahmon Jomiy (1414–1492)ning «Tuhfat ul-ahror» kabi dostonlarining ham roli katta bo'lgan. Masalan, Navoiy «Xamsa»ning XIII bobida hikoya qilishicha, bevosita Jomiyning «Tuhfat ul-ahror» dostonini o'qib ta'sirlangan va qo'lga qalam olib o'z «Xamsa»sining ushbu dostonini yozishga kirishgan.

«Hayrat ul-abror» dostonining boshlanish qismidagi bir necha boblar uning kirish qismini tashkil etadi. Shularning birinchi bobida Navoiy Islom dinining asosiy kitobi «Qur'on»ning birinchi surasining bosh jumlasini – «Bismillohir rahmonir rahim» («Mehribon va rahimli Alloh nomi bilan boshlayman»)ning poetik sharhini bergan. Bunda ushbu arabiy jumladagi har bir so'zning har bir harfiga katta ma'no berilgan. Navoiy fikricha, Alloh va uning ismi butun koinot va mavjudot bilan chambarchas bog'langandir. Sharq she'riyatida hamda tasavvufda harflarga ma'no berish ba'zan maxsus bir falsafiy yo'nalish darajasiga ko'tarilgan va bu yo'nalish tarafdorlari «hurufiyalar» deb atalgan.

### II

1. O'rta asrlarda Sharqda yozilgan barcha asarlar Xudoning madhi bilan boshlangan. Navoiy ham o'z dostonini shu an'anaga amal qilgan holda Alloh hamdi bilan boshlab, bu masalaga maxsus bob bag'ishlagan. Mazkur bobda shoir hamma narsani yaratgan Xudoning osmon va quyoshdan tortib har bir zarrani, butun o'simliklar va hayvonot olamini, kishilik jamiyatini o'z xohish-irodasi bilan boshqarib, harakatga keltirib, bir-biriga bog'lab, qovushtirib turishini katta shavq-zavq bilan tasvirlagan. Allohning shunday mehribonchiligi uchun olamdagi har bir zarra unga minnatdorchilik bildirib, shukr etib, unga hamdu sano o'qigani o'qigan.

### III

1. Ushbu bob «Avvalg'i munojot», ya'ni birinchi munojot deb atalib, bunda shoir Haqning, ya'ni Xudoning birinchiligi, dunyoda hech narsa bo'lmaganda ham Xudo bor bo'lgani, avval boshda Xudodan boshqa hech narsa bo'lmagani, uning yakkayu yagonaligi, olamda hech narsa, hech kimsa u bilan tenglasha olmasligi, husn va zakovatda yaktoligini, o'z husnini tomosha qilish uchun ko'zgu sifatida bu olamni yaratgani haqida Xudoga murojaat shaklida fikr yuritadi.

Navoiyning yozishicha, Xudo yeru osmonni, undagi barcha narsalarni yaratar ekan, bu boyliklar ichida uning uchun eng qadrlisi, yaqini inson bo'lib, Xudoning butun borliqni yaratishdan bosh maqsadi ham inson edi:

Ganjing aro naqd farovon edi,  
Lek boridin g'araz inson edi.

Shoir bunda insonni yaratilgan narsalar ichidagi eng komili, Alloh taoloning yashirin sirlaridan ogoh bo'luvchi bir ma'rifatli mavjudot tarzida ta'rif va tavsif etgan.

#### IV

1. Ikkinchi munajatda Navoiy garchi dunyoda ko'p go'zal narsalar yaratilgan bo'lsa-da, shu bilan birga olamda kishining tasavvuriga sig'maydigan darajada voqealar yuz berib, masalan, yulduzlar olami turli holatlarga tushsa, buning sirlarini bilmoqchi bo'lganlar bunga erisha olmasalar ham, bundan Xudoga hech bir ziyon va hech bir tashvish yo'q. Chunki ular hammasi Xudoning irodasi bilan va o'zaro bir-biriga muvofiq holda harakat qiladi. Xudo xohlasa osmonda ham, yerda ham katta notinchliklar yuz berishi mumkin. Navoiy ta'kidlashicha, dunyodagi barcha mavjudotlar o'z yaratganiga doim sajda qiladilar, undan o'zlarining mamnunliklarini bildiradilar. Xudoning qahri kelsa «ko'k bir etak kul kibi» sovuq ketishi hech gap emas. Sayyoralar ham uning izmida. Dengizda to'fonlarning yuz berishi, zilzila turib tog'larning osmonga chiqib ketishi – bular hammasi uning buyukligini, mislsiz qudratini tan olishni talab qiladi. Bob oxirida shoir Xudodan u dunyoda o'z lutfiga sazovor etishini iltijo qiladi.

#### V

1. Uchinchi munajatda Navoiy oldingi munajotlardagi fikrlarini yanada rivojlantirib, Alloh taolo qancha qahrli bo'lsa, shuncha mehribon, hamma narsani ajoyib muvofiqlik bilan harakatlantiruvchi ekanini, olovni yaratish bilan birga uning muqobili suvni ham yaratganini, yerni bino qilganda elni ham yaratishni lozim topganini, hamma narsalarni bir-biri bilan bog'lab turganini, shuning natijasida yerda va osmondagi hayot qasri yuzaga kelganini ta'kidlaydi. Xudo olamni go'zal va keng qilib yaratgan bo'lsada, lekin bularning hammasi hisob-kitobli, uning ixtiyoridan tashqari bu olamga bir dona igna ham sig'maydi. U xohlasa hammasini bir damda yo'q qilib yuborishi mumkin. Shuning uchun insonlar o'ylab ish qilishi, gunoh qilishga yo'l qo'ymasligi, qiyomatni unutmashligi, har bir gunoh uchun qiyomat kuni jazo olajagini esda tutishi, Islom dini qoidalariga to'la rioya qilishi, hamma musulmonlarning Xudo oldidagi yoqlovchisi – Muhammad (s.a.v.) payg'ambarga samimiy e'tiqodda bo'lishi talab qilinadi.

#### VI

1. To'rtinchi munajat – oxirgi munajat bo'lib, bunda Alloh taoloning o'z bandalariga benihoya saxovatligi, ularning gunohlarini bir siqim somondek shamolga uchirib yubora olish xususiyati, bir daqiqadagi kechani kunduzga almashtira olishi va hokazolar haqida hikoya qiladi. Bunda, birinchi o'rinda, Navoiy Xudoning dargohi kengligini, odamlarga mehribonligining beqiyosligini ko'zda tutib, uni o'z bandalariga yanada shafqatliroq, uzrlarini hisobga oluvchi, gunohlaridan o'tuvchi bo'lishini iltijo qilishi, uning oldida erkanib, haddi sig'ib labtashnalarga suv berishini, to'nsizlarga to'n, o'z lufu karamidan hech kimni bebahra qoldirmasligini so'rashi, hatto talab qilishi g'oyat samimiy va go'zaldir. O'z fikrlarini xulosa-lab, shoir yana bir bor Xudoga murojaat qilib deydi:

Garchi gunahning hadu poyoni yo'q,  
Aylamasang rahm ham imkoni yo'q.



## VII

1. Adabiy an'anaga ko'ra, Navoiy Xudoning madhi va unga bag'ishlangan to'rt munojotdan so'ng, Islom dinining asoschisi Muhammad (s.a.v.) payg'ambar madhiga o'tadi. Payg'ambar madhi odatda «na't» deb atalib, «Hayrat ul-abror»da beshta na't mavjud. Birinchi na'tda Navoiy Xudoning avval Odamni yaratgani, undan boshqa odamlar tarqalgani, Xudoning elchisi va oxir zamon payg'ambari sifatida Muhammad alayhissalomning vujudga kelgani, u o'zida barcha yaxshi xususiyatlarni zohir etgani, shu asosda «Xudoning do'sti» («Habibulloh») darajasiga ko'tarilgani, uning onadan bamisoli bir o'tob bo'lib tug'ilgani haqida hikoya qiladi.

## VIII

1. Ikkinchi na'tda Navoiy Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning Makkada Quraysh qabilasida tug'ilgani, yoshligidan aqlu hushli bo'lgani, Quraysh qabilasi odamlarining qarama-qarshi e'tiqodlarga ega bo'lgani, Muhammadning otasi juda erta vafot etib, otasiz o'sgani, savdo ishlari bilan shug'ullangani, yana bir necha vaqt cho'ponlik qilgani, bolalikdan shirinso'z bo'lgani, hamma qiyinchiliklarga sabru bardosh bilan chidagani va o'z muxoliflarini yenggani haqida so'zlagan. Ya'ni bunda shoir Muhammad (s.a.v.) payg'ambar bo'lgunga qadar, aniqrog'i, qirq yoshga kirgunga qadar bo'lgan hayoti yuzasidan umumiy ma'lumotlarni bergan va shu davr ichidagi yuksak insoniy-axloqiy qiyofasini chizgan.

## IX

1. Uchunchi na'tda Navoiy Muhammad (s.a.v.) payg'ambarlik darajasiga erishgandan so'ng, garchi u o'qib, yozishni bilmasa-da, butun xalqqa o'z fikr va ta'sirini juda tez o'tkazib, butparastlikni sindirib, uning o'rniga Islom dinini o'rnata boshlagani haqida yozadi.

## X

1. To'rtinchi na'tda Navoiy Muhammad (s.a.v.)ning noyob insoniy xususiyatlarini yoritishga to'xtalgan. Shoirning yozishicha, Muhammad (s.a.v.) nihoyatda chiroyli so'zlashi bilan boshqalardan ajralib turgan («Arzi fasohatda kaloming fasih»). U nutq so'zlaganda hamma diqqat bilan quloq solgan va bu Islom dini qoidalarini mustahkamlashda katta rol o'ynagan. U g'oyat rahmdil odam bo'lib, dushmanlaridan g'orga berkinganda, u yerdagi na o'rgimchaklarga, na biron qushga zarracha ozor yetkazmagan. Shuning uchun uning Islomni mustahkamlash va dunyoga yoyish ishlari yaxshi borgan. Uning atrofiga yaxshi odamlar to'planib, uni faol qo'llab-quvvatlagan. Bu o'rinda Navoiy Muhammad (s.a.v.)ning sahobalaridan: Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon va Ali haqida, ularning Muhammad (s.a.v.)ga, Islomga fidoyiligi, sadoqati borasida ham yozgan.

## XI

1. Beshinchi na'tda Muhammad (s.a.v.)ning Me'roj kechasi Buroq otga minib, osmonga ko'tarilgani, yulduz va sayyoralararo sayr etib, oliy dargohga yetishgani, benihoya sir-sinoatlar ko'rgani va Tangrining jamoliga musharraf bo'lgani, lekin bu mo'jizaviy safar juda qisqa muddatda yuz bergani haqida hikoya qilinadi:

Borg'oniyu kelgani bir on o'lub,  
Aql bu mansubda hayron o'lub.

Bu na't an'anaviy xarakterga ega bo'lib, boshqa xamsanavislarning, jumladan, Navoiy «Xamsa»sining boshqa dostonlarida ham shu mazmunda maxsus boblar bor.

## XII

1. Dostonning bu bobi Navoiydan oldin «Xamsa» yaratgan Nizomiy va Xusrav Dehlaviy madhiga bag'ishlangan.

2. «U so'z san'atkorlarining boshidagi toj, bahosi xazinaga teng o'sha tojning gavharidir». Bu baytdan boshlab Nizomiy madhi beriladi.

Nizomiy – ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Abu Muhammad Ilyos binni Yusufning taxallusi. Nizomiy taxminan 1141–1143-yillarda Ozarbayjonning Ganja shahrida tavallud topib, 1203-yilda vafot etgan. U she'riyatga juda erta mehr qo'yan va tez orada Ganja va Shirvon o'lkasi hukmdorlari nazariga tushgan. Naql etilishicha, Darband hokimlaridan biriga uning bir she'ri g'oyatda ma'qul tushgan. Buning evaziga shoirga minnatdorchilik bildirish ma'nosida, qipchoq kanizagi Ofoq ismli qiz unga hadya etilgan. Keyinchalik bu oqila qiz Nizomiyning suyakli rafiqasi bo'lgan.

Tazkiralarda Nizomiyning yigirma ming baytdan iborat lirik devon tartib berganligi haqidagi ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. Lekin bu devon hanuzgacha topilmagan. Undagi lirik she'rlardan ayrim namunalarigina saqlanib qolgan, xolos.

Nizomiyning dunyoga tanitgan, ulug' adabiy an'ananing boshlovchisi darajasiga ko'targan asari – uning «Panj ganj» deb atalgan «Xamsa»sidir. U ushbu «Xamsa»ning birinchi dostoni «Mahzan ul-asror» («Sirlar xazinasi»)ni 1173–1180-yillarda yozib tugallagan. Doston turli axloqiy va falsafiy mavzulardagi yigirma maqolot va ularga bog'liq holda talqin etilgan manzum hikoyalarni o'z ichiga olgan. Bu asar shoirdan keyingi hamkasblariga, jumladan, Alisher Navoiyga ham o'rnak timsoli – mahorat maktabi bo'lib xizmat qilgan.

3. «Uning fikr tarozusi «Xamsa»ni, «Xamsa» emas, balki «besh xazina»ni o'lcharkan, unga osmon tarozu pallasi, Er kurrasi esa botmon tosh bo'ldi».

4. «U behisob so'z durlarini tartibga solgani uchun taqdir unga «Nizomiy» taxallusini munosib ko'rdi».

5. Duo: «Alloh uning sirrini muqaddas bo'lsin!»

6. «Besh harf yoziladigan va chiqariladigan son hisobi bilan hisoblasang: «bir ming bir»ning ismini bildiradi». Arabcha yozuvda Nizomiy besh harfdan iborat: (nun) – 50, (izg'i) – 900, (alif) – 1, (mim) – 40, (yoy) – 10 ni bildiradi, jami – 1001.

7. Bu va keyingi besh bayt mazmuni: «Undan keyin hind chavandozi ham hindiy xanjari bilan (so'zni) saralab, xanjarining chaqmog'idan uchqunlar sachratib, mingan oti ham o'lday tez harakat qilib, qayoqqa o'zini o'tdek tez va qattiq urmasin, hamma yerda g'avg'o ko'tardi. Qaysi mamlakatda qanday (so'z) obodonligi bo'lsa, imkoni boricha ularni o'z qo'liga kiritdi. Uni shunchaki hind chavandozi atab bo'lmaydi, uni hind royi deb atash kerak. Uning qalami uchi hind mamlakatining ko'rkidir. She'riyatidagi har bir doston Hindistonning bir viloyati – kishvariga tengdir». Madh va ta'rif liboslariga o'ralgan ushbu fikrlar fors adabiyotining mumtoz vakili Amir Xusrav Dehlaviy haqida. Xusrav Dehlaviy 1258-yilda Dehlida tug'ilgan. Uning asl nasabi Shahrisabz turklaridan. Uning otasi, Lochin qabilasining boshlig'i – Amir Mahmud Chingizxon hujumidan keyin Movarounnahrda Hindistonga ko'chib o'tgan.

Xusravning ijodiy merosi ko'p qirrali. U benazir lirik, mohir epik, tarixnavis yozuvchi, badiashunos olim, o'z zamonasining musiqashunosi.

Xusrav Dehlaviy to'rtta she'riy devon tuzgan. Bu haqda Navoiy «Xazoyin ul-maoniyy» devonining debochasida Sulton Husayn Boyqaro tilidan fikr bildirib o'tgan. Navoiyning g'azalchilik sohasida olamshumul yutuqlarni qo'lga kiritishida Xusrav Dehlaviy tajribalarining ilhomboxsh ta'siri kuchli bo'lgan. Navoiy qit'alaridan birida yozadi:

G'azalda uch kishi tavidur ul nav',  
Kim andin yaxshi yo'q nazm ehtimoli...

Bular kimlar? «Biri mu'jiz bayonliq sohiri hind», deydi Navoiy. «Sohiri hind» – Xusrav Dehlaviy. Navoiyning e'tirof etishicha, uning «so'zu holi» ishq ahlini o'rtantiradigan darajada. Keyingi ikki kishi esa, «Iso nafasliq rindi Sheroz» – Hofiz Sheroziy va «qudsi asarlik orifi Jom» – Abdurahmon Jomiydir. Mana, o'sha qit'adan chiqarilgan fikriy xulosa:

Navoiy nazmig'a boqsang, emastur  
Bu uchning holidin har bayti xoli.

Hamono ko'zgudurkim, aks solmish  
Ango uch sho'x mahvashning jamoli.

Demak, Navoiy fors-tojik adabiyotining ikki vakili – Hofiz va Jomiy singari, «Ishq va dard ahlining rahbar va peshravi» («Muhokamat ul-lug'atayn») Xusrav Dehlaviyini ham o'zining g'azalnavislikdagi ustozlari deb bilgan, shoir lirikasining ta'sirini ochiq e'tirof etgan. Navoiyning «Devoni Foniyy»sidagi qirqaqa yaqin g'azali Xusrav Dehlaviyga tatabbu' qilib yozilgan.

Xusrav Dehlaviy fors adabiyotida Nizomiyga ergashib «Xamsa» yaratgan ikkinchi san'atkor. U o'z «Xamsa»sining ilk dostoni «Matla' ul-anvor» («Nurlarning tarqalish manbai»)ni ikki hafta mobaynida yozib tugatgan (Muhammad Osimiy, Abdulg'ani Mirzoyev, «Amir Xusrav Dehlaviy». Dushanbe, 1979. 44-b.). «Matla' ul-anvor» siyosiy pafos jihatidan Nizomiy dostoni darajasidan pastroq, lekin shunga qaramasdan, u o'ziga xos ko'rkam asar. Shuning uchun ham Navoiy masalaning bu jihatlariga alohida e'tibor qaratgan va Xusrav asarini munosib baholagan. «Ganja podshosi (Nizomiy) boyliklarni sochtuvchi, u esa ergashuvchidir, so'z iqlimida u podshoh bo'lsa, o'z nomi bilan bu ham Xusrav (podshohdir). Xusrav bo'lib mamlakatni obod qildi. Uni Xusrav emas, Farhod deb atasa ham bo'ladi», deydi Navoiy mazkur bobda.

### XIII

1. «Yuksaklikning uzun soyasi, shodlik jomining sof sipqoruvchisi Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy vasfikim, vasfga sig'mas, ta'rifikim, ta'rifga to'g'ri kelmas va ul hazrat iltifoti quyoshi qaro kunga qolgan men ojizning ahvoliga nur sochganining bayoni, ul quyosh tarbiyasidan bu tufroqda oq gullar, oq gullargina emas, rang-barang rayhonlar nishon bergani va «Tuhfat ul-ahror» (Jomiyning «Maxzan ul-asror» va «Matla' ul-anvor»ga javoban yozgan falsafiy-didaktik dostoni, ya'ni «Asllar tuhfasi») mutolaasidan g'amgin ko'ngulning xursandchilik topgani va «Hayrat ul-abror»ning la'l va javharlarini nazm ipiga tizmoqning sababi».

«U bugungi kunda tariqatning qutbi, haqiqat sirlarining kashf etuvchisidir. Uning ko'ksi haqiqat durlarining xazinasi, ko'ngli esa ma'no yuzlariga oina».

Jomiy – Nizomiy. Hofiz, Sa'diy singari daholardan keyin fors-tojik adabiyotining shuhratini olamga yoygan san'atkor. U 1414-yilda Xurosonning Jom viloyatida tug'ilib, 1493-yilda Hirotda vafot etgan. U «Fotihat ush-shabob», «Vositat ul-iqd», «Xotimat ul-hayot» deb atalgan va inson umrining uch fasliga ishorat qiluvchi uch she'riy devonning muallifi. Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida: «Har sinf nazmda benazir erdilar va nechaki ta'riflari she'rda mahoraldin tashqaridur, va lekin har uslub she'rda jahongir erdilar. Va nazmlarida har she'r bila ishq o'tin olamga uribturlar. She'rlarida har bayt bila dard ahli jonu ko'ngul olamin kuydurubdurlar», deb yozadi Jomiy to'g'risida. «Xamsa»sining barcha dostonlari, «Majolis un-nafois» tazkisasi va boshqa o'rinlarda ham Navoiy ustoz va uning serqirra ijodiyoti xususida qimmatli mulohazalarni bayon etgan. Navoiy «Xamsat ul-mutahayyirin» asarini to'lig'icha Jomiyga bag'ishlagan.

Jomiyning Nizomiy va Xusravlarga tatabbu' qilib yaratgan asari «Haft avrang» deb atalgan. Unda «Tuhfat ul-ahror», «Sabhat ul-abror», «Salomon va Absol», «Silsilat uz-zahab», «Yusuf va Zulayxo», «Layli va Majnun», «Xiradnomayi Iskandar» nomli yettita doston bor. «Tuhfat ul-ahror» shulardan birinchisi.

#### XIV

1. To'rt sadaf bu yerda to'rt unsur – suv, havo, o't, tufroq nazarda tutilgan. Durj – qimmatbaho toshlar solinadigan quticha. Ikkinchi satrdagi «Yetti falak axtarining burji» – yetti qavat ko'kdagi yetti sayyora cho'qqisi.

2. Arabcha «k» va «n» harfi bir-biriga qo'shilsa, «kun» bo'lib, «bo'l», «paydo bo'l!» degan ma'nolarni bildiradi.

3. «So'z jon bo'lib, ruh aning qolipidir. Kimning tanida ruhi bor bo'lsa, u so'zga ehtiyoj sezadi».

4. «Tilni po'lat xanjar deyilsa, uning qadalgan injulari so'zdir».

5. *Bu chaman* – insoniyat va hayot chamani.

6. *Masih* – Iso alayhissalom. Iso o'z nafasi bilan o'lganlarni tiriltirish, ularga jon ato etish mo'jizasiga ega bo'lgan. «Yaxshi so'z bilan o'lganni tiriltira olgani uchun Iso payg'ambar o'zini «Jonbaxsh» laqabi bilan atagan», deydi shoir.

7. *Xalil* – Ibrohim alayhissalom. Namrud Xalilni o'tda yoqib o'ldirmoqchi bo'lgan, lekin u o'z pokligi tufayli va e'tiqodi omon qolgan.

8. *Jabroil* – Islom dinida to'rt farishtadan biri. U Xudo bilan payg'ambar o'rtasida elchilik qiladi. Ushbu satrdagi ma'noda ham shunga ishorat bor: «Jabroil ham so'z yukiga hammol bo'lgan».

9. «Agar bir go'zal har qancha chiroyli va oy yuzli bo'lsa-da, lekin gapirma, devordagi suratdan farq qilmaydi».

10. Usto Sadriddin Ayniy ushbu misralar izohi munosabati bilan yozadi: «Har qanday yaxshi sozanda qancha cholsa-yu, (ashula aytmadan) uzoq cholsa, undan aql ahllariga malol yetadi. Agar sozanda mashq orasida Navoiyning olov sochuvchi g'azallaridan birontasini o'qisa, u vaqt bazmda shovqin-suron qo'zg'aladi, eshituvchilar o'z yoqalarini yirtadilar, ohu voy bilan o'zlarini yo'qotib qo'yadilar». Vosifiyning hikoyasiga ko'ra, Navoiy zamonida uning:

Din ofati ul mug'bachai mahliqodur mayxorau bebok

Kim ishqidin oning vatanim dayri fanodur sarmastu yaqom chok, –

deb boshlanadigan mustazodiga Xoja Abdullo Marvorid nomli bastakor bir kuy bastalagan. «U vaqtlarda Hirotda bu savt o'qilmaydigan uy yo'q edi», deydi Vosifiy. Vosifiyning gapiga ko'ra, bir bazmda shu «Sarmastu yaqom chok» savti ijro etilayotganda butun majlis ahli o'z yoqalarini yirtganlarki, bu holni bir tasodif bilan Navoiyning o'zi ham ko'rgan. Navoiy bu yerdagi misralar bilan o'sha savt va o'sha holatga ishorat qiladi (Alisher Navoiy. Xamsa. Qisqartib nashrga tayyorlovchi S. Ayniy. T.: «O'zdamnashi». 1947. 19-bet).

11. Oddiy so'zlashuvda yolg'ondin e'tiborsiz — nopisand narsa yo'q. Lekin nazmdagi yolg'on hatto donolarga ham ma'qul, ya'ni nazmda mubolag'aga yo'l qo'yiladi, deyilmoqda. Bu bayt Alisher Navoiyning adabiyotda badiiy to'qima, mubolag'a, fantaziyaning roli to'g'risidagi estetik qarashini aks ettiradi. Navoiy ushbu masala to'g'risida yoshlik yillaridan boshlab o'ylay boshlagan. Masalan, «Hayrat ul-abror»dagi mazkur fikr uning ustozii Sayyid Hasan Ardasheriga yozgan masnaviysida:

So'z ichraki yolg'on erur nopisand,  
Chu nazm ettilar — qildi dono pisand

shaklida ifoda etilgan. E'tiborli tomoni shundaki, Navoiy qariyb butun umri davomida she'riyatda mubolag'aning qimmatini yuzasidan bildirgan estetik qarashiga sodiq qolgan. «Mahbub ul-qulub»da o'qiymiz: «...Yolg'on so'z juz nazmda nopisand va aning qoyili noxiradmand.

Bayt:

So'z ichraki yolg'on erur nopisand,  
Chu nazm ettilar qildi dono pisand».

Ko'ryapsizki, bu bayt she'riy maktubda qanday bo'lsa, «Mahbub ul-qulub»da ham ayni o'sha tarzda takrorlangan.

12. «Tish injulari og'izda terilib tursa, nazmday ko'rkam bo'ladi, og'izdan tushib nasrday sochilsa, qimmatini ketadi». O'z davri an'anasiga ko'ra bu yerda Navoiy nasrga nisbatan nazmga yuqori baho beradi.

13. Bu bayt tashbih san'ati asosida qurilgan. Unda shoir bog'dagi gul va daraxtlarni nazmga, tog'dagilarni (ular o'tin hisobida qaraladi) nasrga o'xshatadi.

14. Bu va bundan keyingi to'rt baytda nazmning nasrdan afzalliklari shatranj — shaxmat o'yini misolida asoslangan: «Shaxmat taxtasiga donalarni to'kkan odam uning yog'och donalarini qancha maqtamasin, biron — ikki tomonga u donalarni ikki qatordan qilib tersagina chiroyli ko'rinadi. Shaxmatning ikki tomonidagi ikki qator xuddi ikki misra she'rga, to'rt qator esa she'rning ikki matlaiga o'xshab ketadi. Bunday har dona ajoyib muammo bo'lib, ularning orasida otlar ham paydo bo'ladi. Odam qancha to'g'ri fikr qilmasin, bunda ozgina parishonlikka yo'l qo'ysa, otning yurishi tufayli mot bo'lib qolishi mumkin».

15. Bu ikki satrda gulning o'z shoxida ochilib turishi nazmga, xazon bo'lib sochilishi nasrga o'xshatilgan.

16. Bu baytda «nazm mo'jiza yo'sunlik bo'lmaganda, Xudo kalomida ham nazm bo'lmagan bo'lar edi», deb Qur'oni karimda ham nazm borligi aytiladi. Navoiy nazm va nasrga bo'lgan munosabatini «Xamsa»ning keyingi dostonlarida ham davom ettiradi. Ular oxir-oqibatda yaxlit bir ijodiy konsepsiya sifatida ko'zga tashlanadi. Lekin shuni ham ta'kidlash kerakki, Navoiyning bu masalaga doir qarashlari «Xamsa»ning boshqa dostonlarida u yoki bu tarzda

«Hayrat ul-abror»dagi fikrlardan o'sib chiqqan yoki bevosita ularning uzviy davomidir. Masalan, «Sab'ai sayyor»dagi mana bu so'zlarga diqqat qiling:

Har kishi qilmoq istasa ma'lum  
Biri mansur erur, biri manzum.

Nasru nazmi angaki mudrakdur,  
Nazmning poyasi buyukrakdur...

Xud javohir nechaki dilkashroq,  
Nazm silkiga cheksalar xushroq.

17. Shakl va mazmun birligi – badiiy ijoddagi eng muhim masaladir. Navoiyning ushbu muammoga munosabati mazkur baytlarda nihoyatda ko'rkam uslubda badiiy talqinini topgan. Ulug' shoir shaklning ahamiyatini kamsitmagan holda badiiy asarda g'oyaning birlamchi qimmatiga alohida e'tibor beradi.

#### XV

1. «Kim ma'no durining sadafidan o'ziga jom qilgan bo'lsa, so'z mayini o'sha kishi to'ia simiradi».

2. *Roh* – may ma'nosida. Misboh – chiroq. «So'z shu qadar ajoyib va safoli sharobki, ko'ngulning eng qorong'i kunlarini chiroq bo'lib yoritadi».

3. «Men so'z mayidan mast bo'lib, o'tkinchi dunyo kishilari safiga qo'shilganman».

4. *Jomi hidoyat* – hidoyat (tavfiq) jomi. Hidoyat – Allohning lutfi bilan haq yo'lda bo'lish, to'g'ri yo'ldan yurishdir. Shoir demoqchiki, garchi menga hidoyat jomi yetgan bo'lsa-da, ko'p vaqt so'zda sukut saqladim.

5. «Turkiy ohangga qo'limni o'ynatib, «hay tulugum, hay tulum» deb kuylasam». Shoir buning bilan o'z ona tilida asarlar yaratishga kuchli ishtiyoqi bo'lganligini ta'kidlagan.

6. *Tuyuq* – turkiy she'riyatning qadimiy janrlaridan. Bu haqda Navoiyning o'zi «Mezon ul-avzon» risolasida yozadi: «Birisi «tuyug»dirkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'oy va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur...». Tuyuq poetikasining asosiy shartlaridan biri uning ramali musaddasi maqsur (foilotun foilotun foilon) vaznida yozilishidir. Navoiy mazkur baytda shoirlik da'vosida yurgan, ammo she'riyatning qat'iy belgilangan qonun-qoidalariga rioya qila olmaydigan qofiyabozlarni tanqid qilmoqda.

7. «Binoyi rafi»dan maqsad – «Xamsa». Shoir yaratilajak «Xamsa»sining mohiyatini badiiy sharhlamoqda.

#### XVI

1. *Kahkashon* – osmonda uzunasiga ko'rinadigan oq yo'l, somon yo'li.

2. *Rustam* – O'rta Sharq xalqlari og'zaki va yozma adabiyotidagi an'anaviy obraz. Rustam obrazi fors afsonalari va Firdavsiyning «Shohnoma»sida Eron himoyachisi sifatida naql etilsa, turkiy xalqlar eposi va afsonalarida Afrosiyobning bobosi – Turning avlod-ajdodidan deb ta'riflanadi. U Turonni chet el bosqinchilaridan himoya qilgan.

Navoiy Sulton Husayn Boyqaroning Rustamga o'xshab qudratli, jasur, yengilmas bo'lishini orzu qilayotir.

3. *Jamshed* — 1. Ulug' podshoh. 2. Eronning qadimgi podshohlaridan. Navoiy «Tarixi muluku Ajam» asarida Jamshid haqida shunday ma'lumotlarni yozgan: «Ba'zi ani Tahmurasning qardoshi debturlar va ba'zi qardoshining o'g'li. Chun saltanatqa o'lturdi, jahon mulkin adal va dod bila tuzdi. Va husnu jamolida dilpazir va fazlu kamolida benazir erdi. G'arib ixtirolar qildi... Va saltanatining zamoni yetti yuz yilg'acha bo'ldi...»

She'r:

Chu Jamshid taxi uzra tutti maqom  
Dimog'ig'a yo'l topti savdoyi xom...»

Bu yerda «Chu Jamshed taxi uzra tutti maqom» misrasi garchi boshqa maqsadni ifodalasada, «Hayrat ul-abror»dagi «Taxt uza Jamsheddek etsa maqom» satrining qariyb varianti shaklida takrorlanganini ham aytish kerak.

Jamshedning eng mashhur kashfiyotlaridan biri — uning sehrli jomi. Bu jomda go'yo butun olam, zamon va kelajak hodisotlari aks etar emish. Ammo Jamshed borib-borib kekkayib, mag'rurlanib, Navoiy so'zlari bilan aytganda: «olamni o'z ibodatig'a amr qilib, o'z surati bila butlar yasab, aqolim va kishvarlarga yiborib», uni Xudo hisoblashlarini buyuradi. Xalq va a'yonlar undan yuz o'girib, arab shahzodasi Zahhokni taxtga o'tqazadilar. U Jamshedni bandi qilib, «arra bila iki bo'lub, jismin pora-pora» qilib tashlatadi.

Navoiy «Taxt uza Jamsheddek etsa maqom» deganda, Husayn Boyqaroning mag'rurlanmasdan «adl va dod bila» ish yuritishini nazarda tutgan.

4. *Bog'i Eram* — go'zal, xushhavo bog'ning nomi. Uni xudolik da'vo qilgan Shaddod degan podshoh bino etgan. Haqiqiy hayot, go'zal, xushmanzara bog' ramzi sifatida bu nom Sharq adabiyotida juda ko'p tilga olinadi.

## XVII

1. Bu misralarda inson gulistonga va uning a'zolari turli gullarga o'xshatilib, Yaratuvchini dehqon atab, azal tongida yaratish (sun') dehqoni odam tanasini gulistonday yasaganda, bu gulistonga va undagi turli-tuman gullarga mayin yel esib, bu gullar ochilgani, tan gulshaniga ruh kirgani, undan g'araz hech gul bo'lmay, maqsad yolg'iz ko'ngul ekani go'zal tashbihlar orqali ta'kidlangan.

2. Bu va so'nggi uch baytda takror san'atidan foydalanilgan. Shoir satrlar boshida «goh» so'zini ketma-ket qaytarish bilan fikrni ta'kidli ohanglarda tarmoqlantirgan.

3. *Farhod* — Sharq xalqlari og'zaki ijodiyoti va yozma adabiyotida keng o'rin ishg'ol etgan obraz. Badiiy adabiyotda Farhod dastlab fors-tojik shoiri Og'ochiy (X-XI asrlar) she'rlarida tilga olingan. Bal'amiyning «Tarixi Tabariy», Abu Dulafning «Risolai soniya» asarlarida u Shirin bilan bog'liq qahramon sifatida naql etilgan.

Farhod obrazi Sharq adabiyotida birinchi bo'lib Nizomiy Ganjaviyning «Xusrav va Shirin» dostonida tasvirlangan. Lekin u dostonida bosh qahramon darajasiga olib chiqilmagan. Orif Ardabiliyning (XIV asr) «Farhodnoma» dostonidan boshlab Farhod markaziy qahramon holda ko'rsatilgan. Navoiy «Farhod va Shirin» dostonida birinchi bo'lib Farhodning mukammal epik xarakterini yaratdi. Navoiy Husayn Boyqaroni «dardu balo tog'ida» Farhodga o'xshab jasorat namunalari ko'rsatishini orzu qilgan.

4. *Majnun* — 1. Jinni, devona. 2. Sharqdagi eng mashhur qahramonlardan. Qadimiy arab manbalarining shahodat berishicha, Majnun tarixiy shaxs bo'lib, Arabistondagi Bani Omir qabilasiga mansub bo'lgan. Majnunning oshiqlik qismati haqida Sharqda juda ko'plab rivoyatlar to'qilgan. U Nizomiy, Dehlaviy, Navoiy kabi ulug' san'atkorlarning ijodida fojiviy qahramon sifatida o'rin egallagan.

## XVIII

1. *Shams* — quyosh; zuho — choshgoh vaqti. «Vash-shamsi» bilan «Vaz-zuho» «Qur'on» oyatining dastlabki so'zlari bo'lib, bu yerda quyosh chiqishi, kun yayilishi tasvir etilgan.

2. «Shu payt tong so'fisi ham paydo bo'lib, osmon bo'ylab o'z nurli joynamozini yoydi».

3. «Nilufariy osmon tepadan shabnamlar yog'dira boshlaganda, sahar bog'ida sarig' lola ochila boshladi (ya'ni quyosh chiqqa boshladi)».

4. «Obnus (qora daraxt)dan yasalgan panjara oqqa aylanib, sarig' manqaldondan o't sochila boshladi (ya'ni tong yorib, quyosh nuri tarala boshladi)».

5. «Inson» so'zi o'rnida shoir «xoja» so'zini ishlatgan: «xoja», «ega», «xo'jayin» degan ma'nolarni bildirib, shoir bunda ko'ngul egasi — insonni tushunadi.

6. *Ajuba* — ajoyib narsalar.

7. «Fikr qilib, qancha ko'p o'ylasa, bu orzuga erishish shuncha qiyinlashar edi. Qancha ko'p toat-ibodat qilsa ham bu pardadagi sirlar ochilmadi».

8. *Bu bayt qofiyasida tajnis san'ati qo'llanilgan.*

9. *Xo'd* — ikki chakka va iyakni yopib turadigan temir qalpoq.

10. *Xatxol* — oyoqqa taqiladigan halqa.

11. Bunda Navoiy sariq kasalini suvdagi baliqqa tikilish bilan tuzatish hodisasiga ishorat qilmoqda.

12. *Nomiya* — o'simliklarning avj olish xususiyati.

13. «Lola olifta qimorbozday hayajonlandi, tosidagi ikki tomchi shudring uning qimor o'yinidagi oshig'i bo'ldi».

14. «Ma'yuslik, umidsizlik uning aql ishlarini jinnilikka olib bordi, vasvasalar hushini oldi».

15. *Bir dehqon* — Xudo ko'zda tutiladi.

16. «Haqiqat sirridin bahramand bo'lib, sen, yaxshisi, hammasiga ko'ngul ko'zi bilan boql»

17. «Shamol ham, suv ham o'zicha kuy kuylarkan, Yaratgan ularning har biriga o'ziga xos bir sirni ato etgan».

## XIX

1. «Humoyun qanotli ul qush (ko'ngul)ning narsalar olami gulistonidan farishtalar olami shabistoniga parvoz qilib, u keng manzilning sham va mash'allarining so'zlovchi tili bilan asl yaratuvchi yodiga mashg'ul ekanini bilib, hayratdan bu olamdan boshqa bir olamga borgan va bu hayrat yana uni behush qilgani».

2. Bu baytda quyosh botib, qorong'i tusha boshlashi to'g'risida gap bormoqda. «Xo'tan go'zali» — Quyosh. Xo'tan — Sharqiy Turkistondagi shahar nomi. Bu o'rinda ushbu so'z quyosh chiqadigan Sharq ramzi ma'nosida qo'llanilgan.

3. *Abhar shamim* — nargis hidli. Ya'ni: «Nargis hidli varaqlarni shamol yopdi».

4. «Karak (bulduruq qush) egnini qisib, parda yopinganday o'ltirib oldi, parda qanotlarini ochib, ko'rshapalaklar ucha boshladi».

5. Osmonga qarab yo'l olgan boyqush doira shakldagi oyni o'ziga childirma qilib oldi.



6. «Ko'k o'lanlar atrofida rang-barang atirgullar yulduzlardan tashkil topgan lojuvard doiraga o'xshaydi».

7. «Bu kecha unga (ko'ngulga) yuz qiyinchiliklar yuz berdi; bu mashaqqatlarning biri ikkinchisidan ajablanarli edi». Oldingi baytlardagi bulduruq, ko'rishapalak, hoyqush — bular xayoliy obrazlar. Bu obrazlar orqali shoir «humoyun qanotli ul qush» — ko'ngulning «farishtalar olami shabistoni»dagi hodisotlardan ta'sirlanishini go'yo voqelashtirib ko'rsatadi.

8. «Ul muqaddas qush (ko'ngul) navo istab, yana balandga havolandi». Endi bu — farishtalar olamidani boshqa, uni behush qiladigan yanada yuksak olam.

9. «Uning tuproqidan iborat vujudi yerda qolgan edi. O'zi falak yulduzi bo'lib, samoga ko'tarildi».

10. «Ruh qanotli qushga aylanib, tun qorong'isida sayr qilardi».

11. «Ushbu jannat bog'ining qushi birinchi chamanni sayr eta boshladi». «Birinchi chamann» — oy. Qadimgi Sharq astronomiyasining fikricha, oy birinchi ko'kda joylashgan. Navoiy keyingi misralarni tundagi oy tasviriga bag'ishlaydi. Oy avval oliy javhar halqaga o'xshatiladi. Shoir dostonning oldingi qismlarida sevib qo'llagan badiiy usuli — ruju'ga murojaat qilib, fikrini yana o'zgartiradi: «Halqa dema, balki mudavvar lagan...» — Aylana laganning sham'i esa majlislarning mash'alidir...

12. «U (ko'ngul) yana bir (osmon) bog'iga kirib, joy oldi. Unda kumush badanli bir mahbuba turardi». Mumtoz poetikada tashxis degan san'at bor. Bu san'at shoirga borliqdagi jonsiz narsalarni jonlantirib, insoniy sifatlarda shaxslantirib tasvirlash imkonini beradi. Bunda Navoiy xuddi shu usulni qo'llagan. Chunki shoir nazarda tutgan «buti siminbadan» qandaydir «qoshi fusungar, ko'zi tanno» bir malak emas, balki ikkinchi osmonda joylashgan Atorud (Merkuriy) sayyorasidir. Navoiy keyingi «nodirai nuktasanj» — Zuhra (Venera), Mirrix (Mars) Mushtariy (Yupiter), Zuhal (Saturn) sayyoralari xususida ham tashxis usulida ham mulohaza yuritgan. Dostonning bu va bunga o'xshash joylarida tasavurning roli nihoyatda katta.

13. *Tahmtan* — qudratli pahlavon Firdavsiy «Shohnoma»sidagi qahramon Rustami Zolning laqabi. «Qo'lga nayza ushlagan pahlavon» — Mirrix (Mars) Tahamtanga o'xshatilgan.

14. «Yetti osmon unga borib tutashgan. «Ko'p burjlar» («Qur'on»dagi) haqidagi gap ham shu osmonga tegishli».

15. «Shundan keyin u (ko'ngul) eng yuqori osmonga (so'nggi to'qqizinchi osmon nazarda tutilayotir) bayroq tikdi, uning eng yuqoridagi poyasiga qadam qo'ydi».

16. «Bu yerda naq bir butxonaga ko'zi tushdi. Undagi har butning ko'rinishi durdonaga o'xshardi». «But» — budda so'zidan. Baytdagi fikr budda haykallari haqida. Butparastlik jahonga keng tarqalgan dinlardan biri. «Rivoyat qilinishicha, bu dinning asoschisi Budda insoniyatni azob-uqubatlardan qutqarish uchun yaralgan. Uning asl ismi Siddhartha Gautma bo'lib, miloddan avval 623—544 yillarda qadimgi Hindistonda yashagan.

## XX

1. «Quyosh Sharqqa o'z bayrog'ini tikib, jahon mamlakatlarini birlashtirdi».

2. Ko'ngul bu dunyo sahnidan zavqlanib turganda, uning oldida ajoyib bir shahar paydo bo'ldi». «Ajoyib bir shahar» — bu o'rinda inson va uning gavda tuzilishi ko'zda tutilgan. Ushbu satrlardan boshlab inson organizmining tuzilishi, unga xos xususiyatlar, organizmdagi a'zolar to'g'risida gap boradi.

3. «Uning gavda tuzilishiga tartib berayotganda, uni to'rt javohirni bir-biriga qo'shib yaratgan». «To'rt javohir» — o'l, suv, havo, yer.

4. «Bundagi ikki javohir (o't, havo) eng yuqori sifatli, qolgan ikkisi (suv, yer) esa quyi sifatli edi».

5. «Unda yongan o'tning Muso o'ti yanglig' yorug'i bor». Muso — Muso alayhissalom. Qur'onda nomi zikr qilingan mashhur payg'ambar. Yahudiydikka e'tiqod qiluvchilar uni iudaizm dinining asoschisi hisoblaydilar. Yuqoridagi «Muso o'ti» iborasini Navoiy «Tarixi anbiyo va hukamo» asarida naql qilgan. Unda yozilishicha, Shu'ayb alayhissalom Musoni uyiga chaqirib «hasab va nasabini» ma'lum qilib, sakkiz yil qo'ylariga qarash sharti bilan Safura ismli qizini unga berishga qaror qiladi. Belgilangan muddat o'tgach, u Musoni uylantirib, «molidin biror nima berib», uni Misrga jo'natadi. Muso besh kun yurib Tursuno tog'iga yetishadi. Oltinchi kun havo sovuq bo'lib, hammayoqni bulut qorong'iligi qoplaydi. Ittifoqo, Safurada tug'ish to'lg'og'i boshlanadi. O'tga ehtiyoj paydo bo'ladi. Muso olov keltirish uchun tog' tomon yo'l oladi. Yurub-yurub bir daraxtda yorug'lik ko'radi. O'sha daraxtga chiqadi. «Va ul yorug'lik qoshida quyosh tiyra ko'rinadi». O't negadir daraxt shoxlarini kuydirmaydi. Muso bundan qattiq hayratlanadi. Shunda «Inniy Analloh», ya'ni Men — Allohman, degan nido kelib, uning boshiga «risolat toji» qo'yiladi. Navoiy esa talmih san'atiga asoslanib, maqsad yuzasida yana shu hodisani eslatmoqda.

6. «Bu qasrning tuzilishi har qanday nozik aqlni ham hayron qoldiradi; uning loyihasidan Chin naqqoshlarini lol bo'lmishlari tabiiy». Gap insonning boshi haqida bormoqda.

7. «Bu qasrga ajoyib bir eshik ochib qo'yilgan; undan duru gavhar sochiladi». Shoir mazkur baytda og'iz va undan chiqadigan tovush (so'z) ta'rifini bergan.

8. Mana bu gaplar lah va tishga doir: «Bu eshikning ikki tabaqasi ham la'ldan, uning har bir tishi toza durdan. Palosi yoqut bilan to'qilgan, durlar yoqutning orasida qolib ketgan».

9. Shoir qizilo'ngach, axlat yo'llari haqida gapirib, bunda burun teshiklarini eslatadi.

10. «Bu shaboda shoh saroyigacha o'tib boradi, uning bazmiga yuz shodlik yetkazadi». «Shoh»dan muddao — aql, ong.

11. «Qasrda beshta sahn tayyorlangan bo'lib, u yerdan hamma yoqni tomosha qilish mumkin».

Navoiy ana shu baytdan boshlab insonning besh sezgi a'zosiga doir mulohazalarini talqin etadi. U besh sezgi a'zosini «Bosirau somiau lomisa, zoyiqau shomia bila xomisa», deb sanaydi. 1. Bosira — ko'z, ko'rish sezgisi; 2. Somia — quloq, eshitish a'zosi; 3. Lomisa — sezish a'zosi; 4. Shomia — hidlash a'zosi; 5. Zoyiqa — ta'm bilish a'zosi.

12. «U o'zligidan har bir mo'yigacha xabardor bo'lib, o'zini bilgan Xudoni ham biladi» degan gap foyda berdi».

## XXI

1. Xoja Bahouddin Naqshband — naqshbandiylik tariqatining asoschisi. Buxoroda tug'ilgan. Naqshbandiylik sunnat va xuf zikrga asoslangani hamda uning shiori: «Dast ba koru, dil ba yor», ya'ni «Qo'ling ishda, qalbing Allohda bo'lsin». Mana shuning uchun ham Alipsher Navoiy Naqshband g'oyalariga katta baho berib, o'zini naqshbandiylik sulukiga mansub bilgan va unga «Nasoim ul-muhabbat» asarida keng o'rin ajratgan. «Hayrat ul-abror»dagi mazkur bob ham to'lig'icha Naqshband madhiga bag'ishlangan. Navoiy Naqshband ta'limotining sodiq tarafdorigina emas, ma'lum bir o'rinlarda targ'ibotchisi hamdir. Uning lirik merosida bo'lganidek, «Xamsa» dostonlarida ham Xoja Bahouddin aqidalariga hamohang fikrlar tez-tez ko'zga tashlanadi. Masalan, «Saddi Iskandariy» dostonidagi

Musofir bo'l, ammo vatan ichra bo'l,

Tila xilvatu anjuman ichra bo'l.

degani naqshbandiylik tariqatining ayni ikki muhim shartining she'riy sharhidir.

2. Mazkur ikki baytda Bahouddin ulug' martabali naqqoshga, uning diniy ta'limoti muhtasham va dilkash naqshga o'xshatilayotir. Bu bobda bosh so'z — «naqsh» so'zi. Navoiy bu so'zni izchil harakatga soladi va ma'no jilolaridan g'oyatda unumli foydalanadi.

3. Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»da yozadi: «Yana alardin (Naqshband nazarda tutilayotir) so'radilarki, sizning tariqingizda zikri jahr va xilvat ne samo' bo'lur? Dedilarki: bo'lmas. Yana so'rdilarki, sizning tariqingiz binosi ne ishgadur? Dedilarki: anjumanda xilvat, zohir yuzidin xalq bila va hotin tarafidin Haq Subhanohu va Taolo bila...» Mazkur bayt mazmuni ham asos e'tibori bilan Naqshbandning yuqoridagi javob so'zlariga borib bog'lanadi.

## XXVI

1. «Sultonlar haqida: eng yuksak va maqtovlarga sazovor Tangri ularning hukmdorlik boshiga podshohlik dubulg'asini shuning uchun kiydirdiki, ularning adollatlari ko'zining chashmasidagi zilol suv mamlakat bog'ini qondirsin, toki bu bog'da tinchlik va farog'at gullari ochilsin, chunki ular zulm bog'ida may ichib, gul sochganlarida esa, u maydan har lahza o'zgacha gullarni qulf urdirib ochdiradilar».

2. Bu va keyingi to'rt baytning mazmuni: «Boshing tufayli tojing martabasi yuqorilashdi, taxt esa sening oyoqingdan azizu mukarram bo'ldi. Pulga noming chekilgani uchun u hurmat topdi. Sening obro'yingni bildiruvchi tangalar osmon yulduzlaricha ko'pdir. Sening amaldorlik xutbangni Mushtariy (Yupiter) sayyorasi o'zi o'qigani uchun to'qqiz zinalik osmon kursisi unga minbar bo'ldi.

Quyoshi o'zi senga soyabon bo'lishga intiladi. Oy yuzidagi muhr sening uzuging o'rni. Sulaymon davlatida sen ishrat qilasan: humo qushidan boshqa narsa senga soya solmaydi».

3. «Adolat uzuginga baland osmon «Kuch — adolatdadir» degan so'zlarni naqshlagan.

4. «Baland martabang xutbasini esa u «Adolat bilan amringni yurgiz!» — deb yozgan.

5. «Agar sen shukr qilib, zulm qilmasang, o'zi («Qur'on»da): «Albatta, ne'matingizni orttiraman!» — degan».

6. «Xalq poda bo'lsa, sen cho'pon, u mevali bog' bo'lsa, sen bog'bon». Navoiyning bu fikrlari nisbatan an'anaviy xarakterga ega. Chunki, Nizomiyda ham, Dehlaviy va Jomiy «Xamsa»larida ham aynan shunga yaqin gaplar ilgari surilgan. Hatto shoir Sakkokiya «Raiyyat qo'y erur, sulton anga cho'pon...» degan satr bor. Ammo bu o'rinda masalaning boshqa bir jihati muhim. Navoiyning podshohga murojaat qilib aytgan fikrlari ohang keskinligi, mantiq chuqurligi va murosasizligi bilan g'oyatda ta'sirchan hamda o'zicha originaldir. U podshohga qarata: «Bil munikim, sen ham bir bandasan, aslida ularning ko'plaridan ojiyu afgandasan», deganda so'z chinakam shoirona jasoratni aks ettirayotganga o'xshaydi. Bunda daho san'atkorlarga xos erkinlik, shijoat bor. Navoiy aytadi, anglatadi, da'vat qiladi va ayni paytda qattiq ayblaydi. Xususan, «zulm sori» yo'l solgan shohlar qilmishlarini ochadigan misralarda shoir tanqid san'atining g'olib kuchini ko'rsata olgan.

7. «Shohlarda bunday sifatlar kam bo'ladi. Shoh G'oziygina ularni to'la egallagan».

«Shoh G'oziy» — Sulton Husayn Boyqaro.

## XXVII

1. Bu ikki bayt mazmuni: «Saodatli Shoh G'oziy podshohlik toji uchun kurashib, mulksiz taxi talashib yurgan vaqtida — yonida yuz, ikki yuzcha odam bilan ko'chib, goh Xorazm yerida, goh Adoqda bo'lardi».

2. «Bid'at va fisq-fujur ahllari yo'qolib, shariat adolatining qo'lini kuchaytirdi».
3. «Bir kun u (Shoh G'oziy) aylanish uchun chiqqan edi, Shunda bir aftoda kampir uning etagidan mahkam tutdi».
4. «Nolayu afg'on chekib, oh tortib u (kampir) dedi: — Ey, shariatpanoh shoh! Agar adolat bilan ish ko'riladigan bo'lsa, men sen bilan shariat bo'yicha da'volashaman. Shart shuki, qahring kelmaydi, savollarimga shariat mahkamasi (qozixonada) javob ber».
5. «Dedi: «Shu voqeadan xabardor ikki odamni chaqiraman, ular adolat va insof bilan guvohlik bersa bas».
6. «Shoh dedi: shariat shunday hukm qilgan ekan, payg'ambar shariatining hukmiga jonimni fido qilaman».
7. «Kumushning kuchidan u kumushdek bo'ldi. Xalq unga «Tilla kampir» deb laqab qo'ydi».
8. «Falak qariyasidan qancha alam ko'rsang ham, shoh adolat qilsa, ey Navoiy, ne g'am».

### XXVIII

1. «Xirqa kiygan riyokor shayxlar xususidakim, ularning oldida haqiqiy libos degani hiylanayrang kiyimdir, avom xalqqa o'rgatadigan haqiqat va bilimlari esa ahmoqlik; haqiqiy mayxo'rlar to'g'risidakim, ularning vujud kiyimlari yo'qlik qo'lining zarbasidan yirtilgan va Iso nafasidek jonbaxsh nafasleri esa muqaddas ruh kabi pok va ziyorat joylari falakning sahnidir».
2. «Ey qalloblik bilan xirqa yopingan shayx, shomu sahar zikr aytib, g'avg'o qilasan».
3. «Bu kiyimingda aylanma quroqlar ko'p bo'lib, ularning ostiga pullarni berkitib qo'yish oson».
4. «Uning to'qimalari ham yolg'on ipidan to'qilgan. Iblisning mo'ylabi esa igna vazifasini bajargan».
5. «Yashil to'n ustidagi yamoqlar nayrangboz falakning nahs yulduzlaridir».
6. «Tasbehini tasbeh dema, buttarosh but yo'neyotganida chiqindilardan uning donalarini yasagan».
7. «Bu toshlarning ichidagi so'fisi kofirning may idishiga o'xshaydi, tasbehining ipi esa zunnor ipini eslatadi».
8. «Osilib turgan turfa soqoli kulgili, o'ltirishi minbarga chiqqan echkning o'zi».
9. «Lekin tutgan ishida echkning ishidagicha ham to'g'rilik yo'q. Chunki u o'g'rini tutadi, bu esa o'zi o'g'rilik qiladi». Bunda shoir o'g'rini o'rgatilgan echki vositasi bilan aniqlash odatiga ishora qilmoqda. Bu odatga binoan, o'g'rilikda shubha ostiga olingan odamlar davra bo'lib o'ltirgan, o'rtada yurgan echki kimni iskasa, o'sha o'g'ri hisoblangan.
10. «Eshigi mayxo'r otashparastning daraxtidan, mehrobi buzuq tarso (xristian diniga mansub odam) qizining qoshiga o'xshaydi».
11. «Shayx qaddini «nun» harfi kabi egib, bir burchakda Zunnun singari o'ltiradi». «Zunnun — Abulfazl Savbon binni Ibrohimning laqabi. U tasavvufning katta allomalariidan bo'lgan. Xalifa al-Mutavakkil tomonidan shakkoklikda ayblanib, qamalib Misrdan Bag'dodga olib borilgan. U erdan ozod bo'lib, Makkaga borganida u yerda ham qamalib uzoq vaqt qamoqda yotgan. Lekin shunga qaramasdan tasavvufga oid ko'p asarlar yozgan. Zunnunning imomlik nufuzi va mavqeiini Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida keltirgan. Zunnun vafot etadi. «Janozasin elturda, — deb yozadi Navoiy, — benihoyat yashil qushlar janozasig'a oyat qilib erdilar. Andoqkim, borg'on xaloyiq alarning ko'lagasida erdi. Andin so'ngra Zunnung'a xalq ko'nglida qabul voqe' bo'ldi». So'ng uning qabri boshidan odamlar xatiga o'xshamaydigan g'aroyib bitik tosh topiladi. Unda «Zunnun Allohning do'sti va shavq tufayli Alloh yo'lida qurbon bo'lgan», degan

ma'no bitilgan, uni har qancha harakat qilgan bilan o'chirish imkoni bo'lmaydi. Navoiy yuqoridagi baytda Zunnun nomini ijobiy bir maqsadda tilga olgan bo'lsa-da, shayxning Zunnunga o'xshashga intilishi — bu, puch da'vo ekanligini pisanda qilgan.

12. «Uning otini shayx «Xizr payambar» deb ataydi, bema'ni xayollarini esa, bo'lgan voqea deb ko'rsatadi».

13. «Behuda so'zlarni so'zlashda biri chirchirakka (hasharot) o'xshasa, ko'p aylanishda boshqa birisi pirpirakka o'xshaydi».

14. «Unga hadiyalar, tuhfalar tortsa, mol ham bersa, g'allakor yer, kent va suyurg'ol (podshoh tomonidan doimiyga beriladigan yer-suv) bag'ishlasa».

15. «Kun o'tkazish uchun shuncha nayrang! Mansab uchun shuncha yolg'onbozlik!»

16. «Ko'ylagidan mushku anbar hidi keladi, ichida esa yuzta it hurib, gandiraklab yuradi».

### XXX

1. «Xayru ehson vasfidakim, soxta davlatning zavoli rahmat daraxtining bargidir; baxillik saxiylik yuragidan uzoq bir narsa bo'lib, (inson uchun) cheksiz balodir, saxiylik ko'rsatmaslik muruvvatdan behad xoli bo'lishlikdir, har tomondan qaraganda cheksiz ofat bo'lgan isrofn rad etish va ko'p harfli «lof»ni bildiruvchi itlofni (boylikni barbod etish, isrof etish) hajv qilish».

2. «Sharofatli boshing ustida karam bayrog'i «bosh» so'zidagi («bosh» so'zi arabcha shaklda yozilganda, o'rtasida «alif» harfi bor alif harfidek bayroqdir).

3. *Qulzum va Ummon* — daryo va dengiz nomi.

4. *Hotam va Barmak* — saxiylik va olijanoblik bilan nom qozongan shaxslar nomi. Sharq she'riyatida, xususan, Hotam bilan bog'liq hikoyat va rivoyatlar keng qo'llanilgan.

5. «Saxiylik qanday maqtovga loyiq sharafli xususiyat bo'lmasin, uni orttirib yuborsang, bu — isrofga aylanadi».

6. *Qorun* — qadimda boyligi bilan tanilgan, bani Isroilga mansub kishining nomi.

7. «Xudo» («Qur'on»da) dedi. «Yenglar, ichinglar!» Yonida yana dedi: «Lekin isrof qilmanglar!»

8. Xizr — obi hayot suvini topgan payg'ambar nomi.

9. «Och, muhtoj yuzlarcha odamlar non so'rab turadi, lekin ularga bir burda ham bermaydi, to'qni qidiradi».

10. «Mayning tagidagi loyqasini ichadigan odam uning bir qultumiga jonini bermoqchi, may sotuvchi esa idishning tagini yana kub (kub — may saqlanadigan katta sopol idish, xum)ga ag'daradi».

11. «Sham tilini chiqarib, yona boshlashi bilan tun mamlakati ustiga o'z bayrog'ini tikkan bo'ladi».

12. «Tong o'zini maqtab qancha gapirmasin, baribir, u quyoshning oltin nurlaridan ko'zini yoritadi».

13. «Chunki u (saxiy) o'z tig'ini konga urgan, kon unga o'z gavharini bag'ishlagan metinga o'xshaydi».

14. «Baxillik qilib sadaf sof durni yutgan bo'lgani uchun, durni olishda uning ko'ksini teshishadi».

### XXXII

1. «Adablilik odati to'g'risidakim, kichiklarga baxtiyorlik sababi, ulug'larga esa yuksak martabalik boisidir; tavozu' vasfidakim, «dol»dek qaddin xam qilgan qadamini baxtning boshiga

qo'yadi va hayo nuri haqidakim, biron kishi buning ichiga kirsam rahmat yomg'irlari bilan serob bo'ladi».

2. «Qachonki yangi chiqqan oy tavoze' saqlab, qaddini xam qildi, u kun sayin kamol topa boshladi».

3. «Yoy tavoze' sifatiga ega bo'lgani uchun qadri oshib, Qur'on ustidan joy oldi».

4. «Osmon ham tavoze'ga rioya qilib egilgani uchun butun olam uning amriga bo'ysundi».

5. «Kaklik qahqaha solib kulgani uchun bu kulgi tufayli uning boshiga balo keladi (ya'ni ovchilar ovozdin bilib, ovlab oladi)».

6. «Chaqmoqni o'z kulgusi tog'ning ichiga qulatdi, hatto pastlatib, tuproqqa kiritib yubordi».

7. «Qahqaha bilan hazil bir-biriga do'st, ikkisi ham qurbaqaning tovushi va yurishiga o'xshash kulgili narsalardir».

8. «Boyqushning qiyofasi masxaraboznikiga o'xshaydi, shuning uchun barcha qushlar uni talagani talagan».

9. «Tulki va it (har xil qiliqlari bilan odamlarga) kulgi eshigini ochadi; u odamlar sherni ko'rsa, uyidan qochadi».

10. «Agar bolalaring va xotining bo'lsa, ularga ham shu ishni qilishing kerak».

11. «Ismda tafovutlar ko'p paydo bo'ldi; birining ismi Husayn bo'lsa, boshqa biriniki Yazid». Husayn — yaxshi ot timsoli; Yazid — yomon ot timsoli. Bunda Alining o'g'li Husayn va uni o'ldirgan Yazidga ishorat bor.

12. «It yetuk ta'lim olgani sababli u tishlab kelgan ov halol hisoblanadi».

13. «Tarbiyaning yana biri ota-onani hurmat qilish: buni bajarish uning uchun majburiyatdir».

14. «Xizmatni qilib, uni ortiqcha ulug'lab ham yuborma, yomon munosabatda bo'lib, tahqir ham qilma».

15. «Senga shoh xizmatini qilish nasib bo'lsa, to'rtta ishni o'zingga saylab ol; oldindan niyatini uning niyati bilan rostla, boshqa niyatlarni ko'nglingdan chiqar; yana bir, xizmat qilishning vaqtini bil, xizmat qil, lekin qilmagandek tur. Yana biri, yaxshi-yomon so'z og'zingdan chiqmasin: odamlarning yaxshi-yomoniga ham qarama (gapini e'tiborga olma). Yana biri, bu xizmatdan qiynalsang ham, azob cheksang ham, odob shartiga ko'ra, hamma yaxshi-yomonga chida». Navoiy ushbu nasihatlarini yozganda Sharq didaktikasidagi an'anaviy fikr-mulohazalarga emas, birinchi navbatda o'z hayotiy tajribalariga asoslangan edi.

#### XXXIV

1. Qanoat haqidakim, «jo'» (ochlik) so'zidan (so'nggi harf) «ayn» (bu o'rinda «ayn» oltin ma'nosida) ajratilsa, «jo'» (ariq) qolib, najot qanotining mayin tovushini beradi, hatto hayot chashmasi sari uchish qanoti bo'lib xizmat qiladi, «tama'» so'zi har qanday shaklda yozilganda ham undagi xorlik zahrining ta'mini totishga olib boradi: qanoatli odamning (ochlikdan) ko'zida qon mavj ursa ham izzati bor: tamagir odam oltin taxtdan joy olgan bo'lsa-da, xorlikka uchraydi.

2. «Muhtojni ham shoh deb atash mumkin bo'lsa, harf nuqtai nazaridan «muhtoj so'zida ham «toj» bor-ku».

3. Bu besh bayt mazmuni: «Ovqatning yuzida zarrin nur sochuvchi quyosh, tovoq ustida esa non o'rniga oy kulchasi, non ustidagi ko'k o'rniga zumurrad, dasturxon ustida bodring o'rnida ko'k tosh bo'lsa, Xudo haqqi, kel, o'zing insof bilan ayt, och odam bu narsalarni qanday qilib yeydi?!»

4. *Raxsh* — afsonaviy qahramon Rustamning chopqir oti nomi.

5. Ushbu bayt irsoli masal san'ati asosida tartib berilgan.

6. «Qanoat mulkidagi saroydan joy olishni mo'ljallagan odam yaxshilarning yaxshisidir».
7. «Hilol» (yangi oy) shakli uning o'ymakorlik asbobiday bo'lgani singari, osmon bilan shafaq uning bazmining qizil fonusiga ham o'xshashdir».
8. *Yavmul-hisob* — qiyomat kuni demak.
9. «Izzat tilar ekansan, qanoat tama' qil. «Qanoat qilgan»ning joyi izzat taxtidadir».

### XXXV

1. Qanoatli juvonmard bilan tamagir jahongashtaning hamroh bo'lgani, birining farog'at boyligiga berilganidan xorlik azobiga qolgani, ikkinchisining qanoat azobini chekish tufayli farog'at boyligiga erishgani.
2. «Tama'gir buni o'qigach, besaranjom bo'lib, tama'girlik tomirlari qattiq ura boshladi».
3. «Sahar vaqtida kim shaharga oldin kirsa, uni taxtga o'tqazib, boshiga toj kiydirib, qo'lga uzuk taqilar ekan».

### XXXVI

1. Vafo haqidakim, «vafo» so'zining «ve» harfi (bunda «vafo» so'zining arabcha harfi yozilishi ko'zda tutiladi) hamda abjad hisobi bo'yicha harflarining sonini bildirishga ishora qilinadi.
2. Bu uch bayt mazmuni: «Osmonning to'qqiz qutisi bo'lib, hammasi zar bilan ishlangan; ularning ichida yuz minglab qimmatbaho durlar bor. Undagi har bir duining yorug'ligi farog'at shamidir, oddiy dur emas, sham ham emas, ko'chani yorituvchi durdir».
3. «Yolg'uz ovuchdin kim eshitmish sado» — bu satr ma'nosiga «Qars ikki qo'ldan chiqadi» degan xalq maqoli asos bo'lgan.
4. «Nard taxtasining to'sida to'piq — suyak bitta bo'lsa, o'yinchi o'yin boshlay olmaydi».
5. U yorning vasli kimgaki nasib bo'lsa, uning sha'niga («Qur'on»da) «g'alaba yaqindir» oyati yozilgan.
6. «Kimki o'zining bir yori bilan ko'ngli shod ekan, malaklar to'dasi unga: «Ko'z tegmasin!» deydi».

### XXXVII

1. «Ikki vafodor yor bir-biriga vafo qilib, boshlaridan kechgani, ularning sharofati bilan yuz ming bosh qilichdan va qilich qindan qutulgani, hatto qayta qinga kirgani».
2. «Unga g'alaba yuz ko'rsatib, taqdir dushman ko'ngliga shikast soldi».
3. «O'liklarning ko'pligidan dashtlar to'lib ketdi. Qizil qon Nil daryosi bo'lib oqdi».
4. «Agar sening maqsading hosh olish bo'lsa, uni qo'y, uning o'rniga bu boshni ola qol! — dedi».
5. «Shu munosabat bilan orada birpas kutish yuz bergan edi, birdan xalq orasida omon-omon bo'lgani haqida nido ko'tarildi».

### XXXVIII

1. «Ishq o'ti ta'rifidakim, uning shu'lasi balo sahosining lolalaridur, cho'g'i baloga duchor bo'lgan ko'ngulning qon bo'laklaridir; Mehnat — mashaqqatning qaro shomi uning tutuni, bu shomning kuyik yulduzlari uning uchqunlaridir; yor husnining nurlari haqidakim, uning

alangasidan ko'tarilgan bir yolqin bunday o'tning chiqishiga sababchi, uning quyoshdek yuzidan tarqalgan bitta nur bunday haroratga asosdir».

2. Bu ikki bayt mazmuni: «Yer yuzida endi hayot boshlanib, inson vujudini ruh mayi bilan mast qilganlarida, uning tufrog'dan iborat jismini hikmat qo'li bilan xuddi Eram bog'iga o'xshatib tuzdilar».

3. «Jahon mamlakatining boshiga ishq g'avg'osi tushib, zamon ahli ishqning taloniga uchradi».

4. Bu ikki bayt mazmuni: «May o'ti but (buddaning haykali ko'zda tutiladi)ning yuzini qizartirib, bayroqqa aylantirgach, shu'lasi Qur'onni ham kuydirdi. Qur'onning varaqlarini kuydirayotgan choqda o't yoqaman deb rahl (Qur'on, ya'ni kitob qo'yib o'qiladigan kursi)ni ham sindirdi».

5. *Mul* – sharob, may. «Gulshanning ichidan guldand o't yoqdi, mayxona burchagini sharob bilan yoritdi. Bu gulning qanday gul ekanidan bog'ning nima xabari bor?» deyilmoqchi.

6. Bu uch bayt mazmuni: «O'zini kishi ko'ziga g'amgin ko'rsatib, motami bo'lmasa ham voqasini yintar ekan, bunday odamning tashi hiylakorligi orqasida malakka o'xshaydi; ichi esa iblis bilan birlashgan, zohiri sadoqat bilan bezangan, fisq-fasod bilan bulg'angan».

7. *Ano o'qlari* – mashaqqat o'qlari, qiyinchilik.

8. «Husnini namoyish qilish uchun u qoshida (jingalak) tugunlar yasagan. O'ziga zeb berish uchun «nun» harfiga o'xshatib yasalgan bu tugunning ustidagi nuqta shamra (ukrop urug'i)ning urug'iga o'xshaydi».

9. Tashbih san'ati tatbiq etilgan bu baytda, ma'shuqaning zirak taqqan quloqlari safni yorib o'tgan turk askarlariga o'xshatilib, «go'yo u o'limni o'ylab, ustidan temir sovut kiyib olgan», deyilgan.

10. *Balki gulistoni Xalil* – bu talmehda' payg'ambar Ibrohim Xalilulloh to'g'risidagi voqea nazarda tutilgan.

11. *Shibliy* – tasavvufning mashhur shayxi. Uning to'la nomi Shibliy Abu Bakr Ja'far binni Yunusdir (862–947).

12. Zunnun – yirik tasavvuf olimi Zunnun Abulfazl Savbon binni Ibrohimdir.

## XL

1. Rostlik ta'rifidakim, horliq uyi shu to'g'ri ustun bilan tik, ul uyning shabistoni burchagida bu nur (rostlik) shami majlisni bezatadi; egrilikni esa rad etish haqidakim, agar egri odam kumushbadan go'zallar yuzidan zulfdek joy olsa ham (baribir oxirida) boshi kesiladi, egri odam agar xazina ustida ajdahodek halqa bo'lib yotgan bo'lsa ham uni o'ldirish zarur.

2. «Har kim o'ziga to'g'rilikni odat qilgan bo'lsa, falakniig teskari aylangani bilan uning nima ishi bor? O'qning (yoy o'qi nazarda tutilgan) uchishi to'g'ri bo'lgandan so'ng yorning egriligining unga nima ziyoni bor?!»

3. «Nay to'g'ri bo'lgani uchun ahli hol – tariqat ahli, ya'ni so'fiylar uni yaxshi ko'rishadi; to'g'ri bo'lmasdan egri bo'lsa, tanbeh uchun qulog'i buraladi».

4. «Mistar (chizg'ich)ning chizig'iga yozuv to'g'ri kela bergach, qalam boshini ko'tarmasdan yozgani yozgan».

5. Rivoyatlarga ko'ra Sulaymon ham, podshoh ham payg'ambarlikka erishib, butun mavjudot uning tasarrufida bo'lgan. Insondan hoshlab dev, pari, hayvon, xullas chumoligacha unga tobe, hatto shamol ham uning xohishiga qaragan. Bu ishlarning barchasi uning qo'lidagi uzuk xosiyatidan sodir bo'lgan emish. Uzukka «Ismi a'zam» – (eng ulug' nom yoki eng ulug' oyat yoki duo) bitilgan bo'lib, uzukning ilohiy qudrati mana shu xat sharofatidan ekan.



6. *Rosti rasti* – to'g'rilik, xaloslik.

7. «Qalam to'g'rilikka yo'l ko'rsatgani uchun doim uning boshi kesilib, pastga bo'lib turadi. «Alif» ham to'g'rilik alomati bo'lgani uchun, «balo» (so'zi) uni qara, o'zining orqasiga olibdi (Bunda «balo» so'zining arabcha yozilishi ko'zda tutiladi. Unda alif so'z oxirida keladi. Alif esa o'z shakliga ko'ra o'tmish adabiyotida doim to'g'rilik ramzi bo'lib kelgan).

8. «Barq – yashin egrilikni odat qilgan bo'lib, hamma yoqni yoritisa-da, yerning ostiga kiradi».

### XLI

1. «Durroj (qirg'ovul)ning chin gapirish o'rniga yolg'on gapirib, bir anglashilmovchilik tuzog'iga ilingani, chin so'zni sher yolg'on deb o'ylab, ovozi eshitib, yetib kelmagani va uni balo tuzog'idan xalos etmagani».

2. «To'qayda bir yirtqich sher bor edi. Vahshatda osmon sheridek qo'rqmas edi».

3. Bu ikki baytda: «Sher uning sayrashini eshitib, kuyida yolg'on borligini fahm qilib, der edi: «Yolg'on gapirma, yomon bo'ladi». To'g'ri odamlar oldida yolg'on qoralanadi», deyilgan.

### XLII

1. «Ilm osmonining yulduzlardek baland martabaliligi haqidakim, bilimsizlik tunini yoritish uchun «ayn»i quyosh, «lom»i oy, «mim»i kunduz belgilarini ko'rsatadi; bilimsizlik shomining qorong'i ko'rinishi haqidakim, g'afolat chohini pastlik kechasida zohir qilib, bu kechada baxtsizlikdan hikoya aytadi; olimning butun baxtsiz vujudining quyoshdek yuksakligi, johilning esa butun borlig'i boylik, mol bo'lsa ham tuproqdek xorligi».

2. «Dunyoning ishi yaratilgandan buyon dushmanlikdan iborat bo'lib, olimlar xor, johillar aziz».

3. «Yomonlikni o'ziga shior qilgan Zuhal sayyorasi moviy rang qo'rg'on gumbazidan joy olgan. (Yaxshilikni qo'llovchi) Mushtariy esa undan quyida. Bu, dunyoning yaxshini yomondan past ko'rishidan».

4. «Tog' cho'qqisi qattiq bo'lishga bel bog'lagani sababli, uning tig'i oyning yuzini timdalagan».

5. «Otashparast hindu ko'mirdek qorayib ketgan esa-da, u yoqit taxt ustidan joy olgan».

6. *Bu Ali* – Sharqning buyuk allomasi Abu Ali ibn Sinodir.

7. «Pashshaning ham ust libosi zarrin, ammo uning qo'nadigan joyi o'limtik va ifloslik ustidadir».

### XLIII

1. «Imom Faxr Roziy bilan Sulton Muhammad Xorazmshohning hammomda do'stlik shamini yoqqanlari va imomning so'zi bilan Sultonning takabburlikdan voz kechgani».

2. «Sirdonlar davrasining podshosi, dunyodagi barcha dindorlarning imoini Faxriddin Xorazmni o'ziga oromgoh qilganda, uni ko'rishga Xorazmshoh kelmadi».

3. «Ular bir-birlari bilan ko'rishib, shoh unga ochilib shunday savol berdi: «Ey, o'z ilmi bilan elni bahramand etgan, qiyomat ishlaridan bir xabar ber-chi. U kuni qanday mashaqqatlar yuz beradi. Har bir kishining ahvoli nima bo'ladi?»

Shoh shunday ma'noli savolni bergan edi, kamolot egasi bunga shu zaylda javob berdi: «Ey, qiyomat kunini bilishni orzu qilgan odam, qiyomat haqidagi savolga eng monand joy shu

hammadir. U yerda ham shoh bilan gado bir xil ahvolga tushib, shohu gado barchasi yalang'och yuradi. Amaldorlar, kattalar hammasi senga o'xshab, ichkariga kirgach, boru yo'g'i tashqarida qoladi. Ilmu hunar egalari esa menga o'xshab, nima yiqqan bo'lsa, o'zi bilan olib kiradi, vassalom».

#### XLIV

1. «Qalam uchidagi tilikning rang-barang harakatlari va qalam ahllaridan iborat to'daning turlanuvchanligi haqida; u (qalam) qaysi bir xatni ko'chirishga boshlasa, bu uning nomai a'molining qora bo'lishiga sababdir, kotibga esa bu baxtsizlik belgisidir. U qaysi bir harfni tuzatib, qayta yozmoqchi bo'lsa, bu uning yuz sahifasining ham, roqim qog'ozlarining ham oq bo'lishiga sababdur».

2. «Bu qanday bichimi kelishgan, yoqimli narsaki, ovozi ham yaxshi, diqqat bilan quloq solsang arziydi». Navoiy xuddi shu o'rindan boshlab, tashxis san'atidan faol foydalanib qalamni jonli narsa, goho sirli mo'jizalar bunyod etish vositasi sifatida ta'riflab beradi. Shunda qalam o'quvchi nazarida goh «tumshug'idan har tomonga ma'noli so'zlar sochadi»gan sehrli qush, goh «fusungar ilon», goh «tilla xazina ustidagi ajdar» timsolida gavdalandiriladi.

3. *Kalim* – Muso alayhissalomning ismi; asoyi *Kalim* – Muso hassasi; Qur'onda aytilishicha, Muso payg'ambar o'z davrida mo'jizaviy hassasi bilan mo'jizalar ko'rsatgan. Bunda qalam o'sha hassaga o'xshatilgan.

4. «Pul bermasa, bo'ydoq o'tgan Iso (alayhissalom) ustidan ham nikohida to'qqizta xotini bor, deb yozishdan toymaydi».

5. *Amr va Zayd* – o'zbekcha «Eshmat, Toshmat» degan iboraga to'g'ri keladi.

6. «Ha»ning o'rniga «yo'q», xatoning o'rniga savobni yozadi va orqasiga «bu yog'ini Xudo biladi», deb qo'shib qo'yadi.

7. Bu o'rinda tilga olingan asarlar Islom dini va tasavvufga doirdir.

#### XLV

1. «Yoqut (arablar orasida shuhrat topgan kotib, Qur'onni ko'chirishda yagona hisoblangan)ning husnixat tufayli podshohlar oldida ham, darveshlar oldida ham hurmati ortgani va mamlakat yozuviga hurmat ahllari o'z belgisini uning bitgan sahifasi bo'yicha tortgani».

2. «Fano bog'ining gulida o'ltir, shuhrat qozongan kishining gulshani Suhravard (mashhur mutasavvuf Shayx Suhravardiy) edi».

3. «Hijoz aholisi Ka'baga e'tiqod qilgani singari (xalifa) Musta'sim ham unga nisbatan ko'p hurmat bildirdi».

#### XLVI

1. «Bulutdek foyda keltiruvchi odamlar haqidakim, peshona teri bilan zebo rayhonlarning boshiga gavharlar sochadilar; yuzlarida bulut orasidagi chaqmoqdek kulgi ko'rinib turadi; shabnam to'kilgan chinordek, qo'llari kofining teri bilan yerga yonboshlagan xas-xashaklarni sug'oradilar; dilining kuyishi chinornikidek rangi ro'yida oshkor».

2. «Ey insonlar orasida tong kabi kumush sochishga o'rgangan odam, sening mehriy qiyosh mehriday umumiydir».

3. «Agar yomg'ir o'rniga tosh yog'sa ham, tog'dek boshingni yashirmay turasan».

4. *Yamkusu fil-arzi* – Yer yuzida yashab yursin.
5. *Xayri nas* – Odamlarning eng yaxshisi.
6. «Pashsha kishi bo'yniga xalaqit berib, shapaloq urish bilan yanchiladi».
7. «Arabdan chiqqan payg'ambar (Muhammad (s.a.v.)). Bu Lahab uning diniga kirmagan, unga qarshilik qilgan) butun borliqni yoritti. Bu Lahab yuzini qaro qilib nima qilardi?!»
8. «Kamolot qozongan odamlarning ham eng komili elchilar podshosi Muhammad payg'ambar edi».
9. Bu ikki bayt «Xamsa»ning 1960-yil nashrida:

So'z bila kufr ahli musulmon bo'lub,  
So'z bila hayvon degan inson bo'lub.

Ham so'z ila elga o'lumdin najot,  
Ham so'z ila topib o'luk tan hayot,

shaklida berilgan. Biz «Hayrat ul-abror»ning tanqidiy matni asosida baytlar o'rnini almashtirdik.

10. «Chin diyorining mushki o'zi qora tuprog'day bir narsa. Sunbul uning isida is olgani uchun boshqochiday boshi quydi».

11. «Saxovat ko'rsatgan kishi muomalada ham xato qilmasa, u bir yo'la ikkita in'om bergan bo'ladi».

#### XLVII

1. Marhamatli Ayyubning bezor o'g'ri egriligini tuzatgani va gumrohlik zulmatida unga yo'l ko'rsatgani...
2. «Shu kecha bir kissovor uning uyiga lahim kovlay boshladi».
3. *Hufra* – yer ostidan kovlangan yo'l.
4. «Payg'ambarlar haqidagi qissalarda yozilishicha, payg'ambarlardan Ayyub hamma azob-uqubatlarga bardosh berish, Nuh esa uzoq umr ko'rish bilan mashhur bo'lgan».

#### XLVIII

1. «Osmon tuzilishidan shikoyat; uning har biri bir quti, har yulduzi pok bir gavhar bo'lib ko'rinadi, ammo u shunday bir quticha hamki, unga zahar, zahar bo'lganda ham o'ldiradigan zahar solingan; Jahon qo'g'irchog'i haqida kinoyaki, u chiroyli va kelishgan sho'x bir jononga o'xshab ko'rinadi, ammo o'zi shunday qariyaki, ishi makr va ko'zbo'yamachilik; ko'zbo'yamachiligi esa haddan ortiqdir; u marvarid qutisining zararini yozish uchun qalamning tili lol, bu qariyaning turgan-bitgani zavoldir».

2. «Ey ko'ngul, bu charx qo'g'irchoqboz chiqdi-ku! Ey ko'ngul, uning nayrangbozligidan ranjimal!»

3. «Qo'g'irchoqboz kabi bu hiylagar osmon o'z nayrangbozlik chodirida ming xil suratlar ko'rsatadi».

4. «Uning ko'z yoshlari hiyla yulduzlaridir. Yolg'ondaki tongning oqargani – uning boshidir».

5. «Quyida pardozchiligining belgisi oq tong upasi-yu quyosh oynasidir».

6. Bu ikki bayt mazmuni: «To'y oldi qaliniga jonini so'rab, keyingi mahrga imonini talab qilib, jonini, imonini olgandan keyin esa bu dunyo uyidan surgun qiladi».

7. «Falak aylanganda ikki chiziq hosil qilib, bu mintaq va muaddil chiziqlari ikki belbog'day uning beliga boylangan».

8. «Shunday fikr qilginki, bu pastkash charxning aylanishi xuddi g'alvirning aylanishiga o'xshaydi».

9. «Jahon gulshanida nargis kabi kaltabin, nodonlar bor edi, ularning bazmlariga xursandchilik bag'ishlab, kumush taboqlarda oltin qadahlar uzatdi».

10. «Qayerda rangdor Yaman terisini ko'rsa, yuz joyidan qirqib, undan o'qqa xalta yasadi».

11. «Uning hech bir hosili ham yo'q, boqiyliigi ham. Ularning hammasidan kech, lekin kechikma».

### XLIX

1. «Iskandarning yetti iqlim mamlakatlarini o'z qo'liga kiritgani va bo'sh qo'l bilan bu dunyodan ketish otini ilgari surgani».

2. «Osmonning ko'k gumbazi ustida xutba o'qib, adolat tamg'alarini (oltin, kumushga emas) yulduzlarga o'ydi».

3. «Yo'limni qabr tomon boshlar ekansizlar, bir qo'limni tobutning yonidan chiqarib qo'yinglar. Kishilar tobutga nazar solar ekanlar, ibrat yuzasidan shu qo'lga qarasinlar. Bilsinlarkim, yetti o'lka podshosi, yetti osmon mushkullaridan xabardor odam, endi jismimda jon yo'q, bu makondan, bo'sh qo'l bilan bu jahondan ketmoqda».

### L

1. «Jaholat mayining quyqasini ichadiganlar haqidakim, yaxshilik xirqalari gunohkorlik qo'lidan yirtiq; may jaholatining boshi og'riq odamlari to'g'risidakim, ularning har biri mayxona eshigida mastlik va beboshlik bilan yuradi va qiyshaygan mayxona ularning nazarida Jamshidning taxtiga o'xshaydi, siniq piyola esa o'zida jahonni ko'rsatadigan jomga...»

2. «Ey, jomga hamdam bo'lib quvongan odam, ishing jaholat xumoridan mastlik».

3. «Sening bu mastliging necha yil, necha oy davom etishi mumkin? Oyda, yilda bir mast bo'lmasdan hushyor tortib ham yur!» mazmuni baytda tajnis usulida ifoda etilgan.

4. «Yo'lda uchragan yomg'ir suvini ko'rsa, may deb ichadi; Soy toshi uchrasa, olib, guldek otadi».

5. «Bo'zchining tarog'idagi ohordek, balki qarq'a patidagi iflosdek, qusuq uning soqolini obdon harom qildi. It esa yalab, uni yana tozalab qo'ydi».

6. «Ha, shum kampirning qizi qancha xunuk bo'lsa ham, uning ko'ziga behishtdagi hur bo'lib ko'rinadi. Qobiliyatsiz shoirga: «Nima yeyapti?» – deb yurma deyman, nima bema'ni gap gapirsa, uning o'ziga sehr bo'lib tuyuladi».

7. «Boyqush obod yerlarda xafa bo'lib o'ttiradi; vayrona burchaklarda esa tovusdek tovlanadi».

8. «Majusiy o'txonaga suv quysa bir nafasda sandal daraxtining o'tini obnusa aylantiradi».

9. Bu to'rt bayt mazmuni: «Xullas, uning o'ti o'tu suvi ham o't, rangi o'tu jozibali yolqini ham o't. Kimki bu to'rt o't ichiga tushib asir bo'lsa, chaqmoq chaqqan joyda ipak to'qimaday yonadi. Qaysi badanda bu to'rt unsur yonsa, uning issig'idan badandagi to'rt unsur ham o'rtanadi. Bu o'tda to'rt unsurgina yonib, yo'q bo'lib ketmaydi, aqlu his, dinu islom ham yo'qoladi».

10. «Birovni maqtab, majburan tavba qildirilsa, buni tavba deb tushunma; birovning tavba qilishiga aqli yetmasa, «Qur'on»ni o'rtaga qo'yib shartlashsa ham foydasiz». Ushbu maqolot oxirida Navoiy haqiqiy tavba qilish Xudoning xohishiga bog'liq, degan g'oyani ilgari suradi.

## LII

1. «Xunasasifat oliftalarning dunyo zeb-ziynati, deb hiylakorlik ko'rsatishlari va jonini fido qilgan muhabbat egalarining dindan quvvat olib, boshni tik tutib yurishlari; g'azavot maydonining kengligi vasfidakim, mard bilan nomardning shu yerda bir-biridan farqi ko'rinadi; shohlik qoni ta'rifidakim, bu gunoh tutunidan yuzi qaro bo'lganlarning yuzini qizil qildi».
2. «U shundayki, o'zini juda botir ko'rsatib, otini shijoat maydonida ilgari suradi».
3. «U o'zini shunday katta tutadiki, go'yo uning boshidan osmongacha bo'lgan masofa to'rt enlikday».
4. «U zulm o'qini uchirganda, o'qning uchini o'z yuzi bilan egovlaydi».
5. «Bu jig'a unga la'nati iblisdan qolgan bo'lsa ham, uni Jabroil qanoti deb ataydi».
6. «Otining ustiga urgan egari zarlangan; hatto uning yuganiga ham gavharlar qadalgan».
7. Bu ikki bayt ma'nosi: «U g'avg'o qiladi, atrofidaqilar baqirib-chaqirishadi, go'yo o'zi o'rtada devu atrofida shayton to'dasi. Biri uni «Begim!» degan, boshqasi «Mirzo!» degan; xulqini yaxshi deb, husnini chiroyli deb maqtagan».
8. «Xamsa»ning 1960-yil nashrida (116-bet) bu satr «Lof ila har dam ushotib yuz masof» shaklida, biz uni tanqidiy matnga binoan «Lof ila har dam ushotib bir masof» tarzida berdik.
9. Bu bayt dostonning 1960-yil nashrida:

Har nimakim, shar' xilofi durur,  
To'kkasen ar bodai sofiy durur,

deb berilgan. Ikki satrda ham «durur», «dur ul» deb o'zgartirildi.

10. Bu satr oldin «Jismingga tig' ochsa o'lum zo'rni» o'qilgan. Tanqidiy matnda «zo'rni» emas, «ravzani» (Ravza — teshik, tuynuk).
11. Bu baytning o'rni o'zgartirildi. U «Xamsa»ning 1960-yil nashrida (118-bet):  
Kimgaki jonondan erur jon aziz,  
Hayfki, qilg'ay oni jonon aziz

baytidan oldin keladi.

## LIV

1. «Bahor yigitligining sofligi haqidakim, nozli rayhonlarini rang-barang ipaklar bilan orasta qiladi; yigitlik bahorining latofati xususidakim, yuzining gulini rayhoniy xatlar bilan yondiradigan darajada bezatadi; xazon qariligining sovuqligi to'g'risidakim, gulistondagi daraxtlar bilan qushlar u tufayli ziynatsiz, kuysiz bo'lib qoladi; qarilik xazonining shiddati to'g'risidakim, badan gulistonining toza gullari u tufayli havoga sovruladi».
2. «Hamal ayvonini quyosh yorita boshlagach, osmon yer yuziga ham mehr izhor qildi».
3. «Ko'kimtir maysalar to'shak bo'lib, undagi rayhonlar go'yo bihisht hurlaridir».
4. «Bolalarning hammasini ko'ngli o'yinda, lekin hamma yoqda «gulhocha gul» o'yini».
5. «Barglar barg emas, yoqish uchun bir to'plam o'tin; shohlari esa do'zaxning kundasi desa bo'ladi».
6. «Birov tafsir («Qur'on»ga yozilgan tafsirlar)larni o'qib, birov hadislarni o'rganib e'tibor topadi».

7. «Og'iz burchaklarida qimmatbaho durlardan qolmay, tishlari «sin»ga o'xshasa ham, tishsiz «sin»ga («s» harfining arabcha shakllarda tishli va tishsiz yozilishiga ishorat) o'xshab qoladi».

8. «Orqa bo'ynida tirishlar paydo bo'lib, baqbaqasidagi yunglarda tugunlar yuzaga keladi».

9. «Kishining maqsadi tabiiy yashash bo'lsa, istak bildirib, hamma yoqqa borishi, ko'rishi lozim».

#### LVI

1. Falak g'amxonasi haqidakim, oqibat mazmuni parokandalik belgisidan iborat bo'lib, unda kishi qiynalsa ham o'zini xursandlikka olib yurishi kerak; jahon vayronasi haqidakim, unda yozig'lik tilak ham ko'ngul uyini obod tutishdir; hayot gulshanidan esgan har nafasning qadrini bilish, umr gulidan chiqqan har bir xush isning shukrini qilish, badanda Xudoning buyrug'ini bajarishga quvvat bor ekan, toat-ibodatni g'animat bilish, do'stlar bilan ko'rishish imkoniyati bor ekan, buni qo'ldan chiqarmay, kishi o'zini xurram tutishi kerakligi to'g'risida».

2. «Taqdirdan qancha jaf o'yetsa ham unut. Bu jafolar qancha ko'p bo'lsa ham o'zingga og'ir olma».

3. «Qilmas gari» – o'ylashga arzimaydi.

4. «Shunday ekan, gul bilan tik savsan ham, norvanu sarvu shamshod ham, bu chamanda nimaiki bo'lsa – hammasi bir-biriga mehmondirlar».

#### LVIII

1. «Xurosonning misli yo'q viloyati bayonida... xususan saltanat uyi bo'lmish osoyish joyi – Hirot tavsifida; garchi (o'tmishda) bog' bo'lsa ham, ammo qurib qolgan edi, lekin shoh (bunda Husayn Boyqaro nazarda tutilayotir) oqizgan soyning adolati uni oliy jannatning rashki keladigan yerga aylantirdi, agarchi (bir vaqtlar) obod bo'lgan bo'lsa ham, biroq buzilib ketgan edi; shahanshohning quruvchilik ehsanidan chin rasmxonasining ham rashki keladigan joyga aylandi».

2. «U o'rtadagi osmonda har tomonga nur sochib, «hamma ishning o'rtachasi yaxshi», degan hikmatni isbotlab turadi».

3. «Uning ichidagi shaharlarning soni nihoyatda ko'p. Ularning har birining go'zalligi haddan ortiqdir».

4. «Uni jahonning ko'ksi deb ta'riflash kerak. Undagi yurak esa go'zal Hirot o'lkasidir».

5. «Uni (Hirotni) «Ko'ngul» emas, «shoh» desa ham ajablanish kerak emas, chunki shohning joyi ham o'rtada bo'ladi-ku!»

6. «Alloh, Alloh! Bu Hirot qanaqa shahar bo'ldi? Uning bir qismi ikkinchi qismidan ajoyib! Ikki turg'un osmondan belgi bo'lgan uning ikki xiyoboni somonchining yo'lga o'xshaydi».

7. Masjidi Aqso – Suriyadagi mashhur qadimiy masjid. «Uning shamdonlari kaptarlarga xilvat uya; kaptarlar unda Jabroildek o'tiradilar».

8. «Xamsa»ning 1960-yil nashrida bu satr «har shajaru yuz gul ila shevasi» emas, «Bir shajaru...» holida berilgan.

9. Anushirvon Islom dinini qabul qilish haqidagi Muhammad (s.a.v.)ning maktubini yitib tashlab, Islomni rad etgan edi. Bunda shunga ishora bor.

10. «Odamzod bor ekan, olam bor ekan, olam ichida odamzod yashar ekan, adolat bilan olam yuzini obod qil, yaxshi xulq bilan dunyodagi odamlarni shod qil».

## LX

1. «Maqsadning o'talgani haqida; agarchi bu latif so'zlar majmuasi shunday bir to'plamki, nozik ma'noli so'zlardan iborat tuhfa bilan to'la va nozik ma'noli so'zlar to'plami shunday kemaki, foydali injular unda xilma-xildir; lekin tab' daryosidan sohilga eng oldin kelgani narsalarning eng qimmatlilari bo'ladi va zehn shabistonidan ham eng oldin jilva zuhur etgan kelinchaklar bo'ladi, shunga ko'ra bu to'plamni saltanat bog'chasining oldingi guli va xalaflik chamanining qad ko'targan nozli sarvi bo'lmish sulton Badiuzzamon (Husayn Boyqaroning katta o'g'li) Bahodir... oyog'iga nisor qilindi hamda unga nikohlab berildi, — toki bu nasihatlar uning dilida o'rnashib qolsin va bu javharlarni qulog'iga ossin».

2. «Inson o'rnini bosadigan insondir; shohniki shoh, xonniki xondir».

3. «Balki, u xavf-xatarsizlikning sababchisi, Jamshiddek qadrli hukmdor Badiuzzamon-dir».

4. Bu talmeh «Qur'on»dagi bir epizodga ishora. Bunda zolim Zahhok, Firdavsiy «Shohnoma»sida naql qilinishicha, undan yashirin holda sigir sutini ichib katta bo'lgan Faridun qasd olgani eslatilmoqda.

5. Asl maqsadni ko'zlamochi bo'lsang, Muhammadning shariati yo'lini tut!»

6. «Adl» so'zi uch harf bilan yoziladi. Lekin uning har bittasi o'zgacha mazmunga ega. Uning «ayn»i yondiruvchi quyosh bo'lib, zulmning qora shomini pok qiladi. «Dol»i esa davlat va dinning toji bo'lib, din va davlat ahllari doim unga muhtojdirlar. Oxiridagi «lom»ini hurlarning sochi; izzat va sharaf qushlariga esa uni tuzoq deb bil».

## LXII

1. *Bu orzu* — «Hayrat ul-abror» dostonini yozish.

2. *Bu «gulruxi zebo uzor»* — «Hayrat ul-abror» demak.

## LXIII

1. Yaxshi odamlar hayrati.

2. Hijriy — 888-yil, milodiy — 1483-yil.

## «FARHOD VA SHIRIN»NING SHARH VA IZOHLARI

### I

Muqaddima o'rnidagi bu bob adabiy an'anaga ko'ra, «hamd» — Alloh taoloning maqtoviga bag'ishlangan bo'lib, Navoiy Yaratuvchining qudratini ta'riflab, uning irodasi bilan qalamga olmoqchi bo'lgan g'oyaviy niyati haqida so'z yuritadi.

1. Baytning birinchi misrasi arabcha: Ma'nolar eshiklarining ochilishi sening (ya'ni Allohning) maqtoving bilan, degan mazmunni bildiradi. Keyingi misrada esa, shoir so'z o'yini san'atini ishlatadi — «fath» so'zining ikki ma'nosidan foydalanadi: ma'nolar eshiklarini ko'nglimga «ochib» ber va ularni «zabt» etishni nasib qil, mazmunida qo'llaydi.

Keyingi baytlarda shoir ma'nolar xazinasini qullig'ga qo'lining kalit bo'lishini, shu vosita bilan barcha umidlariga yetishishni tilaydi, ana shu ma'nolar xazinasidan olamni, olam ahlini

manfaatdor etishni umid qiladi. Bu baytlarda «maxzan», «durafshon», «gavhartosh», «dur» kabi soʻzlar majoziy, yaʼni koʻchma maʼnoda ishlatiladi. Ular mazmun, maʼno bilan aloqador boʻlib, buni badiiyat haqidagi ilmda «istora» sanʼati deb yuritiladi.

## II

1. Navoiyning «Farhod va Shirin»i boblari sarlavhalari boshqa dostonlaridagi kabi maʼlum gʻoyaviy va badiiy uhdalarni bajaradi. Shoir ularda asos-eʼtibori bilan har bir bobdagi yetakchi gʻoyani izohlab beradi. Shuningdek, ular badiiy jihatdan ham muayyan vazifani oʻtab, oʻquvchining bobda bayon etiladigan voqealarga munosabatini belgilashga xizmat qiladi.

Bu bob sarlavhasida shoir arab yozuvidagi harflar ifodasiga ishora qilib, shavq dostoni — «Farhod va Shirin»da sarvqadlar boʻyiga oʻxshash «alif», binafsha sochlar jingalagiga oʻxshash «lom»larda «Alloh» soʻzi nazarda tutilishini yozadi. Binobarin, bu yerda Navoiy Xudo taʼrifi berilishini bayon qiladi.

Shoir yozishga kirishayotgan «Farhod va Shirin» dostonining umumiy talqini, undagi qahramonlar, personajlarning muxtasar tavsifini beradi. «dard bogʻi» deya taʼriflangan ishq bilan aloqador barcha hayajon va iztiroblar haqida yozadi. Shoir Xoliq — yaratuvchi Xudo sanosi — maqtoviga kirishar ekan, eng avvalo, u inson koʻnglini ishq gulshani, bu gulshanda esa ishqni xazinaga aylantirganligini madh etadi. Ishqqa «jahonni kuydiruvchi» qudrat baxsh etadigan Yaratuvchi husni, goʻzallik taʼrifi esa Navoiy davridagi keng tarqalgan tasavvuf taʼlimoti tushunchalariga aloqadordir. Bobning avvalgi yetti baytida shoir yana majoziy maʼnodagi «dard bogʻi», «lola», «gul bargi», «sunbul», «oqar suv», «gʻuncha», «otashin vard» (qizil gul) kabi soʻzlar orqali ishq, uning alamlari, iztiroblari haqida soʻz yuritadi. Buni shoir ilmi badeʼdagi uygʻunlashtirish sanʼati vositasida amalga oshiradi. Shuningdek, bobdagi «qazo Farhodi amri rahnamuni» misrasidan to «Kelib kam zarralardin dogʻi Xusrav» misrasigacha boʻlgan qismda «Navoiy qazoni Farhodga, osmonni Farhodga aloqador Besutun togʻiga, aqlni Chin xoqoni-ning vaziri Mulkoroga va Suqrotga, tunni Xusrav Parvezning oti Shabdezza, qadarni Farhodning doʻsti Shopurga, ajalni otasini oʻldirgan Parvezning oʻgʻli Sheruyaga, zamonni Parvezning sozandasi Nigisoga oʻxshatgan holda «shirin», «tilism» soʻzlari Besutun, Xusrav va uning xonandasi Borbad nomlarini tilga olib, muqaddimani dostonning mundarijasiga uygʻunlashtirgan». Ayni choqda, bu oʻxshatishlar zamirida shoir doston mundarijasida qahramon va personajlar faoliyati qaysi koʻlamda kechishi, ular dostonida ijobiy, salbiy rol oʻynaydimi yoki oʻtkinchimi, degan masalalarga ham eʼtiborni jalb etadi.

2. *Fafham* — arabcha (undov soʻz). «Tushun! Angla! Diqqat qil!» demakdir.

3. *Vallohu aʼlam* — arabcha: Xudo biluvchiroqdır.

Bu baytda shoir Yaratuvchi bilan yaratilganlar bir-biriga oshiq, buni idrok etish kerak, demoqchi boʻladi.

4. *Mo arafnok* — arabcha: (Allohim) biz seni maʼrifating darajasida bilmadik.

5. Navoiy yozishga kirishayotgan dostonning personajlari taʼrifini bosh qahramon Farhoddan boshlaydi. Maʼlumki, oʻz manbalarini folklardan olgan Farhod obrazi Firdavsiy «Shohnoma»sida Afrosiyobning jangovar sipohsolori sifatida tilga olinadi. Dastavval bu obraz Nizomiyning «Xusrav va Shirin» dostonida asosiy personajlardan biri sifatida kiritiladi. Nizomiy Farhodi xalq namoyandasi, toshyoʻnar usta. U oqil va insonparvar, gʻoyat savodli va pahlavon. Farhod garchi doston syujeti rivojida asosiy rol oʻynamasa-da, muallifning yetakchi gʻoyasini tushunishda ahamiyati kattadir.



Xusrav Dehlaviyning «Shirin va Xusrav» dostonida esa Farhod oliynasab shahzoda, taqdirga tan beruvchi baxtsiz oshiq qilib tasvirlanadi. Farhod obrazini ilk dafa birinchi o'ringa ko'chirib talqin qilgan shoir ozarbayjon adabiyoti tarixida Nizomiy an'analarini davom ettirgan, fors tilida ijod qilgan Orif Ardabiliy (XIV asr) edi. Lekin Orifning Farhodida qator manfiy jihatlar, jiddiy qusurlar mavjud. Farhod o'z hunar va muhabbati ila Xusravdan juda ustun ko'tarilsa-da, muhabbatga munosabati va shaxsiy ma'naviyati jihatdan undan farqlanmaydi. «Farhod o'zining sevgilisi Gulistonni tezda yodidan chiqaradi». «Muallif o'z qahramoni (ya'ni Farhod) o'limini uning Rum qaysari o'g'li Garoyni o'ldirganligi bilan aloqador qilib talqin qiladi... Bu esa obraz qimmatini ozaytiradi» (Arasli N. Arif Ardabili va onun «Farhadname» poemasi. Baku, 88–89-betlar).

Alisher Navoiy o'z dostonida Farhodni asosiy, markaziy qahramon qilib oldi. Uni tom ma'noda ijobiy qahramon sifatidagi yangicha talqinini berdi.

6. *Xito* – Chin (Xitoy) mamlakatining shimolidagi viloyat nomi (Sinszyan yoki Koshg'ar ko'zda tutiladi).

7. *Mulkoro* – Navoiy asarlarida Chin xoqoni vazirining nomi. U g'oyat donishmand va tadbirkor qilib tasvirlanadi.

8. *Moniy* – Ibn Fatak (216–276) – moniylik ta'limotining asoschisi. Sharq rivoyatlarida uni mashhur naqqosh va rassom deb ta'riflaydilar. Uning muqaddas kitoblari nihoyatda go'zal miniatyuralar bilan bezatilgan emish, monuviysoz-moniycha qilib ishlash; dostonida Farhod uchun Xoqon yil fasllariga moslab qurdirgan to'rt qasrni bezagan naqqosh ustaning nomi.

Bu baytda esa shoir Farhodning ko'ngil qasri Moniy korgohidek go'zal va naqshpardoz qilib yaratilgan, demoqchi.

9. *Suqrot* – Sokrat (mil. av. 470, 469–399) qadimgi yunon faylasufi. Navoiy dostonida Suqrotni aql va hikmatda benazir xiradmand sifatida talqin qiladi.

10. *Shirin* – bu yerda shoir so'z o'yini ishlatgan: Navoiy o'z salafllari Nizomiy va Xusrav Dehlaviy Shirinni jahon ahliga yoqimli, totli obraz qilib yaratdilar, demoqchi. Aytish kerakki, Shirin ba'zi ma'xazlar, afsona va dostonlarda goh eronlik, goho oromiy nasab, yo rumli, yoki armani deb beriladi. Nizomiyda u ozarbayjonlik, Navoiyda esa armaniyalikdir.

Nizomiy Shirini g'oyat go'zal va aqlli, irodali va maqsad yo'lida izchil bo'lib, sosoniylar podshohi Hurmuz o'g'li Xusrav Parvezni sevadi. U hatto Xusrav Parvez Vizantiya qaysarining qizi Maryamga, Isfahon go'zali Shakarga uylanganida ham nechog'lik g'am-alam chekmasin o'z sevgisiga sodiq qoladi. Uni arig' qazuvchilar orasidagi toshkesar Farhod sevib qolganida ham Xusravdan voz kechmaydi. Oxiri uning qonuniy xotini bo'lib qoladi. Shirinning xalqi farovonligi yo'lida Xusravni kayf-safo, hashamdor maishatlardan qaytarish, mamlakat va xalq taqdiri bilan mashg'ul bo'lishga da'vat etish kabi olijanob intilishlarini Nizomiy madh etadi. Maryamning o'g'li Sheruya toj-taxtga, Shiringa ega bo'lish maqsadida o'z otasi Xusravni o'ldirganida, Shirin erining jasadida ustida o'zini halok qiladi.

Xusrav Dehlaviyda Shirin sevgida ham barqaror bo'lmagan (Xusrav Parvez va Farhod sevgilariga javobda ikkilanadi), hatto Farhod o'limidan keyin Xusravdan o'ch olish maqsadida uning xotinini zahartab o'ldirishgacha yetib boradi. Binobarin, Xusrav Dehlaviy talqinida Shirin vatani va xalqi qayg'usini chekkani o'z aksini topmaydi.

Navoiy esa Shirinni har jihatdan mukammal, Farhodning muhabbatiga loyiq, unga vafodor bo'lgan qahramon qilib yaratadi.

11. *Xusrav* – Sharq xalqlari og'zaki ijodi va yozma adabiyotida keng tarqalgan obraz. Uning tarixiy ildizi sosoniy podshohlaridan Xusrav II Parvez (VI asr oxiri) faoliyatiga borib

gadaladi. Badiiy adabiyotda, chunonchi, Firdavsiyning «Shohnoma»si, Nizomiyning «Xusrav va Shirin»ida ideal shoh. Alisher Navoiyda esa Xusrav mutlaqo salbiy qahramon sifatida talqin etiladi.

12. *Shabdez* – qora tusli ot. Xusrav otining nomi. Bu baytda shu soʻz orqali ham kecha qorongʻiligiga, ham otga ishora qilinmoqda.

13. *Shopur* – Eroniy mashhur rassom.

14. *Sheruya* – Xusrav Parvezning oʻgʻli.

15. *Nikiso* – Xusrav Parvezning xos mashhur mashshoqlaridan.

16. *Zuhra* – Venera. Sharqda erta tongda, Gʻarbda kechqurun porlab koʻrinadigan yorqin yulduz. Qadimgi yunonlarda muhabbat maʼbudasi sifatida tasvirlangan. Zuhra baʼzan Nohid nomi bilan ham ataladi. Zuhra goʻzallik, muhabbat hamda musiqa homiysi hisoblanadi.

17. *Borbud* – Borbud – Xusrav Parvezning mashhur hofizi. Badiiy adabiyotda umuman yaxshi xonandani anglatadi.

18. *Bahrom* – Mirrix – Mars sayyorasi. Ilmi nujumcha Bahrom harbiy ishlar homiysi sanalgan.

19. *Besutun* – Bihistun (Bihishtun) – Shimoliy Eronda, Hamadon shahridan 100 km gʻarbda togʻ oraligʻidagi qoya. Bu qoya rivoyat va afsonalarda koʻpincha Farhod nomi bilan vobasta holda tilga olinadi. Farhod shu togʻ etaklarida kanal qazigan, shu togʻni kesib yoʻl ochgan qahramon sifatida tasvirlanadi.

Shoir oʻz dostoni «Farhod va Shirin»ni minglab mashhur Besutun yodnomalaridan yuksak deb taʼriflaydi. Bu bilan adabiyotdagi mubolagʻa sanʼatini qoʻllaydi, ayni choqda «faxriya» sanʼatidan ham foydalanadi.

### III

1. «Munojot» deb atalsa-da, unda Navoiy insonni yoʻqlikdagi holati, soʻngra, vujudga kelishi, goʻdakligi, hayoti toʻgʻrisidagi fikrlarni bayon etadi.

2. *Mustajo* – arabcha tanlangan, saralangan, saylangan, demakdir. Muhammad (s.a.v.)ning ismlaridan biri. Bu va oldingi misralarda Navoiy Allohga murojaat qilib, shu asarni yaratishda madadkor boʻlishni iltijo qiladi, bu yoʻlda Muhammad (s.a.v.)dan ham shafokat yetishishini istaydi.

### IV

Bu bob anʼanaviy naʼt, yaʼni Muhammad (s.a.v.) taʼrifiga bagʻishlangandir.

1. «*Vash-shams*» bila «*Val-layl*» – Qurʼon suralari.

2. «*Va sallallohu alo shamsi jamolih va zilli kamolih*» – arabcha: Allohning rahmati uning jamolining quyoshi va kamolining soyasicha boʻlsin.

3. «*Kofu*», «*nun*» – arabcha harflarning nomi boʻlib, ular qoʻshilsa, «kun» «boʻll» soʻzi yuzaga keladi. Navoiy taʼkidlashicha, Xudo mavjudotni paydo qilish uchun «kun» yaʼni, «boʻll» deb amr qilganda, butun maxluqot paydo boʻlgan.

4. *Qurratul-ayn* – arabcha: koʻz ravshanligʻi; koʻz qorachigʻi. Maj. farzand.

5. «*Kavn*» – mavjudlik, borlik, dunyo; kavnayn – ikki dunyo (u dunyo va bu dunyo).

6. *Arsh* – osmonning eng yuqori joyi.

7. *Kursiy* – bu yerda osmon maʼnosida.

8. *Mushaf* – Qur'on.

9. *Batho* – Makka atrofidagi tog' oralig'ida bir dara nomi; maj. Makka ko'zda tutiladi.

## V

Bu bob an'anaviy «Me'roj» (payg'ambarning ko'kka chiqishi)ga bag'ishlanadi.

1. *Minaz-zulumoti ilan-nur* – arabcha: «zulmatdan nur tomon» degan ma'noni bildiradi.

2. *Nurin alo nur* – arabcha: nur ustiga nur, demakdir.

3. *Nohid* – q. Zuhra.

4. *Atorud* – Utorid – Merkuriy sayyorasi. Forscha Dabir ham deyiladi. U yozuvchilarning, san'atkorlarning, umuman donishmandlikning homiysi hisoblanadi.

5. *Mushtariy* – Yupiter – forscha Birjis ham deyiladi. Ilmi nujumda Mushtariyni «Sa'di akbar» (yuksaklikdagi joy) va «Falak qozisi» deb ham yuritilgan joyi, oltinchi falakda emish.

6. *Rafraf* – Me'roj kechasi Muhammad (s.a.v.) mingan markabning nomi.

7. «*Mo tug'ov*» – (Payg'ambarning) ko'zi (o'ngu so'lga) og'gani ham yo'q, («Najm» surasi, 18-oyat).

8. «*Mo zoh*» – ... o'z haddidan oshgani ham yo'q («Najm» surasi, 18-oyat).

9. *Qoba qavsayn* – ikki yoy oralig'i, ikki yoy oralig'icha masofa. Bu yerda shoir Alloh va Muhammad alayhissalomning oralari yaqinligiga ishora qiladi (Qarang: «Najm» surasi, 9-oyat).

## VI

Navoiy ijodkor qalami ta'rifini va o'z salafлари «Panj ganj» («Besh xazina») muallifi Nizomiy va «Xamsa» yaratuvchisi Xusrav Dehlaviylarga o'z munosabatini bayon qiladi.

1. «*Panj ganj*» – buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy (1141–1203)ning 5 dostonidan iborat turkumi ko'zda tutiladi. Nizomiyning o'zi 5 dostonini «Xamsa» deb atamagan, undan keyin bu sohada qalam tebratgan shoirlar, jumladan, Xusrav Dehlaviy uni birinchi «Xamsa» muallifi deb ataganlar.

2. *Bayyazallohu taolo avroqa jaroyimiho* – arabcha: Alloh taolo uning gunohlari (bitilgan) varaqlarni oqlasin (ya'ni, uning gunohlaridan o'tsin) demakdir.

3. Bu yerda shoir qalamni ta'riflab, uning tezyurarlighi va qora iz qoldirishini uchqur qora otga o'xshatadi.

4. Baytning mazmuni: «Chopganida quyrug'ini bayroq kabi ko'taradi. Uning boshdan oyog'i qulog'idek tilingandir». Bu o'rinda shoir qamish qalamning xat yozish jarayonidagi holatini tasvirlamoqda. Ayni choqda, «qalam» so'zining lug'aviy ma'nosi (kesilgan, kesik)dan kinoya ishlatib, so'z o'yinidan foydalanadi.

5. Bu baytda qora siyohda bitilgan harflar qimmatbaho qora munchoq toshga o'xshatiladi.

6. *Javf* – lug'. ma'nosi qorin, bo'shliq. Bu yerda qamish qalamning ichidagi bo'sh kovak ko'zda tutiladi.

7. So'z Nizomiy Ganjaviy haqida boradi. «Ganja orom» iboralari orqali bu buyuk shoir Ganjada dafn etilganligi anglatiladi. Keyingi baytlarda Navoiy Nizomiyni xazinadorga, uning ma'nolarga to'la asarlarini xazinalarga o'xshatib ta'riflaydi. Kimki bu xazinaga o'g'irlik qilmoqchi bo'lsa, falak uning boshiga toshlar yog'diradi. Ular orasidan do'stlar gavhar, dushmanlar esa chaqirtosh topadilar. Ana shu gavhar, durlar ko'ngilga o'rtnasha; uni xazinaga aylantiradi, deydi shoir.

8. *Hinduyi zod* – Navoiy Hindistonda yashab ijod etgan, Nizomiydan so'ng «Xamsa» yaratgan Xusrav Dehlaviy (1253–1325)ni ko'zda tutadi.

9. *Xizr* – Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo» asarida nomi keltirgan. Ba'zilar uni payg'ambar, ba'zilar avliyo deyishgan. Xizr «Obi hayvon» (tiriklik suvi)ni topgan va undan ichib, hamisha tirik yuradigan sirli karomatlar sohibi. Adabiyotda Xizr g'oyibdan paydo bo'lib, avliyolarga, yo'ldan adashgan musofirlarga ko'mak etuvchi ham deb tasvirlanadi. Xizr yashillik va idrok timsoli hisoblanadi. Bu yerda bir necha tashbih ishlatilgan. Shoir Xusrav Dehlaviyni ana shu Xizr payg'ambarga, Hindistonni qora tunga o'xshatadi. Bunda xalqning rangi qora bo'lganiga hamda Xizr zulmat ichida hayot bulog'ini topganligiga ishora qilinadi. Xusrav Dehlaviyning ravon she'riyati ana shu sirli «hayot bulog'i»ga nisbat beriladi.

10. *Chashmai hayvon* – tiriklik suvi chiqadigan buloq. Uni qora zulmat mamlakatida Xizr qidirib topgan, deydilar.

11. *Qaqnus* – afsonaviy qush. Uning tumshug'ida ko'p teshiklar bor bo'lib, ulardan taralgan hazin ovozlardan musiqa yaralar emish. Navoiy «Lison ut-tayr» dostonida Qaqnusning go'zal tasvirini beradi. Unga ko'ra, Qaqnus Hindistonda bo'lar, baland daraxtlar boshiga in solar ekan. Bu qush umri bo'yi xas-xashak, cho'p terib, katta xirmon yig'ar, hayotining oxirida shu xirmon ustida hazin ohang bilan sayrar ekan. Uning dilkash navosini eshitgan o'rmondagi qush va hayvonlar yig'ilar ekan. Oxiri Qaqnus shunday alamli bir nola qilar ekanki, undan xirmonga o't tutashib ketar va shu o'tda o'zi ham yonib ketar ekan. Xirmon kuli ostidan yangi bir Qaqnus bolasi par yozib chiqar va sekin-sekin parvoz qilib, yana o'sha otasi shug'ullangan ishi – xas-cho'p terishga unnab ketar ekan. Navoiy bu yerda Xusrav Dehlaviyni Qaqnusga, uning she'riyatidagi musiqiylikni, dil o'rtovchi hazinlikni Qaqnusning sayrashiga o'xshatadi.

12. «*Mah to ba mohi*» – aynan: «balig'dan oygacha» degan mazmuni bildiradi. Bu ibora «yerdan ko'kkacha» ma'nosida ishlatiladi.

13. Bu o'rinda Navoiy Nizomiy Ganjaviydek ulug' shoir dostonlariga javoban «Xamsa» yozishlik oson ish emas, demoqchi bo'ladi. Keyingi baytlarda shoir Nizomiyning filga, Xusrav Dehlaviyni ham garchi kichikroq esa-da, filga o'xshatadi. Ularning shavkat va quvvatidan madad tilaydi. O'zini esa hayqiruvchi filga o'xshatadi, u so'z o'rmonini egallab olishni orzu qiladi.

14. Bu bobdan boshlab, deyarli har bir bob shoirning soqiyga murojaat tarzida yozilgan asosan 2 baytli (ba'zan 3 bayt), agar ta'bir jo'iz bo'lsa, kichik «soqiyнома»lar berib boradi. Ba'zan esa shoir bu xildagi lirik chekinishlarda keyingi bobda qalamga olinadigan voqea yoxud masalalarga ishora ham qiladi. Bu yerda soqiyga murojaat qilib, shoir: «Har ikki shoir (Nizomiy va Xusrav Dehlaviy) yodi uchun qo'sh jom – ikki piyola qadah keltir. Uni ichib Jomiy mayining madhiga kirishay», deydi.

15. *Jomiy* (1414–1492) – fors-tojik adabiyotining namoyandasi Abdurahmon Jomiyning nisbasi va taxallusi. Jomiy Navoiyning yaqin do'sti, hamkori edi. Navoiy undan faqat adabiy va ilmiy jihatdangina maslahat olmay, balki vazirlik lavozimi taqozosi bilan davlat ishlarida, siyosiy va ijtimoiy faoliyatida ham maslahatlar olib turadi. «1476–1477-yillar orasida u Jomiyning o'ziga pir sifatida tanlagan edi. Jomiy o'limidan keyin Navoiy uning xotirasiga bag'ishlab maxsus «Xamsat ul-mutahayyirin» (Hayratlanganlar beshligi) asarini yozgan.

## VII

1. Bob Abdurahmon Jomiy madhiga bag'ishlangan.

2. *Zindapili Jomi* (XI–XII) – Jomida tug'ilgan mashhur mutasavvif shoir Abu Nasr Ahmad binni Abdulhasanning laqabi. Uning taxallusi «Ahmadi Jomiy» bo'lgan. Navoiy u bilan

Abdurahmon Jomiyni taqqoslab, Nizomiy va Xusrav Dehlaviylarning she'riyatdagi iqtidori ikki filcha bo'lsa, Jomiyning kuchi yuz filcha, tasavvuf bobida esa Zindapilning o'ziga teng, deya mubolag'ali ta'riflaydi.

3. *Nafyi vujud* – tasavvuf istilohi – «o'zlikni yo'qotish» demakdir.

4. *Ikki jahon* – bu dunyo va oxirat ma'nosida.

5. *Olami kubro* – aynan: ulug' olam, butun koinotni anglatadi. Tasavvufda esa inson, inson qalbi, demakdir. Shoir Jomiy kamolotini nazarda tutmoqda.

6. *Maqsadi aqso* – aynan: eng olis, qariyb yetib bo'lmaz maqsad; bu yerda inson va uning yuragi, qalbi mazmuniga ega.

7. *Olami sug'ro* – aynan: kichik olam, tasavvufda esa bu dunyo ko'zda tutiladi. Ba'zan teskari ma'noda ham qo'llanadi. Ya'ni, kichik olam deb insonni aytishadi.

8. Bu va keyingi baytlarda Navoiy Jomiyni dengizga, uning asarlarini dengizdagi durrlarga, qalamini gavhar sochuvchi, ichi shakar bilan to'la nayshakarga o'xshatadi. So'ngra uni duo qilib, madhiyalar o'qiydi.

## VIII

Navoiy bu dostonni yozishga nimalar sabab bo'lganini bayon etadi. Uning e'tiroficha, bu dostonni yaratish orzusi – tamannosi paydo bo'lgach, bepoyon durru gavharlar dengiziga cho'madi, ya'ni ko'p mutolaa qiladi, o'ylaydi.

1. *Qoqum xori ita naqb kelturmak* – aynan: qoqum (ya'ni mayin junli) hayvonning tuki bilan chuqur qazimoq. Shoir bu iborani har ish qiyin mashaqqat bilan amalga oshadi, degan ma'noda ishlatadi.

2. *Zaruriy bo'ldi avzoig'a tag'yir* – aynan: uning avzoini o'zgartish zarur bo'ldi. Navoiy bu misrada o'z asarini salaflar dostonidan boshqacha, farqli qilib yaratish fikri tug'ilganini bildiradi.

3. Navoiy «Farhod va Shirin» dostonini yozishga undagan sabablardan biri – o'zining muhabbat sevgisi bo'lib, bu ishning alam va iztiroblari edi. Shoir keyingi baytlarda o'z mahubbi, u tufayli o'ziga yetishgan azobu uqubatlar bayonini beradi.

4. Baytning mazmuni – shoir ko'ngil qo'yg'an mahubbining ovozi Farang (Yevropa), Xito (Koshg'ar) va Chin (Xitoy)ga ham yetib borgan edi, ya'ni G'arbda ham, Sharqda ham ma'lum edi, demoqchi bo'ladi.

5. Baytning mazmuni – menda bu g'amdand aqlu hush qolmagan bir paytda g'oyibdan nido (surish) keldi, deydi. Keyingi baytlarda ana shu nido sharhlab, shoir: «Axir sen bu g'amlarga giriftor bo'lishdan avval qalaming o'tkirlashib qolgan, Xizrga o'xshab, qorong'i zulmatdan tiriklik suvini xalqqa sochgan eding, ya'ni yaxshi asarlar bilan xalqni bahramand qilgan eding», deb yozadi.

6. Bu baytda «Hayrat ul-abror» rejalaniib, yozib tugatilgani aytiladi. Keyingi baytlarda Navoiyning mashaqqat bilan mehnat qilib, dur va javohirlarga to'la xazinaga erishgani, ya'ni ter to'kib ijod qilgani, bebaho asarlar yaratgani ta'riflanadi.

7. Baytning mazmuni: g'oyibdan kelgan nido shoirni telbalikni vayronalarda qoldirib, yana bir ganj sori qo'l sunishga, yana bir kon qazishga, ya'ni yangi bir asar yozishga kirishishga da'vat etadi. Keyingi baytlarda kon qazish uchun Farhod bilan hamsuhbat bo'lish, uning qayroq toshida teshani tezlab olib, ish boshlash lozimligi e'tirof etiladi.

8. Bu baytda so'z «Xamsa» dostonlaridan biri («Hayrat ul-abror») yozilgani, endi ikkinchisiga («Farhod va Shirin») kirishishi haqida bormoqda.

9. *Hotif* – g'oyibdan ovoz beruvchi.

10. *Pir* – aynan: Qari, keksa; maj. biror diniy-ruhoniy guruhning boshlig'i, rahbari. so'fiylar boshlig'i. Bu yerda shoir Jomiyi ko'zda tutadi.

11. Bu va keyingi baytlardan Jomiy ham birinchi hotif aytganlarini ta'kidlagani, ularni shoir qabul qilgani va duo olib, o'z hujrasiga ravona bo'lgani anglashiladi.

## IX

1. Navoiy bu dostonini yozishga kirishar ekan, asarning rejasini tuzib olgani, turli afsonalar, tarixiy manbalarni ko'rib chiqqani, shu mavzuda yozilgan dostonlarda yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatib, o'z g'oyalarini qay tarzda ifoda etmoqni niyat qilganini yozadi. Bunda u g'oyat obrazli qilib: «Ma'no nafosatları mato'ini g'oyibdan kelgan savdogarlardan hayotim naqdini berib, lafot uyining kelinchakları uchun sotib olmoq va jon ipi va kiprik ignasi bilan namoyish va oro libosini tikib, bu bokiralar qadlariga solib jilvalantirmoq», deya bayon qiladi (Alisher Navoiy, Farhod va Shirin. Nasriy bayon muallifi G'afur G'ulom. Matnni ayrim to'ldirishlar bilan qayta nashrga tayyorlovchi Hayitmetov A. 13-bet).

2. Bu baytning mazmuni: menga yulduzdek kulib turgan to'lim yuqori manzil – «Xamsa»-chilik yaratishdek yuksaklikdan joy tayyorladi. Keyingi baytlarda bu joyni farishtalar kelib o'z parlari bilan supurgani, osmon yulduzlaridan ko'z yoshi to'kib, u yerga suv sepgani haqida so'z yuritar ekan, shoir Sharq she'riyatidagi yopiq istiora san'atidan foydalanadi.

3. Sharqda maxsus majmar (mijmar) deb atalgan manqalga qora rangli daraxt cho'plari – udni tashlab, yoqimli hid taratish odati qadimdan mavjud. Hindistonning Qumor degan shaharida esa eng yaxshi ud bo'lar ekan. Bu baytda shoir ana shunga ishora qilmoqda. Keyingi baytlarda Navoiy qalamni yo'nib, yozishga kirishar ekan, saodat va iqbol kirib kelib, uni muborakbod etganlari ta'riflanadi.

4. Bu baytda shoir «tuproq ko'tarsang, katta tepadan ko'tar», keyingi baytda esa «tuproq olsang oltin bo'lsin» kabi xalq maqollarini ishlatib, she'riyatdagi «irsoli masal» san'atini qo'llagan.

5. Nasri toyir – aynan: burgut; maj. burgutga o'xshab ko'rinuvchi; yulduzlar turkumining nomi. U «Uqob» ham deb yuritiladi. Bu yerda shoir doston yozishga kirishar ekan, hatto osmondagi yulduzlar turkumi – nasri toyir ham himmat qanotini qoqib gardun qorong'iligida sayr qila boshladi, deydi.

6. Bu va keyingi baytlarda Navoiy yozilajak asari yangi bo'lishi lozimligini, avval shu mavzuda yaratilgan dostonlarni takrorlamaslik kerakligini ta'kidlaydi. Boshqacha qilib aytganda, shoir o'ziga asos va maqsad qilib, adabiyotga yangilik berishni niyat qilib olganligini bildiradi. Bu sohada qalam tebratganlar nazm dengizidan ajoyib durlar qo'lga kiritganini, lekin ancha qimmat durlar hamon qolib yotganini bayon etib, ularni olib chiqish va o'z dilrabo asarimga bezak qilish menga muassar bo'ldi, – deydi.

7. Bu bayt mazmunida Navoiy o'z dostonining ranglarga boy, undagi voqealar ham, qahramonlar ham g'oyat otashin bir tarzda, ta'sirchan qilib yaratilganligini bildiradi.

8. Bu va keyingi baytlarda shoir ushbu jomdan may ichganlar, ya'ni shu mavzuda doston yozganlarning barchasi Xusravning maddohi bo'lib qoldilar. Ular uning mulkiga, rasm-rusmlari, qo'shiniyu imkoniyatlarini Shabdez otining uchqurligiyu Borbad ismli xonandasining sayrashi, Shopur degan yaqinining uzluksiz hiyla-nayranglari, Buzurg Ummid nomli vazirining xushomadgo'yiligi uning (ya'ni Xusravning) goh Maryam (Rum qaysarining qizi), goho Shakar (Isfahon go'zali) ismli xotinlari huzurida orom olishiyu Shiringa shohona oshliqlik izhor qilishini madh eidilar. Uni haqiqiy muhabbat o'yini bo'lgan dardu balo, azobu iztiroblardan begona bo'lgan erka bir shoh sifatida talqin qildilar. To'g'ri, ular orasida Farhod haqida ham so'z

yuritdilar. Uni shunchaki tog'lardagi bir toshyo'nar qilib, Shirin vaslida yelib-yugurgani uchun Xusrav tomonidan o'ldirilganini bayon qildilar, — deydi. Ko'rinadiki, ularda Farhod obrazi epizodik xarakterga ega.

9. Bu baytda Navoiy o'z salafaridan boshqacha yo'l tutganini, asos-e'tibori bilan mehnatnoma (mehnat — mashaqqat, rani, alam ma'nosida) mazmunini sharh etganligini uqtiradi.

10. Navoiy Farhod haqida hazin bir doston yaratib, unda Farhod va Shirinni tarannum etishni munosib ko'rgani, Xusrav obrazidagi salbiy jihatlarni ochib bergani haqida bir qator baytlarda to'xtalib o'tadi.

11. *Ashraf* — shu mavzuda qalam tebratgan shoir. Navoiy u haqda o'zining «Majolis un-nafois» asarida quyidagilarni yozadi: «Darveshvash va nomurodsheva kishi erdi. Va kiyiz bo'rk ustiga qurchuq chirmar erdi. Va el bila dag'i omizishi oz erdi. Ko'prak avqot «Xamsa» tatabbu'ig'a sarf qilur erdi, to ul kitobni tugatur tavfiqi topti. Voqian o'z xurdi holig'a ko'ra yamon bormaydur...»

12. Navoiy bu mavzuda yana bir noma'lum shoir qalam tebratganini yozadi.

Adabiyotshunoslikda Navoiy ko'zda tutayotgan shoir XIV asr yarmilarida Shimoliy Ozarbayjonning Ardabil viloyatida yashab ijod qilgan Orif Ardabiliy bo'lishi ehtimol, degan masalani birinchi bo'lib ozarbayjonlik olim H.Orasli ko'tarib chiqqan edi. Keyinchalik Orif Ardabilni va uning «Farhodnoma» asarini maxsus tadqiq etgan H. Orasli bu to'g'ridagi taxminini tasdiqlovchi va ha'zi shubha uyg'otuvchi dalillarni keltiradi.

## X

Bu bob Sulton Husayn Boyqaro madhiga bag'ishlanadi.

1. *Shoh G'oziy* — bu yerda Sulton Husayn Boyqaro (1438–1506)ning laqabi, boshqa hukmdorlarga nisbatan ham qo'llaniladi. 1469-yildan umrining oxiriga qadar Xurosonda hukmronlik qilgan Husayn Boyqaro Alisher Navoiyning maktabdosh do'sti edi. U «Husayniy» taxallusi bilan she'rlar yozgan, sohibi devon shoir ham bo'lgan. Husayn Boyqaro qalamiga nasriy «Risolai Husayn Boyqaro» ham mansub. Unda Husayn Boyqaro Navoiyning lirik she'riyatiga va «Xamsa»siga yuksak baho beradi, shunday ulkan san'atkor, ulug' inson bilan bir davr, bir davlatda yashash baxtiga musharrafligidan, ayniqsa, u bilan do'st bo'lganligiga shukronalar aytadi. Navoiy ham o'zining «Majolis un-nafois», «Muhokamat ul-lug'atayn» va devonlari debochalarida Husayn Boyqaro ijodini, uning o'zbek tili va she'riyati ravnaqi yo'lidagi faoliyatini alohida ta'kidlab o'tadi.

2. *Haydar* — ayn. sher demakdir; Muhammad (s.a.v.)ning kuyovi Hazrat Alining laqabi. Shoir bu yerda jang maydonida Husayn Boyqaroni sherga o'xshatmoqda.

3. *Jamshed* — Eronning afsonaviy shohlaridan. U qurol-aslaha, ipak va ranglar ixtiro qilgan, ulkan binolar qurdirgan ekan. Uning davrida odamlar farovon yashagan, xastalik nima, o'lim nima bilmagan emish. Bunda kibr-havoga berilib ketgan Jamshidni jazolash uchun Xudo istilochi Zahhokni yuborgan, u Jamshidni arra bilan ikkiga bo'lib tashlagan emish. Badiiy adabiyotda ko'pincha Jamshidning sehrli jomi qalamga olinadi. Go'yo unda Jamshid o'z zamonida istagan odam va joylarni ko'ra bilar ekan. Navoiy Husayn Boyqaroni ana shu Jamshid taxtiga o'tirgan, deb ta'riflamoqda.

4. *Kayon* — afsonaviy Eron shohlari sulolasining umumiy nomi. Firdavsiy «Shohnoma»sida qalamga olingan Kayumars, Kayqubod, Kaykovus, Kayxusrav kabi shohlar shu sulolaga mansubdir. Shoir Husayn Boyqaroni ana shunday olinasab shohlarniig jomidan may ichgan, — deyish bilan uning oliy nasabiga ishora qilmoqda.

## XI

Bob Husayn Boyqaroning o'g'li Badiuzzamon Mirzo madhiga bag'ishlanadi.

1. «*Xalladallohu mulkahu va abbada davlatahu*» – «Xudo mulkini va davlatini abadiy qilsin» (Shoh ismidan keyin aytiladigan yoki yoziladigan ibora).

Badiuzzamon Mirzo – Husayn Boyqaroning katta o'g'li. Otasi o'lgandan keyin (1506) Xuroson taxtiga o'tiradi va Shayboniyxon kelganda unga qarshi urushda mag'lubiyatga uchrab (1507-y. 20-may), Shoh Ismoil Safaviy huzuriga qochadi. Usmonli turk sultoni Sulton Salim Shoh Ismoil bilan urushib, Tabrizni ishg'ol qilgach (1514), Badiuzzamoni Istanbulga olib ketadi. U yerda ko'p o'tmay Badiuzzamon vabo kasalidan vafot etadi. Qabri Ayyub Ansoriy qabristonida.

Alisher Navoiy bu shahzodaga katta umidlar bog'lagan edi. U bilan Sulton orasida nizolar paydo bo'lganida Navoiy ularni murosaga keltirish uchun, o'g'ilning ota izmida bo'lishi uchun tinmay harakatlar qilgan edi. Navoiyning «Munshaot» tarkibidagi qator maktublari, dostonlaridagi bag'ishlovlar bu fikrga dalildir.

2. «*Nasrun minalloh*» – arabcha: yordam Allohdir.

3. *Birjis* (*Burjis*) – Mushtariy – Yupiter sayyorasi. Bu baytda shoir shahzodani ta'riflab, uning yuzini quyoshga, yuzidagi terlarni Zuhra va Mushtariylarga nisbat beradi.

4. *Bog'i nav* – Hirot atrofidagi go'zal bog'lardan biri.

## XII

Bu bob sarlavhasida Chin xoqonining ta'rifi beriladi. uning befarzand ekani va Farhodning tug'ilishi haqida so'z ketishi bayon etiladi.

1. Adam shabistonidin vujud gulshanig'a kelgani – aynan: yo'qlik qorong'i kechasidan borliq gulshaniga kelishi, ya'ni dunyoga kelishi, tug'ilishi.

2. *Afridun* – Faridun – qadimgi Erondagi peshdodiylar sulolasiga mansub podshoh. Navoiyning «Tarixi muluki Ajam»da yozishicha, ba'zi manbalarda uni Jamshid nabirasi, boshqalarida esa Taxmuras (Jamshidning aka yoki ukasi) avlodidan, deb qayd qilinadi. Faridun zolim va odamxo'r shoh Zahhokka qarshi temirchi Kova – Kovai ohangar isyoniga qo'shilib, Zahhokni o'ldiradi. Navoiy Faridunni «yaxshi axloqli va odil» edi, deb ta'riflaydi. Faridun o'zining xazina – boyligi bilan mashhur. Bu yerda shoir Farhodning otasi Chin xoqoni fazilatlarini Faridunga o'xshatadi.

3. *Qorun* – nihoyatda katta boylikka ega, lekin o'ta xasis bo'lgan shaxs. Rivoyatlarga ko'ra, u Muso alayhissalom ayganlariga amal qilmagan, buning uchun Xudo butun boyligi, xazina, saroylari bilan yer qa'riga kiritib yuborgan. Badiiy adabiyotda Qorun davlatmandlik va xasislik ramzi sifatida ishlatiladi. Bu yerda Chin xoqoni xazinasi Qorunnikidan yuz ming marta ortiq edi, deb ta'riflanadi.

4. *Kishvardih* – aynan: mamlakat beruvchi. Bu bayt mazmunida «qaram», «tobe» ma'nosida keladi.

5. *Kishvarsiton* – aynan: mamlakat oluvchi. Bu yerda «hukmdor» ma'nosini anglatadi.

6. Bu va keyingi baytda shoir obrazli qilib: – davron xoqon barmog'iga shunday bir uzuk taqdiki, bu uzukning ko'zida otashin la'l parchasi yonib turgandek edi. Uning yuzida ishq sirlari yozilgan, ichida esa dard, alamlar tumori o'yib bitilgan edi, – deydi Navoiy. Shunday qilib, Farhodning dunyoga kelishidayoq uni ishq nuri va otashi bilan yo'g'rilgan, ana shu ishq iztiroblariga mahkum etilgan edi, – deya o'quvchilarini ogohlantirib o'tadi.



7. *Siyovush* – Eron shohi Kaykovusning o'g'li. Firdavsiyning «Shohnoma»sida yozilishi-cha, uni pahlavon Rustam tarbiyalagan. Siyovushga o'gay onasi Sudoba oshiq bo'lib qoladi. Siyovush uni rad etganda, Sudoba tuhmat qiladi. Otashparast (o'tga, olovga tolpinuvchilar) odatiga ko'ra, Siyovushning otasi uning pokligini isbotlash uchun oti bilan gulxandan o'tkazadi. Shu ondayoq alanga gulshanga aylanadi. Siyovush Turonga, uning podshohi Afrosiyob panohiga qochadi. Afrosiyob qizi *Farangizni* berib, Siyovushni o'ziga kuyov qilib oladi, lekin keyinchalik saroydagi fitnalar natijasida undan badgumon bo'lib, boshini kestiradi. Sharq she'riyatida «Siyovush qoni» tushunchasi juda ko'p uchrab turadi. Bu baytda shoir Farhodning pokligi, dard elining shohi ekanligini ta'kidlash uchun go'yo uni Siyovushning o't ichida sayr qilib yurganida tug'gan farzandidek, deb ta'riflaydi.

### XIII

Bu bob sarlavhasida Farhodning dunyoga kelgach, chehrasida muhabbat izlari namoyonligi, ko'ngli esa g'amu dardlarga to'la ekanligi, u shijoat bilan yigitlik mashqlarini o'rganganligi bayon etiladi.

1. «*Al-asmou tanzilum minas-samoi*» – arabcha: ismlar osmondan tushadi, demakdir.

2. Xush, xud, bexud, darxo'rd, sarxush, noxush kabi «vov» yoki «zamma» bilan yoziladigan so'zlardagi «vov»ni «vovi ma'dula», ya'ni «o'zgartirilgan vov» deyiladi. Shu so'zlardagi bu harfni «alif» (a)ga aylantirib, «xash», «xad», «bexad», «darard», «sarxash», «noxash» qabilida talaffuz qilish mumkin. Lekin yozuvda «vov» saqlanadi.

3. Bu va yuqoridagi uch baytning mazmuni: uning, ya'ni yangi tug'ilgan go'zalning (yuzida shohlik yog'dusi, nuri) far ko'zga tashlanib turgani sababli bu nurdan yeru ko'k yorishib ketdi. «Himmat», «Iqbol» va «Davlat» (bu so'zlarning avvalidagi harflar) yuz ko'rsatib, shu yog'dudan ziynat topdilar.

Bu javharlar, ya'ni qimmatbaho ma'nolar go'dakka taalluqli deb tushunilgach, ularni bir-biriga qo'shilsa, «Farhod» ismi kelib chiqadi. Bu san'at Sharq she'riyatida muammo deb ataladi. Keyingi misrada yana shu muammo yo'li bilan «yog'du»ni bayt hodiysi (ya'ni) to'g'ri yo'lga soldi (ular birlashtirilib nom chiqarildi) va shahzodaga darhol «Farhod» nomi qo'yilgani aytiladi.

4. Bu va avvalgi uch baytda Navoiy deydi, ishq go'dakning pokiza zotini ko'rgach, «Firoq», «Hajr», «Oh» bilan «Dard» (arab yozuvida «Farhod» ismidagi qisqa «a» harfi ifoda etilmaydi, u «fatha» orqali talaffuz qilinadi) so'zlaridan birinchi harflarini birlashtiradi va «Farhod» ismini chiqaradi. Bu bilan shoir bu nomning yana bir tuzilish tarkibi va uning zimnidagi ma'noni bayon etadi.

5. *Mo fizza mir* – arabcha, aynan: zamiridagi; bu yerda «ko'nglidagi» ma'nosida kelgan.

6. *Abjad* – qadimgi arab alifbosining sirasini ko'rsatuvchi sakkizta shartli so'zning birinchisi va shu uydirma so'zlar birikmasining nomi. Bunday har bir harf ma'lum bir son qiymatiga ham ega bo'lgani uchun harflar tartibida alifbo emas, balki raqamlarning o'sib borishi nazarga olingan. O'sha davrda, keyinlar ham maktablarda «abjad»ni maxsus taxtaga yozib, bolalarga harf tanitilgan va harflarning son miqdori yodlatilgan. Shoir shunga ishora qilmoqda.

7. *Suho* – Hulkar turkumidagi xira ko'rinadigan yulduzning nomi. Bu yerda shoir Farhodning merganligini ta'riflab, shunday xira yulduzni ham nishonga ola bilar edi, – deydi.

8. *Turki falak* – maj. Mirrix – Mars sayyorasi. Mirrix Sharq adabiyotida urush, jangchilik homiysi ma'nosida Bahrom ham deyiladi. Shoir Farhodning jangovarlik yarog'larini mohirlik bilan egallaganini maqtab, u o'q otganda Mirrix ham ofarin o'qiydi, demoqchi.

9. *Alburz* – Elburz tog'i. Shoir bu o'rinda ham ig'roq san'atini ishlatib, Farhod o'z gurzisi bilan uning changini chiqarib yuboradi, deydi.

10. *Bahrom* – q. Mirrih.

11. *Hul* – aynan: katta baliq; maj. o'n ikkinchi oftob burjining nomi, fevral-mart oylariga to'g'ri keladi.

12. *Asad* – aynan: arslon; maj. oftob burjlaridan beshinchisining nomi, iyul-avgust oylariga to'g'ri keladi.

Bu va oldingi baytlarda Navoiy yana o'sha ig'roq san'atini, aqlga nomuvofiq, hayotda mumkin bo'lmagan mubolag'ani ishlatadi. Farhod xanjariniig zarbidan Hutning bag'ri ezilib suvga aylanib ketishi, panjasi bilan Asadning bo'ynini uzib olishi mumkin, deb ta'riflanadi.

13. *Ro'yintan* – aynan: bronza tanali; Firdavsiyning «Shohnoma»siga ko'ra, Eron shohlaridan Asfandiyorning laqabi. Uning tanasiga zarba yetkazib bo'lmaz ekan. Shoir Farhodning tanasini, uning kuchini Asfandiordan ortiq deb ta'riflamoqda.

#### XIV

Bu bob sarlavhasidan Farhodning yigitlik chog'larida o'ynab-kulish o'rniga g'am-anduh chekib, bulbuldek fig'on qilishi, bundan diltang bo'lgan xoqon o'g'lini ovutish uchun to'rt qasr bino qilish rejasini tuzgani ma'lum bo'ladi.

1. Bu va avvalgi uch baytning mazmuni: nayrangboz o'yinchilar bevafo osmonga o'xshab ko'kning aylana muhra (bu yerda «muhra» nayrangbozlarning jomchalar ostida yashiradigan soqqalari ma'nosida ishlatilgan) o'g'irlagan edilar. Ular o'z nayranglarini ko'rsatar ekanlar, falak har lahzada o'n marta pand yer (ya'ni g'ayratlanar) edi. Ular tunni yoritib, kunduzni qorong'ilatlar, suvdan o't yondirib, o'tdan suv chiqarib separ edilar. Shu'lali o'tdan isiriq ko'kartirib, o'rgimchakning toriga temirchining sandonini osib qo'yar edilar. Shoir bu o'yinchilar san'atini kuy-qo'shiqlar shod eta olmagan, aksincha, uni yanada dardu g'am girdobiga solgan Farhodni biroz bo'lsa-da, ko'nglini ochish uchun namoyish qilinganligini g'oyat mahorat bilan ta'riflaydi.

2. Baytning mazmuni: yana bir yozlik qasr qurilsa, u nozu ne'matlarning bo'ston saroyi bo'lsa.

3. Baytning mazmuni: yana bir kuz fasliga moslab qasr qurilsa, uning bo'yoqlari xazon rangidek sarig' bo'lsa.

4. Baytning mazmuni: yana bir qishlik qasr qurilsa, unga oq rangli Xitoy matolari to'shasalar.

#### XV

Bu bobda Navoiy Xoqonning vaziri Mulkoro afsonaviy Eram bog'iga monand 4 qasr qurilishiga sarkor va me'morlar tayin qilib, ish boshlab yuborgani, Farhodning esa hunarmandlar san'atini tomosha qilib, toshlarosh Qoran ishidan hayratga tushib, uning san'atini o'rganish ishtiyoqida yongani bayon etiladi.

1. *Eram* – jannatga o'xshash go'zal va xushhavo bog'ning nomi. Uni Od qabilasidan zolim Shaddod barpo qilgan, deyiladi.

2. *Qoran* – dostondagi toshlarosh ustaning nomi.

3. «*Kan-naqshi fil-hajar*» – arabcha: «toshga o'yilgan naqshdek» ma'nosini anglatadi.

4. *Boniy* – dostondagi me'morning nomi.

5. Bu baytda shoir baland havoz ustidagi roza – binokor ustani falakdagi Zuhul yulduziga o'xshatmoqda. Navoiy bu to'rt qasr qurilishini shunday mahorat bilan tasvirlaydiki, ishning rejalanihidan to binolar qad ko'targunga qadar bo'lgan mehnat jarayonini hayotiy, real tarzda

tasavvur qilish mumkin. Muhandisu me'mor, naqqoshu toshkesar, paxsachilaru g'ishtchilar, temirchilaru rassomlar, ishboshilaru pardozechilarni, ularning mo'jizakor mehnatini shoir alohida ta'riflaydi. Ayniqsa, ishning qizg'inligi, hamma o'z o'rnida muayyan ish bilan yonishi, yelib-yugurishi, mehnat jarayoni haqida katta, qaynoq mehr bilan so'z yuritiladi.

6. *Ko'hi Qofi* – butun yer yuzini o'rab turadigan afsonaviy tog'ning nomi.

7. Shoir bu va keyingi baytlarda Farhodning Qoranning san'atiga qoyil qolib, uning tesha va toshga pardoz beruvchi metini nima sababdan hech bir zarar topmay osonlikcha toshlarni yo'nib, o'yib gul va naqshlar solayotgani haqidagi savoliga Qoranning bergan javobini bayon etadi. Hamma gap ularni yasashda suv berishga bog'liq ekan, bu sirni esa dono usta hech kimga oshkor qilmas ekan. Farhod katta ishtiyoq va zavq bilan Qoran san'atini kuzatib turib o'rganib oladi hamda o'zi uning yonida astoydil ishga tushib ketadi.

## XVI

Bu bobda Farhodning Qorandan toshyo'narlik, Moniydan naqqoshlikni, boshqa hunar va san'atlarni butun nozikliklari bilan o'rgangani, to'rt qasr qurilishi tugallanib, ularda Xoqon Farhod uchun bazmlar tuzgani haqida so'z ketadi.

1. Bu va avvalgi baytning mazmuni zilzila paytida tog' ostin-ustun bo'lib ketganidek, tun qorong'iligi chekinganida, qizil quyosh tog' ustida taxt qurdi. Subh – tong falakni marmarrang qildi. Quyosh osmon cho'qqisiga ko'tarilganda tomosha qilgani Jamshed (shoir Farhodni ko'zda tutadi) otlandi, ya'ni ertalab tong otgach, Farhod (yana Qoran san'atini ko'rgani) qurilishga otlandi.

2. Bu bayt mazmunidan: Farhod tosh yo'nish san'atini shu qadar egallab oladiki, yuzta Qoran uning qoshida shogirddek tuyilardi, – degan ma'no anglashiladi.

3. *Qalamzan* – naqqosh Moniy ko'zda tutiladi.

4. *Korfarmo* – aynan: ish buyuruvchi, bu yerda Farhod ko'zda tutiladi.

5. Navoiy har bir qasr bog'ida bir havz (hovuz) bunyod etilgani, ular har faslga monand qilib bezaklanganini yozadi.

6. *Bayt ul-haram* – aynan: xos uy, o'z ahli bo'lmagan kishilar kiritilmaydigan ichkari hovli; maj. Ka'ba. Bu yerda shoir, qasr Ka'badek pokiza va go'zal demoqchi.

7. *Ma'kulu mashrub* – arabcha: yeyiladigan, ichiladigan (ya'ni yemish va ichmish) ma'nosida.

## XVII

Bu bobda Farhodning to'rt faslda to'rt qasrda tuzilgan bazmlarda aslo ko'ngli ochilmagani, Xoqonning unga iloj qila olmaganini bayon etiladi.

1. Bu baytda obrazli qilib kunduz va kechaning barobar kelishi, Navro'z bayramiga ishora qilinadi.

2. Shoir bu baytda uning mazmunini to'laroq va latofatliroq ochish uchun «gulnor» so'zining ikki mazmuni, ya'ni anor, gul va arabcha «nor» – o't, olov so'zi birikmasidagi «o'tli gul» ma'nosidan g'oyat o'rinni foydalangan. Bu san'at Sharq she'riyatida «iyhom» deb ataladi.

3. Bu va keyingi baytda shoir daraxtni tovuvsiga, yaproqlarni esa to'tining patiga o'xshatadi, ba'zi yaproqlar qushning qovursun degan mayda patchalari obkash – eng ingichka tomirlardan suv shimsa, boshqasi Xizrga o'xshash yashil rangli shohlik tojini boshi uzra qo'yanligini ta'riflaydi.

4. Baytning mazmuni: noranj daraxti (ya'ni apelsin daraxti) oltindan xazina yaratib (ya'ni oltin rang mevalar solib), bargidan sariq libos kiygan edi.

5. Bayt mazmuni: shamol suv ichida oltin sochuvchilik qildi, (ya'ni) suv yuziga sarg'aygan xazon to'kdi.

6. Bu bayt mazmuni: xazon naqqoshi bog' sahnini oltin bilan qoplash (zarhal qilish) uchun bog'dagi (daraxtlarning) barglarini zarga aylantirar (ya'ni xazon qilar) edi.

7. Bu va keyingi besh baytda Navoiy qish faslning g'oyat go'zal tasvirini beradi. Baytlar mazmuni: yel daraxtlar bargini sovurgach, sovuq suv simobini marmarga aylantirdi. Havo ham bulutdan kulrang po'stin kiydi, bulut ham havoga simob sochdi. Qahraton qishning zargaridek, tiniq suv bolalariga kumush lavhalar tayyorlab berdi. Bulutdan tomgan har qatra suv sovuqning zo'ridan olamga marvarid donalari bo'lib yog'ilar edi. Ariqning suv olinadigan joyi halqumday bo'lib, sovuq uning og'zidan to'kilgan so'lakayini xanjarga aylantirdi. Osmon tundan ko'mir qilib, kechqurunlari unga shafaqdan o't yoqib turardi.

8. Bu va keyingi baytning mazmuni: sovuq issiqlikning haroratini kamaytirdi, olovdan uchqun uchirmay qo'ydi. O'tdan qolgan qiziq qo'rnig sinjobchalik (ya'ni silovsin, mo'yi o'siq, olmaxon terisidan tikilgan po'stin) ham issig'i yo'q, yonib turgan shu'la esa oltoyicha (ya'ni, oltoy qizil tulkisining terisidan ishlangan po'stin) ham iliqlik bermas edi.

9. Bu va keyingi baytlarda Navoiy Farhodning yana o'sha kuydiruvchi dardli ohlar tortib, ano – g'am-alamlarga to'la jonni o'rtovchi nolalar qilgani, birov yig'lasa u ham zor-zor yig'lagani, el ozoridan ko'ngli ortig'roq ozor topgani, birov ishqdan hikoya boshlasa, u takror-takror eshitishni istagani, hajrdan so'z boshlansa, ikki ko'zidan qonli yoshlar oqqani haqida yozadi. Xullas, Xoqon o'g'lini ko'ngli uchun nimaiki qilgan bo'lsa, xato ekanini tushunadi va bundan hayron qolib sarosimaga tushadi.

## XVIII

Bu bob sarlavhasida shoir Xoqonning podshohlik tojini Farhodga bermoqchi bo'lgani, uning esa atasidan uzr so'rab rad etgani bayon qilinadi.

1. Bu baytning mazmuni: bu mamlakat ustida shohlik nog'orasini chalgan zot so'z sipohiga shunday tartib beradi. Bu yerda ushbu dostonni kuylayotgan shoir shunday hikoya qiladi, demoqchi.

2. Bu va keyingi baytning mazmuni: Burgut va Kuykanak (Ilvasin – mayda parranda ovlaydigan qushlarning bir turi)ni tutib, ovga solsalar uning ishini bunisi qila olarmidi. Agar arsa – shaxmat taxtasi bo'm-bo'sh qolsa ham undagi shoh donasi o'rmini baydaq – piyoda egallay olarmidi?! Bu so'zlarni Farhod Xoqonning toj taklifiga javoban aytadi.

3. Bu va keyingi o'n baytda Farhod uzrxohlik bilan: «Men hali yoshman, vazifa esa ulug'. Shu choqqacha barcha ishlardan g'ofil, yolg'iz aysh-ishrat bilan band edim. Endi shoh inoyat qilsa-yu, men biror kichik xizmatga jiddiyroq mashg'ul bo'lsam, uning rivoji va kasodini tushunib yetsam, xatolarim tuzatib turilsa, ma'lum tajriba orttirgach, har qanday hukm bo'lsa, bajonidil bajarsam», deydi.

## XIX

1. *Oyinai Iskandariy* – Iskandar oynasi. Afsonaga ko'ra, Iskandar tomonidan temirga sayqal berib yaratilgan oyna. Go'yo unda Jamshedning jomidagidek, shu asnoda bo'layotgan narsalarni ko'rsa bo'lar ekan. Badiiy adabiyotda Iskandarga bag'ishlangan asarlar juda ko'p.

Jumladan, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy va Navoiylarning maxsus dostonlari shular jumlasidandir. Ularda Iskandar diyonatli, qudratli hukmdor, ideal shoh timsoliga aylangan.

2. Badiiy adabiyotda «Iskandar oynasi» tushunchasi ko'p ishlatiladi. Bu bob sarlavhasida shoir Xoqonning Farhodni o'z xazinasiga olib kirgani, uning esa oltinu javohirlarga nazar solmay Iskandar oynasi bilan qiziqqani va oynada ajoyib narsalar ko'ringani haqida yozadi. Bu baytda Navoiy inson tafakkuriga yuksak baho beradi. Farhod tilidan aytilgan misralarda inson nimaniki bunyod etishga qodir bo'lsa, unga fikrlash zamirida erishadi, degan falsafiy tushuncha ifodalanadi.

3. *Aflotun* – Platon – asl nomi Aristokl (mil. av. 428/427. Afina – 348/347) – qadimgi yunon faylasufi, antik falsafadagi ilg'or oqimning asoschisi. 407-yillarda Sokrat (Suqrot) bilan tanishib, uning eng yaqin shogirdi bo'lib qolgan. Afinada mashhur faylasuflar maktabi – «Platon akademiyasi»ni yaratgan. Xamsanavis shoirlar Iskandar atrofidagi olim, mutafakkirlar orasida Aflotunga ayrim ayrim ajratganlar, uni donishmandlar rahbari sifatida ta'riflaganlar. Bu yerda Navoiy Iskandar oynasini har biri Aflotunga teng keladigan 400 nafar dono olimlar yaratgan, deydi.

4. Bayt mazmuni: Xoqonning hikmati bo'lgan bu ko'zguda ajib bir tilsim yashiringandir.

5. Bu va keyingi baytlarda ko'zguda yashiringan tilsimni ochish uchun uch manzilni o'tish lozim: birinchisida ajdaho, ikkinchisida Ahraman, uchinchisida yanada mushkulroq sir bor. Ularni yengib o'tilsa, to'rtinchi manzil keladi, unda tog' va ichida g'or bor. G'orda Suqrot yashaydi. Agar u tirik bo'lsa, barcha mushkullarni ochib beradi, agar olamdan o'tgan bo'lsa, uning ruhiga sig'inilsa, maqsad hosil bo'ladi, degan mazmun bayon etiladi.

6. *Buqrot* – Gippokrat (mil. av. 460–375) – mashhur yunon hakimi, ilmiy tibbiyotning asoschilaridan biri. Uning «Kitob al-fusun» («Aforizmlar») nomli kitobi juda mashhur. «Gippokrat qasamyodi» – shifokor burchi va xulq-atvorining qisqacha ta'rif shu olim qalamiga mansub, deb hisoblanadi. Bu yerda Navoiy Suqrot hakimni bilimdon, donishmandlikda zamonasining Buqroti desa bo'ladi, – deya ta'riflamoqda.

## XX

Bu bob sarlavhasida Farhodning Yunon mamlakatiga borishga azm etgani, Xoqon Mulkoro bilan kengashib, Farhodni olib Yunonga qo'shin tortmoqqa qaror qilgani bayon etiladi.

1. Baytning mazmuni: Bugun shoh (ya'ni Xoqon) zamonning eng aqlli kishisidir, uning porloq ko'ngli davlat mash'alidir.

2. *Dastur* – bu o'rinda «vazir» ma'nosida ishlatilgan.

3. Baytning mazmuni: qo'shin to'planadigan vaqtni va joyni tayin qilib, tavochi har tarafga bu haqda jar soldirdi.

## XXI

Bu sarlavhada Farhodning maqsadlariga yo'l topish uchun Xoqonning Yunonga qo'shin surgani va u yerda mamlakat donishmandlari bilan birgalikda Suhaylo hakim g'origa va barchalari Suqrot g'origa yetishganlarini ma'lum qiladi.

1. *Suhaylo* – bu ism Suhayl nomli yorug' yulduz nomidan olingan (ast. Konopus). O'rta asr munajjimlari bu yulduz yaxshi ta'sir ko'rsatadi, deb biladilar. Bu yerda Yunondagi mashhur donishmand hakimning nomi. U ham Suqrot kabi g'orda yashaydi.

2. *Jomosp* – qadimgi Eronning afsonaviy donishmandi va munajjimi. Uni Luqmonning shogirdi deb biladilar. Kelajak voqealaridan xabar qiluvchi «Jomospnoma» nomli kitobda shu donishmandga nisbat beradilar. Navoiy Suqrot g'origa ketayotganlarga Suhaylo «Jomosp»dan Farhodga yulduzi baland, degan xushxabar yetkazganini bayon qiladi.

3. Baytning mazmuni: maqsadim mamlakatlarni fath etish emas, balki tahlikali joylarni yengish edi.

4. Baytning mazmuni: abadiy saodat hamrohlik qilib, Atorid yoniga oy bilan quyosh keldilar. Bu yerda Navoiy istiora san'atini ishlatadi. U Suhaylo hakimni Atorid, Farhodni oy, Xoqonni esa quyosh, deb atamoqda.

5. Bu va keyingi baytlarda Suhaylo tilidan – Jomospning o'limidan keyin hakimlar uning aytganlarini yozib qoldirishlaridan menga ayonki, ming yildan so'ng Chindan Yunonga bir Farhod degan yigit keladi. U ancha qiyinchiliklardan so'ng Iskandar tilsimini ochadi. Ammo ungacha Farhod ajdarni o'ldirishi kerak, shunda bebaho xazina chiqadi. So'ngra devni (ya'ni Ahramanni) qatl etishi kerak, buni bajarganda Sulaymon payg'ambarning uzugini qo'lga kiritadi. Tilsimni ochganida Jamshid jomiga ega bo'ladi. Bularni Farhod Xoqonga bag'ishlasin, unga esa Suqrotni ko'rishi va Iskandar oynasi kifoyadir, – deydi.

6. *Sulaymon xotami* – Sulaymon – Qur'onda nomi zikr etilgan Sulaymon payg'ambar. Rivoyatlarga qaraganda, unga Xudoning muqaddas, yashirin va sirli ismi ma'lum bo'lgan va bu so'z (ismi a'zam) uning xotamiga – uzugiga naqshlangan – o'yib yozilgan ekan. Bu uzuk vositasida Sulaymon alayhissalom faqat odamlarga emas, balki hayvonlar, hasharotlar, insu jinslarga ham o'z hukmini o'tkaza olar ekan. Sharq adabiyotida uning Sabo diyori malikasi Bilqis bilan oshiq-ma'shuqligi hamda sehrli uzugi qalamga olinadi. Navoiy o'zining «Tarixi anbiyo va hukamo» asarida Sulaymon alayhissalom haqidagi rivoyatlarga keng o'rin ajratadi.

7. *Samandar* – mayda bir jonivor. Afsonalarga ko'ra, u olovda tug'ilib, olov ichida yashar emish. Bu yerda Suhaylo hakim Farhodga ajdar bilan olishuv paytida o't-olovdan saqlanish uchun bir idishda samandar yog'ini beradi. Undan badan va qo'llarga surkalsa, o't ta'sir qilmasligi bayon etilgan.

8. Bu va keyingi besh baytning mazmuni: tilsimni qanday ochish haqidagi barcha aziz chin so'zlar bir kumush taxta ustiga yozilgan bo'lib, u dev bo'yniga osig'lik turadi. Undagi tilsimdan Jamshid jomini topasan. Jom atrofidagi Iskandari Rumiy naqshlab ketgan yozuvlarni o'qisang, Suqrot hakim haqidagi ma'lumotlarni bilib olasan.

9. Baytning mazmuni: Unga (ya'ni Farhodga) bu xil ishlarni tushuntirgach, Suhaylo jonini Tangriga topshirdi.

## XXII

Sarlavhada Farhodning ajdaho vodiysiga borgani, uni tor-mor qilib, ajdaho g'oridan Afridun xazinasini topgani va barcha boylikni otasi va qo'shiniga sovg'a qilgani ma'lum bo'ladi.

1. Bu va keyingi bayt mazmuni: Qaraganda uning (ya'ni ajdahoning) ikki ko'zi xuddi neftning o'tli bulog'idek edi. Burun teshiklari vahshat tandiriga, balki neft mo'risiga o'xshardi. Shoir bu yerda mubolag'a san'atini qo'llab, ajdahoning dahshatli qiyofasini tasvirlamoqda.

2. Bu va keyingi bayt mazmuni: Farhod chaqqonlik bilan osmon kamalagidek yoyiga nayzadek o'tkir o'qni joyladi va ajdar og'ziga shunday otdiki, hatto gurdi anjum – yulduzlar pahlavoni Mirrix hayratlanib uning qo'lini o'pdi.

3. Bu va keyingi ikki bayt mazmuni: bu g'or osmon kabi yumaloq, agar uning markaz nuqtasini aniq topa olsang, u yerda qora tosh ko'milgan, toshning vazni ming botmondan og'irdir. Qiliching uchi bilan atrofini ochib, qo'llaring bilan uni o'rnidan qo'zg'at.

4. *Zulfiqor* – Hazrat Alining ikki damli, g'oyat keskir qilichi. Shoir bu yerda Farhodning ajdaho g'ori ichida topgan xazinasidagi bir qilichni Zulfiqorga o'xshatmoqda.

5. Bayt mazmuni: uning (ya'ni qilichning) yonida qubbasida falak quyoshidek porloq bo'lgan bir qalqon bor edi.

Keyingi baytlarda shoir qalqon qubbasida Sulaymon payg'ambar o'z uzugidagi kabi ismi a'zam o'ydirgani, qilichda ham bir ism yozilgan bo'lib, qilichning o'tkirligi o'shandan ekanligi va qilich gunohsizlarga zarba yetkazmasligi, yomonlarni, yovuzlarni esa ayovsiz ikkiga bo'lib tashlashi haqida fikr yuritadi.

### XXIII

Bu bob sarlavhasi Farhodning Ahraman nomli dev yashaydigan o'rmonga ot surgani va uni o'ldirib, Sulaymon uzugini qo'lga kiritganidan darak beradi.

1. *Rustam* – Firdavsiyning «Shohnoma»sidagi bosh qahramonlardan. U Zolning o'g'lidir. Rustamning dunyoga kelishi va unga ism qo'yilishi haqida Firdavsiy shunday hikoya qiladi: «Zolning xotini Rudoba og'ir homila ko'taradi. Oy-kuni yaqinlashganida dard boshlanishi bilan hushidan ketadi. Sarosimaga tushgan Zol afsonaviy qush Simurg' vositasida jarroh topib keladi. Jarroh onaning yonini kesib, bolani oladi. Hushiga kelgan Rudoba farzandini ko'rib xursand bo'ladi va oh tortib (ya'ni azobu dardlardan xalos bo'ldim ma'nosida) «Rustam!» – deydi. Onaning og'zidan birinchi chiqqan ana shu so'zni bolaga ism qilib qo'yadilar». O'zining bahodirligi, adolatparvarligi va to'g'riligi bilan Sharq adabiyotida an'anaviy obrazga hamda mardlik ramziga aylanib ketgan. Bu yerda Navoiy Farhodning Ahramanni o'ldirganini Rustamning Mozandaronda Arjang devni tor-mor qilganiga o'xshatmoqda.

2. *Mozandaron* – Erondagi tarixiy viloyat. IX–XII asrlar manbalarida Tabariston nomi bilan yuritilgan.

3. Baytning mazmuni: Rustamdek qasr tomon yurdi. Eshikda raxshini mahkam bog'ladi. Baytdagi raxsh so'zi Rustamning afsonaviy otining nomiga ishora bo'lib, bu yerda shoir istiora san'atidan istifoda etadi.

4. Bu baytda Navoiy Ahramanni o'ldirgach, uning qasriga kirib borishi, qasr ichida toza, hali inson bolasi ko'rmagan bir uyga yuzlanishi haqida yozib, g'oyat go'zal tashbih ishlatadi – uyning orasta, tozaligini ginasiz odamlarning ko'ngliga o'xshatadi.

Keyingi baytlarda Navoiy uyda Farhodning yoqutdan ishlangan qandil ko'rganini, uning ichiga yashirilgan Sulaymon uzugini topganini va qandilga: «Kimgaki bu uzuk muyassar bo'lsa, unda yozilgan ismni o'qiganida g'oyibdan ovoz kelib, Iskandar tilsimi sirlaridan xabardor etadi», – deb hikoya qiladi.

5. Bu baytda Navoiy tashbih san'atini ishlatib, qandil shu'lasini Mushtariyga, yorug'ini esa sham'i xovariy – Sharq sham'i, ya'ni quyoshga o'xshatadi.

6. Bu va keyingi baytning mazmuni: osmon Rustami quyosh qilichini ko'tardi va zamon Oq devining bo'yniga soldi. Uni mushkul holga solib, halok etdi, devning ohi faryodi esa jahonni qorong'i qildi. Shoir bu baytda: Xudo quyoshning nurlari bilan kunduzni tugatdi, g'ira-shira tushdi va hamma yoqni tunga cho'ktirdi, degan oddiy fikrni istiora san'ati vositasida juda obrazli qilib bildiradi.

### XXIV

Bu bob sarlavhasi Farhodniig Suqrot tog'i tilsimini ochishga otlangani, bir buloq boshida Xizr bilan uchrashgani va uning ta'limi natijasida dunyoni ko'rsatadigan jomni qo'lga kiritgani haqida ma'lumot beradi.

1. Bu va keyingi ikki baytning mazmuni: (Farhodning) qarshisida osmondek keng ko'kalamzor ko'rindi, uning o'rtasida quyosh yanglig' buloq obi hayot chiqarib turar, bu suvning har qatrası jondek (yoqimli) edi. Qirg'og'ida ko'k bilan teng bir daraxt bor edi. (Buloq) suvini tiriklik suvi, (daraxtni) Xizr payg'ambar desa bo'lar edi. Shoir bu yerda Xizrning obi hayvon – tiriklik suvi topgani haqidagi rivoyatga ishora qiladi.

2. Navoiy xalq kitoblari, sarguzasht adabiyot an'anasiga ko'ra, Xizr tilidan Farhodga tilsimni ochish uchun qayerga, qanday qilib necha ming qadam yo'l bosish, yo'lda nimalarni yengib o'tish lozimligini bayon etib kelib, bu baytdan boshlab temir jisimli paykar – haykalni tasvirlaydi. Navoiy yozadi: u odamga juda ham o'xshar, qo'lida o'tkir o'q tortilgan temir yoini ushlab turar edi. Boshidan oyoq sovutga o'ralgan bu temir odam ich-ichidan yonib turardi.

3. Bu va keyingi baytning mazmuni: eshik ochilgan zamoniyoq sado o'chdi (Farhod ko'rgan darvozasini ochish uchun Xizr o'rgatganidek, belgilangan bir toshni qattiq tepganida baland sado chiqqan edi), haligi sovutli haykal yoyiga o'q tortib chiqib kela boshladi, otolmasa chakovak qushi parlaridan halok bo'ladi. Bu qushning parlari ko'z ilg'amas nurlari kabi.

4. *Shid* – xurshed, quyosh, demakdir.

5. Bu va keyingi to'rt baytning mazmuni: (Farhod) eshik ochib, ichkariga qadam qo'ygan edi, uning toqida porlab turgan bir jom ko'rindi. Yorqinlikda quyoshdek, balki Jamshed jomidek edi. U go'yo jahon ichidagi quyoshdek porlab, jahonni o'zida aks ettirib turgan ko'zgu edi. Unda sirli hayot va dunyoning holati ravshan ko'rinib turardi. Tashqari tomonida yerning markazi, ichida esa to'qqiz falak aylanasi jilva etardi.

## XXV

Bu bob sarlavhasida Farhodning Xoqon va Mulgoro bilan birga Suqrot hakim bilan uchrashganlari va uni topishda jahonni ko'rsatuvchi jomidan foydalanganlari ma'lum qilinadi.

1. *«Koniyan minkon»* – arabcha: kon boyligi kondan, degan ma'noni bildiradi.

2. *Sayrafiy* – arabcha: «sarrof» so'zidan, zarshunos, qimmatbaho toshlarni baholovchi.

3. Bu va keyingi baytda, tongni Suqrotga, nur uning jamoliga, quyosh usturlobga, osmon qog'oz varag'iga o'xshatilib, shu bobning o'ziga muvofiq va boshqa boblardagidan tamoman farq qiladigan tong tasvirini beradi.

4. Bu va keyingi baytlarda Navoiy Suqrot yashaydigan joyning manzarasini beradi. U g'oyat quyug' bo'yoqlarda obrazli qilib juda baland mahobatli, o'rkachli tog', unda o'sib yotgan ulkan daraxtlar, tog' cho'qqilaridagi qorlaru uning bag'rida yurgan hayvonlar, chashmalaru g'orlar, daryolarni ta'riflaydi.

5. *Sidra* – yettinchi osmondagi muhtasham daraxt.

6. *Payg'ora* – g'or.

7. *Usturlob (astrolyabiya)* – Sharq astronomiyasida quyosh va yulduzlarning yuksakligini o'lchaydigan asbob. Bu yerda shoir Suqrot g'oridagi o'rgimchaklarni shu asbobga o'xshatmoqda.

8. Bu va keyingi baytlardan ma'lum bo'lishicha, Suqrot Xoqonga ikki javhar inoyat qiladi: biri – uning umri uzun bo'lishi, ko'p o'lkalarni fath etishi, behad boylıklarga ega bo'lishi haqidagi bashorat; ikkinchisi – bir muhra (soqqaga o'xshagan narsa) bo'lib, xastalik yuzlanganda og'izga olib aylantirgach, suvi yutilsa, dard chekinadi, kuch-quvvat paydo bo'ladi, odam yasharib ketadi.

9. Bu bayt mazmunida Suqrot Mulkoroga: «Oldingizda bir xatar bor, u anosirning (arabcha: to'rt unsur bo'lib, suv, o't, shamol va tuproq) ikkitasi – shamol va suv tufayli yuz beradi», deyiladi.



10. *Nuh* – juda uzoq umr ko'rgan payg'ambar, ba'zi manbalarda Odami Soniy (ya'ni ikkinchi Odam Ato) ham deyiladi. Rivoyatlarda keltirilishicha, Nuh davrida 40 kecha va 40 kunduz sel yog'adi va butun dunyoni tutib ketadi. Shunda u o'z yaqinlarini, tarafdorlarini va har hayvondan bir juftan kemaga solib oladi. Dunyo suvga g'arq bo'ladi, yolg'iz Nuh kemasi omon qoladi. Toshqin chekilganda Nuh kemasi Judiy tog'ining bir cho'qqisida qoladi. Shoir bu o'rinda Suqrot tilidan Farhodga qarata garchi hayoting Nuh umricha bo'lsa ham o'lim barhaq, deydi.

11. *Majoziy ishq* – zohiriy insoniy ishq.

12. *Haqiqiy ishq* – Xudoga bo'lgan muhabbat nazarda tutiladi.

13. Baytning mazmuni: Farhod undan ayrilib faryod chekdi, u esa Suhaylo kabi uzun yo'lga tushdi. Ya'ni Suqrot ham Suhaylodek hayotdan ko'z yumdi.

14. Bu misra ikki ma'noni anglatadi: birinchisi – quyoshdek porloq Suqrot dafn etildi; ikkinchisi – quyosh botdi, kun qaytdi.

15. *Luqmon* – ba'zi tarixiy manbalarda payg'ambarlar, ba'zilarida esa hakimlar sirasida keltiriladi. Rivoyatlarga qaraganda, rangi qora habash bo'lgan. U kimningdir quli bo'lib, ozod bo'lishi haqida bir qancha rivoyatlar bor ekan. Jumladan, Luqmonning xojasi – qo'y so'yib yaxshiroq a'zosini pishirib kel deb buyuribdi. Luqmon qo'yning yurak va tilini keltiribdi. Boshqa safar xojasi – qo'y so'yib yomonroq a'zosini pishirib kel, – debdi. Luqmon yana yurak va tilni keltiribdi. Xoja buning ma'nosini so'raganda, Luqmon debdi: «Ko'ngul noloyiq fe'l-atvordan, til keraksiz so'zlardan beri bo'lsa, ulardan yaxshiroq a'zo yo'qdir, agar bo'lmasa, ulardan yomonrog'i yo'qdir». Luqmon hikmatlaridan 4000 tasi yig'ilgan ekan. Shundan ikkitasini doim yodda saqlab, ikkitasini unutish kerak emish. Chunki avvalgi ikkisi – o'zi qilgan yaxshiliklar, keyingi ikkitasi boshqalar qilgan yomonliklar haqida emish.

Shoir bu yerda Luqmonning habashligiga ishora qilib, majoz yaratadi va tun qorong'iligi haqida fikr yuritadi.

## XXVI

Bu bobda Farhodning o'z mamlakatiga qaytgani va oynada Arman vodiysi va Shirin jamolini ko'rib hushidan ketgani bayon etiladi.

1. Bu baytda shoir ot ustidagi go'zal Shirin xatti-harakatini shatranj donalari (shaxmat) va ularning yurishlariga o'xshatib go'zal obraz yaratadi: U go'yo quyosh bilan shatranj o'ynayotgandek ruh va ot bilan yurib, uni – quyoshni har soatda yuz marta mot qilar edi.

2. *Bahrom* – dostonida vazir Mulkoroning o'g'li, Farhodning emikdoshi va yaqin sirdosh do'sti.

3. Bu va keyingi ikki bayt mazmuni: (qayta hushiga kelgan Farhod yana ko'zguga qarasa) uning yuzi avvalgidek qorong'i edi. Uni yasagan donishmand shunday tilsim ishlatgan ediki, ko'zguga qaragan odam qanday shakl ko'rsa, keyin boshqa ko'rinmas, tilsimi buzilib qolar edi.

4. Bu va keyingi bayt mazmuni: (Farhod) hamma narsani o'ylab ko'rgach, aql qonuni bilan ishga kirishmoqcha bo'ldi; lekin u bilmadiki, ishq bedodlik qilsa, yuzlab aql va bilimning qonun-qoidalari barbod bo'lib ketadi.

## XXVII

Bob sarlavhasida Farhodning ishq o'tini yashira olmaganini, rangi sarg'ayib ketganidan hakimlar dengiz sayohatini maslahat ko'rganlari bayon etiladi.

1. Baytning mazmuni: har qanday odam ko'rsa, ma'lum qilar ediki, bu xoro – toshni, o't – olov mum qilib yuboribdi. Shoir bu yerda istiora san'atini ishlatgan, «xoro» so'zidan Farhod ko'zda tutiladi.

2. Bu va keyingi bayt mazmuni: (Farhodga) shunday holatlar yuz bergan ekan (ya'ni uning rangi sarg'aygani, harorati ko'tarilgani va h. k.), ular dimog'ining yubsi'a – qurishiga sabab bo'lgan. Endi mizojini harorat va qurishlik zabt etibdimi, uning iloji dengiz (ya'ni teskari, zid – dimog'ni yumshatish, haroratni tushirish) – muolajadir.

3. Shar'iy – uzunlik o'lchovi, bir shar'iy – 2–3 km.

4. Bu va keyingi bayt mazmuni: (Farhod dengiz sayohati taklifini eshitgach) dengizdek qalbi jo'shib ketdi, og'zi kema og'zidek ochildi, lekin so'zsiz edi. Xayoli dengiz mavjlariga zanjirdek ulanib, ularga yana yuz ming xayollar ulandi.

### XXVIII

Bu bob sarlavhasida Xoqon va Farhodning katta kemaga tushib, dengizda suzishlari, qattiq shamol ko'tarilib kemani cho'ktirib yuborgani, Xoqon va Mulkoroni to'lqinlar Chinga tashlagani, Farhodning esa dengizda bir taxta ustida qolib ketgani bayon etiladi.

1. «*Va izar-bihoru fujjirat*» – Dengizlar (tandir kabi) qizitilganida (va suv o'rniga olov bilan to'lganida); («Takvir» surasi, 6-oyat).

2. «*Va izar-jibolu suyyirat*» – Tog'lar ham (o'z joylaridan jildirilib), sayr qildirilganida; («Takvir» surasi, 3-oyat).

3. Baytning mazmuni: (Kemalarning) uchi osmondagi Hut (baliq) va Savr (ho'kiz) sanchigudek, tubi ham yer ostidagi ho'kiz va baliq'ni yanchigudek edi. Shoir bu erda ilmi nujumga ko'ra Hut (Baliq) va Savr (Ho'kiz) deb ataluvchi quyosh burjlariga hamda qadimgi diniy e'tiqodga binoan yer go'yo katta ho'kizning, ho'kiz esa baliqning ustida turadi, degan aqidaga ishora qilmoqda. Kemaning uchi va tubini baland va chuqurligini bu xilda ta'riflash she'riyatidagi «g'uluv» san'atiga yaqqol misoldir.

4. *Jirmi xok* – yer kurrasi. Shoir dengizdagi kemalar va odamlarning qorasi yer kurrasidek tuyilardi, deydi.

5. *Dalv* – ilmi nujumda o'n ikki burjdan o'n birinchisi. Bu yerda shoir dengizdagi baliqlarning suv ichishini osmondagi Hutning falak burjidan suv ichganiga o'xshatadi.

6. Baytning mazmuni: suvning mavji go'yo simdan to'qilgan sovutu, uni (baliq) omburdek og'zida tutib ketayotgandek edi.

7. Baytning mazmuni: qorong'ilik tushdi, dengizning ham dahshatli to'lqinlari mayda mavjlarga aylandi. Shoir bu oddiy fikrni shunday o'xshatishlarda beradi: Tun qora po'stini (kish) ostida oq rangli mayin mo'yna po'stin kiygan (qoqum) kunni yashirganida, dolg'alar (talotum)ni dengiz silovsin (sinjob), (ya'ni mayin mo'yi o'siq olmaxon) qildi qo'ydi. Baytdagi «kish», «qoqum», «sinjob» so'zlari «istiora» san'atiga binoan «qora po'stin», «oq mo'yna po'stin», «mayin» («mayda») so'zlari o'rnida ishlatilgan.

8. Shoir bu ikki misrada «mohiyat» va «kamohi» so'zlarida so'z o'yini qilgan. Mohiyat arabchada «haqiqat» ma'nosida kelganidek, tojikcha baliq ma'nosida bo'lgan «mohi» so'ziga nisbat berilganda, «baliqlig'i» ma'nosini ifoda qiladi, shuningdek: «kamohi» so'zi arabchada «o'zicha» va «tagi tubigacha» bo'lganiday, arabcha o'xshatish harfi «k» bilan tojikcha baliq ma'nosida bo'lgan «mohi»dan qo'shma so'z qilib olganda ham «baliqday» degan ma'noni beradi. Shoir mana shu ikki so'zni shu ikkala ma'noda ishlatgan va har ikkala ma'noda she'ning mazmuni to'la chiqqan».

9. Shoir bu misrada Suqrotning yel va suv xatari haqida aytganlariga ishora qilmoqda.

### XXIX

Bobda Farhodning taxta ustida Yaman mamlakati tomon suzib borib, savdogarlar kemasidagilarni xalos qilgani, kema qaroqchilar hujumiga uchrangani, Farhod ularni yenggani va Shopur bilan do'stlashgani bayon etiladi.

1. *Yaman* — Arabiston yarim orolining janubidagi mamlakat.

2. *Shopur* — Nizomiyda bu obraz Xusravning qissaxoni, Shirin bilan Xusrav munosabatlarida vositachi, ko'makchi sifatida talqin qilingan. Xusrav Dehlaviyda ham Shopur Xusrav bilan birga yuruvchi, unga turli ajoyib-g'aroyibotlar hikoya qilib yupatib yuruvchi shaxs. Xusravga Shirinning rasmini ko'rsatib, Armaniya o'lkasiga birga ketgan ham Shopurdir. Navoiyda esa Shopur Farhod bilan tasodifan uchrashib sodiq do'stiga aylanib qolgan, mohir naqqosh va insonparvar shaxs sifatida talqin etiladi.

3. *Toyif* — Hijozdagi shahar nomi.

4. *Qorurai naft* — neft solingan shisha idish.

5. *Furza* — arabcha: ko'rfaz, qo'ltiq.

6. Yaman o'zining tabiiy boyligi aqiq (qimmatbaho qizg'ish tosh, haqiq ham deyiladi) bilan mashhur bo'lgan. Shoir bu baytda Yamanda dengiz qaroqchilaridan qutulganlari sharafiga savdogarlar uyushtirgan bazmda shu qadar toza may (mayi nob)lar tortildiki, Yamanda hatto aqiqlar ham bunchalik serob emas, demochi bo'ladi.

7. *Na'li bozguna* — maqol tarzidagi ibora bo'lib, aynan: na'l (taqa shaklidagi tamg'a)ni teskari qoqmoq; maj. chalg'itish, alahsitish, demakdir. Shoir el qatori o'z kori holi bilan mashg'ul yurgan Farhodning ishini taqdir teskarilab, chappalashtirib yubordi, deydi.

### XXX

Bu bob sarlavhasi Farhodning Shopur rahnamoligida Yamandan Arman mamlakatiga jo'nangani, Armaniyada tog' qaziyotganlarning og'ir mehnatini ko'rib, ularga ko'maklashib ishga tushib ketgani va bu haqda Mihinbonu va Shiringa xabar yetgani haqida darak beriladi.

1. Bu va avvalgi bayt mazmuni: lekin tosh shu qadar qattiq ediki, yuz marta tesha urilsa ham foydasiz, bir no'xatchalik, no'xat u yoqda tursin, ko'knori urug'ichalik ham tosh uchmas, kesilmas edi.

2. *Qori* — uzunlik o'lchovi, quloch.

3. *Ruhul-amin* — arabcha: ishonch ruhi. Jabroil farishtaning sifati. Shoir bu yerda tog' qazuvchilarning Farhodga unda oliy sifatlar ko'rib murojaat qilishlarini ta'riflaydi. Bu va keyingi baytda shoir qator sifatlash san'atini ishlatadi: (she'r ilmidagi bu «sifatchini» deb ataladi) ruh ul-amindek pok gavhar, malak, oliy guhar va h. k.

4. *Hisn* — qadimgi yahudiylar yashagan Madinaga yaqin qishloqning nomi. Bu so'z asosan panohgoh qo'rg'on, istehkom, qal'a ma'nosida ishlatiladi. Shoir bu yerda Mihinbonu saroyini ko'zda tutmoqda.

5. Ba'zi tadqiqotchilar Mihinbonu Shirinning ammasi, deb yozadilar. Bu baytda u Shiringa xola (*xoharzoda* — opa yoki singilning farzandi) ekanligi aniq aytiladi.

6. *Ayn ul-hayot* — ayn. hayot bulog'i. Bu yerda shoir ta'rificha, Shirin kelib, ko'ngil ochib ketadigan buloqning nomi.

7. *Yig'och* — yog'och, bu yerda uzunlik o'lchovi ma'nosida bo'lib, bir yig'och — taxminan sakkiz km dan ortiqroq.

8. Baytning mazmuni: mashaqqat zo'rligidan yigitlarni ko'rganlar chol (qori-qari), deydi, lekin qazilgan yer esa ikki-uch yuz quloch (qori) keladi. Shoir bu yerda «tajnis» san'atidan istifoda etadi.

9. Baytning keyingi misrasida shoir foydasiz va imkonsiz ish uchun urinishning behudaligi haqida so'z yuritadi. U «Ohani sard kuftan» (sovuq temirni o'yish) degan xalq maqolidan foydalanib, «irsoli masal» san'atini ishlatadi.

10. Baytning mazmuni: temirchidan dam bilan ko'ra oldi, beliga charm partug' (tanura) bog'ladi.

11. Bu va avvalgi bayt mazmuni: tog' kamarini qazish uchun kerak bo'lgan bir necha gurzi va bir necha asbob charxlaydigan tosh (sunboda) tayyorladi. Ularning barchasiga Qorandan yashirincha o'rganib olganidek, yaxshilab suv berdi.

12. Baytning mazmuni: u qo'lining zarbi bilan tasha urganda, ovozi (farrasti) o'n yog'och masofaga yetar edi. Shoir bu yerda «g'uluv» san'atini qo'llagan.

13. Bu va keyingi bayt mazmuni: tog' qazuvchilar ham, bu ishlarni boshqaruvchilar (korfarmoy) ham Mihinbonu qoshiga borib, ko'rmagan odamning bu ishlarga aqli inonmaydi, deya xabar qilmoqchi bo'ldilar.

### XXXI

Bob sarlavhasida Farhodning tog'ni pora-pora qilayotgan teshasi ovozini eshitgan Shirinning uning qoshiga kelishi, Farhod Shirinni ko'rishi bilan hushidan ketgani, Shopurning bundan behad kuyib-yongani va Farhodni saroyga olib ketishgani bayon etiladi.

1. *Havvo* – insoniyatning onasi – Momo Havo. Shoir bu yerda Mihinbonuni Havoga o'xshatadi. Uning Shirin xonasiga kelishini Momo Havoning jannatda makon tutganiga nisbat beradi.

2. *Janibat* – podshohlar biror yerga dabdaba bilan chiqqanda ehtiyot uchun birga olib yuriladigan ot. Bu yerda shoir unuman ot surishni, otda borishlikni ko'zda tutmoqda.

3. Baytning mazmuni: arig'ni qazish uchun yuz ganj sarflagan edim, suvi kelmasdan burun qo'l yuvib edim. Shoir bu yerda «istiora» san'atini ishlatib, «qo'l yuvmoq»ni «voz kechmoq», «qo'l tortmoq» ma'nosida keltiradi. Ayni choqda shoir suvi yo'q ariqdan qo'l yuvish tushunchasi bilan esa «mumtane» san'atini vujudga keltiradi.

4. Bu baytda shoir Shirinni – parivash, uning otini devpaykar – dev gavdali deb ta'riflaydi. Bu ot unga Shirin mingach, parikash – parini olib boruvchi bo'ldi, deydi. Natijada baytning ikki misrasida shoir «talozum» san'atini yaratadi.

5. *Gulgun* – Shirin otining nomi. Bu baytda shoir «ot» so'zini ikki ma'noda (nom va ot) ishlatib, «ihom» san'atini qo'llaydi. Ot so'zining har ikkala ma'nosi ham bayt mazmunini yaxshi ochishga xizmat qiladi.

6. Bu bayt mazmuni: jahon bog'ida uningdek (ya'ni Gulgundek) tez yurar ot yo'q edi. U gulbargini eltuvchi sabodek elar edi. Shoir bu erda Shirinni gulbargga, otini esa saboga o'xshatib, «tashbih» san'atining ajoyib namunasini yaratadi.

7. *Xing* – bo'z ot. Xingi bodpoy – yeldek tezyurar ot. Shoir Shirinning oti Gulgunni nazarda tutmoqda.

8. Shu yerdan boshlab, 44 baytda Navoiy Shirinning go'zalligini ta'riflaydi. Bunda shoir turli badiiy vositalardan g'oyat keng foydalanadi. Bu she'riy parcha shoirning suvrat yaratish mahoratiga yorqin dalildir.

9. *Tung* – idish ma'nosini bildiradi. Bu yerda shoir Sharqda mashhur bo'lgan Hindiston novvoti solingan shakkar idish, deb Shirinning og'zini ta'riflamoqda.

10. *Zod* — ozod soʻzining qisqartirilgani. Shoir bu yerda Farhodni taʼriflab, uni bu barno yigitgina emas, taqdir xazon boʻlish alamini ravo koʻrgan boʻstonidagi ozod sarvdir, deydi.

### XXXII

Bu sarlavhada Farhod hushiga kelgach, toqqa chiqib ariq qazish ishlarini davom ettirgani, Shirin koʻnglida Farhodga nisbatan ishq paydo boʻlgani ifodalanadi.

1. Baytning mazmuni: Farosat bilan Farhod bildikim, dil bezatuvchi (yaʼni, Shirin)ning mehri uning holiga qarab ish tutibdi.

2. Bu va keyingi toʻrt baytning mazmuni: (Farhod) toshga metin urganida falak toqiga qiyomat solgandek boʻlardi. Uning yoniq nafasi va metini koʻtargan gard zangori osmonni koʻzdan yashirib yuborardi. Gard va dudgina emas, balki dard va anduhning qora buluti togʻ-togʻ boʻlib Arman atrofini tutib ketgan edi. Uni qora bulut ham demay, bahor buluti deb, yogʻin bilan koʻtarilgan doʻl tosh boʻroni desak ham boʻladi. Toshga urilayotgan metinning yaltirashi bamisoli chaqmoq edi. Shoir Farhodning togʻda arigʻ qazish mehnati tasvirini tashbih va mubolagʻa sanʼatlari vositasida beradi.

3. *Xorokan* — tosh yoʻnuvchi — bu yerda Farhod koʻzda tutiladi.

4. *Kamingoh* — xilvat joy; bayt mazmunicha, Shirin bir xilvat joy topib Farhodni yashirincha koʻrgisi keladi.

### XXXIII

Bu bob sarlavhasida Farhodning ariq qazib, qasr bunyod etgani, «Bahr un-najot» hovuzini kovlab, atrofida bogʻ barpo qilgani va bularni koʻrgani Mihinbonu va Shirinlar kelgani bayon etiladi.

1. «*Bahr un-najot*» — aynan: najot dengizi. Shirin uchun Farhod qazigan katta hovuzning nomi.

2. *Sarv gulandom* — aynan: gul yuzli sarv. Shirin koʻzda tutiladi.

3. Bu va avvalgi bir baytning mazmuni: muhandislik qilib u avval ariqning ikki yoniga ikki chiziq tortdi, uni qirgʻoqdan qirgʻoqqa uch quloch, chuqurligini esa ikki quloch qilib rejaladi.

4. Baytning mazmuni: (Farhod) arigʻni gʻadir-budir joylarini tekislashda teshasining tosh-taroshlash sanʼatini namoyish qilardi.

5. Baytning mazmuni: Farhod ikki tomondan toshlarni bir-biriga ulab, uning farshini (yotqizilishini) dandonaga oʻxshatib, kungurali terib borar edi.

6. Bu va avvalgi ikki baytning mazmuni: lekin (Farhod) toliqish va horiqishga berilmay, toshni taxta-taxta qilib tekis yoʻnib, haligi reja tortilgan chiziqdan, qoidadan chiqmay (ishlar edi), u yoʻnilgan toshlarni ildam olar, taxta-taxta qilib tayyorlanganlarini toʻshab, mahkamlab borar edi.

7. Bu va avvalgi bayt mazmuni: Farhodning toshni maydalaydigan metinidan sachragan toshlar oygacha yetardi. Bu uchar toshlardan oy atrofidagi gardishi qalqondek boʻlgan edi.

8. Baytning mazmuni: ariq oʻtkazish ishiga kirishgan (Farhod) yuz Bobil sehrini namoyish etdi. Bu yerda shoir Bobil — Yupiter sayyorasi nomidan ihom sanʼati vositasida uning boshqa maʼnosiga ishora qilib, kuchli, zoʻr va nihoyatda chaqqonlik degan mazmunda ishlatadi.

9. Baytning mazmuni: tinmay tosh kesib, bir hovuz ham bunyod qildi, uning kenglik oʻlchovi har tomondan 60 qulochdan edi.

10. Bu va avvalgi bir baytning mazmuni: bu ishlarda unga Shopur yordam berar, uning mohir qalami har bir (rasmga) oroyish berar edi. Bu odamning rasmini chizsa, u pardoz berar, bu jonivorni tasvir qilsa, u parqanotlar yasar edi.

11. *Chin suratxonasi* — mashhur afsonaviy rassom va naqqosh Moniyning «Arjang» nomli san'atkorona bezatilgan qasri, koshonasi (ba'zi manbalarda uni kitob ham deyiladi) ko'zda tutiladi.

#### XXXIV

Bu bob sarlavhasida «Bahr un-najot» hovuziga suv ochilgani, bu voqeani olqishlagan xalqning quvonchli shovqin-suroni. Shirinning oti yurmay qolganida Farhod ularni ko'tarib ariq va hovuz tepasiga eltgani hikoya qilinadi.

1. *Bonu* — Mihinbonu ko'zda tutiladi. Ko'pincha Navoiy Mihinbonuni shunday ataydi.

2. *Xorokani po'ldobzu* — po'lat bilakli tog' qazuvchi. Shoir Farhodni nazarda tutmoqda.

3. *Xoroko'b* — tog' qo'poruvchi. Farhod ko'zda tutiladi.

4. Bu va keyingi uch baytda shoir ariq ochilishini ko'rgani Shirin ot ustida terlab-pishib yelib kelayotganini ta'riflab deydi: Shirin yuzidagi xol gulbarg ustiga qo'ngan zog'ga o'xshar, terlar esa bog'ni suv bosgandek edi. Uni shunchaki suv emas, na Xizrga, na Iskandarga nasib etmagan tiriklik suvi desa bo'ladi. Latiflikda terlar gul ustidagi shabnam kabi dona-dona bo'lib, sunbul ustiga har nafas ulardan yuztasi to'kilib turar edi. Sochiniy qorong'iligida yuz ming Iskandar tutun ichida qolgan samandardek ko'zga ilinmas edi.

5. Baytdagi pari paykardan maqsad Shirin, devona esa, Farhod bo'lib, biri maqtovdan bo'lak so'z topa olmaydi, ikkinchisi metin urib suv ochishlikka tutinadi.

6. Bu va keyingi baytda shoir istiora san'atini ishlatib, Shirin mingan otni nasim yel deb, uning suvoriysi — Shirinni kumush deb ta'riflaydi.

7. Shoir bu baytda ham istiora san'atini qo'llaydi. Farhod Shirinning otini bodpo — yelqadam, o'zini dilrabo deb ataydi. Farhodning ularni yelkasiga ko'tarib, qasr va hovuz yoniga eltib qo'yganini bayon etadi.

#### XXXV

Bu bob sarlavhasi Mihinbonu va Shirinning Farhod sharafiga ziyofat bazmi tuzganlari, o'nta har sohada iqtidorli bo'lgan kanizak qizlarning xizmatda bo'lgani, Shirin qo'lidan may ichgan Farhodning ishq tug'yonidan hushdan ketishi bayon etiladi.

1. *Advor* — musiqa ilmining bir sohasi: musiqa nazariyasi; Sharq musiqasining eski nota usuli.

2. *Mantiq* — mantiq ilmi, logika.

3. *Hay'at* — Sharqda astronomiya fani.

4. *Haqoyiq* («haqiqat» so'zining ko'pligi) ilmi — mavjudot haqiqatlari haqidagi ilm.

5. *Balog'at* — adabiyot nazariyasiga oid bo'lib, badiiy so'z san'atini, shoirlik mahorati sirlarini o'rganuvchi ilm.

6. *Hikmat* — falsafa fani, ba'zi tadqiqotchilar fizika va tabiiyot ilmi deb ham hisoblaydilar.

7. *Muammo* — arabcha: berkitilgan, yashiringan; Sharq she'riyatida janr turlaridan biri.

Muammo misra, bir yoki ikki baytdan iborat bo'lib, unda biror so'z, ko'pincha atog'li ot yashiringan yoki shunga ishora qilingan bo'ladi. Uni maxsus qoidaga asosan ramz, imo, ishora, kinoya, o'xshatish, ba'zi so'zlarni boshqa tildagi sinonimini tanlash, teskari aylantirish yoki «abjad» hisobi va h. k. yo'llar bilan topib olish, yechish kerak. Muammo aytish va uni yechishga bag'ishlab maxsus risolalar ham bitilgan. Ayniqsa, XV asrda — Navoiy davrida muammo keng tarqalgan. Bu haqda, jumladan, Jomiy uchta, Navoiy bitta risola yozgan.

8. Muammoda ot chiqarmoq – shoir «ot chiqorib» iborasini ikki ma'noda ishlatadi. Biri – mashhur bo'lmoq, dong taratmoq; ikkinchisi – muammoda yashiringan nomni chiqarish, muammoni yechish.

9. Baytning mazmuni: bu fanlardan ularning har biri boshqasidan maqtoqli, shu fanning yuzlab ustasidan bularning bittasi mohirroq edi. Navoiy bu va yuqoridagi besh baytda o'z zamonasida ravnaq topgan fanlardan o'ntasida Mihinbonu saroyidagi o'n kanizak dong taratganini madh etadi. Bundan anglashiladiki, shoir yaratgan har jihatdan mukammal Mihinbonu, Shirin, Layli, Dilorom kabi ayollar obrazlari qatorida fanda e'tibor qozongan komila va fozila bo'lgan Shirinning o'nta nadimasi borligi davr adabiyotida ham katta yangilik edi.

10. Shoir bu baytda Mihinbonuning yana bir yuksak fazilatini ta'riflaydi: u ilmparvar, ilm ahliga boshchilik qilar edi. So'z asnosida Navoiy Mihinbonu donolik bilan Farhodning olimalar bilan suhbatiga, o'zini tutishiga razm solib, uning oddiy toshyo'nar yigit emasligini, balki bilim va zakovat egasi bo'lgan olijanob shaxs ekanligini anglab olganini ta'kidlaydi.

11. Bu baytda shoir Farhodning so'z boshlagani, u faqat so'z gavharlarini sochdigina emas, balki ko'zlaridan ham gavharlar sochdi deb yozar ekan, istiora san'atini qo'llaydi, gavhar sochilishini ko'z yoshlari o'rnida ishlatadi.

12. *Sumanbar* – oqbadan go'zal; bu yerda Shirin ko'zda tutiladi.

13. *To'rt burqa' ostidin mehr* – aynan: to'rt osmon ostidan quyosh (chiqishi). Bu yerda Shirin to'rt qavat parda ostidan chiqib kelishi quyoshchiqishiga o'xshatilgan. Qadimgi astrologiyada ta'kidlanishicha, quyosh to'rtinchi osmonda turar emish.

14. *Yetti xirgoh* – yetti osmon ma'nosida ishlatilgan. Shoir Shiringa ko'zi tushgan Farhod shunday bir oh torttiki, yetti osmon uning dudidan qorayib ketdi der ekan, mubolag'a san'atining ig'roq turidan istifoda qiladi.

15. *La'lig'a olib la'li ahmar* – bu misradagi birinchi «la'li» – lab, ikkinchisi – qizil may ma'nosida ishlatilgan.

### XXXVI

Bu bob sarlavhasida Farhod va Shirin visol mayidan behol bo'lganliklarini ko'rgan hasadchi davron ularning xursandlik qadahlariga hijron zahrini qo'shgani – Xusrav Parvez Shiringa sovcilar yuborgani bayon etiladi.

1. *Madoyin* – arabcha «Madina» (shahar) so'zining ko'pligi. Arab Iroqidagi Firod daryosi bo'yidagi qadimgi shahar.

2. *Kisro* – sasoniylar tabaqasidan bir podshohning nomi. Bu yerda shoir Xusravni uning nabirasi, deb ta'riflamoqda.

3. *Hurmuz* – Xusrav Parvezning otasi.

4. *Parvez* – lug'aviy ma'nosi: muzaffar, baxtiyor; Xusravning laqabi.

5. Bu baytda shoir Xusravning yuqoridagi baytlarda ifodalangan asosiy muddaosi – yana bir uylanib toju taxtiga yarashikli, boshqa vorislardan afzalroq farzand ko'rish niyatini tasdiqlash uchun irsoli masal san'atini qo'llaydi. «Urug'ni yaxshi yerga sochish kerak» degan hikmatli so'z orqali maqsad ochib beriladi.

6. *To'biy, tubo* – jannatda o'sadigan go'zal daraxt. Unda hamisha xushbo'y va xilma-xil mevalar pishib turar ekan. Bu yerda kelishgan qomat ko'zda tutiladi.

7. *Kavsar* – jannatdagi serob va suvi mazali chashma.

8. Baytning mazmuni: xalq orasida bu xil yoqimli gap-so'z yoyilgach, ular Xusrav qulog'iga ham yetib keldi. Shoir bu yerda Farhod va Shirin orasidagi oshiq-ma'shuqlik haqidagi gaplarni nazarda tutmoqda.

9. Baytning mazmuni: lekin (Xusrav) sovcilarga nimalar ma'lumligini, ular qanday xabar keltirishini bilmas edi.

10. Bu baytdagi «gulsiton» Arman mamlakatini, «sarvi siymbar» Shirinni anglatadi. Shoir bu o'rinda ham istiora san'atini qo'llaydi.

11. Bu baytdagi «rasuli kordon» aynan: «ishbilarmon elchi» ma'nosini anglatadi. Shoir Xusrav Parvezning vaziri Buzurg Ummidni shunday deb atamoqda. Unga Armanga borib, Xusrav maqsadidan Mihinbonuni ogoh etish hukm qilinadi.

### XXXVII

Bu bob sarlavhasida Xusrav elchisi Mihinbonuni maqsadda voqif etgani, bunga Mehinbonu har xil bahonalar bilan javob qilgani va elchi keltirgan xabardan Xusravning g'azabi bayon etiladi.

Shoir sarlavhada talmeh san'ati asosida Sharq afsonalaridagi Bilqis, Sulaymon obrazlari orqali hamda tashhis san'ati vositasida Anqo, tovus obrazlari bilan Xusrav, Mehinbonu, Shiringa aloqador fikrlarni ifoda qiladi.

1. *Anqo* – afsonaviy qush, balki qushlarning podshohi. Go'yo u Qof tog'ida yashar emish.

2. *Homili roz* – aynan: sir tashuvchi; bu yerda Xusravning elchisi (sovchi) ko'zda tutiladi.

3. *Bor* – darbor, saroy; bu yerda qabul ma'nosida ishlatilgan.

4. Baytning mazmuni: agar (Mehinbonu sovcilarga) ibo bilan boshqacha muomala qilay desa, yirtqich sher jayronga zulm qilishi mumkin. Shoir bu yerda istiora san'ati vositasida Xusravni g'azanfar – yirtqich sher, Shirinni – jayron deb atamoqda.

5. Baytning mazmuni: olovga nozik ipak mato yaqin tura olmaganidek, (temirchi) sandoni yuz mingta bo'lsa ham shishani sindirib yuboradi. Bu o'rinda shoir Mihinbonudan rad javobi olgudek bo'lsa, Xusravning har qanday yirtqichlik qilishdan toymasligini ta'kidlamoqda.

6. Bu baytda ifodalangan Shirinning sovcilarga javobi Navoiy dostoni bo'yicha bosh xat bo'lib o'tuvchi insoniylik, insonparvarlik g'oyasining aniq va ravshan dalilidir.

7. Bu baytda shoir Shirinni Mihinbonu tilidan ta'riflab, uni odam naslining parisi, mushtariydek sayyoralarini ko'p bo'lgan quyosh deb ataydi. Baytdagi «mushtariy» ikki ma'noda ishlatilgan. Biri – sayyoraning nomi (forscha uni «Birjis» ham deydilar); ikkinchisi – xaridor ma'nosidir.

8. Bu baytning ikkinchi misrasi orqali Navoiy irsoli masal san'atini qo'llab, ishq-muhabbat bilan podshohlik boshqa-boshqa tushuncha, degan g'oyani ifoda qiladi. Ayni choqda, uning zimnida shu mavzuda dostonlar yaratgan o'z salafilariga o'tkir kinoya ham yotadi. Chunki ular Xusravni Shirinning haqiqiy oshig'i va shavkatli shoh sifatida talqin qilganlar. Bu o'rinda yana shoirning doston avvalidagi «Bo'lub Shiringa oshiq podshohvar» (ya'ni Shiringa podshohcha oshiq bo'ldi) degan istehzoli misrani eslash joizdir.

9. Bu bayt mazmuniga singdirilgan fikrda Navoiyning umuman saltanatga, johil saltanat egalarga bo'lgan ochiq nafrati o'z aksini topgan.

### XXXVIII

Bu bob sarlavhasida Xusravning Shirin tomonidan kelgan javoblardan achchig'lanib, Armaniyaga qo'shin tortgani, Farhodni qoya ustida ko'rib, uni tutmoqchi bo'lgani, Farhod so'zlaridan Xusrav qalbiga tig' sanchilgani bayon etiladi.

1. Bu bayt mazmuni: yuz mingdan ortiq qo'y-qo'zi hamaldagicha, qoramollar esa savr kabi poda-poda edi. Shoir bu yerda Mihinbonu o'z qo'rg'onida qamal paytidagi ehtiyoj uchun



qo'y va mollar saqlagani haqida yozib, qo'ylar sonini hamal — qadimgi nujum fanicha o'n ikki burjdan o'n birinchisi (u qo'y shaklida tasavvur qilinadi)dagi yulduzlar miqdoriga, qoramollarni esa savr — o'n ikki burjning ikkinchisi (o'y — ho'kiz shaklida faraz qilinadi)ga nisbat beriladi. Shoir bu yerda g'oyat ustalik bilan tashbeh san'atini qo'llaydi.

2. Bu baytdagi birinchi «tosh» so'zi «tashqari», ikkinchisi «tosh» ma'nosida ishlatilgan.

3. Ikkinchi misradagi «yer uzra osmon» iborasi Mihinbonuning qal'asini anglatadi.

4. Baytning mazmuni: Parvez Farhodga ko'z tashlashi bilan ko'ksiga dashnai tez — o'tkir tig'li xanjar tekkandek bo'ldi.

5. Baytning mazmuni: lekin olamaro sabotsiz odamlar meni benomu nishonga chiqarib qo'yganlar. Bu yerda so'z Xusrav olami Farhoddan otini so'raganda qilgan javobi ustida ketmoqda.

6. Va keyingi baytning mazmuni: boshingdan (bir tosh bilan) mili xudingni — urushda kiyiladigan qalpoqning uzayib chiqqan uchini uchirib yuboraman, bunisi bilan esa senga salom yo'llayman; yana bir tosh bilan esa bayrog'ing boshidagi yarim oyni nishonga olaman. Bu so'zlarni Farhod Xusravga qarata aytadi.

7. Baytdagi «navo» so'zi bahra, huzur-halovat ma'nosida ishlatilgan.

### XXXIX

Bob sarlavhasida Xusrav vaziri Buzurg Ummid bilan maslahatlashgani va Mihinbonuga noma yuborgani, uning qat'iy javoblaridan ojiz qolgan Xusrav Armaniya qo'rg'onini qamal qilgani bayon etiladi.

1. Bu baytda shoir irsoli masal san'atiga murojaat qiladi. Xusravning Farhoddan ustunligini dalillash maqsadida «it hurar — karvon o'tar» maqolini ishlatadi.

2. Bu baytda ham Navoiy irsoli masal san'atini qo'llab, «afsun birla ilonni indan chiqarish mumkin» maqolini ishlatadi. Xusravning Farhodni afsun — sehr, avrash bilan band etishlikka jazm qilinganligiga ishora qilinadi.

3. Bu va avvalgi ikki bayt mazmuni: uning zotida Haq shunday yashiringanki, uning o'zligidan nishona qolmagan. Kim bunday narsa (ya'ni ishq) ichida o'zini ko'rsa, har tomondan Haqning zuhurini ko'radi. Shuning uchun ham zohir bo'lgan narsanigina emas, go'zal deb maqtalgan (kimsa)ni qattiq sevib qolgan bo'lsa ajab emas. So'z Mehinbonuning Farhodni ta'riflab, Xusravga bergan javobi ustida ketmoqda.

4. Baytning mazmuni: nogoh qamishzorga o't tushsa, «ho'l-quruq (barobar) kul bo'ladi». Bu erda ham shoir irsoli masal san'atidan foydalanadi.

5. Misradagi: sur savtining safiri — aynan; surnay (yoki karnay) ovozi ma'nosini anglatadi. Maj: diniy tushunchaga ko'ra, qiyomat kuni Isrofil degan farishta sur chalib, o'liklarni tiriltirar, yana bir chalganda qaytadan o'ldirar ekan. Shoir bu erda talmech san'atini ustalik bilan qo'llaydi.

### XL

Bob sarlavhasida Xusravning Mihinbonu qo'rg'onini qamal qilgani, uning lashkarlari Farhod irg'itgan toshlarga bardosh bera olmaganlari, bir hiylagar ko'magida Farhodni band etib, Xusrav huzuriga olib kelganlari xabar qilinadi.

1. *Telba qush* — Farhod ko'zda tutiladi.

2. *Ishq bulbuli* — Farhod.

3. Bu va avvalgi bayt mazmuni: qo'rg'on ahli tunu kun hamma narsadan voqif, kunduzlari ovoz chiqarmas edilar. Lekin kechasi esa «hozir bo'l» (ehtiyot bo'l) deya fig'on bilan shovqin solardilar.

4. Bu baytda Shopur (Farhodga behush qiladigan dori sepilgan gulni islatib, o'zidan ketkazgan) hiylagar boshiga tosh bilan urib o'ldirgani haqida yozadi va irsoli masal san'ataga ko'ra «Boshni tosh ushatadi», maqolini ishlatadi.

#### XLI

Bu bob sarlavhasida behush Farhodni Xusrav huzuriga keltirganlari, uning boshdan-oyoq zanjirband etilishi, Buzurg Ummid Farhodni hushiga keltirishi, Xusrav savollariga Farhodning javoblari, o'tkir so'zlari tufayli uning omon qolishi xabar qilinadi.

1. *Xalil* – lug'. ma'nosi: do'st, muhib, yor, Ibrohim alayhissalomning laqabi. Bu yerda shoir payg'ambarning o'tdan gul undirishini ta'riflamogda.

2. *Lavhashalloh* – arabcha: agar Allohdan qo'rqsa, ma'nosida.

3. Shoir bu baytda istiora san'atini qo'llab, Shirinni parirux deb atamogda.

4. Bu baytdagi siyosat so'zi «jazo» ma'nosida ishlatilgan.

5. *Salosil* – «silsila»ning ko'pligi: zanjirlar, tizmalar. Bu yerda tog' ustidagi qo'rg'onning nomi.

#### XLII

Bu bob sarlavhasida Farhodni Salosil qo'rg'oniga qamab qo'yilishi, u yerda qattiq qiyinchiliklar tortishi bayon etiladi.

1. Salosil qo'rg'onida Farhodni qo'riqlab turganlar unga banddan ozod etish, Xusravdan qanday jazo yetishsa shunga rozi ekanliklarini bildirishganida Farhod bu va keyingi ikki baytda ularga javob qaytarib: vafo ahli – haqiqiy oshiq bunday qilmaydi, deydi.

2. Bu va keyingi baytda Navoiy tashbih san'atini ishlatib, Farhodning hayvonlar, qushlar bilan do'stlashib ketganini Sulaymon payg'ambarga o'xshatadi.

3. *Yusuf* – shoir bu yerda Farhodning bo'riga o'z alamlarini aytib dardlashishini tasvirlar ekan, bo'ri haqida so'zlab Yusufi Kan'onni yodga oladi. Rivoyatga ko'ra, Yusufning og'alari uni cho'nga tashlab, ko'ylagini qonga belab, «Yusufni bo'ri yedi», deb otalariga eltadilar. Navoiy bu yerda ihom san'atidan foydalanadi. Zero, yuqoridagi mazmun asosiy maqsad esa-da, baytda birinchi idrok etiladigan ma'no Farhodning Yusufdek go'zal chiroyi bor Shirinni yodlashidir.

#### XLIII

Bob sarlavhasida Farhodning qora kunga qolganligi, hajr shomida qiynalganligi bayon etiladi.

1. Bu va keyingi baytda shoir istiora san'ati asosida Farhodning ayanchli ahvolini, chekayotgan azoblarini tasvirlab, uni g'am-anduh dengizining nahangi, balo va dard tog'ining yo'lbarasi, junun vodiysining Majnuni, Majnunigina emas, bu vodiyning dev-shamoli – quyuni deb ataydi.

2. Bu va keyingi bayt mazmuni: har kuni agar kishi ming baloni tortsa ham, u balolar tun balosidek qattiq tuyilmaydi. Unga (ya'ni Farhodga) bu hajr kunlarida har bir shom qorong'iligi mashaqqat zulfidan (sirtmoq) tashlar edi.

3. *Muazzin halqi* – azon aytuvchi (so'fi)ning bo'g'zi demakdir.

4. Baytning mazmuni: bu isitma orasida u (ya'ni Farhod) o'z labidagi uchuqdan bahra olar, uchuq zardobidan og'ziga har damda zahar tomib turar edi.

5. Shu baytdan boshlab, Farhod zolim falakka xitob qilib, taqdiridan noliydi. Bu o'rinda «sipehr» faqat ilohiy ma'nodagi «taqdir», «falak» tushunchasini emas, balki undan keng ma'noni, jamiyat va mavjud muhit tushunchalarini, undagi zulmni tug'diruvchi tartib va qoidalarni ham anglatadi.

6. *Tir* – Atorud (Merkuriy) sayyorasi, yulduzi shunday deb ham ataladi.

7. Bu baytda shoir Zuhra yulduziga xitoban: birpastgina musiqang torini tuz; men o'larga yetdim. Hazin (yig'loqi) kuyingni boshla, deydi.

8. *Saodat axtari* – baxt yulduzi. Bu yerda Shirin ko'zda tutiladi.

9. Baytning mazmuni: u (ya'ni Farhod) tongga qadar yerga yumalab, har mojaro ustiga yuz mojaro qildi.

10. Bu va avvalgi baytning mazmuni: modomiki, g'am tuni uni o'ldirgan ekan, tongning olovli quyoshi haqida so'zlashdan ne foyda. Makkor falakning odati shu emishki, u avval zaharlab, so'ngra zaharga qarshi dori beradi.

#### XLIV

Bu bob sarlavhasida Farhodning zanjirsiz zindon atroflarida yurganini eshitgan Xusrav uning qo'riqchilarini jazolamoqchi bo'lgani, Farhodning hayot ekanligidan xabar topgan Shirin unga noma yo'llagani bayon etiladi.

1. *Afalloh* – arabcha: Xudoning o'zi saqlasin (yoki Alloh kechirsin, ma'nosida).

2. Baytdagi g'amkashdan – Mihinbonu, mahvashtan – Shirin ko'zda tutiladi. Bu shoirning istioralariga yaxshi misoldir. Baytning mazmuni: U (ya'ni Shirin) hech o'ylamay sakkizta barmog'i (shoir ularni gul barglari deb ataydi) bilan (timdalab) sarig' yuzi uzra qonlar (shoir ularni qizil gulga o'xshatadi) oqizdi. Bu ham favqulodda istioralardir.

3. Bu baytda Shopur Mihinbonuga murojaat qilib, shunday ta'riflaydi: ey osmon kursisida o'tirgan, sipohlari yulduzlarcha (behisob), muborak yuzli, iffat pardasini yopingan (malika).

4. Bu nido san'atiga yorqin misol bo'la oladi.

5. *Bihamdillah* – arabcha: Xudoga shukur. Bu va keyingi baytning mazmuni: Xudoga shukrki, uni (ya'ni Farhodni) hiyla va makrlar bilan asir etgan odamni devni o'ldira oladigan bir tosh bilan urib, jahannam yurtiga jo'natdim.

6. Baytning mazmuni: u (ya'ni Shopur) anglagan narsalarning hammasini bir-bir to'rg'ay (chakovak)dek sayrab (so'zlab bera) boshladi.

7. *Sumanbar* – Shirin ko'zda tutiladi.

#### XLV

Bob sarlavhasidan Shirinning Farhodga maktubi, uni o'qib behush yiqilishi, Farhodning javob xati ma'lum bo'ladi.

1. *Royiha yabusati* – yoqimli hidning shiddati.

2. Baytning mazmuni: (bu maktubni) bir sham'dan parvonaga demayman, samandardan bir gulxan (otashxona)ga (yo'llayman). Shoir bu yerda afsonaviy samandar degan jonivorning o't ichida yashashligiga ishora qiladi. Ayni paytda Navoiy ham talmeh, ham istiora (gulxan Farhod samandar – Shirin) san'atlarini qo'llaydi.

3. Bu baytdan Shirinning Farhodga yozgan maktubi boshlanadi. Maktubni Sharq she'riyatidagi noma janriining ajoyib namunasi sanash mumkin. Unda so'z ifodasini topgan hijron va uning alamli iztiroblari Shiringagina xos bo'lgan go'zal fazilatlar, chunonchi: oqilalik, sofdillik, vafodorlik yuksak mahorat bilan ta'riflanadi.

4. Bu baytda Farhodning vahshiy hayvonlar va qushlar bilan do'stlashib ketganligini nazarda tutib, Shirin Farhodni Sulaymonga va afsonalardagi Sulaymonning barcha jonivorlar ustidan hukmronlik qilishiga ishora qiladi. Navoiy bu o'rinda talmeh san'atidan istifoda etadi.

5. Baytda Shirin o'zini Sulaymonning sevgilisi Bilqisga o'xshatadi.

6. *Mehnat durboshi* – bu yerda mashaqqat kaltagi ma'nosida ishlatilgan.

7. *Yetti ko'k* – ilmi nujumga ko'ra osmon yetti iqlimga bo'linadi. Go'yo ular bir-birining ustiga joylashgan bo'lib, har qaysisiga bir sayyora hukmronlik qilar emish.

8. *Billoh, summa billoh* – arabcha: *Xudo haqqi, yana Xudo haqqi (qasam ma'nosida)*.

9. Baytning mazmuni: Shopur xat (yozish) uchun kerakli buyumlarni: siyoh uchun mushkin va oq (qog'ozni) chiqardi.

10. Baytning mazmuni: Noma eltuvchi (ya'ni Shopur) nomani olib yugurdi, bir amallab qo'rg'onga ham kirdi... Bu yerda shoir ishtiyoq san'atiga ko'ra noma va shu so'zdan yasalgan nomabar (xat eltuvchi) so'zini ishlatadi. Ayni choqda istiora san'atini qo'llab, Shopur ismi o'rnida nomabar so'zini ishlatadi.

#### XLVI

Bob sarlavhasida Farhod xatini o'qigan Shirinning iztirobga tushgani va uning ko'ngil qushi sevgilisi tomon qanot qoqqani bayon etiladi.

1. Farhod o'z maktubida Shiringa murojaat qilib, g'oyat xokisorlik bilan uning itlari holini so'raydi. Jumladan, bu baytda deydi: (ular) bo'yinlaridagi qiloda – tasmangdan zavqlangan paytlarida mening bo'ynimga solingan halqani eslaydilar mi?

2. Bu va keyingi baytning mazmuni: unda (ya'ni Farhod ta'riflayotgan bir zaif, majruh it) men odamiylik nishonini ko'rib, ko'z qorachig'imdek saqlar zdim. U ko'zim qoni oqishini ko'rsa, o'z ko'zlaridan qon oqizar edi. Shoir birinchi baytda ishtiyoq san'atini qo'llaydi; mardum, mardumlig' so'zlarini ishlatadi. Ikkinchi baytda esa iltizom san'atiga ko'ra ko'z qoni oqmog'i, «ko'zumdek qoni oqib» iboralarini bir bayt doirasida takroran zikr etadi.

3. Bu va keyingi ikki baytning mazmuni: azaldan qismatimga sevgi bitgan va taqdir dardu mashaqqatni (peshonamga) yozgan ekan, buning uchun men kimga ta'na qilay, o'zimdan boshqa kimni yozg'uray? (Axir) yuzlab men, minglab Xusravning yo'q bo'lib ketishi qazo oldida bir dona arpachalik ham emas.

4. *Tamma bilxayr* – arabcha: yaxshilik bilan tamom bo'ldi.

5. Baytning mazmuni: uning (ya'ni Shirinning) tani xatni bog'laydigan tob ipdek (chirmashdi). Ammo xasta jismiga shu ip tobdek ta'sir qilgan. Bu baytda shoir nozik so'z o'yini ishlatadi. Birinchi misradagi «tob» maktublarni ustidan o'rab qo'yadigan ipak tasmani anglatadi; ikkinchi misrada esa tasmadek o'ralib ketgan Shirinning jismida tob harorat betobligi (xastaligi) edi, degan ma'noni bildiradi. Shu bilan birga, shoir bu baytda ishtiyoq (tob, betob) tajnis (tob – ip o'raydigan ipak tasma; tob – harorat) va iltizom (tob, tob, betob) san'atlarini mohirlik bilan qo'llaydi.

## XLVII

Bob sarlavhasida Farhod ko'nglidagi jarohatlar Shirin maktubidagi hayotbaxsh so'zlardan tuzala boshlagani, Shirin bag'ri haroratlari ham Farhod xati mazmunidan taskin topgani, bular orasidagi muhabbat zanjirini Shopur harakatga keltirayotgani, Xusrav bilib qolib uni azob zanjiriga solgani va Farhodni qatl etish uchun chora-tadbir qidirgani bayon etiladi.

1. *Masih* – Iso alayhissalom. Iso alayhissalom o'z nafasi bilan o'lganlarni tiriltirish, ularga jon bag'ishlash mo'jizasiga ega bo'lgan. Sharq she'riyatida sevgilini va uning lablarini jonbaxshlikda Masih, Masiho (Iso)ga o'xshatiladi. Bu yerda Navoiy Shirin maktubida bitilgan so'zlar hayotbaxshligini Masih nafasiga tashbih qilmoqda.

2. *Maryam* – Iso alayhissalomning onasi.

3. Bu va keyingi ikki baytning mazmuni: «Xusrav Farhod turgan yerdan tortib sarvqomat Shirin joylashgan yergacha bo'lgan masofaning hammasiga pistirmalar yasatdi va bu pistirmalarga ashaddiy yovlarni joylashtirdi. Ular har bir o'tgan-ketgan odamni tergab, ularning ishlarini tekshirib turishlari kerak edi».

4. Bu va keyingi ikki bayt mazmuni: tasodifan, o'sha ikki-uch kun orasida Shopur Farhodni ko'rishga yo'l topib, parivash (ya'ni Shirin)dan yana bir noma olib, sabodek yelib borarkan, Xusrav odamlari tintuv qilganlarida yonidan xat chiqdi.

## XLVIII

Bob sarlavhasida makkora kampir Farhod boshiga ajaldek yetishib, uning hayotiga qasd qilgani hayon etiladi.

1. Baytning mazmuni: qaddi ikki bukilgan (bu) qari kampirning hiyla-nayrangi falaknikiga o'xshar edi.

2. Baytning mazmuni: osmon makkorasi uni xola, Dallat ul-muhtola esa uni ona deb atar edi. Bu yerda shoir afsonalarda o'z ayyorligi, makr va hiylalari bilan nom chiqargan ayol nomini keltirish bilan talmeh san'atini ishlatadi.

3. Baytning mazmuni: (makkora kampir) o'zining fol ochadigan no'xat donalaridan birmabir hukmlar chiqara boshlasa, el uning hukmlariga zarracha (aynan: arpa donasicha) shak keltirmay ishonardi.

4. Bu va keyingi baytning mazmuni: (makkora kampirning) yuz pardasi haromzodalik, qalloblik ipidan to'qilgan, libosi har xil rangli lattalardan quroq qilib tikilgan (ya'ni quralgan) edi. Go'yo Maryam Haramda maqsadiga erisha olmay Tur tog'iga orom olish uchun kelgan, desang bo'ladi. Shoir bu yerda diniy rivoyatlardagi Iso payg'ambarning Maryamdan dunyoga kelishi bilan bog'liq hikoyaga ishora qilib, talmeh san'atini qo'llaydi.

5. Baytning mazmuni: sen dunyo odamlari bilan noittifoq ekansan, bunda haqlisan, Xudo haqqi, haqlisan.

6. Bu va keyingi ikki baytning mazmuni: nikoh amri oshkoro bo'lgach, Shirinning tinimsiz afg'onlari ko'kka yetdi. U o'ziga o'lim tig'ini urib, bu g'ussadan o'zini o'ldirdi. Ba'zilar: u Parvez uning bolidan bebahra bo'lsin deb zahar ichgan, – dedilar.

7. *Farut* – juda qarib qolgan. Bu yerda makkora kampir ko'zda tutiladi.

## XLIX

Bob sarlavhasida Farhodning qoya tosh uchi bilan ko'ksini yorib, yillar mobaynida ko'nglida tig'izlanib yotgan g'am-anduhlarini chiqarib tashlagani va jononi yodi bilan jonidan kechgani bayon etiladi.

1. Shu baytdan boshlab shoir nido san'atini qo'llab Farhodning charxga, g'am tig'i, anduh toshi, ajal, qiynoq, azob, hijron g'ami, tog', metin, hayvonlar va h. k.larga murojaat etib nolalar bilan vasiyat qilganini juda ta'sirli misralarda tasvirlaydi.

2. Bu yerda Farhod uchun yurtida yil fasllariga monand qilib bunyod etilgan to'rt bog' va to'rt qasr yodga olinadi.

3. *Sayfiy ravza* — yoz fasli uchun yaratilgan bog' (ichida qasri bilan).

4. *Xazoniy ravza* — kuzlik bog' (qasri bilan).

5. *Shitoyi ravza* — qishlik bog' (qasri bilan).

## L

Bu bob sarlavhasida dahrning vafosizligi sababli Xusrav va Mehinbonuning yarashganlari, qo'rg'on ichida, qamalda yotganlarning tarqalib ketganlari, Farhod o'limidan o'lar holga yetgan Shirinni Armaniyaning bahavo tog'iga yuborganlari bayon etiladi.

1. Baytning mazmuni: tabaqalarga (biri ikkinchisi ustida joylashgan yetti iqlim ko'zda tutiladi) bo'lingan osmon ajoyib qushdirki, uning ishi kabutardek muallaq uchmoqdir.

Shoir keyingi baytlarda o'zining Yaratuvchi haqidagi juda dadil fikrlarni bildiradi. Olamni kabutarga, Yaratuvchini kabutarboz sayyodga nisbat berib, uni jallod deb ataydi.

2. Bu va keyingi baytlarda Navoiy bir notavon va bexonumon kishi Farhodni ko'rish va uni xizmatida bo'lish uchun kelib yetganini, bu payt Farhod jon berayotib, nolalar qilganini, o'zini bir tosh orasiga olib eshitganini bayon etadi. U shaxs Farhod qabrini ko'tarib, u yerda mujovir (mozorda yashovchi) bo'ladi va xalq orasida ko'rganlarini hikoya qilib yuradi. Bundan Shirin ham xabar topadi.

3. Bayt mazmuni: agar Parvez qamaldagi xalqni ozod qilmasa, ularning toqati toq bo'lib, Bonudan yuz o'giradilar (aynan: Bonu bilan oq bo'ladilar). Shoir bu yerda xalq orasida keng tarqalgan «Oq bo'lmoq» iborasini qo'llaydi.

4. Bu baytda shoir Mehinbonuning tadbirkorlik bilan Xusrav yuborgan odamlarga muomalasini bayon etib, u yuborgan maktubni o'pib, sudo' afsuni, ya'ni bosh og'rig'ini daf etish uchun yozilgan tumordek boshing'a qo'ydim, deydi.

5. Bu ikki bayt Navoiy istioralariga yorqin misoldir: Farhod o'limidan keyin xastahol Shirinni tog' tepasida Farhod qurgan qasrga yuboradilar. Shoir ikki baytda mohirlik bilan 8 marta istiora san'atini qo'llaydi: falak — tog'ni, oy — Shirin, chaman — bog', gul — Shirin, Quyosh — Shirin, jonfido ayvon — qasr, pari — Shirin, chashmai hayvon — Farhod qazgan ariqni anglatadi.

## LI

Bob sarlavhasi Shirinning safar vaqtida unga Sheruyaning ko'zi tushib qolishligi va Xusravni o'ldirib, Shirinni o'ziga so'ratishi, Shirin esa uni muloyim so'zlar bilan yupatib, toqqa ravona bo'lishi va Farhodning so'ngaklarini shu yerga keltirib, ularni quchoqlab jon berishini bayon etadi.

1. Bu va keyingi baytlarda shoir Sheruya otasi joniga qasd qilib, uni qatl ettigina emas, balki davron undan Farhod qonini istadi, kimki birovga zulm o'tkazsa, albatta unga jazo yetishadi. Modomiki shunday ekan, shoir yaxshilik urug'ini ekish darkor, degan yuksak fikrni ilgari suradi.

2. Baytning mazmuni: ya'ni Farhodning hajrida men (ya'ni Shirin) bemormen, bedilmen. Bamisoli chala so'ylgan bir qushdirmen.

3. Baytning mazmuni: ular (ya'ni Shirin va Shopur) birmuncha vaqt shunday motam tutilarki, feruza (rangli) osmon qurum bosgandek qoraya boshladi (ya'ni kech tushib qoldi).

4. Bu va keyingi baytlarning mazmuni: Shirin ikki-uch yuz kishini qo'shib Shopurni o'z maqsadiga ko'ra yo'lga soldi, ularga ko'plab xush isli tutatqi, olovda xushbo'y chiqaradigan yog'och, mushku atirlar berdi. Ular tog' ichidan ko'hkan, ya'ni Farhodni topib, Shirin kajavasiga solib keltirishlari lozim.

5. Bu va keyingi uch bayt mazmuni: Shirin ko'rsaki, Farhod uyquda, u ham shunday uyquni havas qildi. Uning yuziga yuzini, taniga tanini qo'ydi, o'z sevgilisi bilan hamog'ush bo'ldi. Shunda dilidan bir olovli oh chiqardi-yu, ko'zi Farhodniki kabi uyquga toldi. Bu shunday uyqu ediki, unga hech kim qonmagan, qiyomatgacha uyg'onmas uyqu edi. Bu baytlarda shoir istiora (sarvi cholok – Shirin, bedil – Farhod) va ruju' (uyqu – ne uyqu...) san'atlarini qo'llaydi.

### LII

Bob sarlavhasida Shirinning Farhod ishqida jon bergani, buni eshitib Mehinbonu ham hayotdan ko'z yumgani, Chin mulkidan kelgan Bahrom Sheruyaning mollarini ziyon-zahmat ko'rganlarga bergani va Armanga odil podshoh tayin qilib, o'zi barcha lashkarlarni qaytarib, saltanatdan yuz o'girgani bayon etiladi.

1. Avvalgi baytlarda Navoiy Farhodning do'sti Bahromni maqtaydi. Bu baytda esa shoir agar u osmondagi Bahrom (Mars)ga dushmanlik ko'rsatsa, osmondagi Bahrom Bahromi Cho'bindek bo'lib qoladi, deydi. Bu yerda Navoiy so'z o'yini ishlatib, ham sayyorani, ham qadimgi Eron podshohlaridan Hurmuzning lashkarboshisi Bahromi Cho'binga ishora qiladi.

### LIII

Bob sarlavhasidan uni Sulton Husayn Boyqaroning o'g'li Shoh G'arib Mirzo madhi va unga Navoiy bir necha nasihatlar bag'ishlagani anglashiladi.

1. *Favoris* – «foris»ning ko'pligi; suvoriy, sher, demakdir. Abul Favoris – Shoh G'arib Mirzo (Husayn Boyqaroning o'g'li)ning laqabi.

2. *Xullada davlatuhu* – (arabcha duo), «Xudo davlatini abadiy qilsin», demakdir. Bu ibora shohlar, shahzodalarning ismidan keyin aytiladi yoki yoziladi.

3. *Temurxon* – Amir Temur (1336, Shahrisabz – 1405. O'tror sh.).

4. *Ulug'bek* (Muhammad Tarag'ay; 1394, Sultoniya sh. 1449) – buyuk o'zbek astronomi va matematigi, davlat arbobi. Temurning nabirasi, otasi Shohrux davrida 17 yashar Ulug'bek Movarounnahr va unga yondosh viloyatlarning to'la hukmdori qilib tayinlanadi. Ulug'bek davrida, ayniqsa, Samarqandda hunarmandchilik, me'morchilik, ilm-fan, savdo-sotiq ravnaq topdi. Ulug'bek musiqa ilmi va adabiyot bilan ham shug'ullangan. Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» nomli tazkirasida Ulug'bek faoliyatiga yuksak baho beradi va uning she'rlaridan namuna keltiradi.

5. «*Ziji Ko'ragoniy*» – Ulug'bekning o'z rasadxonasida olib borgan astronomiyaga oid kuzatishlari asosida tuzilgan jadvallardan iborat asari. Uning maxsus nazariy qismi – muqaddimasi juda ko'p tillarga tarjima qilingan.

6. *Ilm ul-yaqin* – har narsaning mohiyat va kayfiyatini bilish, ochish.

7. *Tahmuras* – miloddan avvalgi Erondagi peshdodiylar sulolasining uchinchi hukmroni. Afsonalarda uni Marvda ko'handiz, Xuroson, Nishopur va Isfahonda Mag'riz va Soriyyani barpo qilgan (mil. av. 830-y.) deyiladi. Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da yozishicha, ro'za tutishlik undan sunnat qolgan. Forscha kitob yozishlik va bo'z to'qishlikni Tahmuras ixtiro qilgan. U har kimning biror sevgan odami bo'lsa, uning suvratini chizdirib, shu bilan xursand bo'lar ekan. Shundan butparastlik kelib chiqqan ekan.

8. *Zahhok* – qadimgi afsonalarga ko'ra, Jamshiddan so'ng taxtga o'tirgan o'ta zulmkor podshoh. Uning ikki yelkasida ikkita maraz (illat, yara; boshqa rivoyatda ikki ilon) bo'lib, uning og'rig'iga odamzod mag'zi (miyasi)dan bo'lak narsa taskin bera olmas ekan. Shu sababli har kuni ikki gunohkorni o'ldirib, mag'zini unga berar, agar gunohli odam topilmasa, qur'a tashlab xalq orasidan ikki kishini qatl qilar ekanlar. Bir kuni qur'a isfahonlik ohangar – temirchi Kova o'g'illaridan biriga tushib qatl qilinadi. So'ngra yana bir o'g'liga tushadi. Darg'azab Kova odamlarni yig'ib, Zahhokka qarshi isyon ko'taradi. Ular temirchilar saxtiyoni – partug'ini bayroq qilib, Zahhok ustiga o'tlanadilar. Kovaga Jamshidning nabirasi Faridun kelib qo'shiladi va Zahhokni o'ldiradi.

9. Bu va keyingi baytning mazmuni: nima foydali, nima zararli ekanligini hikmat ajratib berishligini aniq anglaganingdan keyin, foydalilari bilan shug'ullan. Lekin hamma ishda ham o'rtani tutishga mayl qil.

10. Bu baytda shoir irsoli masal san'atini qo'llaydi: u yuqoridagi baytdagi o'z muddaosi – mizoj mayl ko'rsatgan narsaga ortiqcha ruju' qilmaslik lozim, degan fikrni tasdiqlash uchun «yaxshining ko'pidan yomonning ozi yaxshi» maqolini keltiradi.

#### LIV

Bob sarlavhasida shoir bu dostonni tugallash, undagi voqea-hodisalarni oxiriga yetkazishga g'ayrat ko'rsatganini bayon etadi.

1. «*Lo*» – arabcha; yo'q, emas, degan ma'noni, inkorni anglatadi.

2. «*Da*» – arabcha: tashla, yo'q qil, demakdir.

3. «*Alhamdulillohil-lazi vaffaqani min iftitohihi ilo ixtitomihi; va sallalohu alayhi va olihi va ashobi kiromihi*» – arabcha: meni boshlab tugatishimga muvaffaq qilgan Allohga maqto'vlar bo'lsin, Muhammadga, uning xonadon ahliga, sahobalariga Alloh rahmati bo'lsin, demakdir.

4. *Kumayt* – qora to'riq (ot), bu yerda shoirning qalami ko'zda tutiladi. Navoiy bu o'rinda istiora san'atini ishlatadi.

5. *Birjis* – q. Mushtariy sayyorasi.

6. *Taylason* – rido (darveshlarning ustiga yopinadigan libosi).

7. *Nohid* – Zuhro yulduzi.

8. Bu fasl avvalidan shu baytga qadar Navoiy o'zining qanday qiyin va sharafli ishni bajarganini (ya'ni yangi dostonni yozib tutallaganini) badiiy mahorat bilan tasvirlab beradi. Keyingi baytlarda esa shoir uni tushunib yetmagan, binobarin, qadrlay olmagan «ko'ri modarzod» (ya'ni «tug'ma ko'rlar», «boyqush», «ko'rshapalak», «daniylar» (ya'ni pastkash odamlar), «qora qo'ng'iz» (gul isidan halok bo'ladigan) kabilardan noliydi.

9. Baytning mazmuni: lekin har kim, agar nozikfahm bo'lsa, bu ikkovining (ya'ni yuqoridagi baytlarda tasvirlangan qora qo'ng'iz va bulbulning) xushbo'y guldun ta'sirlanishda qaysi biri haq ekanini bilib oladi. Shoir bu yerda badiiy adabiyotning nozikligi, uning jonbaxshligiga ishora qiladi.



10. Bu va keyingi ikki baytda Navoiy faxriya usulidan foydalanib, o'zining qanday shoir ekanligini ta'riflaydi. Bu o'rinda go'zal istiora, tashbih va ifodali ruju' san'atlarini qo'llaydi.

11. Baytda shoir o'zini tufroq deb ataydi, tufroq bo'lgandayam elning oyoqlari ostida yanchilib (baytdagi «ko'p topmoq» – yanchilmoq, ezilmoq ma'nosida ishlatilgan) ketgan, quyun kabi ahvoli to's-to'polon tufroq, deb yozadi.

12. Baytning mazmuni: yel to'dasidek bir dam jahonni kezdiradi, (yana bir dam) bug' bo'lagidek osmonni aylantiradi. Bu yerda shoir o'zi haqida so'zlab, yuqorida aytilganidek o'zini tuproq bilan tenglashtiradi va hodisalarning qattiq esgan sovuq shamoli tuproqni ne ko'ylarga solishini tasvirlaydi.

13. *O'turmay* – bu yerda o'tkarmay ma'nosida ishlatilgan.

14. Bu va bundan avvalgi baytlarda Navoiy o'zining ahvoli ruhiyasini ochib berishga intiladi. Saroydagi teskari kuchlar, unga muttasil turli masalalar yuzasidan murojaat qilib turuvchi sanoqsiz odamlardan charchaganligi, hech bo'lmasa «24 soat ichida 24 marta osuda nafas olishga» naqadar orzumand ekanligini bayon etadi. Ayniqsa, «farog'at burchagida» sevimli ishi – ijod bilan mashg'ullik qilish istagini yoniq misralarda bildiradi.

15. *Barda'* – Arran hokimiyatining qadimiy poytaxti. X asrning ikkinchi yarimlarida talon-taroj qilingach, o'z mavqeini yo'qotgan. Keyin poytaxt Ganjaga ko'chirilgan.

16. *Navbat urmoq* – shohlar o'z hukmronligi haqida e'lon qilgan paytda katta nog'ora (ko'pincha, «kovurgo» deb atalgan nog'orani) chaldirganlar. Bu yerda Navoiy ramzan Jomiyning adabiy hayotdagi shuhratiga ishora qiladi.

17. Navoiy bu baytda «yuz» va «ming» so'zlarini ikki ma'noda ishlatadi: biri son, adad ma'nosida, ikkinchisi – qadimgi o'zbek qabilalarining nomi.

18. *Sheroz* – Eronning janubi-g'arbidagi shahar (1750–1794-yillarda Eronning poytaxti ham bo'lgan).

19. *Tabrez, Tavriz* – Eronning shimoli-g'arbidagi shahar.

20. Bu va avvalgi yetti baytda Navoiy «faxriya» san'atini qo'llab, agar Nizomiy Barda', Ganja va Rumda mashhur bo'lsa, Xusrav Hindistonda shuhrat qozonib, Jomiy esa Ajam va Arabda dong taratgan bo'lsa, butun turkigo'y xalqlar meniki bo'ldi, men nafaqat Xitoydan Xurosongacha bo'lgan yerlarni, balki Sherozu Tabriz, hatto turkmanlarni farmon bilan emas, asarlarim (jumladan, devonlarim) bilan zabt etdim, deydi.

21. Hijriy 889 – 1484-yilga to'g'ri keladi.

## MUNDARIJA

### HAYRAT UL-ABROR

(Nashrga tayyorlovchilar: A.Hayitmetov, I.Haqqul)

I. Bismillohir rahmonir rahim, Rishtag'a chekti necha durri yatim .....	6
II. Ul xoliq hamdikim, maxluqot tasvirig'a aning qalami sun'i chehrakushodurur va masnuot tahririg'a aning xomai hikmati jamolafzo va har ko'ngul g'unchasig'a bir husn guli sori aning silsilai shavqidin vobastaliq va har ko'z axtarig'a bir qosh hiloli sori aning rishtai muhabbatidin payvastaliq .....	9
III. AVVALG'I MUNOJOT. Haqning avvaliyatidakim, xirad anga soniy bilmas, balki avval va oxir eli sano desalar anga loyiqi soniy topilmas va mumkinot gulshanidag'i gullarning adam shabistonidin vujud gulistonig'a kelmagining sifati va koinot bozoridag'i durlarning xafo sahobidin zuhur daryosiga tushganining ma'rifati.....	13
IV. IKKINCHI MUNOJOT. Maxluqot zebolarining jilvai zuhuridakim, xoliqi ashyo azamati dargohig'a ondin sude yetmas va mavjudot ra'nolarining hodisai futuridakim, vohidi dono jabaruti borgohig'a kimsa andin ziyonbude tasavvur etmas.....	16
V. UCHUNCHI MUNOJOT. Ul ma'nidakim, olam va odamni vujud koshonasidin adam faromushxonasig'a solmoq vujudi mutlaqdin o'zga vujud tutmas va bu ma'nini vujud ahli andin o'zga vujudqa mutlaqo yovutmas va isyon zulmatida ayoqdin tushganlarga xulosai olam shifoati dastgir durur va ul shafi'-shafobat qilg'onlarg'a xoliqi olam va odam shafobatpazir .....	19
VI. TO'RTUNCHI MUNOJOT. Karam daryosi vasfidakim, inoyat nasimidin mavjg'a kirsas, isyon xasu xoshokin qirog'larg'a iturur va ko'hi gunohdin langar solg'onlarning garonjonliq kemasin bir pari kohdek maqsud sohilig'a yetkurur .....	23
VII. AVVALG'I NA'T. Ul hazratning nuri qidamiyatidakim zot bahrining avvalg'i junbushida ul durri bebaho lam'asi xafo rishtasin uzdi va ul gavhari yakto ashi'asi lam'a ko'rguzdi va durjdin durjg'a intiqol etti to Safiyullohdin Abdullohg'a yetti .....	26
VIII. IKKINCHI NA'T. Aning navras niholi jahon gulshanin sarsabz qilib, qirg yilg'acha andin hayo va adab gullari ochilib, andin so'ngra nubuvvat mevasi bergani, dog'i shox va bargin sidra shoxidin o'tkarib, ikki olam ahlining soyai rahmatig'a kirgani .....	28

IX. UCHUNCHI NA'T. Ul nubuvvat quyoshining soyasizligining poyasi, balki quyosh bo'lmoq aning soyasi va besh barmog'iga qalam tutmay aqolimi sab'ani yakqalama qilg'oni, balki jami' milal avroqig'a nasx qalami chekkoni..... 30

X. TO'RTUNCHI NA'T. Ul risolat sipehrining rif'atida va barcha olamni sipehrdek ihota qilg'on qudratida va ashobi bobidakim har biriga ul sipehrda bir kavkabi raxshandaliq sodiq dururki, «Ashobi kan-nujum» bu mazmung'a notiq durur ..... 32

XI. BESHINCHI NA'T. Me'roj kechasi ta'rifidakim, karimai: «Subhonallaziy asro» anga musaddaq durur va «biabdihi laylan minal-masjidil haromi ilal-masjidil-aqso» aning subutig'a ikki guvohi sodiq ..... 35

XII. Hazrati Shayx Nizomiy madhidakim, nazm mulkida zo'rbozu sarpanjasi bila panj ganj nuqudu javohirin oldi va Amir Xusrav ta'rifidakim, bu javohir va nuqud tamaidin panja aning panjasig'a soldi..... 39

XIII. Safo jomining sofi oshomi mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy madda zillahul-oliy vasfikim, vasfg'a sig'mas va ta'rifikim, ta'rifg'a rost kelmas va ul hazrat iltifotining quyoshi bu xoksori tiyra ro'zgor holig'a partav solg'onining izhori va ul quyosh tarbiyatidin bu tufroqqa zohir qilg'an guli nasrin, balki gunogun rayohin osori va «Tuhfat ul-ahror» tuhafi mutolaasidin mahzun ko'ngul tarabi va «Hayrat ul-abror» lao'li va javohirin nazm rishtasig'a tortmoqning sababi ..... 42

XIV. So'z ta'rifidakim, bashar vujudi sipehrining kavokibi jahontobi va inson zoti ma'danining javohiri serobi durur va sa'd kavkablarning bir-biri birla qironi yaxshi asar ko'rguzuridin va samin javharlarning bir-biriga iqtironi dilpazir ko'rururidin, nazm tarkibin nasr tartibig'a tarjih qilmoq ..... 47

XV. Bir necha so'z ul ma'nidakim, so'zdagi ma'ni jone dururkim, so'z qolibi onsiz qolibe dururkim jonsiz va ani topmoq ishini kishi bilmas, balki ani topqon kishi topilmas va ahli gazof noinsoflig'ig'a munsif bo'lmoq, balki o'z gazofig'a insof berib, alarning uzrini qilmoq ..... 52

XVI. Salotin xaylining sarafrozi va xavoqin mulkining ganjparadozi muizzius-saltanati vad-dunyo vad-din Abulg'ozzi Sulton Husayn Bahodirxon xalladallohu mulkahu va sultonahu va avzaha alal-olamina birrahu va ehsonahu madhikim, go'yo til bila madhin demak maholdurur, bataxisikim qalam tili madhida lol durur..... 56

XVII. Ko'ngul ta'rifidakim, ko'ngul tilagandek qililmaydurur va aning vasfin sohibdilliqg'a mavsof bo'lg'on kishidin o'zga kishi bilmay durur. Ko'ngulsiz roqim xomasin raqamkash qilmoq va bu raqam savodi bila ko'nglin xush qilmoq .. 61

XVIII. AVVALG'I HAYRAT. Ko'ngulning adam tunidin qutulub, vujud subhig'a hamnafas bo'lub, malak olami bahoristonining rango-rang azhori va gunogun ashjorin tamosho qilg'oni va alarni «Sabbihisma Rabbikal-a'lo» amri bila qayyumi haqiqiy tasbihig'a mashg'ul erkonin bilib dimog'i bog'ida hayrat gullari ochilg'oni va ul gullar atri dimog'idin hush olib behush yiqilg'oni ..... 64

- XIX. IKKINCHI HAYRAT.** Ul humoyunbol qushning malak olami gulistonidin malakut olami shabistonig'a havo qilib, ul rafi' manozilning sham' va mashoilin zabona tilidin «Vazkurisma rabbika va tabattal ilayhi tabtilo» hukmi bila xoliqi asliy zikriga zokir erkanin ma'lum qilib, hayratdin bir olamdin yana bir olamg'a borg'oni va bu hayrat yana ani bexudluqqa solg'oni ..... 70
- XX. UCHUNCHI HAYRAT.** Ul oshuftahol musofirning malakut olami shabistonidin badan mulki shahristonig'a nuzul qilg'oni va ul kishvar ahlining ham «Fazkuruniy azkurukum» buyrug'i bila Qodiri mutlaq yodi birla erkonin bilib, hayrat o'ti ishtirol etib, vujudi ul o'tdin kul bo'lub, fano yeliga bilkul sovurulmoq bila ikkinchi fano maqomin hosil etib, andin so'ng Haqdin baqoyi komiliy yetib. Xojaning ul mulkda xilofat taxtig'a qaror tutqoni ..... 76
- XXI. Xoja Bahouddin Naqshband quddusa sirruhu madhidakim, sun' naqqoshi hikmat xomasi bila ro'zgor sahfiasida aning vujudi naqshin islomiy tarh etti va surati irshodi bila kufr ahli ko'ngli varaqidin xitoyi va farangi naqshi ketti va Xoja Ubaydulloh sallamahumullohg'a niyoz arzikim, ul hazratqa xalafi mutlaq, balki xalifai barhaq durur ..... 82**
- XXII. AVVALG'I MAQOLAT.** Imon sharhidakim, «Al-imonu an tu'minu billahi va maloikatihi va kutubihi va rusulih va bil-yavmil-oxiri va bil-qadari xayrihi va sharrihi» demakdin maqsud bu kalimot emas va agar ahli zohir muni imon desa, ahli ma'ni demas va uluhiyat daryosig'a shinolig' ajzin zohir qilmoq va maloyika havosida bir necha qanot urmoq va kutub avroqida bir necha harf surmak va rusul jodasida necha qadam yugurmak va qiyomat qoyim bo' lurida qiyom ko'rguzmak va qadar bobida aloqadri hol tarannum tuzmak ..... 85
- XXIII. Sulton ul-orifinni g'amgin ko'rub, muridig'a savol tili ochilg'oni va ul shofiy javoblar bila anduhluq ko'nglin xoli qilg'oni ..... 93**
- XXIV. IKKINCHI MAQOLAT.** Islom bobidakim, «alif»lari amniyat bog'ining sarvlari durur va «sin»i saodat qasrining kungurasi va «lom»i latofat gulchehrasining sunbuli zulfi va «mim»i muhabbat mash'alining nuri va ul sarvlar soyasida yer tutmoq va ul qasr kungurasida talab kamandin solmoq va ul sunbuli zulfni habli matn qilmoq va ul mash'al nuri bila ko'z yorutmoqning targ'ibi ..... 94
- XXV. Ibrohim Adhamning Ka'bag'a namoz bila borg'oni va Robiai Adviyag'a Ka'baning niyoz bila kelgoni ..... 102**
- XXVI. UCHUNCHI MAQOLAT.** Salotin bobidakim, «Innalloha ya'muru bil-adli val-ihson» amri ila Haq subhonahu va taolo xusravliq xudin alarning xilofati boshig'a qo'ydikim, adolatlari «ayni»ning chashmai zuloli mulk bo'stonin serob qilg'ay, to bu bo'stondin amniyat va farog'at gullari ochilg'ay va alar zulm bog'ida may ichib gul socharlar, balki maydin har dam o'zgacha gul ocharlar ..... 104
- XXVII. Shohi G'oziy qahrining sarsari bir sarkash xo'shani barbod etib, adlining suyi ul xo'sha butgan buzug' mazraani obod qilg'oni ..... 112**

XXVIII. TO'RTUNCHI MAQOLAT. Riyoyi xirqapo'shlar sulukidakim, o'z qoshlarida xirqai talbislarig'a haqiqiy libos ot durur va haqoyiqu maoriflari avomg'a libosot. Va haqiqiy bodano'shlar ravishidakim, xirqai vujudlari fano ilg'i zo'ridin chok durur va Masihodek jonbaxsh nafaslari ruhi muqaddas kibi pok va mahalli tavflari sohati aflok .....	115
XXIX. Muqarrabi Boriy Xoja Abdulloh Ansoriy so'z'ikim, nihoyati sulukdin sohibxabar erdi va o'z suluki nihoyatidin xabar berdi .....	122
XXX. BESHINCHI MAQOLAT. Karam vasfidakim, qalbi diram margi durur, balki rahmat shajarasining bargi va buxkim, saxo qalbidin xoli bo'lsa, nihoyatsiz balo bo'lur va bazi surati ko'rguzmasa, muruvvatdin hadsiz xalo va isrof nafi'kim, har yonidin boqsa ofati behad erur va itlof mazammatikim, ko'proq harfi lofdin xabar berur .....	124
XXXI. Hotami Toyi hikoyatikim, himmat va saxo ahlig'a peshvo erdi va aning mehmonlig'i ta'zimig'a bosh indurmagan gado himmatini ko'rub insof berdi .....	131
XXXII. OLTUNCHI MAQOLAT. Adab da'bidakim, kichiklarga mujibi saodatmandliq va ulug'larg'a boisi sarbalandliq durur va tavozu' vasfidakim, «dol»dek qaddini xam qilg'on qadamin davlat farqig'a qo'yar va hayo riyozidakim, har kishi kirsra rahmat yog'inlari birla serob bo'lur .....	133
XXXIII. Nushirvonning hayo bog'ida nargis ko'zidin ko'zining nargisi uyolib, nargis ko'z'luk gulruxidid kanor istamay, kanora istagoni .....	142
XXXIV. YETTINCHI MAQOLAT. Qanoat bobidakim, ayni ju'din ayrilsa, zamzami najoti, balki salsabili hayot sori uchmoqning qanoti durur va parishon tama'kim, mazallat zahri ta'mi mazoqqa yetkurur va qoni'kim, ko'zi uzra qon mavj ursra, izzati bor va tomi'kim, oltun masnad uzra orom tutsa, mazallati bor .....	143
XXXV. Qoni'i juvonmard ila tomi'i jahongard hamrohlig'i va biri farog'at ganji hirsidid mazallat ranjig'a qolib, birining qanoat ranji chekardid farog'at ganjiga yetgoni .....	151
XXXVI. SAKKIZINCHI MAQOLAT. Vafo bobidakim, «vov»i semurg' «sin»ining zimnida dahyakidek nihon durur va «fo»si Qof tog'i ostidag'i «fo»dek ayon va «alif»i kimyo tubidagi «alif» nishonasi, va nuqtasi mehriyigo butasining donasi. Bas bularni tama' qilg'on kishining ishi suv sathida yugurmak bo'lg'ay va qaro yerda kema surmak .....	153
XXXVII. Ikki vafoliq yor bir-biri vafosig'a boshlaridid kechgani va alar barakatidid yuz ming bosh qilichdin va qilich qindid qutulg'oni, balki qing'a tushkoni .....	161
XXXVIII. TO'QQUZUNCHI MAQOLAT. Ishq o'ti ta'rifidakim, shu'lasid balo sahosining lolalari va xgari balokash ko'ngul pargolalari durur va mehnat qaro shomi aning tutuni va bu shomning muhtariq kavkablari aning uchquni durur. Va husn anvorikim, muncha o'tg'a bois, aning barqidid bir lam'a va muncha haroratg'a mujib, aning quyoshidid bir ashi'a durur .....	163

XXXIX. Shayxi Iroqiy Shomda husn sham'i gulin ko'rgach, parvonadek tutashqoni va shu'lasini inkor tikonlarin kuydurub, munkirlar boshig'a oshqoni .....	173
XL. O'NUNCHI MAQOLAT. Rostliq ta'rifidakim, vujud uyi bu tuz sutun bila barpoy. Va ul uy shabistoni harimida bu sham'i anvar majlisoroy bo'lur. Va egrilik nafyidakim, agar egri kishi zulfdek simbarlar yuzida yer tutarkim, boshi kesguluk. Va agar ajdahodek ganj ustida halqa urarkim, o'lturguluk .....	175
XLI. Durrojning yolg'onni chin o'rnig'a ayturidin hodisa domig'a tushgonida, chin so'zin sher yolg'on sog'inib, faryodig'a yetmagoni va ani balo domidin xalos etmagoni .....	182
XLII. O'N BIRINCHI MAQOLAT. Ilm sipehrining baland axtarlig'idakim, jahl tunini yorutmoq uchun «ayn»i quyoshdin va «lom»i oydin va «mim»i kunduzdin nishona aytur. Va jahl shomi tiyra manzarlig'idakim, g'aflat chohini zalolat kechasida zohir qilib, bu kechada shaqovatdin fasona aytur. Va olimning bovujudi falokat quyoshdek sarbalandlig'i va johilning bovujudi ganju mol tufrog' aro najandlig'i .....	185
XLIII. Imom Faxr Roziy bila Sulton Muhammad Xorazmshoh aro hammomda oshnoliq sham'i yorug'oni va imom so'zidin sultonning istig'nodin ilik yug'oni .....	193
XLIV. O'N IKKINCHI MAQOLAT. Qalam shaqqining gunogunlug'i va ahli qalam shiqqining buqalamunlug'i va qaysi xulut kitobatig'a shuru' qilmoq a'mol nomasig'a mujibi qaroliqdur va kotibga xatti muhtalolik va qaysi hurufqa ruju' qilmoq sahifai ruxsorg'a mujibi oqliq durur va roqimig'a safid avroqliq .....	195
XLV. Yoqutning husnixat jihatidin darveshu podshoh qoshida ta'zimi ortg'oni va qalamrav savodining ahli hurmat raqami aning sahifai holig'a tortg'oni .....	202
XLVI. O'N UCHUNCHI MAQOLAT. Sahobdek naf'rasonlar bobidakim, araqi peshoni bila rayohin zebolari boshig'a gavharafshon bo'lurlar. Va bulut aro barqdek xandonliq yuzlarida paydo. Va shabnam to'kulgan chinordek obilai kafi dast bila yerga past bo'lg'on xasu xoshokni serob qilurlar. Va chinordek dilso'zliqlari ahvollarida huvaydo .....	204
XLVII. Ayyubi xalaf noxalaf o'g'rining egriligini tuzgoni va gumrohliq zulmatida anga yo'l ko'rguzgoni va ul shayx silsilasig'a kirib, ayyorliq kamandin uzgoni .....	212
XLVIII. O'N TO'RTUNCHI MAQOLAT. Aflok hay'ati shikoyatidakim, har birisi durje ko'runur va har kavkabi bir gavhari pok, ammo huqqae durur zahrnok, balki zahri halok. Va jahon lu'batini kinoyatidakim, chobuke ko'runur matbu' va mavzun. Ammo zoledurur ishi makru fusun. Va fusuni haddin fuzun. Va ul huqqa laolisi mazarratidin qalam tili lol va bu zolning jam'i zavol .....	214
XLIX. Iskandarning yetti iqlim mamolikin panjai tasarrufig'a kiyurg'oni va xoli ilik bila olamdin rihlat markabin surg'oni .....	222
L. O'N BESHINCHI MAQOLAT. Jahl mayining durdkashlari sha'nidakim, saloh xirqalari ma'siyat ilgidin chok durur. Va may jahlining sarxushlari	

bobidakim, har biri mayxona eshigida mastu bebok yurur va yiqiq mayxona alarg'a taxti Jamshedoso va sinuq paymona alarg'a jomi jahonnamo va nadomat ashki yog'inikim, gunoh shu'lasin o'churur va tavba barqi o'tikim, ma'siyat xirmanin kuydurur.....	224
LI. Bani isroiliyi Rindning o'zluکیدin tavbasi uyi irtifoī qasam qofi toshlari bila falakka chiqqoni va may selobi ul binoni yiqqoni.....	231
LII. O'N OLTUNCHI MAQOLAT. Xudnamo muxannasvashlarning dunyo ziynati iktisobida hiylasozliklari va jonfido mehnatkashlarning din quvvati hisobida sarandozliqlari. Va g'azo maydoni sohati vasfidakim, er bila nomard bir-biridin ayrilur. Va shahodat qoni ta'rifidakim, gunoh dudidin yuzi qarorg'onlarni surxro' qilur.....	233
LIII. Abdulloh Muborakning burqa' bila jihod maydonig'a kirib, fath jamolidin burqa' olg'oni va Hasan Rabi' ul-jamolni ko'rub hayron qolg'oni.....	242
LIV. O'N YETTINCHI MAQOLAT. Bahor yigitligi nazohatidakim, rayohini nozparvardlarin mulavvan hullalar bila orosta qilur. Va yigitlik bahori latofatidakim, rayhoni xat bila oraz gulin gulu rayhong'a o't solg'udek perosta etar. Va xazon qarilig'i burudatidakim, guliston ashjori bila qushlari ondin bebargu navo durur. Va qariliq xazoni shiddatidakim, badan gullistonining toza gullari andin barbodu havo.....	245
LV. Imomi ma'sum Zaynul-obidinning sag'irai ma'sumasining kabirush-shon kalomi, agarchi ul sag'iradin ma'sum erdi.....	254
LVI. O'N SAKKIZINCHI MAQOLAT. Falak g'amxonasidakim, maoli parokanda alam durur takalluf bila masrur bo'lmoq va jahon vayronasidakim, moli ham ul raqam durur ko'ngul uyin ma'mur tutmoq va har nafaskim hayot gulshanidin nasim durur, qadrin bilmak. Va har damkim umr gulidin shamimdurur shukrin qilmoq va to badanda haq amri itoatig'a quvvat bor, toatini mug'tanam ko'rmoq va to ashob visoli mumkindur, iliktin bermay, o'zni xurram tutmoq.....	256
LVII. Chin marg'zorining mushkin g'izolining shershikorlig'i va majruh saydlarining aning domig'a giriftorlig'i va sher panjasidin alarning ajal tufrog'ig'a hamvorlig'i.....	264
LVIII. O'N TO'QQUZUNCHI MAQOLAT. Xurosonning adimul-misl kishvari bayonidakim. «Irama zotil-imodil-lati lam yuxlaq misluho fil-bilod» karimasi oyatidur aning sha'nida. Bataxisi Hirot dorus-saltanasining amnobodi tavsifidakim, «Va man daxalahu kona ominan» mazmuni hadisi durur, aning ta'rifida va garchi hadiqae erdi, ammo qurub erdi va lekin shoh jo'ybori adli ani rashki xuldi barin qildi va agarchi ma'mura erdi, ammo buzulub erdi va lekin shahanshoh ehsoni me'moridin g'ayrati nigorxonai Chin bo'ldi.....	267
LIX. Bahromning may mastlig'idin baxti ko'zi uyqu mayli qilib, mamlakati binosi ul seldin yiqilg'oni va mazlumlar faryodidin uyg'onib tadorukin qilg'oni.....	276

LX. YIGIRMANCHI MAQOLAT. Ul maqsud adosidakim, agarchi bu latoyif majmuasi safinae durur, zaroyif tuhafidin mashhun va bu zaroyif safinasi junge durur favoidi laolisi anda gunogun. Va lekin chun tab' daryosidin avval sohilg'a kelgan nafois durur va zihn shabistonidin avval jilvai zuhur qilg'on aroyis, bu jihatdin Sul-ton Badiuzzamon bahodir doma hayotuhu ayoqig'akim, saltanat bog'chasining avvalg'i vardi va xilofat chamanining burun qad chekkan sarvi nozparvardi durur, nisor qilildi va aqd izdivojig'a tortildikim, bu nasoyih ko'nglida qolg'ay va bu javohirni qulog'ig'a olg'ay..... 279

LXI. Xoja Muhammad Porsodin haj ahli duo istid'o qilmoq va o'g'li Xoja Abu Nasr aning istid'osi bila duo qilmoq ..... 289

LXII. Bu faqr kulbasini ajzu inkisor tufroqlarin chehra churuk somoni uza peshoni araqin oqizmoq bila kahgil etib, yuz ohu so'z bila suvamoqning itmomi va bu fano xirqasini za'fu iftiqor yamoqlarin kirpik sinuq ignasiga ashk uzun torin toqib, yuz darzdo'zliq bila yamamoqning ixtitomi va ul me'morliq xijolatidin uzr hujrasig'a yuz urmoq va bu xayyotliq uzridin xijolat yoqasig'a bosh yashurmoq va Haq ma'murai ehsonidin maskani afv tilamak va xazonai lutfidin xil'ati baxshish istamak ..... 291

LXIII. Ul qul hikoyatikim, ayog'i toyilib, ayog'luq oshini shohning boshi kosasig'a urdi va karamlig' shoh ollida o'z oshin pishurdi ..... 302

## FARHOD VA SHIRIN

(Nashrga tayyorlovchi S.G'aniyeva)

I. Bihamdik fathi avbob ul-maoni,  
Nasib et ko'ngluma fath o'lmak oni ..... 306

II. Bu shavq dostonining «alif»lari sarvqadlar bo'yidek sanubarvash va «lom»lari binafsha zulflar turrasi yanglig' dilkash erkoniga bois fehrastida Haq otidin tug'ro va debochasi Qayyumi Mutlaq sifoti bila mutarro erkonining bayoni ..... 307

III. Munojot insonning adam nihonxonasidin vujud koshonasig'a kelmakda adami ixtiyoridin nishona demak va vujud shohrohidin adam xobgohig'a bormoqda vujud iztiroridin fasona aytmog' va gunoh qilurda begunohlig'in devonavor da'vo qilmoq va devona zanjirin sog'ing'ondek bu devonalig' da'fin shar' silsilasi bila raf'i kulli qilib junun uzri uchun ahli hush silsilasig'a tortilmoq ..... 311

IV. Ul quyosh ruxsori vasfidakim, tun kibi gisu quyoshig'a soya soldi va «Vash shams» bila «Val layl» surasini aning yuz quyoshi bila zulfi tuniga o'xshatilg'onidin har biri bir biyik poya oldi, agarchi ul quyoshqa soya yo'q erdi va ul kechaga manzil quyosh ustida-o'q erdi. «Va sallallohu alo shamsi jamolihi va zilli kamolihi» ..... 315



V. Ul shahsuvor vasfidakim, qarong' u tunda tiyra xokdondin Buroqi barqvash uzra chiqqoni «Minaz-zulumoti ilan-nur» din muxbir erdi, balki ul rokibning pok zoti ostidag'i pok oti, bila «nurun alo nur» din xabar berdi va bu nurlar malakut shabistonini munavvar va malak bo'stonini rashki sipehri axzar qildi ..... 318

VI. Qalam vasfida bir necha qalam surmak va ul raqamkash ta'rifin raqamg'a keturmakki, nazm kishvari savodin yakqalama qilib erdi va «Panj ganj» avroqig'a gavharposh raqami tortilib erdi va ul roqim bobida hamki munung xatti ma'nisin raqam-baraqam bildi, balki qalam-baqalam naql qildi. «Bayyazallohu taolo avroqa jaroyimiho» ..... 323

VII. Hazrati shayxul-islomiy mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy (madda zillahu) madhidakim bu labtashnai vodiyi hayratqa muningdek ma'ni bodasining jomi aning himmati mayxonasining suvchilaridin dam-badam to'ldi va aning duosi piyolasining soqiylaridin labolab bo'ldi ..... 328

VIII. Bu parishon ajzoningki, guli otashin avroqidek dahr gulistoni bulbullarini hazordaston bila o'tluq faryodg'a soldi — bargidin shu'la va xurdasidin sharora ko'rguzmoqiga bois ne bo'lg'ong'a qalam surmak va bu oshufta avroqningki, charxi barin ajzosidek jahon dashti majnunlarini ming balog'a daston qilib so'znok fig'ong'a uchratti — shafaqidin yolin va axtaridin axgar yorutmog'ig'a mujib ne erkonna raqam urmoq va o'zin bulbuli Majnundek gulrux Laylisi firoqig'a solib g'am tog'ida Farhod bila hamovoz qilmoq ..... 330

IX. Bu iqbol varaqlarining muqobalasi va bu saodat tarhlarining mutorahasi va xayol bahrida maoniy tuhafi savdosi uchun masohat qilmoq va har fasona safinasin varaq-varaq, balki har tarix jungin safha-safha axtarib daryozada ajnosqa rad iligin urmoq va maoniy aqmishasi nafoyisin bu latofat hajlasi aroyisi uchun g'ayb tujjoridin hayot naqdin berib savdo qilmoq va jon rishtasi va kirpik ignasi bila libosi namoyish va xil'ati oroyish tikib bu abkor qadlarig'a solib jilva bermak ..... 337

X. Tezrav xomani mistar shohrohg'a kiyurmak va sodaro' noma maydonini shoh madhi ayturg'a kirpik bila supurmak, balki obdor nuktadin suv urub ul xomani maddohlardek bu maydong'a solib ma'raka tutmak va bu garm ma'raka birla har maddoheki, bir shoh uchun madh etib turur ma'rakasin sovutmak ..... 345

XI. Saltanat sipehrining mehri raxshandasi va xilofat tojining la'li duraxshandasi, jahonbonlig' jismining ruhi nozanini va kishvarsitonlig' aynining mardumaki jahonbini, olam xalqining rafei va zamon ahlining badei, ya'ni sulton Badiuzzamon Bahodir madhida: xalladallohu mulkahu va abbada davlatahu ..... 350

XII. Bu deboi chinii yuzin xitoyi soz naqshlar bila munaqqash qilmoq va ul xitoyi naqshlarni monuvii tiroz gullar bila dilkash bezamoq va bu guliston sahnida xoqoni Chin masnadi ehtishomin yoymoq va aning ehtishomi hadiqasi nasab guli va farzand mevasidin o'zga jami' azhor va favokih bila muzayyan erkonin aytmoq va dard bog'i g'unchasi va balo chamani shukufasi, ya'ni

shahzoda Farhodning adam shabistonidin vujud gulshanig'a kelgonin qalam  
bulbuli tilidin sayramoq..... 354

XIII. Shahzoda Farhodqa «Al-asmou tanzilum minas-samoi» hukmi  
bila ishq sipehri avjiddin nomdorliq nasib bo'lmoq va shavq gulshanida g'uncha  
erkonda guldek ko'nglaki chok, balki bulbuldek ko'ngli g'amnok bo'lmoq va dard  
muallimi maktabida ishq kutubin lafz-balafz, balki muhabbat avroqin harf-baharf  
o'qumoq va dilovarliq maydonida shijoat varzishini qilichdek tez etib o'qdek  
tuz etmak va zamon kinavarlaridin xuddek saromad va nayzadek sarafroz bo'lmoq..... 360

XIV. Farhodning shabob gulshanidakim, tarab gulbunining nishot gullari  
ochmoq mahali durur, dard xorlari ko'rguzmoki va bulbuldek shavq o'ti xorxoridin  
fig'on tuzmoki va xoqon bu ishtin g'unchadek diltang bo'lub, aning chorasi uchun  
to'rt bog' tarhin solg'oni va to'rt qasr bino qilg'onikim, shoyad bu bog'lardin  
maqsud guli topilg'ay va ul qasrlardin murod eshigi ochilg'oy ..... 367

XV. Mulkoroning to'rt ravzai Eram monand bila to'rt qasri falakpayvand  
imoratin to'rt ayirib har biriga Zuhalvash sarkor va Atorudson me'mor ta'yin  
qilib rub'i maskundek obodlig'ig'a mashg'ul bo'lg'oni va Farhodning ish tamoshosig'a  
kelib, ahli hunar san'atini tamosho qilib, Qorani sangtarosh ishiga yetishgach  
g'arobatidin fahmi teshasi ul ish idroki xorasidin kund bo'lub, quyosh mag'rib  
tog'ig'a mayl etgondek, aning xorosi ustiga tushub, metin tilidin so'z so'rub, xoro  
sadosidin javob topib, ul ish mayli mumdek ko'ngliga «Kan-naqshi fil-hajar»  
bo'lg'oni ..... 372

XVI. Farhodning Qoran bila xoro yo'narda muqorin bo'lub, balki ul oying  
bu Zuhal bila qiron qilmog'i va bu fanda anga sohibqironliq eshigi ochilmog'i  
va Moniy qalam mo'yidin tasvir fanin qalam-baqalam, balki mo'-bamo' bilmog'i va  
jamiy sanoyi' va hunar daqoyiqi aning ilgiga kelmog'i va to'rt yilda to'rt  
hadiqai Eram misol va to'rt qasri Xavarnaq timsolningkim, to'rt fasl muqtaziyoti  
rangi bilan bino qo'yulub erdi, itmomi va xoqonning alarni Farhodga musallam  
tutub, anda bazmi ishrat tuzarga ehtimomi ..... 381

XVII. Bahor nasimi nafas bila lola o'tin yorutub, g'uncha pardasin ochqonda,  
balki lolau gul yafrog'larin chaman gulruxlari boshig'a sochqonda xoqon Farhod  
bila gulnoriy qasr mayli qilib, gulgun may o'ti bila bazm ravshan etib, chaman  
rayohindin xoli bo'lub, ashjor xizrvash yafrog'lar bila sipehri axzardin namuna  
bo'lg'onda rayhoniy qasrda tarab bargin tuzotib, rohi rayhoniy ichib, daraxt yashil  
kisvatin za'faroniy hullalarga badal qilg'onda za'faroniy qasrda oltun sog'arg'a  
asfar may to'kub; day tojiri bog' libosin kofurkirdor qilib, balki tog'u  
sahrog'a kofurbor bo'lg'onda qasri kofuriy aro billurgun qadah ichra kofuriymizoj  
may no'sh etib, har hadiqada uch oy nishot qilib, bir yilni bu nav' tarab bila  
o'tkarib xoqon Farhodning mizojig'a iloj qila olmog'oni ..... 388

XVIII. Xoqonning xonlig' tojin o'z gavhari bila arjumandi sarmoya qilurning  
mojarosi va jahonbonliq taxtin o'z naqdi bila balandpoya etarning muddaosi  
va o'z qarig'onidin boshi oqorg'on sarguzashtin demoq va ko'zi adam uyqusig'a mayl

qilg'on afsonasin aytmoq va Farhodning toj soyasidin boshin qochurub, taxt poyasidin ayog'in yashurmoq va boshin xoqon taxti ayog'iga qo'yub uzr aytmog'i va uzri boshtin-ayoq xoqon ko'ngliga yoqib o'z so'zidin qaytqoni ..... 398

XIX. Xoqonning o'z gavharin xazoyin g'aroyibi, balki g'aroyib xazoyiniga kiyurmog'i va aning ko'ziga sangpora ushoq toshcha va qizil oltun qaro tufrog'cha ko'runmay, ko'zi jaz'i billuriy durig'a tushub, suvda mehri xovariydek billurda oyinai Iskandariyg'a tushgoni va ul ko'zgu tilismidin g'arib suratlar anga yuz ko'rguzub, ko'ngli ko'zgu aksidek iztirobg'a tushgani ..... 408

XX. Farhodqa Yunon mulki azimati jazm bo'lub, hikmat bila Mulkoroni chorlab, so'z kumaytini Yunon vodiysig'a solib, tilism muddaosin, balki muddao tilismin aning qoshida ochqoni va Mulkoro ani nasihat bila mumtane' qila olmay muddaosin xoqong'a arz qilib, bu muhlik so'zdin Xoqonning ruhi Farhodi badan Chinidin adam Yunonig'a yuzlangali yovushub, Mulkoro bila ko'p mashvarat qilg'ondin so'ngra Farhod bila Yunon mulkiga cherik tortib borurni muqarrar qilg'oni ..... 415

XXI. Xoqonning Farhod jihatidan Yunon mulkiga sipoh tortqoni va ul kishvar hukamosi aning gardi sipohidin ko'z yorutub, yorutqon ko'zlarin alarning oyinai ruxsori bila jilo bermoqlari va ul oy va quyoshning anjumkirdor hukamo anjumani bila Suhayloyi hakim g'orig'a bormoqlari va Suhaylo partavi iltifotin alar ahvolig'a solib, «Jomosp» ahkomi bila Farhodning balandaxtarliq mujdasin berib, Suqrot g'orig'acha manzil-bamanzil rahnamoyliq qilib, umri kavkabi ul tog'da g'urub qilg'oni va Farhodning ul kavkab partavi bila hayrat shomida yo'l boshqorg'oni ..... 421

XXII. Farhodning ajdahovash ko'hpaykariga minib ajdahokushlik tig'in chekib, ajdaho vodiysig'a kirib, ajdaho uni o'q yilonidin damor chiqarg'ondek ajdahoni o'q yiloni bila toru mor qilmog'i, dog'i ajdaho g'org'a yuzlangandek ajdaho g'orig'a yuzlanib, Afridun ganjini topmog'i va dog'i ul ganjda ajdaho monand qilich bila halqa urg'on yilondek qalqonni iliklab ul ganjni atosi bila xaylig'a nisor qilmog'i ..... 430

XXIII. Farhodning devbodxiromliq devzodi ustiga sekrib Ahraman beshasi azmig'a sekretib ul vahshatzoy, balki savdoafzoy beshag'a kirib, Ahraman manzilig'acha surub yetgoni va Rustam Mozandaron beshasida dev o'lturg'ondek ul besha Ahramanin qatl etgoni va Ahramanvash raxshin Ahraman qasrig'a surgoni va Sulaymon xotamin ilgiga kiyurgoni va yonib xoqon bila xaylin boshlab ul manzilda tushgoni ..... 439

XXIV. Farhodning Suqrot tog'i tilismin ocharg'a kamar bog'lab hayvonvash chashma tegrasidagi marg'zori azarda Xizr muloqotidin sarsabz bo'lg'oni va Xizr anga Xizri rah bo'lub g'am zulumatidin chiqorib, hayot suyidek ta'limlar bila toza hayot bergoni va g'am tilismi aning ko'nglidin ochilg'onidek aning tilismi g'amidin ko'ngli ochilg'oni va Xizrning jismi tilismida ravshan

ko'nglidek tilism jismida jomi jahonnamoy topqoni va ul jomg'a Xizr  
suyidek may solib Sikandar yodi bila no'sh etgoni..... 448

XXV. Farhodning Iskandar tilismin ochib, xoqon va Mulkoro bila Suqrot  
tog'ig'a azimat qilmog'i va ul tog'ning irtifo'da falakdin bosh o'tkarganidin  
sarguzashti aytmoq va tiyra g'orlarning har biri hijron tunidin savod  
ko'rguzganidin afsona demak va Farhod jomi jahonnamoda aqolimi sab'a  
mamolikin taqsim qilib Suqrot g'orin topqonidin yo'l ko'rguzmak va jom  
partavida yo'l ohangi qilmog'idin tarona tuzmak va alarg'a Suqrot gavhari tog'  
konida lome' bo'lub tilism mushkilin «koniyan minkon» ravshan qilmog'i va  
ul gavhari adam konig'a kirib bu sayrafiylar maqsudin gavharin iliklab  
qaytmoqlarin kayfiyatining aytilmog'i..... 455

XXVI. Farhodning Xoqon bila Chin azmig'a dashtpaymolig'i va Chinda yuz  
ko'rguzgan oyinai chiniy g'amidin shaydolg'i va ul ko'zguna tamosho qilg'och,  
Arman kishvari, balki Eram bog'i va Arman vodiysi, balki hayrat tog'i anga hulyai  
namoyish va jilvai oroyish qilmog'i va Shirinning jamoli ko'zgunsin ul ko'zgu  
jamolida mushohada qilib, oh urub yiqilg'oni va aning ohi ul ko'zgu yuzin  
tiyra qilg'oni..... 468

XXVII. Farhodning ishq shu'lasida kuyub ul o'tni jon pardasida yashurmoqdin  
va hajr xunobasin yutub ul zahrni ko'ngul ichinda singurmoqdin gulbargi  
ahmardek jamoli za'faroniy va naxli sanubardek niholi xayzaroniy bo'lub asr  
hukamosi va dahr atibbosi aning bahori sihhati xazoni marazg'a yuzlangonining  
tashxisini savdog'a qilib bu savdo bila aning maqomi ta'yinin jazoyir bila  
daryog'a qilg'onlari va bu daryo safari savdosidin anga sud istab nasiblari  
ziyonbud bo'lg'oni..... 476

XXVIII. Xoqon bila Farhodning sipehr tavsanidek xinglardin inib falak  
buxtisiidek junglarga minib Chin sipohining sabo xayli daryo yuziga chin solg'ondek  
bahr maydonig'a sabodek betahoshi kirmoqlari va muqavvas fulklar bila tiyrlari  
falak qavsi bila qazo o'qidin nishona ko'rguzmak va nahangvash jo'ng og'zi bila  
bodbonlar kafan pardasi bila go'r og'zidin fasona tuzmak va safoyin g'aroyibidin  
necha harfi aytmoq va amvoj navoyibidin necha naqshe tortmoq va sarsarning  
zolim sipohi daryo olamidin rustaxez chiqarib «va izal-bihoru fujjirat»  
tafsirin mavj xututidin bahr sahifasida sizmoq va ko'lokning nihoyatsiz  
tog'larining taoqubi «va izal-jibolu suyyirat» ma'nosin kema tiyri no'gi  
bila falak avroqig'a yozmoq va ko'prak falakvash kemani fano nahangi yutmoq  
va daryovash safinalar adam daryosi tubin tutmoq va Xoqonni daryo talotumi  
Mulkoro bila Chin mulkiga solmoq va Farhod ishq daryosida qolg'ondek ul  
xunxor bahr aro taxtapora uzra qolmoq..... 482

XXIX. Farhodning sinuq zavraq jismi zavraq sinuqida qolib ani daryo  
mavji Yaman mulki sari solib Yaman ahli kemasiga uchrag'oni va ul kema  
tojirlari aningdek durri garonmoya topqonlaridin sevunub ul bu minnat  
adosidin g'amg'a qolg'oni, dog'i jazoyir haromilari ul kema qasdin qilib tujjor

qurug' yerdagi balig'dek iztirobqa tushub, Farhod alarni nahang baliq xaylini qochurg'ondek biror shast kushodi bila qochurg'oni va suvda alarning zavraqi hayotiga o't urg'oni va Yaman bahridin kanora tutqoni va Suhayldek Yaman ahli ko'zin yorutqoni va Shopur anga daryoda oshno bo'lub, aning safhai zamiri nuqushin fahm qilg'oni ..... 491

XXX. Farhodning Shopur dashtpaymolig'i, balki rahnamolig'i bila Yaman mulkidin Arman kishvarig'a azimat qilg'oni va Armaning Eramoso sabza va rayohinidin g'unchadek ko'ngli gul-gul ochilg'oni va Armaniya tog'i kamarida xoro qozodurg'on el ajzin ko'rub ul kayfiyatini so'rub xoro qozorg'a kamar chust etgoni va bu xabarning chustu shirin Mihinbonu bila Shiringa yetgoni ..... 502

XXXI. Farhodning teshasi toshni pora-pora qilmog' bila tog' bag'rig'a kov-kov solg'on sadoni Shirin eshitgoni va quyosh tog'din tulu' qilg'ondek ul ko'hi balo sarvaqtig'a yetgoni va aning metini lam'asining barqi munung xorodek ko'ngliga asar etgoni va quyosh tufroqqa nur sochqondek ul xokiya mehr zohir qilg'och, aning tufrog'dog'ilardek o'zidin ketgoni va umri quyoshi boshig'a kelgach aning hayoti sham'i o'chg'oniga Shopurning sham'dek kuyub yig'lab boshig'a o't chiqorg'oni va o'lukni mahdg'a solg'ondek ul quyosh oni tufrog'din ko'tarib bihishtoso manzilg'a olib borg'oni ..... 512

XXXII. Farhodning madhush dimog'iga hush bog'idin nasim yetmak va nasimdek tebranib tog' sori azimat etmak va tesha bila tog' bag'rin yormoq, balki tog' poralarni havog'a uchurmoq bila qiyomat qo'parmoq va Shopur ani paydo qilib Shirinni aning g'ami ishq shaydo qilmoq va Shirinning ko'ngli xorasini aning teshasi fikri xarosh qilg'onin Mihinbonu ma'lum qilib, teshadek tafakkur boshin quyi solmoq va gohi diljo'yluq bila ul bedilg'a ko'ngul hermak, balki ko'nglin olmoq ..... 523

XXXIII. Farhodning ul tosh arig'in, balki arig' toshin qazib Armaniya tog'iga yetkurub ul tog' fazosida qasri qulla monand, balki asosi ko'hpayvand bino qilib itmomg'a yetkurgoni va «Bahr un-najot» havzin qasr ollinda metini xoroshikof bila namudor qilib ul havz va arig' atrofni safoda billurkirdor va jiloda oyinai chiniy davri bila dastasidin namudor qilg'oni va bu ariqqa suv ochmoq uchun abri bahoriydek ko'zlaridin ashkbor va durri ashkidin gavhar nisor qilib «Ayn ul-hayot» chashmasig'a yuzlangani ..... 528

XXXIV. Farhodning «Ayn ul-hayot» suyini «Bahr un-najot» havzi arig'ig'a ochib, ko'zidin ul chashma rashahotidek ashki rudin sochib, Armaniya sori xiromi va xaloyiqning ul arig' atrofida tamosho uchun g'avg'oyi omi va parivashning parikash devzodi po'yadin qolmoq va Farhod devonavor parikash bila parivashin egniga olmoq va Armaniya tog'i sori barqdek gom solmoq va falaki qadxamdek mehr ostida yugurmak va mehrni falak ayvonig'a yetkurmoq va junun bodpoyini qulla sori surmak ..... 536

XXXV. Mihinbonu bila Shirinning Farhodni firoq xoro kamari etagidin domangir bo'lub visol atlasini charxi haramida to'qquz parda ichra mahram qilib

ziyofat harir va hullalari uzra majlis tuzatmoqlari va o'n fanda o'n sohib kamol qizkim, asharai komila alar ta'rifidin ushri ashir bo'la olg'ay, aning qoshinda izhori fazl qilib o'zlarining qonidek, ya'ni yuzidek xijolat boshlarin quyi solmoqlari va Shirinning falak qasridin quyosh chiqqondek qasr hujrasidin chiqib mehri jamoli kavkabasi bila anjumanni ravshan qilmoqlig'i va Farhodi siyah sitora ollinda hiloliy jom aro shafaqgun may tutub, aning ishq'i bila ichib o'z ishq'i bila anga ichurub, bir-birining bodai ishqidin mast bo'lub yiqilg'onlari .... 543

XXXVI. Farhod bila Shirin may visolidin, balki visol mayidin birhol, balki behol bo'lg'onlari va charxi kabud, balki davri hasud soqiysi alarning aysh sog'ari, balki sog'ari ayshig'a zahri hirmon, balki behush doruyi hijron qo'shqoni va Xusravi Parvez Shirinning shakarlablar shohi erkanin bilib, visoli no'shin ko'ngliga shirin qilib, shirin maqol elchidin chuchuk so'zlar aytib yiborib, Shirin labi jullobidin kom orzusin shakarrez qilur muddao qilg'oni ..... 555

XXXVII. Xusrav elchisi Arman kishvarig'a yetgoni va Mihinbonu munhiylariga muddaosin zohir etib, Bonu ani ko'rarga bazmi saltanat qurg'oni va Hudhud Bilqis ollinda o'lturg'ondek rasulning Bonu qoshinda o'lturg'oni va Sulaymoni zamon risolatin qushlar tili bila arz qilg'oni va tovusni Anqo juftlug'ig'a so'z solg'oni va Bonuning bahona domin ochqoni va hiyla donasin sochqoni va ul ziyrak qushning bu dona va domdin ram qilib qochqoni va farog'bol hosil qilmay qahramonlig' Qofig'a ketgoni va ul Qof Anqosi bu ma'nidin g'azab minqori bila qahr changolin tez etgoni ..... 562

XXXVIII. Xusravning Shirin soridin kelgan talx javoblaridin achchig'lanib qalin sipoh chekib, Arman viloyatig'a sho'ru g'avg'o solg'oni va Mihinbonu Armaniya qo'rg'oninkim, har burji rif'atda sekizinchi hisorning o'n ikki burjidan bosh o'tkarib, har kungirasi to'qquzunchi hisn uchig'a xisht yetkurub erdi berkitgoni va Xusrav qal'a tegrasin evrularda Farhodni qayo ustida ko'rub tutmoq xayoli qilib Farhodning til xaroshi bila aning bag'rig'a nish sonchib, ko'ngliga tig' urmog'i va ilik toshi bila boshidin xudin va alami boshidin mahchasin uchurmog'i va Xusravning tug'i boshsiz va boshi xudsiz o'rdusig'a surmoki va cherigin qo'rg'on sori ko'churmoki ..... 570

XXXIX. Xusrav Farhodning qattig' toshidin pajmurda va qattiq so'zidin ozurda kelib, Buzurg Ummid bila ulug' chora umidig'a so'zlashib, lutfomiz alfozg'a qahr va shahdangiz kalomg'a zahr qotqoni va bu umid va biym maktubin rasuldin Mihinbonu sori uzotqoni va elchining shahdliq zahri shishasi qal'aning xorasidin usholg'oni, ya'ni Mihinbonuning xoradek mahkam javoblaridin ojiz qolg'oni, dog'i Xusrav Armaniya hisorin muhosara qilg'oni va qal'a darvozalari bog'lanib, xusumat eshiklari ochilg'oni ..... 577

XL. Xusrav qo'rg'onni qabab tushub davrida yana bir qo'rg'on egirgani va Armaniya qo'rg'oni arkdek Xusrav egirgan qal'aning davrig'a kirgoni va cherikning Farhod toshi qo'rqunchidin anga yovuy olmay ming qari yiroqdin tushganlari va Xusrav aning giristorlig'i bobida bir hiylagar topib so'z rishtasin tugushganlari

va ul hiylagar afsun rishtasi domin ochib tazvir ashki donasin sochib ul telba qushni giriftor qilg'oni, balki gul isi bila ul ishq bulbulining hushin uchurg'oni va Shopur sayyodni halok qilib, kamindag'ilar saydni eltib Xusravg'a tortqonlari .... 584

XXI. Farhodni ul xaylining Xusrav qoshig'a yetkurgoni va Xusrav aning boshidan-ayog'ig'acha salosil va ag'lol hukmi surgoni va Buzurg Ummid hikmat bila ul bandlarga muqayyad devona dimog'ig'a hush keturgoni va Xusrav hujjat yuzidin anga so'z qotqoni va Xusravning savoloti shishalarin javoblari xorolari bila ushotqoni va aning bu nav' qattiq so'zlari sangboronidin Xusravning ko'nglidog'i savollari shishasidek sinib aning qatlig'a jozim bo'lg'oni va ul muhlik so'zlari himoyati bila qatldin qutulg'oni ..... 592

XLII. Farhodni junun ahlidek pari silsilai ishq'i bila Salosil dev qo'rg'onig'a yiborganlari va nigahbonlar aning malakiysifat va farishtazotlig'in bilib qaydin itloqqa, badal qilib dasht yuzlari va tog' qullarida mutlaq ul-inon qilg'onlari va aning vuhush galasida po'ya qilib sibo' halqasida mo'ya qilmog'i va tuyur qatorida forig'ulbol bo'lub riyoh g'uborida parishon hol kezmoki va shom zillida g'urbati qaro kunin ravshan qilib subh ollida hajri shomi qarosin savod qilg'oni va quyoshda mehri o'tin yorutub bulutqa ishq havosida faryod bila ashki yomg'urini ko'rguzgoni ..... 604

XLIII. Farhod ro'zgorining qarolig'i, ya'ni hajr shomig'a muhtalolig'i va ul shom tuli nihoyatsizlig'ikim, adami iborat aning quyoshining ayni va subhining damidin bo'lg'ay va savodining g'oyatsizlig'ikim mavti kinoyat aning humumining qalbi va zulmatining etagidin bo'la olg'ay va mundoq tiyra tunda aning xasdek tanining kuymagikim, tutun ichra axgardin afsona aytur erdi va bu yanglig' qattig' kechada teshukluk bag'rining qong'a bo'yalmog'ikim, xora ichinda yoquti ahmardin nishona ko'rguzur erdi va mundoq tunni sham'dek gudoz bila sahariga yetkurgani va charxdek taku toz bila kunduzga kelturgani ..... 612

XLIV. Farhodning bandi ochilg'onin va zindondin kanora qilg'onin Xusrav bilib nigohbonlarga siyosat fikri qilib, yana Farhod ishq'i tog'ining tig'idin hisob olg'oni va ul ishni bilmasga solg'oni va Shirinning ishq ahli surud va simoidin aning marsiyasi navhasin istimo' qilg'oni va simo'da vajd ahlidek bexudona yiqilg'oni va Shopurning Farhod tirikligi xabarin Shiring'a hayot mujdasi yetkurgani va jonbaxsh damidin jonsiz jismig'a ruh kiyurgani va Shirin kirpikdin xoma murattab qilib hajr dudasi bila ashkidin qaro murakkab qilib noma raqam urub Shopur Farhod sori qadam urmog'i ..... 622

XLV. Shirinning nayi kilki shakarrezlik, balki sahifai kofuriga mushkbezlik qilg'oni va hajr qaro shomi mushkidin ro'zgori tiyra bo'lub ul royiha yabusatidin dimog'i za'li quvvatin va sudoi shiddatin va nomus pardalari nofasida ishq g'ammoz mushki isin nihon asramoq suubatin raqam urg'oni va Farhod o'qub aning sunbuli mushkinidek pechu tobdin esi ozg'oni va bexudona aning nomasig'a javob yozg'oni ..... 633

XLVI. Farhodning Shirin nomasi muqobalasida xoma uchun metin no'gidek tez etib, ul xoma bila varaq taxtasin metin xoro taxtasig'a tekkondek otashangez qilg'onini va pari afsunidin ajz zohir qilib, telbalardek o'zin itlar silsilasig'a tortib loba ko'rguzgonini pari paykar o'qub, parizadalardek iztirobqa tushub, ko'ngli qushi majnuni sori parvoz qilib, ani ko'rarga ko'zi uchqoni, balki majnuni uyqu xaylidek aning ko'zidin uchqoni..... 642

XLVII. Farhod ko'ngli jarohatlari Shirin nomasi navardidag'i kalomi Masihi Maryam, balki ul kog'azg'a chirmab yiborgan marhamlaridin o'ngalmoqqa yuz qo'yg'oni va Shirin bag'ri haroratlari Farhod bitigi mazmunidin, balki Maryam rishtasig'a chirmab yiborgan isitma ta'vizi afsunidin taskin topqoni va bu silsilai muhabbatni Shopur mutaharrik qilg'onin Xusrav anglab ani salosili mehnatqa tortqoni va Farhod halokig'a charx zolidek tadbir qilg'oni va aning umri zavoli tadbiri topilg'oni ..... 651

XLVIII. Zoli makkora, balki Farhodkushi xunxoraning tig'i zabonin tez etib, Farhod qatlini angez etgoni, dog'i ul tog' sori azimat etib, Farhod boshig'a ajaldek yetgoni va aning hayot qushi qasdig'a makr rishtasi domin ochib, tazvir ashki donasin sochqoni va jismi qafasin marg sangboroni bila sindurg'oni va umri bulbulin ul pora-pora qafasdin uchurg'oni ..... 658

XLIX. Farhodning umri xayli vujud mulkidin jalo bo'lg'oni va ul jalo parishonlig'idin ajal xaylig'a muftalo bo'lg'oni va hayoti yuz yoshurub, ya'ni aning yoti bo'lub umri quyoshi botib, ya'ni ul umr anga talx ko'runub qayo tig'i bila ko'ksin yorib, ko'ngli chokidin yillar yoshurg'on dardu anduh tikonlarin chiqarib bexudona afsonalar bila ko'nglin xoli etgoni va marg jomin paymona qilib navmidlig' ashki mayi ravon bo'lg'oni va ul fano bodasidin paymonasining to'lg'oni va ul paymonani ajal soqiylari ilgidin sipqora ichgoni va sog'olmas maydin jonon yodi bila mast bo'lub jonidin kechgoni ..... 664

L. Dahr evi bunyodsizlig'idakim, bir to'da tufrog'durur suv ichinda va charx gunbadi baqosizlig'idakim, bir mutaharrik hubobdurur suv ustida va bu obo va ummahot zodasidinki, inson bo'lg'ay — vafo imkoni yo'q muqtazosidin Xusrav bila Mihinbonu yarashqoni va qo'rg'onda qabalg'onlarning tog' va dashtqa butrashqoni va Shirin mizoji Farhod o'lumidin o'lum holiga yetgan uchun ani Armaniya tog'ining ravonoso fazosi va ruhafzo havosig'a yiborganlari ..... 680

LI. Quyoshni shafaqgun amoriyg'a solib falak qo'rg'onidin chiqorg'onda sahob monand amoriy zayli ochilmog'i va Sheruyani bir ko'rmoki zarradek sargashta qilmog'i va Sheruyag'a Shirin ona bo'lur vahmidin otasin o'lturg'oni va raxshi tamanno aning shabistonig'a surgoni va Shirin charbzabonlig' bila anga taskin berib, Farhod so'ngagin Armaniyadan kelturgani va o'z hamog'tushlig'i bila ul jismg'a ruh kiyurgani, yo'q-yo'qki, jismin aning jismig'a tegurganidek ruhini dog'i aning ruhig'a yetkurgani ..... 693

LII. Shirinning Farhod ishqida jon berganin bilib, Mihinbonu dog'i joni shirin tarkin qilib, bu holatda Bahromi dilovarning Chin mulkidin kelgani va



bu vaqoyi' vahshatidin yorug' jahong'a qarong'u go'rni tarjih qilg'oni va Sheruyai zolim amvalidin Farhod uchun raddi mazolim qilib, Armanda podshohi odil tayin etgani va Chin bila Mag'ribzamin cheriklariga ijozat berib qaytarib, o'zi zohir saltanati tarkin etgani va ma'naviy saltanatqa yetgani ..... 704

LIII. Saltanat shajarasining samarasi va xilofat bog'ining shajarasi, hidoyat avjida manzil etgan, tamalluqning nihoyatig'a yetgan, riyo qasri bunyodin qo'nqorg'on, balog'at ayvonida ot chiqorg'on, ya'ni sulton zodai olam Abulfavoris Shohg'arib Bahodir xallada davlatuhu madhida bir necha so'z surmak va nasihatimiz nuktalar arzg'a tegurmak, umid ulkim, bu shohvor durrlarni tufrog'din olg'ay va adosida quloq solg'ay, halki ul garonmoya gavharlarni quloqqa solg'ay ..... 717

LIV. Bu noma itmomig'a xoma tuzmakdin taronasozlig' va bu hangoma ixtitomida sa'y ko'rguzmakdin fasonapardozlig' va bashariyat iqtizosi bila hadsiz lof zohir qilmoqdinkim o'z nafyig'a «Lo»durur — uyolmoq va yarimchuq da'vo ko'rguzmakdinkim o'z man'ig'a «da»durur — xijolatqa qolmoq va bedilona ajzg'a tushmakdin g'oyatsiz izzat ko'rmoq va dilso'xtavor faqr ko'rgazmak bila nihoyatsiz farah topmoq, «Alhamdu lillohil-lazi vaffaqani min iftitohihi ilo ixtitomihi; va sallalohu alayhi va olihi va ashobi kiromihi» ..... 724

«Hayrat ul-abror»ning sharh va izohlari ..... 735

«Farhod va Shirin»ning sharh va izohlari ..... 759

UDK 821.512.133  
84 (5o')1  
N14  
BRK 84 (5o')1

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining  
Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti  
Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

Nashrga tayyorlovchilar:

Abduqodir Hayitmetov, Ibrohim Haqqul, Suyima G'aniyeva

Mas'ul muharrir  
Sayfiddin Rafiddinov

ISBN 978-9943-03-377-1

© G'afur G'ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi,  
2012-y.

*Adabiy-badiiy nashr*

ALISHER NAVOIY

To'la asarlar to'plami

*O'n jildlik*

*Oltinchi jild*

**XAMSA**

**Hayrar ul-abror**

**Farhod va Shirin**

Kitob bezaklari va maketini

*Anatoliy Bobrov va Shuhrat Mirfayozov tayyorladi*

Nashr uchun mas'ullar: *Laziz Tangriyev, Ilhom Zoyirov*

Muharrirlar: *Ma'suda Yo'ldosheva, Vahob Rahmonov*

Badiiy muharrir *Akrom Bahromov*

Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*

Sahifalovchilar: *Umida Valijonova, Akmal Sulaymonov*

Musahhihlar: *Dono To'ychiyeva, Fotima Ortiqova*

Nashr. lits. № 154. 14.08.09. Bosishga 09.03.2012-y.da ruxsat etildi.

Bichimi 70 x100  $\frac{1}{16}$ . Tayms garniturası. Ofset bosma.

65,46 shartli bosma tobog'i. 21,8 nashr tobog'i.

Adadi 3000 (1-zavod 2000) nusxa. 99 – 2011 raqamli shartnoma.

322 raqamli buyurtma. Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida  
chop etildi. 100128. Toshkent. Shayxontohur ko'chasi, 86.

**Bizning internet manzil: [www.iptdgulom.uz](http://www.iptdgulom.uz)**

**E-mail: [iptdgulom@sarkor.uz](mailto:iptdgulom@sarkor.uz)**

**Navoiy, Alisher.**

**Xamsa:** to'la asarlar to'plami: 10 jildlik / A.Navoiy; nashrga tayyorlovchilar: I.Haqqul; mas'ul muharrir S.Rafiddinov; O'zR FA. A.Navoiy nomidagi til va adabiyot in-ti. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. — 812 b.

**J.6 : Xamsa:** Hayrat ul-abror. Farhod va Shirin. — 812 b.

**BBK 84 (5o')1**